O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!”

**mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari**

## 3-qism. Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Farg‘ona, 2022-yil 20-yanvar

**O‘ZBEKISTON RESOUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

# “ILM-ZAKOVATIMIZ – SENGA, ONA-VATAN!”

## mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2022-yil 20-yanvar

## 3-qism. Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Farg‘ona – 2022

**“Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari.** 3-qism. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – Farg‘ona: FDU, 2022-yil

To‘plamdagi ma’lumotlar, raqamlar hamda manbalar to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

## Tashkiliy qo‘mita

**B.Sh. Shermuhammadov** – Farg‘ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor, tashkiliy qo‘mita raisi;

**I.I. Zokirov** – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, a‘zo;

**R.M. Shukurov** – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;

**P.S. Otaqulov** – Yoshlar masalalari va ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor v.v.b. , a‘zo;

**A.A. O‘rinov** – Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;

**Q.Sh. Kaxarov** – ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;

**O‘. Rajabov** – yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i, a’zo;

**X. Mamajonov –** iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo`limi boshlig‘i, a‘zo;

**D. Sultonov** – Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti, kotib.

## SO‘Z BOSHI

## ZIMMAMIZDA KELAJAK AVLODNI ILMLI QILIB TARBIYALASH MAS’ULIYATI TURIBDI

Bugun yoshlarimizni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy- umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish barchamizning bosh maqsadimizdir. Xususan, Farg‘ona davlat universitetida tahsil olayotgan o‘g‘il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish, jahon yoshlariga namuna bo‘lgudek go‘zal tarbiya va bilim berish, tashabbus va ilmiy intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida harakatdamiz.

Umuman, mamlakatimiz yoshlari tomonidan erishilayotgan ulkan yutuqlar zamirida Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida o‘z vazifasiga kirishgan davrdanoq yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida qaragani bilan baholash mumkin. Chunki jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosat aynan davlat rahbari jonkuyarligida yoshlar masalasidan boshlandi. Bu borada mamlakat yoshlari hayotiga katta o‘zgarishlar olib kirgan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yosh avlod taqdirida islohotlar debochasi sifatida tarixga muhrlandi.

Jumladan, Farg‘ona davlat universitetida yoshlar bilan ishlash, ularning iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarish, ilm-fanga bo‘lgan rag‘batini kuchaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘tgan bir yil ichida mazkur sa’y-harakatlar yangi bosqichga ko‘tarilganini e’tirof etishimiz lozim. Zotan, 15 ta fakultet, sirtqi ta’lim va magistratura bo‘limlariga jam bo‘lgan o‘ttiz mingdan ortiq talaba-yoshlar, 700 nafarga yaqin yosh olim-izlanuvchilar bilan ulkan marralarga intilayotgan o‘z qadriyatiga ega universitet yildan yilga taraqqiy etib, yoshlikka xos shijoat, hayotsevarlik, intiluvchanlik bilan evrilib bormoqda.

2021-yilda universitetimizning 51 nafar olimlari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan bo‘lsalar, ularning 30 nafardan ortig‘ini yosh olimlar tashkil etadi. Shuningdek, yoshlarga yaratilgan keng ko‘lamli imkoniyatlardan samarali foydalangan yuzlab yoshlarimiz xalqaro va respublika tanlovlari g‘oliblari bo‘lishdi. Birgina Jismoniy madaniyat fakultetida Osiyo va respublika chempionati sovrindori bo‘lgan talabalarimiz 23 nafarga ko‘paydi. Zootexniya fakultetining 11 nafar iqtidorli talabalari ilmiy innovatsiya yo‘nalishlarida grantlarni qo‘lga kiritishdi. Yosh filolog, matematik, fizik olimlarimizning iqtidorlari xalqaro anjumanlarda munosib e’tirof etilayotgani ana shunday samaralardan biridir. Jumladan, Farg‘ona davlat universiteti hamda Farg‘ona viloyati Yoshlar innovatsiya markazi hamkorligida joriy yilning noyabr hamda dekabr oylarida “TechnoWays Fergana” yoshlar texnologik rivojlanish marafoni tashkil etildi. Marafonning birinchi bosqichida Farg‘ona davlat universiteti yosh olimlari hamda talabalaridan tashkil topgan jamoalarning bugungi kunda dolzarb bo‘lgan 13 ta g‘oyasi tanlab olinib, akseleratsiya jarayoniga yo‘naltirildi. Hozirda ishtirokchilarga g‘oyalarini loyiha sifatida shakllantirishlari uchun amaliy yordamlar berilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2021-yil 22-27-noyabr kunlari tashkil etilgan “InnoWeek” haftaligida Fargʻona davlat universiteti yosh olimlar va iqtidorli talabalar ham oʻz ishlanmalari bilan ishtirok etdilar. Xususan, yosh olimlardan biologiya kafedrasi oʻqituvchilari S.Gʻulomov va O.A’zamov “Baliqchilik xoʻjaliklarida xosildorlikni oshirishga qaratilgan kompleks ishlar loyihasi” 200 mln soʻm qiymatda moliyalashtirildi. Raqamli ta’lim texnologiyalar markazi content-menejeri A.Sirojjidinov hamda markaz muhandis-dasturchisi M.Mirzarahimovlar “Metro bekatlari, jamoat bino va inshoatlarida havo vintelyatsiya tizimini avtomatik boshqarish va nazorat qilish  tizimini ishlab chiqish” loyihasi bilan, tabiiy fanlar fakulteti biologiya yoʻnalishi 3-kurs talabalari B.Usmonaliev va I.Muhammadrasulov “Agroservis” nomli ishlanmalari bilan, fizika fakulteti texnologik ta’lim yoʻnalishi 3-kurs talabasi M.Yakubjanova va chet tillari fakulteti ingiliz tili yoʻnalishi 3-kurs talabasi T.Abduvalieva “Elektr tokini oson oʻtkazuvchi siyoh” loyihalari bilan haftalik doirasida faol ishtirok etib, ekspertlar qiziqishiga sabab boʻldilar va vazirlikning tashakkurnomasi bilan taqdirlandilar.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, 2022-yildan mamlakatimizda 35 ta davlat oliy ta’lim muassasalari qatori Fargʻona davlat universitetiga ham moliyaviy va akademik mustaqillikning berilishi oliygoh hayotidagi muhim voqelik boʻldi. Mazkur ishonch zimmamizga katta mas’uliyat yuklash barobarida universitetimizning oʻz oldiga qoʻygan ezgu maqsadlari, xususan, ilmiy salohiyatni oshirish, talabalar uchun har tomonlama zamonaviy ta’lim olish sharoitlarini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlarimizni yanada jadallashtirish, bu borada mustaqil qarorlar qabul qilishimizga keng yoʻl ochdi.

Bu yil mamlakatimizda yoshlarning ilmiy faoliyatiga keng yoʻl ochishga qaratilgan e’tibor tufayli tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka ajratilgan kvotalar soni sezilarli darajada oshdi. Joriy yilda 58 nafar izlanuvchan yigit-qizlarimiz universitet tayanch doktorantlari sifatiga qabul qilindi.

Universitetda professor-oʻqituvchilarning iqtidorli talabalar bilan alohida rejalar asosida “Ustoz-shogird” tizimida olib borayotgan faoliyati natijasida ilm-fan bilan shugʻullanayotgan yoshlar, namunali oʻqiyotgan talabalar turli stipendiyalar, xalqaro va respublika fan olimpiadalari, tanlovlar hamda sport musobaqalari gʻoliblariga aylanishdi. Jumladan, 2020-yilda Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi 5 nafar (U.Rayimjonova, G.Tillaboeva, O.Sobirov, Z.Topvoldieva, M.Mirzaahmedov), Islom Karimov nomidagi stipendiya sohibi 1 nafar (M.Qurbonova)ni tashkil etgan boʻlsa, 2021-2022-oʻquv yilida esa bu koʻrsatkich 10 nafarga etdi. Ulardan 1 nafari Prezident va 9 nafari Davlat stipendiyalari tanlovining 1-bosqich gʻoliblariga aylanishgan.

Universitet tomonidan iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida Gʻanijon Abdurahmonov, Avliyoxon Muhammadiev, Tavakkal Qodirov, Jamol Karimov, Erkin Voxidov, Bobur Gʻaniev nomidagi universitet ichki nomdor stipendiyalari munosib talabalarga berib kelinmoqda.

Universitetda Respublika talabalar fan olimpiadasida yoshlarning ishtirok etishi va sovrinli oʻrinlarni egallashi ragʻbatlantirib boriladi. Jumladan, 2021-yilda 7 nafar talaba Respublika fan olimpiadasi gʻolibiga aylanishdi (A.Qodiraliev, H.Turgunboev, M.Asqarov, Z.Ismoilova, X.Jamolova, I.Farmanov, T.Haydarov).

Universitetda talabalarning boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish va ilmiy faoliyatga jalb etish maqsadida 56 ta fan va sport toʻgaraklari oʻz faoliyatini olib bormoqda. Ushbu toʻgaraklar 1120 dan ortiq sohaga qiziquvchi talaba yoshlarni qamrab olgan.

Yildan-yilga talabalar tomonidan nashr ko‘rsatkichlari ortib bormoqda. Jumladan, 2021-yilning o‘zida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarga hammualliflik - 27 ta, xalqoro jurnallarda chop etilgan maqolalar soni - 110 ta, Respublika jurnalarida - 542 ta, Xalqaro anjumanlarda - 289 ta va Respublika anjumanlarida - 786 marta talabalarning chiqish bo‘lgan hamda tezislari e’lon qilindi.

Ayni vaqtda talabalarning mustaqil ishlashi, ilmiy izlanish bilan shug‘ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida internet bilan ta’minlangan zamonaviy kompyuterlarga ega alohida yumshoq mebelli o‘rindiqlar, stollar, WiFi hududga yana bitta zal foydalanishga topshirildi. Farg‘ona tumanidagi o‘quv-tajriba agrouchastkasi, Oltiariq tumanidagi dala o‘quv maydonlari faoliyatini kuchaytirish borasidagi ishlar, universitetning barcha fakultetlarida bosqichma-bosqich olib borilayotgan bunyodkorlik sa’y-harakatlari yanada qizg‘in tus oldi.

Bunday bunyodkorlik ishlari to‘xtab qolgani yo‘q, va albatta, davom ettiriladi, zero, bugundan bunyod bo‘layotgan, ota-bobolarimiz asrlar davomida orzu qilib o‘tgan O‘zbekistonning faol yaratuvchilari, yashnatuvchilari va ertangi egalari ham shubhasiz yoshlardir.

**Bahodirjon Shermuhammadov**
**Farg‘ona davlat universiteti rektori,**
**pedagogika fanlari doktori, professor**

**M.M. Xamidov - Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti**

## O‘ZBEK XALQ KITOBLARIDA MASHRAB OBRAZI

Xalq nasri namunalarida turli rivoyat va qissalar orqali Boborahim Mashrab obrazi uning asarlari ilovasi bilan uyg‘unlikda yetib kelganligini ko‘ramiz. Ushbu nasr namunalari XX asr boshlarida “Qissai Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Shoh Mashrab”, “G‘azali eshoni shoh Mashrab”, “Eshon Mashrabi”, “Eshoni shoh Mashrab”, “Eshoni shoh Mashrab devonai Namangoniy”, “Muxammasi shoh Mashrab”, “Qissai shoh Mashrab” tarzda nomlangandir. Ushbu asarlarda turli avlodlar tomonidan og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqal topgan, aksar tarixiy haqiqatdan ko‘ra xalq tafakkuri, dunyoqarashining mahsuli sifatida tasvir va talqinini topgan Mashrab qiyofasi qabartma tarzda namoyon bo‘lgan. Ularda badiiy to‘qima ba’zan tarixiy haqiqatdan ustun kelgan holatlarni ko‘proq uchratamiz. Xalq kitoblaridagi Mashrab nuktadonligi, hozirjavobligi, fikriy chuqurligi bilan ustozlarini ham hayratga solgan shaxsdir. Masalan, 1886-yil 15-noyabrda Toshkentda chop etilgan nusxa asosidagi “Shoh Mashrab qissasi” (-Toshkent: “Sharq”, 1991)ga muqaddima yozgan Mahmud Hasaniy ushbu asarning muallifi noma’lum ekanligini, ba’zi olimlar Boborahim Mashrabga hamroh bo‘lgan Pirmat Setoriy yoki do‘sti Is’hoq Bog‘istoniy yozgan deb tahmin qilishlarini ta’kidlaydi. O‘zbek xalq dostonlariga o‘xshab ketadigan tasvir va ifoda yo‘siniga ega bo‘lgan asardagi Mashrab bilan bog‘liq voqealar uning tug‘ilishi bilan bog‘lanib, Balx shahrida Mahmudxon tomonidan dorga tortilishi bilan yakuniga yetadi.

1992-yil “Yozuvchi” nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Qissai Mashrab” asari voqealari Mashrabning “valiyi madarzod” ekani, Namangon shahrida tavallud topgani, aytgan baytlari oshiqonaligi to‘g‘risidagi fikrlar bilan boshlanadi.

Albatta “Shoh Mashrab qissasi”, “Qissai Mashrab” kabi xalq nasri namunalari Boborahim Mashrab hayoti va ijodiga oid tarixiy-biografik manba vazifasini bajarolmaydi. Lekin hassos, otashnafas ijodkor fikriy olami, dunyoqarashi, yashagan davri manzaralarini o‘zida aks ettirgan muhim o‘rinlar mavjudki, bu mazkur asarning ilmiy-amaliy ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatadi. Biz bu asarlarda o‘zi hayot paytidayoq dilbar ijodi hofizlarning sevimli qo‘shig‘iga aylangan, ajabtovur hayot yo‘liga ega sohibi ishq, ikki jahonga sig‘magan qalandar, aziz qadamjolar va muqaddas ostonalarni muttasil ziyorat qilib tikso‘zligi, g‘ayritabiiy tutimu odatlari bilan o‘zgalarni hayrat va muhabbatiga erishgan buzrukvor shoir qiyofasini ko‘ramiz. Mashrabning qozidan to podshohgacha, olimdan to obidgacha, o‘g‘ridan to dehqongacha bo‘lgan munosabatining qanday bo‘lishi uning haqqoniyligi, bilimdonligi, vafodorligi, xalqparvarligini qay darajadaligi bilan belgilanadi. Mashrab umrini haq va haqiqatga yetishish uchun sarflagan, buning uchun aziyat va malomatlarga o‘zini ongli ro‘baro etgan shaxs. U bu o‘tkinchi dunyoning soxta obro‘sidan, boyliklaridan, manmanliklaridan yuz o‘girgan, barcha nafratini soxtakorlik, razolat, zulm kabi ma’naviy tubanliklarga qarshi qaratgan, qolu holdan xabardor karomat sohibi.

Xalq nasrida Boborahim Mashrabdagi boshqalarni boshqara olishlik qobiliyati, o‘tda yonmasligi, suvda cho‘kmasligi, o‘zgalar ongini boshqara olish fazilatlari badiiy tasvirlar vositasida o‘z aksini topgan.

Ilmi holdin xabardor shaxs sifatida talqin qilingan va xalq nasriga jamlangan tarixiy rivoyat va hikoyatlar zamirida O‘rta Osiyo xalqlarining tarixiy folklor an’analari yotadiki, shu asosda afsonaviy, avliyosifat Mashrab qiyofasi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Og‘izdan og‘izga o‘tib, necha avlodlar tomonidan sayqallanib, ko‘plab to‘qima tafsilotlar bilan boyib borgan bu ijod namunalarida tarixiy haqiqat kurtaklari ham bo‘y berib turadi. Masalan, “Shoh Mashrab qissasi” va “Qissai Mashrab”dagi rivoyatlarda shoirning iti bilan bog‘liq voqealarni M.Jo‘rayev, S.Rafiddinov Qur’ondagi “Qahf” surasi syujeti bilan bog‘liqligini, bu rivoyat turli xil variantlarda O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalganligini, Abu Rayhon Beruniy “O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarida ham naql qilingani, dastlab Kichik Osiyo xalqlari folklorida milodning III-IV asrlarida paydo bo‘lgan va dastlab suriya-xristian agiografik adabiyotlarga, so‘ngra musulmon manbalariga kiritilganligini qayd etadilar. Shuningdek, M.Xasaniy “Shoh Mashrab qissasi”dagi Mashrab obrazi haqida “... Shoir mo‘jizakor avliyo, bilimdon, hozirjavob shoir, taqvodor, to‘g‘riso‘z, halol, pokiza inson, dunyo moli va huzur-halovatidan voz kechgan darvesh qalandar sifatida tasvirlagan. Mashrab adolatsizlik, nohaqlikka qarshi o‘z she’rlari bilan keskin kurash olib bordi, mazlum xalqni himoya qildi, butun umri shu oddiy xalq orasida o‘tdi” deya qayd etadi.

Har ikki asarda ham Boborahim Mashrab dinga da'vat etuvchi taqvodor shaxs sifatida talqin etilgan. U Kuntoji bilan uning xotiniga namoz ta'lim beradi, niyati g'usl o'rgatadi. Kuntojini islom diniga kiritadi. Iyla hokimi Kuntojining qizi Ofequs muhabbat izhorini "mundog' nozanin do'zax o'tida kuymagay... Shoyad bu qiz musulmon bo'lub doxil behishti anbor sirisht bo'lsa degan niyatda qiladi. Shu bois uning Ko'kshir yoylog'idagi biyobonda uch yuz tevasini uch yil davomida yomg'ir suvini ichib, giyohlarni ildizlarini yeb boqadi. Qiz ham buning evaziga kalima qaytarib, musulmon bo'ladi. Shuningdek, Mashrab Ofoq Hojam dargohida uch yil o'tin tashib, yana uch yil meshkda suv tashib, bir yil ostonasida yotib hech iltifot ko'rmagach ko'ngillariga dard keladi. O'zlarig'a aydilarki: "Ey Mashrab, bu dargohga kelganingg'a yetti yil bo'ldi, piring bir yo'l Mashrab dedi, yana bir yo'l Mashrab desalar, ishing tamom bo'lur erdi, kel emdi bir gunoh qilg'il".

Yuqoridagi voqealardan ko'rinadiki, tasavvufning malomatiya tariqati vakillari o'zlarini o'zlari ixtiyoriy malomatlarga, ta'na dashnomlarga duchor etib, azob-uqubatlar bilan haq vasliga yetmoqni maqsad qilganlar. Ma'lumki, Mansur Halloj malomatiya tariqatiga ixlos qilgan. Shu bois Ofoq Hojaning Mashrabdan Mansur Hallojning bo'yi kelayotganligini ta'kidlashi bejiz emas.

Xullas, xalq qissalarida Boborahim Mashrab o'ziga ixlosi baland kishilarni g'ayritabiiy qiliqlari bilan o'zidan zada qilishga, yiroqlashtirishga intiluvchi, inson ko'nglini har narsadan yuqori qo'yuvchi, tuproqni muqaddas biluvchi, uni e'zozlashga chaqiradigan shaxs sifatida tasvirlangan.

**L.U. Mahamadaliyev - Farg'ona davlat universiteti tarix fakulteti 3-kurs talabasi**
**N.M. Asadullayeva - Farg'ona davlat universiteti fuqarolik jamiyati kafedrasi o'qituvchisi**

## KORRUPSIYA-JAMIYAT TARAQQIYOTI KUSHANDASI

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan illat korrupsiyadir. Korrupsiya ko'p o'lchamli, tashqi va ichki sharoitga qarab tez o'zgaruvchandir. Shu sababli, korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha innovatsion yondashuvlarning rivojlanishini o'rganib borish ushbu sohaga qarshi kurashda juda muhimdir. SHu bois, tadqikot jarayonining ilk bosqichida korruptsiya muammosining tushunchasi va unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini aniqlashga hamda tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Hozirda korrupsiya tushunchasining umume'tirof etilgan yagona ta'rifi mavjud bo'lmasada, uning mohiyatini yoritish bo'yicha bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. Korruptsiya davlat boshqaruvida tizimli xavf xarakteriga ega hisoblanib, jamiyatda demokratiya va qonun ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, xufiyona idtisodiyot va boshqa shu kabi salbiy xodisalarning yuzaga kelishiga sharoit yaratib beradi. Shu bilan birga aholi o'rtasida davlat xokimiyatiga bo'lgan ishonchni yuqolishiga va obro'sizlanishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya - mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat turi bo'lib, xufiyona iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biridir. Ko'p hollarda korrupsiya deganda - davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida o'z mansab mavqeidan foydalanish, fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushunilib kelinadi. "Korrupsiya" so'zining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu termin lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, pora evaziga og'dirib olish, poraga sotilish, aynish kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida berilgan ta'rifga ko'ra, korrupsiya (lotincha "corruptio" - aynish, poraga sotilish) bu - siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy havfli xodisa, davlat funktsiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishidir.[1] Korrupsiya va unga qarshi kurashishni tadqiq etishda tadqiqotchilar ushbu tushunchalarning mazmunini ochib berishda turlicha yondashishgan. Korrupsiya iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab xodisa bo'lib, ko'plab davlatlar mansabdor shaxslar o'rtasidagi korrupsiyami kuchayib ketmasligini oldini olish maqsadida, kat'i jazo choralarini kullamokda. Ilm - fan doirasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning orasida eng

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

kuchli va asosiysi negizi hisoblanuvchi garb - yevropa yondashuvi bo'lib u BMTning Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasidagi tamoyillarga asoslanadi. Ushbu yondashuvning asosiy jixati shundaki, korrupsiyaga qarshi kurash choralari belgilangan Qonun hujjatining mavjudligi hamda unda davlat xizmatchisining pora olish va mulkni talon-toroj qilganligi uchun jazoning muqarrarligi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va uni boshqarishga bo'lgan ta'qiq, mansabga belgilashdan oldin raqobatning mavjudligi, xududdagi korxonalarga egalik qilmaslik, undan tashqari oila a'zolari muhim o'rin egallaydigan korxonalar bilan manfaat keltiruvchi aloqalarni o'rnatmaslik, yaqin qarindoshlari va o'zining daromad va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni deklaratsiyalash majburiyati ko'rsatilishi kabi komleks choralar aks ettiriladi[2]. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida mavjud korrupsiyaga qarshi kurash amaliyoti xorijiy davlatlar tajribasidan kuchli farq kilmasada, biroq, mamlakatimizga tatbiq etish mumkin bo'lgan vositalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan korruptsion jinoyatlarni sodir etgan shaxslar sud xukmiga asosan jazo choralari qo'llaniladi. Biroq, korrupsiyaga oid harakatlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash asosan tezkor tadbirlar orqali amalga oshirilishi tufayli, korruptsion jinoyatlar katta qismi lateng bo'lib qolmoqda. Hamda noqonuniy daromad orttirilganligini isbotlashga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, ularni xaqqoniyligini ta'minlash korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi organlarga bir qator qiyinchiliklar keltirib chiqarmokda. Yuqorida aks ettirilgan muammolarni qisqartirish va mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilarining noqonuniy daromad orttirishini aniqlash, ularga nisbatan profilaktik ishlarni olib borishga xizmat qiluvchi daromadlar, xarajatlar va mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga tatbiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi asosida, O'zbekiston Respublikasi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasini amaliyotga joriy etishda quyidagi ishlarni olib borish amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi navbatda, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomi, tashkilotning asosiy printsiplari va davlat xizmati tizimining faoliyatini tartibga solish, davlat xizmatchilari kadrlari tarkibini shakllantirish, tanlov asosida yollash, o'tkazish, faoliyatni baholash, xizmatdan bo'shatish masalalari, davlat xizmatchilarining ijtimoiy va pensiya ta'minotini hisobga olgan holda, xalol va fidokorona xizmatni moddiy va nomoddiy shaklda rag'batlantirish mexanizmlari, shuningdek, xizmat etikasi va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini o'zida aks etgan "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish protsessini jadallashtirish zarur.

**S.S. Evatov - Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD**
**M.X. Yusupov - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## NAJMIDDIN KUBRONING TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARI

Najmiddin Kubro yaratgan tasavvufiy-adabiy asarlarning xorijda saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari, nashrlari hamda yurtimizda mavjud qo'lyozma asarlari – «Usul al-ashara» (Tasavvufning o'n asosi), «Risola ilal hoim» (Malomat qiluvchining malomatidan qo'rquvchi oshiq risolasi), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol» (Jamol ifori va jalol kashfi), «Minhoj us-solikin va me'roj ut-tolibin» (Soliklar yo'lchirog'i va toliblar me'roji) asarlarini ilmiy tahlil qilish, hozirga qadar mazmun-mohiyati ko'pchilikka noma'lum bo'lib kelayotgan «Risola fil xalva» (Xilvat risolasi), «Irshod ut-tolibin» (Toliblar rahbari), «Odob us-so'fiya» (So'fiylar odobi), «Javobi no'h savol» (To'qqiz savolga javob), «Odob us-suluk ila Hazrati Malik il-mulk va Molik il-muluk» (Hazrati Mavloga sayrning odoblari) ham tasavvufiy-falsafiy g'oyalarni shakllanishiga doir muhim adabiyotlar qatoridan joy oladi. Shuningdek, O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan «Manoqibi Shayx Najmiddin Kubro» (7615/I inventar raqamli qo'lyozma), «Manqabati SHayxi Kabir» (2069/II inventar raqamli qo'lyozma) kabi xalq kitoblari, shuningdek Shayxi Valitarosh qalamiga mansub «Risolayi fil faqr» (2956/X va 10395/VIII inventar raqamli qo'lyozmalar), «Irshod ut-tolibin» (4613/VI inventar raqamli qo'lyozma), «Haft bobi SHayx Najmiddin Kubro dar odobi suluk» (9854/IX inventar raqamli qo'lyozma), Istanbul (Turkiya)ning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan «Tasavvuf haqida bir risola» (1395 inventar raqamli qo'lyozma)lari kabi ayrim qo'lyozma va risolalar ham muhim manba sifatida alohida o'ringan ega.

---

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.

Kubraviylik tariqatida nafsga insonning qalbiy kasalliklariga sabab bo‘luvchi, insonni turli mashg‘ulotlar bilan chalg‘itadigan illat deb qaralgan. Nafsni kuchaytiruvchi yomon axloqdan va hayvoniy orzularni yo‘qotish uchun lafzi jalolni, ya’ni Alloh lafzini zikr qilishga, «zikri mufrid» deyilgan. Mutasavvif nafs insonni dunyoga bog‘laydigan bir zanjir, deb hisoblaydi va insonning asosiy vazifasi nafsni mahv etib, o‘z irodasini chiniqtirib, ilohiylik kasb etishdan iborat deb hisoblagan. Nafsning tubanligini bilish - insonning o‘z-o‘zini, demakki, ilohiylikni anglashdir deb tushuntiradi:

Pinhon emas aslo - ichda bir dev bordir,
Boshini ko‘tarmogi uning dushvordir.
Iymonini ming martaba talhin hildim:
Ul asli azal muslim emas, kuffordir.

Najmiddin Kubroning tasavvuf falsafasidagi eng katta xizmatlaridan biri shuki, «Ofoq va anfus» nazariyasiga asos solganligidir. Insonning ruhiyatini va botiniy olamini chuqur etgan mutasavvifning mazkur nazariyasiga ko‘ra insoniy olam bilan ilohiy o‘zaro dialektik aloqadorlik kasb etadi. Mutasavvif insonga olami sug‘ro, olamga esa olami kubro deya ta’rif berib, insonda ilohiylik sifatlari ya’ni olami kubroning barcha xususiyatlari mavjud deydi.

Najmiddin Kubroning axloqiy qarashlarida dunyodan uzilishni xoxlagan, undan sog‘lom o‘tishni istagan kishi o‘z nafsi bilan birga quyidagilarni bajarishi kerakligi, ular insoniylikning asosi, xizmat va toat markazi hisoblanishini ta’kidlagan: «Halol (luqma) emoq, mahol (imkonsiz shi)ni tark etmoq, e’tiqod butunligi, sa’y- harakatda sodiqlik, o‘limga tayyor bo‘lish, qo‘ldan chiqqani jabiyra qilish, qabrga kirmay turib, o‘z qilmishlarini ko‘zdan kechirish, inson va inson bo‘lmaganlarga (g‘ayri insonlarga) til tek-kizmaslik, boshqalar aybidan ko‘z yumib, o‘z ayblarini kuzatish, og‘a-inilariga o‘git berishdan oldin o‘ziga nasihat qilish. Axloqni pokizalab, yurish-turishni o‘zgartirib, odamlar bilan murosayu madora qilish, tiriklar va o‘liklar haqida yomon so‘zlashdan tilini saqlash, yolg‘on aytishdan chetlanib, tilni rost gapirish va to‘g‘rilikka o‘rgatish, ezgu so‘zlar izhor qilishda barcha kuch va diqqatni ishga solish, sababsiz har ishga aralashishdan tiyilish, shuhratparastlikdan saqlanish, vaqtni bekorga o‘tkazmaslik, zarur bo‘lmagan holda (birovdan biror narsani) talab qilmaslik, odobsizlik qilganlar to‘g‘risida sukut saqlash, dunyoni bir tomonga qo‘yib, oxiratga tavajjuh qilish, xulq go‘zalligiga e’tibor berib, behuda so‘zlardan voz kechib, dunyo ro‘zasi va oxirat iftoridan umid qilish».

Najmiddin Kubro inson tabiatiga ko‘ra zaif, o‘zning nafsiga mag‘lub bo‘lishini inobatga olgan holda, chin va haqiqiy ixlos bilan g‘ayrat qilsa, maqsadiga etishishi mumkinligini e’tirof etadi: «Dunyoni ko‘r, unda sayr hil, ichiga kir, ammo dunyo sening ichingga kirmasin». Misol tariqasida yuqoridagi fikrni quyidagi fikrlar bilan asoslantirish mumkin. Masalan kema yo‘lovchilar bilan suv ustida tursa foydali, agar uning ichiga suv haddan tashqari suv kirsa, cho‘kib ketish ehtimoli bor. Xuddi shunday inson keragidan ortiq moddiy dunyo bilan bog‘lansa, uning halokati muqarrardir. Zero insonning botinidagi nafsni tarbiyalasmasdan komillikka erishish mumkin emas.

**M.U. Axmedova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## JOY NOMLARINING TARIXINI O‘RGANISHDA RIVOYAT, AFSONALARNING AHAMIYATI

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizning tarixi, madaniyati yanada chuqur o‘rganishga kirishildi. Shu bilan bir qatorda toponimika rivojiga ham alohida e’tibor qaratila boshladi.

2007-yil YUNESKO qaroriga binoan Marg‘ilon shahrining 2000 yillik tantanalari o‘tkazilgan bo‘lib, uning o‘tmishi chuqurroq o‘rganildi. Shu davrda Ko‘hna Marg‘ilonning dur-gavharlari tarix sahifalaridan topilaverdi.. O‘rganishlar natijasida, Qadimiy Xitoy yozma manbalarida Dovon(Farg‘ona)da Largi shahri keltirilgan, Xitoy olimlari ilmiy ishlarida bu shahar hozirgi Marg‘ilon shahriga to‘g‘ri keladi va bu ma’lumot shaharning 2700 yillik tarixga ega ekanligini isbotlaydi.

Astionimning kelib chiqishi haqida turli qarashlar, fikrlar mavjud. Biz esa hozir uning rivoyatlarga ulanib ketgan jihatlarini tahlil qilamiz. Bulardan biri sifatida Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” keltirilgan quyidagi rivoyatni oladigan bo‘lsak: “Ajoyib ul-buldon”da masturdirki. “Hazrati Iskandar zamonlarida aqsoyi sharqg‘a borg‘anlarida Farg‘ona yerida bir-ikki forisistondan muhojir bo‘lib kelib

o‘lturgan bechora, dehqoni bodiyanishinlar bor ekan. Podshohga arzi ahvol qilmoq bo‘lub, peshkash uchun non-u tuz o‘rnig‘a bisotlaridagi tovuqlarini pishirub, hazrati Iskandarga tutgan ekanlar. Anda hazrati Iskandar savol qilibturlarki, bu nimadur deb. Anda arz qilg‘uvchilar forsiy lafzda javob beribturlarki, murg‘-u non, ya’ni tovuq birlan non deganlar … Ammoki ahvolda Murg‘inon derlar, o‘shal tovuq ilan non turgan yerdur, Murg‘inon shahri ismi bo‘lub, Farg‘ona umumiy iqlimga ismdur”. Ushbu parcha xalq etimologiyasiga asoslangan bo‘lib, astionim etinonimi xususida aniq bir ilmiy yechim taqdim etolmasa-da, qadimdan mazkur o‘lkada dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklarining yuzaga kelishi, qolaversa, aholisining tili o‘z ifodasini topgan. Alalxusus, Podshoh Iskandar va “Murg‘inon” bilan bog‘liq ma’lumotlar nafaqat rivoyatlarda, balki tarixiy manbalarda ham o‘z ifodasini qoldirgan ko‘rinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Marg‘ilonni “Marg‘inon” nomi bilan tilga olgan bo‘lsa-da, uning zamondoshi bo‘lgan shoir Muhammad Solih o‘zining “Shayboniynoma” asarida Marg‘ilon shahrini Murg‘inon nomi bilan tilga oladi:

Murg‘inon shahriga yetti andin
Xasm ko‘nglini eritti andin
Murg‘inon, O‘shga erdi soni
Mahkam aylab erdi Tanbal oni

Sharq mumtoz adabiyotida Iskandar Zulqarnayn jasur, vafodor, sofdil, sadoqatli, rostgo‘y, tadbirkor bo‘lishi bilan birga ojizlarga yordam beruvchi, yaxshilarni yomonlarning hujumlaridan himoya qiluvchi, andishali, kamtar va saxiy pok qalb egasi sifatida tasvirlanadi.

Hazrat Podshoh Iskandar Iskandar Zulqarnaynning islomlashtirilgan obrazidir. Ularning tasavvurlariga ko‘ra, Podshoh Iskandar Xudoning sevgan bandasi, ya’ni valiy zotlardan biri bo‘lgan. Shu bois mozor oldidan otda o‘tib bo‘lmagan. Aks holda: “Mozorbuva, Xazrat Podshoh Iskandarga hurmatsizlik qilgan bo‘ladi”, - deb qaralgan. Qizig‘i shundaki, bunday nojo‘ya harakatlari uchun kishilar o‘sha joyning o‘zida falokatga uchrab, otdan uchib ketish, qoqilib yiqilish singari halokatlarga duchor bo‘lganlar. Bugungi kunga kelib mozor saqlanib qolmagan bo‘lsa ham, bunda doir turli rivoyat va afsonalar orqali saqlanib qolaveradi.

Marg‘ilonning nomining kelib chiqishi to‘g‘risidagi mazkur rivoyat faqat birinchi va oxirgisi bo‘lmay, balki u haqida mahalliy xalq orasida yana boshqa shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlar ham mavjud bo‘lgan. Olima A. K. Pisarchik 1938- yili Marg‘ilon shahrining me’moriy yodgorliklarini o‘rganish jarayonida, Marg‘ilon nomining kelib chiqishi to‘g‘risida quyidagi rivoyatni yozib olgan. Rivoyatga ko‘ra ushbu yerlardan Hazrati Ofoqxo‘ja Koshg‘arga o‘tib ketayotganida keksa ayol unga peshvoz chiqib, taom sifatida tovuq va non olib kelibdi. O‘shandan buyon shahar Murg‘inon deb atala boshlabdi.

N.G. Mallitskiy esa Marg‘ilon nomining kelib chiqishini Hazrat Alining Farg‘onaga kelishi bilan bog‘laydi. Albatta bu ikki rivoyat haqiqatdan yiroq bo‘lib, Ofoqxo‘ja XVIII asrda yashab o‘tgan bo‘lsa, Muhammad alayhissalomning amakivachchasi va kuyovi, choryorlardan biri Hazrat Ali ibn Abu Tolib (600-661) Karramallohu vajhahu (Allohning karami unga bo‘lsin) Farg‘onaga kelmagan.

Hazrat Alining biror payt Markaziy Osiyoga kelganligi to‘g‘risida hech qanday tarixiy shohidliklar mavjud emas. Aksincha, ushbu hududlarning arablar tomonidan istilo qilinishi va yerli aholining islom diniga kiritilishi Ali vafot etib ketgach yuz berganligi tarixan aniqdir. Shunday bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoning istalgan hududida sizga “Hazrat Alining oyog‘i tekkan qadamjoy”ni, albatta, ko‘rsatishadi va u bilan bog‘liq rivoyatlarda haqiqat va adolat yo‘lida jasorat ko‘rsatuvchi bahodir, mardlar shohi sifatida tasvirlanadi… Shu sababdan ham Marg‘ilon nomining kelib chiqishini Hazrat Ali bilan bog‘lashda aholining shu kabi qarashlari sabab bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa qilib aytganda, “Haqiqatdan tug‘ilar ba’zan afsona…” deyilganidek, joy nomlarining tarixini o‘rganishda afsona, rivoyatlarning o‘rni bo‘lakcha. Sababi har bir to‘qimada ham xalqning dunyoqarashi, e’tiqodi, turmush tarzi o‘z aksini topadi.

**S.M. Goipova - Andijan shahar 32-maktab o'qituvchisi**

## O'QUVCHILARGA CHET TILI GRAMMATIKASINI O'RGATISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Hozirgi kun ta'limi pedagoglar oldida o'quvchi – yoshlarga faqat bilim berish emas, bilim olish yo'llarini o'rgatish talabini qo'ymoqda. Bunday talabning mohiyati shundaki, o'quvchini maktabdan keyingi hayotga tayyorlab, o'z ustida muntazam ishlash, bilim doirasini kengaytirib borish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Chet til grammatik birliklari qiyinchilik tug'dirishi jihatidan uch toifaga bo'linadi: 1) sinfdan – sinfga o'tgan sari ular bo'yicha xatolar miqdori oshib boradiga eng murakkab grammatik hodisalar; 2) turli sinflarda xatolar miqdori har xil bo'lgan o'rtacha qiyin grammatik hodisalar; 3) nutqni egallash chog'ida xatolar uchramaydigan yoki hato miqdori kamayib boradigan grammatik hodisalar.

Maktab tajribasidan ma'lumki, ayrim hodisalar til tajribasining ijobiy ko'chishi munosabati bilan qiyinchiliksiz o'rganiladi. Masalan, otning ko'plikda qo'llanilishi, qaratqich kelishigining funksiyasi, predloglar ma'nosi va boshqalar. Muallimning eslatmasi (soddagina umumlashma - qoida) ko'magida xatosiz tez bartaraf etiladigan boshqa grammatik hodisalar ham mavjud. Biroq grammatik xatolar orasida shundaylari kuzatiladiki, ular turg'un ("yashovchan") bo'ladi va sinfdan – sinfga "ko'chib boradi". Ularni batafsil tushuntirish talab etiladi.[3]

Grammatik hodisalarni ko'nikmaga aylantirish chog'ida quyidagi guruhlar ajralib chiqadi: 1) leksik usulda o'rgatiladigan grammatik hodisalar2) leksika – grammatika darajasida o'rganiladiganlari; 3) grammatika – lekssika tarzida beriladiganlari; 4) sof grammatik hodisalar.

Grammatik minimumdagi o'quvchilar ona tiliga nomaqbul hodisa "artikl" ni o'rgatish o'ta murakkabligini muallimlar yaxshi bilishadi. Noaniq artikl o'quvchilar reproduktiv nutqida uch ma'noda qo'llanadi: 1) no'malum narsa (kimsa) ni ifodalashda; 2) sohadagi istalgan biror predmet (hodisa) ni ifodalashda; 3) shaxs / predmet kim / nima ekanligini ifodalashda. Eng qiyin grammatik hodisalarni o'rgatish albatta ongli mashq bajarish va qoidalar berishni taqozo etadi (bu to'rtinchi guruh birliklariga taaluqli). Engilroq grammatik birlikni o'zlashtirishda esa qoidasiz mashq bajariladi.

Chet til grammatikasini o'rgatish mazmuni uchta metodik mezonga ko'ra – ona tili va ikkinchi tildan to'plangan o'quvchi grammatik tajribasini hisobga olib, chet tilning o'zida yig'iladigan tajribaga asoslanib va grammatik hodisalar taqdimoti tratibini nazarga olib tanlanadi. Ushbu ilmiy mezonlar o'zbek maktablarida chet til grammatikasini o'rgatish masalalarini mukammal tadqiq etgan metodist olim T.Q. Sattorov qalamiga mansub. Uchinchi mezon bir oz izoh talab qilinadi. Avval inglizcha hozirgi (umumiy) zamonning birinchi va ikkinchi shaxslardagi shakli o'rganiladi. (chunki nutq mavzulari mazmuni "o'zim haqimda", "sen haqingda" va keyinchalik "u haqida " chet tilda og'zaki fikr yuritishni taqozo etadi). Soniyan, uchinchi shaxs birlik shakli mashq qilinadi. Ushbu fel shakli g'aoyat qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi: oldin o;rganilgan (speak, read, go) shakli (speaks, reads, goes) bilan muqobil assotisatsiyaga kiradi. Salbiy ta'sir oqibatida ikkala shakl chalkashtiriladi. O'quvchida oldingi shakllar ko'nikmasi o'rnashib qoladi. Natijada o'quvchi uchinchi shaxs qo'shimchasini tushurib qoldirib xatoga yo'l qo'yadi. Uchinchi shaxs birlik shakli grammatikani o'rgatish mazmuniga kiritiladi. Maktab sharoitida o'tkazilgan eksperiment chog'ida hozirgi umumiy zamon fe'lining uchinchi shaxs shakli birinchi navbatda o'rgatib ko'rildi. So'ngra boshqa shakl berildi. Natijada o'quvchilar uchinchi shaxs shakli (il parle, il écrit, il lit) ni birinchi va ikkinchi shaxslarga ham tatbiq eta boshlashdi. Oldin hosil bo'lgan ko'nikma yangisidan ustun turishi – bu yerda ham o'z oqibatini ko'rsatdi. Keltirilgan misolda grammatikaning taqdimoti tartibi hal qiluvchi vazifani o'tashi yaqqol o'z isbotini topdi.

Nutqiy faoliyatning turli bosqich va tashkiliy qisimlariga oid malakalarni shakllantirish uchun umumxizmat qiladigan metodlarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, grammatik malaka xorijiy tilda nutqiy muloqotning muhim qismi hisoblanadi. Biroq grammatik ko'nikmani hosil qilish muammosini to'liq yechimini topgani yo'q. Ayniqsa, maktab o'quvchilariga grammatik ko'nikmani berish o'zgacha uslub va pedagogik – psixologik yondashuvni talab qiladi. Bu

[3] J. Jalolov. "Chet tili o'qitish metodikasi"

muammoning yechimini topish vazifasi, uning nazariy va amaliy jihatdan hanuz tahlil qilinmaganligi ushbu mavzuni dolzarb ilmiy soha sifatida tanlashga undaydi.

Grammatika tizimining til o'zlashtirishda tutgan o'rni, uning nutqiy muloqot birliklarini tuzilishidagi yetakchi vazifasi doimo kuzatiladigan hodisadir. Mazmunli va barchaga tushunarli nutqni grammatikasiz, uning qonun – qoidalari amaliyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aytish kerakki, nutqiy faoliyat, nafaqat ma'lum birlik yoki tuzilmalarni yodda saqlab qolish va qo'llashdan, balki ularni ta'limning mobil nusxalari asosida hosil qilish hamda nutqiy vaziyatga moslashtirib ishlatishdan ham iboratdir. Shu sababali til o'rgatish jarayonida grammatik jihatdan barcha talablarga javob beradigan hamda mazmun jihatdan to'liq o'ziga xos mavhum modellarni ajratish ehtiyoji tug'iladi. Akademik L.Izerba til ta'limida Grammatik bilimning ahamiyati to'g'risida quyidagi fikrni bildirgan: "Tilimizni chegaralangan miqdordagi turg'unlashgan nutqiy birikmalar to'plamiga tenglashtirish noto'g'ri. Biz doim ilgari uchratmagan nutqiy tuzilmalarni eshitib, tushuncha olamiz yoki o'zimiz shunday tuzilmalarni hosil qilamiz.[4] Demak, azaldan ma'lum bo'lgan, lekin keyinchalik tanqid qilingan grammatika "so'zlash" ga o'rgatadi".

Chet tillarni o'rgatishda ma'lum bir grammatik qoidalarni tushintirish jarayonida yuqoridagi singari ta'lim usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Qolaversa, dars davomida ta'lim berishning bunday vositalaridan keng tarzda foydalanish o'quvchilarni tilga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

**Jumaeva Mukarrama Bekhzodovna, Jumaeva Mokhira Bekhzodovna –**
**Student of Samarkand state institute of foreign languages**

## INTEGRATED SKILLS IN WRITING PROCESS

"There is a strong relationship between oral language development
and expression and the ability to express oneself in writing".

It has been estimated that English is a absolutely foreign language in Uzbekistan. That is why, Uzbek students find difficulties in learning English. There is no way for them except trying to find out English if they need to adapt themselves in these period. The success of somebody in learning is usually supported by his willingness to find out a lot. Whereas today English is one among the most important speaking and learning, world language. Additionally to the present, the number of learners is increasing day by day. It is a explanation for importance of English in lifestyle. There are variety of things behind this:

- The rise in vocational learning and training throughout the planet, as education becomes less academic, and more practical and application-oriented;
- Students want their studies to steer to something useful;
- Economies and markets want to use people with vocational skills;
- The power to use English, is very helpful for students to explore the fields of science they study;
- With the excellent English skill, students can understand the contents of reference books, information from the internet, scientific journals and other sources of information that use English [4].

In addition, students need to prepare their English skill for their career in the future because the ability to use English can be a very useful thing in the competition they are going to face when finding a good job.

English subject for students with non-English majors are one among the themes that are considered difficult because most of scholars do not have an honest basics of English. The research on needs analysis for English to students is performed to seek out the aims of scholars to find out English, the aspects of English students want to find out , the aim of learning four English skills namely reading, writing, speaking, and listening, and therefore the difficulties students face when learning English.

[4] L.Izerba "Chet tili o'qitish grammatikasi" T. 2005

The traditional Western view of writing, from Aristotle down to the present day, has treated the written word as a visual substitute for the spoken word. Ferdinand de Saussure was the first thinker to provide this traditional assumption with a reasoned basis by incorporating it into a more general theory of signs. In the wake of Saussure’s work, modern linguistics has ignored or marginalized writing in favor of the study of speech. As in all literate societies, however, speech in turn is interpreted by reference to whatever writing system happens to be in general use. This puts in place an educational system which ensures that the more literate members of society maintain superiority over the less literate. Rethinking Writing argues that this scale of priorities obscures the fact that writing is a far more powerful mode of linguistic communication than speech ever could be [1].

Teachers spend a lot of time in class working on reading, writing, listening and speaking with their students. These skills are essential for effective communication and are the areas tested in many well known English language examinations.

We may work on a number of these skills within a single lesson, however, we often teach students to do them in isolation. If we want our learners to become successful communicators, we need to make the situations as authentic as possible inside the classroom [2].

To do this we need to use an integrated approach to language learning. Integrating skills can help students transfer skills, for example, if students have to read a blog post before writing their own they will become familiar with the structure and content which will help them write it.

It also allows you to vary your activities in class, creating a more engaging and motivating experience for students [5].

Group story writing

This game works well with all levels and can be used to write funny stories using the target language of your choice.

First, put students into groups (or if you have a small class do it all together). Hand out a piece of paper to each student.

Next, read a cue (see an example below) to the students and have them write a sentence at the top of the paper. They then fold the paper so their sentence is hidden and pass the paper to the person on their right. Each student should receive a new piece of paper each time they pass it on.

Continue until you have read all the cues. At the end of the game each student unfolds their piece of paper and reads it to the rest of their group. Make the activity more challenging by getting students to read the story and then retell it to the class without looking. They should then discuss the stories and decide which one they thought was best.

In order to integrate the language skills in ESL/EFL instruction, teachers should consider taking these steps:

- Learn more about the various ways to integrate language skills in the classroom (e.g., content-based, task-based, or a combination).
- Reflect on their current approach and evaluate the extent to which the skills are integrated.
- Choose instructional materials, textbooks, and technologies that promote the integration of listening, reading, speaking, and writing, as well as the associated skills of syntax, vocabulary, and so on.
- Even if a given course is labeled according to just one skill, remember that it is possible to integrate the other language skills through appropriate tasks.
- Teach language learning strategies and emphasize that a given strategy can often enhance performance in multiple skills [3].

Finally, I surely can say that the role of integrated skills in writing process which turn into practicing is extremely effective tool for teaching English subject as a second language and e-learning. Integrated skills made students interested and encourage their willingness of the students to eager to write the letter or essay of English. After researcher used this way for the students' it was successful to increase the score of the students. The results of the research indicates that students want to learn all aspects of language with the main skill they want to learn is writing. Then, the research concludes that their main difficulties when learning writing skills are limited vocabulary and insufficient understanding of grammar.

Our article is devoted to the method of integrated skills in the writing process of foreign language teaching, and we think it provides practical assistance to students who are learning English as a second language.

**References**

1. Foreign and Second Language Learning by William Littlewood.
2. Harris, Roy. 2000. Rethinking Writing. Boston: Allyn and Bacon, Inc.
3. How to incorporate integrated skills into the classroom by Gemma Considine, May 4, 2018.
4. Research Methods in Language Learning by David Nunan.
5. The importance of integrating skills in the teaching of English as a foreign language by Evelio Elias Orellana.

**M.U. Axmedova – FDU, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi**

## MARG'ILON NOMINING TARIXI TO'G'RISIDA OLIMLARIMIZNING O'TKAZGAN TADQIQOTLARI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOTLAR

Mustaqillik bizga tariximiz, o'zligimizni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini berdi. Shu munosabat bilan Vatanimizdan yetishib chiqqan olimlarning tavallud ayyomlari nishonlandi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bubur, Amir Temur kabi vatandoshlarimizning tug'ilgan kunlari mamlakatimiz bo'ykab keng miqyosda nishonlanadigan bo'ldi. Bundan tashqari Ko'hna Toshkent, Samarqand, Marg'ilon kabi ko'plab shaharlarning tarixi qaytadan o'rganildi. Biz hozir Marg'ilon shahri nomining kelib chiqish tarixi to'g'risida olib borilgan ayrim tadqiqot natijalari bilan tanishib chiqamiz.

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahri. Qariyb 2000 yildan ziyod tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyodagi qadimiy shaharlardan biri. "Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir"[1], - deganlaridek, biz ham Farg'ona marjoni – Marg'ilon haqida o'tmish ma'lumotlarni o'rganishga bel bog'ladik. Uning tarixini o'rganish orqali biz tariximizni, o'zligimizni o'rganamiz, anglaymiz.

Marg'ilon shahri miloddan avvalgi I va eramizning I asrining boshlarida Marg'ilonsoy havzasida sug'orma dehqonchilik madaniyati hamda Simtepa kabi shahar tipidagi qarorgohlar asosida paydo bo'lgan Marg'ilon shahri uzluksiz tarixga ega. Uning barpo bo'lgan vaqti aniq emas. X-XII asrlarda Marg'ilon yirik savdo markazi sifatida ma'lum bo'lgan.

Shu o'rinda astionimning kelib chiqishi haqidagi mutaxassislarning fikrini ham ko'rib chiqsak. Toponimshunos S.Qorayev bu astionimni marg' – "o'tloq", "ko'kalamzor" ma'nolari bilan bog'laydi. "Marg'ilon shahri va uning atroflari toponimiyasi" mavzusida izlanishlar olib borgan J. Latipovning fikriga qaraganda esa Marg'ilon astionimi "marg'i" etnonimi bilan aloqadordir . Etnonim tarkibidagi -i qo'shimchasi boshqa nomlarda ham uchraydi. Masalan, garchi – tog'lik (garch – tog'), sahroyi – cho'ldagi kishi kabi.

Z.Do'simov, X.Egamovlar ham olimning ushbu fikrlariga asoslangan holda astionim yozma manbalarda Marg'ilon, Marg'inot shaklida uchrashini bayon etish bilan bir qatorda uning tarkibidagi -on va -ot qo'shimchalari ko'plik belgisi hisoblanib, kishilar ishora qilishini, shuning uchun toponim marg'lar, ya'ni "o'tloqda yashovchi yoki chorvador" dagan ma'noni anglatishini ta'kidlaydilar.

A.Muhammadjonov tadqiqotlarida astionim tarkibiy qismi ikki morfemadan iborat tashkil topgan bo'lib (marg'(murg' // mardj) – on // lon yoki marg' (marg'i) – kon // jon), qadimda "Marg'ijon" yoki "Marg'ikon" shaklida talaffuz etilgan va "Yayloqsoy", ya'ni "ko'kalamzordan oqib o'tadigan suv" degan ma'nolarni bildirishi haqidagi fikrlarni o'rtaga tashlaydi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, astonim tarkibidagi marg' morfemasi tarixiy joy nomlari tarkibida faol qo'llanuvchi toponimik leksema sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu birlik bilan hosil qilingan geografik obyekt nomlari O'zbekiston toponimiyasida keng o'rin olgan. Bunga o'z navbatida asosi marg' leksemali Marg'zor, Martepa, Mag'zon, Marg'iqozi, Maymarg', Mardon, Marg'on, Marg'i Sharqiy singari yurtimiz toponimik tizimiga tegishli bir qancha nomlarni misol qilib keltirish mumkin. Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, mazkur leksema sug'diy tillarga mansub bo'lib, "Navoiy asarlari lug'ati"da marg' – o't, hayvonlar yeydigan o'simlik ma'nosida, "Muntahab ul-lug'ot"da marj – o'txo'r hayvonlar yuradigan joy, yaylov ma'nosida izohlanadi. Rus olimi E. Murzayev fikricha ham marg' birligi geografik termin hisoblanib, tojik tilida marg' – o'tzor, maysazor, tog' yonbag'ridagi ko'kalamzor joy, fors tilida marg' – chim, yaylov, ko'kalamzor joy ma'nosida qo'llanadi. Shuningdek, olim Namangan viloyatidagi Morguzar, biz tadqiq etayotgan Marg'ilon toponimlari hamda Murg'ob gidronimi tarkibiy qismi ham aynan mana shu

termin bilan hosil qilinganini ta’kidlab o‘tadi. T. Nafasov esa o‘zining “Qashqadaryo qishloqnomasi” nomli lug‘atida marg‘ leksemali voha toponimlarini tahlil qilish barobarida birlikning turli tillarga xos bo‘lgan bir qancha talqinlarini berib o‘tadi: tojik tilida marg‘ – o‘t, o‘t-o‘lang; o‘tloq, yaylov, o‘tloqcha. “Avesto”da marag‘a – o‘t, sug‘d tilida marg‘, manixey matnlarida marg‘ – o‘t, afg‘on tilida marg‘a – xashakbop o‘t, chim. Tojikiston joy nomlari tizimida marg‘ – marr // mar – o‘tloq, yaylov, o‘t-o‘langa boy joy. Shu bilan bir qatorda olim “marg‘” leksemasini qishloq nomlari majmuining tarkibiy qismi sifatida oykonim yasovchi maxsus so‘zlar (hozir ularning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlik maqomini yo‘qotib, qishloq nomining ajralmas qismiga aylangan, ma’nosi o‘qilmaydi, yangi nom yasalmaydi, qadimiy nomlar tarkibida qotib qolgan) guruhi sifatida tilga oladi va bu birlik bilan yasalgan Mag‘zon, Pomuq, Konimex, Marg‘ilon, Marmin, Marg‘zor singari joy nomlarini keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Marg‘ilon atamasi, “marg‘i” morfemasi asosida shakllangan bo‘lib, qolgan ma’lumotlar orqali biz Marg‘ilon shahrining nafaqat ilgarigi manzarasini haqida, balki bugungi kundagi iqlimi haqida ham ma’lumot olamiz. Ko‘rib turganimizdek, toponimikaning qiziqarli jihati shundaki, u bizlarga ham tilshunoslik, ham geografiya, ham tarix fanlaridan baravariga ma’lumot beradi.

**D.R. Turg‘unpo‘latov - Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi**

## YOZUVCHILIK - BUYUK ISTE’DOD

Dunyoda shoir-yozuvchilar ko‘p, ularning asarlari ham talaygina. Lekin ularning hammasi ham o‘qilavermaydi. Xuddi kutubxonadagi ba’zi bir kitoblarning qo‘lma-qo‘l bo‘lib yurishi-yu, ba’zi birlarining bir necha yil o‘qilmaganidan chang bosib yotishidek. Yangi yozilgan asarni qo‘lingizga olganingizdagi xursandchilik qanchalik yoqimli bo‘lsa, bosmaxonadan chiqishini kutishdagi gasht ham undanda yoqimli.

Shunday asarlar bor: yuragingizni shirin g‘ulg‘ula bosadi. Bu g‘ulg‘ulaning lazzatini faqat kitobxongina tushunadi. Shunday asarlar bor: voqealar rivojida asar qahramonlari bilan birga yashaysiz. Xursandchilik kunlariga sherik bo‘lasiz; yig‘lasalar yig‘laysiz, kulsalar kulasiz; g‘am-tashvish, qayg‘uli kunlariga hamdard bo‘lasiz. Asarning o‘qiy olmay qolgan qismini o‘ylab kechasi to‘lg‘onib chiqasiz... Lekin O‘tkir Hoshimov ta’biri bilan aytganda: “Yozuvchi o‘zi his qilgan hamma narsani to‘la-to‘kis qog‘ozga tushira olmaydi. Kitobxon qog‘ozga tushganlarning hammasini to‘la-to‘kis his qila olmaydi. Binobarin, kitob yozayotgan qalamkash hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchi hayajonidan o‘n karra kuchliroq bo‘ladi.

Asar o‘qiyotganingizda jinday tabassum qilsangiz, bilingki, o‘sha sahifalarni qalamkash rostmana kulib yozgan. Kitob o‘qiyotganingizda ko‘zingizga bir qatra yosh kelsa, bilingki, qalamkash o‘sha sahifalarni rostmana yig‘lab yozgan”.

Asar qahramonlari bilan birga yig‘lasangiz - bu sizning yutug‘ingiz: insoniy kechinmalar, his-tuyg‘ular sizda mavj urar ekan; asar qahramonlari bilan birga yig‘lasangiz - bu asar muallifining yutug‘i: sizga shunday vaziyatni tuhfa qila olibdi.

Bir asarni yaratishda muallif o‘sha narsa, voqea-hodisani, eng kamida, to‘liq tasavvur qila olishi kerak. Hayotiy qarashlar, yillar tajribasi, xalqni tili bilan aytganda “ko‘pni ko‘rish” - yozuvchilikda qo‘l keladigan omillardir. Bularsiz yozuvchi bo‘lib qolishiga ishonish qiyin. Albatta, hayotiy qarashlarini jamlay olgan, undan kerakli xulosalarni chiqara olgan insongina yozuvchilikka qo‘l urishi mumkin.

“Talantsiz yozuvchi tovuqqa o‘xshaydi. Yong‘oqdek tuxum tug‘adi-da, qaqog‘lab olamni buzadi!” - deb bejiz aytmagan yozuvchi ajdodlarimiz. Uch qator she’r yozib, u yog‘iga so‘z topa olmay turishdan yomoni yo‘q. Yozuvchilik ham shunday: yarim varoq yozilganidan keyin o‘ylanib qolib, davom ettira olmasa, unday insondan yozuvchi chiqmaydi. Buning uchun esa Alloh bergan iste'dod, ko‘ngliga solgan ilhom kerak.

Yozuvchini xalq tanishi uchun, avvalo, mahallasi, qishlog‘i tanishi kerak. Mahallasi tanimagan yozuvchining xalqi tanimaganidek, xalqi tanimagan yozuvchini jahon kitobxoni tanishi mumkin emas.

**S.S. Evatov - Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD**

## TASAVVUF TA'LIMOTINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Markaziy Osiyodagi tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar shunchaki bir yo'nalishning umumiy xususiyatini anglatuvchi ibora bo'lib qolmay, bu ta'limotlar olam va odam, tabiat va jamiyatdagi ma'lum bir masalalarni falsafa va tasavvuf doirasida tadqiq qilib borilishini nazarda tutib, uning ichiga yana muammo tahlili va metodologiyasini qamrab oladi. Tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar ikki o'rtadagi aniq chegaralarning yo'qolishi va asta-sekin uyg'unlashib ketish natijasida hosil bo'lgan g'oyalardir. Bu ta'limotlar Markaziy Osiyoda zohidlik davri (VIII-IX asrlar)dayoq aqidaviy-falsafiy oqimlar va mutakallimlar o'rtasidagi g'oyaviy kurash yoki vujudi vojib va vujudi mumkin ta'limotlari borasidagi tortishuvlar natijasida hosil bo'ldi. Markaziy Osiyo tasavvufi hanafiy mazhabi asosida shakllandi va mintaqadagi faqih, muhaddis va kalom ilmi ulamolari bir paytning o'zida manbalarda zohid bo'lganliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilganligini hisobga olsak, tasavvufda bu g'oyalar bevosita shakllangan, degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati, madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti an'analarini anglashda islomiy bilimlarning o'rni hamda ahamiyati beqiyos sanaladi. Bu masalada, ayniqsa, tasavvuf mohiyatini bilmasdan turib sharqona ijtimoiy taraqqiyotning sifat o'zgarishlarini bilib bo'lmaydi. Islom tasavvufi o'z tarixi, shakllanish va takomillashish jarayoniga ega bo'lib, uning rivojlanishiga oid tarixiy-madaniy asoslar ham o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

VII asrda Arab yarim orolida paydo bo'lib, tez orada boshqa hududlarga tarqagan islom dini insoniyat madaniy taraqqiyotida keskin burilishga sabab bo'ldi. U necha asrlardan buyon jaholat tuzumi hukmron bo'lgan jamiyat oldiga yangicha axloq mezonlarini qo'ydi. So'fiylik islom an'analari negizida yuksak insoniy fazilatlarni o'zida aks ettirgan bir yo'nalish sifatida paydo bo'lgan bo'lib, so'fiylik yo'li o'zligini dunyoning o'tkinchi hoyu-xavaslari, dabdalaridan ustun qo'yish bilan bir qatorda, o'z «nafs»larini barcha narsalardan xor tutib, unga qarshi kurashib, oxir oqibat uni engib chiqishga intilish harakati sifatida namoyon bo'ldi. Keyingi davrlarga o'tib tasavvuf birmuncha falsafiy jihatdan takomillashib, komil insonni shakllantiruvchi ma'lum bir bosqichlarni o'z ichiga oluvchi nazariy faoliyat sifatida tizimlashdi.

Tasavvuf tarixiy rivojlanish yo'lida bir necha davrlarni bosib o'tdi. Bu davrlashtirishni tadqiqotchilar turlicha tasniflarini ko'rsatishgan bo'lsada, xaligacha davrlashtirishning eng aniq varianti to'g'risida ohirgi to'xtamga kelinmagan. U. Turar, K. Yilmaz kabi turk tasavvufshunoslari uni quyidagicha: 1.Zuhd davri (VII-VIII), 2. Tasavvuf davri (IX-X), 3. Tariqatlar davri (XI asrdan keyin)ga bo'lganlar. O.Akimushkin esa buni quyidagicha davrlashtiradi: 1. IX-X asrlar. Tariqatning xol va maqom bilan bog'liq davri, 2. X-XII asrlar. Murshid va murid maktabi an'analari shakllangan davr. 3. XII asr oxiri. Ingliz olimi Trimingem esa quyidagicha davrlashtirgan: 1. Xonaqox davri (X-XII asrlar), 2. Tariqa davri (XIII-XIV asrlar), Toifa davri (XV asr). Eronlik olim R.Birinjkor esa tarixiy rivojlanish tasnifini quyidagicha keltiradi: 1. Zuhd davri (VII-VIII asrlar), 2. Xonaqohlar davri (VIII asr o'rtalari-IX asr boshlari), 3. Irfonning shakllanish davri (IX-XIII asrlar), 4. Nazariy Irfon davri (XIII-XIV asrlar), So'ngi davr (XV asrdan so'ng). Tadqiqotchi K.Rahimov o'zbek tasavvufshunos olimlari xulosalariga tayangan holda Markaziy Osiyo tasavvufi tarixini quyidagicha davrlashtiradi: 1. VIII-IX asrlar zohidlik davri. 2. IX-XI asrlar so'fiylik maktablari va oqimlari davri. 3. XII asrdan keyin so'fiylik tariqatlari davri.

VIII asr o'rtalariga kelib diniy, ijtimoiy, siyosiy va aqidaviy sabablarga ko'ra, shakllana boshlagan so'fiylik harakatlariga tegishli odamlarga nisbatan *so'fiy* so'zi qo'llanila boshladi. Bu so'zning etimologik kelib chiqishida juda ko'p qarashlar mavjud. Buyuk sharq mutafakkiri Xusayn Voiz Koshifiy «Unsul so'fiya» kitobida birinchi bo'lib so'fiy degan nomni olgan Odam Ato o'g'illaridan biri SHish edi, degan naqlni keltiradi. Boshqa tadqiqotchilar ilk bor so'fiy nomini Eronning Tus shahrida tug'ilib, keyinchalik Kufa shahrida yashagan Abu Xoshim Kufiy (vaf.776) nomi bilan bog'laydi. Tasavvuf tarixida birinchi taqa – xonaqoh esa bir nasroniy amir tomonidan Ramla shahrida Abu Hoshim uchun qurilgan edi. SHarqshunos A.D.Knish esa Kufalik taqvodorlarni iroqlik xristian rohiblarga taqlidan jundan to'qilgan kiyim kiyganliklarini sabab qilib ko'rsatadi.

Ingliz tasavvufshunos olimi Reynold Nikolson, so'fiylik harakati islomdan oldingi davrda ham mavjud bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan. Iqtisodiy og'ir hayot va nosog'lom turmush tarzi - darveshlik va asketik hayot tarzini shakllantiradi. Keyinchalik islom dinining shakllanishi va keng mintaqaga tarqalishi natijasida bunday harakat tizimlashtirilgan, nazariy jihatdan sayqallangan va tartibga solingan. Tasavvuf ta'limotining vujudga kelish davri ilk islom davriga to'g'ri kelsada, - deydi Bertels, uning to'liq shakllanish davri yaxlit ta'limot sifatida XIII asrgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, diniy-irfoniy g'oya va ta'limotlar zamirida shakllandi hamda qaror topdi. Bu davrda otashparastlik, buddaviylik, qadimgi yunon falsafasi va xristianlikdagi diniy g'oyalar ta'sirida shakllangan tasavvuf yaxlit ta'limot sifatida rivojlanishi islom ta'limoti va g'oyalari bilan uyg'unlashishi zaruriyatga aylandi. Ya'ni, islom ta'limoti asosida tasavvuf o'z aqidalarini shakllantirib, tartibga solib, IX-X asrlarda yaxlit tizim ta'limotiga aylandi.

Izlanishlarimiz davomida tasavvuf ta'limotlarining sof islom zamirida hanafiylik fiqhi asosi vujudga kelgan va rivojlangan degan ilmiy xulosaga keldik.

**D.R. Murodova - Fergana State University**

## MUSICAL ANALYSIS OF THE MELODY "DUTOR BAYOTI" WRITTEN BY N.VASILOV FOR DUTAR

In the creation of the form of music, the melody, harmony and rhythm that interact with each other are important among other means of expression.

Music is a musical thought expressed in one voice.

Any tune is like a wave. It is the subject of a musical thought that is more or less congenital.

The highest point of the ascent achieved by the ascent is called the peak. High tone is one of the most tense moments of this work. The peak is characterized by a high register, the accumulation of incorrect harmonies, the burning of dynamic signals.

The function of parts in a form

Each part of a musical work has its own task and function.

There are 6 functions in the form:

1) Preliminary description of the topic
2) Connecting part
3) The middle part of the work, development; processing parts of the main topic reprise, repetition of the main theme that comes after the development
4) Introduction to the main form or part of it

Conclude the main form or part of it, end.

The melody "Dutor bayoti" started by N.Vasilov is recorded in 2.4 scale. This work was written especially for the dutar gold instrument. The words of the Dutor instrument are composed in the first octave. The melody consists of main, auxiliary and development parts. Music speed is alegro moderato. The first two beats are played by the piano. The main theme is 6 bars in the beginning of the song. This work is mainly given to students of 3.4 grades of music school. Reverse percussion and thermal percussion lead the way.

After the main theme is performed, the auxiliary theme, consisting of 8 bars, is performed. The auxiliary theme is followed by a 4-stroke binding theme. The connecting thread connects the threads to the end of the string. The size of the clock does not change.

From the re note to the note, two themes begin with the jump of the quartet. the thermal beat is performed and the 4-stroke part is performed on the reverse beat. 2 After the theme, the 4-string connecting theme is repeated and goes to the main theme. 5 tactics of the auxiliary theme were used in thermal strikes. Exactly 5 pianists will join. And again, the binding thread is returned. The subject of the binding is followed by the part of the development.

This part is performed from the first octave to the second octave by the octave sacrum. The development part is the peak of the music. In 7 bars of this section, the note of the note is free. The progressive part of the work consists of 11 bars. This is separated from the themes that come in the form of

a square above. 3 topics consist of 8 bars. Dutor concludes with a binding theme. This work will help students to improve their right hand strokes.

In this music, the composer used styles to the best of his ability. The performing student learns more of the right hand strokes while learning this tune. Overall the music is very perfect and lightly written.

**А.К.Юсупова - доцент кафедры математики**
**Р.Б. Раимов - студент 4 курса направления МПМ**

## ТИПИЧНЫЕ ОШИБКИ УЧЕНИКОВ И МЕТОДИЧЕСКАЯ РАБОТА НАД ОШИБКАМИ

Для того чтобы систематизировать и квалифицировать ошибки, которые совершают обучающиеся в контрольных, самостоятельных и домашних работах, выделено 12 основных видов ошибок, благодаря которым можно понять основные причины появления затруднений.

Виды ошибок:

1. Решение даже не начато
2. Вычислительная ошибка в элементарном действии
3. Вычислительная ошибка в многошаговом действии
4. Установление неправильных связей между данными задачами
5. Неправильное понимание условий задачи
6. Ошибки при переписывании
7. Незнание алгоритмов математических действий
8. Неэквивалентные преобразования
9. Ошибки геометрических измерений
10. Незнание математических формул
11. Незнание законов арифметики
12. Логические ошибки

Все без исключения школьники совершают вычислительные ошибки. Для того чтобы снизить их количество в многошаговых арифметических действиях, необходимо обучать детей алгоритмам, которые позволяют разбивать сложные действия на более простые.

Однако для выделения элементарных действий предварительно следует установить уровень заданий, который будет доступен каждому обучающемуся. К такому уровню могут быть отнесены:

- вычитание/сложение однозначных или двузначных чисел без перехода единиц в старший разряд;
- вычитание однозначных или двузначных чисел при условии, что число единиц в соответствующем разряде уменьшаемого больше числа единиц в разряде вычитаемого;
- умножение однозначных чисел между собой и умножение на двузначные числа при условии, что последние остаются двузначными;
- деление однозначных чисел, а также деление двузначных чисел на однозначные, но при этом делитель является делителем числа единиц в каждом разряде.

Другие арифметические действия целесообразно разбивать на элементарные.

Достаточно сложными для детей являются текстовые задачи, так как они предполагают применение не только знаний, которые были получены на уроках, но и своего жизненного опыта. Наиболее распространенная ошибка – неиспользование части условия текстового задания. В целях исключения таких ошибок необходимо, чтобы дети обладали устойчивыми навыками по решению элементарных текстовых задач. При этом уровень сложности задачи не должен ставить обучающегося в безвыходное положение.

Что касается ошибок переписывания, то они в основном возникают в случаях, когда задания неинтересны обучающемуся. Как только они становятся значимыми для него, то количество ошибок при переписывании резко уменьшается.

В Заключении отметим, что для того чтобы снизить количество ошибок, связанных со сложением и вычитанием обыкновенных дробей, необходимо более детальное изучение типовых примеров решения данного вида задач.

**S.S. Evatov - Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD**
**M.Sh. O'ktamov - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## AHMAD YASSAVIYNING TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARI

Markaziy Osiyoda tasavvufiy g'oyalar va amallarni keng yoyilishiga sabab bo'lgan yassaviya tariqati va uning asoschisi Ahmad Yassaviy faoliyatiga doir «Mir'ot ul-qulub», «Nasabnoma», «Risola dar tarjimai Ahmad Yassaviy», «Hadiqat ul-orifin», «Javohir ul-abror», «Manba' ul-abhor», «Jomi' ul-murshidin», «Hujjat ul-abror», «Lamahot min nafahot il-quds», «Samarat ul-mashoyix» kabi tarixiy, manoqibiy xarakterdagi asarlar mavjud. So'fiy Muhammad Donishmandning «Mir'ot ul-qulub» asari Yassaviy haqida birlamchi qadimiy manba bo'lib, u shayx yashagan davrga nisbatan yaqin vaqtda yaratilganligi bilan e'tiborga molikdir. Chunki birinchidan, So'fiy Donishmand Yassaviyning yaqin xalifalaridan bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, u shariat (anglash yo'lidagi mashaqqatlar olovida yonish, otash), tariqat (Yaratganga muhabbat bilan yashash va unga intilish yo'li) va haqiqat (shavq, tiriklik mohiyatini anglab, hayotdan shavq olish, ya'ni Yaratganning mavjudligini ko'rish, his etishdan bahramand bo'lish) mavzulariga bag'ishlangan bu asarida Yassaviyning tasavvuf masalalariga doir qimmatli fikrlarini naql qiladi. Masalan, unda ulug' shayxning Haq visoliga etish uchun soliklar Mavlo buyurgan mazkur uch yo'lni bosib o'tishlari kerakligiga doir so'zlari keltirilgan. Shuningdek, unda haqiqat va tariqat maqomlari, ma'no, basirat, sabr, tavakkul kabi masalalarga doir Yassaviy fikrlari naql etilgan

Tasavvufni turkiy tilda sharhlagan Ahmad Yassaviy ham tariqat va shariatning o'zaro vobastaligini sodda va tushunarli tilda bayon qilgan. Bu haqida mutasavvif quyidagi mazmunda fikr bildirgan: Har kim qilsa tariqatni da'vosini, avval qadam shariatga qo'ymoq kerak. Shariatning ishlarini ado qilib, Andin so'ngra bu da'voni qilmoq kerak. Ahmad Yassaviyning ta'kidiga ko'ra, shariatni o'rganmasdan turib tariqatga qadam qo'yish mumkin emas, shariatsiz tariqat va tariqatsiz haqiqat yo'q. Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari yassaviylik, xojagon, kubraviylik tariqatlarining barchasida tariqat bosqichiga o'tishdan oldin shariatni o'zlashtirish talabi qo'yilgan. Tariqatga qadam qo'ygan odam shariatga suyanmasa, «shayton kelib» uning iymoniga chang soladi. Ammo tariqat yo'li og'ir va mashaqqatli, «Haqdan qochg'on nojinslar» bu yo'lda chidab bera olmaydi. Mutasavvif shoirning yuqoridagi fikrlari quyidagi to'rtlikda o'z aksini topgan.

Shariatdan murod - yo'lga kirmoq,
Tariqatdan murod - nafsdan kechmoq,
Haqiqatdan murod - jondan kechmoq,
Jondan kechmay ishq sharobin ichsa bo'lmas.

Ahmad Yassaviy ijodiga e'tibor berar ekanmiz, unda falsafaning umumnazariy muammolariga bag'ishlangan qator yo'nalishlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan mutasavvifning olam va odam, antropologik, ontologik, aksiologik, estetik, praksiologik, axloqiy, ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovordir. Ahmad Yassaviy tomonidan asoslangan yassaviylik tariqati g'oyalarida ham butun tirik mavjudot to'rtta kichik unsurlardan: suv, havo, olov va tuproqdan tashkil topgan. Insondagi barcha ijobiy fazilatlar va salbiy qiliqlar, odatlar ham o'sha to'rtta unsur bilan bog'liq bo'ladi. Olov va havoda do'zaxiy qiliqlar mavjud bo'lsa, suv va tuproqda jannatiy fazilatlar mujassam bo'ladi. Xususan, insondagi manmanlik, kibrlanish kabi qiliqlarning shakllanishida do'zaxiy olovning ta'siri bor. Olov insonni o'z ishqida kuydirib, Haqdan uzoqlashtiradi. Oxir-oqibatda bu «ishq» kibrlilikka olib keladi. Odamlardagi yengiltakliklar havo bilan bog'liq. Suv va tuproq o'zida ezgulikni birlashtiradi. Xuddi shuning uchun ham, insondagi eng yaxshi fazilatlar suv va tuproq bilan aloqador bo'ladi.

Mutasavvifning antropologik qarashlarida insonning yaratilishi, inson borlig'i va eng asosiy g'oya insonlarning tasnifiga e'tibor qaratilganidir. Ahmad Yassaviy insonlarni o'ziga xos tarzda tasnifini ishlab chiqadi. Bu tasnif quyidagicha:

- olim inson

- odil inson
- odobli inson
- hur inson
- ixlosli inson
- kamtarin inson
- komil inson
- oshiq inson

Yassaviyning inson borlig‘iga oid muammolarini tahlil qilganimizda, mutasavvif qarashlaridagi insonning dushmanlari haqida ilgari surgan fikrlari masalasi diqqatga sazovordir. Mutasavvif shoir qarashlarining muhim va ibratli xususiyatlaridan biri - insonning o‘ziga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarashi, o‘ziga nisbatan talabchanligi, murosasizligi bo‘lib hisoblanadi. Ahmad Yassaviyning fikricha, ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qiziq holat shundaki, insonning asosiy dushmanlarini Yassaviy tashqaridan ya’ni jamiyatdan emas, uning botinidan qidiradi va bularni nafs, kibr, riyo, yolg‘on deb ko‘rsatadi. Mutasavvifning fikricha, nafs buyuk dushman va balodir, nafs insonni ochko‘z, xudbin, shafqatsiz, egri yo‘lga boshlovchi va hirsga berilishiga olib keladi. Nafsning bitmas-tuganmas istaklari insonni Haqdan uzoqlashtiradi va shaytonga sherik qilib qo‘yadi.

**D.K. Haydarova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## O‘ZBEK XALQI MADANIYATIDA MULOQOT JARAYONI
## (T. Malikning “Shaytanat” asari misolida)

Azal-azaldan o‘zbek xalqi o‘zining mehmondo‘stligi, yaqinlariga mehr oqibatliligi, xushmuomilaligi bilan alohida ajralib turadi. Kishilar yaqinlarining boshiga og‘ir musibat tushganida ham, shodiyona yoki quvonchli kunlarida ham bir-birlarining ko‘nglini ko‘taruvchi, yupatuvchi, qutlov so‘zlarini muloqot jarayonida keng qo‘llaydilar. Aynan shu madaniy xususiyat taniqli adib T. Malikning o‘lmas asarida mahorat bilan ochib berilgan. BUnday so‘zlar mulozamat-manzirat leksikasi, ya’ni, iltifot ifodalovchi nutqiy birliklar deyiladi. Mulozamat-manzirat ifodalovchi shakllar kishilar o‘rtasidagi qarindoshlik, do‘stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlar fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi. Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B. Malinovtskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, mulozamat (manzirat) ko‘rsatish funktsiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha “gapirish” ma’nosini bildiradi, ba’zan uning o‘rnida “sotsiativ” so‘zi ham ishlatiladi. (O‘zbekning kundalik hayotini mulozamat-manzirat shakllarsiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, adib T. Malik ham o‘z qissasida bu hodisani mahorat bilan tasvirlab beradi. Chunki o‘zbekning nutqi bunday so‘zlarsiz jo‘n, rasmiy, hatto, qo‘pol bo‘lib qoladi. Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o‘rniga ko‘ra quydagicha tasniflash mumkin:

1. So‘rashish, ko‘rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari.
2. To‘y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.
3. Aza-motam yoki qayg‘uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari.
4. Nutqda doim iste’molda bo‘lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamat-manzirat shakllari.

Mulozamat-manzirat shakllarining ifodalanishini jinslar nisbatiga ko‘ra:

a) ayollarga xos mulozamat-manzirat shakllari;

b) erkaklarga xos mulozamat-manzirat shakllari;

c) ayollar va erkaklar nutqida birdek qo‘llanishda bo‘lgan neytral mazmundagi mulozamat-manzirat shakllariga ajratamiz.

Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanish sodir bo‘ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. Jumladan, ayollar nutqida mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so‘zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo‘lishini ta’minlaydi. Ayniqsa, o‘zbek ayoli bunday so‘zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Erkaklar nutqida esa bu holat birmuncha passiv amalga oshadi. Ammo „Shaytanat“ asari qahramonlari, aksariyat, erkak

jinsiga mansub boʻlganligi uchun ham bunday qatʼiy fikr aytishdan yiroqmiz, sababi, erkaklar nutqida ham mulozamat-manzirat shakllari yetarlicha oʻrin tutishini koʻramiz. Soʻrashish jarayoni, avvalo, salomlashishdan boshlanadi. Ayollar va erkaklar salomlashish tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Salomlashish turli ijtimoiy tabaqaga mansublikka, yashash murojaat shakllari (qishloq yoki shahar) ga, muayyan ruhiy holatga, kim bilan soʻrashayotganiga koʻra, shuningdek boshqa muloqot vaziyatlariga qarab ham turlicha amalga oshirilishi ham mumkin. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalaniladi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki koʻrishishlarida ham oʻzaro katta farq bor. Eng avvalo, salomlashish turlari haqida gapirar ekanmiz, erkaklarning erkaklar bilan salomlashishi hamda erkaklarning ayollar bilan salomlashishini alohida guruhga ajratamiz. Misol tariqasida: *Jamshid oʻzbeklarga xos lutf bilan salom berib, „Siz falonchi akamisiz?“, „Sizni falonchi aka yoʻqlayaptilar“ deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya ochilib, Elchin koʻrinishi bilan „Sizni Bek aka chaqiryaptilar“ dedi-yu mashinasi tomon yurdi.* (2-kitob, 34-b.) – *Ogʻayni tanishib olaylik, ismingiz nima edi? – Elchin yigitni avval yaxshi tanigan-u, shu damda ismini unutib qoʻygandan soʻradi. (2-kitob, 35-b.) – Keyin… keyin, bir gap boʻlar… - Elchin shunday deb, xayrlashish uchun qoʻl uzatdi.* (2-kitob, 155-b.) *Asadbek ulardan hech mahal hol-ahvol soʻramasdi. Ikki oyoqda yuribsanmi bas, ahvoling yaxshi, derdi. Shuning barobarida birovning hol soʻrashini ham yoqtirmas edi. Tobi qochib qolgan kezlari uni odatini bilmagan odam: „Tuzukmisiz?“ deb soʻrasa, „Ha oʻlishim kerakmidi?“ degan shirin javobni eshitardi.* (2-kitob, 165-b)[5]

Misollardan maʼlum boʻladiki, erkaklar oʻzaro salomlashganda, koʻrishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yoʻqligi erkaklar salomlashishidagi oʻziga xoslikni belgilaydi. Erkaklar oʻzaro soʻrashishganda ham muayyan muloqot meʼyorlariga amal qiladilar. Misol tariqasida *assalomu alykum, salom berdik, salomlar boʻlsin, yaxshimisiz, omonmisiz, qalaysan, bormisan, o kimni koʻryapman* kabi birliklarni keltirishimiz mumkin. Erkaklar bilan ayollar soʻrashishlari haqida toʻxtaladigan boʻlsak, bu jarayon ham oʻzbeklarga xos odob-ahloq qoidalariga qatʼiy rioya etilgan holda boʻlib qoladi. Ayollarning oʻzaro salomlashishlari – bu alohida mavzuiy giruh boʻlib. oʻzbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini taʼkidlashimiz zarur. Biroq asar bayonida bosh qahramonlar erkaklar boʻlgani uchun asosiy eʼtibor ularning murojaat shakllariga qaratilgan. Ayollarda bu nutqiy vaziyat quyidagi hollarda uchraydi: Hozir oshxona ostonasini hatlab chiqdi-yu, qoʻrquvdan pirpirayotgan koʻzlarini eriga tikib, salom berdi. Soʻng: - Yaxshi keldingizmi, adasi, - dedi. Bu gapni ozgina eshitdi. Qoʻrqibgina, astagina aytilgan soʻzlar havoga singib ketdi. (2-kitob, 121-b._ - Menman, oyi, assalomu alaykum. – Voy, bolaginamdan aylanay, kelgan boʻlsan oʻrgilay, eson-omongina keldingmi, jon bolam, - u shunday deb turmoqchi boʻldi. (2-kitob, 145-b.)[6]

Soʻrashish jarayonining keying bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarining hol ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, oʻzbek ayollari oʻzaro uzoq soʻrashadilar. Nutqimizda turgʻun boʻlib qolgan soʻrashish qurilmalaridan yozuvchi ham unumli foydalanadi. Masalan: *esonmisiz, omonmisiz, bormisiz, yaxshimisiz, sogʻ-omongina yuribsizmi, bardam-baquvvatmisiz,* (yoki boshqa oila aʼzolari soʻraladi, baʼzan ularning ismi aytib soʻraladi) *yaxshimilar, yaxshi yuribdilarmi, yaxshi boʻlib qoldingizmi, opoq boʻlib qoldingizmi, uychilar tinchmi* kabi. Bu birliklar asar qahramonlarining nutqining hayotiyligini taʼminlashga xizmat qiladi. Bunday nutqiy birliklardan mahorat bilan unumli foydalangan adibning yutugʻi ham aynan shunda, deb oʻylaymiz. Oʻz navbatida, ayollarning soʻrashish vaziyati mavzuiy guruhlari ayollarning ayollar bilan koʻrishishlari, ayollarning erkaklar bilan koʻrishishlari kabi ikki kata guruhga ajratiladi. Ayollarning ayollar bilan salomlashish, soʻrashishi, koʻrishish yoki xayrlashish nutqiy vaziyatida qoʻllovchi birliklar ayollarning erkaklar bilan koʻrishganda yoki salomlashganda qoʻllaydigan birliklaridan farq qiladi. Toʻy-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllarini oʻrganar ekanmiz, ularning ham erkaklarning hamda ayollarning shunday nutqiy vaziyatda qoʻllovchi birliklarini alohida ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, asar matnida turli murojaat shakllari uchraydigan situativ vaziyatlar erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalarining oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

---

[5] T. Malik. «Shaytanat” romani. 2-kitob, Toshkent, 1995.
[6] T. Malik. “Shaytanat” romani. 2-kitob, Toshkent. 1995.

**Sh.M. Tairov - Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi**

## HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASINING MOHIYATI, INSON FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI

Tabiat hodisalaridan biri bo'lgan, so'nggi yillardagi yer yuzining global ishi bilan bog'liq bo'lgan iqlim o'zgarishi natijasida dunyoning qator mintaqalarida tabiiy ofatlarni ro'y berishda o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, Yevropadagi bulturgi yog'ingarchilik ko'p bo'lishi natijasida mintaqada joylashgan ko'pgina mamlakatlarda, Rossiyaning janubiy qismlarida, Xitoy Xalq Respublikasida kuchli suv toshqinlari bo'lib o'tdi. Bu minglab kishilarning uy-joylariga katta moddiy zarar yetkazish bilan birga, aholi hayot muvozanatining buzilishiga olib keldi. Eng ayanchlisi ofatlar oqibatida yuzlab kishilar qurbon bo'ldi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda 838-839-yillarda Farg'onada, 942-yilda Buxoroda, 1208-1209-yillarda Urganchda, 1490-yilda Samarqandda, 1494-yilda Namanganda, 1620- yilda Axsikentda, 1821-1822-yillarda Buxoro va Samarqand yaqinida talofatli zilzilalar bo'lib o'tgan. Ularning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Axsikent zilzilasi – 1620-yilda Namanganda 5-15 km janubiy-g'arbida sodir bo'lgan kuchli zilzila. U qadimiy shahar Axsikentni to'la vayronaga aylantirgan. Shahar keyin tiklanmagan. Hozirda ayrim arxeologik qoldiqlar saqlangan, xolos.

Andijon zilzilasi. Andijonda 1902-yili sodir bo'lgan 9-10 ballik zilzila xalqimiz boshiga tushgan eng qora kunlar va ayanchli voqealarga sabab bo'ldi. Zilzila tufayli o'sha paytdagi shahardan nishona qolmadi. Mingminglab odamlarning yostig'ini quritdi.

Toshkent zilzilasi. Ko'pchilik yurtdoshlarimizning yodida qolgan yer qimirlashi – 1966-yilning 26-aprelida ro'y bergan Toshkent zilzilasidir. Bu zilzila Respublikamiz uchun, millatimiz uchun nihoyatda ayanchli tarixiy voqea hisoblanadi. Zilziladan qurbon bo'lganlar soni bor-yo'g'i 4-5 kishini tashkil etgani holda, shaharning juda ko'p uylariga jiddiy zarar yetdi. Ming-minglab odamlar boshpanasiz qoldi.

Favqulloda vaziyatlar hodisalaridan yana biri, bu yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan texnik vositalarning avariya holatlariga tushishi va unda kishilarni bevaqt hayotdan ko'z yumishlari odamzodni tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Masalan, Nigeriya, Rossiya, Eron, Germaniya, Ukraina, Keniya va boshqa mamlakatlarda sodir bo'lgan aviahalokatlar minglab insonlar hayotiga zomin bo'ldi. Shulardan, 25-mayda Tayvan poytaxti aeroportidan Gonkonga uchgan bortida 225 kishi bo'lgan «Boing-747» samolyotining halokatga uchrashi, yoki 27-iyul kuni Ukrainaning Lvov shahri chekkasida o'tkazilgan aviashou vaqtida «Su-27» qiruvchi harbiy samolyotning va unda 69 kishining jarohat olishi hamda 76 kishini qurbon berilishi inson qalbini larzaga solmasdan kuymaydi.

Albatta, bunday misollarni dunyo bo'yicha yuzlab, minglab misollarda keltirishimiz mumkin. Ayniqsa jamiyatlar, davlatlar o'rtasidagi tasodiflarda ham, minglab kishilarning hayoti so'nib kelmoqda. Bu ikkinchi jahon urushi, Afg'oniston, Iroq, Sobiq Yugoslaviya va boshqa davlatlardagi vaziyatlar, terrorizm o'choqlari, ayniqsa Amerikadagi, Isroil va Falastin davlatlaridagi, Rossiyadagi Checheniston va Gruziyada bo'lgan hodisalar misol bo'la oladi.

Jahon hamjamiyati 2005-yilning yanvar oyida Yaponiyaning Kobi shahrida bo'lib o'tgan va tabiiy ofatlar tahlikasini kamaytirishga qaratilgan anjumanda maxsus deklaratsiyani qabul qildi. Xuyugo deklaratsiyasi deb nom olgan mazkur hujjatga binoan davlatlar 2005-2015-yillar oralig'ida aholi uchun tabiiy ofatlar oqibatini kamaytirish yo'nalishida ma'lum faoliyatni amalga oshirishlari lozim. Favqulodda vaziyatlar vazirligi va xalqaro bolalar fondi YUNISEF tomonidan Yevropa Ittifoqining insonparvarlik yordami boshqarmasi DIPEKOning moliyaviy yordamida amalga oshirilayotgan loyiha O'zbekistonning mazkur muhim xalqaro hujjatda aks topgan fikrlarni ro'yobga chiqarish yo'lidagi sezilarli qadami bo'ldi.

Dunyo vaqealariga ham-ohang O'zbekiston Respublikasida ham sodir bo'layotgan tabiat ofatlari aholi va hukumatimizning diqqat e'tiborini tortibgina qolmasdan, balki tashvishga ham solmoqda.

Respublika hududida qayd etilgan faqulodda vaziyatlarning ko'pchilik ulushi Toshkent (50 marotaba), Qashqadaryo (20) va Farg'ona (17) viloyatlariga to'g'ri keladi. Masalan: o'tgan yilning 25 martida Qashqadaryo viloyatida Toshkent – Termiz avtomobil yo'lining 1298-kilometrida «Neksiya»

rusumli avtomobilning «Kamaz–5320» yuk tashuvchi avtomobili bilan toʻqnashishi natijasida 4 kishi qurbon boʻlib, 1 kishi kasalxonaga yotqizildi. 23-mayda Urgut tumanida ikki avtoulov toʻqnashib 6 kishi hayotdan koʻz yumgan va 5 kishi jarohatlangan. Oʻtgan davr mobaynida respublikamizda 39 marotaba tabiiy jarayonlar bilan bogʻliq vaziyat yuz berib, uning oqibatida 60 kishi nobud, 138 kishi jarohatlandi.

2004-yil 3-martdagi zilzila boʻlganda Qashqadaryo viloyatining Gʻuzor, Dehqonobod, Qamashi, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabogʻ tumanlarida sodir boʻlib, oqibatda bir qancha maʼmuriy va shaxsiy binolar zarar koʻrdi.

Inson hayot faoliyati xavfi yuqorida keltirilganlardan tashqari, hozirgi zamon global muammolardan hisoblangan tashqi muhitni ifloslantiruvchi moddalar va uning ifloslanish darajasining oshib borishi, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, inson organizmining tashqi muhitga moslashib borishi, ishlab chiqarish mikroiqlimining gigienik normalarining buzilishi va boshqa turli vaziyatlar ham inson hayot faoliyati xavfsizlik darajasini oshiradi.

**A.B. Mirzayev - Fargʻona davlat universiteti**

## MASOFAVIY TAʼLIMDA ONLINE TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

XXI asr insoniyat ilm-fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda juda katta yutuqlarga erishish, yashash standardlarida yana bir pogʻono yuqorilash asri boʻlibgina qolmasdan, odamlarda juda koʻp yangi koʻnikmalarni, mahoratlarni umuman olganda yangicha hayot tarzida yashashga oʻtishni zaruratga aylantirdi. Bu nafaqat ijtimoiy-maishiy yoxud tibbiy sohada balki ilmiy, aniqroq qilib aytganda - taʼlim-tarbiya sohasida ham qator oʻzgarishlarni, yangilanishlarni keltirib chiqardi va chiqarmoqda. Bulardan eng koʻzga tashlanarlisi bu masofaviy taʼlim tizmining ommalashuvidir. Shu boisdan bugungi kunda talabalarga sifatli taʼlim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli boʻlgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qoʻllanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan oʻqitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi boʻlib qolmoqda.

Albatta, taʼlimda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, hozirgi paytda xech kim uchun yangilik hisoblanmaydi, xattoki eng chekka hududdagi maktab oʻqituvchilari ham oʻz darslarida proyektor, noutbuk, ovoz kuchaytirgich kabi texnologik vositalardan foydalanib kelmoqda. Shunday boʻlsada, kun talabi esa biroz oʻzgardi va xuddi shu vositalarni onlayn tarzda, masofadan turib qoʻllash yaʼni oʻquvchi-talabalarda masofadan turib bilim-koʻnikmalarni shakillantirish zaruratini tugʻdirmoqda.

Quyida esa, onlayn texnologiyalardan foydalasnishning oʻquv-didaktik jihatdan qanday manfaatli jihatlari borligiga nazar solib oʻtsak. Birinchidan, anʼaviy usuldagi darslarda oʻquvchi koʻproq kuzatuvchi roʻlini oʻynagan boʻlsa, onlayn texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishlariga oʻrgatadi (2,103). Chunki, anʼanaviy taʼlim darslarida, oʻqituvchi va oʻquvchilar bir sinfda boʻlganligi va outsoursdan foydalanishga imkon yoʻqligi sababli koʻp hollarda boshqa bilimliroq oʻquvchilarning bilimiga tayanish, tayyor yechimlarni topishga harakatlar koʻproq kuzatilsa, onlayn texnalogiyalar masalan “Zoom” ilovasi orqali dars oʻtilganda, barcha talaba-oʻquvchilarda faqatgina oʻz kuchlariga tayanish, maʼlumotlarni elektron bazalardan oʻzlari qidirib topib, uni tushungan holatda tahlil qilish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Ikkinchidan, yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish tuygʻusini shakillantiradi. Bunda, yuqorida takidlangani kabi, onlayn texnologiyalar asosida berilgan toshiriqlarni oʻquvchi oʻz bilim koʻnikmalari asosida, mustaqil ish olib brogan holda bajarishga harakat qiladi. Oʻquvchilarda mustaqil fikirlash koʻnikmasini shakillantiruvchi yana bir omil bu, onlayn texnologiyalarni oʻquvchilar oʻzlari boshqarishi, kerak hollarda texnik muammolar yuzaga kelganda, mustaqil sozlash holatlarining vujudga kelishidir. Chunki, Adizov taʼkidlagani kabi, “Oʻquvchilar texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak”, (1,101).

Onlayn texnologiyalar vositasida oʻtilgan darslarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, oʻqituvchi darsda boshqaruvchi, oʻquvchilar esa, ishtirokchiga aylanishidir (2,102). Buning asosiy omili, masofaviy darslarda oʻquvchilarga ishtirokchilik roʻlini beruvchi, darsga qatnashayotgan oʻquvchilarning

barchasi bir vaqtning oʻzida mashgʻulotlarga qamrab olishni imkonini beruvchi onlayin vozitalarning mavjudligidir. Misol uchun, hozirgi kunda turli soha oʻqituvchilari orasida keng tarqalayotgan “Kahoot.com”, “Quizziz.com”, “WordWall.com” ta’limiy veb saytlari orqali amalga oshiriladigan mashgʻulotlar, bir paytning oʻzida barcha oʻquvchilarni turli xil oʻyinlar yoki mashgʻulotlarga qamrab olish imkonini beradi, bu esa oʻz navbatida oʻquvchilarni darsda oʻz oʻrinlari borligini his etishga, oʻz ustilarida koʻproq ishlashga undashi turgan gap.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnalogiyalaridan foydalangan holda onlayn darslar olib borish, talabalarda darsga nisbatan chinakam qiziqish uygʻotadi va bu oʻz navbatida turli xil ilm sohalarini egallashga va motivatsiyani oshirishga yordam beradi (3,10). Bundan tashqari, hozirgi zamon talabi boʻlib turgan masofaviy talimni olib borishda, unda oʻquvchilar bilan chinakkam mashgʻulotlar oʻtkazishda onlayn texnalogiyalar va ilovalardan foydalanish XXI asr pedagoglari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri deb hisoblash mumkin.

**I.Nigʻmatullayev - Oʻzbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi 1-kurs magistranti**

## MAHMUDXOʻJA BEHBUDIY ILMIY-MA’NAVIY MEROSININGTARBIYAVIY AHAMIYATI

Jadidchilik ma’rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar boʻlgan murakkab rivojlanish yoʻlini bosib oʻtgan oʻziga xos oqim hisoblangan. Jadidchilarning maqsadi Turkistonning koʻp millatli tub aholisi, eng avvalo, uning ziyolilari, oʻlkaning iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslarining ekspluatatsiya qilinishiga, ijtimoiy va milliy zulmga javoban oʻsib borayotgan milliy oʻzlikni anglash, mahalliy xalqlar turmush tarzini belgilovchi, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish va boyitishga intilish kabi prinsipial masalalarni hal etish kerakligini ilgari surgan.

Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxoʻja Behbudiy 1875-yili Samarqandda tugʻilgan. Mahmudxoʻja Behbudiy Yassaviy avlodidan hisoblanadi. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qiladi, qozi, muftiy darajasiga koʻtarilgan.

Behbudiy haj safarida boʻlgan chogʻida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899—1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlogʻida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochgan[7].

Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-04), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yoʻlga qoʻyadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolayi jugʻrofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jugʻrofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar chop ettirgan[8].

Behbudiy 1911-yilda “Padarkush” dramasini yozdi. Bu birinchi oʻzbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda boʻlib, oʻqimagan, johil va nodon bolaning oʻz otasini oʻldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini “milliy fojia” deb atagan[9].

Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma’rifatparvarlik gʻoyalari asosiy oʻrin tutadi. Behbudiy ilmu ma’rifat xalq ommasi tomonidan oʻzlashtirib olingandagina ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanadi, deb fikr yuritadi. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bogʻlab, ma’rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan. Millat ozod boʻlib, oʻzining mustaqil davlatini oʻrnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab boʻlmaydi degan xulosaga keladi. Behbudiy odamlardan dunyoviy fanlarning yutuqlarini oʻzlashtirib olishni, oʻz davri ijtimoiy talablari, asosan, shakllangan axloq me’yorlariga amal qilishni hamda insonparvarlik gʻoyalarini shakllantirishni hamda islom dini ta’limoti bilan tanish boʻlishni talab qilgan. U millat ozodligini ma’rifatparvarlik darajasi bilan bogʻlab, ma’rifatni ozodlikka erishishning yagona omili, deb ishongan[10].

---

[7] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mahmudxoja-behbudiy/
[8] Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. Т.: 2001
[9] https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mahmudxoja-behbudiy/
[10] Xujaev M. (2020) “MAHMUDKHUJA BEHBUDIY AS A LEADER OF JADID REFORMS,” The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 3, Article https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss3/4

Vatanni anglash, unga muhabbatni his qilish uchun tarixga nazar tashlamoq kerak. Behbudiy ta’biri bilan aytganda, “Moziy – haqiqat tarozisidur”. Mustaqillik, xotirjamlik, farovonlikning qadriga yetish uchun bu kunlarga qanday yetilganini, qancha-qancha vatanparvar insonlarning shahid ketganini, erk va ozodlik yo‘lida cheksiz zahmat chekilganini bilmoq lozim. Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan aytilgan “Haq olinur, berilmas!” xitobi, Abdurauf Fitratning “Keling, birlashayluk, oramizdagi shaxsiy tortishmalar, sinfiy ayriliqlardan ko‘z yumaylik!” kabi xalqni birlashtirish yo‘lida qilgan da’vatlari, qaysidir ma’noda, mustaqillikka erishishimizda muhim ahamiyat kasb etgan[11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145-yilligini munosib nishonlash haqida ta’kidlab o‘tgan edi. O‘tgan asrning boshlarida Turkiston o‘lkasining har tomonlama mustaqilligi, rivojlanishi, o‘lka aholisining ma’naviy, ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish orqali o‘sha vaqtlarda jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ko‘tarilishini orzu qilgan va o‘z hayotini mana shu ishlarga bag‘ishlab, xalq va Vatan taraqqiyoti yo‘lida shahid bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy nomi, hayoti va ijodi bugun davlatimiz va xalqimizning yuksak e’tiborda hisoblanadi[12].

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda asrlar davomida yuksalib, qadrlanib shakllangan milliy va diniy qadriyatlarimizni jamiyat ongiga singdirish orqali ta’lim tizimi, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodini o‘rganish, ilmiy merosini tadqiq etish vositasida bugungi yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning shartlaridan biri va ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

**L.X. Xudoyorov - Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o‘qituvchisi**

## OILALARNING IJTIMOIY DEMOGRAFIK RIVOJLANISH MASALALARI

Jamiyat tashkil topishida uning davomiyligini ta’minlashda oila ijtimoiy demografik manba hisoblanadi. Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo‘lishi, avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo‘ladi. Farzand tug‘ilib, kamolga yetib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo‘lgan barcha ta’lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug‘iga, qadriyatlarga, atrof-muhitga va tabiatga bo‘lgan munosabatlari dastlab oilada boshlanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi ijtimoiy guruh hisoblanadi.

Har bir jamiyat a’zosi mana shu jamiyatning kelajakdagi a’zosi bo‘lib, kelayotgan yosh avlodni shu jamiyatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, qadriyatlarga munosib bo‘ladigan avlodni shallantiradilar[13]. Bu jarayonda nafaqat ota-ona, qarindosh-urug‘lar balkim shu jamiyatning boshqa a’zolari ham faol ishtirok etadilar. Biz buni ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash, din va boshqa yo‘nalishlarda ham ko‘rib boramiz.

Oila jamiyat bag‘rida tashkil topib, taraqqiy etib borar ekan, o‘zi ana shu jamiyatning kichik bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, oila taraqqiyotiga ham ta’sir etadi[14]. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot rivojlangan davlatlarda oila va unda yuz beradigan demografik jarayonlarga qarashlar bir tomonlama bo‘lib, borayotganligi tashvishlanarli bo‘lib, qolmoqda. Aksincha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda rivojlanayotgan davlatlarda istiqomat qilayotgan aholining demografik faollashuvi oshib bormoqda. Oila taraqqiyotini uch yo‘nalishda tanlash maqsadga muvofiqdir.

Oilaning demografik taraqqiyoti deganda oilaning miqdori, shakllanishi va demografik tarkibi ma’lum davrlarda o‘zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti esa oila a’zolarining ma’lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqei, salomatligi borasidagi o‘zgarishlar, hamda ularning ta’lim-tarbiya, urf-odat, an’ana, fan va madaniyatga, tabiatga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarining takomillashib borishidir. Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo‘lgan narsalar bilan ta’minlanish darajasining o‘zgarib borishi uning

[11] www.mudofaa.uz
[12] Xujaev M. (2020) “MAHMUDKHUJA BEHBUDIY AS A LEADER OF JADID REFORMS,” The Light of Islam: Vol. 2020: Iss. 3, Article https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss3/4
[13] Баздыров Қ. Развитие семьи и демографечиская политика. - М., 1979. стр 4-6.
[14] Баздыров Қ. Развитие семьи и демографечиская политика. - М., 1979. стр 4-6.

iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Koʻrinib turibdiki, oila oʻz mohiyati bilan jamiyat hayotida turli qirralarni aks ettiradi. Bu qirralar oʻz navbatida oilaning ham demografik holatini ifodalaydi.

Oila paydo boʻlganidan to hozirgi davrga qadar uning turlari va ijtimoiy-demografik tarkibi muntazam oʻzgarib bormoqda. Oila turlari va tarkibida sodir boʻladigan oʻzgarishlar va ularga taʼsir etuvchi omillarni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlari uchun alohida oʻrganish lozimdir[15]. Oila paydo boʻlib, to tugagunga qadar bir qancha bosqichlardan oʻtadi. Ular oilaning tashkil topishi (nikohga kirish) birinchi farzandi tugʻilishi (farzand koʻrish faoliyatining boshlanishi) oxirgi farzand tugʻilishi, oxirgi farzandning oilali boʻlishi, oilaning asosini tashkil etuvchi er yoki xotinning dunyodan koʻz yumishi.

Yuqorida keltirilgan jarayonlar oilaning hayotiy davrlari boʻlib, oila davomiyligida muntazam qaytarilib turadi va ushbu davrlarning har biri oʻziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mavjuddir. Mana shu ijtimoiy-iqtisodiy muammolar nikohga kirish yoshini, farzandlar sonini, tugʻilganda kutilayotgan oʻrtacha umr davomiylgini, yashash sifati kabi jarayonlarga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi.

Oila mohiyatini oʻrganish uchun uning faoliyatini, yaʼni u bajarayotgan vazifalarni bilib olish lozim. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri bu – farzandlarning tugʻilishi, yaʼni jamiyat davomiyligini taʼminlovchi yangi avlod yaratishdir.

**L. Xudoyorov, D. Olimova - Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti oʻqituvchisi**
**D. Eshonqulova - Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi**

## OʻZBEKISTONDAGI MEHNAT RESURSLARINING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI

Mehnat resusrslari – aholining ishga layoqatli qismi tushuniladi. Bu tushuncha turli davlatlarda turlicha boʻlib, aholining oʻrtacha yosh koʻrsatkichiga bogʻliq hisoblanadi. Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich nozik jins (ayol) vakillarida 16 yoshdan 55 yoshgachani qamrab olsa, erkaklarda 16 yoshdan 60 yoshgacha aholi vakillarini qamrab oladi. Yaponiyada bu koʻrsatkich 65 yoshni, Germaniyada 65-67 yoshni, Amerikada erkaklarda 67 yoshni, ayollarda 60 yoshni, Shveytsariyada 65-66 yoshni (2050-yildan 67,5 yoshni) tashkil qiladi. Koʻrinib turibdiki, ilm-fan, tibbiyot, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda bu koʻrsatkich yuqori ekani bilan ajralib turibdi. Mehnat resurslarining salmogʻi yuqoriligi bilan jahonda Xitoy va Hindiston yaqqol ajralib turibdi. Mehnat bozorida ishlovchilar ikkiga boʻlinadi, aqliy mehnat (intelligent jobs) bilan shugʻullanuvchilar, jismoniy mehnat (black jobs) bilan shugʻullanuvchilar. Aqliy mehnat bilan shugʻullanuvchilar nisbatan ozchilikni tashkil etadi, ammo, qimmat. Jismoniy mehnat bozori nisbatan koʻpchilikni tashkil etadi, ammo, arzon ish haqiga ega. Jismoniy ish bilan inson shugʻullanganida koʻproq energiya sarflaydi. Aksincha kam jismoniy harakat qiladigan aqliy mehnat ishtirokchilari nisbatan yuqoriligi bilan ustunlik qiladi. Ish vaqti yuklamasi kuniga 8 soatdan oshmasligi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilab qoʻyilgan. Ammo, baʼzi hollarda bu holning noqonuniy tarzda buzilishiga guvoh boʻlamiz. Ayniqsa ish haqining mamlakat miqyosida ozligi, aholi xarid quvvatining kuchsizligi ishchi kuchlarining boshqa davlatlarga migratsiya oqimini vujudga keltiradi. Masalan uzoqqa bormaylik, shundoqqina MDH davlatlari orasida ishchi kuchlarining kirib kelish oqimi yuqoriligi bilan yaqqol ustunlik qilayotgan Rossiya Federatsiyasida eng koʻp ishchi kirib kelgan davlatlar reytingida Oʻzbekiston 1-oʻrinni egallab turibdi (Kun.uz saytida eʼlon qilingan 2021-yil dekabr oyi holatiga koʻra). Afsuslar boʻlsinki, ishlash uchun borayotganlarning aksariyat qismi qora ishchi boʻlib, ketmoqda. Oʻzbekistonda ahvol ayni damda qanday? Ayni damda 2021-yil 1-aprel holatiga koʻra koʻchib kelganlar soni 81 241 kishini, koʻchib ketganlar esa 84 757 kishini tashkil qilmoqda. Migratsiya saldosi esa minus 3516 kishiga teng. Migratsiya saldosining koʻrsatkichlarini Oʻzbekiston maʼmuriy-hududiy birliklari miqyosida koʻrib chiqsak, viloyatlar kesimida eng koʻp Qashqadaryo (-2,9 ming kishi), Samarqand (-2,3 ming kishi), Surxondaryo (-1,8 ming kishi) koʻchib ketganlar sezilarli darajada balandligi bilan ajralib turadi. Migratsiya saldosi ijobiy koʻrinishini faqat Toshkent shahrida (12,4 ming kishi) kuzatiladi. Bunga sabab esa, asosan Toshkent shahriga boshqa viloyatlarga nisbatam ishga haq toʻlashning yuqoriligi sababli va yashash uchun sharoitlarning yuqoriligi yaʼni kommunal (elektr energetika, suv, gaz taʼminoti), transportning barcha tarmoqlari, taʼlimning barcha yoʻnalishlari, rekreatsiya majmualari, sogʻliqni saqlash va boshqa sohalarida xizmat koʻrsatishning yuqoriligi bilan yaqqol ajralib turishi, shaharning poytaxt

[15] Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6 том. – Тошкент, 2003.

shaharligi, shahar infratuzilmasining yuqoriligi (nisbatan) va eng arzon poytaxt shaharlar 5 taligidan o‘rin olganligi, ro‘yxatga olishning (propiska) osonlashtirilganligini sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Shu o‘rinda nega ko‘chib ketganlar soni ko‘chib kelganlar sonidan ko‘p degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bu savolga javob berishga harakat qilamiz: O‘zbekistonda o‘rtacha ish haqi 2 mln 667 ming o‘zbek so‘miga teng, (2020-yil ma’lumoti, 2019-yilga nisbatan 14,8% oshgan!!!) aholi turmush darajasini baholash uning xarid quvvatiga qarab belgilanishini hisobga olib, turar joy va mashina xarid qila olish imkoniyatini belgilasak, avtosalonda eng arzon mashina qiymati- 73 mln 262 ming so‘m (01.01.2022) ni tashlik qiladi. O‘zbekiston hududida o‘rtacha 2 mln 667 ming ish haqi oladigan inson yemay, ichmay 27 oyda bu mashina uchun to‘lovni amalgam oshirishi va agar 2 yilda yana inflatsiya sabab pul qadrining kamayishi yoki mashina narxining yana oshishi kabi omillar ta’sir etmagan holda bu mashinaga ega bo‘lishi mumkin. Mashinani qo‘ya turaylik, iste’mol savatchasi (oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar uchun to‘lovlar) uchun O‘zbekiston hududida bir kishi uchun qancha mablag‘ kerak? Iste’mol savatchasi uchun bugungi kunda (2020-yil dekabr ma’lumoti asosida) 2 mln 157 ming so‘m talab e’tilishini ko‘rishimiz mumkin. Agar bir oilada boquvchi 1 kishini tashkil etsa, oilada kamida 2 ta farzand va turmush o‘rtog‘i bo‘lishini hisobga olsak, yuqoridagi o‘rtacha hisoblangan maosh (2 mln 667 ming so‘m) yetmasligini va bunday oila iqtisodiy past daromadga ega ekanligi va buni oshirish kerakligi kunday ravshanlashadi. AQShda o‘rtacha maosh haftasiga 984 $, oyiga esa 4265 $ ni tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin, bu miqdorni so‘mga aylantirsak (1$- 10819,67 so‘m 01.01.2022) 46 mln 145 ming 892 so‘m 6 tiyinni tashkil etadi. Germaniyada 4094 yevroni, Italiyada 2333 yevroni, Finlandiyada 3692 yevroni, Fransiyada 3137 yevroni, Rossiyada 52355 rublni, Yaponiyada 305911 iyenani tashkil qiladi. Ko‘rinib turibdiki 1 oylik maosh orqali mashina olish yoki yuqori darajadagi hayot kechirish mumkin. Xorijda o‘qib, malaka oshirib kelgan kadrlar uchun maoshning ozligi uchun, ular O‘zbekistonga kelishdan ko‘ra, xorijda qolib shu yerda faoliyatlarini davom ettirishni xohlashadi. Agar aholi turmush tarzini yaxshilashga erishish uchun aholining o‘rta qatlamini tashkil etayotgan ta’lim va sog‘liqni saqlash qatlamiga to‘lanayotgan haqni yoki rag‘batni oshirish kerak deb o‘ylayman sababi, yosh avlodni tarbiyalayotgan va davolayotgan mana shu qatlam davlatni rivojlanishini belgilaydi.

**M.I. Rahimova, X.U. Raxmiddinova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA BOLA EMOTSIONAL HOLATIGA XOS XUSUSIYATLAR

Emotsiya va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o‘ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo‘lgan munosabati, biror-bir ehtiyojining qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalarda namoyon bo‘ladi.

Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishning quydagi umumiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: bola hayotiy vaziyatlarning o‘zgarishiga bog‘liq ravishda emotsional holatning shakllanishi; emotsiyalar asosida oliy hissiyotlarning shakllanishi; emotsiya va hissiyotlarning shaxsiy tizimlar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi.

Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivoji muayyan o‘z qonunlariga ega:

1. Dastlab, ontogenezda oddiy kechinmalarni ifodalovchi emotsiyalar paydo bo‘ladi. Bu kechinmalar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishiga bog‘liq ravishda vujudga keladi (qondirilsa-ijobiy qondirilmasa-salbiy emotsiyalar vujudga keladi). Bunday emotsiyalar hayvonlarda ham mavjud. Biroq boladagi eng oddiy emotsiyalarni hayvonlardagi eng oddiy emotsiyalardan farqlash kerak. Chunki emotsiyalarning namoyon bo‘lish shakli insonda sotsial harakatga ega.

2 yoshdan boshlab bola uchun shodlik, xursandchilik, umuman ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi reaktsiyalar eng informativ (ko‘p axborot beradigan) bo‘lib hisoblanadi. Tajribalardan birida 2-9 yoshdagi bolalarga fotosuratlardan turli mimik reaktsiyalarni (hayronlik, jahl, qo‘rquv, xursandchilik va boshqalarni ifodalovchi reaktsiyalarni) aniqlab olib, so‘ngra ko‘rsatib berish taklif etilgan. Tajribadan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bolalar birinchi bo‘lib xursandchilikni ifodalovchi mimik reaktsiyalarini ko‘rsatganlar. Demak, dastalb ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi mimik reaktsiyalarini aniqlash, boshqa reaktsiyalar orasida tanish va namayon eta bilash qobiliyati shakllanadi.

2. Emotsiyalarning rivojlanishi ularning differentsiyasi, kechinmalarining boyib borishi orqali ro‘y beradi. Ijobiy emotsional yoki salbiy emotsional bo‘yoqlarga ega bo‘lgan kechinmalarga misol qilib, oziqaga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli bola o‘z boshidan o‘tkazadagan kechinmalarini keltirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada salbiy kechinmalar qo‘rquv, jahl, jirkanish, ijobiy kechinmalar shodlik, bola mehrining atrofdagilarga tovlanib ketishi, ota-onasiga qalban, yaqinlashishi ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin.

3. Bolalar hissiyotlarining rivojlanishi muayyan obyektga yo‘naltirilgan emotsiyalarning umumlashishi sifatida ro‘y beradi.

Emotsiya va hissiyotlarning shakllangan tizimida emotsiyalar boshdan o‘tkazayotgan hissiyotlarning namoyon bo‘lishi sifatida gavdalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo‘ladi. SHuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo‘lishi emas, balki ko‘prof oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo‘lgan materialdir.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohaning rivojlanish davomida emotsional kechinmalarni uyg‘otuvchi obyektdan subyekt munosabat ajralib boradi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, uning uchun obyekt tavsifi bilan subyektiv kechinmalari tasnifi shunchalik bir-biriga yaqin bo‘ladi. 3 yoshli betob bola uchun unga ukol qilgan hamshira “yomon xol”dir. Bunda bola o‘z emotsional holatining salbiy tavsifi (xarakteriskasi)ni bu holning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan odamga ko‘rsatib o‘tkazadi.

5. Maktabgacha yoshda emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonining rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror (doimo bir xil) munosabatda bo‘ladigan predmet va hodisalarning ko‘payib borishi bilan taqozolanadi. Emotsiya va hissiyotlarning mazmuniy aspekti (tomon) emotsional kechinmalarning obyektlari, sabablari bilan bog‘liq. Dinamik aspekt esa emotsional kechinmalarning chuqurligi, davomiyligi va vujudga kelish chastotasi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha yoshlagi bolalarda bevosita idrok qilinmaydigan holatlarga nisbatan his- tuyg‘ular murakkab ichki tug‘yon va kechinmalarning payda bo‘lishi, keyinchalik emotsional o‘sishga qo‘lay shart-sharoit yaratadi.[16]

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oliy hissiyotlarning qo‘shilib ketganligi xos. Bolalar estetik kechinmalarni chiqaruvchi obyekt va hodisalarni ham, estetik kechinmalarini uyg‘otuvchi obyekt va vositalarni ham, intellektual kechinmalarni yuzaga keltiruvchi obyekt va hodisalarni ham “yaxshi” degan umumiy baho bilan baholaydilar. Boshqacha aytganda, bu davrda bola uchun yaxshi narsa – bu chiroyli, bu mehribon, bu qiziqarli narsadir. Aynan bu obyekt o‘zida estetik, axloqiy hissiyotlarni jamlagan kechinmalarni uyg‘otadi.

Keyinchalik maxsus axloqiy va estetik mezonlar asosida analiz qilish va baholash ko‘nikmasi shakllangach, sikretik (qo‘shilib birlashib ketgan) hissiyotlar estetik axloqiy intellektual hissiyotlarga diffirentsiyallashadi (ajraladi). [17]

Oliy hissiyotlar 2-3 yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Shuning uchun bola umumiy taraqqiyotida hissiy rivojlanishiga e’tibor berish muhimdir.

**Z.R. Abduraxmonova, Z.I. Saminjinova - Farg‘ona davlat universiteti talabalari**

## TURLI KELISHMOVCHILIKLARNING BOLA EMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI

Rus olimi V. V. Drujinin kelishmovchilik nazariyasi asosida vaziyatni tahlil qilish, ushbu jarayonning o‘ziga xos o‘ta murakkab tabiatga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi:

1. Avvalo janjal qatnashchilari, ya’ni ikki tomon va ularni qiziqish va maqsadlar o‘rtasida ziddiyat, anglashmovchilik va kelishmovchiliklar mavjud.

2. Janjal qatnashchiliari bir – birlarini fikr va g‘oyalarini tushinishini fikr va g‘oyalarini tushinishini istamasliklari yoki umuman tushunmasliklari vaziyatni keskinlashuvini keltirib chiqaradi.

[16] G‘oziyev E.G‘. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010, 116 б
[17] Nishonova Z.T. va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2017, 267б

3. Janjal qatnashchilari va atrofidagilar janjal oqibatini nima bilan tugallanishini aniq tasavvur qila olmadilar, bunga ularni aqli fikrlash qobiliyati, farosatlari yetishi, uni oqibatini oldindan koʻra olishlari lozim.

Janjal holatida shaxsda psixik jarayonlarning normal kechishiga katta taʼsir oʻtkazadi. Bu jarayonda katta sezuvchanlikni ortib ketishi yoki pasayishi vaziyatni mohiyatini tushunmaslik, idrok etishning yomonlashuvi kabi holatni kuzatish mumkin. Kelishmovchilik va janjallar hamma psixik jarayonlarga taʼsir koʻrsatib, baʼzi insonlarda fikrlashning rivojlanuvi va vaziyatdan tezroq chiqib ketishga intilish bilan namoyon boʻlsa, boshqalardan, aksincha tafakkur mahsuldorligining pasayishi, nutq va harakatlarida mantiqsizlik aks etadi. Juda koʻp holatda irodaviy soha zaiflashib, inson biror qabul qilishga, vaziyatni nazorat qilishga oʻzida kuch topa olmaydi. Bu holat shaxs kamolotiga taʼsir etishi mumkin.

R. M. Yakobson koʻrsatib oʻtgandek, maktabgacha yosh davrda hissiyotning bola harakatlarini motivi sifatidagi roli oʻzgarib boradi. 3 yoshgacha bolaning harakatlari nima yoqimsiz-u, nima yoqilmli ekanini anglashga asoslanadi. 3-4 yoshda boladagi jahli, qoʻrquv, qaygʻurish darhol uni harakatga undaydi. U boshqa bola bilan urishadi, oʻyinchoqni tortib oladi yoki kimgadir rahmi kelayotganini koʻrsatadi. 4-5 yoshli bola oʻz harakatlarida hissiyotlarni bevosita namoyon etishdan oʻzini tuta olishi yoki oliy hissiyotlarga asoslanib harakat qilishi mumkin. Emotsional kechinmalar, xatti-harakatini qoʻllab-quvvatlaydi, yoʻnaltiradi yoki tormozlaydi.[18]

V.Zaporojes yozganidek, bola rivojlanib borar ekan, affektiv va bilish jarayonlari oʻzaro aloqaga kirishadi hamda odamlarga xos xususiyatlarning bir butun funktsional tizimini hosil qiladi va faoliyatining murakkab shakllarini adekvat emotsional boshqarish imkonini beradi.

Amerikalik psixolog, psixoperatevit Erik Bernning fikricha, individ olamga kelib oʻsib, rivojlanar ekan, u atrofda, ayniqsa, oiladigi ijtimoiy munosabatlarni diqqat bilan kuzatadi. Bola atrofdagilardan, ayniqsa, qiz bola onasidan, oʻgʻil bola otasidan hayot tarzini, oʻzaro munosabat va muloqot tajribasini toʻplab boradi. Yaqin odamlari: otasi va onasining xatti - harakati, gap - soʻzi, xulq - atvori, oiladigi va atrofdagi kishilar bilan munosabatlari oʻsib rivojlanayotgan bolaning ongida, ong ostida mustahkamlanib boradi.

Eril Bernning taʼkidlashicha, bolalik "hayot senariy"si shaxsning keyingi hayot munosabatlarini, odamlar bilan, kechishini belgilaydi. Oilada shakllangan odatlar, hayotiy tasavvurlar-"hayot senariysi" shaxsning ong ostida mustahkamlanib, uning keyingi hayotidagi xatti-harakatida, xulq – atvorida namoyon boʻladi. Bizning fikrimizcha, bunchalik fatalistik xulosa yasash toʻgʻri emas. Oilada toʻplangan ijtimoiy tajriba va bilimlarning shaxsnimng keyingi hayotidagi oʻrni juda katta, ammo baʼzi bir ilmiy-tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlarimizga asoslanib shuni aytish mumkin, axloqiy va psixologik muhit salbiy oilalardan ham odobli, mehnatsevar, doʻstlariga sodiq va bolajon insonlar yetishib chiqqani haqida maʼlumotlar koʻp.

Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bilan bogʻliq. Bolaning vaziyatni tushunish, vaziyat va undagi oʻzgarishlarni boshdan kechirish muayyan emotsional holatni hosil qiladi.

Bola uchun odatiy boʻlgan vaziyatlarning buzilishiga bola hayot tarzi, kun tartibining oʻzgarishi sabab boʻlishi mumkin. Bu esa baʼzida etress holatni yuzaga keltiradi. A. I. Mishkis va L. G. Golubevaning maʼlumotlariga koʻra, bolalar yangi sharoitlarga moslashishi uchun 2 oy talab qilinadi.

Odatiy vaziyatlarning buzilishi affektiv reaktsiyalar shuningdek, qoʻrquvni keltirib chiqarishi mumkin. Affekt (qisqa muddatli, joʻshqin kechadigan salbiy emotsional reaktsiya) bosh miya poʻstlogʻi boshqaruv funktsiyasining sustligi natijasi boʻlishi ham mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bola faoliyatining vaqt strukturasida emotsiyalarning tutgan oʻrni asta - sekin oʻzgarib boradi: dastlabki bosqichlarida kechinmalar erishilgan natijaning emotsional bahosi sifatida yuzaga kelsa, keyingi bosqichlarida harakatlarni bajarguncha oldindan emotsional sezish shaklida vujudga keladi.

Oilada boʻlib turgan janjallar natijasida bolada oiladigi oʻzaro munosabatlarning nizoli stsenariysi shakllanadi. Shuningdek, bolaning bosh miya poʻstloqlarida "janjal markazlari" goh paydo boʻlib, goh yoʻqolib turgan. Bola katta boʻlgan sari oilada davom etgan janjallar bolaning asab tizimlarini zaiflashtiradi va "janjal markazlari"ning paydo boʻlishning doimiy boʻlishiga sabab boʻladi.[19]

---

[18] Практикум по возрастной психологии. Учебное пособие под. ред Л. А. Головей, Е. Ф. Рыбалко. СПб: Речь, 2002

[19] Эмоциональные нарушения в детском возрасте и их коррекция / Под ред В. В. Лебединского, О. С. Никольской, Е. Р. Баенской, М. М. Либинг. - М 1990. 165-стр

**G.U. Zulaypoyeva – Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi**

## BADIIY MATN VA IDIOSTIL TUSHUNCHALARINING TASNIFLANISHI

Badiiy nutq va badiiy matn tushunchalarining o'rganilishi o'zbek tilshunosligiga yangi sohalarni, tushunchalarni kirib kelishiga olib kelmoqda. Xususan, antroposentrik yondashuv natijasida muallif idiostili, ya'ni individual uslubining o'rganilishi poetik sintaksis sohasida ko'plab yangiliklar yaratilishi mumkinligiga ishora qiladi.

Badiiy uslub, funksional uslubning turlaridan biri bo'lib, u tilning kommunikativ va estetik vazifalarining birligi bilan, boshqa uslublarga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning keng qo'llanishi, so'zlarning obrazli, ko'chma-metaforik qo'llanishi va shu kabi belgilari bilan ajralib turadi.[20]

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Bunda ma'lum bir xalq, ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan – avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar badiiy tarzda, tildagi badiiy vosita va usullar yordamida o'z ifodasini topadi. Badiiy ijodga muayyan millat yashaydigan joy, uning turmush tarzi, siyosiy-iqtisodiy sharoiti, e'tiqodi, urf-odat va milliy qadriyatlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'z – o'zidan badiiy ijodda aks etadi.[21]

Matn tarkibidagi bu uzvlarning o'zaro munosabati gapdagi so'zlarning bir-biri bilan bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turg'unlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalaniladigan va deyarli o'zgarmas bo'ladi. So'zlovchi yoki muallif o'z niyatiga ko'ra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanaveradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda so'zlar orasidagi munosabatdan ko'ra gaplar o'rtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplar aro ham mazmunan, ham shaklan aloqadorlik mavjud bo'lmasa, matn butunlagi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozition butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg'unligi hamda motivation yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Badiiy matnni lisoniy taxlil qilish jarayonida bunday bog'liqlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tashqaridan qaraganda, badiiy nutq oddiy so'zlashuv nutqidan hech farq qilmaydi, lekin u birinchi navbatda estetik funksiya bajaradi. Badiiy nutq har bir ishlatilgan so'z va konstruksiyalar yordamida muallif maqsadini amalga oshiradi va asar ma'nosini ochib beradi. Til bir vaqtning o'zida ham tasvir vositasi, ham tasvir predmeti sifatida namayon bo'ladi. Chunki muallif, bir tomondan voqea-hodisalarni, odamlarni va predmetlarni tasvirlashda ulardan foydalansa, boshqa bir tomondan esa o'quvchilar bilan qahramonlar nutqining lisoniy o'ziga xosliklari ustida bosh qotiradi.

Poetik nutqda muallifning idiostili lingvopoetik tadqiqda aynan muallifning o'ziga xosligi bir qancha yangiliklarni beradi.

Idiostil tushunchasining shakllanishi bir paytning o'zida til shaxsi (nutq egasi) tushunchasining shakllanishiga olib keladi. "Til doirasidan tashqariga chiqmasdan, uning ijodkoriga e'tibor qaratmay turib, tilning asosiy tashuvchisi – inson omili bilan hisoblashmay til va uning tabiati haqida aniq xulosalarga kelib bo'lmaydi", - deb yozadi Sh.Balli. Idiostil ijodkor, publisist, olim yoki ma'lum bir til tashuvchilarning nutqiy-uslubiy o'ziga xosligi yig'indisi bo'lib, u orqali til shaxsining lingvistik xarakteri reallashadi. Idiostil tushunchasi tilshunoslikda, badiiy asar uslubi tadqiq etilgan ishlarda, ma'lum bir ijodkor yoki ma'lum bir asar uslubi masalalarini aniqlashtirish ma'nosida ham qo'llaniladi.[22]

Badiiy matnni muallif idiostilini tadqiq etish maqsadida o'rganilsa, tadqiqotchi ikki xil natijaga erishishi mumkin. Misol uchun, muallifga xos xususiyatlar, ya'ni uning so'z tanlash qobiliyati, okkozional so'z va iboralarni qo'llay olishi, murakkab gap qurilishidagi o'ziga xosliklar, yoxud poetik vositalarni

---

[20] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳл и луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.20-бет
[21] Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi.—T., 2011. 80-bet
[22] Абдупаттоев М.Т Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. (монография) Фарғона. "Classik" 2021,115-бет .

tanlay olishi va bu orqali badiiy asarining qay darajada qiymatga ega ekanligi hamda ana shu ijodkorning tilshunos sifatidagi kuchi namoyon boʻlishini koʻrish mumkin. Shuning uchun har ikkala tushuncha bir-biriga bogʻliq hamda bir-birini taqazo etadi deb aytish mumkin.

**N.Z. Axmadjonov – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## PRETSEDENT NOM VA UNING MEZONLARI

Soʻnggi paytlarda tilshunoslikda madaniyatlararo aloqa bilan bogʻliq muammolarga qiziqish kuchaymoqda. Turli madaniyat vakillari oʻrtasidagi aloqa amaliyotining kengayishi dunyo manzaralarida sezilarli farqlarni nafaqat lingvistik kod bilan, balki milliy xarakterning oʻziga xos xususiyatlarini belgilaydigan madaniy faktlarni bilish bilan ham ochib beradi va oʻzlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bunday faktlar odatda “pretsedent” deb nomlanadi. Ular dunyo gʻoyasini minimallashtirilgan shaklda belgilab beruvchi lingvokultural hamjamiyatning kognitiv bazasining yadro qismidir.

Pretsedent tushunchasi dastlab xuquqshunoslik sohasida ishlatilgan. Shuning uchun pretsedent koʻpincha sud soʻzi bilan ishlatiladi. Soʻz iborasi sifatida pretsedent sud prosessida ishlatilmaydi, lekin hozirda pretsedent soʻzi til va madaniyat sohasida uchraydi[23].

Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning etakchi yoʻnalishlaridan biri boʻlgan lingvokulturologiyaning asosiy oʻrganish obʼektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bagʻishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *pretsedent* termini tilshunoslikda birinchi marta YU.N.Karaulovning “Rol pretsedentnых tekstov v strukture i funksionirovanii yazыkovoy lichnosti” nomli maqolasida qoʻllangan[24].

Qomusiy olim Y.V.Gyote ham oʻzining “Hikmatlar xazinasi” nomli asarida pretsedent soʻziga quydagicha taʼrif beradi: “Pretsedent, boshqacha qilib aytganda, qachonlardir sodir boʻlgan, aytilgan yoki hal etilgan narsani dalil qilib keltirishning ahamiyati kattadir; biroq faqat oʻta ketgan rasmiyatchi odamgina pretsedentsiz ishi bitmaydi”[25].

Pretsedent nazariyani oʻrganish va uning rivojlanishiga I.V.Zaxarenko, D.B.Gudkov, D.V.Bagaeva, V.V.Krasnix, E.A.Naximova kabi mashhur olimlar katta hissa qoʻshganlar.

Oʻzbek tilshunosligida pretsedent nomlar tadqiqot sifatida etarli oʻrganilmagan. Bu borada faqat D.Xudoyberganovaning “Oʻzbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini”[26] nomli doktorlik dissertatsiyasining toʻrtinchi bobida qisman toʻxtalib oʻtilgan.

Pretsedent nom individual ism sifatida, murakkab belgi sifatida talqin qilinadi, ishlatilganda uning differensial xususiyatlari toʻplamiga murojaat paydo boʻladi. Har bir aniq matnda pretsedent nomlarning mavjudligi ularning mualliflik niyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan madaniy, umumiy semantik va assotsiativ ahamiyati bilan oqlanadi. Muallif oʻz matniga asos qilib olgan pretsedent nomlar syujetning rivojlanishiga taʼsir qiladi, chunki ular hikoya chizigʻidagi yoʻnalishni belgilaydi. SHuning uchun, bu nomlarning nominativ, aniqlovchi va farqlovchi, ijtimoiy, hissiy, estetik va ishontirish kabi funksiyalari bilan toʻldirilib, ulardagi muhim qoʻshimcha imkoniyatlar toʻplashga yordam beradi.

Y.N.Karaulovning taʼkidlashicha, pretsedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar boʻlib, ular koʻp qirrali hodisa sifatida tilshunoslikda turli aspektlarda oʻrganilishi lozim. Bu borada olim pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqini ham nazarda tutgan boʻlib, bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi koʻpchilikka tanish boʻlgan mashhur nomlarning ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita boʻla olishini aytadi[27].

---

[23] Кавалов Г.Ф. Имя собственное как прецедент в рекламе/Вестник Воронежского государственного университета.Серия: Филология. Журналистика .2004 N№С-158

[24] Қаранг: Гунько Ю.А. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос. ун-т, 2002. – 24 с.

[25] Й.В.Гёте Maximen und Reflexionen . (Werke) , М.Акбаров (таржимон) “Ҳикматлар хазинаси”. Шарқ нашриёт-мабаа, акциядорлик компанияси , Бош тахририяти, 2008 .Б-19

[26] Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи : Филол. фан. д-ри ... дис. автореф..Тошкент-2015

[27] Гунько Ю. Оссобенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русскогоязыка: Дисс....дра. филол. наук. – Санкт Петербург, 2002. – С.76-77.

Pretsedent nomlar deganda, avvalambor, taniqli badiiy asar, tarixiy shaxs, siyosiy arbob, xalq uchun ma’lum bir qiymatga ega bo‘lgan geografik voqelik, shuningdek, keng tarqalgan ma’lum bir vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan individual ismlar tushuniladi. Pretsedent nomlar nazariyasi rus tilshunosligida keng va chuqur tadqiq etilgan mavzulardandir. Ularning aksariyatida muayyan adib asarlaridagi nomlarni tahlil qilishga katta e’tibor qaratilgan[28]. Badiiy asarlardagi pretsedent nomlarni aniqlash, ularni mazmuniga ko‘ra tasnif qilish matndagi lingvopoetik vazifasini aniqlash markaziy o‘rinni egallaydi.

Tilshunos tadqiqotchilar o‘rtasida dolzarb masala - bu hozirgi kungacha qizg‘in muhokama qilinayotgan pretsedent nomlarni aniqlash mezonlari masalasidir. E.A.Naximova o‘zining “Ommaviy kommunikatsiyadagi pretsedent nomlari” nomli asarida pretsedent nomlarni tanlashning quyidagi mezonlarini belgilaydi:

1. **Grafik mezon -** ommaviy axborot vositalari matnlarida, pretsedent antroponimlar (atoqli nomlar) turli imlolar bilan uchraydi: ba’zi hollarda kichik harflar bilan, ba’zilarida katta harflar bilan. Katta harf muallif tasvirlagan otni atoqli ot sifatida belgilashini bildiradi.

2. **Morfologik mezon -** bu mezon atoqli otni birlik va ko‘plik shaklda qo‘llashni nazarda tutadi. Ko‘pincha atoqli ot birlikda ishlatiladi.O‘z navbatida umumiy otlar sonlarda o‘zgarishga moyil bo‘ladi.

3. **Tinish belgili mezon -** pretsedent nom uchun eng xarakterli va o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan mezondir. Odatda, so‘zning o‘ziga xos qo‘llanilishini ta’kidlash va foydalanish uchun pretsedent nomi qo‘shtirnoq ichiga olinadi.

4. **Atributiv mezon -** ushbu mezon ishlatilgan pretsedentning maxsus, g‘ayrioddiy ma’nosini ta’kidlaydigan ta’riflar bilan tavsiflanadi.

5. **Vaqt mezoni -** Ko‘pincha muallif pretsedent nomdan foydalanganda ataylab g‘ayrioddiy vaqtdan foydalanadi. Masalan, o‘tmishdagi raqamlar hozirgi zamonda qo‘llanilganda.

6. **Pretsedent manbalariga havolalar -** aytish joizki, ayrim hollarda pretsedent otlar hech qanday manbalarsiz qo‘llanadi, lekin muallif tomonidan pretsedent nomi olingan manbalarga havolalar berilgan holatlar ham mavjud.[29]

Pretsedentlik nazariyasida pretsedent nomlarini farqlash uchun xizmat qiluvchi ko‘plab mezonlar mavjud. Taqdim etilgan mezonlar pretsedent manbalari uchun eng muhimi hisoblanadi. SHuningdek, hozirda ham tilshunoslar tomonidan batafsil tadqiqot qilinadigan mezonlar sifatida foydalanib kelinmoqda.

Hulosa qilib aytish mumkinki, pretsedent nomlar nutqiy jarayonda qo‘llanganda so‘zlovchining fikridagi ta’sirchanlikni oshirish, ongangni o‘zgaritirishi, emotsional-ekspressivligini berish maqsadida foydalaniladi. Buning natijasida so‘zlovchi o‘z nutqidagi fikrning samaradorligiga erishadi.

**D. Ma’murov, D. Vahobov – Farg‘ona davlat universiteti talabalari**

## EYLATON MADANIYATI DAVRI YODGORLIGI – XONOBOD-1

Eylaton nomi Andijon viloyati Izboskan tumanidagi qishloq nomidan olingan. Bu yerda qadimiy madaniyatlaridan briga tegishli yirik Eylaton shahar harobasi topilgan. Eylaton davri asosan Chust madaniyatidan keyingi madaniy davr sifatida tarixga kirgan. Eylaton qabrqo‘rg‘oni 1932-yilda aniqlangan. Keyingi davrlarda esa aynan mana shu davrga oid bo‘lgan ko‘plab qabrqo‘rg‘onlar topib o‘rganiladi. Va ularga umumiy qilib Eylaton davri madaniyati deb nom berilgan. Eylaton shahar harobasining maydoni ko‘plab manbalarda 200 gektar deb beriladi[30].

Eylatonda uy-joylar paxsadan, ba’zida xom g‘ishtlardan tiklangan va bitta oila yashashi uchun mo‘ljallangan. Yashash xonasidan tashqari yordamchi xo‘jalik majmuasi: o‘ralar, maydonlar va o‘choqlar topilgan. Shu tufayli, oldingi tadqiqotchilar Eylatondagi aholi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangan deb takidlaganlar. Vaholanki, bu madaniyatga oid aksariyat yodgorliklar ko‘chmanchi chorvador qabilalariga tegishli bo‘lgan hamda hududiy jixatdan ular asosan tog‘ oldi va adirliklarda yashaganlar. Bularga misol

[28] Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: Теория и методика когнитивнодискурсивного исследования. – Екатеринбург, 2011; Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: Дисс. ...дра. филол. наук. – СанктПетербург, 2014.
[29] Е.А.Нахимова Прецеденты имена в массовой коммуникациии. Монография, Екатеринбург 2007. С.60-72
[30] [Латынин, 1935; Заднепровский, 1960]

sifatida Oqtom qabrlarini, Xonobod-1 qabrqo‘rg‘oni va boshqalarni ko‘rsartishimiz mumkin. Ular aynan mana shunday ko‘chmanchi chorvador qabilalarning mozor qabristoni bo‘lgan. Xonobod-1 qabrqo‘rg‘oni 2020-yili B. Abdullayev va N. Kambarovlar tomonidan topilgan bo‘lib ayni vaqtda ushbu yodgorlikning xususiyati va topilmalar, ko‘mish marosimlari bo‘yicha tadqiqot olib borilmoqda. Bu yodgorlik O‘zbekistonning eng sharqiy hududi hisoblanmish Xonobod shahridan uncha uzoq bo‘lmagan adirlikda topilgan. Yodgorlik joylashgan hududda mahalliy aholi uzoq vaqt davomida g‘isht quyish maqsadida tuproq kavlab olgan. Natijada odamlar tomonidan turli hil sopol buyumlariga, tosh uyumlariga va odam suyaklariga duch keladilar[31]. Agarda 2020-yilgi mavsumda arxeologik tadqiqotlarida Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti talabalari qatnashgan bo‘lsa, 2021-yilgi mavsumda Farg‘ona universiteti Tarix fakulteti talabalari, jumladan ushbu satrlar muallifi, arxeologik dala tadqiqotlarida ishtirok etishdi.

2020-yilning yozida bu hududlarda arxeologik surishtiruvlar o‘tkazilgan va yodgorlikning taxminiy kordinatalari aniqlanadi. Mahalliy aholi bilan suhbat davomida bu yerdan juda ko‘plab sopol idishlar va ularning bo‘laklari uzoq yillar davomida topib kelinganligi haqida ma’lumotlar olinadi. Shu yerlik kishilar bilan suhbat davomida qabrqo‘rg‘on hududi aniqlanadi va datllabki arxeologik izlanishlar olib boriladi. Izlanishlar natijasida bu qabrqo‘rg‘onning taxminiy maydoni 0.5 gektarni tashkil etishi aniqlanadi va dastlabki arxeologik qazishmalar boshlanadi. Dastlabki izlanish natijasida bu yerdan Eylaton davriga hos bo‘lgan kulolchilik buyumlarining parchalari topib o‘rganiladi. Bu yerda bir narsa biroz etibor tortadi – juda ham katta tosh qoplamasining mavjudligi edi. Bunday tosh qatlamlar tadqiqotchilarni fikriga ko‘ra asosan mozorlarda bo‘lar ekan. Shundan so‘ng bu yer Eylaton davri chorvadorlarining qabrqo‘rg‘oni ekanligi aniq bo‘ladi. Bu yerdan topilgan sopol buyumlar asosan “Mato shablon”da tayyorlanganini ko‘rish mumkin. Chunki har bir sopol parchasini yuvish davomida shuni ko‘rishimiz mumkinki sopollarda matoning izlari va uni olish jarayonida kuydirilgan qora dog‘larni ham ko‘rishimiz mumkin. 2020-yilda olib borilgan arxeologik qazishmalar shuni ko‘rsatadiki bu yerdan topilgan sopol buyumlar Eylaton davriga hos bo‘lgan belgilardan iborat bo‘lib, idish bezaklari och jigarrang yoki och qizil fon ustiga to‘q qizil yoki to‘q jigar rangida tushirilgan. Biroq, bu naqshlar kosaning faqat pastki qismiga tegmaydi. Yani ilk temir davr odamlari asosan shunday yo‘l bilan sopol idishga naqsh solishni san’at darajasiga yetkazganlar. Tadqiqotchilarni takidlashicha, Xonabodni o‘ziga xos xususiyati – unda Chust, Eylaton va Sho‘raboshot madaniyatlari elementlarini o‘zaro singdirishidir. Bu ularning orasida so‘nggi ikkitasining qorishuvi (sintezi)ga olib keladigan ma’lum bir munosabatlar mavjudligini ko‘rsatadi[32]. Xar bir sopol buyumdagi naqsh ma’lum bir manoni anglatar ekan. Shu bilan birga ushbu tadqiqot yilida ikkita qabr aniqlangan lekin to‘liq qazish ishlari 2021-yilda amalga oshirildi[33].

Arxeologik izlanishlarni 2021 yildagi natijasida Xonobod-1 qabrqo‘rg‘onidan o‘sha davrga mansub bo‘lgan qabrlar topib tekshirila boshlandi. U yerdan hozirgacha qabr deb taxmin etiluvchi 4 ta tosh uyumi topilib tekshirilmoqda. Ushbu qabristonning o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lib, qabrga avval mayit qoyilgan, so‘ngra uning ustiga yog‘och bilan yopib ustidan tuproq-tosh-tuproq-tosh qatlam tarzda ko‘milgan. Shundan so‘ng esa marhumning yaqinlari uning qabri ustidan toshlardan iborat uyum hosil qilganlar. Toshlar ham ma’lum bir tartibdada terilgan. Kuzatishlarim natijasida qabrlarga toshlar ma’lum bir hajmda joylanganki marhumning bosh qismidan yirik toshlar oyoq qismidan esa mayda toshlar topildi. Qabrlarning hajmi esa deyarli bir biriga o‘xshashdir. Qabrlarning o‘lchamlari tahminan quyidagich bolgan: uzunligi 1.90-2 metr, eni 0.9-1 metr va chuqurligi 1 metr atrofida bo‘lgan.

Bu davr odamlarining o‘ziga hos bo‘lgan diniy qadriyatlari va urf odatlari bo‘lib, qabrga jasad qo‘yilayotganda u narigi dunyoda foydalanadi degan maqsadda uning yoniga sopol buyumlarda ovqatlar bilan birga ko‘milgan edi. Shu bilan birga qabr-qo‘rg‘on tuproqi va toshlari orasiga sopol parchalangan holda tashlab turilgan. Tadqiqotchilarni fikriga ko‘ra, bu hol ajdodlarimizning o‘ziga hos urf odatlaridan biri hisoblangan. U davrdagi an’anaga ko‘ra bir tepalikka faqat bir urug‘ga mansub insonlar ko‘milishi mumkin edi xolos. Qabrlarning bosh tarafida esa marhum hayotida foydalangan deb taxmin qilinadigan sopol idishlar butun xolatida qo‘yib ko‘milgan. Odatda bu sopol buyumlar qabrdagi jasadning o‘ng yelkasi tarafiga qo‘yilgan. Lekin Xonobod-1 qabrqo‘rg‘onida olib borilgan arxeologik ishlar shuni ko‘rsatdiki bu

---

31 [Abdullayev, Kambarov, 2021]
32 [Abdullayev, 2018; Abdullayev, Kambarov, 2021]
33 B. Abdullaev N. Kambarov PRELIMINARY RESULTS OF STUDIES MONUMENTS OF KHANABAD, The history of the Fergana valley in new researches – online conference, Ferghana, 2021, https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1299

yerdagi qabrlarning nafaqat o‘ng elka tarafidan balki umuman o‘ng tomondan ham sopol idish topilishi kuzatildi. Bu masalada bir qancha taxminlar ilgari surilmoqda.



1-rasm. 1-qabr kesmasi (tosh va tuproq qatlamning ko‘rinishi)



2-rasm. Qazuv tadqiqoti jarayoni (Xar bir qatlamda bosqichma-bosqich qazuv ishlari amalga oshirildi)



3-rasm. 1-qabrning qatlamlarining ko‘rinishi



4-rasm. Qazuv maydonining barcha qatlamlarni mujassamlashtirgan holatdagi ko‘rinishi

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu yodgorlik Farg‘ona vodiysining miloddan avvalgi 2500 yillikdagi tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu tarix o‘sha davrning diniy

qarashlari, ko'mish urf-odat va an'analari, moddiy madaniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu tadqiqot davomida yosh tarixchi arxeologlar uchun ham amaliy o'rganish imoniyati yaratildi va yangi tadqiqot usullaridan foydalanish o'rgatilib kelajak tadqiqotchilarni tarbiyalash maqsadi nazarda tutilgan.

**A.A. Sayitxonov - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**S. Sodiqova - O'zbek tili filologiyasi fakulteti talabasi**

## INNOVATSION FAOLIYATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mehnat, kapital, tabiiy resurslar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar qatorida yana bir omil – innovatsion resurslar ham paydo bo'ldiki, mazkur omil ilmiy-texnik loyihalarni tijoratlashtirish, ya'ni ulardan bozor raqobati sharoitlarida foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini taqdim etdi. Biroq, mazkur omilning rivojlanish holati va darajasi turli davlatlarida turlicha bo'lib, O'zbekistonda ushbu omildan samarali foydalanish borasida ayrim muammolar mavjud. Mazkur muammoning hal etilishi respublikamizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlar va hududlar iqtisodiyoti hamda istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun, eng avvalo, innovatsiya tizimini qanday ko'rinishda shakllantirish, innovatsiya faoliyatini qanday tashkil etish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash lozimligi haqida aniq tasavvur va yo'nalishga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiyalar jahon iqtisodiyotining barcha sohalarida zamonaviy rivojlanish mazmuniga aylanib ulgurgani barchaga ayon va bunga innovatsiya faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish orqali erishilganligini hisobga olsak, innovatsiya faoliyatining mazmun-mohiyatini bilish zarurligini anglab yetish mumkin.

Innovatsiya faoliyatining bugungi kunda hayotimiz mazmuniga aylanib borayotganligi va o'z kelajagimizni qurishda maqsad va strategiyalarimizni amalga oshirish jarayoniga tobora chuqur kirib borayotganligi, shu bilan birga yangidan-yangi imkoniyatlarini taqdim etayotganligi mazkur atamaning mazmunini o'rganish va yoritishga bo'lgan qiziqish va intilishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu manosabat bilan turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar tomonidan turli mazmundagi ta'riflar ishlab chiqilmoqda, keltirilmoqda. Ular bir-biridan tubdan farq qilmasa-da, biroq, innovatsiya faoliyatining muayyan xususiyatlari, yo'nalishlari va jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan ajralib turishini ko'rish mumkin. Bu esa ularning qaysi biri innovatsiya faoliyati atamasining tub iqtisodiy mazmun-mohiyatini batafsilroq ochib berishga xizmat qilishi mumkinligini o'rganishga bo'lgan qiziqishni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan quyidagi bir qator keltirilgan ta'riflarni ko'rib chiqqamiz. Rus olimlaridan A.N.Folomev "Innovatsiya faoliyati – tugallangan ilmiy-tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar natijalarini o'tkazishga qaratilgan jarayon"[34] degan tushunchani yoqlagan bo'lsa, yana bir necha rus iqtisodchi-olimlari V.V.Glushenko, I.I.Glushenkolar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra: "innovatsiya faoliyati – ishlab chiqiriluvchi mahsulot nomenklaturasini kengashtirish, yangilash va sifatini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish, ularning kelgusi joriy etilishi bilan bog'liq texnologiyalarni takomillashtirish va ichki va tashqi bozorlarda samarali amalga oshirilishiga yo'naltirilgan faoliyat"ni anglatadi[35]. V.L.Popov biz o'rgangan iqtisodchi-olimlardan farqli ravishda innovatsiya faoliyatiga nisbatan birmuncha kengroq va to'liqroq mazmundagi quyidagi ta'rifni beradi: "innovatsiya faoliyati – tugallangan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yo bo'lmasa, bozorda sotiladigan, yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonda amalga oshiriluvchi, amaliy faoliyatda foydalaniluvchi yangi yoki boshqa takomillashgan mahsulotda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni, shuningdek, shu bilan bog'liq qo'shimcha ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirishga qaratilgan jarayon"[36]. Vatanizmida ham innovatsiya sohasiga oid keng ko'laamli ilmiy-nazariy va fundamental tadqiqotlarni olib borayotgan ko'plab iqtisodchi-olimlar bo'lib, ular ham innovatsiya faoliyatiga o'zlarining mustaqil qarashlarini o'z tadqiqotlari va asarlarida keltirishgan.

---

[34] Фоломьев А.Н. Инновационный тип развития экономики России. – М.: РАГС, 2005. – С. 68. *(С. 584)*
[35] Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2004. С.34.
[36] Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11

Jumladan, E.Egamberdiev va X.Xo‘jaqulovlar tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra “Innovatsiya faoliyati– texnika va texnologiya yangiliklarini joriy etish bilan bog‘liq faoliyat”[37]dir.

Mazkur atamaga berilgan olim va muxatassislarning ta’riflarini yana ko‘plab keltirish mumkin, biroq, olib borgan tadqiqotlarimiz asosida qisqacha tarzda biz innovatsiya faoliyatiga quyidagi mazmundagi ta’rifni to‘g‘ri, deb hisoblaymiz: innovtsiya faoliyati – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish-faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat. Mazkur faoliyatni amalga oshirish, so‘zsiz, mablag‘lar sarfi, ya’ni investitsiyalar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli mablag‘ solish bilan bog‘liq innovatsiya faoliyatini innovatsion investitsiya faoliyati, deb atash maqsadga muvofiq keladi. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda o‘z ob’ekti va sub’ekti bo‘lganidek, innovatsiya faoliyatining ham o‘z ob’ekti va sub’ekti mavjud. Mamlakat hududida joylashgan mulk shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, korxonalar tomonidan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish innovatsiya faoliyati ob’ekti hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatda qatnashuvchi mulk shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar barcha yuridik shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar innovatsiya faoliyati sub’ektlari hisoblanishadi. Innovatsiya faoliyati sub’ektlari huquqlari tegishli qonun hujjatlari, shuningdek, bosh Qomusimiz – O‘zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi bilan kafolatlanadi.

Innovatsion faoliyatni sub’ektlari tarkibida innovatorlar ham bo‘lishi mumkin. Innovatorlar – bular innovatsiyalar mualliflari (foydali model, loyihaviy qaror, taqsimot takliflari, nou-xau, sanoat namunasi, tijorat belgisi va boshqa turdagi innovatsiyalarni ixtiro qiluvchilar).

Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo‘lishi va bajarilishi talab etiladi:

- davlat innovatsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexnizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;
- investitsiya salohiyati (davlat, tarmoq, korxona va tashkilotning) – turli ko‘rinishdagi resurslar yig‘indisi;
- innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o‘z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat) larini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning faoliyat sohalari;
- innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta’sir ko‘rsatuvchi turli muassasalar (innovaitsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o‘quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar);
- innovatsiya dasturi (korxona, tarmoq, hudud, davlat, mintaqa, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo‘yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulot (texnologiya)larni o‘zlashtirish va joylashtirish bo‘yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta’minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Jahon tsivilizatsiyasi va iqtisodiyoti, unda har bir davlatning o‘z o‘rni va iqtisodiy salohiyatini oshirishda innovatsiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bunda yuqori innovatsion o‘sishga imkon beruvchi asoslarni yaratish va takomillashtirish va uni moliyalashtirish eng muhim masala hisoblanadi. Bugungi kunda jadal innovatsion o‘sishga erishishning bosh omili uning ilmiy asoslarini kuchaytirish va ulardan samarali foydalanishdan iborat bo‘lib, respublikamizda innovatsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishda mazkur yo‘nalishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir:

-fanning innovatsionligini oshirish, bunda sohaga iqtidorli yoshlar oqimini oshirish orqali uning yosh tarkibini yaxshilash, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarining real integratsiyalashuvini kuchaytirish lozim;

- xalqaro integratsiya va globallashuv imkoniyatlaridan faollik bilan foydalanish zarur;
- davlat akademik institutlar va oliy o‘quv yurtlarida fundamental tadqiqotlar uchun keng maydon ochib berish, bu sohaga iqtidorli yoshlar oqimining kirib kelishini yetarli darajada qo‘llab- quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga olishi lozim. Nazariy o‘sish innovatsion o‘sish uchun ozuqa muhiti bo‘lib, ilmiy ixtiro va kashfiyotlarni yangi texnologiyalarga joriy qilishga xizmat qiladi.

[37] Egamberdiev E., Xo‘jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. – T.: TMI, 2003. – B. 26. *(186-b.)*

**A.A. Sayitxonov - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**X.H. Xolbo'tayev - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## GLOBALLASHUV JARAYONINING YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATIGA TA'SIRI

Globallashuv jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga shiddat bilan kirib borib, ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar ta'sirida turlicha namoyon bo'lmoqda. Shu bois mazkur fenomen «ijtimoiy hayotning turli tuzilmalari, aloqa va munosabatlarini butun Yer shari miqyosida bir butunga aylanishi»[38], «milliy chegaralarning yuvilib ketishi»[39], «kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik makonlarning bir tizimga birlashuvi»[40], tarzida turlicha ta'riflanmoqda. Garchand, globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati haqidagi mazkur fikrlar xilma-xil bo'lsada, ularni birlashtiruvchi umumiylik, bu - ushbu tendentsiya oqibatida jahon mamlakatlari yagona «ijtimoiy organizmning hujayralari» sifatida tobora o'zaro bog'liq bo'lib borayotganligini, shu bilan birgalikda global taraqqiyotda yangi imkoniyatlar hamda muammolar vujudga kelayotganligining e'tirof etilishidir. Darhaqiqat, globallashuv, avvalo, insoniyat tamadduni mahsuli sifatida noyob fenomendir. Shu bilan birga u nafaqat ijobiy, balki salbiy jarayonlarning ham dunyoga keng tarqalishiga, ilgari insoniyat duch kelmagan muammolarning yuzaga chiqishiga ham turtki bo'lmoqda. Ushbu «hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi»[41] jarayonida jamiyatlardagi mavjud ahloqiy stereotiplarning jadallik bilan o'zgarishi yuz bermoqdaki, oqibatda ko'plab kishilar o'z milliy, shaxsiy ahloqiy qadriyatlari, ideallarining qadrsizlanishi sharoitida ma'naviy-ruhiy o'zligini yangidan «kashf» etishga majbur bo'lmoqdalar. Mazkur jarayon esa butun millatlar uchun murakkab evrilishlarni, fojiali oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

«Globallashuv, aslini olganda, ko'klarga ko'tarib maqtalayotgan umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayoni emas, balki mutlaqo o'zga holatni - jamiyatning «g'arbona» modeli ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Bugun globallashuv deb atalayotgan jarayonni g'arblashtirish deya aniqroq ifodalash mumkin»[42]. Bu jarayon milliy ma'naviyat va ahloqqa tahdid solib, jamiyatni g'oyaviy izdan chiqarishi bilan xarakterlidir. Amerikalik olim Dennis Brutusning fikriga qaraganda globallashuv «profits before people» ya'ni, «foyda insondan muhim» printsipi asosida harakat qilmoqda. Bu jarayonning tarqalishi bilan ijtimoiy hayotda inson qadri yo'qolib, pul ahloq ustidan hukmronlik o'rnatmoqda»[43].

Aytish mumkinki, hozirgi global dunyoda yagona axborot makoni shakllandi**.** Shu makondan munosib o'rin egallash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaviy dunyoda jurnalistlar geosiyosatchilar kasbiga qiyoslanmoqda. Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas. Zero, odamlarda, axborotni eng avval berolgan, doimo haq bo'ladi degan qarash mavjud bo'ladi.

Aytish mumkinki, hozirgi global dunyoda yagona axborot makoni shakllandi**.** Shu makondan munosib o'rin egallash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaviy dunyoda jurnalistlar geosiyosatchilar kasbiga qiyoslanmoqda. Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas.

Globallashuv sharoitida tarbiya jarayoniga xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ma'naviy-ahloqiy tarbiya jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir. Shaxsning ijtimoiy faolligi, uning chinakam fuqaroviy munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi, ko'zlangan maqsadlarga tezroq

---

[38] Чумаков А.Н. Глобализация, контуры целостного мира. –М.: «Проспект», 2005. с. 31
[39] Milliy istiqlol g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. –T.: «Akademiya», 2005. 81-bet.
[40] Huseynova A. Migratsiya va uning ijtimoiy-ma'naviy muhitga ta'siri xususida. // «Falsafa va huquq» jurnali, 2008. 1-son, 14-bet.
[41] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. 111-bet.
[42] В.Иноземцев. Ветернизация как глобализация и "глобализация" как американизация. // Вопроси философии. 2004. № 4 60- стр.
[43] http// www. Perspektivy Info/print. php

erishishning muhim omilidir. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi bosqichi huquqiy munosabatlardagi ishtirokchilarning huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni taqozo etmoqda. SHuning uchun yoshlarning huquqiy muhofazasiga huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini yanada kengroq jalb etish kerak. Buning uchun joylarda, o'quv yurtlarida yoshlar o'rtasida huquqiy mavzuda suhbatlar, tushuntirish ishlari olib borish, vaqtli matbuot nashrlari va ommaviy axborot vositalari orqali ko'proq chiqishlar qilish talab etiladi.

Globallashuvning bugungi kunda yana ham keng miqyosida avj olishi sharoitida ta'lim-tarbiyaning uyg'unligini ta'minlash dolzarb vazifa darajasiga aylandi. Bu borada Prezidentimizning «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz»[44] deb aytgan so'zlari bunga misol bo'la oladi. Chunki, agar ta'lim- tarbiyadan ajralgan holda, ya'ni yoshlarga faqat bilim berish bilan cheklanadigan bo'lsak, ularni ana shu bilimlarni egallashlari mumkin, ammo vatanparvarlik, millatparvarlik ota-ona, mahalla – ko'y oldida mas'uliyat kabi qadriyatlardan bebahra bo'lib qoladilar. Bunday holatning yuzaga kelishi esa istiqbolda mamlakat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun salbiy zaminlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

O'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ular bari bir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o'zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga hizmat qiladigan bunday sa'iy-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o'rnatishidan iborat. Bunday sa'y-harakatlarning xatarli jihati shundaki, uning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlari, an'ana va qadriyatlariga qay tarzda ta'sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi.[45]

Ana shunday global ta'sirlar xalqaro telekommunikatsiyalar, internet tizimi orqali yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotganligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan xaqiqatdir. Kino, video, seriallardagi va reklamalardagi har bir kadr teletomoshobinga axborot yetkazadi. Uni qanday qabul qilishni esa tomoshabinga buyura olmaysiz.

Globallashuv jarayonining salbiy holatlaridan saqlashning yana bir muhim omili xalq donishmandligi, xikmatlar mazmunini yoshlar ruhiyatiga singdirish bilan bog'liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bugungi barkamol avlod tarbiyasi jarayonida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, respublikamizning ko'pmillatliligidan kelib chiqqan holda millatlararo munosabatlar jarayonidagi ustuvor tendentsiyalarni o'rganish yuzasidan doimiy sotsiologik – monitoring olib borish zarur;

Ikkinchidan, globallashuv jarayonining respublikamizdagi milliy munosabatlarga, shuningdek, milliy bag'rikenglik tuyg'usi rivojiga ta'sirini ilmiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganish, doimiy tadqiqotlar ob'ektiga aylantirib, tegishli ilmiy xulosalarni ishlab chiqish lozim;

Uchinchidan, jahon tan olgan ulug' mutafakkirlarimizning bag'rikenglikka doir qarashlaridan chuqur tadqiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan samarali foydalanish kerak;

To'rtinchidan, milliy bag'rikenglikning jamiyat barqaror taraqqiyotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda mafkuraviy targ'ibot vositalari yordamida targ'ib etishning aniq yo'naltirilgan mexanizmini shakllantirish darkor.

---

[44] Sh.Mirziyoev. "Erkin va faovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" - T.: O'zbekiston, 2017.14 b.
[45] Umarov B. "G'arb tamadduni: inkiroz alomatlari". "Tafakkur" jurnali, 2/2007 yil, 16-bet.

**O‘.N. Ahmedova - Farg’ona viloyat xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hududiy markazi o’qituvchisi**

## JAMIYATDA UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA TEXNOLOGIYASINING ZARURATI

O’zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Mamlakatimizda xalq farovonligini oshirish, iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi O’zbekistonni yangicha tamoyillar bilan barpo etish yo’lida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “...yangi O’zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi, ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat»[46].

Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to’liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko’tarishni taqozo etadi[47] , degan masala dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatni milliy yuksalish g’oyasiga ehtiyojini va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirishda, davlat va jamiyat taraqqiyoti bosqichida barcha sohalarning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarga tayanishni talab etmoqda.

Tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug’ullanmagan mamlakat turg’unlik va inqirozga mahkumdir. Chunki, o’sishi va taraqqiyoti uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to’xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishda ajdodlardan yuqoriroq darajaga ko’tarilishi lozim.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya texnologiyalari tarbiya sohasining ilg’or innovatsion texnologiyalar asosini taqozo etadi. Jamiyatda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning sub’ektlari o’rtasidagi barqaror munosabatlarning mavjudligi natijasida rivojlanish ro’y beradi. Jamiyatni ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni genezisi ma’naviy-ma’rifiy targ’ibotning natijasidagi xulosalar va munosabatlar boshlanishi bilan paydo bo’ladi. Shaxslarning o’zaro munosabatlari turli shaklda, ijtimoiy sub’ektlar yoki ular o’rtasida yuzaga keladigan aloqalar ijtimoiy munosabatlar ko’rinishi hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojlanishidagi ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni ilmiy munosabatlarini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo’lish mumkin. Birinchisi, moddiy munosabatlar bo’lsa, ikkinchisi, ma’naviy munosabatlardir. Moddiy munosabatlar bevosita insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi hamda moddiy madaniyat shaklida (moddiy boyliklarni yaratish, taqsimlash va iste’mol qilish) mustahkamlasa, ma’naviy munosabatlar ideal, ya’ni axloqiy, badiiy, falsafiy, diniy qadriyatlar bilan bog’liq holda shakllanadi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya texnologiyalar – ma’lum ma’naviy ahamiyatli maqsadlarga erishish yo’lida insonning maqsadli faoliyatini amalga oshirish usulidir. Buning mohiyati – bu bajariladigan ishlar kelgusida muvofiqlashtirish hamda ratsional ongni taqsimlashdan iboratdir. Bunday taqsimlash avval, ongli va rejali ilmiy bilimlardan, ilg’or tajribalardan, shuningdek inson faoliyati amalga oshiriladigan sohalarni o’ziga xosligini olgan holda amalga oshiriladi. Integratsiyalashgan tizim hodisalar va jarayonlar majmui bo’lib, u bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lgan ijtimoiy-madaniy va bir vaqtni o’zida ijtimoiy-ma’naviy shakllanishni o’z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir[48]. Zero, uzluksiz ma’naviy tarbiya texnologiyalari ob’ektiv qonunlarning talablarini ijtimoiy-ma’naviy boshqarishning amaliyotga ko’chirish vositasi hamdir. Bunda jamiyat rivojlanishini ob’ektiv qonuniyatlari shaxslarni rag’batlantiruvchi, tartibga soluvchi, aniq qarorlar, me’yorlar, ko’rsatmalar shaklida ifodalanadi. Bu jamiyatda aniq oldinga qo’yilgan maqsadlarga

---

[46] https://xs.uz/uzkr/post/tarbiyada-tanaffus-bolmajdi
[47] O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1059-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi ( www.lex.uz. ) 2020 yil 3 yanvar.
[48] Афанасьев В.Г. Научное управление обществом. Москва. ИПЛ. 1973. – С 45.

eng yaxshi natijalarga erishishni ta’minlaydi. Uzluksiz ma’naviy texnologiyalar jamiyatdagi qonun va qoidalarni amaliyotda, ya’ni ijtimoiy hayotda tadbiq etilishining usullari, me’yoriy darajalari va xususiyatlarini ong va qalbdagi akslanishi hisoblanadi. Bunda, institutsional kontseptsiya jamiyat tomonidan qabul qilingan fan loyihasi tomonidan qabul qilingan bo’lsa, uning tamoyillari tarixiy shakllangan va amalda ishlab chiqilgan boshqaruv institutsional modelida namoyon bo’ladi. Bu munosiblik jamiyatning samarali rivojlanishi, uning ijtimoiy taraqqiyoti uchun kalit hisoblanadi. Shunday qilib, agar jamiyatni ilmiy boshqarish loyihasi dunyoviy va ruhiy hokimiyat idoralarining ajralib turadigan standartlari, shuningdek dunyoviy muassasalar yoki ruhiy kuchlar institutlarining ustunligiga asoslangan bo’lsa, bu loyiha metafizik fan loyihasiga, dualizm va antropotsentrizm tamoyillariga mos keladi. Ma’naviy va dunyoviy hokimiyatlarning kelishuv amaliyoti bilan belgilanadigan ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimida qabul qilinadi.

Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish va innovatsion taraqqiyot tushunchalari zamonaviy rivojlanishimizni umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Bugungi kunda dunyoda innovatsion g’oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo’lmaydi. Insoniyatning eng katta boyligi – bu shu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyati hisoblanadi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya texnologiyalari zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi lozim. Shunga ko’ra birinchidan, oilalarda uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi o’z ichiga mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Bola tug’ilganidan 3 yoshgacha bo’lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim tizimida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish texnologiyalari, bunda 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlar, jumladan, o’z tuyg’ularini boshqarish ko’nikmalarining rivojlanishi; o’z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko’nikmalarining yuzaga kelishi; shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo’lishi; ijtimoiy motivlar va milliy an’analarga qiziqishning paydo bo’lishi, o’zini namoyon qilishga intilish; muvaffaqiyatga erishish ehtiyojining tug’ilishi; o’ziga o’zi baho berish, tevarak-atrofdagilarga ma’naviy-axloqiy munosabatning paydo bo’lishi; bola faoliyatining yetakchi turlari - muloqot, o’yinlar, mashg’ulotlar; nutq va uning asosida ma’naviyat asoslarining rivojlanishi kabi fazilatlarni shakllantirishni o’z ichiga oladi.

Uchinchidan, umumiy o’rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish bo’lib unda, umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturlari o’quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetentsiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi.

Xulosa qilib, O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida uzluksiz ma’naviy tarbiyaning rivojlantirish mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashib borayotgani, xalqimizning jahondagi rivojlangan millatlar qatoridan joy olishga intilishi, moddiy – iqtisodiy omillar, yuksak texnologiyalar bilan bir qatorda, ma’naviy omillarni rivojlantirishni ham taqozo etayotganligi bilan bog’liqdir. Bu esa, yoshlarga Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag’rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetentsiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun milliy g’oya muhim hisoblanadi. Yuksak marralarni ko’zlagan har qanday davlat o’z milliy g’oyasini zamon talablari va shaxslar dunyoqarashining yuksalishi bilan bog’lab rivojlantirib borish ehtiyojidan kelib chiqadi. Barkamol avlodni voyaga yetkazish, xalqimiz turmush darajasini yuqori bosqichga ko’tarish, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni maqsad qilib olgan bugungi O’zbekiston uchun ham milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichida milliy yuksalish g’oyasi hayotiy zaruratdir.

**A.A. Sayitxonov - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## INNOVATSION FAOLIYAT, INNOVATSION TAFAKKUR-JAMIYAT TARAQQIYOTINING GAROVIDIR

Innovatsiya- bu insonlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tubdan yaxshilaydigan hamda kishiga qo‘shimcha foyda keltiradigan yangi bilimlarni olishdir. Innovatsiya ko‘p hollarda iqtisodiy (moddiy) ravishda qo‘shimcha daromad keltiradigan o‘zgarish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan innovatsion dunyoqarash deb hayot va hayotiy ko‘rsatmalarni taraqqiyotga mos ravishda o‘zgartirish uchun yangi bilimlarni olishga bo‘lgan intilish va unga mos ravishda faoliyat olib borishdir. Buning uchun yoshlarga ijodiy, ilmiy va kasbiy faoliyatda samarali foydalanish uchun davlat miqiyosida keng imkoniyatlar yaratib berish talab etiladi. Shu boisdan ham yoshlarning ilmiy va innovatsion dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shuningdek, “Innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj va innovatsion ijodkorlik natijalarining hayotga tadbiq etilishi o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishning hayotiy mezonlaridan biri bo‘lib hizmat qiladi. Barcha sohalardagi kabi ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlar hech qachon to‘xtamaydi. Ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarning diomiy oshib borish qonuni sohaga oid innovatsion rivojlanishning dialektik inkor asosidagi yo‘nalishini aniqlab beradi”[49].

Innovatsion faoliyat bevosita yangi g‘oyalarni taqdim etish, yangiliklarni bilishning yangi usullarini ishlab chiqish, innovatsion tadqiqotning metodologik yo‘nalishlarini ishlab chiqishni talab etadi. Innovatsiyaning mazmuni ko‘p tomonlama boshqalar o‘ylamagan narsalarni yaratish hamdir. Innovatsiya deganda, kishilar o‘zlariningn ehtiyojlarini qondirish uchun ob’ektiv olamni va o‘zlarini anglash va hatti-harakatlarining natijalari va jarayonini kengaytirishni davom ettirishga faoliyati tushunulinadi. Yoki aniq kilib aytganda, innovatsiya deganda, odamlar nimadir yoki uning ayrim qismlarini narsalarni o‘zgartirish qonunini muayyan maqsadlar uchun uni yangilash va rivojlantirish uchun o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar nazarda tutiladi. Shu maьnoda innovatsiya ijodkorlikni o‘z ichiga oladi. Yangi ijod odatda asl narsalarga yoki ularning o‘zgarishiga asoslanadi. Inson ijodkor qobiliyatini bir necha qismga ajratish mumkin: biri yangi fikrlarni o‘ylab topish va ishlab chiqarish, ikinchisi harakat qilish va g‘oyalar asosida yangi narsalarni yaratishdir. Umuman olganda, avval innovatsiyani yaratish g‘oyasi paydo bo‘ladi. Keyin esa innovatsiyani yaratish harakati yuzaga keladi. Yaratilish va innovatsiya ham o‘ziga xos ma’noga ega. Yaratilish yangicha fikrlashni anglatadi, innovatsiya esa yangi ish qilishni anglatadi.

Innovatsiya-bu jamiyat rivojining zaruriy sharti bo‘lib, fan yutuqlari va yaratilgan yangilik, kashfiyot va ixtirolar yordamida ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Innovatsiyalar tahlili ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy yangilanish mexanizmlarini tushunishda muhimdir. Innovatsion mavzularda nashr etilayotgan kitoblar hamda innoavtsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ko‘plab ilmiy-tadqiqot markazlari shu soha bilan bog‘liq muoammolarni muhokam qilishda muhim o‘rin egallamoqda. SHu bilan birga bugungi kunda innovatsiyalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish tezligi juda ham past darajada, chunki, innovatsion jarayonning yagona nazarisi yo‘qligi bunga sabab bo‘lmoqda. Yangilikning paydo bo‘lishi va uning inson hayotining barcha sohalarida ijtimoiy voqelikka aylanishi to‘g‘risidagi bilimlarning rivojlanishi innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi tasavvurlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Innovatsiya tushunchasining paydo bo‘lishi bilan ustuvorliklar o‘zgaradi. Bugungi kunda “innovatsiya atamasi keng qo‘llanilmoqda, uning ma’nosi ham o‘zgarib va takomillashmoqda, u yangi tabiiy-ilmiy va texnik imkoniyatlarni izlashdan tortib ularni amalda tadbiq etishgacha butun ishlarning umumiy ko‘rinishi sifatida baholanmoqda”[50]. Innovatsiya anchagina murakkab muammodir va uni biror bir fanning maxsus tadqiqot usullari bilan to‘liq hal qilib bo‘lmaydi. Innovatsion jarayon o‘ziga xosligi tufayli yangi metodologiyani yaratish yo‘llarini nazariy aks ettirishn talab etadi. U nafaqat innovatsion

[49] A.I.Saitqosimov. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari. Fan doktori(DSc)disertatsiyasi avtoreferati.-Samarqand,2019.-B.16

[50] Баранчеев В.П., Масленникова Н.П., Мишин В.М. Управление инновациями. Академический курс. Юрайт-2019.-747 с.

sohada faoliyatning individual ishlab chiqarish usullarini tushunishga va oʻzlashtirishga, balki tafakkurning asosiy usullariga ham oʻzgartirish olib kirishi kerak. Innovatsiya-bu insoniyat ierarxiyasining barcha shakllari va darajalariga xos boʻlgan ijodiy qobliyatni amalga oshirishdir. Shu bilan birga bitta innovatsiya ikkinchisini qoʻzgʻatadi, oʻzgarmas (texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy) zanjir yaratadi, bunda innovatsiyalar turli xil miqyoslarga, chegaralarga va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi. Bunday kombinatsiya koʻp bosqichli, koʻp oʻlchovli va boshqalardan aniq shaklda namoyon boʻladi. “Innovatsiya-bu ijodiy faoliyatning keng miqyosda qoʻllaniladigan va inson, jamiyat va tabiatning hayot faoliyatida sezilarli darajada oʻzgarishlar yuz berishiga olib keladigan progressiv natijasidir”[51].

Innovatsion tafakkur nima? Bu narsa va hodisalarning mazmun-mohiyatini tushunish qobliyati degani. Bu har qanday soha mutaxassisiga zarur, chunki kasbga oid har qanday masalalarning yangi va orginal yechimini topish qoliyatidir. Aynan isteʼdodli insonlar innovatsion va ijodiy tafakkurga ega boʻlishadi. Innovatsion tafakkurga ega inson ish faoliyatida kamroq xatoga yoʻl qoʻyadi. Har qanday vaziyatda u nostandart qaror qilishga tayyor turadi. Afsuski, hozirgi paytda zamonaviy taʼlim tizimi nostandart tafakkurni rivojlantirishga qaratilmagan. Koʻpgina odamlar stereotiplar asosida fikrlashadi, qarorlar qabul qilishda ham qabul qilingan shablonlardan foydalanishadi. Kishilarga vaziyatni tahlil qilish texnalogiyasini oʻrgatish zarur, optimal yechimlar qabul qilish, shuningdek innovatsion tafakkur qilishni oʻrgatish zarur. Chunki. “fuqarolarning farovonligi har qanday davlatda oʻsha jamiyatdagi innovatsion rivojlanishga bevosita bogʻliqdir”[52].

Innovatsion faoliyat murakkab tuzilishga ega boʻlgan koʻplab jarayonlarning yaxlit najijasidir. Bugungi kunda kelajak avlodni innovatsion jarayonlarga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani bajarish oiladan boshlanadi hamda taʼlim-tarbiya maskanlarida takomillashadi va yangi mazmun kasb etadi. Noodatiy va oʻzgacha fikrlashning ushbu holati innovatsion jarayonga asos boʻluvchi va uning natijadorligini iaʼminlaydigan xususiyati sezilarli darajada koʻzga koʻrinadi. Bunday fikr yuritishni “innovatsion tafakkur” deb ataymiz. Innovatsion tafakkurning aolhida taʼrifi shuki, yosh-avlodni keng dunyoqarashi bilan ijodiy harakatchanligi tub aloqadadir. Bunday tafakkurni faqatgina aqliy modellar bilan bogʻlash, aql bu jarayonning xarakatlantiruvchi yagona kuch va atrof-muhitning moddiy oʻzgarishi natijasida yuzaga keladigan yakuniy natija deb hisoblashimiz toʻgʻri emas. Chunki, innovatsion tafakkur insonda shaxsiy motivatsiya, oʻz-oʻzini anglash, oʻz ijodiy qobliyatlarini toʻgʻri baholash, ulardan samarali foydalanish orqali paydo boʻladi va tobora sayqallanib, rivojlanib boradi. Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etishda amalga oshirilayotgan tub islohotlar samaradorligini taʼminlashda jamiyat moddiy va maʼnaviy salohiyatidan oqilona foydalanish muhim ijtimoiy va maʼnaviy omil sanaladi. Bu faoliyatning mazmuni va muvaffaqiyati koʻp jihatdan mutaxassis kadrlarning bilimdonligi, hayotiy yangilanishlarga maʼnaviy va intellektual tayyorgarligi darajasiga bogʻliqdir. Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, «bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi gʻoya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi»[53]. Shu bois jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida innovatsion faoliyatlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

---

[51] Карпова Ю.А. Инновации, интлект, образавание.-М.,1998.-С.21

[52] Шиндина Н.И. Особенности инновационного развития в современном обўестве: социологический аспект// Научно-методический электронный журнал «Концепт».-2017, №4,-03 пл.URL:http://ekohcept/ru//2017//170088.htm. ART170088.

[53] Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. – B. 88.

**G'. Rahmonov – Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**

## SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH SUV XO'JALIGI TIZIMINI ISLOH QILISHNING MUHIM SHARTI

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sug'orish tarixini ob'ektiv va ilmiy jihatdan o'rganishga, xususan, Farg'ona vodiysiga alohida e'tibor berildi. Xususan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga "sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya inshootlarini rivojlantirish, intensiv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy suv va resurs tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish usullari, yuqori unumdor qishloq xo'jaligi texnikasidan foyda olish muhim vazifalar "[54]. Shuning uchun sug'orish va rivojlanish tarixini o'rganish barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bizga ma'lumki, mustaqillik yillarida respublikada, shuningdek, Farg'ona vodiysida suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborga olingan. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lganligi sababli, erlarning ko'p qismi sug'oriladigan dehqonchilik va meliorativ holatiga asoslanadi. Prezidentimiz tomonidan sohani rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan ko'proq farmon va qarorlar, shuningdek ular asosida amalga oshirilayotgan ishlar fikrimizning yaqqol isbotidir. Masalan, shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojaatida suv xo'jaligini boshqarishni yangi darajaga ko'tarish, energiya manbalarini keng joriy etish kabi bir qator muhim sohalar mavjud. qishloq xo'jaligida sug'orish texnologiyalarini tejash, suv resurslarini boshqarish va hisobga olish tizimini avtomatlashtirish bo'yicha vazifalar tayinlandi. Xususan, bayonotda: «2020 yilda biz 44000 gektar erga, ya'ni o'tgan yilga nisbatan qariyb 4 baravar ko'proq suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilamiz. Buning uchun davlat byudjetidan 300 milliard so'm mablag' ajratiladi. Shuningdek, suv inshootlarini, suvni boshqarish va hisobga olish tizimini boshqarishni avtomatlashtirish kerak. Ushbu muammolar suv xo'jaligini rivojlantirish kontseptsiyasida aks ettirilishi kerak. Vazirlar Mahkamasiga konsepsiya loyihasini joriy yilning 1 apreligacha ma'qullash uchun taqdim etilsin"[55].

Shuningdek, mustaqillik yillarida ushbu tizimni rivojlantirish va mamlakatda qonuniy kafolat berish maqsadida ayrim qonunlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Shuning uchun ushbu huquqiy hujjatlar Farg'ona vodiysidagi sug'orish inshootlarini himoya qilishga ham qaratilgan. Xususan, 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonun suv resurslaridan oqilona foydalanishga bag'ishlangan. Xususan, 111-moddada shunday deyilgan: «Aholini va iqtisodiyotning kelajakdagi suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek suvni himoya qilish va suvning zararli ta'sirini oldini olish uchun suvdan integratsiyalashgan foydalanish va himoya qilishning asosiy va havza jadvallarini bajarish kerak. va boshqa choralar" [3.p.45. Ko'rinib turibdiki, hozirgi islohotlar jarayonida, avvalambor keyingi avlod ehtiyojlari va talablarini qondirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun asos bo'lgan mamlakatni rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan. mamlakatda muvozanatli tabiiy resurslar va atrof-muhitni saqlab qolish uchun sharoit yaratadi.

Biz ushbu maqoladan ko'proq misollar keltirishimiz kerak. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, suv resurslarini himoya qilishning huquqiy samaradorligini ko'p jihatdan bu ishning huquqiy asosi sifatida ta'minlash, xususan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu masalaga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Xususan, tabiat va suv resurslarini muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yaratishga va ushbu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkita to'g'ridan-to'g'ri moddalari ushbu masalaga bag'ishlangan. Masalan, Konstitutsiyaning 50-moddasida: "Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari shart" va 55-moddada:

---

[54] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PD-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. №6 (766) 70-modda. Toshkent: Adolat, 2017.

[55] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24 yanvar, 2020 yil.

"Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy resurslar milliy hisoblanadi. boylik, ulardan oqilona foydalanish kerak va ular davlat himoyasida "[56]. Aynan Konstitutsiyaga muvofiq qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Xususan, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonunlar tabiat va suv resurslarini himoya qilishga qaratilgan.

Farg'ona vodiysida mustaqillik yillarida sug'orish va melioratsiya sohasini rivojlantirish va tizimning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi investitsiya dasturi to'g'risida" gi qaroriga binoan 2017 yilda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 131,49 mln ajratilgan. Joriy yilda ushbu loyihalar uchun 198,77 million AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy va kredit mablag'laridan foydalanish rejalashtirilgan. AQSh dollari miqdoridagi kapital qo'yilmalar (109,5%) yo'naltirildi va foydalanildi. Xususan, sug'orish tizimini rivojlantirish uchun sarf-xarajatlar quyidagi bosqichlardan iborat edi. Xalqaro kuchlar va imkoniyatlarga ega Jahon bankining ko'magi bilan Prezidentimiz tomonidan 2015 yil 16 sentyabrda "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish" loyihasining ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida sug'orish tizimini modernizatsiya qilish, sug'orish inshootlarini rekonstruktsiya qilish bo'yicha qator muhim choralar ko'rildi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar qatoriga Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini ta'minlash, suv resurslarini boshqarish sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, 2020-2030 yillarda suv resurslarini boshqarish kontseptsiyasini o'z vaqtida va sifatli ishlab chiqish, amalga oshirish kiradi. suv sohasida istiqbolli loyihalar. investitsiyalar, ssudalar va grantlarni jalb etishni kengaytirish hisobiga suv inshootlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha ishlar kelgusida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uning sug'orish tizimida, boshqa barcha sohalarda bo'lgani kabi, ulkan tub o'zgarishlarni amalga oshiruvchi tub islohotlar amalga oshirildi. Melioratsiya sohasida zamonaviy usullar va tajribalarni qo'llash va o'rganishga katta e'tibor qaratildi, chunki maqsad qishloq xo'jaligini tegishli sug'orish orqali saqlash edi.

Umuman Farg'ona vodiysida sug'orish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim choralar ko'rildi. Tizimni modernizatsiya qilish uchun unga katta miqdordagi mablag' sarflandi va bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib bordi. Natijada sug'orish va melioratsiya zonalari zamonaviy uskunalar bilan ta'minlandi. Istiqlol yillarida vodiydagi haydaladigan erlarning suv bilan ta'minlanishini yanada yaxshilash, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish, sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha qator amaliy choralar ko'rildi.

**G'. Raxmonov – Farg'ona davlat universiteti fuqarolik jamiyati kafedrasi o'qituvchisi.**
**R. Raxmonova - Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## TALABA-YOSHLAR TAFAKKURIDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARINI SHAKLLANTIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

O'zbek tilida bag'rikenglik sabrlilik, qanoatlilik, toqatlilik, bardoshlilik, chidamlilik kabi bir qator sinonimlarga ega. Bag'rikenglik g'oyasi yzoq tarixga ega bo'lib, ushbu tushuncha asrlar davomida shakllana bordi va bu jarayon hozirda ham davom etmoqda.

Bag'rikenglik haqidagi ilk tasavvurlar Kichik Osiyoda oltin va kumush tangalar zarb qilishdagi og'irlik me'yorlaridan biroz og'ishga bo'lgan sabr-toqatli munosabatga borib taqaladi. Qadimiy Yunonistonda kemasozlik texnikasi va inson organizmiga dori-darmon qabul qilishdagi me'yorlardan og'ishga bo'lgan munosabatda ham bag'rikenglik o'z aksini topgan[57]. Bag'rikenglik tushunchasi bizning

---

[56] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2019.
[57] Tinchlik va bag'rikenglik: atamalar lug'ati. T.; -2005.-b. 14

davrimizda ham texnika va tibbiyot sohalarining muhim atamasi sifatida saqlanib qolgan bo’lsa-da, ushbu tushuncha o’z mohiyatini sezilarli ravishda o’zgartirgan va asosan gumanitar sohalarda keng qo’llaniladi.

Bugungi kunda ham xalqlar va dinlar orasidagi bag’rikenglik, tolerantlik g’oyasi dunyoning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Tolerantlikni zamonaviy tushunish va anglash jarayonlari XX asrning so’nggi choragidan boshlangan. 1995 yili 16 noyabrda Parij shahrida YUNESKO tashkiloti 185 davlat ishtirokida “Bag’rikenglik tamoyillari Deklaratsiya”si imzolandi. Mazkur hujjat tolerantlikni dunyo rangba-rangligi asosidagi erkinlik tamoyillari sifatida baholadi.

“Tinchlik va uyg’unlikda bahamjihat yashashni o’rganish” turfa xil madaniyatlardan tarkib topgan jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Turli-tuman madaniyat vakillari yonma-yon istiqomat qiladigan turfa xil madaniyatli jamiyatda yashash juda sermazmun va serqirradir. Ushbu jamiyatning tinchligi va barqarorligini ta’minlash turli madaniyatlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning uyg’unligiga bog’liqdir. Ushbu jarayon "hamjihatlikda yashashni o’rganish” deb yuritiladi va u jamiyat tinchligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ijtimoiy hamkorlikning tarixiy ildizi, ijtimoiy-madaniy omillari haqida shunday yozadi: "Ma’lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko’p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo’stlik, -ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag’rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo’lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi"[58].

Bag’rikenglikni namoyon qilish ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo’lishni, o’z iymon-e’tiqodidan voz kechish yohud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. Aksincha, u inson huquqlariga ehtirom bilan munosabatda bo’lishni, inson huquqlariga faqat o’zigina esa, balki boshqalar ham ega ekanligini tan olishni anglatadi.

Har kim o’z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog’i lozim. Odamlar o’z tabiatiga ko’ra, tashqi ko’rinishi, qiyofasi, o’zini tutishi, nutqi, hulqi va qadriyatlari jihatdan farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o’zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidir[59].

Yoshlar tafakkuriga qaratilgan turli tahdidlarning ortishi esa, aynan talabalik yillarida yoshlarni tolerantlik asosida tarbiyalanishini muhim ijtimoiy-siyosiy vazifaga aylantiradi.

Shuning uchun talabalarga millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik barcha millat vakillari bilan totuv yashashning ahamiyatini asoslab bera oladigan dinlararo bag’rikenglikning mohiyatini tushuntirish maqsadida respublikamizda ta’lim tarbiya tizimiga diniy bag’rikenglik, tolerantlik va diniy konfessiyalararo munosabat tamoillarini joriy etishga alohida etibor qaratilmoqda.

Talaba-yoshlarda bag’rikenglik tafakkurini shakllantirish masalasi hamda uning ta’lim tizimiga joriy etish jarayonida quyidagi tamoyillarga rioya etish talab etiladi:

- demokratik va fuqarolik, dunyoviy jamiyat qadriyatlari, umumbashariy va milliy mezonlar uyg’unligiga tayanish;
- “g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat” g’oyasi talablarini bosh yo’nalish qilib tanlash;
- milliy g’oya, milliy manfaatlar va milliy mafkura g’oyalarini yoshlar tafakkurida uzluksiz shakllantirish tizimini yaratish;
- “kuchli davlatdan, kuchli jamiyat sari” g’oyasining ta’lim va tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida uzluksiz shakllantirishga erishish;
- yoshlarning ijtimoiy yo’naltirilgan faolligi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o’rganishga bo’lgan ehtiyojini hisobga olish;
- yoshlarni shaxs sifatida kamol toptirish faoliyatiga davlat va jamiyat rivojining kelgusi takomili asosi sifatida qarash;
- yoshlarni jamiyat rivojining istiqbol zahira boyligi sifatida anglash.

Talaba-yoshlar tafakkurida bag’rikenglikni shakllantirish vazifasi pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan bo’lib, uning ijobiy yechimi yoshlarni dunyoviy ilmlar asosida tarbiyalashning muhim talablaridan biridir.

---

[58] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag’ishlangan uchrashuvdagi nutqi.

[59] “Bag’rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi” 1-modda 4-band

Bag’rikenglik tushunchasini talaba-yoshlar tafakkurida shakllantirish jarayonida ularning bilim saviyasi va tafakkuridagi tolerantlik bo’yicha bilim darajasini belgilab olib, so’ng barcha guruhlar saviyasini nazariy va amaliy bilimlar bilan boyitib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur pedagogik jarayon talaba-yoshlarning yosh xususiyatlari, ularning o’z fikriga ega bo’lishga intilishi, ularning muloqot olib borish, bahs qilish, o’z fikrini birovlarga o’tkazish madaniyatlari darajalarini ham inobatga olish zarur. Chunki bag’rikenglik insonning umumiy bilim va madaniyat darajasini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlar doirasiga kiruvchi qadriyatlardan hisoblanadi.

Agar jamiyat a’zolari umumiy maqsad yo’lidagi g’oyalarni bevosita o’z taqdiri bilan bog’liq holda anglasalar, har bir fuqaro o’z taqdirini jamiyat taqdiri, o’zi yashayotgan mamlakat taqdiri bilan bog’liq holda tushunsa, mamlakat aholisi o’rtasida yaxlit ijtimoiy birlik vujudga keladi. Ana shunday ma’naviy-ruhiy yakdillik holati esa jamiyatda umumiy ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashning asosi bo’lib xizmat qiladi[60].

Talaba-yoshlarda bag’rikenglik tafakkurini shakllantirishning asosiy maqsadi ularda dunyoviy va diniy bag’rikenglik, o’zga din va millat vakillariga hurmat, o’zga madaniyatlarni qadrlash, milliy boyliklarga hurmat bilan qarash, sabr-toqatli bo’lish, do’stlik munosabatlarini o’rnata olish va qadrlash, oila va jamiyatda bardoshlilik ko’nikmalarini ko’rsata olish, birodarlik, hamdardlik, hurfikrlilik, sadoqat, e’zoz, birovlarni kamsitmaslik, o’zgalar xatolari ustidan kulmaslik, o’zgalarni xo’rlamaslik, o’z kuchiga haddan ziyod ishonmaslik, tinchlik va totuvlikni qadrlash, insonlarni barqarorlikka safarbar eta olish kabi ko’nikmalarni tarbiyalashga qaratilgandir.

**N.M. Asadullaeva - Farg‘ona davlat universiteti fuqarolik jamiyati kafedrasi o‘qituvchisi**

## TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA TALABA-YOSHLARNI TARBIYALASHNI IJTIMOIY-FALSAFIY SHAKLLARI

Jahonda innovatsiya, intellekt evolyutsiyasi, kasb va axloqqa oid bilim ijtimoiy hayotning muhim qadriyati sifatida e’tirof etilmoqda. Dunyoning Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarida «inson kapitali», «shaxsiy kompetentlik», «boqiy ta’lim», «intellektual madaniyat» yo‘nalishlari ustuvor hisoblanadi. Bunda har jihatdan faol mutaxassislarni tayyorlash jamiyat istiqbolining negizi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarning irodali, iymon-e’tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslar qilib tarbiyalash hozirda dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda ayniqsa, hozirda oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning o‘z sohasining bilimdoni, innovatsion g‘oyalar egasi, ijtimoiy faol bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlari uning o‘z mavqeini belgilashi va o‘zini rivojlantirish usullari bilan bog‘liq. Zamonaviy talaba mustaqil ravishda nafaqat ijtimoiy moslashish bilan bog‘liq, shuningdek, jamiyat hayotida o‘zini o‘zi ijodiy amalga oshirish yo‘nalishlari va usullarini topishi bilan bog‘liq vazifalarni hal qilishi mumkin va kerak. Bunda uning uchun bu jarayon qaysi sharoitlarda pedagogika nuqtai nazaridan eng samarali bo‘lishi muhim. SHu munosabat bilan zamonaviy oliy ta’lim muassasasining eng muhim vazifalaridan biri talaba shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirishdan iborat. Ijtimoiy-professional vazifa va rollarni samarali amalga oshirish ham aynan unga bog‘liq.

Falsafiy adabiyotlarda “ijtimoiy faollik” atamasi turlicha ta’riflanadi. Talqinning turlicha bo‘lishi tushunchaning murakkab ekanligi, jumladan, uni shakl va variantlari turli ko‘rinishlarga ega ekani bilan bog‘liq. Falsafa nuqtai nazaridan – bu “individ va ijtimoiy guruhlarning jamiyatdagi faoliyat xarakterini aks ettiruvchi” tushunchadir[61]. Ijtimoiy faollik ehtiyojning harakat omiliga aylanishi, bilish va maqsadni o‘ylash bilan bog‘liq.

[60] Jo’raev N. Inson va jamiyat. - T.:- 2005. — b. 181
[61] Социальная активность [Электронный ресурс] / Философский словарь. – Режим доступа : http://www.edudic.ru/fil/1160/# – Дата доступа : 10.09.2012.

Tadqiqotchi G.M. Kodjaspirova ijtimoiy faollikka quyidagicha ta’rif beriladi: “SHaxsning faolligi shaxsning dunyoga faol munosabatini, insoniyatning tarixiy tajribasi asosida moddiy va ma’naviy muhitda ijtimoiy-muhim o‘zgartirishga qodir ekanligini bildiradi”[62]. Ijtimoiy faollik ”sub’ektning ijtimoiy yaxlitlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirishdagi integrativ tavsifi” sifatida talqin qilinadi[63]. Ushbu tavsiflarning faoliyatga oid ekanligini, sotsiumda birga mavjud bo‘lish va hayotning barcha sohalarida o‘zini amalga oshirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Ijtimoiy faollik o‘quvchi yoshlarga moslashtirilganda shaxsda tashkilotchilik mahoratini tarbiyalash, jamoat ishiga qiziqish uyg‘otish, jamoat topshiriqlarini bajarishda mas’uliyatni his qilish, tashabbuskorlikni ishchanlik bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Tadqioqtchi E.F. Shakirova “ijtimoiy faollik” kategoriyasining umumiy tavsifini quyidagicha belgilaydi: sub’ektning ijtimoiy faoliyatda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati; ijtimoiy muhit va o‘zaro munosabat sub’ektinig o‘zgarishi(u tomondan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi); jamiyat, madaniyat, ijtimoiy qonunlarni o‘zlashtirishi va ularni amaliyotda qo‘llashi; ijtimoiy sub’ekt xulqi-atvorining usuli; harakat qilishga ichki tayyorgarlik; sub’ekt tomonidan o‘ta normativ faoliyatning namoyon etilishi; insonning jamiyatda yashashga faol munosabati; jamiyat tomonidan topshirilgan vazifalarni ijodiy bajarish, ijtimoiy innovatsiyalarni yaratish; asosida ijtimoiy muhim ehtiyojlar yotgan ichki sabab va rag‘batlantiruvchi omillarning mavjudligi[64].

Shunday qilib, talabaning ijtimoiy faolligini ijtimoiy bilimlar, baholashga oid mulohazalar va kechinmalar, mustaqillik va tashabbusga, dunyoqarashga oid yo‘naltirishlar, harakatlarning bir butun sistemasidan iborat bo‘lgan shaxsning integrativ sifati ma’nosida ko‘rib chiqish kerak.

Ijtimoiy faollikni shakllantirishni falsafiy jihati shaxsning tasavvurlari va uning turli tarkibiy qismlarini o‘zaro aloqalari bilan chambarchas bog‘liq. Talaba-yoshlarning ijtimoiy faollik tizimida quyidagi tarkibiy qismlarni ko‘rsatish mumkin:

- shakli bo‘yicha: professional va professional bo‘lmagan;
- turlar bo‘yicha: mehnatga oid, siyosiy, bilishga oid;
- yo‘nalish bo‘yicha: ijtimoiy, aksilijtimoiy;
- amalga oshirish sohasi bo‘yicha: ishlab chiqarish, boshqaruv.

Har bir konkret holatda ijtimoiy faollikning mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash va uning kechishiga yordam berish uchun, ijtimoiy faollikning ko‘rsatkichlari, mezonlarini ajratib ko‘rsatish kerak. Bunda quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ijtimoiy faoliyat olib borishda rivojlanish darajasi, qobiliyat, iste’dod, qiziqishlaridan maksimal foydalanish; onglilik darajasi; holislik, beg‘arazlik.

Ba’zi mualliflar mezon sifatida faoliyatning ma’lum bir turlariga sarflangan bo‘sh vaqtlarini, motivatsiya elementlarini mavjudligini, mehnatdagi o‘ta normativlikni e’tiborga oladilar. Ayrim faylasuf tadqiqotchilar quyidagi mezonlarni ajratib ko‘rsatadi: ijtimoiy orientatsiyaning yo‘naltirilganligi; faoliyatning miqdor va sifat ko‘rsatkichlari; boshqalar bilan o‘zaro muloqotga kirishishning sabablari.

Talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirish muammosi bo‘yicha real tajriba va ilmiy adabiyotlar tahlili bir qator shartlarni ajratib ko‘rsatish imkonini berib, ularga rioya qilish bu jarayonni optimallashtirishga olib keladi. Zamonaviy mutaxassisda ijtimoiy faollikni shakllantirishning umumiy va muhim shartlaridan biri, ta’lim muassasalari pedagoglarining umumiy chuqur bilimga egaligi(kompetentsiyasi) bo‘lib, professional va ijtimoiy kompetentlilik majmui, shuningdek ijtimoiy hamkorlik, malaka va ko‘nikmalarini anglatadi.

Keyingi pedagogik shart sifatida talabalar ijtimoiy faolligini shakllantirishning qo‘shimcha pedagogik vositasi sifatida, pedagoglar tomonidan amaliy faoliyatda ta’lim muhitining potentsial imkoniyatlaridan foydalanishi mumkinligini aytish mumkin. SHu munosabat bilan pedagoglar ijtimiylashtirishning alohida, o‘ziga xos agentlari sifatida ishtirok etadilar, chunki ularning maqsadlari ijtimiylashtirishning salbiy omillarini bartaraf kilish, va shu bilan birga ijtimoiy tarbiya masalalarini ham

---

[62] Коджаспирова, Г.М. Словарь по педагогике / Г.М. Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. – М. : ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д : Издательский центр «МарТ», 2005. – 448 с.

[63] Словарь социального педагога и социального работника / под ред. И.И. Калачевой, Я.Л. Коломинского, А.И. Левко. 2-е изд. – Минск : БелЭн, 2003. – 256 с.

[64] Шакирова, Э.Ф. Педагогические условия формирования социально активной личности студента / Э.Ф. Шакирова, Г.П. Иванова // Акмеология. – 2012. – №3(43). – С. 51–56.

hal kilishdan iborat. Pedagog talabaning ijtimoiy faolligini oʻzida mavjud boʻlgan ijtimoiy tajriba va uni shaxs tomonidan oʻzlashtirish imkoniyatlari orqali baholashi kerak.

Pedagog talabalarning ijtimoiy faolligi jarayonining sub'ekti sifatida nomoyon boʻlar ekan, tashxis koʻyish bilimidan xabardor boʻlishi va talabalarda mavjud oʻkuv va darsdan tashqari ijtimoiy muhim va foydali faoliyat zaxiralarini faollashtira olishi kerak.

Talabada ijtimoiy faol shaxsni shakllanish jarayoni ta'lim muassasasinig auditoriyadan tashqari faoliyati imkoniyatlarini belgilash va hisobga olishni taqozo qiladi. Bu faoliyat quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshiriladi: talaba va pedagoglarning ijtimoiy qobiliyatlarini ochish, rivojlantirish va ulardan foydalanish; konkret kasbiy mehnat faoliyatini bajarish uchun zarur boʻlgan individual amaliy bilim, koʻnikma, malakalarni shakllantirish; ijtimoiy tajriba, madaniyatdan faol foydalanish. U talabalarni tezroq ijtimoiylashishini, professional muhitga yaqinlashishini, boʻlajak mutaxassisda chuqur professional va shaxsga oid sifatlarni rivojlantirishga olib kelishini ta'minlaydi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni bosqichma-bosqich shakllantirishni ta'minlashni ham pedagogik shartlardan biri sifatida koʻrib chiqish mumkin. Talabalarni darsdan tashqari faoliyatga jalb qilish, professional ta'lim maqsadlarini e'tiborga olish, boʻlajak mutaxassis shaxsini, fuqarosini, erkin va ozod shaxsini tarbiyalash va shakllantirish asosida amalga oshiriladi va ijtimoiy faollik belgilarini shakllantirishga qaratilishini nazarda tutadi.

**N.R. Pulatova - Farg'ona davlat universiteti fuqarolik jamiyati kafedrasi o'qituvchisi**

## ETNO-EKOLOGIK MADANIYATNING MAZMUN-MOHIYATI

Jahonda demografik o'sishning yuqoriligi, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, iqlimning o'zgarishi, ekologik muammolarni globallashuvi tezlashmoqda hamda tabiiy resruslardan foydalanish ko'lamining kengayib borishi bilan ekologik muvozanatni saqlab qolish murakkablashmoqda. Global ekologik barqarorlikni buzilishi va bu muammolarni bartaraf etishda insoniyatni birlasha olmasligi har bir etnik jamoalar, millat va elatlarda ekologik ma'suliyatni shakllantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Bu holat, jamiyatda etno-ekologik dunyoqarash va unga asoslangan etno-ekologik madaniyatni shakllantirish zaruratini ortirib yubormoqda. Xalqaro maydonda ham ijtimoiy-ekologik muammolarni bartaraf etish va halokatlardan saqlashning muhim omili sifatida mahalliy aholining tabiat bilan ongli munosabati natijasida shakllangan an'anaviy bilimlari, qadriyatlari, an'analari va urf-odatlaridan foydalanish ekanligi e'tirof etilmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va xalqaro institutlarida ham atrof-muhit musaffoligini saqlash, tabiatdan oqilona foydalanishning samarador yo'llaridan biri sifatida etnoekologik madaniyatni tadqiq etishga doir izlanishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bu orqali jahon xalqlarining tabiyatdan oqilona, tejamkor, samarali foydalanish tajribasi bo'lgan bilim va ko'nikmalari, odat va qadriyatlari, ta'qiq va erkinliklarni o'zida birlashtirgan etnoekologik madaniyat imkoniyatlaridan global ekologik muammolarga qarshi kurashda foydalanish mumkinligi tadqiq etilmoqda. Ta'lim-tarbiya orqali etnoekologik madaniyatni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqilishi va innovatsion yondashuvlar asosida o'qtilishi yoshlarda ekologik masuliyatni rivojlantirishi ma'lum bo'lmoqda va bu ta'lim tizimida etnoekologik madaniyatni shakllantirish yo'llarini pedagogik muammo sifatida tahlil va tadqiq etishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda ham har bir hududning tabiiy sharoitiga hamda shakllangan an'analariga mos keladigan va ularning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga va bu orqali mintaqaning ekologik barqarorligini saqlab qolishga, «ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda». Bu orqali «atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish»ga harakat qilinayotganligi ham e'tirofga loyiqdir. Biroq O'zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning asrlar davomida shaklangan tabiatdan foydalanish tajribasi, atrof-muhitni asrb-avaylashga doir odat va ko'nikmalaridan

oqilona foydalanish va ijtimoiy-ekologik muammolarni oldini olishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish zarurati ortib bormoqda.

Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, tabiat ustidan hukmronlik qilish istagining ortib borishi xalqlar hayotiga iqlim o'zgarishi bilan bog'liq global xavfni yuzaga keltirmoqda. Bunday vaziyatda javobgarlikni boshqarlarga yuklagandan ko'ra, har bir jamiyat o'zida etno-ekologik madaniyat va etno-ekologik javobgarlikni shakllantirishi muhim vazifalardan biridir. Zero, etno-ekologik nazorat tizimini mavjudlik shartlari (muayyan tarixiy zamonda va ijtimoiy makondagi faoliyati)ga, usuli-vositasi (antiekologik faoliyatlarni chegaralashi, ta'qiqlashi va jazolashi)ga qarab ajratish mumkin. Bundan tashqari, bir tomondan, etno-ekologik nazoratda institutsional tizimning ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq: ishlab chiqarish munosabatlari, mehnat qurollari, texnika, texnologiya, transport, energetika va boshqa moddiy qadriyatlarni ekologik talablar asosida tashkillashtirish, boshqarish funktsiyalarini, ikkinchi tomondan, uning ma'naviy omillarini, ya'ni: etno-ekologik ong, etno-ekologik tafakkur, etno-ekologik bilimlar, etno-ekologik qarashlar, etno-ekologik g'oyalar, etno-ekologik nazariyalar, etno-ekologik ehtiyojlar, etno-ekologik manfaatlar, etno-ekologik dunyoqarash, etn-oekologik e'tiqod, etno-ekologik ideallar, etno-ekologik his-tuyg'ular, etno-ekologik baholar, etno-ekologik motivlar, etno-ekologik normalarni ham reglamentlashtirib turuvchi elementlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takomil-lashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida»gi, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son «O'zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, 2017-yil 21-apreldagi PQ-2915-son "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdnk, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi 363-son «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonun ijrosini hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Xulosa qilganda, bugungi kunda global ekologik muammolarning keng ko'lam kasb etishi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar inosniyatni ekologik muammolarga qarshi kurashni yangi formatga olib chiqishini talab etmoqda. Jahonda tabiatdan nooqilona foydalanish, atrof-muhitning tozaligini buzilishi ham ekologik barqarorlikni o'zgartirib yubormoqda. Bu esa har bir mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishni va ekologik madaniyatni shakllantirishni talab etmoqda. Mana shunday vaziyatda etno-ekologik dunyoqarashni shakllantirish xalqlarning tabiatga ongli munosabati asosida shakllangan qadriyatlaridan ekologik muvozanatni ta'minlashda foydalanish vazifalari yuzaga chiqmoqda.

**S.U. Yuldashev - Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD)**

## IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARGA INNOVASION YONDASHUVLAR

Boshqaruv madaniyatiga maxsus jarayon sifatidagi yondashuv jamiyat hayotining murakkab va dinamik jihat sifatida qaraladi. Boshqaruvning o'zaro bog'liq funksiyalarini bajarishda uzluksiz tizim jarayoni tushuniladi. Bunda qo'yidagi funksiyalar: rejalashtirish, tashkil etish, topshiriqlar berish (ma'muriy boshqaruv), motivasiya, rahbarlik, koordinasiya, nazorat, tadqiqotlar, kommunikasiya, baholash, qaror qabul qilish, personal tanlash, muzokaralar olib borish va vakolat berish kabilarni sanab o'tish mumkin.

Tizimli va vaziyatli yondashuv orqali esa tashkilotda amalga oshirilayotgan jarayonlar, ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi hamma ishtirokchilar o'rtasida sababiy aloqa mavjudligi, tashqi muhit va vaziyat ijtimoiy-madaniy munosabatlar ishtirokchi-sub'ektlar xulqidagi hal etuvchi omil ekanligini tushunish imkoniyati paydo bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonida insonga bo'lgan munosabatni aks ettiruvchi yana bir yondashuv - "inson kapitali" nazariyasi bo'lib, bunga muvofiq korxonada yoki jamiyatdagi inson kuchi kapital, ya'ni mulk sifatida, xususan moddiy qiymatliklar tarzida idrok etiladi. Ushbu nazariya doirasida korporativ boshqaruv madaniyatiga oid jarayonlar va tasdiqlar tadbirkorlarga

tushunarli bo‘lgan iqtisodiy atamalar hamda ijtimoiy-madaniy kategoriyalarda o‘z aksini topadi. Bu ta'limotga binoan, inson kapitali odatda mablag‘ bilan o‘lchanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Innovasiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovasion g‘oyalar, innovasion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"[65] . Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda asosiy e'tibor "Inson manfaatlari - barchasidan muhim" tamoyili va "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" g‘oyasi hayotga tatbiq etilishiga qaratildi. Xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalda himoya qiluvchi yangi tizim paydo bo‘ldi.

Biz yangi O‘zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan uluqvor maqsadni o‘z oldimizga qo‘yganmiz. Bu borada "Jamiyat - islohotlar tashabbuskori", degan yangi g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Bu borada Singapur innovasion siyosatining arxitektori Filipp Yo: "... Innovasiyalar - bu dabdaba emas, balki zaruratdir. Biz doimo eksportga yo‘naltirilgan edik, chunki bizda ichki bozor deyarli yo‘qdir. Bizda qech qanday tabiiy resurslar yo‘q, shu sababdan bizning boyligimiz - bu inson aqli"[66],deb ta'kidlagani bejiz emas. Zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida - inson resurslarini rivojlantirish konsepsiyasi bo‘lib, bunda tashkilot yoki jamiyat manfaati yo‘lida shaxsning o‘z tashabbusi bo‘yicha samarali mehnat qilishi uchun yaratiladigan sharoitlar markaziy masala deb qaraladi.

Jamiyatda shaxsning ijtimoiy-madaniy mavqei unda aniqlangan eqtiyojlari majmuasiga har tomonlama ta'sir etadi. Buning natijasida jamiyatni ilmiy boshqarishga doir qarashlar, yondashuvlarning shakllanishi va ularni hayotda tatbiq etilishi samaradorlikni ta'minlanadi. Bu esa, ilm-fan sohasini rivojlantirish orqali jamiyatning, xususan aholining ijtimoiy-madaniy turmush tarzini o‘zgartirish mumkinligi hisobga olingan. Yuqorida qayd etilgan asosiy boshqaruv konsepsiyalari mazmuni, xususan jamiyatni ilmiy boshqarishda o‘z davriga xos bo‘lgan personal va korporativ boshqaruv yondashuvlarini, uslublarini ifodalaydi.

Hatto ayni paytda ham turli xil taraqqiyot modellarida ijtimoiy-madaniy qarashlarning zamonaviy yondashuvlari qo‘llanib kelinmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy qarashlar ham imkon boricha insonni aynan shu nuqtai nazarda tushunishga va shaxs kamolotini uning tafakkuri, ichki zahiralarini uyhotish orqali erishishga intiladi.

O‘zbekistonda jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalariga yangicha yondashuvlar taraqqiyotimizning yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita boqliqligini ko‘ramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaydi, "Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi - o‘zimiz ma'sul bo‘lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni ma'suliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat. Shunday davr keldi"[67]. Jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida innovasion yondashuvlar jamiyat a'zolarining qech qachon bir joyda qotib qolmasligini va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun faol, ma'suliyatli va aqlli bo‘lib harakatda bo‘lishga undaydi. Ushbu paradigma faylasuflar tomonidan ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy yutuqlarning e'tirof etilishi bo‘lib, u ilmiy jamoatchilikka qator muammolarni qo‘yish va ularni yangicha hal etish usul, vosita model hamda texnologiyalarini ishlab chiqadi.

Jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga paradigmatik qarash mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida innovasion yondashuv sifatida mazkur soha vakillari hamda tadqiqotchilarini qiziqtirib kelmoqda. Natijada jamiyat uchun bugun haqiqat deb olingan tushunchalar ertaga shubha ostiga olinmoqda. Chunki, har qanday ijtimoiy haqiqat nisbiydir, ya'ni bu o‘rinda u to‘liqsiz va noaniq bo‘lib, o‘zgarish va rivojlanish imkoniyatiga egadir.

Jamiyatni ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni ishlab chiqishda innovasion yondashuv shuni taqozo etadiki, jamiyatni barcha sohalarini rivojlanishga maqsadli yo‘naltirilgan holda bevosita ta'sir qilish bilan jamiyatni metodologik usul va vositalar yordamida ilmiy boshqariladi. Jamiyatni ilmiy boshqarishning mazmun-mohiyati esa jamiyat ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosiy maqsadini, yo‘nalishini belgilashdan iborat. Ijtimoiy hayotda manfaatlarni o‘zaro moslashtirish yoki o‘zaro kelishtirish

---

[65] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O‘zbekiston. 2018. - B 20.
[66] http://expert.ru/expert/2011/46/vorovstvo- prekrasnaya-strategiya.
[67] Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. -B 235.

uni oddiy yo‘l bilan hal etish ancha murakkab qisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy qodisalarni oldindan bilish va keng mushoqada etish kishilarning orzu-istaklariga emas, balki jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-madaniy qonuniyatlarini puxta bilishga asoslanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, real voqelikning qal qiluvchi yo‘nalishlarini faqat ravshan tushuna oladigan taqdirdagina to‘qri ilmiy jiqatdan asoslangan siyosat yuritish mumkin[68].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari, shuningdek, har bir davlat organida tashkil etilgan fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash bo‘yicha maxsus bo‘linmalar aholi bilan ishlashning sifat jihatidan yangi samarali tizimini shakllantirdi. O‘zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi davlat boshqaruv tizimini tubdan isloq qilish, "Elektron xukumat" va davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, iqtisodiyotga ma'muriy ta'sirni qisqartirish hamda boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish, sog‘lom raqobat muhiti va qulay investisiya iqlimini yaratish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib, jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalariga innovasion yondashuvlar xususiyat turg‘un holati (jinsi)ga, shuningdek, o‘zgaruvchan darajasi (malaka, kayfiyat)ga ta'sir qilishi mumkin. Boshqaruv jarayonida yuqoridagi holatlarning ahamiyatini ijtimoiy-madaniy o‘rganish muhim amaliy natijani talab etadi. Chunki xususiyatlarning o‘zgarishi ob'ektlarini ma'lum vaziyatlar yuzaga kelganda umumiy ish qobiliyatlarini oldindan aytish imkonini beradi. Bashorat qila olish qobiliyati rahbar ob'ektiga (maslahat) ayrim xususiyatlarini o‘zgartirish orqali ta'sir o‘tkazishi mumkin bo‘ladi. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar xalq boshiga tushushi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan, muammolardan asraydi. Jamiyat boshqaruvida innovasion boshqaruv texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish, olib borilayotgan islohotlarimizning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotida ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalarini tatbiq qilishning innovasion yondashuvlari davlat va jamiyatni ko‘zlangan strategik maqsadlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

**М.А.Маматов - доктор философских наук, профессор Ферганского государственного университета**

## ВКЛАД АЛИШЕРА НАВОИ В ФИЛОСОФИЮ СУФИЗМА

Философ, государственный деятель и великий поэт-гуманист, основоположник узбекской литературы Алишер Навои (1401-1501) внес неоценимый вклад в развитие философии суфийского учения.

Имя Алишера Навои среди классиков мировой литературы находится рядом с такими именами как Гомер и Данте, Рудаки и Фирдоуси, Низами и Руставели, Саади и Джами, Шекспир и Бальзак, Пушкин и Толстой. Жившие позже его выдающиеся поэты Востока называли его своим учителем и наставником.

Венгерский путешественник Арминий Вамбери, в 1863 году побывавший в Средней Азии, писал об Алишере Навои: «величайший узбекский поэт Навои известен всем и каждому»[69].

Его суфийское философско-эстетическое мировоззрение было наиболее ярко отражено в поэме «Лисонут-тайр» («Язык птиц»). В основе этой поэмы лежит суфийская интерпретация сущности человека и прекрасной природы как происхождение божественного начала на Земле, утверждается, что человеку Создатель уготовил свой определенный жизненный путь и каждый может прийти к Аллаху определенным путем.

Он также создал специальную работу по истории суфизма. Его знаменитый труд «Насойим-ул-мухаббат мин Шамойим ул футувват»[70] является оригинальным источником по изучению

[68] J. Tulenov Hayot falsafasi. Toshkent. O‘zbekiston. 1993. -B 309.
[69]https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%BB%D0%B8%D1%88%D0%B5%D1%80_%D0%9D%D0%B0%D0%B2%D0%BE%D0%B8
[70] Навоий А. Насойим – ул муҳаббат. Асарлар. XV том. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968.

истории среднеазиатского суфизма. В ней впервые приводятся сведения о представителях среднеазиатского суфизма – тюркских шейхах[71].

Почти все произведения Алишера Навои навеяны идеями суфизма. Все положительные герои его достойны называться суфиями свои поведением, мировоззрением и деяниями. Однако, его книга о суфиях занимает особое место в его творческом наследии. Данное сочинение состоит из введения, сведений о жизни и деятельности 770 суфиев, в том числе 35 святых женщин. «Насойим ул-мухаббат», как отмечает сам автор в предисловии, является переводом книги Абдурахмана Джами «Нафахот ул-унс мин хазарот ил-кудс», но Навои к источнику относится творчески, уточняет сведения увеличивает численность суфиев и сообщает новые данные о них. Если у Джами их насчитывается 618, то у Навои их на 152 шайхов больше. Как он сам заявляет, в переводимом сочинении упущены некоторые имена суфиев, отмеченных в агиографическом сочинении шайха Фаридуддина Аттора «Тазкират ул-авлиё», которых он восстановил, а также, обогатил свое сочинение информацией об известных тюркских и индийских последователей суфизма[72].

Алишер Навои сам принадлежал суфийскому тарикату Накшбандия[73], главный принцип которого «Даст ба кору дил ба ёр» то есть «сердцем с Аллахом, руки в деле» означал именем Аллаха заниматься полезным трудом. При описании жизни и деятельности известных суфиев А. Навои в своем сочинении обращал внимание именно на профессиональные особенности ставших на путь суфизма. Каждый святой суфи обязан зарабатывать средства на жизнь честным трудом. Например, упомянутые в вышеуказанном произведении шейхи Абу Саид Харроз, Ходжа Абдуллох Ансорий – были сапожниками, Мухаммад Саккок - ножевых дел мастером, Абу Хафиз Хаддод – кузнецом, Махмуд Пахлави – ремесленником-скорняком. А сам основатель ордена Накшбандия Бахауддин Накшбанд был чеканщиком

В произведениях поэта воспевается религиозная, национальная, культурная толерантность, без чего бессмысленно утверждать о всеобщем благе и всемирном общежитии на планете Земля. Герои Навоий – представители различных национальностей, религией и государств – Фархад – китайский принц, его друг Шопур из Индии, Ширин – армянская принцесса[74] и т. д.

Без претворения этих суфийских принципов, развитых в дальнейшем Алишером Навои, в условиях всевозрастающей глобализации, происходящей на нашей маленькой и хрупкой планете говорить об обеспечении стабильности в обществе, мирном сосуществовании и развитии, о счастливом будущем человечества было бы бессмысленно.

В настоящее время ведется подготовка к празднованию 581-летие со дня рождения великого суфия Алишера Навои, которое широко отмечается общественностью регулярно 9 февраля.

В соответствии с Постановлением Президента Республики Шавката Мирзиёева от 19 октябрдаги 2020 года создается международный общественный фонд в целях широкого изучения жизни и творчества Алишера Навои; намечено учреждение ордена “Алишера Навои”; принятие мер по доставке в Республику факсимильных копий сочинений Навои, находящихся за рубежом; а также объявление конкурса научных работ, посвященных исследованию жизни и творчества Навои и осуществление много других конкретных мероприятий, таких как проведение международной научно-теоретической конференции, конкурсов чтецов произведений Навои, сочинений среди учащихся, создание полнометражного художественно-публицистического фильма и др.

Помнить великих предшественников важно, не только потому, что они заслужили почёт и славу, что они всенародно известны. Но полезно современному человеку, особенно, молодежи больше узнать о великой исторической личности, мечтавшей о лучшем будущем человечества, ощутить огромное наследие поэта осознать свою причастность к бережному отношению этой сокровищницы и пробудить чувство гордости за славную историю Отечества, которое является неоценимым фактором формирования патриотизма, толерантности, особенно, у подрастающего

[71] Маматов М.А. Сущность суфизма. –Уфа: изд-во БГПУ, 2011. С.78

[72] Хасан Пулатов, Мамаджон Маматов. Тасаввуф тарихидан лавхалар. (Рассказы из истории суфизма) –Ташкент: Национальная библиотека Узбекистана. 2011. – С 142.

[73] Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. – Москва – Санкт Петербург: Диля. 2004. - С. 254.

[74] Махаматов Т.М., Маматов М.А. Вопросы национально-этнической идентичности и толерантности в политике и творчестве Захириддина Бабура. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции. Москва. МГУ. 2020 г. Том 2. 312-315 стр.

поколения[75] Помнить великих предшественников важно, не только потому, что они заслужили почёт и славу, что они всенародно известны. Но полезно современному человеку, особенно, молодежи больше узнать о великой исторической личности, мечтавшей о лучшем будущем человечества, ощутить огромное наследие поэта осознать свою причастность к бережному отношению этой сокровищницы и пробудить чувство гордости за славную историю Отечества, которое является неоценимым фактором формирования патриотизма, толерантности, особенно, у подрастающего поколения.

Пусть в наш век всеобщей глобализации беспрестанно звучит не подвластное времени и пространству бессмертное слово бессмертного поэта – великого Алишера Навои.

Мир потому-то и жесток, и прочен в нем порок,
Что он любовью пренебрег и в верности не строг.
И если верности в нем нет, то нет и дива в том:
Незыблемы устои бед — всех мук людских исток.
Кто речь по разуму ведет, тот благо обретет:
Все зрелое для всех доход — равно и плод, и слог.
Все, что изведало расцвет, к ничтожеству придет:
Путь шейхов одряхлевших лет к ребячеству пролег.
Людей порочит грубый нрав, марает их тщетой,
Красивый тоже, грубым став, от красоты далек.
Глупец сокровище найдет и сгубит все зазря, —
Так до трухи истреплет кот и дорогой клубок.
О Навои, ты бы пресек общение с людьми:
Одно — достойный человек, другое — дурачок!

**Sh. Ibragimova - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**Z. Ismoilova Zilolaxon - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA KERATIVLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Bugungi kunda jahonda ta’limga kreativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning raqobatbardoshligini ta’minlash, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini shakllantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarning poydevori boshlang‘ich ta’lim sohasida berilar ekan, aynan, bu sohadagi o‘qituvchi bolalarni sevishi, ular bilan ishlashga qiziqishi lozim. Shuningdek u ziyrak va kuzatuvchan bo‘lishi hamda pedagogik tasavvur, bunyodkorlik, tashkilotchilik, haqqoniylik, talabchanlik, qat’iylik, maqsadga intilish kabi xislatlarga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilaridan bilish sohasida keng ilmiy salohiyat, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish pedagogik ma’lumotni oshirishga intilish talab etiladi. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tadbiq etish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. “Kreativlik” tushunchasi ko‘plab pedagog olimlar, tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:
– fikrning ravonligi;
– fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
– o‘ziga xoslik (originallik);

[75] Mamatov Mamadjan.UZBEKISTAN USES POLICIES FOR INTER- ETHNIC RELIGIOUS, CULTURAL TOLERANCE. //Rorea post. –Seoul, 2015-№ 6. p.36-37.

– qiziquvchanlik;
– farazlar yaratish qobiliyati;
– hayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial-ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi. Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon – natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa subyekt – shartlilik tavsifidan foydalanadi.[5, 396-398 b]

Patti Drapeau nuqtai nazariga koʻra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash boʻlajak oʻqituvchilardan oʻquv topshirigʻi, masalasi va vazifalarini bajarishda koʻplab gʻoyalarga tayanishni talab etadi. Patti Drapeau “Agarchi oʻzingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ boʻlganingiz yoki boʻlmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi gʻoyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”, [1, 65 b]- deb ta’kidlaydi.

Ken Robinsonning fikriga koʻra, “kreativlik – oʻz qiymatiga ega original gʻoyalar majmui” sanaladi. Gardner esa oʻz tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat boʻlib, u oʻzida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega boʻlishi lozim”. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat.[2, 528-531 b ]

F.V.Sharipov oʻqituvchining kreativlik kompetensiyasini “ijodkorlik uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma, malaka, shuningdek, shaxsiy xususiyat va qobiliyatlar yigʻindisi” deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, muallif kreativ kompetentsiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini belgilaydi: ijodkor boʻlish, muammoli masalalarni hal qilish qobiliyati; zukkolik; muammolarni hal qilishga noan’anaviy yondashish qobiliyati, tajriba almashish qobiliyati, hissiy-majoziy fazilatlar (assotsiativlik, tasviriylik, yangilik hissi, empatiya), stereotiplarni yengish, gipotezalarni shakllantirish qobiliyati kabi hususiyatlarni keltirib oʻtadi. [4, 72-76 b]

Xulosa oʻrnida shuni ta’kidlash lozimki, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan gʻoyalar, konsepsiyalar hamda ilgʻor pedagogik tajribalar asosida oʻqitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunlifaoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik koʻnikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkomunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
3. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta‘‘limida Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2005. – 140 b.
4. Шарипов Ф. В. Профессиональная компетентность преподавателя вуза // Высшее образование сегодня. 2010. № 1. С. 72-76.
5. N.M.Oʻrinova, D.A.Yoʻldasheva.Boʻlajak oʻqituvchilarni kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 2,Issue 9.2021. 396-398 b.

**D.O. Murotova – Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## ABDULLA QAHHORNING "OG'RIQ TISHLAR" KOMEDIYASIDA HOLAT REMARKASI

Ma'lumki adabiyotning asosiy ish quroli so'z hisoblanadi. So'z esa, albatta, inson faoliyati orqali badiiy asar ma'no-mazmunini ochib beradi.

Adabiyotshunoslik – insonshunoslik deb bejiz aytilmagan. Sababi badiiy asarda inson obrazi asosiy qahramon sifatida qatnashadi. "Adabiy qahramon – adabiy asardagi inson obrazidir. Badiiy asardagi qatnashuvchi shaxslar va personajlarga nisbatan adabiy qahramon deb qarash mumkin."[76]

Bundan ko'rinib turibdiki, dramada ishtirok etuvchi shaxslar shu asarning umumiy g'oyasini ochishga xizmat qiladi. Dramatik turda muallif epik turdagi kabi voqea-hodisalarga aralasha olmaydi, ta'rif berolmaydi. Aynan shu mas'uliyat ham drama qahramonlarining zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan, drama muallifi o'z asarini har bir tasviriga e'tibor bilan mahorat ila yoritmog'i darkor. Bu esa dramaning bosh spetsifik xususiyati, ya'ni uning ikkinchi hayotini sahnada davom etishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu jumladan, Abdulla Qahhor komediyalari ham dramatik turning eng go'zal va takrorlanmas remarkalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shulardan biri "Og'riq tishlar" komediyasidagi holat remarkasidir. Asarning bosh qahramonlari bo'lmish Huzurjonov, Zargarov, Nasiba, Rohila, Fotima, Zuhra va boshqa epizodlarda bu remarka yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda qahramonlarning tashqi qiyofasi tasvirlanib, obrazning to'laqonli talqini uchun xizmat qilgan:

"Zargarovning hovlisida o'sha oshxona, lekin yerda yotgan bir poy eski kalish g'ijimlab tashlangan bir –ikki gazetadan boshqa hech narsa yo'q. Sakvoyaj ko'targan Zargarov kiradi, kiradi-yu, dong qotib qoladi: ko'zlarini ishqab, yirib qaraydi, nihoyat, ko'rayotgani haqiqat ekaniga ishongach bo'shashib ketadi. G'am-koyish xiylagina yengib qo'ygan Marasul kiradi."

Ushbu remarkadagi bir poy eski kalish tasviri orqali o'z hayotini poyma-poy o'tganini anglash qiyin emas. Xo'sh, nega aynan bir poy kalish? Sababi shuki, shon shuhratiga ishongan Zargarov hoy-u havasni deb dastlab bolalarini ayoli bo'lmish Oqiladan voz kechib mol-davlatga o'ch Xumorxon bilan umrini davom ettiradi. Mansabidan ayrilgan keyin ikkinchi xotini ham undan yuz burdi. O'zi bir poy kalishdek yolg'iz qoldi.

"Nasiba (o'pkasi to'lib.) Небо спит звездны спят…

(Kuyunib yig'laydi) [77]

"O'pkasi to'lib replikasidan Nasibaning hayot tashvishlari, yaqinlarining qilgan nojo'ya xatti-harakatlaridan to'yib ketganligini sabr-kosasi to'lganligidan alamzada bo'lib kuyunib yig'laganini ko'ramiz. Lekin ilmga bo'lgan qiziqish, o'zliki sevish kabi tuyg'ulari yetakchilik qilganligi bois hamma narsadan ma'rifatni ustun qo'yadi. Oz bo'lsa-da, o'zi chiqargan taqdiri haqidagi tez qarorlaridan afsuslanadi. Ilm olib hayotda o'z nomiga, o'z o'rniga ega bo'lishga harakat qiladi va asar so'nggida pul, davlat, mansab bilan baxtga erishib bo'lmasligiga amin bo'ladi.

Komediya bo'lishiga qaramasdan, ma'no-mohiyati bilimsiz insonlarning achinarli hayotini tasvirlagani bilan e'tiborga molikdir. Va ta'sir kuchi ham, kitobxon qalbidan chuqur joy olganligi bilan ham diqqatga sazavordir.

Adabiyotshunos B.Jalilov ta'kidlaganidek,"Remarka mustaqil holda yashay olmaydi. U monolog,dialog,poliolog, parda ko'rinishlari bilan xarakterni ochish uchun xizmat qiladi.[78] Remarka orqali kitobxonga asosiy ma'lumot beriladi.

Keltirilgan remarkadan faqat holat tasviri emas, balki qahramon xarakterining qirralari, didi, saviyasi, moddiy va ma'naviy ahvoli haqida ma'lumot beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, remarka dramaning asosiy hamda eng muhim unsuridir.

---

[76] Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati,1983
[77] Abdulla Qahhor.Og'riq tishlar. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti,2001
[78] B. Jalilov. O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari,1984

**Z. Alomova – Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD**
**M. Rasulova – Farg‘ona davlat universiteti 4-kurs talabasi**

## O‘ZLASHMALARNING TIL SISTEMASIGA SINGIB KETISHI

Ma’lumki, til ikki: ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ma’lum shevaga oid so‘zlarni adabiy tilga qabul qilish orqali ichki jihatdan boyib borsa, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish orqali tashqi jihatdan boyib boradi. Muomalada bo‘lgan tillarning deyarli barchasi ma’lum darajada bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.“Tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri, odatda, ularning o‘zaro boyishiga olib kelgan va olib keladi”[79]. Tilshunos O.Azizov ta’kidlaydiki, “…boshqa tillardan birorta ham so‘z kirmagan sof til dunyoda bo‘lmagan va bo‘lishi ham mumkin emas”[80]. O‘zga tillardan lug‘at tarkibiga biror so‘z olib kirmagan til eng qashshoq tildir. “O‘zlashmalar tilning kambag‘alligini bildirmaydi, odatda, ularning o‘zaro boyishiga olib kelgan va olib keladi”[81]. Shuning uchun o‘zlashmalarning lug‘at tarkibi rivojidagi o‘rni katta. Lekin “O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida ta’kidlanishicha, “Til o‘zida vositalar, imkoniyatlar bo‘lgan holda boshqa, o‘zga tildan so‘z olmaydi. Qabul qilinuvchi so‘z ma’lum, biror yangi tushuncha anglatsa, yangi informatsiya tashisa, yoki u yoki bu semantik yukka ega bo‘lsagina tilga kirishi mumkin”[82].

O‘zlashmalar – bu biror bir tildan boshqa bir tilga ko‘chgan lug‘at birliklaridir. O‘zlashmalar, shuningdek, o‘zlashma so‘zlar deb ham yuritiladi. Amerikalik tilshunoslik olim U.Vaynraxning yozishicha, o‘zlashmalarni, ko‘pincha, til aloqasi sodir bo‘ladigan madaniy muhit ehtiyojlariga lug‘atning mos kelmay qolish hollarini tadqiq etgan holda izohlash mumkin[83]. O‘zlashmalar yangi termin, so‘z birikmalari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zlashmalarning til sistemasiga singib ketishi ma’lum sharoit va xususiyatlarga bog‘liq. “O‘zbek tili leksikologiyasi”da quyidagi sharoitlar muhim deb beriladi:

1) o‘zlashma so‘z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo‘lishi;
2) chet so‘z o‘zlashtiruvchi til grammatik klasslari, kategoriyalariga mos kelishi;
3) so‘z uni qabul qilgan tilda fonetik qayta shakllanishi;
4) chet so‘z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi;
5) chet so‘z uni qabul qiluvchi til so‘z yasash sistemasida aktiv ishtirok etishi;
6) chet so‘z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:
a) o‘zlashma so‘z ma’nosi aniq bo‘lishi;
b) o‘zlashma so‘z ma’nosi uni qabul qilgan tilda differensiyatsiya qilingan bo‘lishi;
7) chet so‘z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak[84] .

O‘zlashmalarning o‘zlashayotgan tilga singgib ketishida makon va zamon munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Ya’ni hududning yaqinligi yoki doimiy aloqadaligi ma’lum vaqt davomida boshqa tildan so‘z o‘zlashtirishga bevosita ta’sir etadi. Masalan, pushtu tiliga o‘zlashgan Yevropa so‘zlarining aksariyat qismini inglizcha so‘zlar tashkil etadi. Bu so‘zlar pushtu tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bevosita hind tili orqali kirib kelgan. Bunga sabab hozirgi Pokiston hududida istiqomat qiluvchi pushtuzabon xalq Britaniya Hindistoni tarkibida bovlgan. Pushtu tilida ingliz tilidan o‘zlashgan 400 ta nofaol va 200 ta faol o‘zlashmalar uchraydi[85].

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi ham turli tillardan o‘zlashgan o‘zlashmalar hisobiga boyib bormoqda. Xususan, o‘zbek tilidagi arabcha so‘zlar, asosan, islom dinining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lsa, fors-tojikcha so‘zlar yaqin qo‘shnichilik natijasidir. Ayniqsa, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlarning ko‘p qismini forsiy o‘zlashmalar tashkil etadi. Masalan, *payg‘ambar, andisha, andaza, kon, palov, palaxmon, ohang, sarob, bahor, gul, daraxt, bog‘, bulbul, gugurt, guzar, do‘st, durbin, nayrang, narvon* singari so‘zlar o‘zbek tilidagi forsiy o‘zlashmalardir. Bu kabi so‘zlar qatorini yanada kengaytirish mumkin, albatta. Bu

---

[79] Асфандияров И.У. Восточная лексика в русском языке. Т., Фан, 1991. стр.22
[80] Ibrohimpv A. Boburnomada hindcha so‘zlar. –Toshkent: 2002, -B.35.
[81] Клименко Н.В. Английские заимствования как результат инноваций российской жизни//Международная научная конференция «Язык и культура» Тезисы докладов. Москва, 14-17сентябр, 2001, стр.207.
[82]O ‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. – B. 48.
[83]Вайнрах У. Языковые контакты. -Киев. Издательство при Киевском гос. ун-те, 1979, С.24.
[84] O ‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. – B. 56.
[85]Pushtu tilida inglizcha o‘zlashmalar. WWW.ziyonet.

so‘zlarning ko‘pchiligi o‘zbek tili me’yorlariga va talaffuz qoidalariga bo‘ysundirilgan. Masalan, “panshaxa” so‘zi fors tilidagi “*panj+shoxe*” – *besh shoxli* birikmasidan o‘zbek tiliga “beshta egri sanchig‘I bo‘lgan mehnat quroli” ma’nosida o‘zlashgan.Ushbu so‘z qabul qilinish jarayonida fonetik jihatdan talaffuzga moslashtirilgan. *Oppoq soqolli chol qo‘lidagi paxta ag‘darib turgan panshaxasini bosh uzra ko‘tarib, bir-ikki silkidi* (S.Abduqahhor. Oltin vodiylarni kezganda).

Ma’lumki, fors tili hind-yevropa tillar oilasining eron guruhiga mansub. O‘zbek tili esa oltoy tillar oilasining qarluq guruhi sirasiga kiradi. Shu sababli, ayrim hudud shevalarini hisobga olmaganda, o‘zbek tilida “o‘”lashish jarayoni kuchli emas. Masalan, fors tilidagi “*abrisho‘m*” so‘zi o‘zbek tiliga *abrishim* – ipak ma’nosida kirib kelgan. Masalan, Oybekning “Navoiy” romanidan olingan quyidagi parchada buni ko‘rishimiz mumkin: “*Uning egnida… rang-barang porlagan qizil abrishim to‘n*” (Oybek, Navoiy).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, til doimiy harakatda ekan, bevosita boshqa tillar bilan aloqaga kirishadi. Chunki til hech qachon o‘z qobig‘iga o‘ralgan holatda rivojlanmaydi. O‘zbek tili ham, fors tili ham qadimiy tarixga ega bo‘lgan boy tillardir. Turkiyzabon va forsiyzabon xalqning doimiy ravishda aloqada bo‘lishlari va ma’naviy-madaniy jihatlarining mushtarakligi bu ikki til lug‘at tarkibining bir-biridan so‘z o‘zlashtirish hisobiga boyib borishiga zamin yaratadi.

**Z. Alomova – Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD**
**S. Abdikunduzova - Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## O‘ZBEK TILIDA LUG‘AVIY BIRLIKLAR HOSIL QILUVCHI AYRIM FORS-TOJIKCHA QO‘SHIMCHALAR HAQIDA

Ma’lumki, o‘zbek tilida so‘z yasalishining semantik, fonetik, sintaktik-leksik, affiksatsiya hamda kompozitsiya usullari mavjud. So‘z yasalishining affiksatsiya usuli o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan usuldir.

Turkiy tillarda so‘z yasalishi haqidagi dastlabki ma’lumotlar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltiriladi. Mahmud Qoshg‘ariy so‘z yasalishi haqida gap ketganda, asosan, affikslar qo‘shib so‘z yasashga to‘xtaladi. U so‘zlarni yasalgan-yasalmaganlik belgisiga ko‘ra ikki turga – tub va yasama so‘zlarga ajratadi[86]. I.Madrahimovning ta’kidlashicha, “tub so‘z” tushunchasi tarixiy, ayni paytda o‘ta nisbiy tushunchadir. An’anaviy tilshunoslik tarixiylik (diaxroniya) va mavjud holat (sinxroniya) munosabatlarini izchil ravishda farqlamaganligi sababli sistemaviy tilshunoslik “tublik” tushunchasiga zaruriy tuzatishlarni kiritadi. Sistemaviy tilshunoslik “tublik”ni “yasama emaslik” bilan almashtiradi[87].

A. Berdialiyev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, fors-tojik affikslari o‘zbek tiliga dastlab o‘zlashgan so‘zlar tarkibida kirib kelgan. Ular keyinchalik o‘zbek tilining o‘z lisoniy birliklari maqomida rasmiylashgan[88].

Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibining so‘z yasalish jarayonlarida faol ishtirok etib, yangi lug‘aviy birliklar hosil qilgan forscha-tojikcha qo‘shimchalarga *–zor (o‘tzor), -don (suvdon), -dor (unumdor), -kor//-gar //(paxtakor, sitamgar), -soz (uysoz), -boz (o‘yinboz), -kash (chizmakash), -xo‘r (oshxo‘r), -paz (oshpaz), be-(bebosh) , no- (nomard), ser- (sersuv), kam-(kamgap), ham-(hamyurt), xush-(xushbichim), nim- (nimjon)* kabi o‘nlab suffiks, prefiks, suffiksoid va prefiksoidlar kiradi[89]. Aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan oronimlar qatorida *–gar* suffiksi ishtirok etgan *Zargar* (tog‘-Qo‘shrabot tumani), *Zargartepa* (tepa – Ishtixon tumani) kabi misollar ham keltiriladi[90].

O‘zbek tilida fors-tojik tilidan o‘zlashgan morfemik polisemiya keng tarqalgan. Misol sifatida *–kor* affiksini olaylik. Bu morfema orqali hosil qilingan shaxs otlarini ikki guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Ijobiy xususiyatga ega shaxs otlari: *tajribakor, tadbirkor, tashabbuskor, san’atkor* vaboshqalar.
2. Salbiy xususiyatga ega shaxs otlari: *tajovuzkor, qasoskor, g‘azabkor, xiyonatkor* va boshqalar.

[86] Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2002.-B.46.
[87] Madrahimov I.O‘zbek tilida so‘zning serqirraligi va uni tasniflash asoslari. F.f.n. dissertatsiyasi. -Toshkent, 1994. –B. 20.
[88] Berdialiyev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.. Morfemika. So‘z yasalishi. Morfonologiya.-Xo‘jand, 2015.-B.32.
[89]Berdialiyev A., Xidirov R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Xo‘jand: Rahim Jalil, 2013.- B.115.
[90]Temirov Sh. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. F.f.f.d.(PhD)diss…avtoref.- Samarqand. 2019. -B.16.

N.Mamatovning ta’kidlashicha, prefiksoid termini bilan prefiks funksiyasida keluvchi, ammo tilda mustaqil so‘zlik xususiyatiga ega morfemalar nomlanishi kerak. Masalan: *xush-, ham-, kam-, to-, o‘ta-, g‘ayri-* kabi[91].

Hozirgi o‘zbek tilida forscha-tojikcha *-shunos, -kor, -soz, -furush, -xo‘r* morfemalari shaxs oti yasaydi, ya’ni bularning barchasi shaxs ma’noli ot yasaydi: *huquqshunos, shifokor, yo‘lsoz, do‘ppifurush, norinxo‘r* kabi. Demak, bu morfemalarning asosiy vazifasi so‘z yasash, so‘z yasovchi boshqa morfemalardan farqli xususiyati esa ot turkumiga mansub shaxs otlari yasashdir[92].

O‘zbek tilida shaxs oti yasovchi morfemalar o‘zbek tilshunosligida sinonim morfemalar deb qaraladi. Lekin mustaqil til birligi emasligi bois so‘z yasovchi morfemalarda semantik munosabat hodisasi bo‘lmaydi. Masalan, *-kor, -soz, -paz, -furush* morfemalari shaxs ma’noli ot yasaydi: *gallakor, uysoz, oshpaz, mevafurush* kabi[93]. Yasama so‘z yoki yasovchi morfemaning o‘zaro sinonim bo‘lishi masalasida ana shu qonuniyat asosida ish ko‘rish lozim. Bu esa to‘gri xulosalarga kelish imkonini beradi.

Manbalarda keltirilishicha, hozirgi zamon o‘zbek tilida uchraydigan *shirador, sharbatdor, guldor, rangdor, dongdor* so‘zlari tarkibidagi o‘zakdan anglashilgan predmetga egalik mahnosini anglatuvchi *-dor* affiksini alohida morfema sifatida ajratishga *shira, sharbat, gul, rang, dong* so‘zlarining mavjudligi asos bo‘ladi[94].

Tilshunoslikda uchraydigan polusuffiks, poluprefiks, poluaffiks, suffiksoid, prefiksoid kabi terminlar N.Mamatov tomonidan tahlil qilingan[95]. A. Hojiyevning ta’kidlashicha, ba’zi lug‘aviy birliklar, ya’ni so‘zlar morfema vazifasida ham qo‘llanadi va so‘zga qo‘shib yoziladi: *darsxona, dorixona; talabnoma, taklifnoma* kabi. Bunday birliklar ilmiy adabiyotlarda “affiksoid” deb yuritilishi ham ma’lum. Lekin bizningcha, bunday terminni qo‘llashga ehtiyoj yo‘q. Chunki so‘zga qo‘shib yozilishi va morfemaga xos vazifaga egaligi ularni ham affiks deb atayverishga asos bo‘ladi[96]. Sh.Rahmatullayev ham A.Hojiyevning fikriga qo‘shilgan holda quyidagilarni bildiradi: “*Xona, noma, goh* kabi forscha-tojikcha leksemalar, o‘zbek tilida mustaqil ishlatilishidan tashqari, *oshxona, ma’lumotnoma, oromgoh* kabi leksemalarning tarkibida yasovchi qism sifatida qatnashadi; bir qancha leksemalarga qo‘shiluvchi qism bo‘lib kelgani sababli mustaqil leksemalik holatidan affiksoidlik holatiga o‘tgan”[97].

Demak, o‘zbek adabiy tilida yangi lug‘aviy birliklar hosil qilishda forscha-rojikcha affiks, suffiks, affiksoid, prefiksoidlarning o‘rni juda katta. Ular o‘zbek tilining so‘z yasalish jarayonida faol ishtirok etadi.

**A.K. Abduraxmonov - Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti**

## FOLKLORDA INSON VA TABIAT MUNOSABATI

Individual va ijtimoiy ongning obrazli tizimini tabiat hodisalarini gavdalantirish shakllaridan biri sifatida, inson va tabiat munosabatlarining madaniy-tarixiy jihatiga birinchi navbatda ahamiyat berish zarur. Qadimiy san’at turlaridan hisoblanmish petroglif (toshga chizilgan rasm)larning asosini tabiat, jonivorlar tasviri tashkil etadi va bularni tasviriy san’atning dastlabki namunasi sifatida baholash mumkin. Inson va tabiatning o‘zaro munosabatini qadimgi yozuvlarda ham kuzatish mumkin. Ma’lumot almashinuvidagi asosiy manba – yozuvlarning dastlabki “alifbosi” ham bevosita hayvonlar, qush, quyosh va oy kabilarni suratidan iborat bo‘lgan. Piktografiya yozuv yaratish yo‘lidagi birinchi qadam bo‘lgan. Toshlarga, suyaklarga, g‘or devorlariga o‘yib ishlangan turli xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir.

Falsafada insonning tabiatga munosabati, uni kuzatish va taqlid qilish vositasida san’at va fanlar vujudga kelganligi aytiladi. “Qadimgi yunon falsafasi ilohiy bilimlar, mifologiya, san’at bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlandi. U davrda mifologiya falsafaning manbasi, materiali vazifasini o‘tadi. Faqat

---

[91] Bu haqda qarang: Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-Toshkent: O‘zbekiston SSR, Fan nashriyoti, 1985.-B.169.
[92] Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1980. –B. 164.
[93] O‘zbek tili grammatikasi. I.Morfologiya. Toshkent: Fan, 1998. –B. 94.
[94]G‘ulomov A.,Tixonov A.N., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati.-Toshkent: O‘qituvchi, 1977.-B.5.
[95]Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-Toshkent: O‘zbekiston SSR, Fan nashriyoti, 1985. -B.170.
[96]Hojiyev A.O‘zbek tili morfologiyasi, motfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari.-Toshkent: Fan, 2010. -B.43.
[97]Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. –Б.33.

ellinistik davrda, ya'ni milodimizdan avvalgi III asrda bir necha ilmiy sohalar, avvalo matematika va tibbiyot fanlari alohida fan bo'lib, ajralib chiqa boshladi"[98]. So'z san'ati – adabiyotda ham tabiatga munosabat dastlab miflarda o'z aksini topgan. Tabiat hodisalari va jonzotlarda ilohiylik mavjud deb qaraladi. Buning ta'sirini folklordagi marosim qo'shiqlari, maqol, ertak va boshqa janrlarda ham kuzatamiz.

Xalqimizning mavsum va marosim qo'shiqlarida turli tabiat hodisalari – fasllar almashinuvi, kun-tun, yomg'ir, qor, to'fon, sel, shamol, zilzila, hosil ekish, yig'ish, o'rmon, ko'l, turli jonivorlar, jamodot dunyosi haqidagi maxsus qo'shiqlar, qo'shiq obrazlari yoki ularga muayyan obrazli ishoralar izchil tarzda aks etadi. Marosim qo'shiqlaridan "Sust xotin" yomg'ir chaqirish marosimida ijro etiladi.

"Sust xotin" marosimi matriarxat davrida vujudga kelgan. U ibtidoiy kishilarning tabiat injiqliklarining tub sabablarini bilmasdan, ulaning oldini olish choralarini topishga ojizliklari oqibatida vujudga kelganligi aytiladi[99]. Ushbu marosim qo'shig'ida insonlarning tabiatga bo'lgan murojaati, ehtiyojlarini qondirish borasida tasavvurlaridagi ilohiylashgan Sust xotin obrazini yaratganlar. Tabiatni "Ona tabiat" deb atalishi mazkur qo'shiq yaratilgan davrlarga borib taqaladi. Sababi ezgulik so'rab ayolga, onaga – Sust xotinga murojaat qilinmoqda. Tabiat hodisalarining shiddati, keskinligiga qarab obrazlar almashinadi. Shamolni to'xtatish uchun o'tkaziladigan marosim va unda ijro etiladigan qo'shiq tahlilida bu yaqqol ko'rinadi: *Bosa-bosa beringlar, Bosilib qolsin quv shamol. Uga-uga beringlar, Ugilib qolsin bu shamol. Choy momalar o'libdi, O'g'li yetim qolibdi. Choy momaning onasi, Amakimga boribdi*[100] *tarzda ifodalangan qo'shiq* Qozog'istonning Sayram tumanida shamoldan himoyada bo'lish maqsadida o'tkaziladigan "Choy momo" marosimida ikki kampir va besh qiz qishloqda uyma-uy yurib odamlardan turli mahsulotlar(bug'doy, tuxum, non, pul)ni yig'ishadi va ulardan qishloq aholisi belgilangan joyda Shamol otaga is chiqarishadi. Yig'ilgan undan chalpak pishirib o'n ikkitasini yerga ko'mishadi yoki Shamol otaga bag'ishlab muqaddas hisblangan teshikka tashlashadi. Bundan ko'rinadiki, oiladagi jiddiy masalalar ota bilan hal etilishi ushbu qo'shiqda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, dehqonchilik bilan bog'liq xalq qo'shiqlarida hayvon va inson diologi orqali mazkur davrdagi ijtimoiy hayot aksini ham kuzatish mumkin: *Bo'ynimda bor bo'yinturuq, Omochlari taraq-turuq. Oqshom borsam oxur quruq, Men qo'shga qanday yarayin?!* Bunga javoban qo'shchi: *Ho'kizginam bo'yinginang ezildi, Ko'zginangdan yoshlar qator tizildi, Bo'yinturuq bilan omoch tortmasang, Sening bilan menga go'rlar qazildi*[101].

Qo'shiqda oddiy dehqonning real hayotdagi mehnat jarayoni, ho'kiz va qo'shchining yashash uchun kurashish holati, har ikkisi tirik qolish uchun og'ir yumushni qanday bajargani tasvirlanadi. Ho'kizning og'ir mehnat va ochlikdan qo'shchiga shikoyat qilishi foydasiz, sababi qo'shchining holati ham undan yaxshi emas, birgalikda harakat qilsagina omon qolishi, aks holda, ikkoviga ham go'r qazilganini afsus bilan ta'kidlaydi.

Maqollarda jonivorlar obrazi vositasida insonlarning xarakteri, yaxshi va yomon odatlari ifodalangan: *Ish bitdi, Eshak loydan o'tdi*[102]. Maqolda o'zini o'ylash va faqat boshiga musibat tushgandagina do'st tutinadiganlar insonlar tanqidga olinadi. Maqolda loydan o'tib olgan eshak – mushkuli yengillashgan, qiyin vaziyatdan chiqib olgandan so'ng unga yordam bergan yaqinini unutgan odam, loy esa uning boshiga tushgan muammodir. Folklorning eng kichik janrlaridan biri – topishmoqlarda ham inson va tabiat munosabatlari aks etgan namunalarni ko'plab uchratish mumkin. Topishmoqlarda berkitilgan, topilishi kerak bo'lgan jonivorlar, narsa va hodisalarning belgisi, shakli, rangi va xususiyati boshqa bir jonivor, narsa va hodisalardan olinadi *(Oltin kelganda, kumush ketar, Kumush kelganda, oltin ketar* (*javobi*: ***quyosh, oy***). E'tiborli tomoni, insonga xos xususiyatlar aytilgani holda tabiat hodisalari, nabotot va jamodot yashiringan bo'lsa ( *Bir otasi, bir onasi, Necha yuz ming bolasi* (javobi: **quyosh, oy, yulduzlar**)[103], shaxsga, uning kasbi, tana a'zosi topilishi kerak bo'lgan topishmoqlarda, aksincha tabiat tasviridan foydalaniladi: *O'ra, O'raning yuqorirog'i sho'ra, Sho'raning yuqorirog'i buloq, Buloqning yuqorirog'i chiroq, Chiroqning yuqorirog'i qalam, Qalamning yuqorirog'i changal.* (Javobi: **og'iz, mo'ylov, burun, ko'z, qosh, soch**)[104].

Insonning tabiatga munosabati ularning diniy qarshlari bilan bog'liq holda farqlanadi. Mifologik tasavvurlar va diniy qarashlar asosida xalqlarning totemiga aylangan jonivorlar ham turlicha. Xitoy

[98] Йўлдошев С, Усмонов М, Каримов Р "Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси" Тошкент "Шарқ" 2003) 5 бет.
[99] Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.: Musiqa 2010 b-131
[100] Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент.: Фан. 1986 б 116
[101] Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.: Musiqa 2010 b-89
[102] O'zbek xalq maqollari. Toshkent.: Sharq 2005 b-14
[103] Ўзбек халқ топишмоқлари. www.ziyouz.com кутубхонаси 3 бет
[104] Ўзбек халқ топишмоқлари. www.ziyouz.com кутубхонаси 9 бет

an'analarida Oq yo'lbars – barcha to'rt oyoqli hayvonlarning vakili bo'lsa, Feniks – barcha qushlarning, Moviy ajdarho – tangacha bilan qoplangan barcha hayvonlarning umumiy ifodasini anglatadi. Turkiy xalqlar, xususan o'zbek urug'lari bo'ri, ot, burgut, qaldirg'och kabi jonivorlarga e'tiqod qo'yganlar. Xalq dostonlaridagi Boychibor, G'irko'k va boshqa otlarning tasvirlanishi ajdodlarimizning ularga bo'lgan munosabatini ko'rsatsa, Chingiz Aytmatovning "Oq kema"sidagi shoxdor ona bug'u haqidagi rivoyat qirg'iz millatining totemistik qarashlarini ifodalaydi.

Umuman olganda, xalq og'zaki ijodidagi barcha janrlarda insonning tabiat hodisalariga va jonivorlarga bo'lgan munosabatini, odam va olam bir butunligini ko'rish mumkin. Folklor va uning zamirida yuzaga kelgan yozma adabiyotda ham inson va tabiat munosabati konsepsion tarzda ifodalanadi. Badiiy asarlarda nabodot, jamodot, hayvonot dunyosining berilishi qahramon va asarda ilgari surilgan g'oyani mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

**Y.B. Karimova – mustaqil tadqiqotchi**

## ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA IRSOLI MASAL SAN'ATINING O'RNI

XV asr o'zbek lirikasida yangi davr va yangi adabiy muhit paydo bo'ldi. Bu davrda Alisher Navoiy o'zining sermahsul ijodi bilan adabiyotshunoslik sohasini rivojlantirdi va turkiy til nufuzini oshirdi. Shoir o'z davrida mavjud bo'lgan poetik san'atlarni boyitdi va yangilarini kashf qildi. Navoiy uchun hech qachon she'riy san'atlar shunchaki bir san'atkorlikni namoyish qiluvchi vositalar bo'lgan emas. U haqiqiy novator, ijodkor sifatida, o'zining butun san'atkorlik mahoratini, muhim ijtimoiy-siyosiy fikrlari, olijanob g'oyalarini yuksak badiiy saviyada ifoda qilish uchun dadillik bilan ishga solgan. Uning lirik she'rlari, daho san'atkorlarning tilga, so'zga bo'lgan ijodiy munosabati yuksak ehtirom va talabchanlikning haqiqiy namunasi bo'la oladi.

Navoiy poetik san'atlar uchun "material" tanlar ekan, borliqdagi eng xarakterli voqea va hodisalarni, birinchi navbatda, tasvir obyektining mohiyatini to'la va yorqin ifodalashga imkon beradigan realistik detallarni olishga intilgan.[105]

Shoir lirikasining asosiy fazilatlaridan biri she'rning tub mohiyatini tashkil etgan mazmun-g'oyaning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishida ko'rinadi. Masalan: "Xazoyinul maoniy" devonida xalq maqollari va hikmatlari alohida baytlardagina emas, balki ayrim g'azallar ham boshdan-oyoq irsoli masal usulida yozilganiga duch kelamiz. "G'aroyib us-sig'ar"dagi "Ko'ngullar nolasi zulfungkamandin nogahon ko'rgach", "Sen o'z xulqungni tuzgil, bo'lma El axloqidin xursand", "Ishq aro dushvordur bo'lmoq kishi hamdardi shoh", "Navodirush - shabob"dagi "Muztari ko'glum aro ul yuz xayoli aylanur" deb boshlanuvchi g'azallar butunlay maqol va hikmatlar mazmuniga suyanib ijod qilingan. "G'aroyib us–sig'ar" devoniga kirgan mana shunday g'azallardan birini namuna sifatida o'rganib chiqaylik:

Ko'ngul chokin ko'zumda ashki rangin elga fosh etti,
Balig' zahmini fahm aylarlar el daryoda qon ko'rgach.
Navoiy, xurdai nazmingni andoq aylading tahrir,
Ki sochqay xurda boshing uzra shohi xurdadon ko'rgach[106]

Navoiy g'azallarida irsoli masal yoki tamsil kabi badiiy san'atlar asosan

paralellizm usuli bilan birgalikda qo'llanadi. Shoir o'zining olg'a surayotgan fikrini asoslash uchun biror hayotiy dalil keltiradi. Paralellizm usuli xalq og'zaki ijodiyotida, ayniqsa dostonlar va qo'shiqlarda eng ko'p tarqalgan usul bo'lib, insonning ichki ruhiy holatlari tabiat hodisalari, turmush lavhalari bilan qiyoslanib, taqqoslab ko'rsatiladi: ko'zga ko'rinmaydigan holat bilan ko'zga ko'rinib turadigan unsurlar birga yonma – yon (paralell) qo'yib tasvirlanadi:

Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor.
Kelin oyim onasini
G'am bosibdi, yor-yor.[107]

---

[105] Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. — T.:1984; 94-bet
[106]Алишер Навоий. Ғаройибус-сиғар. 33-274-бетлар.
[107] Алишер Навоий. Ғаройибус-сиғар. 114-бет.

Ushbu xalq qo'shig'ida zang bosgan qaychi bilan g'am bosgan yurak bir-biriga tashbih qilingan. Bu ikki holat – zang bosgan qaychi bilan g'am bosgan yurakdagi bog'lanish shundaki, qaychining zanglashi, ya'ni tabiatdagi moddiy holat ko'zga ko'rinib turadi, onaning ichki dunyosi-g'ami, ya'ni ma'naviy holat ko'zga tashlanmaydi. Bu tabiiy jarayon. Alisher Navoiy folklordagi mazkur usulni o'z ijodiga faqat tatbiq qilibgina qolmasdan, balki bu usulni boyitgan, she'rning asosiy badiiy qurollaridan biriga aylantirgan.

Ko'ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon ko'rgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko'rgach.

Yuqorida keltirilgan "Ko'ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon ko'rgach" deb boshlanuvchi g'azalda ham shu usul qo'llangan bo'lib, unda shoir lirik qahramonning ruhiy holatlarini hayotiy hodisalar bilan yonma-yon (paralell) qo'yib tasvirlaganki, bu narsa tasvirning nihoyatda jonli va yorqin chiqishiga sabab bo'lgan. Yorning soch o'rimlarini ko'rib, oshiqning nola chekishi deyarli ko'pchilik mumtoz shoirlar ijodida uchraydi. Lekin ushbu baytning o'ziga xosligi shundaki, Navoiy tasvirida oshiqning faryod va nolalari kuchli, toqat qilib bo'lmas darajada. Bu faryod ilon iniga bosh suqa boshlaganda jon talvasasida qichqira boshlagan qushlarning nola va faryodiga o'xshab ketadi. Oshiq ko'nglidan ko'tarilgan nolani bu xilda hayotiy manzara orqali gavdalantirish natijasida Navoiy lirik tasviri ichki ruhiy xarakter kasb etgan. Bu holat oshiqning butun dunyosini chizib beradi. Sharq she'riyatida yorning qaddi haqida gap borganda, albatta, sarv daraxti eslatib o'tilganidek, uning sochi ta'riflanganda ilon bilan bog'liq bir fikr aytiladi. Navoiy ushbu an'anani saqlagan holda mazkur baytda butun bir jonli lavha yaratgan. Ma'shuqaning zulfi tuzoqqa, ayni paytda ilonga ham tashbih qilingan. Bu o'rinda shakliy o'xshashlikdan tashqari, vazifa jihatidan ham o'xshashlik mavjud. Ilon qushlarni ovlasa, ma'shuqa zulfi oshiq ko'nglini band etish uchun qo'yilgan tuzoqdir. Shunday ekan, ko'ngillar nolasi ham, qushlarning faryodi ham tabiiy. Bitta baytda butun bir hayotiy lavha yaratilganki, bu lavha oshiqning ruhiy holatini obrazli shaklda aks ettirishga xizmat qilgan. Ko'ngul chokin ko'zumda ashki rangin elga fosh etti, Balig' zahmini fahm aylarlar el daryoda qon ko'rgach. Qonli ko'z yoshlarim ko'ngil chokini (yarasini) elga fosh etib qo'ydi. Bu holat go'yo odamlarning daryoda qon ko'rib baliqning jarohatlanganini fahm etishlariga o'xshaydi.

Alisher Navoiy ijodi xalq og'zaki ijodidan oziqlangan. Shoir ijodi mislsiz dengiz tubiga o'xshaydi. She'rning inson hayotidagi oniy lahzalarning hassos ko'ngillarga yetkazadigan beado zarblari, hayajon va iztiroblarining o'ziga xos ifodalari, aks-sadolari ekanligi bor haqiqat. Shoir yashagan ijtimoiy muhit she'riyatda o'z aksini topadi. Alisher Navoiy lirikasida ham davr ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar va xalq dardi aks etgan.

**Sh.O. Aripov - Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi o'qituvchisi**
**I. Aminova - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## ILM ZAKOVATLI YOSHLAR VATAN RAVNAQI YO'LIDA

Yoshlar – bu izlanuvchi, mamlakatimiz taraqqiyotining ishonchli suyanchi. Ularning qanchalik bilimdonlik, o'z xalqiga, Vataniga sodiqlik bilan faoliyat olib borishi asrlar davomida kutilgan orzu-umidlarimizning ijobiy natijasini beradi. Shunga ko'ra, yuksak madaniyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash lozim. Yoshlarimiz qanchalik zaruriy imkoniyatlarga ega bo'lsa, o'zini yurti, xalqi jonkuyari deb bilsa, ularda shunchalik yurtimizning barcha sohalarida istiqbolli faoliyat yuzaga keladi. Yoshlarimiz xalqimizning, mamlakatimizning, xalqaro obro'-e'tiborimizning suyangan imkoniyatidir. Bugun jonajon O'zbekistonimizning xalqaro miqyosda obro' topib, taraqqiyotda yangilanib, tobora rivojlanib borayotganida ham yoshlarimiz kuch-qudratining, ijodkorligining o'ziga xos ifodasi mujassamdir. Niyati ulug' insonning, xalqning hayoti yorug', kelajagi farovon bo'ladi. Mamlakatimizning porloq istiqbollari haqida yuksak maqsad va rejalar belgilangan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 406-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Davlatimiz rahbari tomonidan 2019 yil 19 martda ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim besh

tashabbus”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 fevraldagi 133-F sonli Farmoyishi muhim ahamiyatga ega. Taraqqiyot rejalarining samarali ijrosini ta’minlash maqsadga erishishning aniq mazmuni bo‘ladi. Yoshlarning ta’limtarbiyasiga, unumli faoliyatiga barakali sifat beradigan, ular uchun jonkuyarlik va fidoyilik bilan amaliy munosabatdagi barcha muassasalar, boshqarmalar, korxona-tashkilotlar zimmasida yuksak ma’suliyatlar, qarzdorlik, insonparvarlik burchlari mavjud. Yoshlarning kelajak istiqboli ravshanligini ta’minlashga barcha 146 tarmoq va sohalar mas’uldir. Ba’zisi ta’lim-tarbiya yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lsa, boshqa biri iqtisodiy barkamollik bo‘yichadir.

Bugun O‘zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. 2017 yil 30 iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. SHuni alohida qayd etish lozimki, hozirgi globallashuv asrida yoshlarning dunyoqarashi, fikri kun sayin o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda yoshlarni hayratlantirish, ularning ko‘nglidan chuqur joy oladigan loyihalarni ishlab chiqish ham qiyinlashib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri ularning zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalanishi, dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklar, voqea-hodisalardan tez xabardor bo‘lishi bilan ham izohlanadi. SHu sabab, hozirda Yoshlar ittifoqi tomonidan yoshlar bilan ishlashda mutlaqo yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mexanizmlar, metod va uslublardan foydalanishga harakat qilinmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda ijodkorlik, kreativlik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ilmfanning rolini oshirish, innovatsion rivojlantirish, ilmiy kadrlarni qayta tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Mamlakat taraqqiyotini mustahkamlash, istiqbolini belgilashda ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini ta’minlash bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari taraqqiyotida katta o‘rin tutadi. Har qanday davlat bu yo‘lda, avvalo, olimlarga suyanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining katta qismini yoshlar tashkil etayotganligi hech kimga sir emas. SHu sabab olimlar orasida yoshlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Mustaqillik yillarida yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirish, yosh olimlar sonini yanada ko‘paytirish, yoshlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 20 foizini yoshlar tashkil qiladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 60 foizdan ortiqroq. Tom ma’noda yoshlar mamlakati hisoblangan O‘zbekistonda yoshlar masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratish talab etiladi. SHu sababdan mamlakatimizda yoshlarning taqdiriga alohida yondashilib, ular uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish uchun ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kino san’atining rivojlanishi va uning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi ijobiy ta’siri borasida ham amaliy ishlar jadal olib borilmoqda.

Mamlakatimizda belgilangan yuksak istiqbolning ijrosida ta’lim-tarbiya olib boruvchi mutaxassislarning samarali faoliyat yuritishi qattiq nazoratga olingan. Ularning unumli faoliyati uchun davlatimiz tomonidan zaruriy imkoniyatlar, sharoitlar yaratilgan. SHunga ko‘ra, yoshlar tafakkurini boyitishda ular uchun ishlarni har taraflama yangicha mazmunda olib borish talab etiladi. Masalan, ularga alohida istirohat bog‘lari tashkil etish, unda sport, kutubxona, amfiteatr, kitobxonlik, internetdan ijobiy foydalanishni bilish kabi tafakkurni boyitadigan imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Hozir yoshlarimiz bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatiga ega. Bu ularning porloq istiqboli uchun imkoniyatlarning kengayayotganidan dalolatdir. Hozir mamlakatimizda 33 milliondan ortiq aholi mavjud. Tabiiyki, uning soni to‘xtovsiz o‘sib boradi. Aholi soni o‘sib borishi bilan ularning hayotiy ehtiyojlari ham o‘sib boradi. Davlatimizda mana shu qonuniyatlarni e’tiborga olgan holda dasturlar belgilangan va uning ijrosi qattiq nazoratga olingan. Mana shu muhim va zaruriy yo‘nalish bo‘yicha yoshlar istiqbolini o‘ylab ish ko‘ramiz. Xullosa urnida shuni aytish mumkinki Yoshlar Vatanning, millatning, xalqning farzandi degan nomni ulug‘lab hayot kechirishini unutmaylik. Hurmatli pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, yoshlarning munosib ta’lim-tarbiya olishida barchamizning zimmamizda yuksak va sharafli burch hamda vazifa yuklanganki, uni sharaf bilan uddalaylik.

**A. Usmonov - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## FARG‘ONA VODIYSI AHOLISINING IJTIMOIY-MODDIY AHVOLI (1946-1991-YILLAR)

XX asrning 70-80-yillarida Farg‘ona vodiysida paxta tayyorlash hajmini muttasil oshirib borish maqsadida ozuqa ekinlari, mevali bog‘lar hisobiga, shuningdek, yangi o‘zlashtirilgan yerlarga paxta ekilishi tufayli ekin maydonlarining 80-85 foizi, ayrim tuman va xo‘jaliklarda esa 90 foizi paxta maydoniga aylantirildi. O‘zining ajoyib navli meva va poliz mahsulotlari bilan dong taratgan Farg‘ona vodiysida qishloq xo‘jaligining paxtadan boshqa ekin turlarini ekish kamayib bordi. Natijada qishloq aholisi avvalgi o‘n yilliklarda meva va poliz mahsulotlarini shaharga yetkazib bergan bo‘lsa, endi bunday mahsulotlarni shahardan xarid qiladigan bo‘ldi[108].

Paxta yakka xokimligi sharoitida meva va sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish ham e’tibordan chetda qoldi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, tashish va qayta ishlash sohalariga yetarli darajada mablag‘ ajratilmadi. Natijada har yili hosilning juda katta qismi, ya’ni 30-40 foizi savdo korxonalari va qayta ishlash zavodlariga yetib bormay nobud bo‘ldi[109]. Bu holat Farg‘ona vodiysining har uchala viloyatiga xos bo‘lib, ushbu hududdagi ishsizlik va qashshoqlikni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qoldi.

Sobiq sovet respublikalari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi oqibatida O‘zbekiston va uning iqtisodiy tumanlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona vodiysi katta zarar ko‘rdi. Farg‘ona vodiysi o‘zini yetarli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlay olmaydigan sharoitda ham Ittifoqning boshqa respublikalariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini jo‘natishga majbur bo‘ldi. Jumladan, 1987 yilda birgina Farg‘ona viloyatidan sobiq Ittifoqning boshqa hududlariga 97 ming tonna meva va poliz mahsulotlari jo‘natildi[110].

Farg‘ona vodiysi sanoat salohiyati jihatidan O‘zbekiston SSRda oldingi o‘rinlarda turgan bo‘lsa-da, unda, asosan, xom ashyo tayyorlashga asoslangan qishloq xo‘jaligi, mineral o‘g‘itlar hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar rivojlantirilganligi oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish imkoniyati cheklangan edi.

XX asrning 80-yillarida sanoat mahsulotlari tarkibida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning ozligi Farg‘ona vodiysi aholisining eng zarur ehtiyojlarini qondirish imkonini bermadi. Buning ustiga Farg‘ona viloyatida har yili 200 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgani holda, 300 million so‘mlik mahsulot iste’mol qilinar edi[111]. Natijada Farg‘ona viloyatiga har yili 1200 dan ortiq mahsulot turlari Ittifoq va respublikaning turli regionlaridan olib kelinar edi[112]. Jumladan, 1988 yilda Farg‘ona viloyatiga respublika tashqarisidan 8502 nomdagi 45 million so‘mlik ana shunday mahsulotlar keltirildi[113]. Bu holat vodiyning boshqa viloyatlarida ham kuzatilib, har yili Andijon viloyatiga 100 turdan ziyod, Namangan viloyatiga 120 xil oddiy xalq iste’mol mahsulotlari keltirilib turilgan[114].

Ayni paytda kishilarda moddiy manfaatdorlikning yo‘qligi, rejani bajarish talabida sifat emas, son ko‘rsatgichlariga e’tibor berilishi oqibatida sifatli tayyor mahsulot va iste’mol mollari ishlab chiqarish darajasi pasayib bordi. Mintaqa sanoatida mahsulot umumiy hajmining o‘rtacha yillik o‘sishi respublikaning boshqa hududlaridan ham orqada qola boshladi. Jumladan, 1981-1985 yillarda mahsulot umumiy hajmining o‘rtacha yillik o‘sishi Andijon viloyatida 7,85 foizni, Namangan viloyatida 7,3 foizni, Farg‘ona viloyatida 4,55 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1980-yillarning ikkinchi yarmidan ushbu ko‘rsatkichlar Andijon viloyatida 4,45 foiz, Namangan viloyatida 4,15 foiz, Farg‘ona viloyatida 3,7 foizni tashkil etdi.

---

[108] Коммунист. 1989 йил, 19 майь №95 (16006).
[109] Бозоров О. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистондаги миллатлараро муносабатлар тарихи (Фарғона фожиаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.12-14.
[110] Коммуна. 1987 йил 21 август, №162 (18285).
[111] Фарғона вилояти давлат архиви (бундан кейин – ФВДА), 1124-фонд, 15-рўйхат, 535-йиғма жилд, 49-варақ.
[112] Коммуна газетаси // 1988 йил, 8 декабрь, №235 (18608).
[113] Коммуна газетаси // 1989 йил, 24 март, №58 (18681).
[114] Бозоров О. XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистондаги миллатлараро муносабатлар тарихи (Фарғона фожиаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.12-14.

Holbuki, ushbu yillarda (1985-1989) sanoat mahsulotining oʻrtacha yillik oʻsishi Buxoro viloyatida 3,75 foizdan 5,4 foizga, Qashqadaryo viloyatida 4,4 foizdan 7,7 foizga, Toshkent viloyatida 3 foizdan 3,25 foizga, Xorazm viloyatida 5,9 foizdan 6,55 foizga oʻsishga erishilgan edi[115].

Bu davrda, ayniqsa, aholining ish bilan bandlik darajasi asosiy muammoga aylandi. Ayrim ma’lumotlarga koʻra Fargʻona vodiysidagi 5 milliondan ortiq kishidan 1,5 million kishi normal ish bilan ta’minlanmagan edi. Qishloq aholisining sanoat korxonalarida ishlash imkoniyatining cheklanganligi ham ishsizlar sonining ortib borishiga olib keldi. Xususan, Fargʻona soveti ijroiya komitetining 1988 yil 24 iyunda “Mehnat resurslaridan ratsional foydalanish boʻyicha sovet va xoʻjalik organlarining vazifalari toʻgʻrisida”gi qarorida Fargʻona shahridagi ishchi oʻrinlarga uzoq-yaqin joylardan odamlarni jalb etmaslik belgilab qoʻyilgan edi[116].

1980-yil ikkinchi yarmidan boshlab oziq-ovqat muammosini hal etishga qaratilgan ayrim amaliy ishlar ham koʻzga tashlandi. Xususan, Fargʻona viloyatida 1989-yilga kelib 10 ming gektar, Andijon viloyatida 168 ming gektar paxta maydonlari qisqartirilib, boshqa turdagi qishloq xoʻjalik ekin maydonlari kengaytirildi. Ammo hosil hajmini koʻpaytirishni asosan intensiv usullar hisobiga emas, balki ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga amalga oshirishga e’tibor qaratildi. Lekin, paxta maydonlarini qisqartirish borasida ham ayrim kamchiliklarga yoʻl qoʻyildi. Masalan, 1988-yilda paxta maydonlari 90 ming gektarga kamaytirilgan boʻlsa-da, respublika Agrosanoat davlat komiteti tekshirishlari natijasida, ozuqa maydonlari hisobidan 40 ming gektarga yaqin yerga chigit ekilganligi aniqlangan.

**R.N. Nuritdinova - Fargʻona davlat universiteti oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi oʻqituvchisi**

## IJTIMOIY DIALEKTLAR

Ijtimoiy dialektlarda bir atamani ikinchisi oʻrnida yoki barchasiga umumiy atamani qoʻllash holatlari juda koʻp kuzatiladi. Tabiiy savol tugʻiladi: ular umumiy tushunchani nomlab kelsa, nima uchun turlicha atashlar mavjud, ya’ni argo, jargon, sleng kabi?

Rus sotsiolingvist olimlari V.I.Belikov, L.P.Krisinning fikricha, jargon, argo (fr.) hamda sleng (ingl.) odatda ma’nodosh tushunchalar sifatida qoʻllaniladi. Lekin ularni bir-biridan farqlash zarurdir. Argo jargondan farqli oʻlaroq “sirli” til hisoblanadi. U ijtimoiy guruh vakillarigagina tushunarli boʻlib, begonalardan “sir”ni yashirish uchun oʻylab topilgan. Shuning uchun “oʻgʻrilar argosi”, “ofeneylar argosi” sifatida qoʻllash maqsadga muvofiq, - deydi hamda A.Vasilyeva tomonidan tuzilgan lingvistik lugʻatdan iqtibos keltiradi: “Jargonda ma’lum bir guruhga tegishli muloqot boʻlsa, argo sirli muloqotni ta’minlovchi tilga xos niqoblanish”[117] , - deydi.

Argo boʻyicha ilmiy izlanish olib borgan olim Y.Yordan uni keng va tor ma’nolari mavjudligini aytib quyidagicha tasnif qiladi :

1. Jinoiy guruh vakillari, kissavur, gado va tilanchi nutqi.
2. Ijtimoiy guruh vakillari, masalan, harbiy, san’atkor, talaba va
oʻquvchilarning oʻziga xos nutqi.
3. Umumxalq tildan adabiy tilga kiruvchi barcha soʻzlar.

Tadqiqotining so ʻngida xulosa sifatida argo tor ma’noda jinoiy guruh nutqi ekanligi hamda oʻsha ma’noda qoʻllash maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi.

Jahon tilshunosligida ijtimoiy dialektlarning eng qadimgi koʻrinishi argo boʻyicha bir qator olimlar izlanishlar olib borishgan, jumladan: Y.Patrij, U.OʻGradi, V.A.Xomyakov, A.D.Shveytser, V.V.Vinogradov, N.N.Sharandina, S.P.Yachmenyova, I.V.Fishuk, V.P.Korovushkin[118]; oʻzbek tilshunosligida A.Berdaliyev, M.Asqarova, X.Jamolxonov, M.Mirtojiyev kabi olimlar darslik

---

[115] Некоторые показатели социально-экономического развития Каракалпакской АССР, областей и г.Ташкента в двенадцатой пятилетке. – Ташкент: 1990. – С.49.

[117] В.И.Беликов, Л.П.Крысин. Социолингвистика. Российский гос. гум. университет. - М. 2001, с.31.

[118] Partridge E.The gentle art of lexicography. - New York: Macmillan Company-1964; OʻGrady W., Dobrovolsky M., Aronoff M. Contemporary linguistics: an introduction. - NY: St. Martin's Press, 1997; Беляева Т.М., Хомяков В.А. Нестандартная лексика английского языка.- Ленинград: Издательство Лениградского университета.1985; языке

hamda qo‘llanmalarida mazkur qatlam haqida ma’lumotlar berib o‘ tishgan.

O‘zbek tilshunosligining zabardast olimlaridan biri A.Berdaliyev argo va jargonni “kasbiy til” deb hisoblaydi. Ularni alohida tasnif qilishni lozim topmaydi. “Bu til odatda jargon va argo xarakterida bo‘lib, ular otarchilar, chayqovchilar, qimorbozlar va talabalar nutqiga xoslangan bo‘ladi” – deya o‘z fikrini bildiradi.

M.Asqarova va X. Jamolxonovlar: “Jargon va argolar–ba’zi ijtimoiy guruhlar (tekinxo‘rlar, bezorilar, savdogarlar) nutqiga xos bo‘lgan so‘z va iboralar: loy, yakan (pul ma’nosida), qaychi (tekshiruvchi ma’nosida), bedana (to‘pponcha ma’nosida) deya ta’riflaydi.

XXI asrga kelib yurtimizda ilmga bo‘lgan intilish shiddat bilan o‘sib borganligi bois hozirgi kunga kelib yosh olimlar tomonidan yangidan yangi tadqiqotlar olib borilib, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari yaratilmoqda. Shu jumladan, ijtimoiy jihatdan chegaralangan qatlam ham nazardan chetda qolmadi.

O‘zbek tilshunosligida ijtimoiy dialektlarni dastlabki monografik planda o‘rganishni G‘.H.Raximovning izlanishlarida ko‘rishimiz mumkin. Dissertant o‘z ishida yoshlar slengiga to‘xtalib o‘tadi. Mazkur tadqiqot o‘zbek sotsiolingvistikasi rivojida qo‘yilgan dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi.

Argo bo‘yicha bildirilgan barcha fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Argo bu sirli nutqdir. Uning paydo bo‘lishiga asosiy sabab muloqotni yashirish, sirli qilishdan iboratdir;
2. Jinoiy guruh rejada kutilayotgan voqeani amalga oshirish uchun o‘z nomi bilan atamay atrofdagilardan “muhofaza qiladi”. Natijada argo hosil qilinadi;
3. Argo sifatida xazil-mutoyiba, oldi-qochdi kayfiyatdagi so‘zlar deyarli kelmaydi.

**Sh. Maxkambaeva - student of Jizzakh State Pedagogical Institute**

## INTERACTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN

In the last few years, learning a foreign language has become a necessity, not a way of self-improvement. Foreign language has become a mandatory component of education not only in schools and universities, but also in many additional preschools. The demand for a foreign language in society, on the one hand, as well as the understanding by parents that language is not only a factor in the upbringing of modern man, but also the basis of his social and material well-being in society - on the other hand. making this moment foreign language learning especially popular and relevant. If 20 years ago knowledge of the language was required only in the work of some fields, now it was necessary to master at least one foreign language. The main problem of teaching a foreign language is the age of the student. It is known that children are more comfortable learning. Until recently, teaching methods were aimed at children of school age, now parents are trying to start learning a foreign language as early as possible. The main objectives of teaching a foreign language to preschool children:

➢formation of basic communication skills in a foreign language in children;

➢the ability to use a foreign language to achieve their goals, to express their thoughts and feelings in the context of life communication;

➢to create a positive attitude to further learning of foreign languages; to arouse interest in the life and culture of other countries.

Preschool age is especially convenient for starting to learn a foreign language: children of this age are characterized by sensitivity to language phenomena, they are interested in understanding their speech experiences, the "secrets" of language. They easily and firmly remember the small size of the language material and reproduce it well. With age, these favorable factors lose their force. There is another reason why young people prefer to learn a foreign language. The younger the child, the less vocabulary there is in the local language, but at the same time his speech needs are less: in a small child the areas of

---

национального периода (социолектологический подход): дис... кан. фил. наук. - Санк-Петербург. 2010; Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии. Монография. - Череповец 2005.

communication are less than in adults, he still has to solve complex communication problems it's not. This means that when he learns a foreign language, he does not feel such a big difference between the possibilities in the mother and foreign languages, and his sense of success is brighter than in older children. Teaching children is a very difficult issue that requires a completely different methodological approach than school children and adults. If an adult speaks a foreign language, it does not mean that he can teach others. When confronted with methodologically helpless lessons, children may hate a foreign language for a long time and lose confidence in their abilities. Only experienced professionals should work with preschoolers. In preschool, in teaching English, children gradually develop the basics of communicative competence, which includes the following aspects in the early stages of learning English:

✓the ability to repeat phonetically correctly English words behind the teacher, mother tongue or speaker, i.e. hearing attention,

✓step-by-step formation of phonetic hearing and correct pronunciation;

✓mastering, combining and activating English vocabulary; mastering a certain amount of simple grammatical structures, composing a coherent statement.

The methodology of direct educational activities should be constructed and focused on the development of children's language skills, taking into account their age and individual characteristics. Communication in a foreign language should be motivated and focused. The child needs to create a positive psychological attitude towards the foreign language, and the way to create such a positive motivation is to play. Play is both a form of organization and a way for children to gather a certain amount of lessons to learn English vocabulary, count many poems, songs, rhymes, and more. This form of teaching creates a favorable environment for the acquisition of language skills and speech skills. The ability to believe in play activities allows for a natural motivation for speaking in a foreign language, making even the simplest phrases interesting and meaningful. Playing in foreign language teaching is not contrary to educational activity, but is organically related to it.

1. Dramatization (i.e. staging small scenes in English) “In the woods” - for example: chanterelles and bears meet in the woods and a little dialogue is played (Hi! I’m a fox. I can run. I love fish); "Red Riding Hood" and others.

2. For example, fine dictation, graphic dictation, picture painting, and more. Painting pictures is a soothing, not always informative, but very common activity. For example, you can display a finished image. As the child learns the contour, the teacher repeats the word many times, naming the details. Thus, we establish a new language called what the child himself did. Graphic dictation - for example: in class, children are told which color to paint, what color to give to the children, and then they compare the resulting images with a picture dictated by the teacher.

In conclusion, I can say that we can achieve our goal only if we organize lessons with games using various interactive methods in teaching English to preschool children. Only then will children's learning and attention increase.

**S.R. Kamolov - Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## O‘ZBEK SHE’RIYATIDA ADABIY ALOQALAR VA AN’ANA NAZARIYASIGA OID

O‘zbek adabiyotiga yangi janrlarning kirib kelishi va taraqqiy etishi XX asrda bardavom bo‘ldi deb ayta olamiz. Bu asrda millatimiz shoirlari ijodiy izlanishlari davomida bir qancha lirik janrlarni “kashf etdilar” yohud rivojlantirdilar. Avvalo, u qaysi janr bo‘lmasin, shoirning biror bir lirik janrda mahorat ko‘rsatishi uning o‘sha janr bo‘yicha qanchalik izlanishlar olib borishiga bog‘liq. O‘zbek she’riyatining taraqqiyotini ta’minlash yo‘lida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan katta-yu kichik shoirlarning barchasi inson ruhiy olamining eng chigal, eng botiniy nuqtalarini poetik tadqiq etish uchun intilmoqdalar. Bu intilish ularning obrazli kashfiyotlaridagina emas, balki ana shu obrazli topilmalarni yangi-yangi she’riy shakllar, muhimi, qulay shakllarda ifodalash yoki tasvirlashga bo‘lgan intilishlarida namoyon bo‘lmoqda.

Jahon she’riyatining badiiy tajribalarini o‘zlashtirish natijasida paydo bo‘lgan kichik poeziyamizning terset, tanka, xokku kabi janr va shakllari o‘zbek shoirlari ijodida mustahkam o‘rin egalladi. Bu she’riy

shakllarning ayrimlari, masalan, sonet, 30-yillar o‘zbek poeziyasida ilk bor namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, (Usmon Nosir ijodida), ular asosan asrimizning so‘ngi choragida o‘zbek shoirlarining poetik zahirasida katta mavqe topib bordi va she’riyatimizning faol shakllariga aylana bordi.

Navqiron she’riyat har bir davrning poetik izlanishlariga etalon bo‘lib xizmat qiladi.[119] U bevosita yoki bilvosita adabiy aloqalar ta’sirida yangi poetik g‘oyalarni ilgari suradi. Keyingi davr mobaynida o‘zbek poeziyasiga kirib kelgan yangi she’riy janr va shakllar, eng avvalo, adabiyotimizning iste’dodli shoirlari tufayli, ular izlanishlarining samarasi o‘laroq shakllandi va rivojlandi. XX asr boshida terset (uchlik) Oybek tufayli, sonet Usmon Nosir tufayli, “pillapoyali” she’rlar esa Hamid Olimjon va G‘afur G‘ulom tufayli o‘zbek poeziyasiga kirib kelganidek, xokku, tanka, oktava va verlibr shakllari ham Abdulla Sher, Anvar Obidjon, Farida Afruz, Faxriyor, Abdunabi Boyqo‘ziyev, Rauf Parfi keyinroq Nodir Jonuzoq kabi shoirlar tomonidan ilk bor o‘zlashtirildi va bu bilan o‘zbek she’riyati zahirasi ancha boyidi. Va bu bilan ko‘hna Sharq adabiyoti bag‘rida kurtak ochgan o‘zbek she’riyati adabiy aloqalar ta’sirida xalqni ilg‘or she’riy madaniyatga yaqinlashtirdi. Lekin bu adabiy aloqalar ta’sirida kirib kelgan lirik janr va shakllar o‘zbek milliy an’analaridan vos kechishga yo‘l qo‘ymadi, aksincha milliy va xalqaro o‘zaro aloqalar bir-biriga chambarchas bog‘lanib yangi badiiy birlikni hosil qildi.

She’riyatimizda kechayotgan bunday shakliy va uslubiy izlanishlar masalalari N.Karimov, M.Ibrohimov kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan bir qadar o‘rganilgan. She’riyatning miqyosi mavzuning ulkanligi, obrazlarning katta-kichikligi, tuyg‘ularning yuksakligi bilan emas, balki obrazning yangi qirralarini kashf etishi bilan belgilanadi,- deb yozgan edi atoqli ispan shoiri Federiko Garsia Lorka.[120] Mana shu ma’noda o‘zbek she’riyatining taraqqiyotida janriy izlanishlar olib borgan ijodkorlarning barchasi yangi-yangi poetik obrazlar yaratish, mavjud an’anaviy obrazlarning yangi qirralarini kashf etish yo‘lidagi intilishlarni kashf etadi. Negaki, haqiqiy ijodkor ana shunday tafakkur mahsulini betakror shaklda ifodalashga harakat qiladi.

O‘zbek she’riyatida adabiy an’analar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Sobiq sovet davrida klassik she’riyatimiz vazni bo‘lgan aruz vaznini ko‘pchilik “taqiqlangan” yoki bu vaznda mo‘jazgina she’rlar bitish mumkin emas yohud amri mahol ish edi. Ammo Erkin Vohidov aruz vaznining yangi imkoniyatlarini inkor etuvchi sharoitda inson ruhiy olamini yanada rang- barang tasvirlashda aruzdan foydalanishga jur’at etdi. U bu ishni birinchi bo‘lib boshlab berdi va keyinchalik boshqa shoirlar ham bu jarayonga befarq bo‘lishmadi (masalan, Jamol Kamol aruzning muxammas, musaddas, to‘rtlik janrlarida muvaffaqiyatli qalam tebratdi). Natijada aruz vazni o‘zining yangi qirralarini namoyon eta boshladi va umuman, faqatgina keksa avlodning emas shakllanib borayotgan o‘zbek she’riyatining ham mulki bo‘lib qoldi. Shunday qilib aruz va u bilan bog‘liq she’riy janr va shakllar ( g‘azal,muxammas, musaddas) hozirgi o‘zbek poeziyasida keng tarqalgan janrlar guruhini tashkil etdi.

**Д.Ж.Хайдаралиева - студентка 3-курса Ферганский государственный университет**

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Концепция современного образования определила цель профессиональной деятельности учителя – сформировать у учащихся способность к успешной социализации в обществе, активной адаптации на рынке труда. В целом можно говорить о дву х группах стратегий: непосредственно влияющих на научение и способствующих научению. В последние десятилетия в связи с развитием современных образовательных технологий в учебный процесс стали широко внедряться аудио- и видеозаписи, компьютерные программы, дистанционное обучение. Информационные технологии обогащают учебный процесс во многих областях знания, в самых различных условиях обучения и на всех его уровнях. В полной мере это относится к преподаванию иностранных языков особенно за рубежом, где непосредственный контакт с изучаемым языком ограничен.

Инновационный урок – это не просто новый формат преподавания материала в рамках одного занятия. Инновационный урок требует комплексного подхода. Он начинается с подготовки

[119] Karimov N. O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.,T..,”Fan”.,1983.104-bet.
[120] Лорка Федерико Горсиа.Избранные произведения в 2 томах. Т.1.М.,1986.С.398-399.

материала и планирования занятия учителем, а заканчивается выполнением творческой домашней работы учеником. Сам урок – лишь связующая часть, позволяющая в наиболее эффективном формате передать знания по каналу «учитель — ученик» [1]. Эффективность здесь подразумевает передачу максимального количества полезной информации за единицу времени при минимальной потере (забывании) полученного на уроке материала. Возможные направления инновационных технологий на школьных уроках сполна реализуют эту задачу. 10 инновационных технологий, внедренных в работу школ Понятие «технология» подразумевает осуществление какого-либо процесса с использованием определённых методов и инструментов в некоторой последовательности, которое приводит к конкретному результату. Инновационными можно назвать те методики в теории и практике преподавания, которые были введены или вводятся в последние два десятилетия [2]. Перечислим 10 примеров инновационных технологий на уроках литературы. Работа с текстом, направленная на развитие критического мышления Навык ставить под сомнение поступающую информацию и анализировать источники способен перевернуть привычное представление о порядке вещей. Человек, умеющий мыслить критично, ищет ответы на вопросы, которые у других могли не появится в принципе, открывая новые пути решения задач. Здесь важно выработать привычку задавать вопросы, и в этом поможет такой инновационный прием, как чтение с остановками. Преподаватель заранее готовит текст и выбирает места, в которых нужно сделать паузы и ответить на вопросы.Например, о том, какие мотивы движут персонажами или как тот или иной поступок характеризует героя; такие вопросы заставляют вникать в прочитанное и высказывать предположения, основанные на собственном впечатлении от произведения. Комплексный анализ текста Приём обучает ученика работать с объектом комплексно, то есть рассматривать все его возможные характеристики и давать по ним свою оценку. При работе с текстом это анализ содержания и формы. Анализ содержания включает работу с сюжетом, героями, ситуацией, задействует формирование причинно-следственных связей. Работа с формой, или с самим текстом, призвана обратить внимание на слог автора, литературные приёмы, метафоры и красоту художественного текста. Мозговой штурм, или кластер Этот инновационный метод позволяет графически отобразить мыслительные процессы прямо на уроке. Методика проста: в центре листа, доски записывается основное слово, а вокруг него пишутся слова-ассоциации. Цепочка продолжается до 3-4 порядка от «центра». Необходимо составить как можно больше связей между всеми элементами. При этом нельзя бояться высказывать любые идеи и давать волю воображению. Образовавшийся кластер является наглядным мыслительным полем вокруг одной идеи или персонажа, дающим большие возможности для анализа темы. Групповая дискуссия Этот метод инновационного урока особенно важно задействовать в обучении. По статистическим данным, в среднем на уроке ученик в лучшем случае разговаривает на протяжении трёх минут. Именно урок литературы как никакой другой дает возможность научиться говорить. Этот навык, формирующий основу деловых отношений, крайне важен для взрослого человека. Школьникам овладеть им помогут групповые дискуссии, обучающие речевым штампам, высказыванию и обработке возражений, аргументированию. Использование мультимедиа Задействование компьютера, проектора и аудиосистем – это самый очевидный способ сделать урок современным. Перечисленные системы многократно расширяют спектр возможных форматов преподнесения материала на уроке. Несколько вариантов того, как использовать мультимедиа на уроках литературы: Сопровождение слов учителя иллюстрациями; Выведение важных фраз на экран для записи без необходимости диктовать их и повторять по несколько раз; Демонстрация отрывков из фильмов, в том числе экранизаций изучаемых литературных произведений; Проведение тестирований, опросов с использованием изображений и аудио- или видеофрагментов; Демонстрация презентаций учащимися, защита собственных проектов [3]. Творческие домашние работы Традиционно домашнее задание заключается в поиске и запоминании информации. Оба компонента можно перевести на новый уровень, вызвав необходимость в творческой деятельности. Заинтересовывать учеников нужно не только возможностью развить их интеллектуальные, творческие и лингвистические способности, но и самой процедурой обучения. Именно инновационные технологии являются тем инструментом, который направлен и на достижение цели, и на создание увлекательного познавательного процесса.

**Использованные литературы:**

1. Мировые образовательные технологии: основные тенденции, проблемы адаптации и эффективность. Материалы республиканской научно- методической конференции, 25-26 апреля, Алматы

2. Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Инновационные методы обучения или как интересно преподавать: Учебное пособие. А, 2009

3. Никитин А.Ф. Педагогика прав человека. М.

**M.R. Gulmatova – Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ILMIY FUNKSIONAL USLUBNING SHAKLLANISHI

Bugungi davrda ilm-fan jadal taraqqiy etmoqda. Bu nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlarda balki aniq va tabiiy fan sohalarida ham ko‘zga tashlanmoqda. Tilni turli paradigmalar asosida o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortmoqda. Tabiiyki, “Til dunyoni ilmiy bilishning, ilmiy g‘oya va qoidalarni qayd qilishning asosiy quroli, shuning uchun ham muayyan fanning taraqqiyotini bu fan yaratilgan tabiiy tilning taraqqiyotidan ayro holda tasavvur qilib bo‘lmaydi”[121]. Til har bir fanning ajralmas qismi sanaladi. Ma’lumki, tadqiqotchi har qanday fanda dastlab tilga murojaat qiladi, ammo u tildan foydalanishni bilmasa, bajargan ishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ilmiy ishlarni bayon qilishda esa ilmiy uslub qo‘llaniladi. Ilmiy uslub tamoyillariga mos keluvchi asar ko‘p jihatdan mukammal bo‘ladi. Ilmiy uslubning qo‘llanish doirasi kengayib borayotganligiga tilshunoslikda so‘nggi yillarda olib borilayotgan ishlarning ko‘lami misol bo‘la oladi

Ilmiy uslubning qo‘llanish doirasi juda keng bo‘lib, adabiy tilga har tomonlama ta’sir qiladi. Ilmiy uslubning shakllanishi va taraqqiy etishi insonning turli jabhalardagi faoliyati bilan bevosita bog‘liq.[122] Ma’lumki, o‘rta asrlarda Evropada lotin tili fan tiliga aylangan. Bu esa olimlarga turli millat kishilari tomonidan yaratilgan asarlardan oson holda xabardor bo‘lishini ta’minladi. Vaqt o‘tgan sari olimlarning milliy tillari rivoji sustlasha bordi, shuningdek ilmiy yangiliklardan oddiy xalq bebahra qola boshladi. Lotin tilini mukammal biluvchilar soni kamayib bordi va natijada olib borilgan ilmiy ishlar olimlarning so‘zlashayotgan tilida yaratila boshladi. Bunga italyan adabiy tilining asoschisi Dante Oligeri faoliyati va asarlari yorqin misol buladi.“U o‘rta asr madaniyatining so‘nggi, uyg‘onish davrining esa ilk shoiri sanaladi. Dante (1265-1321) yirik shoir bo‘lish bilan birga, tilshunoslik masalalari bo‘yicha ham qimmatli fikrlar bayon qildi. Buning ob’ektiv sabablari bor edi. CHunki o‘rta asr madaniyati dinga asoslangan, ta’lim va badiiy adabiyot o‘lik lotin tilida bo‘lgani tufayli, klassik adabiy va jonli so‘zlashuv tili o‘rtasida katta uzilish ro‘y bergan edi. Dante oldida ulkan muammo turardi. O‘z asarlarini klassik lotin tilida yozadimi, yoki xalqning jonli so‘zlashuv tilida? U o‘z davrining buyuk ma’rifatparvari sifatida ikkinchi yo‘lni tanladi. Lotindan voz kechib zamonaviy italyan tilida yaratilgan ilk asar “Ilohiy komediya” bo‘ldi. Muallif bu asarni yozish chog‘ida xalq tilini chuqur o‘rganar ekan, tabiiyki, tilshunoslik muammolariga ham duch keldi”.[123] SHunday qilib, Evropada har bir tilning ilmiy tili, ilmiy uslubi yuzaga kela boshladi.

Turkologiyada ilmiy uslubning vujudga kelishida “...bizgacha etib kelgan O‘rxun-Enisey va shuning singari boshqa ko‘pgina yozma yodgorliklar barcha turkiy urug‘-qabilalarnining hayoti va ... turkiy xalqlar adabiy tilining ilk taraqqiyot davri va uning stilistik tur-xillarini aniqlashda ham bu yodgorliklarning ahamiyati juda kattadir”.[124] Uslubshunos olim SH. SHomaqsudov stilistik turlarning tarixiy ildizlari masalasini tadqiq qilar ekan shunday yozadi: “N.A. Baskakov ilmiy-publitsistik (“nauchno-publitsisticheskiy”) stilga misol qilib qadimgi uyg‘ur yodnomalari, buddizm diniga oid falsafiy traktatlarni keltirsa, diniy stilga esa stilistik jihatdan shomoniylik udumiga juda yaqin bo‘lgan qadimgi uyg‘ur duolari

[121] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 126-бет.
[122] Маҳкамов Н. Ўзбек тили илмий услубининг шаклланиши ва тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, № 5, 2019. – 48-б.
[123] Нурмонов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 13-б.
[124] Шомақсудов А.Ш. Ўзбек тили ва унинг стилистик турларининг тарихий илдизлари масаласига доир.// Ўзбек тили стилистикаси масалалари (илмий асарлар тўплами). – Тошкент,1975. – 3-бет.

namuna bo‘la olishini aytadi.”[125] Bundan ayon bo‘ladiki, qadimgi turkiy tilning yozma shaklda etib kelgan namunalarida bugungi kunda fanda mavjud bo‘lgan stillarning dastlabki elementlari o‘rin olgan.

Biroq sobiq Ittifoq davrida “rus tili yordamida ilmiy aloqa turi yuzaga keldi va taraqqiy etdi”[126] degan fikrlar ham ilgari surildi, bunga o‘sha davrning siyosati sabab bo‘lgan. SHunday bo‘lsa-da, “rus tili ilmiy stilining ta’sirini o‘zbek tili ilmiy stilining janr turlarida, kompozitsion qurilishida va stil sathlarida ham ko‘rish mumkin. To‘g‘risini aytganda, rus tili ilmiy stiliga xos ilmiy maqola, taqriz, referat, darslik kabi janrlarping o‘zbek tilida yuzaga kelishi aniq rus tilining ta’siridir”[127] degan fikrlar asoslidir. Buni inkor qilib bo‘lmaydi, chunki ilm-fanni bir millat shakllantira olmaydi, ilm-fan o‘zaro bog‘liqlikda, bir-birini o‘rganib tadqiq va tahlil qilish orqali rivojlanadi, turli yangilanishlarga ega bo‘ladi. Masalan, “Qadimgi hindlar yuksak darajada turuvchi o‘z tilshunosliklari bilan jahon tilshunoslik faniga juda katta hissa qo‘shdilar va o‘z ta’sirlarini ko‘rsatdilar. Ularning ta’limotlari Eron orqali qadimgi grek tilshunosligiga, Eron va Suriya orqali arab tilshunosligiga ta’sir qildi.[128] Taniqli tilshunoslar hind fonetikasi yunon va arab tilshunosligiga ta’siri katta bo‘lganini ta’kidlashgan. Aynan shu orqali boshqa tillar fonetikasi rivojlana boshlagan va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Ayniqsa, hozirgi globallashgan, axborot asrida fanlar rivojlanishi va o‘zaro aloqalar jadal sur’atda ro‘y bermoqda. Masalan, birgina tilshunoslikda XXI asrda bir qancha yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu, albatta, bir xalq yoki millat tomonidan o‘ylab topilmagan, balki boshqa olimlar va izlanuvchilarning ilmiy izlanishlarini o‘rganish va tadqiq qilish orqali yuzaga kelgan.

Professor N. Mahmudov ham ilmiy funksional uslubning shakllanish tarixi haqida o‘z fikrlarini bildirgan. Xususan, u ozarbayjon tilida ilmiy uslubning vujudga kelish tarixini o‘rgangan tilshunos olimlarning ilmiy xulosalarini keltirib o‘tgan. Jumladan, “Professor N.Xudievning XVI-XVIII asrlarda ozarbayjon tili ilmiy uslubida ikki tarmoq ijtimoiy yoki guminitar va aniq fanlar ko‘rinishlari mavjudligi haqidagi ma’lumotni qayd etar ekan, V.D. Abbosova “ozarbayjon adabiy tili ilmiy uslubining dastlabki namunalari XVII-XVIII asrlarda yaratilgan”ini aytadi. Davrning turkiy tarixiy yozma manbalarini tahlil qilish asosida ozarbayjon olimi SH. Gasanli-Garibova quyidagi fikrni bayon qiladi: “Turkiy tillarda ilmiy uslubning tarixi XVII-XIX asrlardan emas, balki XIV asrdan boshlanadi” degan fikrlarni bildirgan.[129] Bundan ma’lum bo‘ladiki, turkologiyada ilmiy uslub XIV asrda shakllangan. “Amir Temur turk (o‘zbek) tilining obro‘-e’tiborini ko‘tarish, uning funksiya doirasini kengaytirish, bu tilni diplomatik munosabatlar, davlatning turli hujjatlari yuritiladigan tilga aylantirishga alohida e’tibor berdi”[130] Ta’kidlanganidek, bu davr temuriylar hukmronligiga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilinig ushbu taraqqiyot bosqichi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Buyuk olim va mutafakkir, tilshunos, tarixchi, adabiyotshunos, musiqa ilmi bilimdoni bo‘lgan davlat arbobi Alisher Navoiy o‘zbek tili ilmiy bayon uslubini shakillantirgan. U o‘zbek adabiy tilini yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tardi, uni har tomolama boyishi uchun xizmat qildi. Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan adabiyotshunoslikka oid “Mezon ul-avzon” va tilshunoslikka oid “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi sof ilmiy asarlari ilmiy nasrning yaqqol namunalari sanaladi.

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, ilmiy uslubning dastlabki ildizlarini qadimgi turk tili davridanoq ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy uslubning shakllanishi va rivojlanishida esa Alisher Navoiy asarlari muhim ahamiyatga ega. Keyinchalik rus istilosi va ijtimoiy-siyosiy omillar sababli fanlarning ilmiy bayon uslubida bir qancha o‘zgarishlar ro‘y bergan.

[125] Ўша асар. – 4-бет.
[126] Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили”. – Тошкент: Фан, 1984. – 153-158-бетлар.
[127] Ўша аср. – 154-бет.
[128] Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 14-б.
[129] Маҳмудов Н. Илмий матнда қолиплашган ифодалар // Ўзбек тили ва адабтёти журнали, 2019,№4. -49-50-б.
[130] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент:Ўзбекистон, 2002. – 72-б.

**A.A. So‘fiev – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**

## TADBIRKOR SHAXS HUQUQIY MADANIYATI SHAKLLANISHINING MAZMUN-MOHIYATI VA UZIGA XOSLIGI

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy va huquqiy asoslarini tahlil qilish, muqarrar ravishda, tadbirkorlik tushunchasining tarixi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari va asosiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganib chiqishni davrning o‘zi taqozo etadi. Shu ma’noda, tadbirkorlik faoliyati, xususan tadbirkor shaxsga davlat va jamiyatning bo‘lgan ehtiyoji, fuqarolarning tadbirkorlikka bo‘lgan intilishlari va maqsadlari shunchaki orzu-xavasdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki uning tarixiy, iqtisodiy hamda huquqiy asoslari, ijtimoiy, siyosiy, mahnaviy omillar bilan tavsiflanadi.

Tadbirkor shaxs xuquqiy madaniyati, uning sohaga oid amaldagi qonunlarni bilishi, qabul qilingan huquqiy normalarning talablariga muvofiq harakat qilishi, huquqqa hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalarning huquqini hurmat qilish bilan belgilanishi alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning bozor munosabatlari sharoitidagi tub islohotlari davri va uni jamiyat hayotiga samarali tadbiq etish bilan bir qatorda tadbirkor shaxsning huquqiy madaniyatini yuksaltirish tamoyillarini ilmiy tahlil qilish, mamlakatimizda bu sohaga bo‘lgan katta ehtiyojni ilmiy asosda tushunib yetishda muhim metodologik ahamiyat kasb etishi tahlil etiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini ravnaqida alohida o‘rin tutuvchi tarmoq aholini ish bilan ta’minlash, kishilarni turmush farovonligini oshirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Shu sababdan bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar ko‘payib, turli sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Chunki, tadbirkorlik mamlakatimizda azaldan rivojlanib kelgan sohalardan hisoblanadi. Ya’ni, mamlakatimizda ham tadbirkorlik kasbi o‘zining uzoq va shonli tarixiga ega bo‘lgan. Ayni shu mahnoda, O‘rta Osiyo xalqlarida tadbirkorlik tushunchasi nafaqat tirikchilik yoxud ro‘zg‘or o‘tkazish vositasi, balki o‘ziga xos qobiliyat va iste’dod sifatida ham sharhlanadi. Negaki, Buyuk Ipak yo‘lining Markaziy Osiyo mintaqasidan o‘tishi, soxibqiron Amir Temur tuzuklarida tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlashdagi o‘rinin tushuntirilishi va Ibn - Xaldun kabi chuqur iqtisodiy tafakkur asoslarini yaratgan ulamolarning aynan sharqda dong taratishi kabi misollar tadbirkorlikning negizlari juda ham uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Zero, insoniyat tarixida davlat munosabatlari shakllangan davrdan boshlab savdogarlik doirasida tadbirkorlik rivojlangan. Tarixiy xujjatlarda qayd etilishicha qaysi davlatda tadbirkorlik rivojlangan bo‘lsa, shu davtlatda markazlashgan hokimiyat, muayyan ma’nodagi farovonlik hamda ilm-fan ham o‘zining rivojlanish bosqichini boshidan kechirgan.

Keyinchalik G‘arbiy Yevropada shakllangan liberalizm g‘oyalarida har bir shaxs qadr-qimmat va erk egasi va o‘z harakatlari uchun mas’ulligi, shaxs erkinligining zaruriy sharti xususiy mulk ekanligi, erkin bozor, erkin raqobat va erkin tadbirkorlik, teng imkoniyatlar bo‘lishi lozimligi, hokimiyatlar bo‘linishi zarurati, qonun ustivorligini ta’minlash kerakligi, huquqiy davlat g‘oyasini ustuvor bo‘lishligi, shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash kabilar ustivor ahamiyat kasb etgan. O‘sha davrda shakllangan bunday qarashlar jamiyatda tadbirkorlikning o‘ziga xos maqomga ega bo‘lishida munosib o‘rinni egallagan. Bunda tadbirkorlik va ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlarini o‘zida ifoda etuvchi umuminsoniy va umumbashariy fikrlar, alohida diqqatga sazovordir.

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini yuksaltirishda quydagilarga alohida e’tibor berish zarur: huquqiy madaniyat - boshqariladigan jarayon ekan tadbirkor shaxs huquqiy madaniyati o‘sib borishi, hamda muayyan ijtimoy - iqtisodiy tuzum o‘zgarishi bilan bu jarayon takomillashib borishini nazarda tutmoq kerak. Shunga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy ushubu masalani ilmiy-nazariy tomondan tahlil qilish, falsafiy umumlashtirish, tabiiyki, amaliyot uchun dasturilamal vazifasini o‘taydi. Demak, uning pirovard maqsadi ma’naviy maqsadlarga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Shularni nazarda tutib, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 dekabrdagi PQ-4551-son “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash doirasida kelib chiqib tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini takomillashuvida quyidagilarga e’tibor berish kerak deb hisoblaymiz:

- *birinchidan,* davlat huquqiy tarbiya va ta’limning asosiy tashkilotchisi sifatida ta’lim va tabiyaning usullari va vositalarini, bu faoliyat bilan bevosita shug‘ullanayotgan muassasalar tuzilmasini muntazam ravishda takomillashtirib boradi, huquqiy tarbiya va huquqiy ta’limning muqobil tizimlarini shakllantirishga yordam berar ekan tadbirkor shaxs faoliyatida ham bu hodisa muhim ahamiyat kasb etadi;

- *ikkinchidan,* aholi xususan tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta’minlash zarurdir. Buning uchun avvalo ularning o‘zaro hamkorliligiga oid yangi loyiha, dastur va shartnoma talablari ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi;

- *uchinchidan,* ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, kechiktirib bo‘lmaydigan va istiqboldagi vazifalarni aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va yuristlar jamoat birlashmalari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolgan ekan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlar faoliyatiga ular ham javobgardir;

- *to‘rtinchidan,* huquqiy tarbiya va ta’limning, ta’lim-tarbiya muassasalari tomonidangina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat organlarining va korxonalarning, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida ham amalga oshirilishi nazarda tutilgan ekan ularni tadbirkor shaxs bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirish hamda o‘zaro ishonch tuyg‘usini shakllantirish lozim bo‘ladi;

- *beshinchidan,* tadbirkorlarning huquqiy tarbiyasi va huquqiy ta’limi tizimini takomillashtirishda davlat yuridik o‘quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, huquqshunos olimlar va boshqalarni jalb qilish va bu jarayonda yuridik o‘quv yurtlarining moddiy-texnika negizini mustahkamlash kerak.

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatining yuksaltirish uzluksiz jarayon bo‘lib, u hamisha oldin qo‘lga kiritilgan yutuq, to‘plangan tajribalardan saboq va andoza oladi, boshqacha aytganda, tadbirkor shaxs huquqiy madaniyati doimo uning o‘zi mansub bo‘lgan xalq madaniy merosi, huquqiy qarashlariga uzviy bog‘liq holda, dialektik uyg‘unlikda voqe bo‘ladi.

**A.N. Xalilov – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**

## IJTIMOIY TADBIRKORLIK FENOMENINING IJTIMOIY- FALSAFIY VA TARIXIY TAHLILI

Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari barcha davrlar uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixiy manbalarga qaraganda ijtimoiy tadbirkorlikni vujudga kelishining ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bizga mahlumki, XVI asrgacha o‘lkamizdan Buyuk ipak yo‘lining eng asosiy yo‘llari o‘tgan va savdogarlik, oldi-sotdi gurkirab rivojlangan. Shu mahnoda ba’zi mahalliy adabiyotlarda tadbirkorlik dastlab aynan savdogarlik shaklida vujudga kelgan, degan qarash mavjud. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Avesto”dan boshlab inson mehnatini ulug‘lovchi, dangasalikni qoralovchi falsafiy-axloqiy fikrlar, mehnatsevarlikdan saboq beruvchi g‘oyalarda jamiyat va inson hayotining farovonligi alohida e’tirof etilgan[131]. Qadimgi yunonistonda shakllangan falsafiy ta’limotlarda tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkorlik masalasiga alohida to‘htalib o‘tilgan. Jumladan, Platon o‘zining “Qonunlar” - asarida davlat va tadbirkorlikning ijtimoiy, siyosiy munosabatlari masalasiga e’tibor qaratib, iqtisodiy erkinlikgina ular o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashi mumkinligi[132], Aristotel bo‘lsa, “Tadbirkor adolatli ishlarga qo‘l urishi, muntazam ravishda hayrli ishlar bilan shug‘ullanishi lozim”[133]ligini alohida tahkidlab tadbirkorlikning ijtimoiy mohiyatini Antik davrdayoq e’tirof etadi.

Abu Nasr Forobiy esa o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida hayrli ishlarga qo‘l uradigan tadbirkor odamlar xususida alohida to‘htalib o‘tadi[134]. Forobiyning fikricha, insonni baxt-saodatga eltuvchi jamoa haqqiga qayg‘uruvchi, fazilatli, yetuk, xosiyatli faoliyatdir. Insonning kelajagi, uning baxt-saodati haqida g‘amxo‘rlik qilish, uning qayg‘u-alamiga sherik bo‘lish hissi aynan tadbirkorlarda shakllangan bo‘lmog‘i

---

[131] Qarang. Avesto. A.Mahkamov tarjimasi. -T.: Sharq, 2001. - B. 248.
[132] Platon. Qonunlar. Rus tilidan O‘rfon Otajon tarjimasi. - T.: “Yangi asr avlodi”, 2002. - B.95-96.
[133] Аристотель. Политика. Соч. в.4-х томах. Т.4 - М.: “Мысль”, 1984, - С.379.
[134] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - T.: A. Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993. - B. 186.

lozim. Forobiy jamiyatda tadbirkorlikni rivojlanishida yangi qonunlarning o‘rniga alohida e’tibor beradi. Shuning uchun ham alloma “Rahbar yana og‘irlik o‘lchovi, don-dun va shakarga o‘xshash narsalar o‘lchovlari haqida ham hech kimga zarar keltirmaydigan savdo haqida qonunlar chiqarishi kerak. Shu bilan birga qonun chiqaruvchi, qonunlarda hamma badavlat va faqir kishilarning ahvolini aks ettiruvchi zarur, toki qonunlarni buzuvchi va o‘zining insonlarini oxirigacha tuzatmay razilliklarni yangilovchi odamlar toifasi nazardan tushib qolmasin”[135],- deb yozadi. Abu Rayhon Beruniy esa tadbirkorlikka oid qarashlarida odamlarning o‘zaro ixtiyoriy kelishuvini asosiy omil deb biladi.[136]

Davlat va siyosat arbobi Amir Temur bobomiz esa o‘zining “Temur tuzuklari”da tadbirkorlik masalasiga adolat nuqtai nazaridan yondashadi. Shu mahnoda “…Hammaga ham bir xil jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim”[137], - deb yozadi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy-falsafiy jihatlarini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotining yanada erkinlashtirish, tadbirkorlarlik faoliyatining erkin, hech qanday to‘siqlarsiz olib borishlari uchun tadbirkorlarda yetarli bilim va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, xolis baholash hamda undan yaqin hamda uzoq istiqbolimiz uchun ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishning zarurati bilan ham izohlanadi. Aynan shu holatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bu borada yana quyidagilarni ehtiborga olish lozim:

*Birinchidan*, taraqqiyotimizning yangi bosqichida hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik, xususan ijtimoiy tadbirkorlik, uning jamiyatdagi ahamiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ijtimoiy-falsafiy va huquqiy islohotlar asosida ijtimoiy tadbirkorlik takomillashtirishning mazmun-mohiyati va uning kontseptual asoslarini ishlab chiqishni taqozo qilada.

*Ikkinchidan*, bugungi kunda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati uzoq yillik strategik maqsadlarni ko‘zlab xo‘jalik yuritish sanhati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo‘lishi, innovatsion g‘oyalar, xavf-xatarga nisbatan tayyor bo‘lish va boshqa shu kabi ko‘p qirrali jarayonlarni o‘z ichiga qamrab olishi bilan xarakterlanmoqda. Shu boisdan ham bunday shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo‘nalishida samaradorlikni yanada oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bunda avvalo, nafaqat tadbirkor shaxs faoliyatini belgilab beruvchi yoki unga ta’sir ko‘rsatuvchi, balki bu faoliyatni tartibga solishga, takomillashtirishga ko‘maklashuvchi ijtimoiy-falsafiy jarayonlarni to‘g‘ri baholash talab etiladi.

*Uchinchidan*, bozor munosabatlari sharoitida yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini falsafaning asosi sifatida joriy qiluvchi tashabbuskor shaxs tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-falsafiy jihatlari deb ataladi. Ayni shu ma’noda, tadbirkorlik faoliyatini amaldagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Prezident farmonlari hamda 2017 yil 7 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga qo‘yilgan talablarga asoslanganlik bilan kuchli himoyalangan. Shu boisdan ham keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini behudaga tekshirishlarning kamayganligi, soliq yukining pasayib borishi, ayrim holatlarda tadbirkorlik sub’ektlari mahlum muddat soliqlardan ozod qilinishlari va boshqa shu kabi ko‘pgina omillar mazkur sohani jadal surhatlarda rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratib bermoqda. Biroq, bu sohani rivojlantirishdagi islohotlar ko‘lami qanchalik keng bo‘lmasin, ularning amaliyotda o‘z ifodasini topishida muayyan muammoli masalalarning mavjud ekanligini shart qilib qo‘yadi.

*To‘rtinchidan*, bugungi kunda mamalakatimiz iqtisodiyoti jadal sur’atlar bilan o‘sishi va yurtimiz salohiyati kuchayib borishining bosh omili sifatida ijtimoiy tadbirkorlikni va umuman kichik biznesni har tomonlama rivojlantirishga, qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor berilmoqda. Shu boisdan ham yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy tadbirkorlikni himoya qilish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan huquqiy va iqtisodiy islohotlarning ahamiyati, ijtimoiy tadbirkorlikka oid ishlab chiqilgan me’yoriy xujjatlarning barchasida erkinlashtirish tamoyillari bosh mezon sifatida asos qilib olingan. Ayni shu mahnoda, ijtimoiy tadbirkorlikni ijtimoiy-falsafiy jihatlarini erkinlashtirish tamoyillari o‘rnini to‘g‘ri baholash ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

[135] Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - T.: A. Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993. - B.38.
[136] Beruniy Abu Rayhon. Minerologiya. - T.: “Fan”, 1966.- B.14-27.
[137] Amir Temur. Temur tuzuklari. - T.: G‘afur G‘ulom. 1996. - B.53-55.

**B.S. G'aniev – Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD**
**G.B. G'anieva - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY, HUQUQIY VA FALSAFIY JIHATLARI

Shaxsning demokratik islohatlardagi faol ishtirokini ta'minlovchi omillardan biri, uning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksakligi bilan belgilanadi. Shu munosobat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tahkidlaydiki, "biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, shahni va qadr qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart. Muxtasar qilib aytganda, fuqoralarimiz qonunlarni buzishdan ko'ra, ularga amal qilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim."[138] Shuning uchun ham yangi rivojlanish bosqichida tadbirkorlik madaniyatining huquqiy falsafiy asoslarini yuksaltirish jarayoniga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bu jarayon insonga yoshlikdan singdirilishi lozim. mamlakatimizda yaratilgan uzliksiz tahlim jarayoni ushbu masalani yoshlar ongiga singdirishga muayyan darajada harakat qilmoqda. ammo tahlillar ko'rsatadiki, "albatta maktablarda "huquqiy" fanlar o'tiladi, lekin ularning mazmuni yuzaki o'qitishdan iborat bo'lib, huquqning tarbiyaviy ahamiyati ikkinchi o'ringa tushib qolgani sir emas".[139]

Yangi taraqqiyot bosqichining mamlakatimizda ijtimoiy jamiyat shakllanishi jarayoni jadallashdi, bu jarayon o'z navbatida shaxs ijtimoiy ongi va mahnaviy madaniyati jarayonlarida sodir bo'layotgan pozitiv xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy yo'nalishdagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ushbu tarixiy bosqichda, globadllashuv va axborotlar bosimi kuchaygan sharoitda, jadal taraqqiyotning mohiyatini belgilab beruvchi islohatlarning demokratik xarakteri, shaxs ijtimoiy manfatlarini o'zida aks ettirmoqda, bunday jarayon o'z navbatida jamiyatning ijtimoiylashuvi, inson manfaatlarining yechimiga berilayotgan ehtiborda o'z aksini topmoqda. Bunday ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan jamiyat, muqarrar suratda ilgargi davrdan ijobiy xususiyatlari bilan farq qiladi, uning am aliyotdagi ijrosi inson huquqiy manfaatlarining tizimli himoyalanishida namoyon bo'ladi.

Yangi rivojlanish bosqichi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirishning huquqiy-falsafiy jihatlarining tadqiqi asosida quyidagi mustaqil tavsiyalarni ilgari surilmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston mustaqil, o'ziga xos geoiqtisodiy sub'ekt sifatida, fuqoralik jamiyati rivojlanish tendentsiyalariga mos bo'lgan, tadbirkorlik sub'ektlarining kompleks rivojini ta'minlaydigan xo'jalik yuritish modeliga ega bo'lishi lozim. Bu jarayon o'z navbatida milliy taraqqiyot modelining nazariy metodologik asoslarini o'zida aks ettirgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, mustaqil izlanuvchi jamiyatshunos olimlar, faylasuflar, iqtisodchilar asarlariga, xulosa va tavsiyalariga tayangan holda, jamiyatda ko'pmulkchilik shakllarini, milliy va umiminsoniy qadriyatlarni inkor qilmagan holda shakllanadi va yuksalib boradi. Jamiyatdagi bunday tsvilizatsion munosobatlar, innovatsion boshqaruv, jamiyatning jahon hamjamiyati bilan o'zaro madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalarini tizimli rivojlanishini taqazo qiladi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik sub'ektlari va shakllarining muttasil rivoji ijtimoiy xarakterdagi davlat byudjeti shakllanishiga munosib hissa qo'shadigan, asosiy manba va tizimga aylantirilishi maqsadga muvofiq, bu jarayon muayyan ishbilarmonlarning boyishi uchun asosiy manba rolini bajarmasligi, mamlakatning barqaror rivojlanishini, inson manfatlarining jamiyatdagi ijrosini ta'minlashi zarur. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida axloqiy talablarga asoslangan milliy iqtisodiyotni, tadbirkorlarning yuqori ma'naviy madaniyatiga asoslangan jamiyatni shakllantirish mumkin. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatidagi bunday jarayonlar davomida, ishbilarmonlik bilan shug'ullanishni maqsad qilgan shaxslarning, ijtimoiy-iqtisodiy munosbatlar kesimida intellektual imkoniyatlari va maxsus bilimlarini, yuqori malakasini amaliyotda namoyish qilish uchun sharoit yaratiladi.

---

[138] Shavkat Mirziyoev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent. "O'zbekiston", 3- jild, 85- bet.
[139] Shavkat Mirziyoev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. - Toshkent. "O'zbekiston", 3- jild, 84- bet.

Uchinchidan, mamlakatimizda hozirgi davrda tadbirkorlar tomonidan tabiiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish lozim. Shuningdek tabiiy resurslar suveren davlatning ijtimoiy rivojiga, iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qilishi zarur. Ushbu maqsadda dalat tashkilotlari, tadbirkorlar, fermerlar tomonidan yer, suv resurslari, yer osti boyliklaridan foydalanishning yangi talablarini ishlab chiqish, flora va faunani himoyalash talablarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, globallashuv sharoitida va davlatlar aro raqobotbardoshlik kuchayib borayotgan davrda, tadbirkorlik sub’ektlari ishida milliy qadriyatlarga, jumladan milliy tildan foydalanishga alohida ehtibor berish, tovarlarning eksportida milliyligimizni, milliy g‘oyamizga xos xususiyatlarni, o‘zbek xalqining ma’naviy, axloqiy dunyosi va o‘zligimizni ta’kidlovchi reklamalardan, savdo belgilaridan keng foydalanish zaruriyati vujudga keldi.

Beshinchidan, O‘zbekistonning rivojlangan demokratik davlarlar qatoriga kirishga bo‘lgan harakati kontseptsiyasidan kelib chiqib, ijtimoiy yo‘naltirilgan jamiyat qurish kontseptsiyasining asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, ushbu jarayonda tadbirkorlik sub’ektlarining tutgan o‘rnini belgilash va uni mamlakatimizning jahonda tutgan muhim o‘rni, uning xalqaro imidjini mustahkamlashga bo‘lgan harakati mazmuni yo‘nalishlari bilan bog‘lash lozim.

Oltinchidan, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan omillardan biri, milliy g‘oya asoslarining tadbirkorlar, kichik biznes va yakka tadbirkorlar ongiga singdirish, ular madaniyatini yuksaltirish jarayoni bo‘lib, O‘zbekistonning mahnaviy, axloqiy kamoloti, uning ozodligi, suverineteti, kelajak sari intilganligi, insoniyat tsivilizatsiyasiga munosib bo‘lgan, taraqqiy qilgan davlatligini ta’minlaydigan omil hisoblanadi. Bunday jarayon o‘z navbatida jamiyatning barcha jabhalarida korruptsiyaga qarshi kurashni ayovsiz davom ettirishni taqazo qiladi.

Ettinchidan, mamlakatning ma’naviy kamolotini ta’minlash uchun, ijtimoiy, iqtisodiy munosobatlarni ta’minlashda, tadbirkorlik subhektlarini faoliyatida mahnaviy, axloqiy asoslarga rioya qilinish zaruriyatini ham ilgari suradi. Bunday jarayonni tahminlash uchun mamlakatimizdagi tadbirkorlikni tashkiliy, moliyaviy, huquqiy jihatdan qo‘llab-quvatlash siyosatini, tadbirkorlarning mahnaviy, axloqiy madaniyatini yuksaltirish jarayoni bilan uzviy bog‘liqlikda olib borish maqsadaga muvofiq.

Sakkizinchidan, jamiyatda milliy qadriyatlarga asoslangan tadbirkorlikni, yahni tadbirkorlikning iqtisodiy yuksalishga aloqadorligi jarayoni, inson faoliyatidagi yaratuvchilik, ishlab chiqarishda ishtirok etish omilining, tadbirkorlikdagi ma’naviy axloqiy mazmun, ya’ni ushbu jarayonning tadbirkor jamiyatdagi jadal faoliyati, inson omiliga bog‘liqligini, o‘z navbatida tadbirkor madaniyatining iqtisodiy madaniyat bilan o‘zaro aloqadorligini farqlash lozim.

To‘qizinchidan, mamlakatimizdagi davlat tashkilotlari, hokimliklar tadbirkorlikning milliy asoslarining tiklanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’naviy va axloqiy traditsiyalarni qo‘llab quvatlashi, tadbirkorlik subhektlari faoliyatini jadallashtiradi. Bunday jarayon davlatning iqtisodiy jihatlarga bog‘liqlikdan qutqaradi, tadbirkorlikning to‘liq bozor munosobatlariga asoslanishini ta’minlaydi.

**U.S. Maqsumova - Farg‘ona davlat universiteti tutori**
**F.Y. Ikromova – Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi**

## JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIDA TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINING MAQOMI

Fuqoralik jamiyati rivojlanishini jadallashtirishda inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda tadbirkorlik sub’ektlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarni ijtimoiy himoyalash, tadbirkor tomonidan ongli sur’atda, muayyan ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsad sifatida amalga oshirilishi lozim. Inson omiliga e’tiborning kuchaytirilishi, tadbirkorlik tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarda kelajakga ishonchni shakllantiradi, ularning kasbiy ko‘nikmalari takomillashuviga va tashkilotda mehnat unimdorligi va ishlab chiqarilayotgan tovarlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati oshishiga erishiladi. Provard natijada korxona, kichik tadbirkorlik sub’ektlari strategik rivojini ta’minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishiga asos tayyorlaydi.

Yangi rivojlanish bosqichi davrida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar mavjud imoniyatlardan foydalangan holda, tadbirkorlik sub'ektlarining ijtimoiy statusini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishlari, rejalashtirishlari maqsadga muvofiq. Ushbu tadbirlar mazmuni tadbirkorlar tomonidan kasbiy, axloqiy, ma'naviy talablarga amal qilish, hamkorlar bilan o'zaro munosobatlardagi ishonch ruhini shakllantirish, kam ta'minlanganlarni ijtimoiy qo'llab quvatlashni o'z ichiga oladi. Bunday faoliyat natijasi, jamiyatning barcha tizimlarida, jumladan boshqaruv xodimlari, davlat tashkilotlari, fuqoralik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ijobiy munosobatni shakllantiradi.

Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ya'ni tadbirkorning samarali faoliyati bilan bir qatorda, insonlarga adresli yordam ko'rsatishi, mamlakatda inson kapitalini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Ushbu jarayonni yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash uchun, uning huquqiy normativ asoslarini kengaytirish, ushbu faoliyatni huquqiy jihatdan himoyalash mexanizmlarini qonunlarga kiritish maqsadga muvofiq. Bunday amaliy ishlar tadbirkorlarning ijtimoiy ma'sulyatini oshiradi, hamda ularning yangi ijtimoiy tizimlarga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Transformatsiyalashayotgan jamiyat sharoitida ma'naviy omillarning roli oshib boradi, madaniy munosobatlarda ijtimoiy, iqtisodiy omillarning tahsiri kuchayadi. Jamiyat taraqqiyotida vujudga kelayotgan, bahzan radikal jarayon sifatida namoyon bo'layotgan omillar, iqtisodiy rivojlanishdagi salbiy holatlardan qutulishda mahnaviy-axloqiy imkoniyatlar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi:

*Birinchidan,* tadbirkorlikni tartibga soluvchi turli qonun va qonunosti hujjatlarini soddalashtirish maqsadga muvofiq. Ushbu jarayonda davlat muassasalari, Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari shahar, tuman, viloyat kengashlari, tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari fikrini inobatga olish lozim. Ushbu taklifning amaliyotdagi ifodasi jamiyat ahzolari, asosan yoshlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanishlariga bo'lgan qiziqishlari, shaxsiy, mustaqil harakatini jadallashtiradi, provard natijada tadbirkorlik sub'ektlari soni ko'payadi, jamiyatda inson manfaatlari yechimi muommasi hal qilinishiga hissa qo'shiladi.

*Ikkinchidan,* tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini modernizatsiyalash, ularning o'tkazilayotgan demokratik islohatlardagi faolligini oshirish maqsadida biznesni yuritish sohasida qo'llaniladigan birlamchi hujjatlar tizimlarini elektronlashtirishni takomillashtirish kerak. Ushbu taklifning qabul qilinishi natijasida tadbirkorlar ish joylaridagi sharoit zamonaviylashadi, tadbirkor faoliyati osonlashadi, korxonada ishlayotgan xodimlarning mehnat unimdorligi oshadi.

*Uchinchidan,* tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, kichik biznes shakllarini ko'paytirish uchun mavjud imkonniyatlarni takomillashtirish maqsadida, tadbirkorlikni sertifikatlashtirish jarayonini yanada yengillashtirish zarur. Bunday mazmundagi huquqiy yengilliklar jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal qilishda tadbirkorlar faoliyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi, tadbirkorlarga esa tovarlarni sotish, aholiga ko'rsatayotgan xizmatlar soni va sifatini ko'paytirish, yangi ish joylarini vujudga keltirish imkoniyatini kengaytiradi.

*To'rtinchidan,* tadbirkorlikning yangi taraqqiyot bosqichida rivojlanish tendentsiyalarini inobatga olgan holda, oliy o'quv yurtlarida tadbirkorlik nazariyasi va amaliyotiga doir fanlar bo'yicha yangi avlod dasturlarini, o'quv qo'llanmalari, darsliklarni yaratish, hamda tadbirkorlik ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq sifatli tayyorlash, kadrlarga bo'lgan ehtiyojning viloyatlar kesimidagi zaruriyat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish lozim.

*Beshinchidan,* respublikamiz yetakchi universitetlari bazasida, rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlari bilan birgalikda tadbirkorlar malakasini oshirishga mo'ljallangan qo'shma fakultetlar, qisqa muddatli o'quv markazlari tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bunday innovatsion yo'nalishdagi o'quv markazlari tadbirkorlarga yangi taraqqiyot bosqichi sharoitida huquqiy, tashkiliy, xalqaro masallardagi so'ngi yangiliklar bilan tanishtirish imkoniyatini yaratadi.

*Oltinchidan,* viloyatlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning malakasini oshirish, jamiyatnging modernizatsiyalashuviga oid yangiliklardan xabardor qilish uchun ularni universitetlar huzurida tashkil etilgan malaka oshirish o'quv markazlariga biriktirib, masofoviy tahlim texnologiyasidan foydalanilgan holda malakasini oshirishni tashkil qilish lozim. Bunday jarayonda mahalliy hokimliklar,O'zbekiston tadbirkorlar uyushmasi, fermerlar uyushmasi, nodavlat notijorat tashkilotlar yordamidan foydalanish zarur.

*Ettinchidan,* tadbirkorlarni malakasini oshirish markazlarida, yuqori salohiyatli tadbirkorlar ichidan tanlab olingan ishbilarmonlardan, ularning amaliyotda erishgan yutuqlari mazmuni va sababini, yangi ish boshlagan tadbirkorlarga tanishtirish maqsadida yetakchi tadbirkorlarni mahruzachi, amaliyot mashgʻulotini oʻtkazuvchi sifatida oʻquv jarayoniga jalb qilish lozim.

*Sakkizinchidan,* tadbirkorlikni yanada takomillashtirishga yoʻnaltirilgan oʻquv va ilmiy loyihalarni amalga oshirishda, shuningdek kichik biznes oldida turgan dolzarb vazifalarni hal etishga bagʻishlangan mavzularda ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishda respublikamiz universitetlari professor-oʻqituvchilari, tadqiqotchilar, doktorantlarning xorijiy yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilishini jadallashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun iqtidorli magistrlar, yosh professor-oʻqituvchilarni xorijiy universitetlar va ilmiy markazlarda malaka oshirish imkoniyatini kengaytirishga imkoniyat yaratish lozim.

**B.S. Gʻaniev – Fargʻona davlat universiteti dotsenti, PhD**
**Y.A. Shokirov – Fargʻona davlat universiteti 3-kurs talabasi**

## TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MODERNIZATSIYALASH ZARURIYATINING FALSAFIY–KONTSEPTUAL XUSUSIYATLARI

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichidagi rivojlanishi uning tizimlariga ta’sir qiladigan ijtimoiy bilimlar va amaliyotiga mansub boʻlgan innovatsion yondoshuvlar bilan boyitilishi, takomillashtirilishi ontologik asosga ega boʻlgan jarayondir. Modernizatsiyalashayotgan jamiyatning tobora chuqurlashayotgan bozor iqtisodiyoti munosbatlariga integratsiyalashuvi, muayyan ijtimoiy omillarni vujudga keltirdi. Shuningdek, ushbu jarayon natijasida ijtimoiy jarayonlarning mustaqil rivojlanish qonuniyatlarini ochib berdi va uning modernizatsiyalashuvga bevosita ta’siri ham tasdiqladi. Ana shunday omillardan biri tadbirkorlikdir. Jamiyat taraqqiyotiga katta ta’sir oʻtkazayotgan tadbirkorlik fenomeniga, shu davrgacha falsafiy adabiyotlarda yagona tahrif berilmagan, uning mazmun-mohiyatining qirralari, nazariy va amaliy jihatlari toʻliq ochilmagan. Mamlakatitmizda oʻzining uzoq tarixiga ega boʻlgan tadbirkorlik fenomeni, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy voqelik sifatida, uning maqsadi, ob’ekti, vazifalari va mohiyati, inson faoliyatidagi oʻrnini yangi rivojlanish bosqichida innovatsion yondashuv nuqtai nazaridan, falsafiy yoʻnalishda tadqiq qilishni talab qiladi. Tadbirkorlik jadal rivojlanish va yangilanish jarayonining muhim harakatga keltiruvchi kuchi, sababi hisoblanadi va transformatsiyalashayotgan jarayondagi asosiy omil hisoblanadi. Jamiyatning jadal taraqqiyoti, modernizatsiyalashuvi yangilanish, takomillashuv va muhim oʻzgarishlar, taraqqiyot jarayoni sifatida, tadbirkorlik omilining rivojlanish jarayonidagi rolini kuchaytiradi. SHuning uchun ham tadbirkorlikning mamlakatimz ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotidagi, inosonning tadbirkorlik fenomeni orqali demokratik islohatlardagi oʻrni oshib bormoqda. Yuqoridagilarni hisobga olib disertatsiyaning ushbu bobida tadbirkorlik faoliyatini modernizatsiyalash zaruriyatining falsafiy kontseptual masalalari tadqiq qilingan.

Hozirgi davrda kichik biznes shakllari sonii ortib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda, buning asosiy sababidan biri yoshlarning kasbiy bilim olishga intilish darajasi oshib borayotganligi, uzliksiz tahlim jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ijobiy tahsiri va yoshlarning globallashuv jarayoni natijasiida xorijiy davlatlarda vujudga kelayotgan, innovatsion mazmundagi axborotlar, yangiliklardan xabardorligidir. Jamoatchilik fikrini oʻrganish “Ijtimoiy fikr” markazi oʻtkazgan sotsiologik soʻrov natijalariga koʻra, “mamlakatimiz yoshlari orasida kichik biznes bilan shugʻullanadiganlar soni ozchillikni tashkil qiladi. Sotsiologik soʻrovda ishtirok etganlarning oʻndan bir qismi ushbu savolga ijobiy javob bergan. Ishbilarmonlik faoliyati bilan mashgʻul boʻlganlarning 55,2 % yakka tadbirkorlik bilan shugʻllanishini ta’kidlagan, respodentlarning 18,1% oilaviy biznes bilan mashgʻul, 12,4% kichik korxonalarda ishlaydi. Yoshlar orasida eng koʻp tarqalgan tadbirkorlik turi savdo biznesi boʻlib, unda 42,9% yoshlar mashgʻuldirlar. Shuningdek yoshlarning 35,7% xizmat koʻrsatish sohasida, oziq ovqat va qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlashda 12,4% yoshlar mashgʻul boʻlgan.”[140]

Yangi taraqiyot bosqichi rivojlanishdagi ob’ektiv shart-sharoitda, jamiyatning modernizatsiyalashuvi, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati jadallashuvi kuzatiladi. Fuqoralik jamiyati

[140] Игорь ЧЕРНЫХ. Молодежь Узбекистана: оптимизм и уверенность в будущем. “Uzbekistan Today” № 47. 22.11.2018

rivojlanishining ko'' qirralligi, turli ijtimoiy, iqtisodiy omillarga bog'liqligi jarayoni, uning muayyan sharoitda umimiy, balki o'ziga xos xususiyatga egaligini tahkidlaydi. Uning rivojlanish bosqichidagi o'ziga xosligi, iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi, tadbirkorlikning kengayishi, jamiyatdagi ijtimoiy o'rni chuqurlashuvi bilan belgilanadi. Bu ikkala omil o'zaro bog'liq bo'lib, innovatsion biznes strategiyasini belgilashda va tadbirkorlik subhektlari faoliyatining jamiyatning barcha tizimlari tarkibida jadallashuvida namoyon bo'ladi. Fuqoralik jamiyatining rivojlanish jarayoni, uning institutlari faoliyatini, globallashuv talablariga mos ravishda tashkil qilish, globallashuv jarayoni tahsiri natijasida, ijtimoiy, iqtisodiy tizimlar faoliyatida sodir bo'layotgan muhim o'zgarishlarga, innovatsion taraqqiyot va inson manfaatlari yechimi nuqtai nazaridan yondoshuvni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti munosobatlarining chuqurlashuvi sharoitida tadbirkorlik, kichik biznes subhektlarining jamiyatdagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishdagi, fuqoralik jamiyatining ijtimoiylashuvidagi roli oshib boradi. Shuningdek, tadbirkorlikning takomillashuvi, jamiyatdagi modernizatsiyalashuv jarayoniga ijobiy tahsir o'tkazadi. Ijtimoiylashgan maqsadni o'z oldiga qo'ygan fuqoralik jamiyati sharoitida innovatsion tadbirkorlik faoliyatining shakllanish, rivojlanish jarayoni inson manfaatlari yechimida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, fuqoralik jamiyati rivojlanish sharoitidagi modernizatsiyalashuv jarayoni, jamiyat boshqaruv institutsional tizimlarining takomillashuvi, innovatsion texnologiyalardan foydalanayotgan tadbirkorlik subhektlari faoliyatining jadallashuvi, iqtisodiy tarmoqlar, tadbirkorlik subhektlari uchun mo'ljallaangan raqabotbardosh kadrlar tayyorlash ishining yangi bosqichga kirishi bilan xarakterlanadi. O'zbekiston jamiyatining ochiqligini, inson manfaatlarining himoyasi tahminlanishi, uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi uchun harakatining jadallashuvi, tadbirkorlik sub'ektlarining jamiyatdagi ijtimoiy rolini yanada oshirdi.

Yuqoridagilarni hisobga olib quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

Yangi rivojlanish bosqichiga xos bo'lgan xususiyat, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy islohatlardagi rolining ustivor ahamiyat kasb etayotganligidir. Shu munosobat bilan davlat tashkilotlarning tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ta'sirini kamaytirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shuningdek tadbirkorlik sub'ektlari vakillari, fuqoralarni ijtimoiy qo'llab-quvatlash maqsadida, adresli homiylikni amalga oshirgan taqdirda, ularning kam ta'minlanganlarga sarflagan xarajatlari hajmiga munosib sur'atda, ulardan olinadigan soliq yukini kamaytirish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Muntazam ijtimoiy tadbirkorlik, homiylik bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarni ma'naviy qo'llab quvatlash, ularni davlat mukofotlari bilan taqdirlash lozim.

Bozor iqtisodiyoti munosobatlarining chuqurlashuvi sharoitida, davlat tashkilotlari va tadbirkorlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar o'zaro ishonch ruhida tashkil qilinishi lozim. Bunday hamkorlik natijasida tadbirkorlar faoliyatini yengillashtiriadigan huquqiy asos, iqtisodiy sharoit yaratilishi va provard natijada tadbirkorlik sub'ektlari va jamiyat o'rtasidagi munosobatlarni uyg'unlashtirishga erishiladi.

Fuqoralik jamiyati rivojlanishi sharoitida yangi tadbirkorlar avlodining shakllanishi, ijtimoiy yo'naltirilganligining jadallashuvi, axloqiy, ma'naviy madaniyatni yuksaltirishni, milliy qadriyatlarga munosib faoliyat yuritishni, xo'jalik yuritishda hozirgi zamonga mos axloqiy talablarga asoslangan, jamiyat manfaatlarini hisobga olishni taqazo qiladi.

**B.S. G'aniev - Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD**
**A.B. G'aniev - Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi**

## OILAVIY TADBIRKORLIK MAZMUN-MOHIYATINING FALSAFIY TALQINI

Oilaviy tadbirkorlikning intellektual asosini dunyoviy va diniy bilamlarga ega bo'lgan, iqtidorli, jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etayotgan, ma'naviy, axloqiy dunyosi barkamol bo'lgan shaxs tashkil etadi. Yangi taraqqiyot bosqichini o'z boshidan kechirayotgan jamiyatda, uning yanada rivojlanishini ta'minlovchi omil, xar bir oilada shakllantirilgan ma'naviy muhitiga bevosita bog'liqdir. Oilaning barqarorligi, oila a'zolarining jamiyat qahrida sodir bo'layotgan, amalga oshirilayotgan demokratik isloxotlarga, ularning amaliyotga joriy qilinishi jarayonining tizimli rivojlanishiga bog'liqdir. Oila, jamiyat ijtimoiy iqtisodiy islohotlarida o'zining funtsional vazifalarini to'liq bajarishi uchun, oila a'zolariga jamiyatda yaratilgan huquqiy asoslardan, vujudga keltirilgan ijtimoiy-

iqtisodiy tizimlar faoliyatidan foydalanilishi, hamda ushbu jarayonlar davomida, jamiyat taraqqiyoti uchun faol ishtirok etish zaruriyati vujudga keladi. Bunday sharoitda oilaviy biznes, ya'ni tadbirkorlikni shakllantirish muhim amalaiy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Oilaviy tadbirkorlikning shakllanishida, oila a'zolari tomonidan, muntazam sur'atda kasbiy ko'nikmalarni egallash uchun, faoliyat olib borish vazifasi ham mavjuddir. Bunday sharoitda, oila a'zolari orasidagi o'quvchilar, talabalar bilimini chuqurlashtirish uchun tizimli, yahni oiladagi sharoit, muhitdan kelib chiqqan xolda, tarbiyaviy yo'nalishdagi faoliyatni yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, oilaviy biznesning hozirgi sharoitdagi holati, rivojlanish imkoniyatlari, oila a'zolari tomonidan tizimli monitoring qilinishi darkor. Oilaviy biznesning yangi taraqqiyot bosqichdagi zamonaviy shakllari, rivojlanish xususiyatlari, unga salbiy ta'sir qilayotgan yoki, ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilish zarur. Shuning uchun xam, biz ushbu bobda tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-madaniy jihatlarini yuksaltirishda oila institutining o'rni masalalarini tadqiq qilinadi. Chunki, mamlakatimizda ham aholi bandligi va oilalarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniningi yanada takomillashtirishning falsafiy jihatlariga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish, uni yangi rivojlvnish bosqichi muammolari kontekstida o'ragnish amaliy ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda demokratik islohatlar davrida oilaning ijtimoiy, iqtisodiy masallari iqtisodchi olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan bo'lsada, uning ijtimoiy muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar juda kam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 8-iyun kuni imzolagan "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qaror ham oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, har bir oilaning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish va ishsizlikka barham berishni maqsad qilgan.[141] Ushbu strategik yo'nalishni ko'zlagan tarixiy hujjatdan kuzatilgan asosiy maqsad tabiiy-iqlim sharoiti, yahni ekologik vaziyat og'ir hududlarda, jumladan suv resurslari yetishmaydigan, cho'l, yarim cho'l sharoitida yashayotgan aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasini oshirishga xizmat qilishi lozim. Oilaviy biznesning biron-bir turi bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlarning ijobiy tashabbuslarini, istaklarini qo'llab-quvvatlash, ularga bank muasasalari tomonidan, qaytarilishi mumkin bo'lgan hajmda, yahni imtiyozli kreditlar ajratish, dastlabki davrda oilaviy biznesni boshlash uchun va amalga oshirishda davlat tashkilotlari, nodavlat sektor vakillari tomonidan ko'rsatiladigan amaliy yordam shakllari aniq belgilangan.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, qaysi davlatda oilaviy biznes rivojlansa, shu davlat iqtisodiyoti taraqqiyoti ham yuksaladi. Jumladan, Xitoy xalq Respublikasida oilaviy tadbirkorlik yuqori darajada rivojlangan. "Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida kichik biznesning aksariyat qismi oilaviy korxona shaklida ish yuritmoqda. Yevropa davlatlari yalpi milliy mahsulotining 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oilaviy biznes ishlab chiqaradi. AQSh iqtisodiyotida uning ulushi 95 foizdan ziyod miqdorni tashkil etadi. Iqtisodiy rivojlangan ko'plab mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi va oilaviy korxonalarning faoliyat ko'rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar mavjud. Bunday yondashuv aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy an'analarni, oilaviy tadbirkorlar sulolasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi"[142].

Yangi taraqqiyot bosqichida, mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi omillar qatoridan o'rin olgan, oilaviy biznes rivojini ta'minlash uchun olib boriladigan harakat, uning ijtimoiy zaruriyati quyidagi omillarga bog'liqdir.

Birinchidan, oila a'zolari ishtirokida vujudga kelgan tadbirkorlik sub'ekti, oila a'zosining xususiy mulkga egaligini ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanadi. Natijada shaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan fikr, mulkga bo'lgan munosobat, uni shakllantirish, rivojlantirish, saqlab qolish tushunchasi vujudga keladi.

Ikkinchidan, oila a'zosini yoshlikdan tadbirkorlik bilan shug'ullanishga o'rgatish, unda ushbu biznes ko'nikmalarini hosil qilish jarayonini boshlash, kelajakda mamlakat rivoji uchun munosib hissa qo'shadigan tadbirkor shaxsni tarbiyalash, unda zamonaviy tadbirkorga xos bo'lgan madaniyat ko'nikmalarini, jihatlarini shakllantiradi.

[141] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yil 8 iyung' kuni imzolagan "Har bir oila – tadbirkor" dasturi.
[142] Berkinov B.Oilaviy tadbirkorlik salohiyatini oshirish yo'llari. 24.02.2018
htt'://www.biznes-daily.uz/uz/com'onent/content/article/54795-oilaviy-tadbirkorlik

Uchinchidan, oilaviy tadbirkorlik sohibi hali yoshlik davridan boshlab, ishlab chiqarilayotgan tovarlar, yoki aholiga koʻrsatilayotgan xizmat turlarini muntazam takomillashtirib borish, raqobotga chidamlilik koʻnikmalariga ega boʻladi. Shuningdek biznes hamkorlar, tadbirkorlar jamoalari bilan ishlash, oilaviy biznes rivojini ta’minlashga xizmat qiladigan, uning huquqiy asoslariga muntazam amal qilish fikri shakllanadi, shaxs sifatida huquqiy madaniyati yuksalib boradi.

Toʻrtinchidan, oilaviy tadbirkorlik, insonni yoshlik davridan boshlab, oʻz mehnati natijalari bilan faxrlanish, kelajakda oila a’zolari, farzandlarini sof mehnatga oʻrgatish, insondagi vatanparvarlik, oilaparvarlik, bolalari oʻz mehnati natijalari bilan gʻururlanish kabi xislatlarni shakllantiradi.

Beshinchidan, oilaviy biznes rivoji natijasida shaxsda korruptsiyaga qarshi kurashish, jamiyatda ba’zan uchraydigna poraxoʻrlik, ta’magirlik, aldamchilik, oʻzgalar mehnatini mensimaslik, birovlar hisobiga yashashaga intilish kabi salbiy holatlarning oldini olishda muhim rol oʻynaydi.

Oltinchidan, yosh tadbirkor oilaviy biznes bilan shugʻullanishi natijasida, ushbu biznes turining shakllanishi, rivojlanish tendentsiyalari haqida axborotga har kuni oilada boʻladiga suhbatlar, muhokama tufayli ega boʻladi. Natijada oilaviy biznesni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadigan, biznesning moliyaviy jihatlari, manbalari, biznes loyihaning bajarilishini ta’minlashdagi xato va kamchilliklar, yutuqlar sababi jarayonini bevosita kuzatib boradi.

Yettinchidan, oilaviy biznes rivojidagi muhim omil shaxsning umumiy tayyorgarligi, uning tadbirkorlikni kasbiy jihatlarini ta’minlaydigan koʻnikmalar tarkibida, shaxs ma’naviy, axloqiy madaniyatining zarurligi, oilaviy biznes yutuqlarining oilaviy inson omili, uning bilimi, zamonaviy axborotlar ya’ni raqobat muhiti, inflatsion jarayonlar, yangi ish oʻrinlarini yaratish majmuasiga egaligiga bogʻliqligi haqidagi tushunchalari vujudga keladi va bunday mustaqil, ijtimoiy ahamiyatga boʻlgan xulosalar uning amaliy faoliyatida oʻz aksini topadi.

**M.S.Gʻanieva - Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA – TADBIRKOR AYOL FENOMENINI IJTIMOIY-FALSAFIY TADQIQ ETISH ZARURATI

Jamiyatiimiz yangi taraqqiyot bosqichida “gender tengligi”, “tadbirkor ayol” va umuman “tadbirkorlik faoliyati” sohalarini rivojlantirish masalasi oʻzining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Xususan, jamiyat va davlat rivojining asosini tadbirkorlik munosabatalari, aynan hozirgi sharoitda tadbirkorlikka berilgan davlat siyosati darajasidagi e’tiborga moliqdir. 2017 yil 7 fevral kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoniga qoʻyilgan talablarga asoslangan. Bugungi kunda tadbirkorlikning, aynan tadbirkor ayol tushunchasini ijtimoiy-falsafiy jihatlarining oʻziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadbirkor ayol yoʻnalishi konkret ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy omillar ta’sirida shakllanib, rivojlanib boradi. “Shu nuqtai nazardan, - deydi? Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev, - davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash oʻta muhim ahamiyatga ega”[143]dir. Shunday ekan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahsiri asta-sekin bartaraf etilayotgan davrda tadbirkor ayol tushunchasiga dahldor boʻlgan ijtimoiy-falsafiy va huquqiy omillarni oʻrganish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta’sirini kamaytirish va oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlarning mavjud. Buning uchun esa tadbirkor ayol faoliyatini, tadbirkorlik sohalari kabi barqaror rivojlanishi uchun tadbirkor ayol fenomenini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Tadbirkorlik har tomonlama oʻylangan, keng koʻlamli innovatsion va strategik loyihalarni ishlab chiqish muhim masalalar sirasiga kiradi. Oʻz navbatida bunday chora-tadbirlar tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini izchil rivojlantirish uchun kuchli ragʻbatlantiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi.

---

[143] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - 48 б.

Shu oʻrinda tahkidlash kerakki, mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida milliy iqtisodiyotning barqarorligi va mustahkamligini taʼminlash, mulk shakllarining tengligini qonuniy himoya qilish va asosan tadbirkorlikni, xususan ayol tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash uchun huquqiy faoliyatni rivoji va kafolati uchun muhim masalalar sirasiga kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2008-yil - “Yoshlar yili”, 2009-yil - “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010-yil “Barkamol avlod yili”, 2011-yil - “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2013-yil “Obod turmush yili”, 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, 2018-yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili”, 2019-yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”, 2020-yil “Ilm-maʼrifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, 2021-yil “Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2022-yil “Inson qadrini ulugʻlash va faol mahalla yili” Davlat dasturlari hamda 2017-yil 7-fevral kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmoniga qoʻyilgan talablarga asoslangan.

Iqtisod boʻyicha Nobel mukofoti sovrindori M.Alle “Tadbirkorning mustahkam ratsional faoliyati oʻzidan-oʻzi shaxsiy maqsad va ularga erishish yoʻllari usullarini aks ettiradi, - deb yozadi. Bunda tadbirkorning biron-bir maqsadni amalga oshirishni chin dildan hohlashi va unga muvofiq ratsional fikr yuritishi uning samarali natijalarga erishishidagi muhim qadam hisoblanadi[144]”.

Jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadbirkorlik va uning turli rivojlantirish yoʻllari, Oʻzbekistonga xos yoʻlining nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yoʻnalishlari, muammolari va ularning hal etilish yoʻllari batafsil yoritib berilishi nazarda tutilgan. 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi rivojlanish strategiyasi xalqimizning falsafiy, maʼnaviy, ruhiy, jismoniy, hulq-atvor va boshqa jihatlariga tayangan holda iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozimligi koʻrsatilgan.

Tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini oʻrganish taraqqiyotimizning yangi bosqichida milliy iqtisodiy rivojlantirish koʻlami va milliy taraqqiyotni tahminlashdagi ahamiyatini, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy hamda iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlik turmush tarzi va madaniyatidagi oʻrnini anglashga yordam beradi. Zero, bu muammoning ijtimoiy-madaniy, falsafiy-huquqiy jihatini oʻrganish bilan bir qatorda uning hozirgi amaliy hayotdagi oʻrni va rolini tadqiq etish ham muhimdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quydagilarni eʼtirof etish mumkin:

- ilmiy manbalardagi mavjud fikrlarga tayangan holda “gender tengligi”, “tadbirkor ayol”, “tadbirkorlik faoliyatlari” va “ijtimoiy tadbirkorlikning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari” tushunchalarining oʻzaro aloqadorligi, ularning umumiy va xususiy jihatlarini yoritish;
- yangi taraqqiyot bosqichida tadbirkor ayol tushunchasining shakllanish obʼekti va subʼektini asoslash;
- tadbirkor ayol fenomenini identifikatsiyasi va uning mentalitet bilan oʻzaro aloqadorligini tadqiq qilish;
- tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy maqomini xususiyatlarini yoritish;
- yangi taraqqiyot bosqichida tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tamoyilining oʻziga xos ahamiyat kasb etishi;
- tadbirkor ayol fenomenining ijtimoiy-falsafiy jihatlari va tadbirkorlik qobiliyati bilan oʻzaro aloqadorligiga oid mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Oʻzbekistonda “gender tengligi” va “tadbirkor ayol” tushunchalarining rivojlantirish borasidagi islohotlarning ahamiyatini oshirish yuzasidan ilmiy xulosa va aniq amaliy takliflar ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

[144] Алле М. Условия эффективности в экономике.- М.: 1998.- S. 185.

**Sh.T. Abbosova - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**

## JAMIYATIMIZ MA'NAVIY YUKSALISHIDA MILLIY G'OYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Bugun dunyo manzarasi o'zgarib, dinamik global tizimni tashkil etmoqda. Globallashuv tizimidan tashqaridagi biror mamlakat yoki millat qolmadi. Jahon hamjamiyati o'z taraqqiyotida bir-biri bilan bunchalik kuchli bog'lanmagan va bir butunlikka intilmagan edi. Bunday bog'lanish, bir tomondan, jamiyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mazkur ob'ektiv jarayonga sub'ektlarning aralashuvi oqibatida millatlarning mustaqilligi, tarixiy qadriyatlari, madaniy-ma'naviy identifikatsiyasini saqlab qolishi borasida bir qator muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarning salbiy tahsiri ortib, odamlarning ongi va qalbi uchun kurash kuchayib borayotgan bugungi kunda yurtimiz sarhadlari va mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini g'oyaviy himoyalash ishlari zamon talablari, islohot va yangilanishlar sur'atidan ortda qolmoqda"[145]. Zotan, jamiyat taraqqiyoti va millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - milliy g'oyadir. Milliy g'oyaning jamiyatdagi eng muhim vazifasi yosh avlodning kelajagi va vatan taqdiri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan jarayondir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev milliy g'oyaning zarurati jamiyat ehtiyoji va ma'naviy-axloqiy jihatlari dolzarb ekanligini tahkidlab, jumladan "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz[146]", deydi. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko'lamining kengayib borayotgani mazqur mavzusining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish Kontseptsiyasi" loyihasida ta'kidlanganidek, milliy g'oya sog'lom fikrlaydigan har bir shaxs va fuqaroda milliy g'urur-iftixor, or-nomusni uyg'otadigan, o'zlikni anglatadigan, xalqning maqsadi va orzu umidlari ro'yobga chiqishiga kuch-qudrat beradigan, millatni harakatga keltiradigan qudratli omildir. Bu esa, yoshlar dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayonning yangi bosqichini boshlab beradi. Yosh avlodni va ularning ma'naviy qiyofasini bugungi muammolarni oldini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti samaradorligi bilan bevosita bog'liq xolda rivojlanadi. Jamiyatning ma'naviy yuksalishi taraqqiyotimizni yangi bosqichida oshirilishi lozim bo'lgan strategik maqsadlarga asos bo'ladi:

*birinchidan*, jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashda milliy g'oyaning o'rnini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy o'rganish bugungi kunda olib borilayotgan falsafiy tadqiqotlar tizimining eng muhim tomoni hisoblanadi. Tabiiyki jamiyatda barqarorlik va shaxs daxlsizligini ta'minlashning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu esa, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasining ham nazariy, ham amaliy jihatlarini ochib berishga asos bo'ladi.

---

[145] Sh.M.Mirziyoev Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent. O'zbekiston, 2021. - B. 293.

[146] Sh.M.Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. - Toshkent. O'zbekiston, 2019. - B. 89.

*ikkinchidan*, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy qiyofasi yangi strategik maqsadlarini ob'ektiv o'rganish, mafkuraviy jihatdan uni anglab yetish va ulardan amalda foydalanish uchun ehtiyoj seziladi. Bu ijtimoiy hayotda yosh avlodni yangi g'oyaviy jihatlarini yaratish asosida amalga oshiriladi. O'z navbatida milliy g'oyaning strategik jihatlari ijtimoiy falsafaning ijtimoiy hodisa va jarayonlarining ob'ektiv yo'nalishlarini belgilab berishga ko'maklashadi. Yangilanayotgan jamiyatda milliy g'oya tushunchasi ob'ektiv va sub'ektiv omillarining o'zaro uzviy birligidan kelib chiqadigan, to'xtovsiz ravishda amalga oshiriladigan hodisa ekanligini falsafiy jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega.

*uchinchidan*, jamiyatda taraqqiyotining yangi strategiyasi innovatsion boshqaruv texnologiyalarini o'rganishni taqozo etadi. Tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan mahlumki, xalqlarning yuksalishi ularning ma'naviy, g'oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g'oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o'tganligini namoyish etadi.

*to'rtinchidan*, milliy g'oya taraqqiyoti jamiyat barqarorligini ta'minlashning milliy qadriyati va xususiyatlariga bog'liq jarayon sifatida o'rganiladi. U qudratli kuch bo'lib mafkuraviy ta'sirini mamlakat aholisini umumiy maqsadlarda birlashadi. Shu mahnoda mazkur tadqiqot O'zbekistonda shakllanayotgan yangi jamiyat taraqqiyotining barqarorligi milliy g'oyaga bog'liq ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilinadi.

**S.R. Kamolov - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistratura talabasi**

## O'ZBEK SHE'RIYATIDA ADABIY ALOQALAR VA AN'ANA NAZARIYASIGA OID

O'zbek adabiyotiga yangi janrlarning kirib kelishi va taraqqiy etishi XX asrda bardavom bo'ldi deb ayta olamiz. Bu asrda millatimiz shoirlari ijodiy izlanishlari davomida bir qancha lirik janrlarni "kashf etdilar" yohud rivojlantirdilar. Avvalo, u qaysi janr bo'lmasin, shoirning biror bir lirik janrda mahorat ko'rsatishi uning o'sha janr bo'yicha qanchalik izlanishlar olib borishiga bog'liq. O'zbek she'riyatining taraqqiyotini ta'minlash yo'lida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan katta-yu kichik shoirlarning barchasi inson ruhiy olamining eng chigal, eng botiniy nuqtalarini poetik tadqiq etish uchun intilmoqdalar. Bu intilish ularning obrazli kashfiyotlaridagina emas, balki ana shu obrazli topilmalarni yangi-yangi she'riy shakllar, muhimi, qulay shakllarda ifodalash yoki tasvirlashga bo'lgan intilishlarida namoyon bo'lmoqda.

Jahon she'riyatining badiiy tajribalarini o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan kichik poeziyamizning terset, tanka, xokku kabi janr va shakllari o'zbek shoirlari ijodida mustahkam o'rin egalladi. Bu she'riy shakllarning ayrimlari, masalan, sonet, 30-yillar o'zbek poeziyasida ilk bor namoyon bo'lgan bo'lsa-da, (Usmon Nosir ijodida), ular asosan asrimizning so'ngi choragida o'zbek shoirlarining poetik zahirasida katta mavqe topib bordi va she'riyatimizning faol shakllariga aylana bordi.

Navqiron she'riyat har bir davrning poetik izlanishlariga etalon bo'lib xizmat qiladi.[147] U bevosita yoki bilvosita adabiy aloqalar ta'sirida yangi poetik g'oyalarni ilgari suradi. Keyingi davr mobaynida o'zbek poeziyasiga kirib kelgan yangi she'riy janr va shakllar, eng avvalo, adabiyotimizning iste'dodli shoirlari tufayli, ular izlanishlarining samarasi o'laroq shakllandi va rivojlandi. XX asr boshida terset (uchlik) Oybek tufayli, sonet Usmon Nosir tufayli, "pillapoyali" she'rlar esa Hamid Olimjon va G'afur G'ulom tufayli o'zbek poeziyasiga kirib kelganidek, xokku, tanka, oktava va verlibr shakllari ham Abdulla Sher, Anvar Obidjon, Farida Afruz, Faxriyor, Abdunabi Boyqo'ziyev, Rauf Parfi keyinroq Nodir Jonuzoq kabi shoirlar tomonidan ilk bor o'zlashtirildi va bu bilan o'zbek she'riyati zahirasi ancha boyidi. Va bu bilan ko'hna Sharq adabiyoti bag'rida kurtak ochgan o'zbek she'riyati adabiy aloqalar ta'sirida xalqni ilg'or she'riy madaniyatga yaqinlashtirdi. Lekin bu adabiy aloqalar ta'sirida kirib kelgan lirik janr va shakllar o'zbek milliy an'analaridan vos kechishga yo'l qo'ymadi, aksincha milliy va xalqaro o'zaro aloqalar bir-biriga chambarchas bog'lanib yangi badiiy birlikni hosil qildi.

She'riyatimizda kechayotgan bunday shakliy va uslubiy izlanishlar masalalari N.Karimov, M.Ibrohimov kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan bir qadar o'rganilgan. She'riyatning miqyosi mavzuning ulkanligi, obrazlarning katta-kichikligi, tuyg'ularning yuksakligi bilan emas, balki obrazning

[147] Karimov N. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.,T..,"Fan".,1983.104-bet.

yangi qirralarini kashf etishi bilan belgilanadi,- deb yozgan edi atoqli ispan shoiri Federiko Garsia Lorka.[148] Mana shu ma'noda o'zbek she'riyatining taraqqiyotida janriy izlanishlar olib borgan ijodkorlarning barchasi yangi-yangi poetik obrazlar yaratish, mavjud an'anaviy obrazlarning yangi qirralarini kashf etish yo'lidagi intilishlarni kashf etadi. Negaki, haqiqiy ijodkor ana shunday tafakkur mahsulini betakror shaklda ifodalashga harakat qiladi.

O'zbek she'riyatida adabiy an'analar haqida to'xtaladigan bo'lsak, Sobiq sovet davrida klassik she'riyatimiz vazni bo'lgan aruz vaznini ko'pchilik "taqiqlangan" yoki bu vaznda mo'jazgina she'rlar bitish mumkin emas yohud amri mahol ish edi. Ammo Erkin Vohidov aruz vaznining yangi imkoniyatlarini inkor etuvchi sharoitda inson ruhiy olamini yanada rang- barang tasvirlashda aruzdan foydalanishga jur'at etdi. U bu ishni birinchi bo'lib boshlab berdi va keyinchalik boshqa shoirlar ham bu jarayonga befarq bo'lishmadi (masalan, Jamol Kamol aruzning muxammas, musaddas, to'rtlik janrlarida muvaffaqiyatli qalam tebratdi). Natijada aruz vazni o'zining yangi qirralarini namoyon eta boshladi va umuman, faqatgina keksa avlodning emas shakllanib borayotgan o'zbek she'riyatining ham mulki bo'lib qoldi. Shunday qilib aruz va u bilan bog'liq she'riy janr va shakllar ( g'azal,muxammas, musaddas) hozirgi o'zbek poeziyasida keng tarqalgan janrlar guruhini tashkil etdi.

**O'.A. Madaminova – Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## AYOLLAR MIGRATSIYASI FOYDALIMI YOKI …?

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan zamonamizda migratsion jarayonlar qamrovi va ko'lami kengayib bormoqda. O'zbekistonda so'nggi o'n yillikda ayollarning migratsion jarayonlardagi ishtiroki keskin ortib borayotganligi bugungi kunning eng og'riqli va dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda yildan yilga migratsion jarayonlar ishtirokchilarining jins va malaka tarkibi o'zgarmoqda. So'nggi o'n yilda O'zbekistondan chiqib ketgan migrantlar tarkibida jins jihatdan ayollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2019-yilda emigrant ayollar 110752 (65,3 foiz), erkaklar esa 58795 (34,7 foiz) nafarni tashkil qilgan[149]. Bu ayollar erkaklardan 51957 nafarga yoki 30,6 foizga ko'p demakdir. Migratsion jarayonlarda ayollar ishtirokining ortib borishi bevosita ayollarning iqtisodiy sohada faollashuvi bilan bog'liq. Lekin, bu jarayonni jamiyatimiz, davlatimiz kelajagi uchun qanday baholash mumkin?

Respublikamizda mavjud ish o'rinlariga nisbatan aholi sonining ko'pligi hamda yiliga mehnat bozoriga 600 mingga yaqin yangi ishchi kuchi kirib kelayotganligi, shunga muvofiq ravishda aholining jinsiy tarkibida ayollar va erkaklar (juda kichik farq bilan) teng miqdordaligini hisobga olsak, mavjud ishchi kuchining yarmini ayollar tashkil etishi oydinlashadi.

Tadqiqotlar respublikamizda ishsizlik darajasining yuqoriligi, mehnatga munosib haq to'lanmasligi kabilar ayollar mehnat migratsiyasining faollashuviga asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatmoqda. Biroq, aytish joizki ayollar migratsiyasi va umuman ishchi kuchi eksporti davlatdagi ortiqcha ishchi kuchi bosimini pasaytirib, ijtimoiy keskinlikni yumshatib turadi. Qolaversa, migrantlar pul o'tkazmalari davlatimiz taraqqiyotida ma'lum ulushga ega. 2019-yilda mehnat muhojirlari tomonidan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari 6 mlrd. dollar yoki YaIMning 10 foizini tashkil etganligi ham fikrimizning isbotidir[150]. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra ayol migrantlar pul jo'natmalari erkaklarga nisbatan ko'p ekanligi aniqlangan.

Ayollar migratsiyasining yuqorida keltirilgan ijobiy jihatlaridan tashqari salbiy tomonlari ham bugungi kunda yaqqol ko'zga tashlanib, jamiyatning asosiy negizi bo'lgan oila birdamligiga katta putur yetkazmoqda. Oila mustahkamligi va undagi ma'naviy muhitni yaratish ayol – onaga bog'liqdir. Migrant onalar oilasida ma'naviy bo'shliq hosil bo'lib, bu bolalar tarbiyasiga ta'sir etmasdan qolmaydi albatta. Bag'ri butun oila jamiyatga bag'ri butun farzand tuhfa etadi, majruh oila esa majruh kimsalarnigina

[148] Лорка Федерико Горсиа.Избранные произведения в 2 томах. Т.1.М., 1986. С.398-399.
[149] http://gender.stat.uz > demografiya-uz
[150] Hasanjon Majidov. Inqiroz ichida inqiroz: COVID-19 va xalqaro migratsiya. https://Review.uz .> post > inqiroz-ichidagi-i…

o‘stirishi mumkin xolos. Farzand tarbiyasida ona otadan ko‘ra ko‘proq rol o‘ynaydi. Bolalar ko‘proq onasi bilan vaqt o‘tkazadi. Otaning o‘rnini ma’lum ma’noda sezdirmaslik mumkindir, lekin onaning o‘rnini hech kim va hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydi.

Bugungi kunda ota-onasi yoki ulardan biri chet elda bo‘lgan bolalar tarbiyasi xavf ostida qolmoqda. Uyda nazoratsiz qoldirilgan bolalar tarbiyasi bilan bugun telefon “shug‘ullanmoqda”. Oqibatda telefon va internetga mukkasidan ketgan, hayotda maqsadsiz, huquqbuzarlikka moyil, alamzada, ma’naviy zaif avlod shakllanmoqda. Bolalar ota yoki ona berishi kerak bo‘lgan mehrni ko‘chadan, begona kimsalardan qidirmoqda. Shu tarzda ular qora niyatli kuchlarning maqsadlarini amalga oshirish vositasiga aylanib qolayotgani sir emas.

Odam savdosi migratsion jarayonlar keltirib chiqarayotgan eng xavfli va miqyosi jihatidan keng tarqalgan jinoyatchilik shakllaridan biridir. Yildan yilga bu illatdan jabr chekayotgan, uning qurboni bo‘layotganlar soni ortib bormoqda. Hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Eng achinarli tarafi odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning asosiy qismini ayollar va bolalar tashkil qilmoqda. Migratsiya jarayonida ayollar mehnatidan noqonuniy foyladanish, ularni kamsitish, haqorat qilish, erkini cheklab qo‘yish hollari qayd etilmoqda[151]. Qullik mehnatiga jalb qilinganlarning 11 foizidan fohishabozlik va shahvoniy maqsadlarda foydalaniladi[152]. Bunday maqsadlar yo‘lida qurbon bo‘lganlar juda og‘ir tahqirlash, xo‘rlash va zo‘ravonlikdan so‘ng chuqur depressiyani boshdan kechiradilar. Ayniqsa, bu jarayon musulmon o‘zbek ayoli tarafidan ikki karra og‘ir kechishi begumon. Chunki o‘zbek ayollari uchun or-nomus va iffatni saqlash hayot-mamot masalasidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ayol migrantlar odam savdosining eng ko‘p qurbonlari bo‘lib, bu hodisa tarixda, qadim zamonlarda emas, balki bugun, biz yashab turgan davrda yuz berayotgan va har bir ayol duch kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatdir. Odam savdosi, nafaqat, qurbonlar, balki uning ortida minglab oilalarning baxtsizligiga sabab bo‘lmoqda. Bunday jinoyat qurboniga aylanib qolmaslik uchun doimo ogoh bo‘lishimiz, yaqinlarimiz taqdiriga befarq qaramay, imkon qadar uzoqning bug‘doyidan yaqinning somoni afzalligini unutmaslik darkor.

Ayollarning mehnat migratsiyasida ishtiroki o‘z oilasining mustahkam ildiziga zarar yetkazib, yillar o‘tib o‘z farzandiga mehr bermagan ota-onaga keksayganda farzandlik mehrini bera olmaydigan, diydasi qatib qolgan farzandlarni jamiyatda shakllanishiga zamin yaratadi.

**N.M. Shermatova - Farg’ona davlat universiteti magistranti**

## TRENING MASHG‘ULOTLARINING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz fuqorolariga qarata “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion goyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” degan fikrlari zamiridayoshlarni keng intellektual salohiyatga ega qilishda talimning barcha sohalarida tub burilishlarni taqozo etadi. Zamonaviy jamiyat ozining tez va chuqur ozgaruvchan tavsifiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, talim – tarbiya jarayonlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shunday ekan kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlash, hozirjavoblik, tasir-chanlik, samimiylik, empatiya, kirishuvchanlik, muzokaralar tashkil qiluvchan-lik, raqobatbardoshlik kabilarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxslararo munosabatlar orasida muloqot uslubining o‘zgarishi, muayyan kasbiy sohalardagi bilim, ko‘nikma va malakalarning ortishi, rahbar, menejer, tadbirkor, kadrlar menejeri, psixolog, murabbiyning faoliyati kabilarda, ayniqsa, shiddatli shroitlarda juda murakkab faoliyat turlarida yoshlarning peshqadamli-gi fanning asl mohiyatini tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Avvalo, trening - bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashti-rishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong

---

[151] G.B. Azamatova. Aholi migratsiyasida ayollar ishtiroki. Markaziy Osiyo davlatlari olima ayollari-ning ilm-fan sohasiga qo‘shgan hissasi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020. 24 b.
[152] Farhod Parmonov. Xalqaro migratsion jarayonlar. Jamiyat va boshqaruv. 2009 4-son. 33 b.

osti xarakterga ega bo‘lgan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal oquv faoliyat turi deb takidlasak ham xato bolmaydi.

Trening - bu turli faoliyat sohalarida keng qo‘llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o‘qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko‘plab tarkibiy qism-lardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muay-yan faoliyat turiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o‘quv shakllardan biridir

Trening tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bolib, “train”, “training” koplab manolarga yani: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega Xususan, bu turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyor-lashdan iborat bolib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi. Ya’ni u shaxsni ijtimoiy muloqotga oldindan maqsadli tarzda tayyorlaydi.

Treningning ilmiy asoslangan individual shakllari dastlab 20-asrning boshlarida nazariy bilimlarni o‘qitish va mehnat ko‘nikmalarini “xavfsiz” ravishda egallash natijalariga qo‘yilgan cheklovlarni bartaraf etish vositasi sifatida paydo bo‘la boshladi.

Trening –interfaol mashg’ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo’lib, u o’rganilishi lozim bo’lgan nazariy g’oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar da-vomida o’zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hi-soblanadi. Trening mobaynida o’qituvchilar nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko’nikmalari rivojlanib boradi. Qolaversa u tahsil oluvchi faoliyatiga mo’ljallangan ta’lim shakli bo’lib, nazariy ma’lumotlarni amaliy mashqlar orqali o’zlashtirilishini ta’minlaydi. U ta’lim beruvchi tomonidan o’qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o’rganishni ko’zda tutadi.

Dars pedagogik jarayoninig bir qismi xisoblanadi. Shu bilan birga xar bir dars mustaqil ma‘lum manoda tugallangan bo‘lishi kerak. Xar bir darsda kompleks vazifalarga kiradigan butun dars tizimi oldida turadigan o‘quv tarbiya vazifalari xal etiladi.

**Treningni asosiy vazifalari:**

1.Shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish.

2. bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar va odatlarni hosil qilish.

3. Samarali muloqatda namoyon bo‘ladigan zarur sifatlar, bilim hamda o‘zgalarga nisbatan to‘gri munosabatlarni shakllantirish qobilyatini o‘stirish.

Trening yordamida talabalarning mustaqil fikrga ega bo‘lishi va uni amaliyotga joriy qila olishi va shu bilan birga uni himoya qila olish qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatiga ega boladi. Tabiiyki raqobat bor joyda o‘sish bo‘ladi. Aynan trening yordamida dars mashgulotlarida talabalar o‘rtasida verbal aloqa o‘rnatilib, barcha talabalar albatta ilmiylikka asoslangan holatda talabalar orasida raqobat bilan bilim olishadilar. Talabalarga beriladigan bosim to‘g‘ri va o‘z maromida bo‘lsagina ular erkin fikrlay olishadi. Faqat fikrlash emas balki paydo bo‘lgan fikrini boshqalarga yetkaza olishi shu bilan birga o‘z fikrini amalda bajara oladi

**Y.X. Kipchakova - Fergana state university, lecturer**
**M.M. Tukhtasinov - Fergana state university, student**

## THE IMPORTANCE OF INFORMATION CULTURE AND MORAL EDUCATION IN THE UPBRINGING OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION

In today's globalized world, the issue of upbringing a harmoniously developed spiritually enlightened person is becoming more and more urgent. In turn, the process of globalization affects human spirituality. The process of globalization is mainly characterized by the development of international economic relations, information technology and science and technology. Globalization imposes new requirements on the rapid development of production and the training of appropriate personnel. This is due to the fact that the development of the economy is inextricably linked with the training of qualified personnel.

In the context of globalization, external relations and international economic relations are developing, making new demands on the spirituality and intellectual potential of each person. In turn, the Republic of Uzbekistan is a full participant and an integral part of international relations. Therefore, today in our country

special attention is paid to the training of highly spiritual, highly educated specialists that meet international standards. The demand for such specialists in our country will continue to grow in the future too.

Today, education, as in almost any field of human activity, is widely represented by unified and/or special information systems and technologies used by them to solve various tasks in specific areas and activities. And almost always there is a demand for effective use of it, which is clearly associated with the principles and methods inherent in the exact sciences, based on strict formalization – the methodological basis of quantitative assessments, evidence and inference of solutions.

The demand for the Internet is growing day by day. As a result, tremendous changes are taking place in the field of information and communication. In today's dangerous world, malicious information, destructive ideas, and immorality spread over the Internet affect every person in today's generation. In recent years, there has been an increase in the number of Internet hackers and malicious users of the global network[153].

Information is a concept that obeys on morality. That is, information enriches and changes morality. Morality underlies the development of social and moral life of a person. Morality is a very ancient concept. This is one of the main factors in the formation of national culture. Each nation has its own moral code that has stood the test of time. Morality occupies a classic place in national spirituality. At the same time, in morality, nationalism and universality are intertwined into a single whole.

It is known that large-scale socio-economic development and reforms in our country, the positive results of which have strengthened the human factor, at this new stage in the development of society, it becomes necessary to organize the direct participation of young people, all members of society in reforms. At the same time, the introduction of modern information directly into human activities through the regular use of methods and tools such as the Internet, e-mail, the creation of new pedagogical technologies for their effective use has led to significant changes in the education system[154].

In our opinion, that a deep study of the spiritual and moral aspects of society, a comprehensive analysis of trends in spiritual processes and the possibilities of spiritual life in modern human society and certain conclusions will create unique opportunities to prevent existing crises. Here it is necessary to return to the moral criteria that underlie the spiritual life of the East, to realize how they played a vital role in the activities and daily life of our ancestors, it should be borne in mind that they achieved perfection by choosing this path of historical development. It should be borne in mind that traditional oriental spiritual and moral criteria are not alien to the modern information and communication system, and they play an important role in the formation of a culture of spiritual information of a person.

In conclusion, it should be noted that young people need to have independent thinking in order to protect themselves from information attacks. It is also important to ensure that young people have the opportunity to protect themselves in society. First of all, everyone needs an independent opinion. Only an independent thinker can understand the essence of good or bad information and find strength against it.

**T. Umatkulov - Fergana state university, docent**
**M. Tukhtasinov - Fergana state university, student**

## IMPORTANT ASPECTS OF A HEALTHY LIFESTYLE

In different periods of the existence of human society, the problem of health was solved in different ways. With the development of social formations, health rose from the particular to the general, from the interests of narrow groups to the level of universal interests.

As the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev noted: "It is known that the upbringing of the younger generation has always been important and relevant. But in the 21st century in which we live, this question really becomes a matter of life and death. "The more perfect the upbringing, the happier people will live," the sages say. For education to be perfect, there should be no

[153] Yahyo, Muhammad Amin. Protection from internet threats. Supporting tutorial. Tashkent, 2016, 4-бет.
[154] M.Tojiyev, R.Salaxutdinov. Modern information technologies in the educational process. Tashkent, 2001, 45-бет.

gaps in this issue”[155][1, 504-505]. “The most important thing is that a national model has been created in our country, which ensures the education of a harmoniously developed generation. Today, about 60% of the population of our country are students. In our republic, conditions are created for them in sports and in all spheres. At the initiative of our President, the scale of work on training comprehensively mature personnel, educating young people with intellectual potential and meeting world standards, which will determine our present and future life and embody all our noble deeds in the sphere of practical life, immeasurably. Undoubtedly, this is also a factor aimed at educating a physically healthy generation with intellectual potential”[2].

During last three years, in our country, in order to improve the mechanisms of organization and management for the formation of a healthy lifestyle, prevention of non-communicable diseases and increase the physical activity of the population, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5590 of December 7, 2018 "On comprehensive measures to radically improve the health care system Republic of Uzbekistan".

According to the decree:

The Concept for the Prevention of Noncommunicable Diseases, Support of a Healthy Lifestyle and Increasing Physical Activity for 2019-2022, the Program of Measures for the Prevention of Noncommunicable Diseases, Support for a Healthy Lifestyle and Increasing Physical Activity for 2019-2022 were approved.

Today's demand has changed our views and opinions on the health sector as well. Every year it becomes clearer that human health depends on this. As a result, various movements began to appear on the path to a healthy and long life. Some go hungry for a week, ten days, while others like to swim in ice water. While some say physical education and sports are the foundation of longevity, others advocate the benefits of yoga and alternative therapies.

In our country, attention is paid to people's health. Health as an invaluable asset for everyone is becoming one of the important conditions for the socio-economic development of society. Indeed, according to the definition of the World Health Organization: health is not the absence of any defects, but physical, mental (mental) and social well-being. Health cannot be bought by any material goods and money. A person can live happily only when he is in good health. Therefore, health should be valued as the highest value.

Human health largely depends on himself. It's not a secret for any of us that the essence of health promotion through a healthy lifestyle is that a person must lead his life wisely, lead a healthy lifestyle and follow the requirements of a culture of life in order to prevent any disease. At the same time, one of the important tasks not only of the medical staff, but also of the teaching staff is to carry out various preventive work in order to increase the medical literacy of students and the population. Building on these ideas, we as educators are committed to improving the health literacy of every student in the classroom and in the classroom. Each student has different living conditions, lifestyle and living standards. Depending on these circumstances, they live and work differently. A number of diseases can result from various side effects during exercise. Based on this relationship, it is important to carry out regular preventive work between them.

A healthy lifestyle is the fulcrum of a person's life, and everyone can radically change their life by relying on it. The main factor that determines the way of life is the person himself. A healthy lifestyle is a way of life in which there are no harmful factors and habits that affect people's health, and a person must consciously avoid them. A healthy lifestyle is, first of all, a lifestyle that strengthens and maintains the health of every person for many years until old age. The main indicator that a person leads a healthy lifestyle is, first of all, the state of his physical development and general well-being, mood, success or failure in his personal life, study, work.

One of the most effective ways of organizing primary prevention among students from the above types of prevention. Currently, three quarters of deaths in Europe and North America are due to cardiovascular disease, tumors, respiratory disease and cirrhosis of the liver. Considering the trend of population aging, it is possible to predict an increase in the share of these diseases in the structure of

[155] Sh.M.Mirziyoyev. We will resolutely continue our path of national development and take it to a new level. Volume 1. "Uzbekistan", NMIU, 2017. p.p.504-505

mortality in the future. Habitat and lifestyle, risk factors play an important role in the formation of this group of diseases.

In conclusion, we can say that the main components of a healthy lifestyle are effective work, personal hygiene, strict adherence to hygiene requirements, rejection of bad habits, proper nutrition at the appointed time, physical and mental fitness, regular physical activity. A healthy lifestyle is one of the key measures to prevent disease. A healthy lifestyle allows you to satisfy a certain number of mental and physical requirements.

**R.S. Nuriddinov - Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi**

## XOTIRA JARAYONLARINI O‘RGANILISHI

Xotira jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha psixologiya fani sohasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Xotira va uning jarayonlari olamni bilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bola olamni bilishda olgan ma’lumotlari ular uchun yangi-yangi ochilishlar bolib hisoblanadi. Idrok etilgan ma’lumotlar uning miyasida saqlanib qoladi, keyingi ma’lumotlarni idrok etishda avval o‘zlashtirilgan va ongida saralangan ma’lumotlarga tayanadi.

Xotira kishining bilishida muhim ekan, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati tug‘iladi. Maktabgacha yosh davrida bolaning xotira jarayonlarini o‘rganar ekanmiz, bu borada olib borilgan tadqiqotlarni tahlil etish vazifasini qo‘ydik.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki xotirani rivojlantirish mumkin. Dastlab olimlar xotirani mnemonak shaklini o‘rganishga harakat qilgan. Bu esda qoldirishni yengillashtirish maqsadida sun’iy ravishda maxsus chizmalari, shartli belgilar tariqasida qollaniladigan usullar yi’gindisi. Mnemonika koproq assotsiativ (o‘xshashlik, yondoshlik va qarama –qarshilik) qonunlariga asoslangan bo‘lib, faqat o‘zaro bog‘langan ma’lumot va materiallarni esda qoldirish uchun qo‘llaniladigan yordamchi usullar yig‘indisidir. (1.419)

Buni yuzaga kelishi eramizdan avvalgi VI-V yuz yilliklarga borib taqaladi. Mnemotexnikani asoschisi shoir va faylasuf Simonid Keossk hisoblanadi.

XVIII asrda mnemotexnika mashg‘ulotlari usllarini italyan olimi Mon Di Modena takomillashtirdi. Daniyalik olim Karla Otto XIX asrda mnemotexnikadan tizimli ravishda foydalanish bilan shuxrat qozondi (2.347).

1837-yilda taniqli mnemonist R.Y.Yavinskiy tarixni o‘qitishda bu usulni qo‘lladi.

U har qanday fakt, tarix mazmuni oddiy holda xotirada o‘rnashib qolishini isbotlab berdi. Bunda agarda ma’lum bir yil qandaydir tanish kombinatsiyalar nuqtai nazariyadan tasavvurlar bilan birlashtirilsa va mnemonik jadvallar kataklariga joylashtirilsa faxm va tarix mazmuni xotirada o‘rnashib qolar ekan. Mnemotexnikadan olim Simond foydalanib u quyidagicha xulosaga keladi.

1. Tasavvurlar tashqi ta’sirlar asosida his qiluvchi organlar orqali ma’lum impulslar asosida yuz beradi.

2. G‘oyalarning assotsatsiyasida to‘rt qonun mavjud: o‘xshashlik qonuni, qarama–qarshilik qonuni, birin- ketinlik qonuni bir vaqtdalik qonuni. Bu qonunlarning asosi taqqoslash prinsipidir. Bularning barchasi o‘zaro bog‘liqdir.

3. Bu bog‘liqliklarni topishda mnemotexnika barcha eslab qolingan ma’lumotlarni so‘zlarga bo‘lib chiqadi. Ularni uch guruhga bo‘lish mumkin:

a) alohida nomlar, iboralar.
b) matnli kalit so‘zlari
c) sana

XX yuz yillikda Rossiyada xotirani mustahkamlash uchun bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi. Bir guruh olimlar katta ma’lumotlarni eslab qolishda sun’iy assotsiatsiyalarni yaratish bilan xotira ishini kuchaytirishga e’tibor qaratdilar.

Boshqa olimlar eslab qolishni yaxshilashni o‘rgandilar va sharoit yaratdilar. Bu olimlarga quyidagilarni kiritdilar:

1. O‘rganilayotgan ma’lumotlarni qayta ishlash usullari.
2. Yosh va individual hususiyatlarni hisobga olish.

3. Faoliyat predmetini o‘rganish
4. Eslab qolish kerak bo‘lgan topshiriqning ma’nosi va ifodasi
5. Ijobiy emotsiyalarni shakllantirish
6. Ma’lumotlarni ma’lum bir tizimda takrorlashni tashkillash

Assotiatsiyalar qayta tiklash faoliyatini kuchaytiradi. Rus psixologi R.S.Nemov eslab qolish oson bo‘lgan, yaxshi tanish predmet bilan fikrni bog‘lash orqali eslab qolish borasida o‘z qarashlarini ifoda etadi( 1.352). Uning fikricha bajarish kerak bo‘lgan ishlarni eslab qolish uchun quyidagilarga amal qilish kerakligini tavsiya etadi.

1. Har bir ish bilan bog‘liq predmetni tanlab olish.
2. Predmetlarni bir-biri bilan har qanday, hattoki mo‘jizaviy tarzda bog‘lash
3. Hosil bo‘lgan odatiy predmetni fikran ko‘z oldiga keltirish.
4. Uning ko‘rsatishicha assotsiatsiyalar usulida eslab qolish uchun quyidagilar zarur:
5. Assotsiatsiyalarni bo‘rttirish, chunki ulkan predmetlarni eslab qolish oson.
6. Assotsiatsiyalarni harakatlantish zarur, chunki harakat obrazlarni jonlantiradi va eslab qolishni qiziqarli tarzda yuzaga keltiradi.
7. Assotsiatsiyalarni birini boshqasiga almashtirish, bir-biri bilan aloqa eslab qolish jarayonini yengillashtiradi.
8. Aloqa va assotsiatsiyalar zerikarli va siyqasi chiqqan bolishi kerak emas.

Amerikalik psixolog M. Djons o‘z eksperimentlarida talabalarning bilimlarini tekshirish uchun ma’ruzalar mazmunini turli vaqt oralig‘ida tekshirdi. Natija quyidagicha ko‘rsatkichni berdi: ma’ruzadan keyinoq asosiy ma’no 65 %, ma’ruzadan 3-4 kundan keyin -45.3 % bir haftadan keyin 34.6 %, ikki haftadan keyin 30,6 %, sakkiz haftadan keyin 24,1 % ni eslab qolganlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. G‘oziev E.G‘. “Umumiy psixologiya” Toshkent, “Universitet”, 2010,352b , 419
2. G‘oziev E.G‘. Xotira psixologiyasi. –ToshDu , 1994. 347 b
3. Nishonov T.Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi.- Toshkent, 2006.

**M. Djalolova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**J. Karimov – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## KICHIK MAKTAB YOSHIDA XOTIRA XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning xotirasi ularda tasavvur doirasining o‘sishi, so‘z zapaslari tushinchasining ortib borishi va umuman, aqliy qoblyatlarning o‘sishi bilan yaqindan bog‘liqdir.

Ta’lim jarayoni dabilim asoslarini o‘zlashtirib borish natijasida o‘quvchida ixtiyoriy, ongli va mantiqiy esda qoldirish qobilyatini hasm o‘sa boshlaydi. Shu bilan bir qatorda kichik yosgdagi o‘quvchilarning xotira hajmi ham borgan sari kengayib boradi .

Maktabda talimning dastlabki kunlaridan boshlaboq o‘qituvchi o‘quvchi oldiga muayyan talablar qo‘yadi. Chunonchi darsda o‘quvching so‘zlariga yahshilab quloq solib, eshitib turish, ularni yaxshi tushinib bilib olish ,o‘quvchi bergan savollarga to‘g‘ri va aniq javob qaytarish. O‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan bu singari talablar ularda muayyan maqsadga intilish, har bir narsani esda qoldirish qobilyatini o‘stiradi. bu davrda o‘quvchida ihtiyoriy esda qoldirish va esga tushirish anchagina o‘sgan bolib, u o‘z oldiga qo‘yilgan aniq topshiriq va kerakli materialni o‘rganib olishga zo‘r berib harakat qiladigan boladi. Ihtiyoriy esda qoldirishning o‘sishi ko‘p jihatdanbola faoliyatini, ayniqsa uning o‘qish ishlarini tartibga solishga bog‘liqdir . bu yoshdagi bolalar dars materiallarini qay vaqtda va qanday tartibda o‘qish kerakligini va o‘z ishlarini tartibga solish yo‘llarini hali o‘zlaricha belgilab olmaydilar . shuningdek, uyiga berilgan dars materiallarindi to‘g‘ri takrorlash yo‘llarini, esda olib qolish uchun yengillik beradigan usullarni va ulardan foydalanish yo‘larini ham bilmaydilar. Shuning uchun ular materialni yahshilab o‘zlashtirib olmasdan, boshqasini o‘qiyveradilar. materialni boshidan oxirigacha yodlab olishga harakat qiladilar va natijada ularning tayorlagan darislari samarssiz bo‘ladi. Bunday hollarga yo‘l qo‘ymaslik uchun kichik yoshdagi o‘quvchilarning barcha aqliy mehnat faoliyatlarini muntazam ravishda tartibga solib boorish esda

qoldirish prosesini to‘g‘ri yo‘lga qoyish unga berilgan materiallarini to‘g‘ri takrorlash yo‘larini, esda olib qolish uchun osonlik beradigan usullarni ko‘rsatib borish lozim. Bular o‘quvchilarning aqliy mehnat madanyatiga o‘rgatish bilan birga o‘z xotirasuni tartibga solishga va ixtiyoriy esda qoldirishni o‘stirishga ham katta yordam beradi.

Shundan keyin kichik yoshdagi o‘quvchilar dars materiallarni yaxshi esda qoldirish zarur ligini anglasalar va uni esda qoldirish uchun zo‘rberib harakat qilsalar ham o‘z oldilariga hali aniq va aniq maqsad qo‘ya olmaydilar. Chunki, ular o‘qish uchun uyga berilgan material matnini boshidan oxirigacha so‘zma-so‘z yodlab olish yoki uning mazmunini esda saqlab qolish, o‘z so‘zi bilan qisqacha aytib berish kerak, kerak emasligini farq qila va tushuna olmaydilar. Kichik yoshdagi o‘quvchilar esda qoldirishga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri shundan iboratki, garchi ular umuman o‘z oldilariga ixtiyoriy esda qoldirish maqsadini qo‘ya olsalar ham, lekin materialni qancha vaqtga esda qoldirish, yani uzoq muddatgami, qisqa muddatgami zarurligini hali o‘zlari aniq belgilay olmaydilar. Shu sababli ular o‘qib o‘rganish lozim bo‘lgan materialni o‘qituvchini so‘rash muddatiga mo‘ljallab tayyorlab boradilaru, so‘ralgandan keyin, ko‘pincha ularni unutib yubotadilar. Bu soha psixologlarini tekshirishlari shuni isbotlaydiki, agar bolaga materialni qanday tartibda esda qoldirish va qancha vaqtgacha esda saqlash vazifasi aniq qilib qo‘yilsa, uning materialni esda saqlabqolishi ham shunga muvofiq qisqa yoki uzoq muddatli bo‘lmog‘i mumkun (1.56). Shuning uchun kichik yoshfdagi o‘quvchilarga bir narsani takrorlash va puxta o‘rganib olish vazifasi berilganda materialning xarakteriga qarab, zarur bo‘lgan narsalarni, masalan, jadval, qoida, ta’rif kabi materiallarni mustahkam va doimo esda qoldirish zarurligini eslatib borish va vaqti - vaqti bilan bu materiallarni so‘rab, aniqlab turish kerak. Bu birinchidan, bolaning kerakli materiallarni puxta va uzoq muddatgacha esda saqlab qolishiga imkon bersa, ikkinchidan, undagi uzoq muddatgacha esda saqlab qilish qobilyatlarini ham o‘stiradi.

Bolani aqliy mehnatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga o‘rgatib borish, uning oldiga aniq vazifa qo‘yib, muvaffaqiyatli esda qoldirish usullarini har doim o‘rgatib turush bilan unda ixtiyoriy esda qoldirish qobiliyatini o‘stiriladi. Bunda esda qolsirilishu lozim bo‘lgan material hajmi ham etiborga olinishi kerak. Agar material katta hajmli bo‘lsa bolalar uning hammasini biryo‘la takrorlamasdan kombinatsion usul bilan, ya’ni avval materialni ayrim bo‘laklarga, qism yoki mavzuchalarga ajratib chiqish va har qaysi qismini alohida- alohida o‘qib takrorlab esda qoldirish va keyin ularni bir butun qilib o‘zlashtirib olish, bir ikki yaxshi tushunib o‘qib chiqib, o‘z so‘zi bilan gapirib berish singari muvaffaquyatli esda qoldirish usullaridan foydalinishga o‘rgatish lozim. Ammo kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar hayotida dastlab ixtiyorsiz esda qoldirish hali-ham katta o‘rinni egallaydi (2.183).

Bola o‘zi ko‘rgan, o‘zi eshitgan va umuman idrok qilgan ta’sirli narsa va hodisalarni, ko‘nglidan kechirgan his-tuyg‘ularini, ko‘pincha beixtiyor esda olib qoladilar. Lekin ixtiyoriy esda qoldirish qobiliyatining takomillashib borishi bilan boladagi ixtiyorsiz esda qoldirish xususiyati ham anchagina o‘zgaradi. Bu davrga kelib bola miyasidagi ma’noli bog‘lanishlar, mantiqiy assotsiatsiyalar ancha takomillashadi. Bolalardagi xotira jarayoni, avvalo ularni tabiatini emotsionalligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, ulardagi aqliy faoliyat malakasining o‘sib, mustahkamlanib borishi bilan ham bog‘liq.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘qish faoliyati bilan bogliq bo‘lgan malakalar takomillashib borgan sari ular miya po‘stlog‘idagi bog‘lanishlar doirasi kengayib, shunga bog‘liq holda ulardagi esda saqlab qolish jarayoni ham bir muncha o‘zgarib, yangi sifatlar hosil qiladi. Ma’lumki, maktab davriga kelib bola faoliyatidagi motivlar ham anchagina o‘zgaradi. Shu bilan bog‘liq holda ular xotirasida bir qancha o‘zgarishlar yuz beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

4. G‘oziev E.G‘. “Umumiy psixologiya” Toshkent, “Universitet”, 2010,56
5. G‘oziev E.G‘. Xotira psixologiyasi. –ToshDu , 1994. 183 b
6. Nishonov T.Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi.- Toshkent, 2006.

**M. Djalalova - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**

## XOTIRA JARAYONLARI VA UNING RIVOJLANISHI

Psixologik manbalarda ko'rsatilishicha psixikaning eng muhum xususiyati shundan iboratki inson tashqi tasurotlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi faoliyatida hatti harakatlarida doimo foydalaniladi va ijodiy yondashuvi natijasida bazibir o'zgarishlar kiritadi. Insonda shaxsiy tajriba ko'nikma malaka va bilim ko'lami orta borishi xisobiga faoliyyat va xulqi atvor tobora murakkablashib yangi mazmun yangi sifat kasb eta boshlaydi. Malumki agar tashqi olamni bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan obrazlari timsollari va ularning izlari yo'qolib ketaversa tajribaning saqlanishi bilimlarning boyishi murakkablashishi muayyan tartibga kelishi qaytadan jonlanishi mutloqo mumkun bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan mazkur obrazlar bir biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib asta sekin mustahkamlanib miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi shu bilan birga hayot va faoliyatining talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi avvalgi xolatini namoyon qiladi (1).

Mantiq xotiraning o'sishi qolgan xotira turlarining barqarorlashuvini belgilaydi. Xotira turlariga nisbatan boshqacha tarzda yondashish hollari uchraydi, shu boisdan xotira faoliyati amalga oshirayotgani yaqqol, faollik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq ravishda turlarga ajratila-di. Masalan, faoliyat maqsadiga ko'ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo'linadi.

Ixtiyoriy xotira deganda ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun, muayyan davrlarda aqliy harakatlarga suyangan holda amalga oshirishdan iborat xotira jarayoni tushuniladi. Bu faoliyatni, odatda, ongbevosita boshqaradi. Ko'pincha psixologiya fanida ixtiyoriy xotiraga ixtiyorsiz esda olib qolish qarshi qo'yiladi. Bu jarayop ma'-lum, ksrakli topshiriq eski vazifa qo'ysa, esda olib qolishga yetaklovchi faoliyat biron-bir maqsadni ro'yobga chiqarishga yo'naltiril-gan taqdirda yuzaga keladi. Biz matematika topishmoqlari yechayotga-nimizda masaladagi sonlarni esda olib qolishni o'z oldimizga maq-sad qilib qo'ymaymiz. Mazkur so'z-mantiq holatda asosiy maqsyats faqat masala yechishga qaratiladi, buning natijasidya sonlyarni (ikkinchi darajali belgi sifatida) esda saqlashga hech qanday o'rin ham qolmaydi.

Shunga qaramay, biz ularni qisqa muddatga bo'lsada, esda saqlashga intilamiz, bu holat faoliyat yakunlangunga qadar davom etadi (2).

Esda olib qolishni maqsad qilib qo'yish esda olib kolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Psixologiya fanida esda olib qolishning quydagi turlari mavjud

1. Ma'lumot xabar tasurot axborot va materiallarni eshitish orqali idro qilish xamda esda olib qolish

2.Egallash yoki ozlashtirish zarur bulgan materiallarni ko'rib idro qilish yordamida esda olib qolish

3. Materiallarni xarakat yordamida va eshitish orqali idro qilish xamda esda olib qolish

4. Aralash holatda esda olib qolish ko'rish xarakat kabilar orqali idro qilish va esda olib qolish boshqacha aytganda bir nechta tasir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Esga tushirishga xotira jarayoni sifatida ta'rif berilganda, uningta'siri natijasida uzoq muddatli xotira tizimida avval mus-tahkamlangan turli xususiyatli materiallar va taassurotlarni ops-rativ (tezkor) xotira jabhasiga ko'chirishning faollashuvi nazarda tutiladi. Oldin o'zlashtirilgan materiallarni xotirada qayta tik-lanishi, ya'ni xotirada to'ilanib (yig'ilib) qolgan izlarning faol-lashuv jarayoni murakkab yoki sngil kechishining darajalariga bino-an tavsiflaiishi mumkin: a) bizni qurshab turgan narsa va hodisa-larni hech ikkilaimasdan «avtomatik»tarzdatanish; b) qariyb unuti-lish darajasida bo'lgan narsa va hodisalarni qiyinchilik va azob bilan eslash kabilar. Ana shu talqindan kelib chiqqan holda esga tushirish jarayonining ichki tuzilishiga binoan bir nechta turlarga ajratish maqsadga muvofiq: tanish — bevosita shaxs yoki narsani esga tushirish (ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzda) va eslash (xotira ikti-yoriy yoki ixtiyorsiz holatda). Bu asnoda insonning turmush tarixi (hayotiy solnomasi), uning umr davomidagi (ontogenetik) xotirasi va uni eslash shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Tanish — bu kognitiv nuqtai nazaridan tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni insoi tomonidan qayta idrok qilish sharoitida esga tushirishdan iborat xotira jarasni. Tanish muayyan shaxsning hayoti va faoliyatida katta ahamiyatga ega.

Unutish xotira jarayoni sifatida ta'rifga ega bo'lib, o'zinichzu-judga kelish xususiyatiga bog'liq tarzda o'ta chuqur va yuzaki ko'rinish-larga ega. Xuddi shu bois, unutilgan obrazlarning yoki fikrlarning faollashuvi u yoki bu darajada qiyinchiliklarga uchrashi, hatto amal-ga oshmaydigan voqelikka aylanishi mumkin.

Shaxsning faoliyatida xotirada to‘plangan materiallar (turlicha bo‘lishidan qat’i nazar) amaliyotda kamroq qo‘llanilsa, foydalanilsa (ortiqcha yuk xususiyati-ni kasb etsa), unutish tobora chuqurlashib boradi, buning natijasi-da faol hayotiy maqsadga erishish yo‘lidagi ahamiyati pasayadi. Ammo qaysidir materialni eslash chog‘ida qiyinchilik, sun’iy to‘siq yuzaga kelsa, uni mutlaqo yo‘qqa chiqarish kerak emas, chunki bu hodisa uni batamom shaxs xotirasidan chiqib ketishini bildirmaydi. SHaxs faoliyatiga singib ketgan malumotlar ob’ektlar sub’ektlar uning uchun muayyan axamiyat kasb etgan tufayli ular mutloqo unutib yuborilmaydi inson faoliyatiga singib ketgan materiallar uning extiyojlari bilan bevosita aloqaga kirishganligi sbabli unutishi bilan kurashish jarayoning ishonchli vositasi xisoblanadi buning yorqin ifodasi esda saqlashning muxum omili yoki usuli – bu takrorlash aqliy xarakatdir. Unutish jarayonivaqt bilan ulchanadi muayyan surat taqqozosi bilan royobga chiqadi. Ebbingauzning ko‘rsatishicha materialni o‘zlashtirishni dastlabki daqiqalarida unutish jadal kechadi muayyan vaqt o‘tgandan keyin uning sur’ati pasayadi. Unutish materialning mazmuniga, yangiligiga, tushunishnimg ogir yoki yengilligiga kasbiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etishiga bog‘liq. Xuldi shu sababdan shaxs tomonidan anglanylgan material asta-sskin, past sur’atda unutila-di. SHunga qaramasdan, nisbatan inson tomonidan anglanilgan ma-terial dastlab tez sur’atlar bilan unugila boshlaydi, keyinchalik esa uning kechishi bir oz pasayadi. Mashq qilshp, takrorlash, turg‘un, barqaror qiziqishni shakllantirish mumkin qadar unugish sur’ati-ni pasaytiradi.

Esda saqlashning shart-sharoitlari xotira o‘tkirligi, mahsuldorligi, samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Unutish vaqt (zamon) funktsiyasigina bo‘lib qolmasdan, balki unda esda olib qolish, esga tushirish singari tanlovchanlik (saralash) xususiyati mavjud. "O‘z mohiyati bilan shaxsning ehtiyojlariga qiziqishlariga, faoliyat maqsadiga bog‘liq, mutanosib, muhim ahamiyatli material, sekin sur’atda unutiladi. Inson uchun hayotiy, ijtimoiy, kasbiy ahamiyatli bir qator voqeliklar materiallar, ma’lumotlar aslo unutilmaydi.

Odatda, shaxsning faoliyatda ishtiroketish darajasiga qarab materialning esda saqlanishi aniqlanadi. Muayyan psixik xususiyat faoliyatida gavdalanmasidan oldin unda shakillanadiku, axir. Xotira ta’raflarining yesda olib qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo‘ladigan faolyatning xususiyatlariga bog‘liqligi xotiraning har xil turlarini ajratish uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.Bunda xotiraning ayrim turlari uchta asosiy mezonga muvfiq tarzda bo‘linadi: 1) faoliyatda ko‘proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, yemotsional, obrazli va so‘zmantiqli turlarga bo‘linadi; 2) faoliyatning maqsadlari xususiyatga ko‘ra ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira turlariga bo‘linadi ; 3) materialni qancha vaqt yesda olib qolish va yesda saqlash muddatiga ko‘ra (uning faoliyatdagi roli va tutgan o‘rniga bog‘liq ravishda) qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo‘linadi.

Faoliyatning har xil turlarida psixik faolining turli xil ko‘rinishlari : harakat, yemotsional, sensor, aqliy ko‘rinishlari ustunlik qilishi mumkin. Faollikning ushbu ko‘rinishlarida har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulida: ish harakatlarida, tuyg‘ularda, obrzlarda, o‘y – fikirlarda o‘z ifodasini tlpadi.Xotiraning ularga xizmat qiluvchi o‘ziga xos turlariga psixologiyada tegishli nomlar: harakat, yemotsional obrazli va so‘z – matiqli xotira nomlari berilgandir (3).

Harakat xotirasi – turli xildagi ish harakatlari va ularning sistemasini yesda olib qolish, yesda saqlash va yana qayta yesga tushirishdan iboradir. Xotiraning boshqa turlariga qaraganda uning bu turi ustunligi aniq namayon bo‘ladigan odamlar uchradi. Psixologlardan biri musiqiy asarni xotirasida mutlaqo qayta tiklay olmasligiga, yaqindagina yeshitgan operani yesa bor – yo‘g‘i pantomima tarzdagina qayta tiklay olishga iqror bo‘lgan yedi. Boshqa odamlar yesa, aksincha, o‘zlarida harakat xotirasi borligini umuman payqamaydilar. Xotiraning bu turi benihoyat katta ahamiyatga yega yekanligining boisi shundaki, u xuddi yurish, yozish va shu kabi malakalar bilan bab – baravar tarzda turli xil amaliy va mehnat malakalari shaklllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Harakatlar xotirada saqlanib qolmagan taqdirda biz har gal dastlab tegishli harakatlarni bajarishni o‘rganishga majbur bo‘lardik.

Emotsional xotira – his – tuyg‘uga xos xotiradir. His – tuyg‘ular xamisha bizga yextiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotgani, bizning tevarak – atrofdagi olamga munosabatimiz qanday yo‘lga qo‘yilganligi haqida xabar berib turadi. SHuning uchun ham hissiy xotira har bir kishining hayotiy va faoliyatida juda muhim ahamiyatga yegadir.Hissiy xotira o‘zining vujudga kelishi xususiyati, tezligi, dinamikasi, davomiyligi bilan xotiraning boshqa turlaridan ma’lum ma’noda ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. E.G‘.G‘oziyev.Oliy maktab psixologiyasi. T., 1997.

2.Hayitov O.E. Psixologik iqtisod: 0'quv qo‘llanma /Professor V.M.Karimova tahriri ostida. T., TD IU , 2006.

3. N.I.Xalilova,F.I.Haydarov.Umumiy psixologiya.T.2010
4.www.ziyouz.com

**D. Abdurahimova - Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**
**O. Otabekova - Qo‘shtepa tumani 5-maktab o‘qituvchisi**
**D. Abduraximova - Farg‘ona davlat universiteti magistratura talabasi**

## AYOLGA EHTIROM RAMZI

Mashhur “Boburnoma” asari xotin-qizlarga ehtirom borasida ham o‘ziga xos va e’tiborga loyiqdir. Uning muallifi bo‘lgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z zamonasining taniqli xotin-qizlari, temuriylar xonadonidagi o‘zi bilgan va tanigan ayollarga ham mufassal to‘xtaladi. Ularni tarixiy shaxs sifatida tilga olar ekan, fe’l-atvorlari, xulq-odobi, yurish-turishi, hatto saltanat ishlariga ta’sirini ham ro‘y-rost aytadi.

Shuningdek, o‘zi tug‘ilib, ulg‘aygan Umarshayx mirzo xonadonidagi ahli ayollar haqida ham mufassal to‘xtalib o‘tadi. Umarshayx mirzoning “avlodi: uch o‘g‘ul, besh qiz mirzodin qolib edi... Bori qizlaridin ulug‘ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon edi, mendin besh yosh ulug‘ edi. Yana bir qiz Mehrbonubegim erdi. Yana bir qiz Shahrbonubegim erdi. Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og‘acha Sulton otliq g‘unchachi edi Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Maxdum Sultonbegim edi, Qorako‘zbegim derlar edi.”[156]

Keltirilgan parchadan ko‘rinadiki, Bobur o‘quvchini o‘z oilasidagi xotin-qizlar bilan tanishtirar ekan, ularning ism-shariflarini, kelib chiqishini, qachon tug‘ilganini va kelguvsi taqdirini ham aytib o‘tadi.

Loburshoh uchun oila, xususan, ona, opa-singillar va qizlarning sha’ni, or-nomusi muqaddasdir. Shuning uchun ham u o‘z ahli ayolini g‘animlar qo‘liga asirlikka tashlab qochib ketgan Badiuzzamon mirzo hamda Muzaffar mirzolarning qilmishini nafrat bilan tilga oladi. Shayboniyxon bostirib kelganida “mirzolarning ona va egachi-singil va haramlari va xotinlari tamom qal’ai Ixtiyoriddinda edikim, Olaqo‘rg‘ong‘a mashhurdur, mirzolar kech shahrga yetarlar, yarim kechagacha otlarini tindirib, uxlarlar, sahar vaqti solib tebrarlar. Qo‘rg‘on berkiturni xud xayol qila olmaslar. Muncha fursat va furjada ona va egachi-singilni va ko‘ch va o‘g‘lon-ushoqni ham olib chiqqmay, asirlikka tashlab qocharlar...”

Bobur o‘zining ashaddiy g‘animi bo‘lgan Shayboniyxonni ham xotin-qizlarga nisbatan odamiylikdan yiroq xatti-harakatlari uchun keskin qoralaydi. Xadichabegimni garchi Boburning o‘zi ham yoqtirmasa-da, Shayboniyxonning unga nisbatan qilgan adolatsiz xatti-haraatlarini tanqid qiladi.

Xuroson mulkining hukmdori bo‘lgan Husayn Boyqaro haqidagi voqealar tafsilotlari davomida Boburmirzo uning xotinlari, qizlari haqida ham qiziqarli ma’lumotlarni keltiradi. Saroy xonimlarining xulq-atvorlari, saroydagi o‘rni, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi tutgan mavqelari haqida ham to‘xtaladi. Masalan, Husayn Boyqaroning Cho‘libegim ismli xotini haqida gapirar ekan, uning so‘zga chechanligi haqida “xeyli so‘z bilur edi. So‘zga mungi yo‘q edi”, deya ta’rif beradi.

Husayn Mirzoning Opoqbegim ismli xotinini esa Bobur chuqur ehtirom bilan tilga oladi. Uning o‘z eriga sadoqati, o‘zi befarzand bo‘lsa-da, tutingan farzandlarini chinakam mehr-muhabbat bilan tarbiyalaganligi haqida to‘lqinlanib hikoya qiladi. Husayn mirzo mamlakati yakson bo‘lgandan keyin o‘z huzuriga kelganligini, qo‘lidan kelgancha hurmat ko‘rsatganligini bayon etadi: “ Yana Opoqbegim edi, andin hech o‘g‘ul, qiz bo‘lmadi. Popo og‘achaning o‘g‘lonlarini o‘g‘lidek saxlar edi. Mirzoningn behuzurliqlarida bisyor yaxshi xizmat qilur edi, xotinlaridan hech kim muncha xizmat qila olmas edi. Men Hindistonga kelur yil Hirotdan keldi. Men ham ta’zim va ehtiromlarni ilikdan kelgancha qildim.”[157]

Ota-onaga hurmat-ehtirom, xesh-aqrabolarga mehr-muhabbat ham vatanga bo‘lgan cheksiz sadoqatning tarmoqlaridir. Ayniqsa, onasi Qutlug‘ Nigorxonimga bo‘lgan ehtiromi ham yosh avlodga o‘rnak bo‘lsa arziydi. Ona yurtini tashlab ketayotganida xos chodirini onasiga berib, o‘zi navkarlari bilan chaylada bir necha tonglarni ottiradi. Hali Kobulni egallamay turib, onasi vafot etganida bor puliga kichikroq bog‘ sotib oladi va onasini o‘sha yerga dafn etadi. Bu uning onasi o‘z mulkida mangu orom olishini istab amalga oshirgan ishi edi. 1505-1506 yillar voqealarida onasi vafot etgan Boburning farzand

[156] Boburnoma. T.: 1989. 12-bet.
[157] Boburnoma. T.: 1989. 151-152-betlar.

sifatidagi g‘am-g‘ussalari, qayg‘u-alamlari g‘oyat ta’sirli ifodalangan: “Muharram oyida mening onam Qutluq Nigor xonimg‘a xasba (ichterlama) kasali oriz bo‘ldi. Fasd qildilar, noqis voqe bo‘ldi. Bir xurosonliq tabib bor edi, Sayid tabib derlar edi. Xuroson dasturi bila hinduvona berdi, chun ajal yetib ekandur, olti kundan so‘ng shanba kuni tengri rahmatig‘a bordi (vafot etdi). ...Bu aza kunlarida kichik xon dodam Olachaxonni va ulug‘ onam Esan Davlatbegimni (vafot etganliklarini) manga eshitturdilar. Onamning qirqi yaqinlashganda Xurosondin xonlarning volidasi Shohbegim, mening xolam Mehr Nigor xonim keldilar. Azalar toza bo‘lib, firoqlar o‘ti beandoza bo‘ldi.”[158]

Tarixda shohlarning ulug‘ shayxlar jilovdori bo‘lganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Shayx Sayfiddin Boxarziyni yurt hukmdori otga mindirib, jilovdorlik qilganligi haqida Alisher Navoiyning “Nasoyim-ul muhabbat” asarida hikoya qilinadi. Mir Alisherning o‘zi ham “Xamsa” asarini yozib tugatganida shoh Husayn Boyqaro uni otga mindiradi va xaloyiq ko‘z o‘ngida Hirot ko‘chalarini aylantirib chiqadi. Ammo Sharq mamlakatlari tarixida ayol kishiga ehtirom ko‘rsatib, uning jilovdori bo‘lgan shohlar uchramaydi. Bu borada birinchisi ham, oxirgisi ham Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shoirning qizi Gulbadanbegimning yozishicha, shohning rafiqasi Mohim begim Kobuldan Hindistonga chaqirib olinganda, Bobur uni bir necha chaqirim piyoda yurib kelib, kutib oladi va malika mingan ot jilovini tutgan ko‘yi yana poytaxtga piyoda yo‘l oladi. Bu ham ulug‘ shoh va zabardast shoirning Vatan g‘urbatini birga tortayotgan ahli ayoliga, demakki, sadoqatli vatandoshiga bo‘lgan chuqur ehtiromi ramzi edi, deyish mumkin. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu ma’noni ifodalovchi bir necha haroratli ruboiylar ham bitgan:

*Sening birla so‘z muqarrar andoq qilayin,*
*Olamda seni mo‘‘tabar andoq qilayin,*
*Tengri haqi, bu xizmat agar sen qilsang,*
*Har na’vki ko‘nglung tilar – andoq qilayin.*

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ ajdodlarimizdan bo‘lmish Zahiriddin Muhammad Boburning xotin-qizlarga yuksak ehtiromi ona Vatanga cheksiz muhabbatining muhim tarmoqlaridan biri edi

**X.Sh.Nomozov - Qarshi davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**

## YOSHLARNING ATROF-MUHITGA ESTETIK MUNOSABATNI TAKOMILLASHTIRISHDA EKOLOGIK ONG VA MADANIYAT ROLINI OSHIRISHNING STRATEGIK VAZIFALARI

Dunyo tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi olamshumul muammolar tizimi eskalatsiyasi kuchayib, ijtimoiy-ma’naviy oqibatlari keskinlashuvi bilan xarakterlanadi Lekin global muamolar tizimi tarkibida, ularni tutashtiruvchi, oqibatlarini umumlashtiruvchi nuqta, aynan ekologiya sohasida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, inson hayoti asosi bo‘lgan tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni va uni muhofaza qilishni, insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy va boshqa ongli faoliyatlari, kundalik hayoti mazmunga aylantirishni taqozo qilmoqda.

Tabiatga estetik munosabatni shakllantirish maxsus ijtimoiy faoliyat sohasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi – jamiyat barqaror ekologik taraqqiyotini ta’minlashdan iborat. Shu maqsad vazifadan kelib chiqqan holda, ularni amalga oshirishning obyektiv shart-sharoitlari, subektiv omillari tarkibida ma’naviy omillar ustuvorlashib borishi qonuniyatga aylangan sharoitda, ma’naviy omillar bilan bog‘liq usul va vositalarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa jamiyatni tashkil qilgan barcha institutsional tizim elementlarini, xususan oila instituti omili rolini oshirishni taqozo qilmoda.

Oilada farzandlarning, umuman ekologik ta’lim-tarbiyasi, xususan tabiat olamiga estetik munosabatini shakllantirishning asosiy vazifasi – bolani tabiat hodisalari bilishga qiziqtirish, inson va tabiat munosabatidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini tushuntirish, kelajak faoliyatida ularni yechish yo‘llari, chora-tadbirlarini topish uchun yetarli ekologik bilimlarga ega bo‘lgan “ekologik shaxsni” tarbiyalashdan iborat. Aynan shu vazifa oilaning tabiiy atrof-muhit muhofazasini amalga oshirish missiyasini namoyon qiladi.

[158] Boburnoma. T.: 1989. 141-bet.

Oilada bolaning tabiatga estetik munosabatini shakllantirish orqali, umumiy ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish maqsadi va vazifalari:

- jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari, ular o‘rtasidagi ekologik munosabatlar mohiyatini badiiy-estetik ifodalash usul-vositalarni, ahamiyatini o‘rgatish;
- turli ishlab chiqarish sohalarining tabiiy hududlar ekologiyasiga ta’sirini badiiy obrazlarda ifodalashning tarbiyaviy ahamiyatini tushunadigan avlodni tarbiyalash;
- har bir bolada tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlarini, mas’uliyatini, burchini anglaydigan, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanadigan ekologik shaxsni yetishtirish;
- yoshlarni tarixiy ekoestetik qadriyatlar merosiga vorislik ruhida tarbiyalab, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirishdan iborat.

Shaxsda tabiatga estetik munosabatni shakllantirishga ehtiyoj, uning individualligini va ijtimoiyligini uyg‘unlashtiruvchi usul-vositalar integratsiyasi hamda o‘zaro aloqasi, ta’siri asosida tarkib topadi. Sobiq mustabid tuzumning shaxs bilan bog‘liq ekologik muammolar yechimida eng katta xato ham, uning umuman ijtimoiy munosabatlar tarkibida, xususan tabiatga individual ehtiyojlarga asoslangan munosabatlardagi maqomini hisobga olmasligi bilan bog‘liq.

Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin, ya’ni:

- sobiq mustabid tizimda tabiat resurslariga nisbatan egasizlik sterotipini shakllantirilgan (egasiz narsani muhofaza qilish ham, uning usul vositalarini yaratish ham shart emas deb qabul qilingan);
- mustamlaka o‘lkalarda asrlar davomida shakllangan azaliy ekologik va estetik qadriyatlariga nigilistik yondashuv (“yovvoyi va savodsiz xalqlar” madaniyatiga bepisandlik bilan qaralgan);
- ajdodlarimizning ekologik tarixiy urf-odatlariga, an’ana va udumlariga konformistik munosabat (ular konservativ va negativ eskilik sarqiti sifatida baholangan);
- ma’naviyat iqtisodiy determinizm ustuvorligi “soyasida” qolib ketganligi (avvalo qorinni to‘ldirish (to‘ydirish emas) ehtiyojini va zaruriyati mutlaqlashtirilgan);
- ishlab chiqarish texnologik jarayoni bosqichlarini ekologiyalashtirish va estetikalashtirishning moddiy-texnik qashshoqligi (ularga ikkinchi darajali vazifa deb qarash stereotiplari turg‘unligi);
- ekologik ong va madaniyaning tabiatga estetik munosabatni shakllantiruvchi institutlari o‘rtasida integrativ aloqalar ojizligi (ular faoliyatining diskretligi va fragmentarligi) va boshqa subyektiv omillar nochorligi bilan izohlanadi.

Bugungi kun haqiqati, ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy ong shakllarini ekologiyalashtirish, ularning pedagogik-didaktik funksional rolini kuchaytiruvchi usul-vositalarni rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda. Zero, ekologik ta’lim-tarbiyani ekoestetika tamoyillari asosida tashkillashtirish usullari va vositalari yaxlitligini yaratish, inson antropotexnogen ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining salbiy oqibatlarini bartaraf etib, “tabiat-jamiyat-inson” majmuasi koevolyutsiyasi va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga, insonning tabiat boyliklariga ongli munosabatini, tabiiy atrof-muhit muhofazasiga nisbatan mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bu sohaga fuqarolik institutlarini faol jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 9 ta qonun qabul qilinib[159] davlat va nodavlat institutlariga bo‘lgan ishonch yanada mustahkamlanmoqda. Chunki, ma’naviy-ma’rifiy muassasalar: klublar, madaniyat uylari va saroylari, madaniyat va istirohat bog‘lari, mahallalardagi ma’naviyat xonalari, kutubxonalar va shu kabilar tabiatni muhofaza qilishda targ‘ibot-tashviqot institutlari sifatida o‘z faoliyati bilan ekologik ta’lim va tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi. Ular ekologik ta’lim va tarbiyada aholining mehnat va bo‘sh vaqtlarida ijtimoiy-ekologik faolligini oshirishga ko‘maklashuvchi ommaviy ijtimoiy tuzilmalar, xalq pedagogik-didaktik majmualari sifatida faoliyat ko‘rsatadilar hamda shaxsning individual mehnat faoliyati va hayot tarziga mos ekologik xislatlarini shakllantiruvchi maskan hisoblanadi. Shu asosda kuchli ekologik madaniyat shakllanadi va bu jarayon barqaror ekologik muhitning garovi bo‘lib qoladi.

[1]Qarang: Karimov I Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlangan islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir. 23-tom. –T.: “O‘zbekiston, 2015. –B.245.

**U.M. Hamroyev - Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti**

## YOSHLAR MA’NAVIYATIDA REKLAMANING SALBIY OQIBATLARI

Hayotni reklamasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Reklama fransuzcha, reclame< lotincha reclamare so‘zidan olingan bo‘lib, qattiq qichqirmoq degan ma’noni anglatuvchi iqtisodiy atama. Bu so‘z O‘zbek tilining izohli lug‘atida Tovar yoki ko‘rsatilgan xizmat turlari haqida xaridorlarni xabardor qilish, ularga nisbatan talab, ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to‘g‘risida berilgan ma’lumot reklama deyiladi.[160]

Bugungi kunda biz yashayotgan axborot asrini reklamalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Hayotimizning har sohasiga reklama tezlik va shiddat bilan kirib kelmoqda. Ko'cha-ko‘yda, turli xil joylarda reklamaga ko‘zimiz tushadi, yo‘nalishli avto-ulovlarda ham reklamani uchratamiz, hatto oilamiz bag‘rida hordiq chiqarib, televizorni tomosha qilyotganimizda yoki radio eshitayotganimizda ham - yana reklamalarni ko‘ramiz yoki eshitamiz. Yuqorida sanab o‘tganimizdek -reklama bizning hayotimizning bir bo‘lagiga aylanib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko‘ra ,hozirda mamlakatimizda 200 dan ortiq reklama agentliklari faoliyat yuritib ular turli ko‘rinishdagi va mazmundagi mahsulotlar hamda xizmatlar bozori bilan aholini tanishtirib kelmoqda.Chunki reklama mazmun mohiyatiga ko‘ra ,ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o‘rtasidagi aloqachi vazifasini bajaradi .Bu esa yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo‘lish imkonini yanada oshiradi .Reklama jamiyatda faqatgina iqtisodiy sohagina samarali ta'sir etmay ,balki ijtimoiy ,siyosiy ,madaniy sohalarga ham o‘z ta'sirini ko‘rsatadi .Xususan , har tomonlama yuksalish sari intilib borayotgan jamiyatimiz fuqarolarining ingi ,fikrlashi ,xulq- atvori va ma'lum baholashlar tizimi ,istemolchilik didining shakllanlshida reklamaning o‘mi beqiyos.

Bola tarbiyasi qadim zamonlardan beri kishilar e’tiborining diqqat markazida bo‘lgan. Hattoki yunon tarixchisi Geradotning Misrga qilgan sayohati chog‘ida uni Misr ehromlaridan biriga yozilgan quyidagi fikr o‘ziga jalb etadi, bu fikr esa hali hanuz o‘zining dolzarbligini yo‘qotgan emas. *«Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!”*.

Bolanining qalbi nozik u niholga qiyoslanadi. Niholni to‘g‘ri o‘sishi atrofda bo‘layotgan shamollarning ta’siridan asralishi, ehtiyot qilinishi oqibatida to‘g‘ri o‘sadi, lekin turli-xil shamollar ta’sirida qolishi natijasida egri o‘sadi va o‘z chiroyini yo‘qotadi.

Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumud din» kitobida tarbiya haqida shunda yozgan: “Bola – ota-ona qo‘lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, saodatli bo‘ladi. Ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo‘ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo‘ladi”.

Bugungi kunda bola tarbiyasiga asosan telefon, internet, turli xildagi o‘yinlar sabab bo‘layotgani haqida ko‘p gapirilmoqda. Bu kabilardan bolalarni, yoshlarni cheklash mumkin, bu ota-onalarning qo‘lida, ammo faqat uyali aloqa vositasi yoki internet saytlarni, o‘yinlarni aybdor sanash bu xatodir, chunki internetdan kerakli ma’lumotlarni olish mumkin.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga jiddiy ta’sir etadigan reklamalar ko‘paymoqda. Kundalik turmushimizda telekanallarning o‘rni beqiyos. Hozirda televizor kirib bormagan xonadon bo‘lmasa kerak. Televideniyalar orqali beriladigan reklamalar, ko‘rsatuv nomlaridan odam uyaladigan bo‘ldi. “Tug‘mas”, “Bepusht”, “Tug‘ilmaganlar”, “Zolim Istanbul”, “Mardikor ayol”, kabi teleseriallarning nomining o‘zidan yoshlarning ongida ma’lum hissiy tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Televideniya orqali berilayotgan reklamalardan yoqa ushlamaslikning iloji yo‘q, chunki ularda o‘zbekona sharm-hayo kabi tushunchalar yot bo‘lmoqda.

Koteks, Androgard, Byuti vit kabi mahsulotlarni reklamasidagi so‘zlariga diqqat bilan tinglasangiz, o‘sib kelayotgan bolalarning yuz-ko‘zini ochib tashlamoqda. Kotks reklamasidan so‘ng 3 yoshli o‘g‘ilcham onasidan so‘radi: “Koteks –nanalarning panpersimi?” deganda onasi unga javob berolmay hayratda qotdi.

---

[160] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5 tomlik Toshkent. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti 2006-yil 3 tom 373-374-sahifa

Androgard dorisi reklamasida erkaklik urug'ini oshiruvchi vosita sifatida tv orqali har kuni bir necha marta reklamasi beriladi. Bu kabi reklamalarni farzandlarimiz ma'naviyati susayadi.

Bir telegram guruhida shunday fikrni o'qib hayratda qoldim. "1-sinf farzandingiz sizdan so'rayapti, dada yoki oyi, erkaklik urug'i nima degani deb. Nima deysiz? Yoki dada bepusht nima degani? Kotex nima degani deb so'rab qolsa, tilingiz aylanmay qolishi turgan gap."[161] Haqiqatdan ham farzandingiz shu kabi savollar bersa, ularga qanday javob berishni o'ylab ko'ring.

Xullas, bu shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda farzandlarimizni turli xildagi axbarot xurujlaridan asrab avaylash har birimizning burchimiz ekanligini unutmaylik.

**A.B. G'ulomov - Farg'ona davlat universiteti, PhD**
**M.Tadjiboyev - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## JADIDCHILIK HARAKATIDA IJTIMOIY, SIYOSIY, AXLOQIY VA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALISHI

Bugungi kunda jamiyat a'zolarida ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalaridan biridir. Ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo'lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o'zida mujassamlashtiradi. SHaxsning ekologik tafakkur tarzi u yashab turgan mintaqaning tabiiy-geografik iqlimi, shart-sharoitiga, u mansub bo'lgan millat yoki xalqning mentalitetiga, turmush maromiga, tarixi, urf-odati, e'tiqodi, qolaversa muayyan jamiyatda yashovchi kishilarning tabiat to'g'risidagi dunyoqarashi, hamda unga bo'lgan munosabatlari bilan uzviy bog'liq. Ana shu munosabatlarning o'zaro bog'liqligi va ta'siri bois shaxsda ekologik dunyoqarashi shakllangan.

Jahonda atrof – muhitni muhofaza qilish, global ekologik holatni barqarorlashtirish inson ongi, tafakkuri, aql-idroki, intellektual salohiyatiga bog'liq ekanligi, tabiatga nisbatan yuksak madaniyat va dunyoqarashni shakllantirish, geomadaniyat va shaxsiy gigiena, tabiiy muvozanatni buzmaslik to'g'risidagi qarashlarni qayta ko'rib chiqish dolzarb muammoga aylanmoqda. Ayniqsa, jadid mutafakkirlarining erkinlik, adolat va tenglik, milliy o'zlikni anglash va millatni umumbashariy taraqqiyotga erishishida ilm-ma'rifat g'oyalarining global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar oldini olish va "tabiat – jamiyat – inson" tizimining uyg'unligini ta'minlashda ekologik madaniyatning o'rnini huquqiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy asoslarini tarixiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Jahon ilm-fanida ekologik tafakkurni shakllantirish hamda ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik savodxonlikni oshirish, ekologik ongni rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, hamda kuchayib borayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishning innovatsion echimlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yosh avlodning ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirishda jadid mutafakkirlarining ijtimoiy borliqdagi ekologik mas'uliyat, faollik, burch kabi differensial yondashuv sifatlari bilan o'zbek xalqi ekologik madaniyatining ijtimoiy mental xususiyatlaridagi dialektik aloqadorlik, ijtimoiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik tamoyili asosida tabiat bilan xalq madaniyati uyg'unligi asosida paydo bo'lgan ekologik madaniyat an'analarini ekologik tafakkurni yuksaltirish zarurati oshib bormoqda.

Mamlakatimizda ekologik muammolarning global ahamiyatiga oid muhim ustuvor vazifalar belgilanib, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat, jamiyat a'zolarining ekologik madaniyatini yuksaltirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish yo'nalishida chuqur islohotlar olib borilmoqda. "Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi. Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega"[162]. SHu nuqtai nazardan jadidchilik harakati namoyondalari – ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganish asosida yosh avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usul va vositalarini

---

[161] Professional_English_Teacher kanalidan

[162] Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 30.09.2020. https://president.uz/uz/lists/view/3864

aniqlash barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlashda muhim ilmiy-tadqiqot mavzusiga aylanmoqda. Nafosat tarbiyasining muhim vositasi sifatida ekologik madaniyat o'quvchilarni go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash, turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omil hisoblanadi. Pedagog olim K.D.Ushinskiy yosh avlodda tabiat estetik tuyg'ularning rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish, sayohat, sayr, mazkur yo'nalishdagi an'anaviy faoliyatlardir. Olamdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. O'qituvchilar e'tiborni tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratish, sayr, ekskursiya hamda maktab tajribaviy er maydonchasida ishlash paytida nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo'lmay, shuningdek, unga ongli munosabatda bo'lishdan ham iboratligini o'quvchilarga tushuntirib borishlari darkor. Shu o'rinda, bugungi kunda tabiatdan oqilona foydalanishning asosi bo'lgan ekologik madaniyatni shakllantirishning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari to'la quvvat bilan ishlayapti, deb aytib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, tabiatga yangicha munosabatda bo'lishda odamlarning huquqiy madaniyati (huquqiy–ekologik dunyoqarashi) pastligi, iqtisodiy (iqtisodiy–ekologik) tafakkkurning etishmasligi oqibatida mavjud muammolarni echishda qator qiyinchiliklar kelib chiqmoqda. Tabiatdan foydalanishning regional va global darajalariga e'tiborning kamligi qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Yuqorida qayd etilgan darajalar nihoyatda harakatchan va o'zgaruvchan bo'lib, ularning bir–birlariga o'tib turishi tabiiy holdir.

Har qanday tarixiy davrda insoniyatning ekologik dunyoqarashi tabiatga estetik munosabatni shakllantirishi bilan muhim ijtimoiy funksiyani bajarib kelgan. Lekin, bir tomondan, totalitar kommunistik mafkura hukmronligi davrida tabiatni san'at asarlarida badiiy ifodalash ham muayyan siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilgan yoki uning talqinida mavjud tizimga oshkora maddohlik bo'lsa ham, ikkinchi tomondan, tabiat haqida yaratilgan san'at asarlarida Ona-zaminga insoniy munosabat "chaqirig'i" baralla ko'rinib va eshitilib turar edi. Bu esa, shaxsning san'atdagi "tabiat borlig'iga" estetik munosabati xarakterini belgilaydigan intellektual salohiyatiga va uni baholash mezonlariga bog'liqdir. Zero, shaxsning komilligi va madaniyati uning tabiiy muhitga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Jadidchilik harakati davrida ekologik madaniyat masalalari jiddiy tus olmagan, tabiat va inson o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashmagan, texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy-global muammolarni kun tartibiga qo'yib ulgurmagan edi. Biroq jadid publitsistikasi, adabiyoti va pedagogikasida ekologik tafakkurning XX asr boshlariga xos hukm-xulosalari, yaqin yillarda tabiat bilan munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar to'g'risida muayyan kuzatishlar mavjud. Ogohlikka da'vat kabi jaranglagan bu mulohazalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o'z hayotiy tasdig'ini topdi.

**F. Ergasheva – Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## QAHRAMON RUHIY HOLATINING IFODALANISHIDA QO'SHIQLARNING O'RNI (O'tkir Hoshimov asarlari misolida)

Qo'shiq – keng ma'noda she'riy, musiqiy janr. Shuningdek, shoirlar tomonidan yozilgan she'riy asarlarning rangin ifodasi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy, badiiy obrazlardan iborat. Qo'shiq insonning turli kayfiyatlari, maslik, ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqa holatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari qo'shiq shaxsning irodaviy sifatlari, qat'iyatlilik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi. Qo'shiq inson ruhini allalaydi, unga taskin beradi. Va yana qo'shiqning ma'naviy ozuqa bo'lish vazifasi ham mavjud.

Avvalgi va keyingi davrlarda ham odamlar to'y-marosimlarda, an'anaviy bayramlarda turli-tuman laparlar kuy- qo'shiqlar kuylaganlar. Yangi dunyoga kelgan chaqaloqning tug'ulib ulg'aygungacha bo'lgan davrda qo'shiqlar uning hamrohi bo'ladi

Xalq qo'shiqlari uzoq tarixga ega. Chunonchi turkiy xalqlar og'zaki ijodida, hatto eramizdan avval ham qo'shiq janriga mansub asarlar borligi ma'lum. Nisbatan keyingi namunalar esa XI asrda yashab ijod etgan adib Mahmud Qoshg'ariyning " Devonu lug'otit turk" asarida "qo'shug'" shaklida uchraydi va she'r, qasida (biror kimsa yoki narsaga atalgan she'r) ma'nosini anglatadi. Mahmud Qoshg'ariy yozib olgan asosiy qo'shiqlar asosan mehnat qo'shiqlari, qahramonlik, mavsum-marosim va lirik asarlardan iborat bo'lgan.

Masalan:

*Yigitlarig ishlatu,*
*Yig‘ach tanish irg‘atu,*
*Qulan kiyik avlatu,*
*Bayram qilib avnalim.*[163]

Qo‘shiq haqida ma'lumot berib o‘tilgan barcha adabiyotlarda uning " qo‘shmoq" fe'lidan kelib chiqqanligi aytib o‘tiladi. Bu atamaning kelib chiqishi qanchalik oddiy va sodda tuyulmasin, bu janr juda murakkab ruhiy kechinmalarni o‘zida ifoda etadi. Unda inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari qalb so‘zlari aks etadi.

Har bir yozuvchining asardagi turli voqealar va holatlarni qanday va qay yo‘sinda ifodalashida o‘vchi uslub va yo‘nalishi bo‘ladi. Adabiyot maydoniga ana shunday o‘ziga xos ijodi bilan kirib kelgan yozuvchilardan biri O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini olsak, unda asosan urush yillari qiyinchiliklari, front va front orti azoblari, muhabbat, nafrat, ochlik kabilar asar qahramonlari tilidan mahorat bilan yoritib berilgan asardir. Asardagi “qora amma”, “kichkina” Muzaffar, Robiya, Ra’no, Zuhra kelin kabi personajlarning yanada oydinroq aks etishida qo‘shiqlarning o‘rni juda katta.

Asarning bir o‘rnida “qora amma” tomonidan kuylangan quyidagi qo‘shiqda o‘ sha davr kayfiyati anglashilib turadi:

*Endi danagimni chaqish uchun o‘rnimdan turgan edim, ammamning ovozi chiqib qoldi. Menga gapiryapti desam ashula aytayotgan ekan:*

*Dukur-dukur ot keldi,*
*Ot boshida xat keldi.*
*Xatni o‘qib ko‘rsam,*
*Voy-voy bilan dod keldi…*[164]

Asardagi voqealarning asosiy qismi urush davriga to‘g‘ri kelgan. Yuqoridagi qo‘shiqda o‘sha paytdagi bir holat ya’ni ko ‘pchilikning uyiga xat tashiydigan qahramon, pochtachi Rashid abzining ularga qora xat olib kelgan voqealari aks etgan. Xatto asarning bir o ‘rnida unga “shum qadam” deya nom berishgan.

Asarning bosh qahramoni bo‘lgan kichkina Muzaffarning tilidan aytilgan hikoyada aytilgan qo‘shiqda yosh bolalarga xos sof bolalik raqobatlari namoyon bo‘lgan. :

*“Tanaffusda 2-sinf bolalari bizni maxara qilishadi. Hammasi baravar qarsak chalib ashula aytadi:*

*Birinchi chol, otga beda sol,*
*Oting yemasa, chaynab sol.*

*Avvaliga alam qilib yurdiyu, Ma’suda opa bizni yupatdi:*
*O‘zlariyam bultur birinchi chol edi, qo‘yaveringlar! ”* [165]

O‘tkir Hoshimov bolalar dunyosini ochib berishda faqat holat tasviriga emas, balki ularga xos soddalikka asoslangan folklor qo‘shiqlariga murojaat etadi.

Bundan tashqari yozuvchi asarda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf- odatlarni ham yoritib bergan. Jumladan, chaqaloqni beshikka belash marosimining tasvirlanishi o‘zbek xalqining naqadar bolajonligini bundan tashqari marosim odatlari xalqimizning totemlarga, animizmga ishonganliklarini yaqqol ko‘rsatadi.

*“Ammam xokandozda tutab turgan isiriq ko‘tarib kirdi. Harsillab nafas olgancha allanimalar deb pichirladi, beshik atrofida xokandozni aylantirdi. Lazokat xola piyolaning og‘zicha keladigan kulchani beshik boshiga qo‘ydida, ustiga yostiqchani tashladi. ”*[166]

Yozuvchi tasvirlagan chaqaloq belash marosimi asar sujetiga biror burulish yasamagan bo‘lsada, asar mazmunini o‘zbekona ruh bilan bezaydi.

Bundan tashqari asarda to‘y marosimlaridagi yor-yorlar, motam qo‘shiqlari ham mavjud bo‘lib, bu bugungi avlodlarga, balki, kelgusi avlodga ham o‘ zligini anglashga yordam beradi, xalq og‘zaki ijodining qadim merosidan ma’lumotlar beradi. Demak, qo‘shiqlar inson ruhiyati asosida dunyoga keladi.

---

[163] (Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetic ijodi. 72- 73- bet)
[164] 2.O‘tkir hoshimov. Ikki eshik orasi. Meriyus, Toshkent, 2011;
[165] 2.O‘tkir hoshimov. Ikki eshik orasi. Meriyus, Toshkent, 2011;
[166] 2.O‘tkir hoshimov. Ikki eshik orasi. Meriyus, Toshkent, 2011;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**
1.(Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2010;
2.O‘tkir hoshimov. Ikki eshik orasi. Meriyus, Toshkent, 2011;
3.w.w.w.ziyo.uz.

**A.B. G‘ulomov - PhD, Farg‘ona davlat universiteti**
**R. Adhamjonova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## JADIDLARNING EKOLOGIK MADANIYATGA DOIR QARASHLARIDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIKNI UYG‘UNLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida g‘oyalar va ta’limotlar vorisiylik zanjiri asosida sayqallanib, zamonga moslashib, dialektik o‘zgarib boraveradi. Bu esa tarixiylikdan zamonaviylikka o‘zgarishda, mushtaraklashuvda namoyon bo‘ladi. Jadid mutafakkirlarining ekologik tarbiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatga oqilona munosabatni shakllantirishga oid qarashlari bugungi ekomadaniyatni, xalqimizning ekologik dunyoqarashini o‘stirishda muhim omil hisoblanadi. Jadid mutafakakirlari ta’limotlarining eng muhim ahamiyati, ekologik tanglik sabablarini va uning oqibatlarini jamiyatdagi ma’rifatsizlik, ma’naviy qashshoqlik bilan bog‘lab ko‘rsatilishini axloqiy determinizmning tizimlashgan shakli sifatida qarash mumkin.

Ijtimoiy-ekologik muammolar echimida zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan oqilona foydalanish an’analariga asoslangan etnoekologik yondashuvning ahamiyati haqida davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev shunday yozadi: “Xalqimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo‘lish va umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasida ko‘p asrlik an’analariga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz.”[167] Bundan tashqari, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro dasturida belgilangan 17 ta “maqsad”lardan biri “Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, o‘rmonlarni ratsional (oqilona) boshqarish, cho‘llashishga qarshi kurashish, erlarning degradatsiyasini to‘xtatish va biologik xilma-xillik yo‘qolishining oldini olish”vazifalari echimiga yo‘naltirilgan.[168] Mazkur vazifalar echimi demografik yuki og‘ir, tabiatga ko‘rsatilayotgan antropogen bosim miqdori yuqori bo‘lgan mintaqalarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday vaziyatda ilm-fan vakillari, tadqiqotchi-olimlarga o‘z sohalaridan kelib chiqqan holda yondashuvlar va echimlar talab qilinadi. Falsafa ham tabiat va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi soha bo‘lganligi uchun ham bugungi kunda ekologik muammolarning echimini ishlab chiqishda mas’uliyatli vazifalarni o‘z zimmasiga olmoqda. Jadidlar musulmon olami bilan jahon sivilizatsiyasining uyg‘un jihatlarini teran ilg‘ay oldilar, turli davrlarda har xil dinlarga e’tiqod qiluvchilar bu hududda tinch va totuv yashaganliklari, konfessiya va etnoslar mavjud bo‘lganligini, diniy bag‘rikenglikning ildizlari uzoqlarga borib taqalishini e’tirof etdilar. Buning uchun ular Yevropa va Osiyo tarixiga murojaat qilib, uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida madaniyatlarning vorisligi, o‘zaro aloqadorligi diniy bag‘rikenglik tamoyilining qaror topishida asosiy omil bo‘lgan, degan xulosaga keldilar. Butun tarix davomida, – deb yozadi faylasuflar, – madaniy merosdan foydalanish va uni o‘zlashtirish jarayoni ikki xil aspektda sodir bo‘lgan. Vorislikning birinchi (“vertikal”) aspekti o‘tmish bilan hozirgi zamonning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Boshqa bir (“gorizontal”) aspekti esa bir davrda mavjud bo‘lgan madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jarayonidagi vorislik ko‘rinishidir. Jadidalr ham o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy va ekologik g‘oyalar orqali zamonaviy madaniy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatdilar.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda jadidlarning ekologik madaniyatga doir qarashlari muhim ahamiyat kasb etganligini ularning ekologik ta’lim-tarbiya va atrof-muhitni asrab avaylash, tabiatga

---

[167]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркманистоннинг Туркманбоши шаҳрида бўлиб ўтган Оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 25 август, № 173 (7131).
[168] Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года // Электронный доступ: http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru

oqilona munosabatda bo‘lish haqidagi fikrlardan ham bilsa bo‘ladi. Bu borada Abdulla Avloniy va Hoji Muinlarning mulohazalaridan ham bilish mumkin. Har qanday tarixiy davrda milliy ekologik axloqiy normalarning umuminsoniy manfaatlarga mos kelishi, ularning gumanistik mohiyatidadir. Buni jadidchilik harakati vakillari to‘g‘ri tushunishgan edi. Jadidchilik fenomeni savodxonlik, ma’rifat, nazariya va amaliyot sinkretizmi, nekbinlik, samaradorlik, insonparvarlik, erkin fikrlash, bag‘rikenglik kabi elementlardan tashkil topgandir. Jadidchilik o‘ziga xos ijtimoiy-tarixiy hodisa hamdir. Jadidchilik vakili Abdulla Avloniy er yuzida intizom bo‘lmasa, insonlar bir daqiqa ham yashay olmasligini ta’kidlash orqali tabiatga oqilona munosabatning naqadar muhim ekanligiga e’tibor qaratadi. “janobi Haq eru osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tartib berib yaratmushdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so‘zlamakdan ojizdir.[169] Abdulla Avloniyning tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish to‘g‘risidagi bunday qarashlari jadidlarning ekologik madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyos bo‘lganligini anglatadi.

Bugungi kunda yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda mintaqadan etishib chiqqan faylasuf-olimlarning, xususan jadidlarning ekomadaniyatga doir qarashlaridan ilmiy-amaliy faoliyatda foydalanish vazifalari zaruratga aylanmoqda. CHunki uchinchi mingyillikda ekologik muammolarning keskinlashib va globallashib ketishi bilan ekologik axloq normalarining regulyativ funksiyasini takomillashtirishga ehtiyoj ustuvorlashmoqda. Bu esa, unga ta’lim-tarbiya tizimida alohida e’tibor berishni taqozo qiladi. Biroq, ekologiyaga oid mavjud darsliklarda ekologiyaning ma’naviy-axloqiy masalalari e’tibordan chetda qolgan. SHuning uchun ham jadid mutafakkirlarining ekologik axloq va tabiatni asrab-avaylashga oid xulosalaridan unumli foydalanish va zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyatda ekologik axloqiy normalar ustuvorligini ta’minlash huquqiy qonunlarni bajarish mas’uliyatini ham, siyosiy talablar majburiyligini ham istisno qilmaydi, balki taqozo etadi. Ma’lumki, jadidchilik harakati davrida ekologik madaniyat tushunchasi bo‘lmasada, bu davrda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etmagan bo‘lsada jadid mutafakkirlari atrof-muhitni asrab avaylash, shaxsiy ozodalik gigienik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy ongni yuksaltirish zarurligini anglab etganlar. Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o‘zaro bog‘liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jadidchilik harakati davrida ekologik madaniyat masalalari jiddiy tus olmagan, tabiat va inson o‘rtasidagi ziddiyatlar keskinlashmagan, texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy-global muammolarni kun tartibiga qo‘yib ulgurmagan edi. Biroq jadid publitsistikasi, adabiyoti va pedagogikasida ekologik tafakkurning XX asr boshlariga xos hukm-xulosalari, yaqin yillarda tabiat bilan munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar to‘g‘risida muayyan kuzatishlar mavjud. Ogohlikka da’vat kabi jaranglagan bu mulohazalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o‘z hayotiy tasdig‘ini topdi.

**A.B. Yusupov – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## TALABALARNI O‘QITISHDAGI INAVATSION USLUBLAR

Barchamizga ma’lumki mustaqilligimizning ilk yillaridanoq ta’limga juda katta e’tibor berib kelinmoqda. Mustaqiligimizni qo‘lga kiriganimizdan keyin birinchi prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligida ta’lim sohasi tubdan isloh qilindi. Bunga oddiy bir misol tariqasida mamlakatimizdagi 12 yillik bepul ta’lim, akademik litseylar, kollejlar bepul tarzda o‘rta maxsus mutaxasislarini tayyorlash tizimini keltirsak hech ham shubhaga o‘rin qolmaydi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi kattadan katta islohotlar, inovatsiyalar ta’lim tizimini yanada yuksalishiga turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zim tahsil olayotgan Farg‘ona davlat universiteti misolida inovatsion tizimlarni, yangilanishlarni va isloxotlarni misol tarzida oladigan bo‘lsak, o‘qitish metodi oldingi yillarga nisbatan yangicha tus olgan.

30 ga yaqin rivojlangan mamlakatlar (Angliya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malaziya va h.k.) ta’lim tizimida muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyaning mohiyati, uning odatdagi o‘qitish usullaridan farq qiluvchi jihatlari, O‘zbekiston ta’lim tizimiga uni joriy etishning ahamiyati, test

[169]Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 –жилд. Тошкент: Маънавият. 2006. –Б. 52-53.

topshiriqlari shakllari, ularni tuzish hamda pedagogik texnologiyaning tamoyillari va qoidalari, o‘quv materiallari ishlab chiqilgan. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Ta'lim jarayonida kreativ metodlar innovatsion texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha a'nanviy talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyada esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga xato xulosalarni o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlantirishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari malakali kasb egallarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalarni o‘rni va roli benihoyat kattadir. Mamlakatimizda tahsil olayotgan talabalarni bilim saviyasini oshirish ular o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashlari uchun bugungi kunda mamlakatimizda kridit “modul sistemasi’’ joriy etildi. Kredit-modul tizimi, bu - har bir o‘quv moduli (Modul - bu alohida individual o‘quv fani). Tarkibini tuzishga asoslangan modulning o‘quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o‘quv dasturini o‘zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi (3).

Bu ta'lim tizimining asosiy jihatlaridan biri bu, talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash, ularning o‘z ustida ishlash qobiliyatini shakllantirish hisoblansa, ikkinchidan ularning egallagan bilim va ko‘nikmalarini reyting asosida baholab borish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko‘ra mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha OTMlar kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi (1).

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

— o‘quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
— bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
— talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
— talabalarga o‘zlarining o‘quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
— ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
— ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo‘yilgan talabdan kelib chiqib o‘zgartirish mumkinligi. Biz yoshlarga yaratililayotgan ushbu imkonyatlardan to‘liq foydalanib yurtimiz kelajagi uchun shu yurt ravnaqi uchun jon jaxtimiz bilan o‘qib bilim egallab Prizidentimizga ijobiy javob qoytarishga vada beramiz.

**O.O‘. Xolmatova – Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**

## MAQOLLARNING USLUBIY IMKONIYATLARI

Har bir xalq asrlar davomid juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so‘zlar ana shunday ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab, avaylab, sayqal berib dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror bir xalq yo‘q.

Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni,teran mazmunni, so‘z san’atining dur-u javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv vositalari orasida ta’sirchan, eng esda qoluvchi,kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga ega.

Yevropaning taniqli sharqshunos olimi Herman Vamberri XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagilarni yozgan edi: “…Maqollarni yozma tilda ham,jonli tilda ham uchratish,yurt kazolarining saroyida ham,ko‘chmanchilarning o‘tovida ham eshitish mumkin …Sahro o‘g‘loni bunday otalar so‘zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi.Maqol ma’nosiga zid bo‘lgan hech qanday oqilona gap,hech qanday ishontiruvchi so‘z uning fikriga ta’sir qila olmaydi,uning

tabiatidagi tug‘ma mutassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto‘g‘ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchida boshqa hech bir narsaga bunchalik kuchli tarzda namoyon bo‘lmaydi”.[170]

Biz bilamizki, maqollar asosan, og‘zaki-so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi.Xalqimizning ming yillar davomida to‘plagan boy hayotiy tajribasi maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan.Ularda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini his etib turamiz.Bu hissiy kechinmalarning ifodasi bo‘lgan poetik matnda maqollarning uslubiy xususiyatlari to‘la namoyon bo‘ladi.

Dastlab, Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida turli xalq hikmatlari, janrlar tasviriga bag‘ishlangan to‘rtliklar bilan birgalikda maqol va hikmatlarni keltirgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida maqollar, asosan, g‘azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog‘ishtirish uchun qo‘llanilgan. Natijada misralarning sodda va ravon o‘qilishiga, qolaversa, nutqiy ta’sirchanlikka erishilgan. Masalan, Lutfiyning “Ayoqingga tushar har lahza gisu…” deb boshlanuvchi g‘azalining har bir baytida maqollar qo‘llangan.

G‘azalda maqol keltirish uchun ko‘pincha “masaldurur”, “masalkim”, “chun masal bo‘ldi” singari jumlalar qo‘llangan, ular ta’kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Chun Navoiy ko‘ngli sindi emdi lutfung ne osig‘,
Kim ushatsa shishani butmas oni payvand ila.

Zamonaviy she’riyatimizda ham maqollar she’r mazmunini boyitishga, ta’sirni oshirishga va nutqning xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan:

Hatto qo‘ng‘iz o‘z bolasini,
Oppog‘im deb bo‘lar ekan shod,
Oppog‘im deb bo‘lar ekan yod. (H.Olimjon)

Maqol matni qisqa, ixcham va lo‘nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois, ijodkorga qo‘l keladi.[171]

Bundan tashqari zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyondalarining badiiy ijodini o‘rganish asnosida ularning hech birini xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, jumladan, maqol va matallardan ajratgan holda tadqiq qilib bo‘lmaydi.

Maqol va matallar nafaqat nasrda ishlatibgina qolmay, u publitsistik asarlarda ham badiiy ifoda kuchi, hissiy ta’sirni ko‘rsatish, tilni ifoda imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish uchun ishlatiladi. Xalqning hikmatli so‘zlari ommabop asar tilining siyosiy o‘tkirligini oshiradi va o‘quvchi xotirasida eng muhim elementlarni muhrlab qoldirishga xizmat qiladi. Maqollar ifodalangan yoki muallif ifodalamoqchi bo‘lgan fikrga assotsatsiya qilishi natijasida bu publitsistik asar mazmuni o‘quvchi yoki tinglovchi xotirasida chuqur iz qoldiradi. G‘oyaviy mazmuni, ma’naviy-axloqiy xulosasiga ko‘ra xilma-xil bo‘lgan maqol va matallar bajaradigan uslubiy vazifasi jihatidan ham alohida xususiyat namoyon etadi. Maqol va matallarda g‘oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash, kishilar nutqiga e’tibor berish, o‘ziga va atrofdagilarga har tomonlama talabchan bo‘lishga, to‘g‘ri va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.[172]

Ilmiy uslubda esa maqol va matallar leksik birliklar stilistikasi bilan bog‘liq ishlarda, frazeologiyaning obyekti sifatida sintaktik stilistika doirasida sodda yoki qo‘shma gaplar uslubiyati bilan bog‘liq tadqiqotlarda bayon qilingan fikr-mulohazalarni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan

Keyingi yillarda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalidagi ayrim maqollarda an’anaviy va system tilshunoslik namoyandalarining formal va substansial tahlil haqidagi pozitsiyalarini bayon qilishda oppozitsiyadagi tilshunoslar fikrlariga o‘z munosabatlarini ilmiy matnda qo‘llangan maqollar orqali ifodalangan o‘rinlar ham uchraydi. Bu esa maqollarning qo‘llanish doirasini ilmiy uslub tomon kengayganligini ko‘rsatadi.Shuningdek, ilmiy tilda qo‘llangan maqol yangi stilistik xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Masalan: “Tadqiqotning ongli va izchil metodologik asosi uni fanda juda ko‘p uchraydigan mantiqiy va gnoseologik xatodan – Attoru Rumiylar timqorong‘ulikda filni yaxlit “ko‘rish”ga intilgan johillar, Mir Alisher ko‘rlar, Frensis bekon esa “g‘or ruhi’ bandalari deb atagan va o‘zbek xalqi “ko‘r

---

[170] Vamberri G.Ocherki Sredney Azii.Moskva,1968.Str.321-324

[171]Qurbonova S.Hamid Olimjon she`rlarida xalq maqollaridan foydalanish//O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari.Farg`ona.2010.137-b

[172]Nagornaya S.Y.Nagorniy I.A.Russkaya yazikovaya kartina mira I staroobryadcheskiy tekst||Nauchniye vedomosti Belgorodskogo gosudarstvennogo universiteta. – Belgrad,2010. -46 s.

tutganini, kar eshitganini qo‘ymas” maqolida ixcham ifodalangan mahdudlikdan asraydi”. Yoki quyidagi misolni ko‘raylik: “…Ammo bir yo‘nalishda hosil qilingan hukm, xulosa ikkinchi yo‘nalish vakiliga “yoqmasligi” tabiiy va buni xalqimiz “qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im deydi” maqolida mujassamlashtirgan[173].

Ko‘rinib turibdiki,maqollar nafaqat badiiy va publitsistik uslubda, balki ilmiy uslubda ham muallifning nutqiy niyati va kommunikativ maqsadini ifodalashning muhim usullaridan biri.

**S.N. Fazildinova – Fergana state university, teacher**
**Kh.A. Abdullayev – Fergana state university, student**

## PROBLEMS OF TRANSLATION FROM ENGLISH INTO UZBEK

“Writing my own novels has always required a huge effort of organization and imagination, but, sentence by sentence, translation is intellectually more taxing.”[174]

Translation is, etymologically, “carrying across" or “bringing across” (Latin- translatio). The modern European languages form their own equivalent terms for this concept after the Latin model— transferre or “to bring across” or “to lead across”. The Greek term for translation is “metaphrasis” which means “speaking across”. This word has supplied English with the word “metaphrase,” meaning a literal, or word-for-word, translation, as contrasted with “paraphrase” (a “saying in other words,” from the Greek paraphrasis). Translation is defined as passing meaning in writing from one language to another language. To put it technically, translation is turning a source language (SL) text in to the target language (TL) text. The main purpose in the translation is having correspondent meaning and rescuing the text from being changed in its definition. Even if the length of the sentence widens or gets short, it has to remain originality. Correspondence plays the first and foremost role in the process of translation in respect of communication and comprehension. Translation theorists have devised various procedures to deal with different types of texts in translation. In addition to word-for-word and sense-for-sense translations, translators may use a variety of procedures which differ according to the contextual aspects of both the ST and the TT. The present article sheds light on the most useful procedures of translation, focusing on the characteristics which distinguish their use.

The translator is one who renders a written text from one language into another language. The ancient Greek word for translator-interpreter is Hermêneus, directly related to the name of the god Hermes. The verb Hermêneuo means to interpret foreign tongues, translate, explain, expound, put into words, express, describe, and write about. The many further meanings of the Greek word for translator-interpreter (mediator, go-between, deal-broker, and marriage-broker) suggest that interpreters almost certainly had to exist during prehistory - the period before writing was even invented. In ancient times, ideas and insights used to be transferred from culture to culture primarily through travelers and tradesmen. Gradually, translation began to play, and continues to play, a key role in the development of world culture. For example, translation has played a major part in the movement of knowledge from Ancient Greece to Persia, from India to Arab nations and from Europe to China and Japan. There have been two great historical examples of how translation introduced one culture 5 to another. One is the translation of the Buddhist scriptures from various Indian languages into Chinese. The second is the translation of Greek philosophical and scientific works from Greek and Syriac into Arabic. “Translators have to prove to themselves as to others that they are in control of what they do; that they do not just translate well because they have a “flair” for translation, but rather because, like other professionals, they have made a conscious effort to understand various aspects of their work.” [175]

Troublesome coincidence in translation has several types such as lexical, phraseological and grammatical problems of translation. Due to these problems in the process, having the precise meaning in translation might have incompleteness and lack of correspondence. One of three problems occur in lexical as mentioned above, due to the semantic features of languages the meanings of the words, their usage,

[173] Ne`matov H. O‘zbek tili va adabiyoti /O‘zbek tilshunoslligida formal,structural va substansial yo‘nalishlar xususida.№42009.38-b
[174] Mona Baker, In other words: a course book on translation, 2005
[175] Mona Baker, In other words: a course book on translation, 2005

combination of it with other words. Words, their usage, ability to combine with other words, associations awakened by them, the “place” they hold in the lexical system of a language do not concur for the most part. All the same “ideas” expressed by words coincide in most cases, though the means of expression differ. As it is impossible to embrace all the cases of semantic differences between two languages, we shall restrict this course to the most typical features according to O.Musayev [176]. The principal types of lexical correspondences between two languages are as follows:

1. Complete correspondences.

11. Partial correspondences.

III. The absence of correspondences.

Complete correspondence of lexical units of two languages can rarely be found. As a rule they belong to the following lexical groups:

1) Proper names and geographical denominations; (Samarkand, surpa)

2) Scientific and technical terms (with the exception of terminological polysemy) (Antibody, operation, antibiotic);

3) The months and days of the week, numerals (January, February, September)

While translating the lexical units partial correspondences mostly occur. That happens when a word in the language of the original conforms to several equivalents in the language it is translated into.

Realiae are words denoting objects, phenomena and so on, which are typical of a people. In order to render correctly the designation of objects referred to in the original and image associated with them it is necessary to know the tenor of life epoch and specific features of the country depicted in the original work. These can be taken as an example: Dollars, Pounds, phalanx, marines. [177]

In the field of lexical correspondence, fully correspondent groups are proper names and geographical denominations: Britain –Britaniya, Moscow – Moskva, Tesla – Tesla, Tiktok - Tiktok, Mark Manson – Mark Menson, Hamburger – Gamburger, Hotdog – hotdog, Coffee – kofe, Restaurant – restoran, Café – kafe.

Scientific and technical terms: Microscope – Mikroskop, Display – Display, Monitor – Monitor, Operation system - Operatsion sistema, Morphology – morfologiya, Membrane – membrane, Angina – angina.

The months, days of the week, numerals: August – Avgust, Eleven - O‘n bir, Wednesday – Chorshanba, December – Dekabr, Sunday – Yakshanba, one hundred eighty seven – Bir yuz sakson yetti.

While translating lexical units partial correspondence frequently emerges. English language is wealthy of polysemantic words as Take:

Move: Edward took us to the zoo – Edvard bizni Zooparkga olib bordi;

Remove: Take your books off the table – Stol ustidan kitoblaringni ol;

Time: It took 4 hours to get to the Samarkand – Samarqanda borish uchun 4 soat vaqt ketdi;

Hold: Let me take your umbrella – keling soyaboningizni ushlab turaman;

Study: Gulshoda is taking German next month – Gulshoda kelgusi oyda Nemis tili o‘qishni boshlaydi;

Accept: I wasn’t joking; however he didn’t take me serious – Men hazillashmayotgan edim, ammo u meni jiddiy qabul qilmadi.

Some idioms or phrases cannot be always have the same words in meaning as an instance of A drop in the ocean – dengizdan tomchi, the word ocean changed to the word river in uzbek language. Although some of them have no equivalent in uzbek like “look like a million dollars” as this idiom is related to one nation because of the proper nouns used belong to the specific place “dollars” and as mentioned above first the complete conformities in this fields are followings:

Show up – ko‘rinmoq

Turns out – shunday bo‘lib chiqmoq

[176] Musayev O., Translation theory and practice English into Uzbek (Russian) for Fifth. Year Students of Specialized Pedagogical Higher Educational Institutions, «Ukituvchi» - 1989

[177] Musayev O., Translation theory and practice E*nglish into Uzbek (Russian) for Fifth. Year Students of Specialized Pedagogical Higher Educational Institutions,* «Ukituvchi» - 1989

**M.I. Ehsanova – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**

## BADIIY MATNDA FORS-TOJIKCHA OLINMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlar, shu jumladan, o‘zbeklar orasida bilingvizm hodisasi qadimdan mavjud. Bu xalq vakillari o‘z ona tilidan tashqari, o‘z tili uchun qardosh bo‘lmagan boshqa bir chet tilda ham gaplashishni ancha avvaldan odat qilganlar. Ikki til – o‘zbek va tojik tillarida gaplasha oluvchi aholi Movaraunnahr (Amudaryo va Sirdaryo o‘rtalarida) VI asrda va undan ilgari ham istiqomat qilgan[178].

Tilning estetik ta’sir qilish vazifasi til birliklarining semantik va ekspressiv xususiyatlari bilan yuzaga chiqadi. SHu jihatdan olib qaraganimizda, o‘zbek tiliga o‘zlashib bo‘lgan fors-tojikcha so‘zlar ham, o‘zbek tiliga o‘zlashib ulgurmagan, chet so‘z maqomidagi fors-tojikcha so‘zlar ham poetik vazifalarni bajarish uchun qo‘llanadi. Agar o‘zlashib bo‘lgan fors-tojikcha so‘zlar bilan chet so‘z maqomidagi fors-tojikcha so‘zlarning vopoetik xususiyatlarini taqqoslab ko‘radigan bo‘lsak, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tiliga o‘zlashib bo‘lmagan fors-tojikcha so‘zlar ijodkorlar tomonidan alohida diqqat-e’tibor, kommunikativ-poetik maqsad bilan badiiy nutqqa olib kiriladi. Jumladan, ushbu matn: *Birdan Ko‘sa maddohning ko‘zi biz tomonga tushib qoldi, shekilli: – Hoy qalandarlar, hoy* ***birodaroni oliy****, ana shu ikki beodob bachchalarni ma’rakadan olib chiqing, halol oshga tushgan pashsha bo‘lmay o‘lsinlar, – deb qoldi*. (G‘afur G‘ulom, Shum bola)da “birodaroni oliy” izofali birikmasi aniq g‘oyaviy-badiiy maqsadda qo‘llangan. Ushbu izofiy birikma ham, “qalandarlar” so‘zi ham bir xil grammatik vazifada kelgan. Biroq ularning ta’sir darajasi teng emas. “Birodaroni oliy” izofiy birikmasi yordamida ommaga murojaat ko‘tarinki ruhda, pafos bilan ifodalangan. Ommaga murojaatning odamlar har kuni eshitib yurgan so‘z bilan emas, kutilmagan izofiy birikma bilan yetkazilishi ifodaning original chiqishini ta’minlagan.

O‘zbekcha badiiy matnlarda fors-tojikcha o‘zlashmalarning so‘z shaklidagi, birikma shaklidagi, gap shaklidagi, matn shaklidagi ko‘rinishlari ishlatiladi. Zero, “O‘zlashmaning nutqda keng qo‘llanishi, ayniqsa kollektiv nutqda qo‘llanishi printsipial belgilardan biridir. So‘z kollektiv nutqda ishlatilmasa, kollektiv tomonidan tan olinmasa, u norma bo‘la olmaydi”.[179]

Kitobxon mazmunini yaxshi tushunmaydigan olinma, u so‘z, turg‘un ibora yoki jumla bo‘ladimi, baribir, poetik qimmat kasb etmasa yoxud o‘zbekcha tarjimasi berilmasa, kitobxonda estetik effekt hosil qilolmaydi, balki badiiy matnga shunchaki nutqni individuallashtirish, so‘zlovchining millatini ko‘rsatish maqsadida tatbiq qilingandek taassurot qoldiradi. Masalan, kuzating: *Asli tojik, o‘zi besh tilni biladigan Bo‘mbay shtatining gubernatori dengizchilar sharafiga bergan ziyofatda qatnashib, unga: “****Az zamini padaraton salomi garmu jo‘shon****!”, dedim va sohibjamol qizining taklifiga ko‘ra, u bilan qadah cho‘qishtirib koka-kola ichdim, raqsga tushdim.* (Erkin A’zam, Otoyining tug‘ilgan yili)

Badiiy matnga fors-tojikcha olinmalar kulgi uyg‘otish maqsadida qo‘llangan o‘rinlarda bunday birliklarning lingvopoetik vazifasi yanada aniq namoyon bo‘ladi. G‘afur G‘ulom o‘z uslubida arabcha yoki fors-tojikcha birliklarni eski hayotdan kulish maqsadida qo‘llab, alohida komik effektni yuzaga chiqaradi. Bu kabi birliklar qo‘llangan matnlar ortida istehzo yashiringanini sezmaslik mumkin emas: *Shundan keyin Ko‘sa maddoh* ***amri-ma’ruf, nahi-munkarga*** (*shariat masalalariga*) *o‘tdi:*

*– Erta bilan turib kavushni o‘ng oyoqdan kiyish kerakmi, chap oyoqdan kiyish kerakmi?* (G‘afur G‘ulom, Shum bola)

Qahramon nutqini fors-tojikcha olinmalar orqali individuallashtirish sof lingvistik yoki stilistik xususiyat hisoblanadi. Ana shu nutqiy holatlarda olinmaning stilistik xususiyatlaridan yuqoriroq bosqichda uning poetik xususiyati namoyon bo‘ladi.

Shunday olinmalar borki, ba’zan ularning nutqni individuallashtirish jihati ustunlik qiladi, ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bunday holatda olinma ayni vazifasi bilan badiiy matndagi poetik vazifasini to‘xtatadi.

Shunday olinmalar kuzatiladiki, nutqni individuallashtirish xususiyatidan ko‘ra, poetik qimmati, roli yetakchilik qiladi, ya’ni nutqni individuallashtirish vazifasining ustida yuzaga chiqadi. Ana shu vaziyatda

---

[178] Begmatov E. O‘zlashmalar / Mualliflar jamoasi. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1985. – B.81.
[179] Begmatov E. O‘zlashmalar / Mualliflar jamoasi. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1985. – B.84.

kitobxon yoki tinglovchida estetik ta’sirlanish, “poetik huzurlanish” paydo bo‘ladi. Bunga ijodkorning lisoniy mahorati bilan erishiladi.

Agar ijodkor til birliklarini, shu jumladan, fors-tojikcha olinmalarni maqsadga muvofiq qo‘llay olmasa, estetik effekt – poetik huzurlanish yuzaga chiqmaydi. Poetik huzurlanish paydo bo‘lishi uchun ijodkor lisoniy birliklarning kitobxonga yoki tinglovchiga tushunarlimi yoki yo‘qmi, shuni ham yaxshi anglashi kerak. Bordi-yu olinma kitobxonga tushunarli bo‘lmasa, yozuvchi uni izohlab ketish yo‘lini topish kerak.

**M.I. Ehsanova – Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi**

## BADIIY MATNDA RUSCHA OLINMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

O‘zbek tilidagi badiiy matnlarda ruscha olinmalarning qo‘llanishi eng ko‘p uchraydigan hodisa sanaladi. O‘zbek badiiy uslubining turli davrlarida yozuvchi-shoirlarning o‘z g‘oyaviy-badiiy niyatlarini amalga oshirishda ruscha olinmalardan juda unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa tillardagi olinmalardan farqli ravishda ruscha olinmalar grammatik jihatdan so‘z, so‘z birikmasi, jumla shaklida badiiy matnlar tarkibida keladi hamda ijodkorning kommunikativ-situativ maqsadini ifoda qiladi.

Rus tilidan olingan so‘zlarning badiiy matnlarda lingvopoetik imkoniyatlarini baholashda ularni ikki turini farqlab olishimiz kerak:

1. Hali adabiy tilga o‘zlashib ketmagan, ammo o‘zlashib ketishi mumkin bo‘lgan olinma so‘zlar.
2. Adabiy tilga o‘zlashmaydigan, jargon, argo va vulgarizm xarakteridagi olinma so‘zlar.

Birinchi tur olinma so‘zlar faqat badiiy uslubda emas, publitsistik, ilmiy uslublarda ham ishlatilishi mumkin. Chunki olinma so‘z tor soha termini bo‘lganligi sababli keng iste’molga kirmagan, faqat soha hujjatlarida ishlatilib kelinadi. Bu kabi olinma so‘zlar sifatida *kontent, kreativ, chellenj, neyming, kompetentsiya, heshteg* kabilarni keltirish o‘rinli.

Ikkinchi tur olinma so‘zlarning badiiy matndagi lingvopoetik imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular xilma-xil estetik effektlarga erishish maqsadida ko‘p qo‘llanadi.

O.S.Axmanovaning “Slovar lingvisticheskix terminov” asarida argo “aynan jargondir, faqat jargondan salbiy ma’nosi, kamsitish, masxaralash ma’nosi yo‘qligi bilan farq qiladi. San’atkorlik argosi. Harbiy argo. O‘g‘rilar argosi”dan iboratligi, ingliz tilidagi sleng terminiga tengligi qayd qilinadi[180]. D.E.Rozental va M.A.Telenkovalarning “Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov” manbasida quyidagicha izohlanadi: “Alohida guruh, to‘dalarning boshqalardan lisoniy ajralib turish maqsadida sun’iy yaratilgan tili (ba’zan maxfiy tili) bo‘lib, asosan o‘sha guruhga begona kishilar tushunmaydigan so‘zlari bilan farq qiladi. Talabalar argosi. Sport argosi. Qartabozlar argosi. O‘g‘rilar argosi”[181].

A.Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “**ARGO** (*fran*. argot – jargon). Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, o‘g‘rilar va b.) o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklardan iborat yasama tili. Mas., *kolxoz* – chiptasiz yo‘lovchilar (haydovchilar tilida)”[182]. O.S.Axmanovaning lug‘atida: “Argotizmlar. Adabiy til tarkibida stilistik kategoriya sifatida mavjud so‘zlar va nutq oborotlari”[183]. D.E.Rozental va M.A.Telenkovalarning lug‘atida: “U yoki bu argo tarkibiga kiradigan so‘z va iboralar. Argotizmlar stilistik maqsadlar bilan adabiy tilda ham qo‘llanilishi mumkin”[184]. A.Hojievning fikriga binoan esa: “ARGOTIZM *fran*. argotisme<argot – jargon). Biror argoga (q.) xos so‘z va iboralar. Argotizmlar adabiy tilda biror uslubiy maqsad bilan qo‘llanishi mumkin”[185].

Yana bir holat bor bo‘lib, bunda so‘zlovchi nutq madaniyati qoidalaridan ham, adabiy til me’yorlaridan ham xabardor bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham atayin nutqida jargon va argolarni ishlataveradi.

---

[180] Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: SE, 1969. – S.53.
[181] Rozental D.E., Telenkova M.A. Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov. – M.: Prosвещenie, 1976. – S.28-29.
[182] Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.17.
[183] Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: SE, 1969. – S.53.
[184] Rozental D.E., Telenkova M.A. Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov. – M.: Prosвещenie, 1976. – S.29.
[185] Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.17.

Masalan, quyidagi kontekstda o'g'ri va mahbuslar guruhiga xos "vishka" argotizmi alohida poetik-kommunikativ maqsadda nutqqa olib kirilgan: *– Ana senga "anglashilmovchilik!" Axir, bu statya bilan o'n besh yoki yigirma yil qamoq berishadi! Bordi-yu, tug'ilganingda qulog'ingga azon aytilmagan bo'lsa, "vishka" – o'lim jazosi tayinlanadi-ku! Kechagina og'zidan Olloh nomini qo'ymagan bu odamning to'satdan pixi qayrilgan jinoyatchi shevasida so'zlashi qiziq edi.* (Alisher Ibodinov, "Latofat" do'konidagi qatl")

Xuddi argotizmlar singari jargonizmlar ham lingvopoetik vazifa bajaradi. Jargonizmlar, argotizmlardan farqli ravishda, jumla mazmuniga balandparvoz uslubni qo'shadi. Kuzating:

*– Sizni Novqatdan deb aytdilar.* ***Padari buzurgvor****ingizning ismlari Jalolliddin ekan, shundaymi?*

*– Haq gap, taqsir.* (Tohir Malik. Devona).

*Eski rais bosh irg'adi.*

*– Azachilik, Bo'ri polvon, azachilik, – dedi. – Shu,* ***volidai muhtarama****mizni yo'qlab kelib edik...* (Tog'ay Murod, Tanlangan asarlar)

Xulosa shuki, til birliklarini qahramon xarakteriga mos qilib tanlanishi shu kontekstni o'qiyotgan o'quvchida lingpoetik tuyg'uni hosil qiladi. O'z navbatida, qahramon xarakterining tabiiy chiqishiga xizmat qiladi.

**N.V. Raxmatova - Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti**

## "OTA" KONSEPTIGA XOS BELGI BILDIRUVCHI SO'ZLAR

Hozirgi ilm-fan, texnika rivojlangan davrda tilshunoslik sohasida ham juda ko'p tadqiqotlar olib borilmoqda. Mana shunday tadqiqotlar mahsuli sifatida konsept muammosini olishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, lingvistik adabiyotlarda konsept terminiga turlicha ta'riflar beriladi. Oxirgi o'n yillik ichida filologiya fanida konsept eng faol qo'llanuvchi terminga aylandi. Konsept nafaqat tilshunoslik, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik fanlarida ham qo'llanadi, biroq konsept termini hozirgacha aniq bir ta'rifga ega emas va turli sohalarda turlicha ta'riflanadi. Tilshunoslikda birinchilardan bo'lib, konseptni o'rgangan olimlardan biri S.A.Askoldovdir. U konseptga potensial, dinamik struktura sifatida baho beradi. Uning fikricha, konseptning eng muhim funksiyalaridan biri o'rinbosarlik funksiyasidir. Konsept real predmetlar bilan birgalikda shu predmetning ba'zi tomonlari yoki real haqiqatning o'rnini bosishi mumkin.[186] Y.S.Stepanov esa o'zining rus tili madaniyatiga oid asarida konseptga quyidagicha sharh beradi: "Konsept – bu insonning madaniy bilish tushunchasi bo'lib, mantiqiy maqomga ega", deya ta'kidlaydi[187]. Konsept inson ongida mavhum ma'no bo'lib vujudga keladi, borliqqa bo'lgan konseptual qarashni shakllantiradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bir xil konseptlar turli madaniyatlarda har xil tarixiy, milliy mental, moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanish bosqichlari izlarini o'zida saqlab qoladi. Turlicha madaniyatlarning o'zaro aloqadorligida milliy konseptlarning munosabati ham namoyon bo'ladi. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "ota" konsepti ham turli xalqlarda turlicha ma'no-mazmun kasb etadi. Shu bilan birga mavqei, unga bo'lgan munosabat jihatidan ham "ota" konsepti xalqlar o'rtasida farq qiladi. Bu badiiy asarlarda ham o'zining yaqqol aksini topgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida otaga bo'lgan o'zbekona hurmat, izzat aks ettirilgan. Masalan, Yusufbek hojining o'g'li Otabekka qarata yozgan maktubidan parchada otalarga xos belgilar quyidagicha ifodalanadi:

*„Huvalboriy…ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o'g'limiz mulla Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim, alhamdulilloh" biz* ***duogo'y*** *padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do'stlaringiz munda Xaq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo'lib ko'z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz"*[188].

[186] Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста.Москва: Академия, 1997. – С.267.
[187] Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С.40
[188] A. Qodiriy, O'tkan kunlar, Toshkent: "Sharq", 2012. – 34-36 b.

Maktubning yakunida ham yuqoridagi **duogo‘y** leksemasiga sinonim tarzda quyidagi **addoi**, ya’ni **duo qiluvchi** sifati keltirilgan:

*„Munda barcha yor-u do‘st salomat, mendan Hasanaliga salom ayt!* ***Addoi*** *otang Yusufbek hoji“.*

Duogo‘ylik sifati, ayniqsa, o‘zbek otasiga xos xususiyat hisoblanadi. Bundan tashqari quyidagi parchada ham ota konseptining mana shu xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*“Ota tovushidagi titroq qizni to‘xtatdi.*

*- Qayda bo‘lsang ham boshing omon bo‘lsin, - dedi u ”*[189].

Shu bilan birga **nasihatgo‘y** leksemasi ham ota konseptiga xos sifat hisoblanadi:

*“ – Mening bu gaplarimni sen ham esda tutgil. Bobur mirzo sendan faqat ikki yosh katta bo‘lsa ham, agar mening o‘rnimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo‘lg‘il”*[190].

Yuqoridagi “Yulduzli tunlar” romanidan keltirilgan parchada Umarshayx mirzo tilidan o‘g‘li Jahongir mirzoga qarata aytilgan nasihati aks ettirilgan bo‘lib, bu xususiyat o‘zbek otalarining barchasiga xos.

Quyidagi maqolda ham ota konsepti quyidagicha sifat so‘z turkumi bilan qo‘llanadi:

*“Men aziz, otam mendan* ***aziz*** *”.*

Yuqoridagi kabi frazeologik va paremiologik birliklardan quyidagisida ham ota konsepti presuppozitsiya asosida sifatlangan, ya’ni

*“Ustoz otangday* ***ulug‘*** *”.*

Ushbu paremiologik birlikda bir qarashda ustozga ulug‘ deb ta’rif berilgan, lekin undan otaning ham ulug‘ ekanligi semasi anglashilyapti. Bu sema esa ota leksemasiga -day o‘xshatish-qiyoslash affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ota konsepti o‘zbek badiiy adabiyoti va frazeologik qatlamida, asosan, ijobiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan sifatlar bilan keltiriladi.

**M. Isroilov - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi, kafedra mudiri**
**X. Yusupova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Jamiyatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yoshlar asosiy o‘rin tutadi. Siyosat, ma’naviyat yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Ayni paytda, yoshlar ham siyosatga faol ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning siyosiy tizimida yoshlarning tutgan o‘rni, mavqeining qanday darajada bo‘lishi ular ruhiyatiga ma’naviyatining shakllanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir qilishi mumkin. Yoshlar hayotida sodir bo‘layotgan har bir o‘zgarish ularning insoniy fazilatlarining shakllanishiga komil inson bo‘lib etishishiga ta’sir qiladi. Yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Zero, *milliy qadriyatlar* millatining tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmush, yashash tarzi, o‘tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, u yashayotgan hudud bilan uzviy bog‘langan.

Inson qadri va umuman *shaxsiy qadriyatlar* odam zotining xususiyatlari bilan bog‘liq:

- insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar;
- mehnati va turmushi bilan bog‘liq qadriyatlar;
- individual kamoloti va ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq qadriyatlar;
- qobiliyati va iste’dodi bilan bog‘liq intellektual qadriyatlar
- his-hayajoni, tuyg‘ulari bilan bog‘liq “emotsional” qadriyatlar.

Shunday qilib, mustaqillik yaratib bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar asosida, umumbashariy qadriyatlar negizida yuksalib borayotgan ma’naviyatimiz va ma’rifatimiz O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda, dunyoqarashi va e’tiqodini shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida xalqimizning azaliy va abadiy qadriyatlari, betakror milliy

---

[189] Said Ahmad, Tanlangan asarlar, Toshkent: “Sharq”, 2010. – 294 b.
[190] Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar, Toshkent: “Sharq”, 2004. – 28 b.

urf-odatlari va an’analarini, o‘ziga xos odob-ahloqni tiklash, qaror toptirish hamda ularni zamonaviy mazmun-mohiyat bilan boyitish va takomillashtirish uchun ko‘plab ilmiy-amaliy ishlar qilindi. Mamlakat istiqboli va millatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, ularning intellektual imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalarining amaliy faoliyati ham e’tiborga sazovordir. Jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning ulkan ma’naviy meroslarini yangidan ijodiy o‘zlashtirilishining boshlanganligi mustaqil O‘zbekistonning eng yorqin yutuqlari qatoridan joy oladi, albatta. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Baxoviddin Naqshband, al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarimiz ilmiy-abadiy merosining yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati ulkandir. Yoshlar siyosatini amalga oshirishda ma’naviy - ma’rifiy omillarning o‘ziga xos ahamiyatini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunda qadriyatlar muhim o‘rin tutishini alohida ta’kidlash kerak.

Qadriyatlarning yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni haqida qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak, ular quyidagilardan iborat, deb hisoblaymiz. Avvalo, qadriyatlar jamiyatimiz boyligi, poydevori bo‘lib u o‘tmish bilan bugungi kun va kelajakni bog‘laydigan vositadir. Ikkinchidan, qadriyatlar ma’naviy etuk, barkamol yoshlarni tarbiyalaydigan qudratli kuchdir. Shu bilan birgalikda qadriyatlar jamiyatimizni jahon hamjamiyatiga qo‘shuvchi ishonchli vosita hamdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda dolzarb hisoblangan mazkur vazifani bajarishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- birinchidan, barcha bo‘g‘indagi ijtimoiy institut va ta’lim muassasalarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi usul va vositalarini qo‘llash chora-tadbirlarini izlab topish lozim;

- ikkinchidan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda sifat bosqichiga o‘tilgani munosabati bilan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy va madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlariga, umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl-vositalar ishlab chiqilib, amaliy faoliyatga joriy etish lozim.

Hozirgi paytda yoshlarning bo‘sh vaqtni qanday tashkil etishi, undan qanday tarzda unumli foydalanishi ham mazkur hamkorlik tizimi oldida turgan eng muhim muammolardandir. Bo‘sh vaqt – falsafiy tushuncha sifatida teran ma’no-mazmunga ega. Ya’ni bo‘sh vaqtdan o‘z ma’naviy ehtiyojlarini qanday qilib va qay darajada qondirishiga qarab o‘smir yoshidagi bolalar, yigit va qizlarning ma’naviy kamolotga intilish darajasini belgilasa bo‘ladi. Albatta, bu masalada ham ota-onaning o‘z farzandiga shaxsiy namuna maqomida bo‘lishini unutmaslik lozim.

Xulosa qilib aytganda jamiyatda milliy qadriyatlarning shakllanishi sog‘lom ma’naviy muhitning shakllanishiga va psixologik salomatlikning yuksalishiga sabab bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Modomiki Vatanimizning kelajagi avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liq ekan, ularning faoliyatiga dahldor barcha masalalar va muammolar biz uchun doimo eng dolzarb ma’naviy masala bo‘lib qolaveradi.

**З.Т. Холматова - Ферганский государственный университет, старший преподователь,**
**Н.А. Хакимова - Ферганский государственный университет, студент**

## ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ

Правительства Республики Узбекистан в условиях глобализации мира берет курс повышения на качественно новый уровень работы по дальнейшему укреплению царящей в стране атмосферы взаимного уважения, доброты и милосердия, согласия и сплоченности, ограждению молодежи от чуждого менталитета и духовности узбекского народа деструктивных идей и течений, негативного влияния «массовой культуры», усилению с этой целью просветительской работы в семьях и махаллях страны.

Категория «гендер» (от англ. - род, пол) отражает особенности взаимодействия мужчин и женщин как социально организованных групп в отличие от биологической (sex) детерминанты их социализации. В определении понятия «пол», мы разделяем позицию авторов сборника «Начала

физиологии», под редакцией А.Д, Ноздрачева и берем за основу следующее определение: ***пол*** - *совокупность морфологических и физиологических особенностей организма, обеспечивающих половое размножение.*

Таким образом, можно заключить, что гендер состоит их двух половин: пола биологического и пола социокультурного, в неразрывном единстве и можно дать следующее определение: ***гендер*** - *система социокультурных половых отношений, возникающих у мужчин и женщин в результате их общения между собой и с внешним миром и проявляющихся во всех сферах жизни человека и общества.*

В психологическом словаре, под редакцией А,В. Петровского и М.Г.Ярошевского отмечается, что для обозначения культурно-символического смысла «женского» и «мужского» используют термины «фемининный» и «маскулинный», которые обозначают нормативные представления о соматических, психических и поведенческих свойствах, характерных для мужчин и женщин.

***Маскулинность*** (лат. тазсишшз - мужской) - *набор личностных и поведенческих черт, соответствующих стереотипу «настоящего мужчины»: мужественность, уверенность в себе, властность и т.д.*

***Фемининность*** (лат, Гепппа - женщина) - *набор личностных и поведенческих черт, соответствующих стереотипу «настоящей женщины»: мягкость, заботливость, неленость, слабость, беззащитность и т.д.*

Что понятие «маскулинность» подчеркивает иерархический, с господствующим мужским положением, принцип организации социума, Это понятие, хотя и имеет связь с «патриархатным», но не обладает его историческим фоном. Нередко встречается и слово мачизм. В современном дискурсе оно обозначает не только половую принадлежность, но также артикулирует все дополнительные определения, корреспондирующие с ним и считающиеся мужскими: агрессивность, наступательность, жесткость, мощность, крепость, грубость, сила (ассоциирующаяся с развитой мускулатурой), энергичность, демонстрация волевого компонента, сексуальная мощь.

И.С.Кон в определении понятий маскулинность и фемининность показывает многомерность данных понятий, выделяя их три значения:

*1.Фемининность (маскулинность) как дескриптивная, описательная категория* обозначает совокупность поведенческих и психических черт, свойств и особенностей, объективно присущих женщинам (мужчинам) в отличие от мужчин (женщин).

*2.Фемининность (маскулинность) как аскриптивная категория* обозначает один из элементов символической культуры общества, совокупность социальных представлений, установок и верований о том, чем является женщина (мужчина), какие качества ей (ему) приписываются.

*3.Фемининность (маскулинность) как прескриптивная категория* - это система предписаний, имеющих в виду не среднестатистическую, а идеальную «настоящую» женщину (идеального «настоящего» мужчину), это нормативный эталон женственности (мужественности).

Введение в педагогику понятий: «маскулинность», «фемининность», «гипермаскулинность», «гиперфемининность», «андрогинность» позволяет определить особенности гендерного поведения обучаемых, выделив пять основных моделей гендерного поведения: 1) маскулинная модель поведения, 2) фемининная модель поведения, 3) гипермаскулинная модель поведения, 4) гиперфемининная модель поведения, 5) андрогинная модель поведения с помощью диагностических методик, приведенных в приложении. Диагностика типичной тендерной модели поведения учащегося позволяет педагогу лучше изучить личностные и индивидуальные качества ученика, его женское или мужское своеобразие и организовать продуктивное взаимодействие с ним в учебно- воспитательном процессе.

Другим фактором национальной культуры в условиях независимости является повышению политической активности женщин, расширению их участия в выборных представительных и других ветвей государственной власти. Приоритетом национальной культуры стали охрана здоровья женщин, формированию здоровой семьи, содействию развитию женского и семейного спорта, пропаганде здорового образа жизни. Немаловажным, как нам думается, внимание на воспитание девочек, особенно сельской местности, чтобы в будущем они смогли занять достойное место общественной жизни.

**Д.М. Холикова - Ферганский государственный университет, преподаватель,**
**Д.Т. Гофурова - Ферганский государственный университет, студент**

# ГЕНДЕРНОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ

Прежде в общественном сознании не было понятия «гендер». Было деление людей на два пола - мальчики и девочки, мужчины и женщины. И это разделение существовало всегда. И лишь появление совместного обучения, и то не сразу, внесло смятение в умы педагогов - чем отличается или должно отличаться воспитание и обучение мальчиков от девочек?

За появлением социальной роли и осознанием ее значения в научном мышлении скрывались сложные процессы, определяющие отношение людей к миру и друг к другу. Поведение человека, выступавшее как социальная роль, означало, что, казалось бы, естественное состояние человека, способного изготавливать все необходимые вещи, «умельца-универсала», делавшего все для себя и семьи, сменялось более определенным, отвечавшим складывающемуся разделению общественного труда.

Социальная роль означала выделение занятий, которые человек выполнял лучше других - обкалывать камни, изготавливать стрелы, тачать сапоги, шить платье и т.д. Но социальная роль не могла появиться в однородной социальной среде - ей обязательно предшествовали иные роли: землепашцу предстояли скотоводы, охотники, рыболовы, кузнецы, плотники, мельники, печники, - умельцы-специалисты.

Феминизм, как возвращение воспоминания о матриархате, когда женщина играла главенствующую роль в семье и обществе, был тем фитилем, который озарил понятие гендера. Он означал выход женщин из семейной жизни на арену общественной деятельности со всем разнообразием занятий, свойственных общественной жизни.

Но постепенно выяснилось, что главное - не пол, а та роль, которую выполняет человек, те социальные функции, задачи, цели, которые он на себя берет, то есть осознает и выполняет, неважно, какого он пола. Профессия, занятие не имеет пола. Соответственно изменилось отношение к полу: «Женщиной не рождаются, женщиной становятся», - провозглашала Симона де Бовуар, французская писательница, философ, идеолог феминистского движения.

**Так пришли к понятию гендера**. Гендер - социальный пол индивида, в отличие от биологического понимания пола как совокупности морфологических и физиологических особенностей. Не биологический пол, а социокультурные нормы определяют, в конечном счете, психологические качества, модели поведения, виды деятельности, профессии женщин и мужчин. Быть в обществе мужчиной или женщиной означает не просто обладать теми или иными анатомическими особенностями, - это означает выполнять те или иные предписанные им гендерные роли, связанные с положением в обществе.

**Половое развитие дошкольников.** Половая идентификация (самоопределение) человека может длиться едва ли не всю жизнь. Она может меняться в периоды возрастных или жизненных кризисов. Либидо может усиливаться, угасать или менять свою направленность. Особенно важным для формирования половой идентичности является период раннего детства.

**Гендерное воспитание дошкольников.** Проблему гендерного воспитания породила практика совместного воспитания и обучения, существующая с начала XX в. и поныне в отечественном образовании, прерывавшаяся только в годы отечественной войны, а ныне существующая разве что в военных кадетских и частных образовательных учреждениях. С одной стороны, исторически воспитание детей, особенно в многосемейных, патриархальных семьях способствовало совместному обучению, а с другой - известные со времен Квинтиллиана (I в.н.э.) недостатки общественного воспитания вынуждали искать иные формы обучения.

Фрейд считал познавательные интересы производными от сексуального влечения: «Когда сексуальная жизнь ребенка достигает своего первого расцвета, от 3-го до 5-го года, у него появляются также зачатки той деятельности, которой приписывают стремление к познанию или исследованию. Влечение к познанию не может быть причислено к элементарным компонентам влечений, но подчинено исключительно сексуальности. Его деятельность соответствует

сублимированному способу овладевания, с другой стороны, оно работает на основе энергии влечения к подглядыванию».

Таким образом, мнения преподавателей расходятся. Одни выступают против, аргументируя это тем, что детям дошкольного возраста необходимо разнополое окружение и общение с противоположным полом. Другие считают, что за последнее время роли мужчин и женщин сильно смешались (мужчины перенимают женские черты, и наоборот, что не всегда приводит к хорошим результатам), поэтому желательно уделять внимание специфичным чертам ребенка. Третьи мыслят стереотипно, рассматривая возможность раздельного обучения только в религиозных семьях. В смешанных детских садах большинство воспитателей используют основные подходы, применяемые как для мальчиков, так и для девочек, но среди них есть и те, кто проводит занятия и игры в соответствии с интересами, способностями и гендерными особенностями детей.

**Y. Qipchaqova - Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi,**
**I. Mirzaolimova, U.Xalilova - Farg'ona davlat universiteti, talaba**

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTEGRATIV FAOLIYATNING LOYIHALI KOMPONENTI

Yuqori kasb-hunar maktabi tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ijtimoiy buyurtma talablarining kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim yondashuvlarini qayta qurish, birinchi navbatda, yangi turdagi faol va faol shaklni shakllantirish istagi bilan tavsiflanadi. zamonaviy integratsiya jarayonlarida ishlab chiqarish va ta'lim loyihalarini amalga oshirishga tayyor ijodiy shaxs.

Ta'limdagi integratsiya - bu pedagogik tizim tarkibidagi tarkibiy tarkibiy qismlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish jarayoni bo'lib, uning maqsadi ilgari tarqoqlikni birlashtirgan, shaxsning rivojlanishi va o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan dunyoga yaxlit qarashni shakllantirishdir. qismlarni bir butunga aylantirmoq.

Zamonaviy kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining integral mazmuni uning tarkibiy qismlari - asosiy faoliyat turlari bilan ifodalanishi mumkin: pedagogik, loyihaviy, uslubiy, tashkiliy va boshqaruv, madaniy-ma'rifiy, tadqiqot, qo'llab-quvvatlash. Bizni ko'proq kasb-hunar ta'limi o'qituvchisining integratsion faoliyatining loyiha komponenti qiziqtiradi, bu bizning e'tiborimizni bevosita kelajakdagi kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv jarayoniga yo'naltiradi.

"Kasb-hunar ta'limi" kadrlar tayyorlash yo'nalishining amaldagi ta'lim dasturlarini tahlil qilish natijasida biz aniqladikki, soha uchun modul, professional yo'naltirilgan fanlarni birlashtirgan holda, o'z mazmunida qisman integratsiyalashgan faoliyatni loyihalashni nazarda tutadi. kelajakdagi kasb-hunar ta'limi o'qituvchisi kurs loyihalari, bitiruv loyihalari kabi o'quv topshiriqlarining rejalashtirilgan turlari orqali. Umumiy madaniy fanlar bo'yicha modul fanlarida bunday o'quv vazifalari ko'zda tutilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz kasbiy tayyorgarlik o'qituvchisining ijodiy ta'lim vazifalaridan foydalanish orqali integratsion faoliyatining proektiv tarkibiy qismining mazmun jihatini ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

Har qanday ta'lim vazifasini hal qilish uchun talabalar turli xil aqliy harakatlardan foydalanadilar, buning natijasida o'quv materialini o'zlashtirish, malakalar va ijodiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish sodir bo'ladi.

E'tibor bering, kasb-hunar ta'limi sohasidagi zamonaviy o'quv loyihasi tadqiqot va eksperiment imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan va bu mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etishning o'qituvchi va shu bilan birga nazorat qiluvchi shakli hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, o'quvchilarni ta'lim loyihalariga bevosita jalb qilishdan oldin o'qituvchining loyihadan oldingi jiddiy ishi bo'lib, u bilim darajasi, tajribasiga qarab diagnostika vositalarini optimal tanlash va ulardan foydalanishni izlashi kerak.

Shu munosabat bilan "Texnologiya va kiyim-kechak dizayni" yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash uchun o'quv dasturining kasbiy yo'naltirilgan va maxsus-pedagogik fanlar modullarida o'quv vazifalari-loyihalar mazmuni e'tiborga olinadi va o'zaro faoliyat mavzusi bilan belgilanadi. Bu talaba uchun barcha fanlarning mazmunini o'rganishga imkon beradi, shu bilan birga butun o'quv jarayonida asosiy mavzuni saqlab qoladi, ijodiy o'quv loyihalarining mavzularini tanlaydi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, kelajakdagi kasb-hunar ta'limi oʻqituvchisining integratsion faoliyatining proektiv tarkibiy qismi quyidagi vazifalarning echimini aks ettirishi kerak:

1. Loyiha faoliyatining uslublari va tuzilmalarini oʻqitish.
2. Nazariy qoidalarni, toifalarni, printsiplarni aniq loyiha muammolarini hal qilish uchun muammoli vaziyatlarga oʻtkazishni oʻrganish.
3. Kasbiy tadqiqot qobiliyatlarini shakllantirish.
4. Tizimli fikrlashni rivojlantirish.
5. Psixologik-pedagogik, badiiy-ijodiy va fundamental texnik bilimlar asosida intuitiv va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Loyihaning oldiga qoʻyilgan maqsadni hal qilishda talaba integratsiyalashuv faoliyatida avval olgan barcha bilim va koʻnikmalaridan foydalanadi, oʻzining amaliy tajribasini qoʻllaydi, muammoli vaziyatni hal qilishning eng yaxshi usullari, usullari va usullarini izlaydi, raqamlarni taqqoslaydi , tadqiqot davomida olingan grafikalar va bularning barchasi fikrlash kursi va dizayn koʻnikmalarining mantiqiy konstruktsiyasini toʻgʻridan-toʻgʻri kiritish bilan va aslida dizayn fikrlash. Uslubiy asoslarni aniqlab, talaba oʻzi uchun mumkin boʻlgan harakatlar va ularning oqibatlarining mazmun-semantik doirasini ochib beradi.

Xulosa. Shunday qilib, biz taqdim etgan ijodiy oʻquv topshiriq-loyihasini qoʻllash metodologiyasiga yondashuv, bizning fikrimizcha, kelajakdagi kasb-hunar ta'limi oʻqituvchisining deyarli barcha shaxsiy tuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan. shu jumladan loyihani oʻylash. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi oʻqituvchisining integratsion faoliyatining tarkibiy mazmuni ijodiy oʻquv vazifalari-loyihalarini amalga oshirish natijasida loyiha faoliyatini amalga oshirish orqali ifodalanishi mumkin. Kelgusi kasb-hunar ta'limi oʻqituvchisining integratsion faoliyatining proektiv tarkibiy qismi tarkibidagi sifat tarkibidagi innovatsion yondashuvlarni aniqlash yoʻnalishida keyingi tadqiqotlar davom ettiriladi.

**X. Qosimova - Fargʻona davlat universiteti, oʻqituvchi**
**S. Abduraxmonova - Fargʻona davlat universiteti, talaba**

## YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHALLANTIRISHNING AHAMIYATI

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor berilib, koʻplab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirsh, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida"gi farmoyishi, 2017-yil 13-sentyabrdagi "kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida"gi va 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng oʻrganish va targʻib qilish maqsadida yoshlar oʻrtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish toʻgʻrisida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga boʻlgan munosabatning ijobiy tomonga oʻzgarishiga zamin yaratdi.[191]

Kitob – umr yoʻllarini yorituvchi soʻnmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh boʻluvchi sodiq doʻst. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yoʻq. Shu bois azal-azaldan ma’rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob oʻqishga, undan ilmu- odob sirlarini oʻrganishga chorlab kelishgan. Bugungi kunda koʻpincha bolalar kitob oʻqimayotganlikda ayblanadilar. Lekin ularga rang-barang adabiyotlar tavsiya qilish zarurligi ota-onalar, oʻqituvchilar, kutubxonachilarning ham ba’zi vaqtda e’tiboridan chetda qolmoqda. Buning uchun oʻqituvchilardan oʻquvchilarning kitoblarga boʻlgan qiziqishlari, ehtiyojlarini

[191] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida”gi (2017 yil 13 sentyabrъ) Qarori //lex.uz/docs/3338600.
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida”gi Farmoyishi // ‘ttp://uza.uz/oz/documents/kitob-masulotlarini-chop-etish-va-tar-atish-tizimini-rivoz’-12-01-2017.

yaxshi bilishilari talab etiladi. O‘quvchilar kitob o‘qimasligining sabablardan biri oilada ota-ona, maktabda o‘qituvchi tomonidan kitobga mehr uyg‘ota olmaslik yoki o‘qiydigan, qiziqarli badiiy kitoblar yetishmasligidadir. O‘quvchilarning kitob o‘qish va kitobxonlikka nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishlarida, yuqorida aytilganidek, bu jarayonni tashkiliy, moddiy ta’minotini yaratuvchi nashriyotlar, nazariy-pedagogik va amaliy-metodik jihatdan oqilona, samarali uyushtira olmayotgan ota-onalar, o‘qituvchilar hamda soha uchun mas’ul ijtimoiy tashkilotlarning javobgarligini inkor qilib bo‘lmaydi.

Binobarin, ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini takomillashtirish bilan bog‘liqdir. Demak bugungi kunda yoshlarning yo‘lida g‘ov-to‘siq barcha illatlarga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li-bilim va ma’rifatdir. Shuning uchun mamlakatimizda ta’lim sifatini yaxshilashga, yoshlarni ma’naviy – ma’rifiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda. Demak yomondan yaxshini, zarardan foydani yanada ko‘proq farqlay olish uchun tinimsiz o‘qish, o‘z bilimini muttasil oshirib borish zarur. Bunda oilaning o‘rni va ta’siri muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladigan pedagogik-psixologik jarayon ma’lum talablar asosida tashkil etilishi zarur. Xususan: o‘quvchilarda badiiy adabiyotni idrok qilish va anglash qobiliyatini rivojlantirishga erishish; bu jarayonda o‘quvchilarning intellektual, bilish va hissiy faoliyati yotishini nazarda tutish; mazkur jarayonning muayyan bosqichlardan iboratligini inobatga olish asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish; badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonining ovoz chiqarib o‘qishga asoslanishi samarali ekanligini inobatga olish; yorqin ranglar, e’tiborni tortadigan obrazlar bilan boyitilgan bolalarga mo‘ljallangan, yuqori sifatli poligrafiya mahsuloti bo‘lgan badiiy asarlarni tanlash; badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida o‘quvchilarning tasavvur dunyosini boyitish, orzularini erkin bayon qilishlari uchun zarur imkoniyatni yaratish; o‘quvchilarni turli janrdagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirib borish; bunda uyda ota-onalar o‘quv yurtlarida o‘qituvchlar tomonidan o‘quvchilarga badiiy asarlarning janrlari – proza (hikoya, qissa, ertak-roman), poeziya (she’r, ballada, qasida), dramaturgiya (spektakl, novella, miniatyura, radio instsenirovka) kabilar haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tiladi; shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni fol’klor asarlar (xalq og‘zaki ijodi namunalari) va ular (xalq ertaklari, topishmoq, maqol, masal, hisobga o‘rgatuvchi va hazil she’rlar)dan ham tanishtirib borishi ularni badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarini kuchaytirishga yordam beradi; shuningdek, manbalarda bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishishda zamonaviy axborot texnologiyalarning texnik va funktsional imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda bolalarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotlarning audio va video mahsulotlarini yaratish “bolaning kitob bilan muloqotini yaxshilash va rang-barang bo‘lishi”ga erishish imkoniyatini yaratishi aytiladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda pedagog oila hamkorligini ijobiy yo‘lga qo‘yishi lozim. Oila esa maktab o‘qituvchilari bilan doimo bog‘lanib farzandlari uchun qanday kitoblarni xarid qilinishiga maslaxatlar oladi.

**X. Qosimova - Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi**
**I. Xursanaliyev - Farg‘ona davlat universiteti, talaba**

## KITOBXONLIK MADANIYATI

Ma’lumki, bugungi kunda yoshlarni intellektual-ma’naviy darajasining o‘sishida o‘quv materiallaridan tashqari kitobxonlik madaniyatining asosiy mezon ekanligi jamiyatimizda ijtimoiy zarurat sifatida qaralmoqda. Har qanday ish-harakat, faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko‘p kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo‘lishi samarali sanaladi. O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomli, izchil bo‘lishi muhimdir.

Tarixdan bizga ma’lumki, buyuk mutafakkirlarimiz tarbiyasi juda erta, ya’ni 3-4 yoshdan boshlangan, kitob mutolaa qilishga, enagalar tanlangan bular yordamida ertaklar, dostonlar, qissalar, rivoyatlar, hikmatli so‘zlarni tinglashga, kitob bilan do‘stlashishga ahamiyat berganlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak buyuk allomalarimiz ham olim, ham shoir, ham san’atkor, ham ijodkor, bir so‘z bilan aytganda har tomonlama yetuk bilimli va komil inson bo‘lib tarbiyalanganlar. Bunday an’ana esa keyinchalik musulmon olamida

Qur’on va hadislarning talablari asosida ta’limiy-axloqiy asarlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan va bu talablar asosida oilalarda kitobxonlik ham keng tarqala boshladi.

Raqobat shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar o‘qigan joyda o‘qish bolalar uchun eng sevimli mashg‘ulotga aylanadi, farzadlarning intellektual rivojlanishi va tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar sezilarli darajada kamayadi. Kitob pedagogik vazifalarni o‘z zimmasiga oladi.

O‘quvchilarning intellektual salohiyatlarini to‘laqonli shakllantirish uchun pedagoglar va ota - onalar quyidagilarga e’tibor berishlari zarur: Taraqqiyot va uning muhim omili bo‘lgan intellektual salohiyat va qobiliyat, eng avvalo, sog‘lom avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi.

Intellektual salohiyat deganda, aql, ong, matonat, idrokning ma’rifat, ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unligi tushuniladi. Shunday ekan maktab va oilada qadriyatlarning ustuvorligiga e’tibor berish zarur. Bularni hammasini pedagogik adabiyotlardan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlar asosida amalga oshirish mumkin.

Yurtimizda va nufuzli davlatlarda o‘tkazilayotgan ko‘rgazma, olimpiada, ko‘rik-tanlov, festivallarda o‘quvchi-yoshlarning ishtirokini ta’minlash va ishtirokchilarni qullab-quvvatlash bugungi kunni asosiy talablaridandir.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni kamol toptirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, belgilangan vazifalarni amalda ro‘yobga chiqarish uchun iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish, ularni turli to‘garaklar, o‘quv kurslari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda doimiy qatnashishlarini ta’minlash lozim.

Ota-onalar uchun tavsiyalar va maslahatlar:

1.Farzand oilada dunyoga keladi shunday ekan ota va onaning ilmligi farzandini tarbiyali bulib ta’lim olishiga juda katta foydasi bor. Shuning uchun avvalo ota-onalarga kitobxonlik haqida muhim maslahatlar berish lozim.

2.Farzandlarni kuproq kitob o‘qib turishi ota-onaning e’tiboriga kursatmasiga bog‘liq.

3.Ota-ona oilasiga kitob olib kelib farzandlar bilan mutolaa qilsa kitobdagi qaxramonlarga shaxsiy fikr bildirib izoxlasa oilada hamfikrlik vujudga keladi.

4.Oilada ota-ona farzandlarini kitobga bulgan qiziqishi orqali ularni orzu-niyatlari nimaga qiziqishi va xarakterlarini ham yaqindan bilib boradilar.

5.Ota-onalar o‘quv yurtlariga tez-tez borib turishlari kutubxonachi va ustozlar bilan suxbatlashib yangiliklardan xabardor bulib turishlari kerak.

Oilalarda kitobxonlikka bo‘lgan e’tiborni shakllantirish hozirgi davrning eng dolzarb mavzusi bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy talablarga hamohangdir.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda pedagogik-psixologik tomonlarini tadqiq qilishda shunday xulosaga keldik, shaxsning qiziqishlari iqtidori dars jarayonida inobatga olinsa, ularga individual yondashilsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarga, fan to‘garaklariga jalb qilinsa, ko‘rik-tanlov, sayohatlar tez-tez uyushtirilsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng miqyosda foydalanilsa, shuningdek, ta’lim turlarini qamrab oluvchi tizim bo‘yicha tadqiq qilinsa, uning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Bugungi kunda ko‘plab darslik va adabiyotlarni elektron shakldagisi mavjud. Biz buni aslo inkor etmoqchi emasmiz. Biroq kitobning asl holicha foydalanish, badiiy zavq olgan holda uning haroratini his qilish, insonga manbada keltirilgan ma’lumotni teranroq tushunishiga imkon beradi. Tadqiqot ishimizdagi asosiy maqsadimiz o‘quvchilarni adabiyotlardan foydalanishda zamonaviy imkoniyatlar asosida m’eyor va sog‘lom turmush tarziga rioya qilib foydalanishga o‘rgatish. Yoshlik davrini xisobga olib pedagogik adabiyotlardan unumli foydalanishga davvat etish.

**O‘. Karimov – Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi**
**S. To‘lqinjonov – Farg‘ona davlat universiteti, talaba**

## O‘QISH DAVRIDA TALABALARDAGI IJTIMOIY ADAPTATSIYASI JARAYONI

O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi pedagog kadrlarga yangi zamonaviy talablarni qo‘ygan. Bu talablar mohiyatidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak mutaxassislar o‘z kasb sohasida to‘laqonli faoliyat юritishining muhim ko‘rsatkichi ularning ijtimoiylashuv darajasidir. O‘z navbatida ijtimoiy adaptatsiya masalasi ham ilmiy adabiyotlarda turli jihatdan talqin etilgan: ijtimoiy adaptatsiya hodisasining mohiyatini aniqlash; ijtimoiy adaptatsiyaning xilma-xil qirralarini talqin etish; ijtimoiy adaptatsiya va ijtimoiylashuv o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish.

Adaptatsiya (moslashuv) tushunchasi (lotincha adaptation-moslashish) ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X.Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865 yil) shaxslarning tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo‘llanilgan. Moslashuv hodisasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Uning muxim qirralaridan biri – shaxsning ijtimoiylashuv masalasidir. Bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda adaptatsiya va ijtimoiylashuvning o‘zaro mutanosibligi katta ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi jamiyat o‘rnatgan me’yorlarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishdir. Bu masala globallashuv sharoitida yangi aspektlarga ega bo‘lmoqda.

“Adaptatsiya(moslashuv) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo‘ladigan moslashuv jarayoni – adaptogenezning ma’lum natijasi”[192]. Moslashuv – ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, ichki va tashqi nizolarga qarama-qarshi o‘laroq insonning o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira olishi, o‘z faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilishidir. Moslashuv – bu insonning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro birgalikdagi harakatini tavsiflovchi yaxlit, tizimli jarayon hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda “ijtimoiy moslashtirish” tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o‘ziga xos turi sifatida “ijtimoiy-psixologik moslashuv” ga alohida e’tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o‘zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida юzaga kelib, inson qachonki, o‘z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo‘llarini belgilay olganida, o‘z qadr-qimmatini anglab etganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Talabalarning ijtimoiy moslashuvida milliy g‘oyaning o‘rni beqiyos katta. Milliy g‘oyani talabalar onggiga singdirish jarayoni ularning adaptatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonlar o‘z xolicha kechmaydi, ularni pedagog kadrlar tomonidan boshqarilishi zarur.

Ijtimoiylashuv ijtimoiy me’yor, xulq-atvor tamoyillari va qadriyatlarni uzatish, uni inson tomonidan egallanishiga qaratilgan murakkab jarayon bo‘lib, u alohida shaxsga ma’lum bir jamiyat fuqarosi sifatida o‘zini namoyon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy moslashuv esa, shaxsga jamiyat tomonidan berilgan mazkur imkoniyatlarni amalga oshirilish jarayonini o‘zida ifoda etadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida alohida shaxsning xulq-atvor me’yorlari va qadriyatlarining u mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh qadriyatlari bilan o‘zaro mos bo‘lishi ta’minlanadi.

Insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub’ekt va ijtimoiy muhitning o‘zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. Individuallashuv insonning ob’ektiv ehtiyojlar bilan bog‘liq holda jamiyatda ma’lum darajada alohidalikka intilishi bo‘lib, uning yoshligidanoq o‘z-o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan harakatlarida paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida, юzaga keladigan qiyinchilik va muammoli vaziyatlarni bartaraf etish esa yangi ijtimoiy tajriba – talabalik maqomini o‘zlashtirish mexanizmi sifatida tadqiq etiladi. Adaptatsiya ta’lim muassasasi talabasi maqomiga muvofiq ta’lim oluvchilarni ijtimoiy muhit tomonidan qo‘yiladigan va kutiladigan talablarni qabul qilish hamda ularga samarali javob qaytarishi bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda, moslashuvchan xulq-atvor qarorlarini

[192] Falsafa: entsiklopedik lug‘at. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 9 bet

muvafaqqiyatli qabul qilish, tashabbus bildirish va o‘zining kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan aniq tasavvurlarga ega bo‘lish bilan bog‘liqdir. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, samarali ijtimoiylashuv belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) ijtimoiy faoliyat sohasida moslashganlik, mazkur holatda shaxs bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash orqali umummalakaviy va umumkasbiy kompetentlikka erishish; 2) shaxslararo munosabat sohasida moslashganlik, boshqa kishilar bilan chuqur emotsional aloqalarni o‘rnata bilish va x.k.

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasasi talabalarida ta’lim muassasasi sharoitiga adaptatsiya quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- oliy ta’lim muassasasi talabalarida ijtimoiy moslashuv jarayonining kechishi murakkab dinamiklikka ega bo‘lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o‘zaro uyg‘unlashuvini talab etadi;
- oliy ta’lim muassasasida tahsil olish jarayonida talabalarda o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi yangi vositalar yordamida rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi.

**M.Jabborova – Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi**
**X.Musayeva – Farg‘ona davlat universiteti, talaba**

## SINFDAN TASHQARI FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI MUSTAQILLIGINING RIVOJLANISHI

Yosh o‘quvchilarda mustaqillikni shakllantirishda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vazifalarni bajarish kerak. Birinchi vazifa o‘quvchilarning bilim faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish va mustaqil ravishda bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi vazifa kichik o‘quvchilarni o‘quv materiallari bilan ishlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri olgan bilimlarini mustaqil ravishda qo‘llashga o‘rgatishdir.

"Mustaqillik" tushunchasi turli ilmiy va pedagogik ishlarda ko‘rib chiqilgan. Mustaqillik vazifada mustaqil navigatsiya qilish qobiliyati, qo‘yilgan vazifaga mos keladigan harakat usullarini tanlash, ularni o‘quv faoliyatida amalga oshirish, mazmuni va uslublarini boshqarish va sozlash qobiliyati kabi ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. ish. Mustaqillik, shuningdek, kichik o‘quvchini kattalarning yordamisiz harakat qilishga undaydigan ma'lum bir motivatsion munosabat bilan tavsiflanadi.

Shubhasiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqilligi talabalar mustaqil ish olib borish shakllari va usullarini yaxshi o‘zlashtirsalar yanada muvaffaqiyatli rivojlanadi. Mustaqil ish bu o‘qituvchining topshirig‘iga binoan (yoki darsliklarda, o‘quv dasturlarida berilgan topshiriqlarga binoan) o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ishlashdir. Mustaqil ish har doim yakuniy natijaga ega, chunki talaba unga mustaqil ravishda keladi.

Belgorod maktabi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqillik darajasini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi. Mavzularning umumiy soni 25 tani tashkil etadi. Eksperimental guruh 4-sinf o‘quvchilaridan iborat edi. Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi. Aniqlash bosqichida "Yechilmagan muammo" diagnostikasi texnikasi yordamida biz mustaqillikning rivojlanish darajasini aniqladik. Diagnostika texnikasi jumboq vazifasi. Kichik o‘quvchilardan avval oson, keyin esa echib bo‘lmaydigan masalani echish talab qilindi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, so‘ralgan namunada mustaqillikning past darajasi ustunlik qiladi. Bu shuni anglatadiki, hamma kichik o‘quvchilar ham dars va sinfdan tashqari ishlarda qatnashish uchun rag‘batlantirilmaydi.

Olingan ma'lumotlar asosida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining mustaqilligini rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi pedagogik shartlar tanlab olindi:

- vazifalarning qiyinligi darajasi talabalarning ta'lim qobiliyatlari darajasiga to‘g‘ri keladi;
- topshiriqlarning maksimal davomiyligi 20 daqiqadan oshmaydi.
- vazifalar asosiydan yuqori darajaga ketma-ket tartiblangan;
- nazorat o‘z-o‘zini boshqarish bilan, baho o‘zini o‘zi baholash bilan birlashtiriladi;

- darsda va sinfdan tashqari ishlarda motivatsiyani oshirish uchun "muvaffaqiyat holati" yaratiladi, ijodiy oʻyin ishlatiladi.

Yuqoridagi shartlarni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarda amalga oshirildi, chunki ular boshlangʻich maktab yoshidagi bolalarni oʻqitish jarayonining muhim, ajralmas qismi boʻlib, oʻquvchilarni ijtimoiy qilish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida biz yosh oʻquvchilarning sinfdan tashqari ishlarida mustaqilligini rivojlantirishga hissa qoʻshadigan vazifalarni ishlab chiqdik va sinovdan oʻtkazdik. Ularga bir nechta misollarni keltiramiz.

"Koʻngilochar grammatika" sinfdan tashqari darsida kichik oʻquvchilarga "Rasm yigʻish" vazifasi taklif etiladi. Vazifalar ma'lum miqdordagi toʻrtburchaklar shaklida kesilgan qogʻozga yoziladi. Aynan rasm bilan bir xil varaq bir xil sonli sektorlarga kesilgan. Har bir sektorda toʻgʻri javobning bir varianti mavjud. Bolalar grammatik masalalarni hal qilishadi, toʻgʻri javoblarni tanlashadi va rasm chizishadi.

Ushbu vazifa kichik oʻquvchilarda vazifani bajarish jarayonida oʻz faoliyatini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Talabalar nafaqat muammolarni hal qilishning toʻgʻriligini topishlari, balki ularni asoslashlari kerak. Sinfdan tashqari ishlarga turtki berishni oshirish uchun intellektual klub tashkil etiladi, u erda hatto yomon ishlayotgan maktab oʻquvchisi ham uygʻun rivojlanadi, faoliyatning ba'zi bir sohalarida muvaffaqiyatlarni namoyish etadi. Klub ijodiy faoliyatni optimallashtiradi, kichik oʻquvchilarning mustaqilligini oshiradi, qiyinchiliklarni birgalikda engib, jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Kichik maktab oʻquvchilari oʻzlarini tashkilotchilar va etakchilar rolida namoyish etish, oʻzini muvaffaqiyatli odam sifatida his qilish imkoniyatiga ega.

Nazorat bosqichida yosh oʻquvchilarning sinfdan tashqari ishlarda mustaqilligini rivojlantirishga hissa qoʻshadigan pedagogik sharoitlarning samaradorligi olingan ma'lumotlar bilan taqqoslab tekshirildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun biz boshlangʻich maktab oʻquvchilarining mustaqilligini rivojlanishini aniqlash bosqichida boʻlgani kabi diagnostika qilish usullaridan foydalanganmiz.

Shunday qilib, nazorat bosqichida olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirib, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining sinfdan tashqari ishlarda mustaqilligini rivojlantirish boʻyicha olib borilgan tadqiqot ishlari samaradorligi toʻgʻrisida xulosa chiqarishimiz mumkin.

**S.O. Ikromova – Fargʻona davlat universiteti, 2-kurs talabasi**

## YANGI OʻZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BOʻLGAN SHAXSLARNI HIMOYASINI TAMINLASH ISTIQBOLLARI

"Yangi Oʻzbekiston - yangicha dunyoqarash" bu jumlalar yuraklarni jumbushga keltiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-saylov dasturining asosiy maqsadi "Inson qadri uchun" deb atalganligi bejiz emas. Har bir inson Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi ekan jamiyatda yaratilgan barcha imkoniyatlardan toʻlaqonli foydalanish huquqiga egadir. Ming afsuski jamiyatimizdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar shu jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslar oʻz huquq va erkinliklarini bilmasligi sababli juda koʻp qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shunday ekan biz ijtimoiy ish xodimlari ularga yaratilgan imkoniyatlardan boxabar qilishimiz zarar.[193] BMT( Birlashgan Millatlar Tashkiloti) Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil Nogironlar huquqlarini himoya qilish Konsepsiyasini va nogironligi bor odamlarning huquqlarini va sha'nini himoya qilishga qaratilgan Fakultativ Protokoli qabul qilindi va 2008-yildan kuchga kirdi.[194] Bu qonunning qabul qilinishi Nogironligi boʻlgan shaxslarning jamiyatda integrallashuviga ijobiy tasir koʻrsata boshladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi "2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yoʻnalishi boʻyicha harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisidagi Prezidend Farmonining 9-bandida ilgʻor xorijiy tajriba va keng jamoatchilik fikrini

[193] “Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiya protokoli” parlament a’zolari uchun qoʻllanma Fargʻona vil. 2021-yil 7-bet

[194] “Nogironlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiya protokoli” parlament a’zolari uchun qoʻllanma Fargʻona vil. 2021-yil 7-bet

inobatga olgan holda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Nogironlik belgilari aniq ko‘rinib turgan, anatomik, nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni klinik va funksional malumotlarini olishga oid qo‘shimcha tekshiruvlarsiz nogironligi bo‘lgan shaxs deb topilganda nogironlikni muddatsiz davrga belgilash tartibi joriy etilishi bo‘yicha topshiriq berildi. Nogironlik belgilangunga qadar tibbiyot muassasasi tomonidan ovoragarchilikga yo‘l qo‘yilmasdan statsionar sharoitda davolanishiga majbur qilinmasdan, qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tmasdan tibbiy hujjatlari rasmiylashtiriladi va nogironlikni belgilash uchun 3 ish kuni ichida TMEK ga yuboriladi.

*Nogironligi bo‘lgan shaxslarga quyidagi ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi:*

- Pul to‘lovlari (pensiyalar, nafaqalar bir yo‘la beriladigan to‘lovlar) shaklida

-Tibbiy texnika vositalari yani avtomobillar, o‘rindiqli aravachalar, protez-ortopediya buyumlari, brayl yozuvidagi matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgichlar).

- Bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga oyiga 622 000 so‘m nafaqa belgilanadi.

*Soliq tizimidagi imtiyozlar:*

-Bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek 1va 2 guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar daromadni qaysi oydan olgan bo‘lsa o‘sha oydan har bir oy uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravarigacha daromadlar bo‘yicha soliq solishdan ozod etiladi.

- 1 va 2 guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar yer solig‘idan ham ozod etiladi.

- Bundan tashqari shaxsning mulkida bo‘lgan mol-mulk 60 kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod etiladi.

Xulosa qilib aytganda davlatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy siyosatlar inson manfaati va farovonligiga xizmat qiladi Shunday ekan biz ham yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanaylik. Biz bo‘lajak ijtimoiy ish xodimlari ekanmiz ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bor shaxslarga yordam berishimiz kerak. Zero, bu bizning sharafli burchimizdir.

**D.Q. Rafiqova – Farg‘ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi**

## O‘QUV-PEDAGOGIK AMALIYOTNI REJALASHTIRISH

O‘quv-pedagogik amaliyotni har bir o‘quv yili uchun kalendar-tematik rejalashtirish oliy ta’lim muassasalarida amaliy ta’limni tashkil etish va o‘tkazish uchun asos hisoblanadi. Reja amaliyotning har bir turi uchun alohida-alohida ishlab chiqiladi. Bunda amaliy ta’lim turlarining uzluksiz va izchil ravishda o‘tkazilishi hisobga olinadi. Amaliy ta’lim turlari fanlar bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturlar va amaliyot dasturlari talablari asosida o‘tkaziladi.

O‘quv-pedagogik amaliyotni rejalashtirish qator algoritmik protseduralarni nazarda tutadi. Rejalashtirishning asosiy maqsadi ish o‘rinlari (organik resurslar) ni optimal taqsimlash hisoblanadi. Boshqacha aytganda, organik resurslardan samarali foydalanish o‘quv-pedagogik amaliyotni tashkil etish darajasiga ma’lum darajada bog‘liq bo‘ladi. Talabalar amaliyot o‘tkazadigan ish o‘rinlari organik resurslar hisoblanadi. O‘quv-pedagogik amaliyotni rejalashtirish jarayonida ularni optimallashtirish zarur.

Tarmoqli rejalashtirishning umumiy nazariyasi asosida optimal rejalashtirishdan o‘quv jadvalini tuzishda keng foydalaniladi. A. V. Shinning fikricha, tarmoqli rejalashtirishning mohiyati, «muayyan xossalarga ega resurslar yoki foydalaniladigan vositalar hamda ularga qo‘yilgan cheklashlar sharoitida topshiriqlarni tartiblashtirishning samarali algoritmini topishdan iborat...”[195]

Bu yerda foydalaniladigan vositalar deyilganida, ta’lim jarayoni komponentlarini tushunmoq kerak. Ulardan ayni bir vaqtda va birgalikda foydalaniladi, binobarin, ular cheklangan hisoblanadi. O‘quv-pedagogik amaliyotni tarmoqli rejalashtirish holida, ish o‘rinlari cheklangan resurslar hisoblanadi. Ularning har birida ma’lum cheklangan sondagi o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalarni bajarish mumkin.

Rasmiy holda, rejalashtirish uchun quyidagilar dastlabki ma’lumotlar hisoblanadi: -o‘quv-pedagogik amaliyotni o‘tkazish uchun rejalashtirilgan talabalar tarkibi; -ta’lim muassasalari (professional ta’lim muassasasalari, maktablar yoki maktabgacha ta’lim muassasalari)da amaliyot o‘tkaziladigan ish o‘rinlari tarkibi; -bajarishlari uchun talabalar maxsus tayyorlangan o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalar tarkibi.

[195] Шин А.В. Теория и практика организационного управления профессиональным колледжем на базе информационных технологий Автореф. дисс…канд. пед. наук -Ташкент 2007 -21 с.131, - 21 б.

Aslida, rejalashtirish uchun dastlabki ma’lumotlarni tayyorlash tartibi ancha murakkab vazifa hisoblanadi.

*Birinchidan,* talabalar bajaradigan o‘quv-pedagogik vazifalarning ro‘yxati tayyorlanadi. Ularni bajarishlari uchun talabalar o‘quv-pedagogik amaliyot paytida tayyorgarlikdan o‘tadilar, tegishli bilim va ko‘nikmalarni yetarli darajada egallaydilar.

*Ikkinchidan,* talabalar o‘quv-pedagogik amaliyot o‘taydigan ish o‘rinlarining to‘la ro‘yxati tuziladi hamda ish o‘rinlarining jihozlanishi, qurilma va asbob-uskunalari batafsil tavsiflanadi.

*Uchinchidan,* ta’lim muassasalarida o‘quv-pedagogik vazifalarni bajarish uchun qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning tarkibi va mazmuni baholanadi.

Shunday qilib, dastlabki ma’lumotlar qatoriga o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalari (ularni bajarishlari uchun talabalar alohida tayyorgarlik ko‘radilar) va *ish o‘rinlari* (o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarish metodikasi va pedagogik texnologiyalarni ham bilish kerak) haqidagi ma’lumotlar kiradi.

O‘quv-pedagogik amaliyot dasturi joriy etilgan holda, biz o‘quv-pedagogik amaliyot tuzilmani qarab o‘tamiz. O‘quv-pedagogik amaliyot vaqtida yaratilgan muvaqqat tuzilma amaliyot o‘tkaziladigan ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim muassasasining moddiy va kadrlar resurslarini birlashtiradi. Muvaqqat tuzilma ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy reglamentatsiyasi asosiy tashkiliy tamoyil hisoblanadi.

Boshqarishning tashkiliy vazifalari o‘quv-pedagogik amaliyot rahbari, oliy ta’lim muassasasining mansabdor shaxsiga va ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Ular talabalarning amaliyotini o‘tkazish jarayonini tartiblashtirish, koordinatsiya qilish va muvofiqlashtirish ishlarini hamkorlikda amalga oshiradilar.

Tartiblashtirishning vazifasi talabalarning tarmoqli va individual reja-grafigi modelini tuzish texnologiyasi orqali joriy etiladi. Koordintsiya tuzilma ishtirokchilarining muvofiqlashgan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi. Muvofiqlashtirish o‘quv-pedagogik amaliyot jarayonining rejalashtirilgan tartiblardan chetga chiqishini bartaraf etish bo‘yicha amalga oshiradigan ishlarini nazarda tutadi. Bu ishlarni loyiha rahbari amalga oshiradi.

Talabalarning o‘quv-pedagogik amaliyotining turli bosqichlaridagi faoliyatining tashkiliy shakllarini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Biz bunda quyidagilardan kelib chiqdik. Agar o‘quv-pedagogik amaliyotining birinchi bosqichida o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalarini amalga oshirish usullarini o‘zlashtirishlari uchun talabalarning ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining faoliyatini kuzatishlari yetarli bo‘lsa, ikkinchi bosqichda esa, ancha faol faoliyat taqozo etiladi. Bunda o‘quv-pedagogik amaliyotga oid bilimlarni faollashtirish, ayrim o‘quv-pedagogik amaliyot vazifalarini bajarish, pedagoglar va o‘zining faoliyatini tahlil etish hamda boshqa ishlarni bajarish talab etiladi. Uchinchi bosqichda ta’lim muassasasi pedagogining rahbarligida o‘quv-pedagogik amaliyot masalalarini talabalarning o‘zlari mustaqil bajaradilar.

Boshqarishning tashkiliy vazifalari o‘quv-pedagogik amaliyot rahbari, oliy ta’lim muassasasining mansabdor shaxsiga va ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Ular talabalarning amaliyotini o‘tkazish jarayonini tartiblashtirish, koordinatsiya qilish va muvofiqlashtirish ishlarini hamkorlikda amalga oshiradilar.

**D.Q. Rafiqova – Farg‘ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi**

## PEDAGOGIK TA’LIMNING MODERNIZATSIYALASHGA OID KONTSEPTUAL YONDASHUVLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab etish pedagoglarning muhim vazifasidir. Unda asosiy e’tibor O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishida mamlakatimizda muhim vazifalar sifatida belgilangan islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini isloh qilishga, shuningdek, dasturning 4-bandida ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta’lim, fan, san’at va madaniyatning rolini yanada oshirishga qaratilgan[WWw.Lex.uz.]. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta’lim tizimining uzluksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish eng muhim vazifalardan etib belgilangan.

Mamlakat kelajagi, uning kadrlar salohiyati ko‘p jihatdan yosh avlodni tarbiyalovchi va turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlaydigan o‘qituvchilarning kasbiy bilimi va mahorati, amaliy tayyorgarligining sifatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Demak, uning pedagogik ma’lumoti darajasi davlatning gullab-yashnashi, fuqarolarining ma’naviy va moddiy farovonligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Turli tadqiqotchilar tomonidan o‘qituvchi faoliyati funktsiyalarining o‘ziga xos tasniflarini taklif qilingan. Umuman, o‘qituvchining faoliyati funktsiyalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot-ma’lumot berish, rivojlantirish, yo‘naltirish, safarbar etish, amaliy, kommunikativ, tashkiliy, tadqiqotchilik. V.A. Slastenin, I.F.Isaev va boshqalarning e’tirof etishlaricha, o‘qituvchilik kasbiga tarixan ikkita ijtimoiy, ya’ni moslashish va gumanistik funktsiyalari yuklatilgan. Adaptiv funktsiya ta’lim oluvchining zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitning aniq o‘ziga xos talablariga moslashishi bilan, insonparvarlik funktsiyasi esa uning shaxsi, ijodiy individualligining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq[2.380-b]. E.V. Balakirevaning pedagogik kasbshunoslikga bag‘ishlangan ishlarida pedagogik kasbning tuzilishi, ya’ni aynan uning umumiy xususiyatlari, ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati, mehnat sharoitlari, pedagogik faoliyatning xususiyati va mazmuni, pedagogik mahorat, o‘qituvchining ta’lim darajasi va kasbiy malakasiga qo‘yiladigan talablar, kasbning psixofiziologik o‘ziga xos xususiyatlari va boshqalar aks etgan[3. 134-b].

Pedagogik ta’lim tizimida eng dolzarb muammolardan biri bu, hech shubhasiz, o‘qituvchilarni o‘quv amaliyotining real shart-sharoitlariga, pedagogik jarayonda doimo duch kelinadigan yoki paydo bo‘ladigan qiyinchiliklariga tayyorlashning murakkabligidir. Bu umumiy muammolar o‘zaro bog‘liq, aniqroq aytsak, ayni paytda pedagogik ta’lim uchun dolzarb va muhim muammolarga aylanmoqda:

• bo‘lajak o‘qituvchilarning olgan bilimlarini muntazam yangilab borishi va amaliy qo‘llashda duch kelinadigan qiyinchiliklar;

• talabalarda shakllangan bilimlarning tarqoqligi va izchil emasligi, amaliy pedagogik faoliyat, uning ob’ekti, predmeti, o‘quv jarayoni haqida yaxlit tasavvurlarning yo‘qligi;

• talabalarni pedagogik amaliy faoliyatga tayyorlash tizimining takomillashtirilmaganligi va asosan tor uslubiy darajada amalga oshirishi;

• faoliyatni haddan ortiq texnologiyalashtirish, uslubiy ishlanmalarning kamligi va natijada bo‘lajak o‘qituvchining amaliy tayyorgarligining ijodiy komponentining rivojlanmaganligi;

• o‘qituvchilarning amaliy kasbiy faoliyat jarayonida mavjud vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, maqbul natijalarga erishishga qaratilgan strategiya va qaror qabul qilish taktikasini ishlab chiqishga tayyor emasligi;

• pedagogik ta’limda amaliy faoliyatning samarali g‘oyalari, tamoyillari, usullarini o‘zida birlashtirgan yaxlit metodologik bazasining yo‘qligi;

Ushbu muammolarni samaradorligi isbotlagan kontseptual yondashuvlardan foydalanish asosida hal etilishi mumkin.

Retrospektiv va zamonaviy nazariy-pedagogik tadqiqotlarda aks etgan g‘oyalarni nazariy tahlil etish bizga kontseptual yondashuvlar guruhini aniqlash imkonini beradi. Bizning nazarimizda, pedagogik

ta'limni modernizatsiyalashda quyidagi yondashuvlarga tayanilishi zarur: shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar; faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar; bilishga yo'naltirilgan yondashuvlar; ijtimoiy-madaniy yondashuvlar; ta'lim jarayoni dinamikasini hisobga oladigan yondashuvlar; integratsion yondashuvlar.

Pedagogik ta'limni tashkil etish va amalga oshirishga kontseptual yondashuvlarning belgilangan guruhlarini kompleks joriy etish talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal qilish imkonini beradi, ularni kasbiy tayyorlashning innovatsionligi, majmuaviyligi, variativligi, dinamikligi, amaliyotga yo'naltirilganligi va yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Yuqoridagi kontseptual yondashuvlar asosida asosiy tamoyillar shakllantiriladi, pedagogik ta'limni modernizatsiyalash mexanizmlari va texnologiyalari tavsiflanadi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017 y., PF-4947, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami

2. Педагогика Учебник для студ. высших пед. учеб. заведений / В.А. Сластёнин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов. - М. Издательский центр «Академия», 2011 - 380 с.

3. Балакирева Э.В. Подходы к построению концепции профессиологических основ педагогического образования // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. - 2005. - № 5 (12). - С.134-147

**M.O. Karimova – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali dotsenti**
**M.I. Tojimamatova– Marg'ilon shahar 20-umumta'lim maktab o'qituvchisi**

## O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Bugungi kunda Respublikamizda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quvmetodik ta'minotini xalqaro talablar asosida yangilash kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni[196] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi[197], 2017 yil 24 oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv–ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-son qarorlari[198] aynan shu masalalarga qaratilgandir.

Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jumladan, o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashga sharoitlar yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunarga yunaltirish ishining bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi - yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yunalishini (akademik litsey yoki kasb–hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixo–fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan extiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

---

[196] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

[197] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 11-сон, 167-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.02.2018 й., 09/18/134/0809-сон, 05.06.2018 й., 09/18/410/1304-сон;

[198] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.10.2017 й., 09/17/868/0171, 14.05.2019 й., 09/19/397/3123-сон, .09.2019 й., 09/19/822/3840-сон; 08.07.2020 й., 09/20/429/1039-сон)

Kasb-hunarga yo‘naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani xal qilishga qaratilgan: - mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish xisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustaxkamlash; - shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o‘z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o‘zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy - iqtisodiy omil bo‘lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi. Kasb-hunarga yo‘naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan: - kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi; - iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o‘rganish va prognoz kilish orkali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish; - shaxsni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi; - O‘zbekiston fuqarolarining va (lozim bo‘lganda) boshqa davlat fuqarolarining o‘qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat’iy nazar kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng xuquqligi; - kasb tanlash yoki almashtirish, ta’lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarliligi; - umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlarini ko‘rsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshka guruxlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi; - kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob’ektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi; - kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi.

Kasbga yo‘naltirish - bu har bir shaxsning o‘ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘z kasbiy o‘rnini topishi uchun shaxsga ta’sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U insonning kasbiy kiziqishi va imkoniyatlari xamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo‘naltirilgandir. Kasbga yo‘naltirish - mohiyat va samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo‘naltirishni xal etish vazifalari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasbga yo‘naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va uning bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish xamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Kasbga yo‘naltirish tadbirlari inson tomonidan o‘z kasbiy malakasinioshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi. Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama barkamol rivojlantirishning shart-sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma’naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya’ni barcha o‘quv-tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi.

**Sh. Ismoilova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## CHET TILI GRAMMATIKASINI O‘RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Ma’lumki bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish hamda o‘rgatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu sa’y-harakatlarni amalga oshirishda muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrda e’lon qilingan PQ-1875 sonli “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Bugungi kunga kelib esa chet tillarini o‘qitish hamda dars sifatini yaxshilashga qaratilgan metod va yangicha yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Chet tillarini egallash, unda aloqaga kirisha olish, fikr almashish insonga bugungi globallashgan zamonda bo‘layotgan voqea hodisalardan, har bir sohada kashf etilayotgan yangiliklardan habardor bo‘lish, boshqa davlatlarda yashayotgan odamlar hayoti, faoliyati va madaniyati bilan tanishish, o‘z fikr va g‘oyalari bilan dunyoga chiqish va ularga munosabat bildirish vositasidir va boshqacha qilib aytganda, chet

tillarini bilish zamon bilan hamnafas boʻlish imkonini beradi. Shuningdek, chet tilida muloqotga kirisha ilish zamonaviy shaxsning, har qanday sohada boʻlishidan qatʼiy nazar, eng muhum belgisidir.

Maʼlumki har qanday til uni tashkil etuvchi Grammatik, leksik va fonetik sathlardan tashkil topgan. Hozirgi kunda chet tillarini oʻrgatishda til sathlarini kommunikativ yondashuv asosida yondashishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Koʻpchilik chet tilini oʻrganuvchilar grammatika darsini zerikarli, faqatgina qoidalarga asoslangan mashgʻulot deb qarashadi. Ammo chet tilida toʻgʻri gapirish uchun grammatikani bilish juda muhimdir. Shuning uchun ham hozirgi davr pedagogi oldiga muhum vazifa qoʻyiladi, yaʼni oʻqituvchilar grammatikani oʻquvchilarga shunda yetkazib bersinki, uning metodlari orqati oʻrganuvchida shu tilni egallashga istak paydo boʻlsin, qiziqishi ortsin va tilni oʻrganish unga zavq bagʻishlasin. Va oʻqituvchuning navbatdagi vazifasi, oʻrganuvchinin zeriktiradigan Grammatik qonun-qoidalarni anʼanaviy mashq va topshiriqlardan qochgan holda, yangicha uslublardan foydalanib, oʻquvchining ijodkorlik va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradigan va eng muhimi, bunda grammatikadan aloqaga kirishish vositasi sifatida foydalanishga oʻrgatadigan mashqlarni qoʻllashi ayni muaddaodir va bu davr talabi hamdir.

Kommunikativ grammatikaning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

1. Grammatika muloqotga kirishish uchun vosita. Zamonaviy grammatika darslarida gap Grammatik shakillarni yetkazib berishborasida emas, balki uning kommunikativ funksiyasi haqida ketadi. Bunda faqatgina Grammatik qoidani oʻzlashtirish emas, undan asosan kommunikativ vaziyatlarda foydalana bilish, oʻquvchilarda asosan kommunikativ konsepsiyalarni shakillantirish koʻzda tutiladi.

2. Chet tilini oʻrgatishda ona tilini inobatga olish. Ayniqsa, boshlangʻich darajada chet tilini oʻrgatishda albatta ona tilida egallangan bilimlarga murojaat qilish yaxshi samara beradi. Grammatik qoidani tushuntirishda tillar oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqli jihatlar yordamida amaliy koʻrsatib oʻtiladi.

3. Chet tilini oʻrganayotganlarning oʻzlari konteks asosida gapiradilar va muloqotga kirishadilar. Zamonaviy grammatika darslarining maqsadi Grammatik strukturalarni oʻrganish emas, balki bu vositalardan maqsadga va situatsiyaga mos ravishda foydalana bilish koʻnikmasini shakillantirishdan iboratdir. Bunda shakl emas, balki mazmun muhimdir. Bu orqali oʻquvchilarning kundalik turmush sharoitida eng koʻp ishlatiladigan nutq namunalarini oʻzlashtirib olishga erishiladi.

Grammatik malakalarni shakillantirishda kommunikativ usullardan foydalanish muhumdir, chunki har qanday Grammatik malaka faqat nutq vaziyatlarida, muloqot jarayonida yaxshi oʻzlashtiriladi. Shuningdek, kommunikativ usullar oʻquv jarayoning motivlashtirilganlik darajasinini oshiradi.

**References:**

1. Жалолов Ж.Ж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. “English language teaching methodology”
2. Jeremy Harmer. “How to teach English” British Council. Pearson Education Limited, 2007.
3. “Types and peculiarities of phraseology in English and Uzbek languages” Gafurova Hilola "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ gʻoyalar, taklif va yechimlar" mavzusidagi 8-sonli respublika konferensiyasi, 2021, 1-fevral Master Hilola, 88-90 betlar
4. “Psychological and methodical factors of foreign language communication” P216 “Амалий тилшуносликнинг фанлараро масалалари: масофавий таълимдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги II халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари. - Фарғона, 2021 йил.
5. Dushatova Shohsanam. “Oʻzbekiston ilmiy – amaliy tadqiqotlarda talabalarning oʻrni” masofaviy konferensiyasi. 2020. 3-4 bet

**R. Ortiqov – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## INGLIZ TILI NUTQIGA OʻRGATISH BOʻYICHA AYRIM METODIK TAVSIYALAR

Ingliz tilida nutq faoliyati turlarini oʻrgatish muhimdir. Ular orqali maʼlumot olinadi, maʼlumot beriladi. Bu esa ingliz tilini oʻqitishning maqsadini tashkil qiladi. Maʼlumot olish tinglab tushunish va oʻqish orqali amalga oshsa, maʼlumot berish, gapirish va fikrni yozma bayon qilish orqali amalga oshadi. Ogʻzaki nutqni oʻrgatish-tinglab tushunish va gapirishni oʻrgatishni oʻz ichiga oladi. Ular ajralmas qismlardir. Ogʻzaki nutq nutqni tinglab tushunish va gapirish shakllarida boʻlishi mumkin. Ingliz tilida

gapirish ham nutq faoliyatining turlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Gapirish orqali ma'lumot beriladi. Bu nutq faoliyati boshqa nutq faoliyati turlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Oʻquvchi, talabada tinglab tushunish koʻnikmasi qanchalik yaxshi egallanilgan boʻlsa, gapirish ham shuncha tezlik bilan rivojlanadi, aks holda teskarisi boʻladi. Inglizcha ma'lumotni qabul qila olgan oʻquvchi, talaba ingliz tilida uning mazmuniga moslashtirib ma'lumot beradi.[199] Oʻquvchi, talaba mazmunni tushuna olmasa, javob qaytarishi qiyin. Tinglab tushunishda ma'lumot qabul qilinib, ichki nutq sodir boʻlsa, gapirishdan oldin ichki nutq soʻng tashqi nutq yuzaga chiqadi. Ikkalasida ham talqin qilinadi, lekin gapirishdan oldin boʻlsa, tinglab tushunishda esa keyin boʻladi. Bu ichki nutqlarla tafakkur, xotira, idrok muhim oʻrin tutadi.

Oʻqish gapirish bilan aloqador, unga bogʻliqligi bor. Oʻquvchi oʻqigan ma'lumot orqali gapiradi, ma'lumot beradi. U kancha koʻp oʻqisa, shuncha gapirishi uchun ma'lumotga ega boʻladi. Shu sababdan oʻquvchi, talaba ichida, ovoz chiqarib, ovoz chiqarmay oʻqib gapirish uchun ma'lumot toʻplaydi, oʻqish gapirish uchun ma'lumot manbaidir. Oʻquvchi, talaba oʻqigan, tinglagan, gapirgan materiallarini, ma'lumotini yozma ifodalaydi. Ular ma'lumotni yozma ifodalasa, uning xotirasida, yodida yaxshi qoladi. Gapirishi osonlashadi. Yozuv ham gapirish ma'lumotini, materialini esda qolishiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, gapirish faoliyati boshka nutq faoliyatlari bilan aloqadadir. Qator tadqiqotlarning ma'lumotlariga koʻra, gapirish nutq umumiy hajmining 30 foizini, yozuv esa 9 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun gapirish ingliz tilini oʻrgatish va oʻrganishning eng muhim maqsadi hisoblanadi.[200] Oʻrta maktabda chet tili oʻqitish dasturiga muvofiq gapirishni oʻrgatishdan maqsad ham vositadir. Oʻquvchi ingliz tilida gapirishni amalda qoʻllay olishi maqsaddir, gapirish boshka nutq faoliyatlarini oʻrgatishda, oʻrganishda vosita sifatida qoʻllaniladi.

Ingliz tilida gapirishni oʻrgatishning oʻziga yarasha qiyinchiliklari bor, bularni oʻqituvchi hisobga olishi zarur. Qiyinchiliklar ekstralingvistik, psixologik, lingvistik boʻlishi mumkin. Ekstralingvistik qiyinchiliklar:

• Gapirishni kimgadir, nimagadir qaratilishi.
• Gapirishda nutq vaziyati, holatini yaratilishi.
• Vositalarning boʻlishi.
• Gapirish ehtiyoji boʻlishi.
• Gapirish sodir boʻlayotgan sharoitning xususiyati (sinf oʻquvchilarning ikkiga boʻlinganligi, sinf xonasining, oʻquvchi, talabalarning darsga tayyorligi va boshkalar).
• Gapirishda imo-ishora, jest, mimika va harakatning qoʻllanilishi.

Eng avvalo gapirish uchun stimul-ragbatlantiruvchi, undovchi omilning boʻlishi, fikrning shakllanishiga olib keladigan ehtiyoj sababdir. Buning uchun tashqi va ichki ta'sir boʻlishi zarur, shundagina ehtiyoj tugiladi. Tushunish gapirish jarayonida, gapirish esa tushunish jarayonida shakllanadi. Gapirish nutq, faoliyatining turi sifatida oʻrganilayotgan tilga va nutq turiga bogʻliq boʻlgan holda psixologik qiyinchilik tugʻdiradi. Gapirish yana ikkita psixologik qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi: fikrni bayon qilish, shaklni oʻylab koʻrishga imkon kamligi va ifodalashning bir onda sodir boʻlishi. Gapirishning avtomatlashgan va avtomatlashmagan tomonlari ham psixologik qiyinchilik bilan bogʻliq.[201] Tafakkur, xotira ham gapirishni oʻrgatishda muhim rol oʻynaydi. Bularni rivojlanganligi gapirishni oʻrgatishga ta'sir qiladi.

Inglizcha gapirish 3 xil: 1) monolog, 2) dialog, 3) polilog shaklida amalga oshiriladi. Bu 3 xil shakldagi gapirishning oʻziga xos xususiyatlari bor. Monolog bitta soʻzlovchining, dialog 2 ta soʻzlovchining, polilog 2 tadan oshiq soʻzlovchining nutqidir. Monolog, dialogni oʻrgatish masalalari anchagina oʻrganilgan boʻlib, psixologlar tafakkur, xotirani hisobga olib tashabbusli nutq takdidiy nutq, tayyorlangan, tayyorlanmagan nutq turlariga ajratishdi.

Tayyorlangan nutq deyilganda oʻquvchi, talaba tayyorlanishi uchun ma'lum mavzu, vaqt berilishi, kerakli vositalar, soʻzlar, nutq namunalari oldindan oʻrgatilishi, uyda tayyorlanishi, tayanchlar boʻlishi koʻzda tutiladi.

Tayyorlanmagan nutqni spontan nutq ham deyiladi. Bunda ilgaridan tayyorgarchilik koʻrilmaydi. Oʻrta maktab dasturi buyicha oʻquvchi tayyorlanmagan nutqni egallashi kerak, lekin bunga tayyorlangan nutq asosida erishiladi.

---

[199] Chet til oʻqitish metodikasida zamonaviy metodlar, Zayniddin Sanaqulov
[200] Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles, Ortiqov Rustamjon
[201] The brief investigation of contemporary speech styles of the english language, R. Ortiqov

**Г. Ташматова - Преподаватель Ферганского государственного университета**

## ПРЕДМЕТНО-ЯЗЫКОВОЕ ИНТЕГРИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ (CLIL) КАК МЕТОДИКА АКТИВИЗАЦИИ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ СВЯЗЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Изучение английского языка в неанглоязычных странах, где изучаемый язык почти или совсем не знаком, создает значительное количество проблем и барьеров для учащихся. Наличие только двух или трех уроков английского языка в неделю не дает учащимся возможности развить свои языковые навыки и стать бегло говорящим. В таких условиях методология предметно-языкового интегрированного обучения может стать решением существующей проблемы, предоставляя студентам дополнительные часы практики английского языка, в то же время создавая аутентичную языковую среду обучения.

Предметно-языковое интегрированное обучение (CLIL) — это подход к преподаванию и изучению иностранного языка, при котором иностранный язык используется как в качестве основного языка обучения, так и в качестве языка для передачи содержания таких предметов, как история, география, биология и другие. Введенный Дэвидом Маршем (1994), термин CLIL предлагается для обозначения «ситуаций, когда предметы или части предметов преподаются на иностранном языке с двойной целью, а именно изучение содержания и одновременное изучение иностранного языка».[202] Двуязычное образование и обучение с помощью предметно-языкового интегрированного подхода восходит к вавилонской эпохе и использовалось на протяжении веков, когда преподаватели, не зная о данной технологии, неосознанно применяли эту технологию в своем обучении.

Накопление большого количества различных методов в предметно-языковом интегрированном обучении повлияло на современное состояние интерпретации этого подхода. Питер Мехисто, Мария-Хесус Фриголс и Дэвид Марш отмечают, что CLIL является многомерным, поэтому определяют его как многогранный подход. Мехисто акцентирует внимание на когнитивном стиле предметно-языкового интегрированного обучения, его возможностях в развитии познавательных процессов у учащихся.[203] Оливер Мэйэр отмечает, что предметно-языковой интегрированный подход одинаково успешен как в лингвистическом, так и в предметном плане благодаря присущей ему лингво-предметной направленности.[204] Несмотря на такое обилие научных взглядов на подходы к CLIL, все исследователи признают основополагающим принципом идею Дэвида Марша о том, что иностранный язык при такой подготовке выступает как инструмент изучения содержания неязыкового предмета.

Технология CLIL широко используется во всем мире благодаря своей универсальности и легкой адаптации применительно ко всем иностранным языкам, возрастным категориям учащихся и уровню их владения языком[205].

Особенности технологии предметно-языкового интегрированного обучения:

- одновременная двойная направленность процесса обучения (профессиональная и языковая), т.е. иностранный язык интегрирован с предметным содержанием учебной дисциплины;
- иностранный язык служит средством изучения профессиональных предметов, а не самоцелью;
- естественное изучение иностранного языка в процессе профессионального общения;
- профессиональное общение важнее грамматической правильности речи (если ошибки не мешают общению);

[202] Marenzi, I., Kupetz, R., Nejdl, W., & Zerr, S. (2010). Supporting active learning in CLIL through collaborative search. In Advances in Web-Based Learning–ICWL 2010 (pp. 200-209). Springer Berlin Heidelberg.
[203] Mehisto, P., Marsh, D. & Frigols, M. J. Uncovering CLIL. Content and Language Intergrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education, 2008.
[204] Meyer, O. "Towards quality CLIL: successful planning and teaching strategies." Puls 10. 2010.
[205] Maljers, A. Windows on CLIL. Content and Language Integrated Learning in the European Spotlight. Alkmaar: European Platform for Dutch Education, 2007.

- высокая степень мотивации студентов, обусловленная их личным интересом к профессиональной тематике.

- CLIL не предъявляет к учащимся особых требований к языковым навыкам.

Многие исследователи CLIL рассматривают развитие когнитивных навыков у учащихся как одну из приоритетных задач этой технологии в обучении языку. Основным постулатом этой идеи является теория овладения языком С. Крашена, который считает, что методически согласованное содержание предмета и преподавание иностранного языка способствует как успешному усвоению обоих предметов, так и развитию познавательных умений учащихся путем установления разнообразных нейронных связей в головном мозге.[206]

Основной лингводидактической единицей в методике CLIL является специальный текст, на основе изучения и проработки которого достигаются вышеуказанные цели. Текст как источник информации знакомит читателя с определенной темой, а также служит основой лексико-грамматического модуля, обеспечивающего усвоение научной терминологии и определенных грамматических и структурных конструкций. Текст также является отправной точкой для ведения дискуссии и расширения языкового материала по заданной теме, способствуя при этом формированию и активизации коммуникативных навыков диалогической и монологической речи.

Таким образом, принимая во внимание основные принципы и особенности технологии CLIL, мы можем сделать вывод, что первая причина, по которой эта методология должна быть интегрирована в обучение, заключается в том, что учащиеся получают дополнительную поддержку и реальную практику изучаемого языка.

**B.A. Qahhorova - Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## POLIMER VA KOMPOZITSION MATERIALLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda e’lon qilingan 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan xarakatlar strategiyasininng to‘rtinchi yo‘nalishi to‘rtinchi “ta’lim sohasini rivojlantirish” bandida ko‘rsatilgan vazifalardan kelib chiqib, axborot texnologiyalarini, fan texnikani jadal sur’atlar bilan rivojlanishini e’tiborga olib, uzluksiz o‘rta ta’limda mehnat ta’limini tubdan o‘zgartirish, mazmunan boyitish vazifalari qo‘yilgan edi [1]

Shundan kelib chiqib, 2017-yildan boshlab, mehnat ta’limi “texnologiya” faniga aylantirildi. Mehnat ta’limi shaklan o‘zgarmasdan, balki mazmunan ham boyitildi. Texnologiya fani elementlari bog‘cha yoshidan boshlab o‘rgatila boshlangan bo‘lsa, 1 sinfdan boshlab texnologiya fani o‘qitila boshlandi. Shularni e’tiborga olib, yuqori sinf o‘quvchilariga hozirgi paytda eng zamonaviy rivojlanayotgan soha polimer va kompozitsion materiallar xaqida ma’lumotlar berish va ularni yetarli darajada bilimga ega bo‘lishlariga erishish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu munosabat bilan bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani darslarida sifatli ta’limni tashkil etish, o‘qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish, o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatilarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ma’lumki texnologiya fani turli materiallarga ishlov berish ularning o‘ziga xos xossalarini o‘rganish mavzularini o‘z ichiga oladi. Ushbu ishda eng qiziqarli mavzulardan biri “Polimer va kompozitsion materiallar va ularga ishlov berish “texnologiyasi keng yoritilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimiga doir o‘zgarishlar va islohotlardan ko‘zlangan maqsad har bir yosh avlodni bilimli, salohoyatli har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdan iboratdir

5-9-sinflar uchun texnologiya fanida Polimer va kompozitsion materiallarga ishlov berish mavzularini keng yoritib berish nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘ziga xos ravishda interfaol metodlardan foydalanib tashkil etish, nazariy mashg‘ulotlarda olingan bilimlarni amalda hayotiy tajribalar asosida mustahkamlash juda muhimdir. Dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning alohida o‘ziga xos xususiyatlarini yangi g‘oya va ijodiy fikrlashlarini, o‘ziga ishonch va do‘stlariga hurmat mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

---

[206] Krashen, S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford, Pergamon Press, 1982.

1.Sh.M. Mirziyoyev 2017-2021-yillarda “O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”

Mavzu bo‘yicha tayyorlangan slaydlar, test uchun kartochkalar turli didaktik o‘yinlar darsning maqsadga erishish sifatini oshirishga xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda o‘rtaga muammo tashlanadi

Masalan: Polimer bu nima-? O‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan xolda ma’lumotlar berishadi. Polimer materiallarining bugungi kundagi ahamiyati, uy ro‘zg‘or buyumlarida ishlatilishi haqida fikr almashishadi. Yana bir dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan biri bu “Polimer koptokchalar” bu metod orqali o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda turli rangdagi polimer koptokchalarda yashiringan savollarga javob beradilar va o‘z savatlarini koptokchalar bilan to‘ldiradilar. Qaysi guruh savatchasida koptoklar ko‘p bo‘lsa va javoblar to‘liq, to‘g‘ri bo‘lsa fikrlar to‘g‘ri izohlansa o‘sha guruh a’zolari dars yakunida rag‘batlantiriladi. Bu o‘yinning maqsadi o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni jamoa bilan ishlash tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlari dars jarayonlari interfaol usullar bilan olib borilganda ta’lim oluvchilarning mustaqil qaror qabul qilishi o‘zlashtirilgan mavzuni eslab qolish og‘zaki va erkin ifoda etishga o‘rgatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bunday noan’aviy metodlar faqat o‘quvchilarni bilimini baholashda emas, balki o‘quvchilar o‘z-o‘zlarini baholash fanga oid bilimlarini kengroq tushunishga, o‘z fikrlarini asoslash va o‘quvchilarni faollikka undaydi

**D.M. Mirzayeva - Farg‘ona davlat universiteti tarix fakulteti 3-kurs talabasi**

## FARG‘ONA VODIYSI G‘ARBIY TURK XOQONLIGI DAVRIDA

Vatanimiz tarixida har bir hukmron sulola alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa ilk yirik davlatchiliklardan biri bo‘lmish Turk xoqonligi davrida yurtimiz tarixini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Sababi bu borada manbalar kam bo‘lib, tarixchi olimlarimiz ham shu manbalarni o‘rganish ustida ish olib bormoqdalar. Ayniqsa, azaldan yashashga qulay makon hisoblangan Farg‘ona vodiysi hududlari bilan ham G‘arbiy turk xoqonligining bog‘liqligi bordir.

VI asr oxirida Yettisuv dashtlarida va Tyanshan tog‘ida vujudga kelgan G‘arbiy turk xoqonligi tez orada Farg‘onada o‘z hukmronligini o‘rnatdi. “Poytaxt” vodiysidagi turklar Farg‘ona vodiysiga qo‘shni bo‘lgan, Talosdagi turklar Ketmontepa va Chotqol orqali Farg‘ona vodiysiga kirib kelishi mumkin bo‘lgan.[1,22-b.] Turklarning Farg‘ona bilan tor doiradagi o‘zaro munosabatlarining mohiyati shunda ediki, turklarning qabristoni Chotqolning janubiy yonbag‘rida, Namangan viloyati shimolidagi Ungur tog‘ida joylashganligi edi. Turklar vodiyni bosib olganidan so‘ng bir muddat mahalliy sulola o‘z boshqaruvida qoldirilgan ko‘rinadi. Chunki xitoy manbalarida 560-yillardan to 627-649-yillar oralig‘idagi davrda Farg‘onadagi siyosiy vaziyat va hukmron sulola haqida va umuman, qadimgi turklarning hukmdorlik siyosiy hayotiga aralashganligi borasida hech qanday ma‘lumot uchramaydi. Faqat “Suy-shu” da 605-yili mahalliy hukmdorning Xitoyga o‘z mahsulotlari bilan elchi jo‘natganligi qayd etilgan, xolos [2,81-b.].

Shuningdek, Vey sulolasiga oid manbada Farg‘ona davlati hukmdori, uning poytaxti va boshqa shunga o‘xshash muhim ma‘lumotlar uchraydi. Masalan, “Farg‘ona davlatining poytaxti Pomir (Tsungling)ning g‘arbida 50 li narida joylashgan bo‘lib, u qadimda Giashieu deb atalar edi. Hukmdorning familiyasi Jabg‘u (Chjav‘u), ismi Alchi (Alichi). Poytaxt devori aylanmasiga 4 li (2,304 km) keladi. Askarlarining soni bir necha ming kishidan iborat. Hukmdor oltin qo‘chqor shaklidagi taxtda o‘tiradi. Hukmdorning xotini oltin toj taqadi. Bu yerda qizil kum, oltin, temir ko‘p”.[3,69-b.] Farg‘ona hukmdorining xitoy manbalarida “jabg‘u” tarzida uchrashi Farg‘onaning Turk xoqonligiga tobeligi davriga oid bo‘lsa kerak, chunki boshqa manbalarda Farg‘ona hukmdorlari “ixshid” deb yuritilgan. Turk xoqoni To‘n yabg‘u davrida boshqa qaram o‘lkalar singari Farg‘ona hukmdoriga ham hoqonlik noibligini anglatuvchi “yabg‘u” unvoni berilgan. Xitoy tarixchilari shunga asoslangan bo‘lishi mumkin. Biroq, mahalliy ixshidliklar boshqaruvi ham saqlangan. Bu haqda Ibrat: “…Kosonda Mug‘niy qo‘rg‘oni va o‘rdasi deb mashhurdir …Ixshid deb zikr qiladurg‘on So‘g‘d podsholari ham bul yerda hukmronlik qilgan”[4,277-b], - deb yozgan edi. Xitoy manbalarida aytilishicha, Farg‘ona va Kuchar bir-biriga qarindosh. Farg‘ona

hukmdori sherga oʻxshash oltin taxtda oʻtirar ekan. Boshida peshonasi bilan ensiz mato bogʻlagan (lenta), xuddi gʻarbiy turk xoqonlari singari. Yuqoridagi maʻlumotlarning barchasi Fargʻona va Kuchar turklarga qaram boʻlganligini koʻrsatadi. [1,23-b.]

Ammo VII asr boshlariga kelib turk xoqonlari bir nechta voha hukmdorliklaridagi boshqaruv sulolalarga barham berib, oʻrniga oʻz xonadoni vakillarini tayinlay boshlaganlari kuzatiladi16. Bu holat Fargʻonani ham chetlab oʻtmagan. Chunonchi, “Tan-shu”ga koʻra, “Chjen-guan davri (627-649)da hukmdor Kibi Gʻarbiy tukyue (turk)lardan boʻlmish Gan Moxedu tarafidan oʻldirildi. Ashena Shuni (Ashina Sheni) undan (yaʻni, Gan Moxedudan) shahar (Sitszyan)ni olib qoʻydi”[3,85-b.]

Ayrim tadqiqotchilar Toʻn Bahodurni Toʻn yabgʻu-xoqonning amakisi Bahodur bilan bir shaxs boʻlganligini taʻkidlab, shu asosda Fargʻonada Ashina xonadonining bir tarmogʻi 630-yillardan boshlanganini taxmin qiladilar. Maʻlumki, 630-yili Bahodur oʻz jiyani Toʻn yabgʻu-xoqonni oʻldirib, taxtga chiqqach, oʻziga Kyuyli Sibi ke-xan (turk. Kulug Sibir xoqon) unvonini qabul qilgan. Oradan koʻp oʻtmay, yaʻni 631-yilda Bahodur xoqonning boshqaruvidan norozi boʻlgan Toʻlas qabilalari unga qarshi isyon koʻtarib, Toʻn yabgʻu xoqonning oʻgʻli Seli Dele (turk. El Tegin)ni qoʻllab-quvvatlaydilar. Biroq u xoqon boʻlguniga qadar xitoy manbasida faqat Moxedu (Bahodur) deb tilga olingan boʻlib, Gan (Toʻn) ismi, toʻgʻrirogʻi, epiteti esa qoʻshilmagan. Xullas, Toʻn Bahodurning aslida kim ekanligi masalasi toʻla hal etilmagan boʻlsa-da, har ikkisi ham (Toʻn yabgʻu-xoqonning oʻgʻli va amakisi) Ashina xonadoniga mansub shaxslar boʻlgan. Buni ularning unvon va epitetlari, qolaversa, xitoy yilnomasida ularga nisbatan qoʻllanilgan “Gʻarbiy turklardan” iborasi ham tasdiqlaydi. Endi Ashina Shuni shaxsi haqida qisqacha toʻxtalsak. Arxeolog A.N.Bernshtam Ashina Shunining shunishi urugʻiga mansub Ashina ismli shaxs ekanligini ilgari surgan. Biroq Ashina ismi faqat xoqonlik boshqaruvchi xonadoni vakillariga berilganligi nazarda tutilsa, Ashina Shunining shunishi urugʻidan emas, balki xoqonlikning boshqaruv sulolasi boʻlmish Ashina urugʻidan boʻlib, turkiy shahzodalardan biri ekanligi oydinlashadi .

Xulosa qilib aytganda, mahalliy sulola hukmdorligiga Ashina xonadoni vakili boʻlmish Toʻn Bahodur tomonidan barham berilgach, Fargʻonada turkiy Ashina xonadoni vakillari sulolasi tashkil topadi. Xoqonlikdagi oʻzaro taxt talashuvlari natijasida Toʻn Bahodur oʻrniga Ashina xonadoni shahzodalaridan biri Ashina Shuni hukmdorligi oʻrnatiladi. Bu esa Fargʻonada Ashina xonadonining bir tarmogʻi boʻlgan sulolaning tashkil topishi Ashina Shunidan boshlangani haqidagi xulosani qayta tahrir qilishni taqozo etadi. Garchi, tadqiqotchilar ushbu sulolalaning boshqaruv yillarini 630-750-yillar bilan belgilagan boʻlsalar-da, ushbu sana aniq boʻlmay, balki taxminiydir. Bu borada tadqiqotlar davom etmoqda.

**Adabiyotlar**

1. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). - Ташкент: изд-во АН Уз ССР, 1951.
2. Хотамова М. Фарғонада туркий сулола // “Фарғона водийси янги тадқиқотларда” мавзусидаги III республика илмий анжумани материаллари. Фарғона, 2014.
3. Хўжаев А. Қадимги Хитой манбаларида Фарғонага оид маълумотлар (таржима ва шарҳлар). – Тошкент: 2011.
4. Исҳоқхон Жунайдуллоҳхўжа ўғли Ибрат.Фарғона тарихи // Мерос. Тошкент: Камалак, 1991.

**Ў.М. Ахмедова - Фарғона вилояти тарихи ва маданияти давлат музейи бўлим бошлиғи, Г.Н.Артикова - сектор мудираси**

## НАВОИЙ ШАХСИЯТИ ВА ИЖОДИ «ЎЗБЕКИСТОН МАДАНИЙ МЕРОСИ ЖАҲОН ТЎПЛАМЛАРИДА» ЛОЙИҲАСИ ЭЪТИБОРИДА

Бугун ифтихор билан айтишимиз мумкинки, мамлакатимиз жаҳонга юз тутмоқда. Бу маданият, сиёсат, ижтимоий ҳаёт ва сайёҳликда кўзга ташланяпти. Айниқса, ижтимоий ҳаётнинг тубдан янгиланиши фуқароларимиз фаоллигини янада оширди. Натижада мамлакатимизда янги, таъбир жоиз бўлса, оламшумул воқелик-“Ўзбекистон маданий мероси жаҳон тўпламларида” мультимедиа лойиҳаси дунёга келди. Бу лойиҳа ғояси илк бор Самарқандда, Регистон майдонида бўлиб ўтган “Ўзбекистон маданий мероси-халқлар ва мамлакатлар ўртасидаги мулоқотга йўл” I Халқаро илмий-маданий конгресси (2017 йил май)да илгари сурилди. 2018 йилда Санк-Петербургда

бўлиб ўтган 2 Халқаро илмий-маданий конгресси1 доирасида Ўзбекистон маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва оммалаштириш бўйича Бутунжаҳон жамияти ташкил этилганлиги расман эълон қилинди. Тарих бир мамлакат меросини ўрганиш учун бутун дунё олимлари жамланган бундай кенг кўламли воқеликни ҳали бимлмайди. Бутунжаҳон жамияти 2019 йилнинг август ойида Париж шаҳрида расмий рўйҳатдан ўтказилди.

“Ўзбекистон маданий мероси жаҳонтўпламларида“ лойихасининг биринчи натижалари дунё илмий жамоатчилигининг мамлакатимизга бўлган катта қизиқишини намойиш этди. Давлатимиз раҳбари 2019 йилнинг август ойида Тошкентда бўлиб ўтган Ўзбекистон маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва оммалаштириш бўйича Бутунжаҳон жамиятининг 3 Халқаро конгресс иштирокчиларига йўллаган мурожаатида таъкидлаганидек: “Маърифат ва таълимга қаратилган лойиҳалар кўлами жуда катта. Уларнинг амалга оширилиши биз учун нафақат шараф, балки Ўзбекистон келажагини белгиловчи асосий йўналишдир. Дарҳақиқат, маърифат ва таълим тинчлик ва яратувчиликка олиб боради. ”

Ушбу лойиҳада бизнинг қадимий ўлкамизда яратилган, аммо баъзи сабабларга кўра хорижда сақланаётган Ўзбекистон маданий меросий дурдоналарини намойиш қилинган. Бу каби лойиҳа хали дунёнинг бирор бир мамлакатида амалга ошмаган эди. Лойиҳа асосида ноширлик дастуридан ташқари, фильмлар ва телекўрсатувлар яратилмоқда, ҳалқаро конгресслар ва медиа тадбирлар ўтказилмоқда. Ғурур билан айтишимиз мумкинки, ушбу лойиҳа Янги Ўзбекистоннинг ташриф қоғози бўлди.

Ушбу тўплам XXXVI жилддан иборат бўлиб, улардан V ва XIX томларида ўзбек адабий тили асосчиси, мутафаккир Алишер Навоий ижоди ва шахсиятига доир илмий ва бадиий маълумотлар ёритилган. Бу китобларнинг V томи “Алишер Навоий асарлари XV-XVIасрлар китобат санъати дурдоналарида”, XIX томи эса “Алишер Навоий асарларининг Истанбул кутубхоналаридаги безакли қўлёзмалари” деб номланган. Ушбу китобда айтилишича, турк олими Жаҳон Оққуюжи томонидан берилган маълумотига кўра, Туркияда Алишер Навоий асарларининг 100 дан зиёд қўлёзмалари сақланади. Хусусан, бу қадимий ва бетакрор ўлкада буюк шоир бобомиз “Куллиёт”ининг иккита мўътабар нусхаси мавжуд.

Илмий манбаларда қайд этилишича, Навоий асарлари туркий халқларда асрлар мобайнида асл нусхада ўқиб келинган. Турк олими Юсуф Четиндоғ: “Айниқса, XVI умумтурк оламида “Навоий асри” деб аталса, асло муболаға бўлмайди”, деб эътироф этгани ҳам шундан далолат беради. Шунингдек, яна таниқли турк олими Фуод Кўпрули “Алишер Навоий фақатгина Ўтра Осиё туркийларининг , яъни ўзбек адабиётининг буюк шоири бўлибгина қолмаган, унинг асарлари юз йиллар давомида турк дунёсининг ҳар тарафида, Онадўли ва Рум элида, Озарбайжонда, Эронда, Ироқда, Қримда, Волга бўйларида, туркманлар орасида, ҳаттоки Ҳиндистондаги турк саройларида ўқиб-ўрганиб келинган.” Тарихий китоблар шундан далолат берадики, Алишер Навоий асарлари Туркияга унинг хаётлиги давридаёқ кириб борган. Чунончи, турк султони Боязид Иккинчи билан шахсан таниш бўлган Алишер Навоий 1481 йилда унга 33 та ғазалини юборади. Турк султони уларни Бурсага –ўша даврнинг машҳур шоири Аҳмад Пошога юбориб, ушбу ғазалларга назира ёзишни сўрайди. Ғазаллар шоирда кучли таассурот қолдиради ва уларнинг барчасига назира боғлайди.

Шунингдек Сайди Али Раис Котибий деган турк шоири Алишер Навоий ижодининг чинакам мухлиси бўлиб, унинг кўплаб ғазалларига назира ёзгани учун “Алишер соний” деган ном билан шухрат қозонган. Навоийнинг “Хамса”сига эргашиб, турк адабиётида Тошлижали Яхё ва Хамди Чалабийлар турк тилида “Хамса” яратганлар.

Ушбу китоб-альбомнинг XIX жилди Босфор университети профессори, Ўрта аср қўлёзма санъати тарихи мутахассиси Лале Улуч томонидан ўрганилган Туркиянинг тўртта йирик илмий маркази: Тўпқопи музейи кутубхонаси, Сулаймония кутубхонаси, Турк ва Ислом санъати музейи ва Истанбул университети кутубхонасида йигирма жилддан иборат мажмуада сақланаётган Алишер Навоийнинг 17 та қўлёзмаси нусхалари ҳақидаги тадқиқотларни ўз ичига олгани билан айникса эътиборли ва албатта фахрланишга арзигулик жихатидир. Ушбу қўлёзмаларнинг барчаси қимматбаҳо материаллардан фойдаланилган ҳолда шоҳона безатилган. Уларнинг ҳаммаси ўлчамли ва безатилган қоғозларга ёзилган бўлиб, аксарияти ўзининг аслий жилдлари билан сақланиб қолган. 17 та қўлёзмадан тўрттасининг жилди локланган ва ўн биттаси теридан ишланган бўлиб, улардан

биттаси қўшимча равишда олтин ип ва кўк ипак билан ҳошияланган, жилднинг ички томони ҳам чармдан, аммо учтасига лок билан икки қатламли чармга ишлов берилган. Ўн иккитаси икки бичимли нодир асарлар бўлса, ўн учтасида икки бичимли тўлиқ миниатюралар билан ярқироқ ҳолатда безатилган сарлавҳали саҳифалар мавжуд. Баъзи китобларнинг саҳифалари ичидаги мисраларнинг орасига тилла суви юргизилган, хошияларида эса олтин билан безатилган нақшинкор ҳуснихатлар зебу зийнатлари билан тизилган бўлиб, саҳифаларига тилла суви югуртирилган.

Ушбу маълумотларни ўқир эканмиз, қалбимиз чуқур фахр-ифтихорга тўлади. Бутун туркий халқларга ибрат бўлган, ўзбек адабий тилини юксакларга кўтарган, буюк мутафаккир қони бизнинг томирларимизда ҳам жўш уриб оқаётганини ҳис қилиш инсонга ўзгача сурур бағишлайди.Айниқса, бобомизнинг буюк Куллиёти жахоннинг бошқа жойларида, илм масканларида, турли тўпламларда, музейларда сақланаётганлиги бизнинг нақадар буюк ўтмишимиз борлигидан далолат беради.Бу меросни тўплаб, жам қилиб ушбу лойиҳага киритилиши эса туркий халқларнинг фахр-ифтихори ва меҳр-муҳаббатини давлатимиз томонидан эътироф этилиши сифатида қабул қилишимиз мумкин.

**B.K. Jo‘lmatov – Beshariq tumani 6-maktab o‘qituvchisi**

## TA’LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING TA’LIM VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma’naviy yangilanishini, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni va Jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat hamda ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda. Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o‘zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekitson taraqqiyotining muhim shartidir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi mutaxassislar tayyorlash tizimi va uning mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va bir qator choratadbirlar ko‘rishni, shu jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni joriy etish, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni, ilg‘or o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassalalarini tashkil etish hamda eng asosiysi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni taqozo etdi. Shunday ekan boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. Ularsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. Didaktik o‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. Uning vositasida o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish hamda insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalar borliqni o‘rganadi va dunyoni o‘zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o‘yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O‘yinnning eng muhum ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta’sir etish ehtiyoji paydo bo‘ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o‘yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O‘quvchilarning o‘yin faoliyati juda ko‘p soha olimlarini, ya’ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san’atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o‘yin hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o‘yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o‘zaro ta’sirda shakllanadi. O‘yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o‘tish uchun muhum zamin yaratadi. Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan voqea va hodisalarning immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O‘yinning boshqa faoliyat turlaridan muhum farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o‘yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o‘quv faoliyatidir. Didaktik o‘yinda o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olgan ta’limiy vazifalarning bo‘lishi muhumdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o‘yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to‘playdigan turlariga e’tibor

qaratishlari lozim. Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni oʻqitish va tarbiyalashda didaktik oʻyinlardan keng foydalanish an’analari oʻqituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlantirildi. Chex pedagogi Y.A.Komenskiy oʻyinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta’kidlab, aynan oʻyin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim oʻyin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama oʻstirishi, uning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini oʻstirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi oʻyin uni tengdoshariga yaqinlashtiradi. Bolalar tarbiyasida didaktik oʻyinlardan ikki yoʻnalishda: barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi.

Oʻyin bu - muhim aqliy faoliyatlaridan biri boʻlib, unda oʻquvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrofolam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik oʻyinlar oʻquvchining turli-tuman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta’sir koʻrsatadi.

**R.D. Abdurahimov – Beshariq tumani 55-maktab oʻqituvchisi**

## KASBIY KOMPETENTLIK – OʻQITUVCHINING ENG MUHIM XUSUSIYATI

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yoʻnalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intelekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni ragʻbatlantirish muhim yoʻnalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida oʻz ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda oʻqituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olgʻa surganlar. Oʻz navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Boʻlajak kasb ta’limi oʻqituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida oʻziga xos oʻrin tutadi. Ayniqsa ta’limni modernizatsiyalash bilan bogʻliq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon boʻlmoqda. Boʻlajak kasb ta’limi oʻqituvchilarini amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kasb ta’limi oʻqituvchisini kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda.

Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv oʻquvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati koʻp jihatdan oʻrganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta’siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda oʻz-oʻzini tartibga solish xususiyatlari oʻz bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan oʻz hatti-harakatini qathiy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bagʻishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

- maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, oʻzining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;
- ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni va shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, oʻz kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik.

Kasb ta’limi oʻqituvchisining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy koʻnikmalar, oʻz-oʻzini boshqara olish layoqatlarining oʻzaro bogʻliqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Evropa davlatlarida shakllangan an’anaga muvofiq kasbiy malaka mutaxassisning kompetentligi, uni shakllantirishga qaratilgan ta’lim tizimi esa – bilim, koʻnikma va malakalar darajasi bilan oʻlchanadi.

«Oʻqituvchining kasbiy kompetentligi» tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: Oʻqituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy

kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda to‘la kasbiy shakllanishga intilishi, pedagogik texnologik vaziyatlarni idrok etishi, shu jumladan kasbiy qiziqishlari doirasi kengaytira olishi o‘zini takomillashtirishida talab paydo bo‘ladi. Kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, malaka va qobiliyatlarga, ularni namoyon etishga ko‘pchilik talabalarda chuqur va doimiy qiziqish paydo bo‘ladi. Ushbu tadqiqotlarda doimiy pedagogik tajribaga ega bo‘lgan alohida talabalar qobilyatlarini hisobga olish kerak.

**O.M. G‘ofurova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## TA’LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhiti, o‘zida axborot ob’ektlarini, ularning o‘zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to‘plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtirgan bo‘ladi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi insoniyatning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. Ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lishi, ya’ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e’tibor qilgan holda differensiyalangan bo‘lishi kerak.

Yaqin o‘tmishda jahonning ko‘p mamlakatlarida hukmron bo‘lgan o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi bugunda nafaqat o‘quvchini, balki jamiyatni ham qoniqtirmayapti.

Har qanday ta’lim tizimi ma’lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori va ijtimoiy-iqtisodiy omil sanaladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki maktab, oliy ta’lim muassasi insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy hayotda faol faoliyat ko‘rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham maktab va oliy ta’lim muassasasi ta’limning tayanch bo‘g‘ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish – bu o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatini inobatga oluvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitishdir. Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, o‘qitishni differensiyalash va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Shakl va mazmunning rang-barangligi – o‘quvchining qiziqishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib taklif etilayotgan hollardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topishi zarur. Har xil sathli o‘qitish bunday muammoning yechimi bo‘la oladi.

An’anaviy va zamonaviy axborot texnologiyalari muhitidagi pedagogik ta’limlarning asosiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash axborotlashtirilgan pedagogik ta’limning istiqbolli ekanligini yaqqol namoyon qildi. Buni quyidagi fikrlar asosida ham tasdiqlash mumkin. An’anaviy didaktika o‘z oldiga o‘quvchining aqliy rivojlanishini tezlatishni, o‘quv faoliyatining malaka va ko‘nikmalarini, bilimni o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishni ta’minlovchi metodik usullarni yaratishga qaratilgan o‘qitish nazariyasini shakllantirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Axborotlashgan pedagogik ta’limda didaktika va axborot jamiyat a’zosining intellektual rivojlanishini jadallashtirish zarurligini aniqlovchi ta’lim maqsadlariga erishishni ta’minlashga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sirga ega bo‘lib, shaxsning intellektual salohiyatini namoyish etishni va rivojlanishini o‘zining asosiy maqsadi etib qo‘yadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqaligina to‘liq erishish mumkin.

Shunday qilib, ta’limni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, o‘quv materiallarining mazmuni va hajmini o‘zgarishiga, o‘quv predmetlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki predmetlarning integrallashuviga sababchi bo‘ladi. Bu esa, o‘quv fanlarining mazmuni va strukturasini o‘zgarishiga, binobarin, ta’limning mazmuni va strukturasini o‘zgarishiga olib keladi.

Bu jarayonga parallel ravishda, o‘quvchilar bilim saviyasi muammosiga, kompyuter texnologiyalari asosidagi innovatsion yondashuvni joriy etish lozim bo‘ladi.

Ta’lim mazmuni va tarkibi, nazorat va o‘qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o‘zgarishi o‘qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan foydalanish va shu tufayli o‘quv faoliyatining kengayishi, o‘qitish vositalari va darsliklarga bo‘lgan didaktik talablarning sifatiy o‘zgarishlariga olib keladi.

**S. Abdullayeva - Farg‘ona davla universiteti magistranti**

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASALA YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARNI IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Hozirgi paytda maktablarda boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo‘yicha bilimlar berish bilan birga ularga o‘rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo‘lishini ta’minlash, ularni qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni kelgusida olingan bilimlarni ongli hayotiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo‘llashlari uchun zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish boshlang‘ich matematik ta’limning asosiy vazifalariga aylanishi lozim. Shu nuqtai nazardan o‘quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to‘plagan tajribasiga asoslangan masalalarni echish usullariga va ularni qo‘llashga o‘rgatish o‘ziga xos hususiyatlarga ega, ularni ta’lim mazmuni va o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini ochib berishda foydalanish, o‘zaro aloqadorlikda va o‘quvchilar amaliy faoliyati tajribasi bilan qo‘shgan holda o‘qitish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu usullarni ishlab chiqish va amalda qo‘llash o‘qitish sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o‘quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o‘quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang‘ich sinflarda masalalar yechish tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini etkazish uslubiyatini ishlab chiqish o‘z ichiga o‘quvchilarda umuman boshlang‘ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni oladi. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishda tushunchalar mohiyatini ochish orqali, hayotiy mazmunli mashq va misollardan keng foydalanish va shu asosda mantiqiy biri-biriga bog‘langan tushunchalar, ta‘riflar, qoidalar va xulosalarni keltirib chiqarish o‘quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi..

Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘rganishda har bir amalning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi matnli mashqlar va ularni o‘quvchilar hayotiy tajribasi bilan bog‘lab taklif etish uzviylikka ega, bu esa o‘quvchilarning fanga qiziqishlarini oshirish bilan birga fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Shuningdek umumiy fikrlash usullari va ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishda fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish arifmetika materiallari mazmuni, o‘rganilayotgan asosiy tushunchalar va ularga doir masalalarni echish ko‘rgazmali tasavvurlar bilan birga mantiqiy fikrlashni, asoslash va amaliy qo‘llanishni talab etadi.

Boshlang‘ich sinflar matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masalalar echish jarayonida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu shu bilan asoslanadiki, birinchidan, boshlang‘ich sinflar matematika darslarida ko‘pigan tushunchalarni hayoti tajribaga asoslanib o‘qitishga asoslanadi, ikkinchidan, tushunchalar, qoidalar va ularni kuzatishlar,mashq va misollar asosida ko‘rgazmali chiqarilishi usullari, amallar va ularning xossalarini bayon etishda ularning qo‘llanilishi, uchinchidan, matnli va syujetli mashq va misollar va ularni echishda o‘quvchilar da fikrlash ko‘nikmalarini gakllantirish bilan birga algebraik va geometrik tushunchalar, boshqa amallar bilan o‘zaro aloqadorligidan foydalanish talab etiladi. SHuning uchun o‘quvchilarini hayotiy masalalar echish jarayonida fikrlash qobiliyat-larini rivojlantirish samarali usullarini ishlab chiqish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo‘llash usullarini o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. Matematik masalalar echish matematika o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar echmasdan matematikani o‘zlashtirishni tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Matematikada masalalar echishning nazariyasini amaliyotga tadbiq qilishning muhim yo‘lidir. Masalalar echishning boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan u yoki bu

nazariy materiallarni oʻzlashtirish jarayonida muhim rolni va oʻquvchilarni fikrlash qobilyatlarini oʻstiradi muhim roʻl oʻynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan soʻz har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qoʻllanishini talab qiladigan u yoki bu masalani echish bilan amalga oshadi. Matematik masalalar echish matematika oʻqitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar echmasdan matematikani oʻzlashtirishni tasavvur ham etib boʻlmaydi. Matematikada masalalar echishning nazariyasini amaliyotga tadbiq qilishning muhim yoʻlidir. Masalalar echishning boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni oʻzlashtirish jarayonida muhim rolni va oʻquvchilarni fikrlash qobilyatlarini oʻstiradi muhim roʻl oʻynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan soʻz har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qoʻllanishini talab qiladigan u yoki bu masalani echish bilan amalga oshadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

**1.** Bikbaeva N.U. R.I. Sidelnikova, G.A. Adambekova. Boshlangʻich sinflarda matematika oʻqitish metodikasi. (Oʻrta maktab boshlangʻich sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma. Toshkent. ―Oʻqituvch

**2.** Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qoʻllanma. Toshkent. 2005 yil.,

**O.N. Abobakirova - Fargʻona davlat universiteti, PhD**
**M.I. Soliyeva - Fargʻona davlat universiteti**

## BOLA SHAXSIDA KREATIVLIK (IJODIY) QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Yosh avlodni yetuk, barkamol va intellektual darajasi yuqori qilib tarbiyalash hamma zamonlarda ham e'tiborli va dolzarb vazifa boʻlib kelgan. Shu bilan birga mazkur vazifa keng xajmga ega va murakkab hisoblanadi.

Shuni e'tiborga olishimiz kerakki, odam bolasining shaxs sifatida shakllanishi murakkab tadrijiy rivojlanish yoʻliga ega. Har bir bola ruhiyati oʻziga xos boʻlgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan birga unga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri ham juda xilma-xildir. Bu murakkab jarayonni toʻliq oʻrganib chiqish uchun koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi kerak boʻladi.

Biz e'tibor qilmoqchi boʻlganimiz bu individning kreativ (ijodiy) qobiliyati, uni goʻdaklik yosh davrida rivojlanish xususiyatlari va rivojlantirish yoʻllari haqida[207].

Ma'lum boʻlishicha shaxs ontogenezining dastlabki davrlari xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan bolaning 2-6 yoshlar orasidagi davrida sakson foizgacha shaxs xususiyatlari shakllanishi haqidagi ma'lumotlar bor. Psixologiyada mavjud boʻlgan impirinting (qayd qilish) nazariyasining tarafdorlariga koʻra bolaning shaxs xususiyatlari shakllanishida ilk tajriba muhim va birinchi darajali ahamiyatga ega[208]. Demak, bu davrning muhimligini hisobga olib, bolada kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish yoʻllarini qidirishimiz kerak boʻladi.

Bizning fikrimizcha, bolalarda kreativlik qobiliyatini oʻstirishning quyidagi yoʻllari mavjud:

1. Tasviriy san'at. Bola mazkur faoliyat bilan mashgʻul boʻlishi natijasida, undagi xayol va tasavvur jarayonlari rivojlanadi. Mazkur rivojlanish oʻz navbatida tafakkurga stimul beradi. Natijada, mazkur ikki bilish jarayonlarining muvofiqlashuvi ijodiy qobiliyatning kashf etish xususiyatini yuzaga keltiradi.
2. Musiqa. Koʻrish sezgisi odamlarda yetakchi oʻrin tutadi. Toʻqson foiz axborotni koʻrish orqali qabul qilamiz. Ammo, musiqani koʻrish mumkin emas. U eshitiladi va his qilinadi. Demak, musiqa bilan

[207] Xamidova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini integrative metodlar orqali rivojlantirish. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME.2021.
[208] Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga oid nazariyalar. Замоноваий таълим. 2019 й.

shug‘ullanish bola ruhiyatidagi “mudroq” xususiyatlarni jonlanishga olib kelishini taxmin qilishimiz mumkin.

3. Ertak. Ertaklar bolalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun qudratli vosita nazarimizda. Cunki bola voqealar jarayonini tasavvur qiladi, ertaklar olamida “yashaydi”, quvonadi, qayg‘uradi. Bunday jarayon ularda ijodiy xayol(fantaziya)ni o‘sishiga xizmat qiladi.

4. Konstruktorlik o‘yinlari va boshqotirmalar. Mazkur faoliyat bolalardagi tabiiy layoqatni shakllangan tus olishiga va ijodiy qobiliyatning dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi faoliyat turlari bilan bolalarni muvaffaqiyatli shug‘ullanishlarini ta’minlash va ular orqali samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun televizor tomoshasi va kompyuter o‘yinlarini butunlay cheklash kerak bo‘ladi. Chunki bunday vositalar tomoshabinlik va dangasalikka ma’lum darajada moyil bo‘lgan odam ruhiyatini, aqliy faollik(aqliy mehnat) va irodaviy zo‘r berish bilan kechadigan yuqoridagi faoliyatlardan chetlanishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хамидова Г. Мактабгача ёшдаги болалар ижодкорлигини интегратив методлар орқали ривожлантириш.ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME.2021.

2.Хурвалиева Т.Л. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психик ривожланишига оид назариялар. Замоноваий таълим. 2019 й.

**O.N. Abobakirova - - Farg‘ona davlat universiteti, PhD**
**M.I. Soliyeva - Farg‘ona davlat universiteti**

## TARBIYACHILARNING INNOVATSION FAOLIYATINI TASHKILLASHDA KREATIV YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH

Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda. Pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirish bugun dolzarb masallardan biri hisoblanadi.

Azaldan ma’lumki, bolani tarbiyalash nihoyatda qiyin va murakkab jarayon. Ushbu faoliyatga doimo jamiyatning yetuk kishilari jalb etilganligini qadimdan ma’lum.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi bu borada olib borilayotgan islohotlardan ham ma’lumki, bu kabi muhim jihat hozirda ham e’tiborga molik vazifa sanaladi. Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etayotgan bir davrda[209]. Shunga ko‘ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo‘ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo‘lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedogogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi hamda oilaviy axvoli bilan qiziqishi va mashg‘ulotlarga inovatsiyalarni olib kirishidagi innovatsion faoliyati davomida har bir faoliyatini kreativ yondashuv asosida tashkillashini talab etadi[210].

Zamonaviy ta’limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish va unga kreativ yondashuvi sanaladi[211]. Tarbiyachining innovatsion faoliti bu yaratuvchanligi va ijodiy faoliti bo‘lsa, kreativ yondashuvi esa ijodkorlidir. Demakki, tarbiyachining yangicha yondashuvidagi, ijodiy imkoniyatlari bilan aks etar ekan. U holda, tarbiyachi-maxsus pedagogik,

[209]Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.
[210]Сайидаҳмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: Олий педагогика институти, 2003.
[211]Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.

psixologik va mutaxassisligi boʻyicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanalib, shuningdek zamonaviy tarbiyachi murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarni namoyon eta olishi kerak. Zamonaviy tarbiyachi oʻzini mutaxassisligi boʻyicha chuqur puxta bilimga ega boʻlishi, oʻz ustida tinimsiz ishlashi kerak.

Bugun tarbiyachilarimiz juda yuksak darajadagi madaniyatga ega boʻlgan shaxs sifatida hamda oʻz faoliyati nuqtai nazaridan juda koʻp narsani bilishi kerak. Tarbiyalanuvchilarni har kuni mashgʻulotlarni oʻrgatib borish uchun oʻzi muntazam oʻqib, oʻrganib, oʻz bilimini toʻldirib, chuqurlashtirib borishi bilan birga ijodkorlik sifatlarini, ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirib borish ham muhim hisolanadi.

Maktabgacha ta’lim hayoti kichik pedagogik jarayon boʻlib juda xilma -xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Shuning uchun hozirgi kun tarbiyachisi qoʻyidagi sifatlarni egallashi bilan kreativ fikrlash koʻnikmasiga ega boʻlishlari mumkin:

- pedagogik faoliyatida ijodiy qobiliyatga ega boʻlishi va ijodkorlikni tarbiyalashi;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli boʻlmogʻi darkor.

Zamonaviy tarbiyachining zimmasidagi ma’suliyatini innovatsion faoliyatni tashkil etishdagi kreativ yondashuvga egaligi belgilaydigan shunday bir davrda,tarbiyachilarimiz bu maqsadni quyidagi vazifalarni hal etish bilan amalga oshiradi:

- Tarbiyachi innovatsion faolyatidagi kreativlikning nazariy-metodologik asoslari bilan qurollantirish;
- Mustaqil ijodiy faoliyati va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish bunga doir koʻnikmalarini hosil qilish;
- Tarbiyachining ijodiy qobiliyatiga xos malakalarni shakllantirish;
- Egallangan kreativ pedagogik-psixologik bilimlart asosida shaxsiy pedagogik innovatsion faoliyatni yaratish malakalarini hosil qilishi lozim.

Bu kabi muhim vazifalarga e’tiborli boʻlish, tarbichining innovatsion faolitini tashkil etishda kreativ yondoshuvi va ijodkorlik sifatlari, bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarning yengishga qodir boʻlgan nufuzli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif boʻlgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga boʻlgan qobiliyat mujassamligi faoliyatining samaradorligini tamanlashaga tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini tashkillashda kreativ yondashuvini rivojlantirishga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Инновацион таълим технологиялари /Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.
2. Сайидаҳмедов Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: Олий педагогика институти, 2003.
3. Султонова Г.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2005.

**M.Gʻ. Alijonova – Fargʻona davlat universiteti magistranti**

## BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARINING NUTQIY XATOLARI VA ULARNING SABABLARI

Globallashuv davrida barchaning diqqat markazida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini rivojlantirish muammosi turibdi, chunki inson nutqi uning aql-zakovati va madaniyatining koʻrsatkichi hisoblanadi. Afsuski, nafaqat boshlangʻich sinf oʻquvchilari va yuqori sinf oʻquvchilarining, balki oʻquvchilar va hatto bitiruvchilarning nutqlari ham bu fazilatlarga javob bermaydi, shuning uchun oʻquvchilarning til boʻyicha bilimlari va nutqini yaxshilash ona tilini oʻqitish metodikasidagi asosiy muammolardan biridir. Bu vazifa ayniqsa keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta’lim olish uchun asos boʻlgan boshlangʻich sinf uchun juda muhimdir.

Erta bolalik davrida bolada aloqa ehtiyojlari mavjud bo‘lib, uni eng oddiy nutq vositalari orqali qondiradi, taxminan bir yoshga yetganida esa birinchi so‘zlar paydo bo‘ladi. Boshidanoq, nutq ijtimoiy hodisa, aloqa vositasi sifatida paydo bo‘ladi. Biroz vaqt o‘tgach, nutq ham atrofimizdagi dunyoni tushunish, harakatlarni rejalashtirish vositasiga aylanadi. Rivojlanayotganda bola tobora murakkab til birliklaridan foydalanadi. Lug‘at boyitiladi, frazeologiya o‘zlashtiriladi, bola so‘z hosil qilish qonunlarini, so‘zlarni o‘zaro bog‘lash, so‘z birikmalarini, turli xil sintaktik tuzilmalarni o‘zlashtiradi. U tilning ushbu vositalaridan tobora murakkab bilimlarni yetkazish, faoliyat jarayonida atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish uchun foydalanadi. Bolaning nutqini yaxshilash o‘z-o‘zidan bo‘ladigan jarayon emas. Bu doimiy pedagogik rahbarlikni talab qiladi. Bolaning nutqini rivojlantirishning birinchi sharti, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, muloqot yoki aloqaga ehtiyoj zarurati. Shuning uchun nutqni rivojlantirish metodologiyasida nutqning motivatsiyasini aniqlaydigan, o‘quvchining fikrini bayon qilishga ehtiyoj uyg‘otadigan, uning qiziqishi va nimanidir baham ko‘rish, biror narsa haqida gapirish istagini uyg‘otadigan holatlar berilishi kerak.

Bolaning og‘zaki nutqida ko‘p uchraydigan xatolardan biri, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz eta olmasligi bilan bog‘liq. “Fonematik eshitish darajasini tekshirish ishlari bolaning nutqidagi tovushlar-fonemalarni eshitish yo‘li bilan ularni bir-biridan ajratish qobiliyatini tekshirishga qaratiladi. Buning uchun:

1) ma’lum bir tovushni boshqa tovushlar orasidan ajratish, masalan: o, a, u, o‘, i unlilari orasidan u tovushini, undosh m, p, t, k, r tovushlar orasidan t tovushini ajratib olish topshirig‘i beriladi.

2) Bir biriga o‘xshab eshitiladigan fonemalarni bir-biridan farqlash, ajratish.

3) Bir-biriga o‘xshash, faqat bir tovush bilan farq qiluvchi paronim so‘zlarni eshitib turib, bir-biridan ajratish, masalan, zina-sina, gul-kul, paxta-taxta va hokazo[212]”.

Bolaning lug‘at boyligini tekshirish uchun, predmetli, syujetli rasmlardan foydalaniladi. Rasmlarni mavzular bo‘yicha joylashtirish maqsadga muvofiq. Rasmlarni nomlash, hayvonlar va ularning bolachalarini nomlash, antonimlar ustida ishlash, masalan, baland daraxt va past daraxt, katta uy va kichkina uy, keng yo‘l va tor yo‘llar tasvirlangan rasmlarni nomlash: predmetlarni, masalan, sabzi, pomidor, kartoshka, piyoz-sabzavotlar deb umumlashtirish; syujetli rasmga qarab hikoya tuzish so‘zlar ma’nosini tushinib yetish qobiliyati tekshiriladi va hokozo[213].

Bola nutqining grammatik qurilishini tekshirish vaqtida uning jumla tuzish qobiliyati, gapda so‘zlarni qanchalik o‘rinli ishlata olishi aniqlanadi. Buning uchun syujetli rasmga qarab hikoya tuzish, gap ichida betartib berilgan so‘zlarni to‘g‘ri tartibda qo‘yib chiqish, tushirib qoldirilgan so‘zni topib gap tuzish; so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar, kelishik qo‘shimchalari, birlik va ko‘plik qo‘shimchalaridan o‘rinli foydalana olishga qaratilgan mashqlar beriladi[214].

Bu borada taniqli pedagoglardan M.R. Lvov, T.A. Ladichenskaya, M.S.Soloveychikning mavzu doirasida o‘z asarlarida keltirilgan tasniflarni ko‘rib chiqamiz. T.A. Ladichenskaya asarlarida "tilni o‘qitish amaliyoti uchun til tuzilishini (til birliklari tizimi) va nutqda lisoniy vositalardan foydalanishni ajratib turuvchi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan nutq xatolari va kamchiliklarini tasniflashga yaqinlashish o‘rinli" deb ta’kidlangan. Shu munosabat bilan T.A. Ladichenskaya xatolarning ikkita katta guruhini aniqlaydi: grammatik xatolar (til birligining tuzilishidagi (shaklidagi) xatolar); nutq (til vositalaridan foydalanish (ishlash) xatolari)[215].

M.R. Lvov nutq xatolarini tasniflashga boshqacha yondashadi: "Stilistik xatolar nutqqa oid va nutqqa oid bo‘lmaganlarga bo‘linadi (kompozitsion, mantiqiy va faktlarni buzish)"[216].

Nutqiy xatolar leksik-stilistik, morfologik-stilistik va sintaktik-stilistikga bo‘linadi. Shuning uchun M.R. Lvovning tasnifi xatolarni til tizimining sathlariga mos keladigan guruhlarga bo‘linishiga asoslangan, ya’ni. xatolar leksik, morfologik va sintaktik.

M.S.Soloveychik o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilar nutqidagi og‘ishlarning ikki turini ajratib ko‘rsatdi: tilning to‘g‘riligini buzish (til tizimi talablaridan chetga chiqish); nutq to‘g‘riligini buzilishi (kontekst talablaridan chetga chiqish)[217].

[212] http://hozir.org/nutq-kamchiliklarini-aniqlash-va-tekshirish-metodikasi.html
[213] http://hozir.org/nutq-kamchiliklarini-aniqlash-va-tekshirish-metodikasi.html
[214] http://hozir.org/nutq-kamchiliklarini-aniqlash-va-tekshirish-metodikasi.html
[215] Ладыженская, Т. А. Методика развития речи на уроках русского языка. – Москва: Феникс, 2012. – С. 112.
[216] Львов, М. Р. Речь Младших школьников и пути ее развития. – Москва: Просвещение, 2015. – С. 237.
[217] Богуславская Н.Е., Капинос В.И., Купалова А.Ю. Методика развития речи. – Москва: Просвещение, 2005. – С. 128

Shu munosabat bilan M.S. Soloveychik nutq xatolarining ikki guruhini aniqlaydi:

1-guruh – strukturaning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan, til birliklari (so'zlar, so'z shakllari, so'z birikmasi, gaplar)ning shakllanishi bilan bog'liq grammatik xatolar.

2-guruh – til birliklarini o'qitish amaliyotidan to'g'ri foydalanishni bilmaslik natijasida yuzaga kelgan nutqiy nuqsonlar.

Nutqiy xatolarning yuqoridagi tasniflari bir-biriga o'xshash. Ularning barchasida xatolar quyidagi guruhlarga bo'linadi: nutqiy xatolar (kamchiliklar), grammatik (nutqiy bo'lmagan) xatolar.

E'tiborlisi, T.A.Ladijenskaya va M.S.Saloyvich tuzilishi buzilgan til birliklari asosida grammatik xatolar guruhini ajratishadi. Masalan, "ko'lmakda qotib qolmoq" birikmasini shakllantirish xato. Ushbu mualliflarning ta'kidlashicha, xatolarning birinchi turi bu so'zning yasalishidagi (tuzilishidagi) xatolar[218].

T.A.Ladijenskaya quyidagi xatolar turlarini aniqlaydi: sifatlar; fe'llar.

M.R.Lvov so'z yasalishidagi xatolarni morfologik-stilistik deb ataydi va ularga bolalarcha so'z yasash - bolalar ona tilining so'z yaratish tizimiga muvofiq o'z so'zlarini yaratadilar; umumiy adabiy tilga oid so'zlarning ma'lum bir jamoaga xos yoki dialektik shakllarini yasash; morfemalarni tushurib qoldirish; faqat birlikda ishlatiladigan ot so'z turkumiga xos so'zlarni ko'plikda shakllantirish[219].

Xatolarning ushbu tasnifi deyarli S.S. Soloveychik tasnifida keltirilgan xatolar bilan to'liq mos keladi. Y.V. Fomenko ularga, fe'l qurilishidagi xatoliklar; teng va tobe aloqani birdan qo'llash, birikmada a'zolarning o'rin almashishi singari xatolarni qo'shadi.

**M.B. Axmadjonova - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## FE'L SO'Z TURKUMIDAGI MIQDOR SANALUVCHI SHAKLLARNI AKT YORDAMIDA O'RGATISH

Miqdor tushunchasi keng ma'noli tushuncha hisoblanadi. Deyarli hamma sohada ushbu so'zga duch kelishimiz mumkin.

Miqdor tushunchasi o'zbek tilida murakkab satxli makromaydon hosil qilib, o'zaro uzviy bog'langan uchta maydondan iborat:

1. Mavjudot son-miqdor maydoni.
2. O'lchov-miqdor maydoni.
3. Harakat-miqdor maydoni.

Binobarin, son-miqdor juda kichik maydon bo'lib, miqdor makromaydonining uchdan bir qismini tashkil qiladi.[220]

Fe'llardagi miqdorlar harakat va holatni bildiruvchi fe'llarda hamda shaxs-sonni anglatuvchi qo'shimchalarda mavjud deb olishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda ushubu holat yoritilgan:

**''Miqdor sanaluvchi fe'llar.''**

| № | Fe'lning nomi | Birlik | Ko'plik |
|---|---|---|---|
| 1 | Ko'paymoq | | + |
| 2 | Kamaymoq | + | |
| 3 | Pasaymoq | + | |
| 4 | Balandlamoq | | + |
| 5 | O'smoq | | + |
| 6 | Ko'tarilmoq | | + |

**''Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalaridagi miqdor''**

| № | Qo'shimcha | Birlik | Ko'plik |
|---|---|---|---|
| 1 | -m, -man | + | |

218 Ладыженская, Т. А. Методика развития речи на уроках русского языка. – Москва: Феникс, 2012. – С. 48.
219 Львов, М. Р. Методика развития речи школьников: пособие для учителей начальных классов / М. Р. Львов, В. Г. Горецкий, О. В. Сосновская. - 3-е изд. – Москва: Академия, 2007. – С. 192.
220 Сафаров Ф.Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. филол. фан. ном. дисс. Самарқанд - 2004

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2 | -ng, -san | + | |
| 3 | -miz, -imiz | | + |
| 4 | -ngiz, -ingiz | | + |
| 5 | -sizlar, -sanlar | | + |
| 6 | -siz, -ngiz, -ingiz, -ng, -ing | + | + |

Yuqorida keltirilgan miqdor sanaluvchi shakllar faqat harakatga nisbatan olinadi. Ammo bu fe’llar yasama fe’llar hisoblangani uchun fe’llarning o‘zagi boshqa so‘z turkumlarning miqdorini anglatadi.

Misol uchun: ko‘paymoq fe’li- ko‘p-ay-moq qismlariga bo‘linib, uning negizi ko‘p so‘zi ravish so‘z turkumiga tegishlidir yoki pasaymoq va balandlamoq fe’llari esa, past-ay-moq, baland-la-moq shaklda morfemik qismlarga bo‘linib, past hamda baland so‘zlari sifat so‘z turkumining miqdor sanaluvchi shakllari hisoblanadi.

Shaxs-son qo‘shimchalaridagi miqdor bajaruvchiga qarab aniqlanadi chunki bajaruvchi bir yoki ikki kishidan yoki undan ham ko‘p kishidan iborat bo‘lishi mumkin. Fe’llardagi mayl hamda zamon qo‘shimchalari ham huddi shunday, ya’ni bajaruvchiga qarab miqdorni belgilash mumkin.

Fe’llardagi miqdor so‘zlani AKTda bolalarga ‘‘Birgalikda o‘ynaymiz’’ o‘yini orqali ham tushuntirishimiz mumkin:




O‘yinda Simba ismli sherga do‘stini topishda yordam berish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa, o‘quvchilar taqdimotda berilgan shartlarni bajarishlari kerak. Agar berilgan savolga to‘g‘ri javob berishsa, barakalla degan yozuv chiqadi. Agar savolga noto‘g‘ri javob berilsa, o‘ylab ko‘ring yoki noto‘g‘ri degan javob chiqadi.

**D.O. Axmedova - Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## ZID MA’NOLI SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Berilgan so‘zga zid ma’noli so‘zni tanlash topshirig‘i zid ma’noli so‘zlar ustida ishlashning eng soda usuli hisoblanadi. Bu usuldan boshlang‘ich sinflarga antonim so‘zlarni o‘rgatishda keng foydalaniladi. Quyida aynan shu topshiriqni AKTdan foydalanib yanada qiziqarli tarzda berilgan holatini ko‘rib chiqamiz. Bu o‘yinimiz “Etik kiygan mushuk” deb nomlanadi.




Ushbu o‘yin qoidasiga ko‘ra o‘quvchilar berilgan so‘zning zid ma’noli juftini topishi orqali etik kiygan mushukni bo‘yshlari kerak bo‘ladi. Agar so‘zning qarama-qarshi ma’noli jufti to‘g‘ri topilsa etik

kiygan mushuk rang bilan bo'yaladi. Aksi bo'lsa o'sha noto'g'ri so'z yo'qolib qoladi, etik kiygan mushukda esa hech qanday o'zgarish yuz bermaydi.

Bilamizki, barcha boshlang'ich sinf o'quvchilarining sevimli mashg'ulotlari rasm chizish va unga rang berish hisoblanadi. Bu o'yin orqali ana shu qiziqish doirasida bilim olish ham yotadi. Endi bola so'zning zid ma'nolisini to'g'r hamda tezroq topishga, bu orqali esa sevimli qahramoni bo'lgan etik kiygan mushukni turli ranglar bilan bo'yashga shoshadilar va bunga astoydil kirishadilar.

O'yinning birinchi sahifasida katta so'zi berilgan. O'quvchilar bu so'zning qarama-qarshi ma'noli juftini topishlari ktalab etiladi.

Masalan, ***katta*** so'zining zid ma'noli jufti ***kichik*** so'zidir, lekin *ko'p, ulkan* so'zlari bu so'zga antonim emas.

Qolgan sahifalardagi so'zlarga ham shu tariqa zid ma'noli so'zlar topib boriladi.

***Ko'p*** so'zining zid ma'noli jufti ***oz*** so'zidir, lekin *ilk, tik* so'zlari bu so'zga antonim emas.

***Achchiq*** so'zining zid ma'noli jufti ***shirin*** so'zidir, lekin *sho'r, rost* so'zlari bu so'zga antonim emas.

***Keng*** so'zining zid ma'noli jufti ***tor*** so'zidir, lekin *teng, ko'p* so'zlari bu so'zga antonim emas.

***Bor*** so'zining zid ma'noli jufti ***yo'q*** so'zidir, lekin *eski, tor* so'zlari bu so'zga antonim emas.

***To'g'ri*** so'zining zid ma'noli jufti ***egri*** so'zidir, lekin *tekis, tepa* so'zlari bu so'zga antonim emas.

***Kambag'al*** so'zining zid ma'noli jufti ***boy*** so'zidir, lekin *old, saxiy* so'zlari bu so'zga antonim emas.

Bu o'yindan kichik guruhlardagi, individual shakldagi mashg'ulotlarda ham foydalansa bo'ladi. Darsga tayyorgarlik davrida, darsning takrorlash hamda mustahkamlash qismlarida, bundan tashqari dam olish daqiqalari sifatida ushbu o'yindan foydalanish mumkin. Mazkur o'yinni bajarish natijasida o'quvchilarda tezkorlik, topqirlik va faollik xususiyatlari ham rivojlantiriladi. Bu esa o'quvchilarning zid ma'noli so'zlarni yaxshi tushunib yetishiga, ulardan o'z nutqlarida to'g'ri foydalanishlariga turtki bo'ladi.

**F.A. Yuldashev - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**S. Koraboev - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## YOSHLAR KAMOLOTINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIY- FALSAFIY BILIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

XXI asrga kelib insoniyat taraqqiyoti egallagan bilimlari, ongi va tafakkurining kengligi darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Kishilik jamiyatining rivojlanishi davomida falsafiy bilimlar insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni tartibga solishga, insonning jamiyat va davlat manfaatlarini hurmat qilish, o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Hozirgi zamon inson haqidagi ta'limotlar bir tomondan, o'zidan oldingi qarashlarni ijodiy davom ettirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarixiy taraqqiyotning nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini belgilab uning istiqbolini ko'rsatadi. Globallashuv sharoitida inson haqidagi ta'limotlar g'oyat xilma-xil, muqobil ta'limotlardan iborat bo'lib, bir tomondan, kompleks-tizimli tadqiq etishni, ikkinchi tomondan, "ta'limotlar ummoni" dan inson ma'naviy rivojini yuksaltirishga, milliy istiqlol g'oyasini mustahkamlashga, ob'ektiv haqiqatni anglab etishga, zamon talabiga qay darajada javob bera olishiga qarab yondashishni taqozo qiladi. Shu munosabat bilan yoshlarga bilim berish masalalari, yoshlarga oid davlat siyosati millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar ularga g'amxo'rlik qilish, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy, madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish, jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi, huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi kabi qoidalarga asoslanishini ta'kidlash zarur.

Jamiyat kelajagi va taraqqiyotining chinakam egalari bo'lgan yoshlarni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalash, bilim va intellektual salohiyatini rivojlantirish muammolari va ularni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy tadbirlarning mazmun-mohiyati va o'rganish jarayonlarini kuchaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash zarur [1].

Shu maqsadda O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini tuzish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli sharoitlar yaratish, yoshlarimiz xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda doimiy faol muloqotda bo‘lishlariga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash kerakki, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘lik ko‘p asrlik merosni bugungi kunda ham amalga oshirish zarur. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlar muammolariga oid ulkan ishlar amalga oshirildi. “Barkamol inson” tarbiyasi masalasi hozirgi kunda eng muhim bo‘lib, mamlakatimiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridur. Yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashning aqliy, axloqiy, estetik jihatlarini tadqiq etish mamlakatiiz ma’naviy tarixida asosan o‘rta asrlardan boshlangan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy kabi allomalarning ma’naviy merosini o‘rganish mumkin [2].

Ta’kidlash kerakki, 2016 yil 15 sentyabrda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni, “Yoshlar - kelajagimiz” davlat dasturining qabul qilinishi, unda yoshlar masalalari, ularga berilayotgan e’tibor, ularni o‘qitish, bilim va salohiyatini o‘stirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qarashlar o‘z aksini topgan [3]. Falsafa inson ma’naviy hayoti va bilimlarining qadimiy tarmog‘i hisoblanib, barcha mamlakatlar va mintaqalardagi odamlar qariyb uch ming yildan buyon turli shakllarda, avval afsonalar shaklida, keyinchalik muayyan nazariy tuzilmalar tizimi va bir butun kontseptsiyalar shaklidagi «insonni o‘rab turuvchi olam aslida nima hamda unda inson qanday o‘rin va vazifani egallaydi?» degan savolga javob berishga urinib kelgan. Falsafaning muayyan tarixiy tabiati nafaqat davr o‘lchovida balki makon-tsivilizatsiya o‘lchovida ham namoyon bo‘ladi. Falsafa o‘z davrinigina emas, balki muayyan tsivilizatsiya, muayyan jamiyat, muayyan madaniyatning ham mahsulidir.

Hayot mazmuni, qadriyatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar yig‘indisini bir mukammal tizimga keltirgan ta’limot sifatida hamda ijtimoiy-axloqiy, amaliy falsafa sifatida XIX asr oxirida “hayot falsafasi” mustaqil va ahamiyatli yo‘nalishga aylanib, insoniyat madaniyatini tadqiq etish yuzaga keldi. Hayot falsafasida ma’naviy-madaniy hayot masalasi o‘z ijtimoiy mazmuniga ko‘ra jamiyatda turli ziddiyatlarning keskinlashishi bilan bog‘liq bo‘lib, mushtarak jamiyat barpo etishni taqazo qilayotgan “hayotiy stixiya” nuqtai nazaridan izohlanadi. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe inson haqida an’anaviy qarashlarni tahlil qilib, ularga baho berar ekan, odam bolasida maxluqlik va xoliqlik birlashib behat qudratli falsafiy tafakkurni odamni maxluqlikdan qutqarib, xoliqlik maqomiga ko‘tarishga qaratadi. U o‘zining “Zardo‘sht tavallosi” nomli asarida sharq odami haqida fikr yuritib, insonni, uning yaxshiligini ulug‘laydi. [4] F.Nitsshe o‘z falsafasida birinchi o‘ringa axloq masalasini qo‘yadi. Jamiyatda axloqiy, ma’naviy, madaniy hayotni rivojlantirish bilan insonning ruhiy, ma’naviy borlig‘i ham boyib boradi. Odamlar bir-birini yaxshi tushunsa, qalbi pok bo‘lsa, jamiyatda ham uyida ham farovonlik, pokizalik bo‘ladi. Inson, avvalambor, o‘z ichidagi yovuzlikni engishi kerak. Shunda ong ham o‘zgarib, rivojlanib boradi, deydi F.Nitsshe. U insondagi ikki bir-biriga zid kuchlar haqida so‘z yuritar ekan, ularni go‘zallikka intilish, mutanosiblikka erishish g‘oyalari orqali birlashtirishga harakat qiladi. Bu deyarli bajarib bo‘lmas vazifani iroda orqali amalga oshirish mumkinligini gapiradi. Albatta, bu hayotiy kurash jarayoni insondan juda katta mas’uliyatni, harakatni, mehnatni talab etadi. Lekin ming afsuslar bo‘lsinkim, insonlar hayoti buni aksini isbotlaydi. Nitsshening ta’kidlashicha, insoniyat taraqqiyoti hozirgi davrda yuqoriga qarab emas, balki pastga qarab ketmoqda. Moddiy manfaatlar, instinktlar, ayniqsa, taqlid qilish instinkti bizning jamiyatimiz insonlariga xos xususiyat bo‘lib, manfaatdorlik, xudbinlik ruhiyati tobora olijanoblik xislatlarini siqib chiqarib, jamiyatda qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Buning natijasida insonlar hayvonot olamidan ham battarroq vahshiylashib ketmoqdalar.

Falsafa ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, jamiyat milliy qadriyatini yuksaltiradi, o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy fazilatlarni, yuksak ong va madaniyatni shakllantiradi. Demak, yosh avlodning, millatning qanday siyosiy, g‘oyaviy, axloqiy, g‘oyaviy tamoyillar asosida yashashi va mehnat qilishi bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligiga bevosita bog‘liq. Davlatimizning birinchi rahbari I.Karimov hozirigi vaqtda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga munosabat bildirib, “...keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdilarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va havotirga solmasdan qo‘ymaydi”, - deb ta’kidlagan edi [5]. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat muhitini asrash, mustaqillikning qadriga etish, Vatan taraqqiyoti uchun dahldorlik tuyg‘usini anglash, har qanday xavf-xatar va tahdidlarning oldini olishda gumanitar va ijtimoiy-falsafiy

fanlarning o‘qitilishini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish va ularning ta’sirchanligini keskin kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda falsafiy bilimlar sohasidagi eng so‘nggi yutuqlar hamda ilmiy yangiliklarga tayangan holda, mavjud holatni ilmiy-nazariy o‘rganish, mazmunan boyitish, takomillashtirish hamda islohotlar talablariga to‘la javob beradigan darajaga keltirish tamoyillariga asoslanish zarur.

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o‘zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhitning, balki har bir shaxsning ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlariga qaratilgan. Shu ma’noda, falsafiy bilimlar buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki falsafa fan sifatida shaxs dunyoqarashini o‘stiradi, aql o‘yini sifatida fikrlashga, topqirlikka undaydi. Umumiy qilib aytganda, odamlar dunyoqarashi, ruhiy holati, aqli, shaxsiy tajribasi va shu kabilarning turli shakllariga e’tiborni qaratadi. Falsafa maqsadni, vositani, inson o‘z-o‘zini va o‘zini qurshagan dunyoni oqilona, irratsional yoki intuitiv anglab etishga yordam beradi. Bundan tashqari har bir inson uchun olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan savollarga javob berish mulohazalari va mantig‘ini yaratishga asos bo‘ladi. Falsafaning predmeti, mohiyati, maqsad, vazifalarini tushunishga nisbatan yondashuvlar, nuqtai nazarlarning rang-barangligiga qaramay, u barcha zamonlarda va mamlakatlarda yoshlarni intellektini o‘stirish, ularga ta’lim-tarbiya berishning bir usuli sifatida yondoshiladi. Ta’kidlash lozimki, falsafa umumiy qabul qilingan, yagona tilga, shak-shubhasiz belgilangan qonunlarga va har qanday falsafiy ta’limotlar uchun umumiy bo‘lgan kategoriyalarning muayyan majmuiga ega emas. Shuningdek, u bilimlar yagona tizimini tuzishga harakat qilmaydi va pirovard natijada, masalan, fan kabi aniq natijalar olishga umuman qaratilmagan. Shuning uchun falsafiy bilimlarni yoshlar kamoloti, ongi va tafakkuri uchun ijobiy ta’sir etuvchi soxa deb qarash lozim. Mazkur fan mohiyatini anglashimiz, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o‘z -o‘zini va o‘zini qurshagan dunyoni anglab etishida qanday rol o‘ynashini angalash zarur. Zero “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi” [6].

Yoshlar muammolarini o‘rganishda birinchi navbatda tizimlilik, ilmiy-nazariy bilimlarni rivojlantirish, faylasuf, mutafakkir va allomlarning falsafiy qarashlarini keng qo‘llash, ularning fikrlaridan yoshlar dunyoqarashi, ta’lim-tarbiyasi uchun ijobiy ta’sir etish mexanizmlarini aniqlash, taxlil etish, tarixiylik va mantiqiylik, umuminsoniylik va milliylik printsiplarining o‘zaro birligi kabi ijtimoiy-falsafiy metodlardan foydalanish talab etiladi. Maqolani yozish jarayonida axloqiy munosabatlar, shaxs ta’lim-tarbiyasi, yoshlar ongi va tafakkurini, ma’naviy hayotini yuksaltirish masalalariga katta e’tibor qaratildi. Shu bois falsafaga yaxlit munosabat, unda ko‘tarilgan masalalarning teranroq va to‘liqroq talqini, uni tushunishimiz va falsafiy muammolarning sirli va jozibali dunyosiga kirib borish bilan yosh avlodni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish kerak. Falsafa o‘z shakllanishi va rivojlanishining qadimgi davridayoq, tabiat, inson, jamiyat va ma’naviyatni, shuningdek sababiy bog‘lanishlar, qonunlar va shu kabilarni bilish sohasida yuksak natijalarga erishdi va oqilonalik nuqtai nazaridan odamlarning dunyo haqidagi umumiy tasavvuriga aylandi. Hozirda falsafiy bilimlarni chuqur o‘rganish, shu bilan birga ularga yaxlit bir butunning tarkibiy qismlari sifatida yondashish zarur. Ta’kidlash kerakki, falsafaning axloqiy funktsiyasi odamlar xulq-atvori va u yoki bu jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog‘liq. Falsafaning tarbiyaviy funktsiyasi haqida fikr yuritilganda bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda so‘z yuritish lozim. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o‘z-o‘zini anglab etishga yo‘naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi payshanbasida o‘tkaziladigan “Jahon falsafa kunlari” ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e’tiborini qaratganidan dalildir. Insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol toptirish masalasida mutafakkirlarning asarlarida atroflicha taxlil etilgan. Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta’lim va tarbiyani, ya’ni o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan jismoniy va ma’naviy jihatdan komil insonni shakllantirish masalasiga katta e’tibor berganlar. Platon, Demokrit, Zardo‘sht va boshqa mashhur faylasuflar fikriga tayanib, ma’rifat yordamida, ta’lim va tarbiya jarayonini zo‘rlikka qarshi yo‘naltirish va odamzot aql-idrokini kamol toptirish orqali insonning boshqacha tabiatini yaratish mumkin [7].

Falsafa yoshlar dunyoqarashini shakllantirish orqali ularning xulq-atvorini, kelajagini, hayotini yoritishga ko'mak beradi. Falsafiy bilimlarni o'qitish jarayonida jamiyatdagi ma'naviyat va axloqning holatini taxlil etish, ijtimoiy me'yorlar va tamoyillarni rivojlantirish, ijtimoiy ongni [8], keng jamoatchilik fikrini o'rganish, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, ijtimoiy-siyosiy muammolar, madaniyat va ma'naviyat masalalariga doir muhokama va munozaralarni amalga oshirish zarur.

Ishning ilmiy-nazariy ahamiyati shundaki, unda yoshlar muammolari va ularni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar tushunchasi mohiyatini o'rganishga sistemali yondoshish uslubi va metodlari qo'llanildi. Shuningdek, yoshlarni har jihatdan barkamol insonlar qilib shakllantirishning ma'naviy omillarini falsafiy umumlashtirish, mamlakatimizda yoshlar muammolari va ularni bartaraf etish masalalari to'g'risida muhim qoidalarni ishlab chiqish hamda ularni asoslashda ko'rinadi.

Mamlakatimizda yoshlar muammolari va ularni barkamol shaxslar qilib shakllantirishda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy omillarning ahamiyatini aniqlanishi tadqiqotning foydali ekanligini nazarda tutadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari mamlakatimizda bugungi kun yoshlari muammolarini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur muammolar bilan shug'ullanayotgan mutasaddi muassasalar faoliyatini samarali tashkil etishda ham faol xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyatda yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga, qadriyatlarga sadoqat hissini kuchaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish falsafiy fanlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, jumladan milliy-ma'naviy va ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlarini taxlil etish, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish, ma'naviy dunyosini o'stirishda, falsafiy bilimlarni mazmunan boyitib borish g'oyat dolzarbdir. Yuqoridagi muammolarni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-Fuqarolik jamiyatida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik omillarning ahamiyati ko'rsatish;

-Yoshlarning intellektual salohiyatini yanada oshirishda ma'naviy qadriyatlarning o'rnini yuksaltirish;

-Ma'naviy yangilanishlar jarayonida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasiga yanada e'tibor berish, yangicha axloqiy muhit, sifat jixatidan yangicha munosabatlar tipini yaratish;

-Globallashuv jarayoni va u yoshlar masalasida yanada hushyorroq munosabatda bo'lish;

- Mashxur fan va davlat arboblarning ibratli xayoti, ilmiy faoliyatini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan Ilmiy-Ommabop Qo'llanma Toshkent "Ma'naviyat" 2018 243- bet.

2. Mahkamov U. Axloq - odob saboqlari. T.; "Fan" 1994 yil 65 bet.

3. 27 iyun 2018 yil PF-5466 sonli "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni

4.N.Jo'raev Taxayyul, tasavvur, tafakkur Nitshe tavallosi Toshkent "Yangi asr avlodi" 2015 yil 15-bet

5.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. –B.83

6.N.Shermuhammedova Falsafa qo'llanma Toshkent 2009 b- 29.

7.A.Raimov, N.Raimova Hikmatlar shodasi Toshkent "O'zbekiston" 2015 yil 236 bet

8.Ch.Nasriddinov Inson, ong, hayot. Toshkent 2010 y.

**M.U. Axmedova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## MARG‘ILON NOMINING TARIXI TO‘G‘RISIDA OLIMLARIMIZNING O‘TKAZGAN TADQIQOTLARI HAQIDA QISQACHA MA’LUMOTLAR

Mustaqillik bizga tariximiz, o‘zligimizni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini berdi. Shu munosabat bilan Vatanimizdan yetishib chiqqan olimlarning tavallud ayyomlari nishonlandi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bubur, Amir Temur kabi vatandoshlarimizning tug‘ilgan kunlari mamlakatimiz bo‘ykab keng miqyosda nishonlanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari Ko‘hna Toshkent, Samarqand, Marg‘ilon kabi ko‘plab shaharlarning tarixi qaytadan o‘rganildi. Biz hozir Marg‘ilon shahri nomining kelib chiqish tarixi to‘g‘risida olib borilgan ayrim tadqiqot natijalari bilan tanishib chiqamiz.

Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahri. Qariyb 2000 yildan ziyod tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyodagi qadimiy shaharlardan biri. “Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir”[1], - deganlaridek, biz ham Farg‘ona marjoni – Marg‘ilon haqida o‘tmish ma’lumotlarni o‘rganishga bel bog‘ladik. Uning tarixini o‘rganish orqali biz tariximizni, o‘zligimizni o‘rganamiz, anglaymiz.

Marg‘ilon shahri miloddan avvalgi I va eramizning I asrining boshlarida Marg‘ilonsoy havzasida sug‘orma dehqonchilik madaniyati hamda Simtepa kabi shahar tipidagi qarorgohlar asosida paydo bo‘lgan Marg‘ilon shahri uzluksiz tarixga ega[7]. Uning barpo bo‘lgan vaqti aniq emas. X-XII asrlarda Marg‘ilon yirik savdo markazi sifatida ma’lum bo‘lgan.

Shu o‘rinda astionimning kelib chiqishi haqidagi mutaxassislarning fikrini ham ko‘rib chiqsak. Toponimshunos S.Qorayev bu astionimni marg‘ – “o‘tloq”, “ko‘kalamzor” ma’nolari bilan bog‘laydi. “Marg‘ilon shahri va uning atroflari toponimiyasi” mavzusida izlanishlar olib borgan J. Latipovning fikriga qaraganda esa Marg‘ilon astionimi “marg‘i” etnonimi bilan aloqadordir . Etnonim tarkibidagi -i qo‘shimchasi boshqa nomlarda ham uchraydi. Masalan, garchi – tog‘lik (garch – tog‘), sahroyi – cho‘ldagi kishi kabi.

Z. Do‘simov, X. Egamovlar ham olimning ushbu fikrlariga asoslangan holda astionim yozma manbalarda Marg‘ilon, Marg‘inot shaklida uchrashini bayon etish bilan bir qatorda uning tarkibidagi -on va -ot qo‘shimchalari ko‘plik belgisi hisoblanib, kishilar ishora qilishini, shuning uchun toponim marg‘lar, ya’ni “o‘tloqda yashovchi yoki chorvador” dagan ma’noni anglatishini ta’kidlaydilar.

A. Muhammadjonov tadqiqotlarida astionim tarkibiy qismi ikki morfemadan iborat tashkil topgan bo‘lib (marg‘(murg‘ // mardj) – on // lon yoki marg‘ (marg‘i) – kon // jon), qadimda “Marg‘ijon” yoki “Marg‘ikon” shaklida talaffuz etilgan va “Yayloqsoy”, ya’ni “ko‘kalamzordan oqib o‘tadigan suv” degan ma’nolarni bildirishi haqidagi fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, astonim tarkibidagi marg‘ morfemasi tarixiy joy nomlari tarkibida faol qo‘llanuvchi toponimik leksema sifatida muhim ahamiyat kasb etadi va ushbu birlik bilan hosil qilingan geografik obyekt nomlari O‘zbekiston toponimiyasida keng o‘rin olgan. Bunga o‘z navbatida asosi marg‘ leksemali Marg‘zor, Martepa, Mag‘zon, Marg‘iqozi, Maymarg‘, Mardon, Marg‘on, Marg‘i Sharqiy singari yurtimiz toponimik tizimiga tegishli bir qancha nomlarni misol qilib keltirish mumkin. Ko‘pchilik mutaxassislar fikricha, mazkur leksema sug‘diy tillarga mansub bo‘lib, “Navoiy asarlari lug‘ati”da marg‘ – o‘t, hayvonlar yeydigan o‘simlik ma’nosida, “Muntahab ul-lug‘ot”da marj – o‘txo‘r hayvonlar yuradigan joy, yaylov ma’nosida izohlanadi. Rus olimi E. Murzayev fikricha ham marg‘ birligi geografik termin hisoblanib, tojik tilida marg‘ – o‘tzor, maysazor, tog‘ yonbag‘ridagi ko‘kalamzor joy , fors tilida marg‘ – chim, yaylov, ko‘kalamzor joy ma’nosida qo‘llanadi. Shuningdek, olim Namangan viloyatidagi Morguzar, biz tadqiq etayotgan Marg‘ilon toponimlari hamda Murg‘ob gidronimi tarkibiy qismi ham aynan mana shu termin bilan hosil qilinganini ta’kidlab o‘tadi.

T. Nafasov esa o‘zining “Qashqadaryo qishloqnomasi” nomli lug‘atida marg‘ leksemali voha toponimlarini tahlil qilish barobarida birlikning turli tillarga xos bo‘lgan bir qancha talqinlarini berib o‘tadi: tojik tilida marg‘ – o‘t, o‘t-o‘lang; o‘tloq, yaylov, o‘tloqcha. “Avesto”da marag‘a – o‘t, sug‘d tilida marg‘, manixey matnlarida marg‘ – o‘t, afg‘on tilida marg‘a – xashakbop o‘t, chim. Tojikiston joy nomlari tizimida marg‘ – marr // mar – o‘tloq, yaylov, o‘t-o‘langa boy joy. Shu bilan bir qatorda olim “marg‘” leksemasini qishloq nomlari majmuining tarkibiy qismi sifatida oykonim yasovchi maxsus so‘zlar (hozir ularning

ko'pchiligi mustaqil so'zlik maqomini yo'qotib, qishloq nomining ajralmas qismiga aylangan, ma'nosi o'qilmaydi, yangi nom yasalmaydi, qadimiy nomlar tarkibida qotib qolgan) guruhi sifatida tilga oladi va bu birlik bilan yasalgan Mag'zon, Pomuq, Konimex, Marg'ilon, Marmin, Marg'zor singari joy nomlarini keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Marg'ilon atamasi, "marg'i" morfemasi asosida shakllangan bo'lib, qolgan ma'lumotlar orqali biz Marg'ilon shahrining nafaqat ilgarigi manzarasini haqida, balki bugungi kundagi iqlimi haqida ham ma'lumot olamiz. Ko'rib turganimizdek, toponimikaning qiziqarli jihati shundaki, u bizlarga ham tilshunoslik, ham geografiya, ham tarix fanlaridan baravariga ma'lumot beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maqdisiy. Axsan ul-taqosim fi ma'rifati ul-aqolim. BGA. 3-jild
2. Rahmatillo Shukurov, Gulrux Jo'raboyeva. Farg'ona vodiysi toponimlarining qisqacha izohli lug'ati. Farg'ona: "Classic" nashriyoti. 2021-yil
3. A. Muhammadjonov. Marg'ilon nomining ma'nosi haqida. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2007. – n3. – B 39
4. J. Latipov. Marg'ilon va uning atroflari toponimiyasi: Filologiya fanlari nomzodi… diss, - Toshkent, 1975. – B 35
5. Z. Do'simov, X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. – ToshkentO'qituvchi,1977. – B 94
6. Rahmatillo Shukurov, Gulrux Jo'raboyeva. Farg'ona vodiysi toponimlarining qisqacha izohli lug'ati. Farg'ona: "Classic" nashriyoti. 2021-yil
7. Nodirbek Abdulahatov. "Ko'hna Marg'ilon tarixi" maqolasidan

**G. Mamajonova – Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA QADRIYATLARNING O'RNI

Ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash jarayoni murakkab va uzluksiz davom etadigan jarayon bo'lib, mazkur jarayonni amalga oshirishni ko'plab ijtimoiy – gumanitar fanlar o'z nuqtai nazaridan tahlil etgan.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, biz ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zamini bo'lib xizmat qiladigan milliy ma'naviy qadriyatlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin.

"Qadriyat" arabcha "qadr" so'zidan olingan bo'lib, izzat – hurmat, ulug'lash, boylik ma'nolarini bildiradi. Falsafiy nuqtai nazardan "qadriyat" tushunchasi "ehtiyoj" tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Ehtiyoj – shaxs va jamiyatning mavjud bo'lishi, yangilanib turishi, rivojlanib borishi uchun obektiv zaruratlardir. SHaxs borliqqa o'zining iqtisodiy - ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy extiyojlari, ularni qondirish nuqtaiy nazaridan yondoshadi, unga tanlov baholov munosabatida bo'ladi, narsa va xodisalarni foydali – foydasizga ajiratadi. Ehtiyojlar yangilanib, o'zgarib borishi bilan qadriyat ma'nosi ham, ahamiyati ham o'zgarib boradi. Misol tariqasida narsa va hodisalarga modani tahlil qilish mumkin.

Faylasuf olimlarning qadriyatlarga bergan ta'riflari har taraflama mukammal bo'lishiga qaramasdan, qadriyatlar ma'naviy – ma'rifiy, tarbiyaviy ehtiyojning natijasi va maxsuli ekanligi hamda qadriyatlarning ma'naviy tarbiyaviy funktsiyasiga kamroq e'tibor qaratilgan. Tabiat va jamiyatdagi narsa va xodisalar biron bir extiyojga xizmat qilmasa, bunday boylik qadriyat emas, borliq xolos.

Bizningcha, qadriyatni shunday ta'riflash mumkin: qadriyat – shaxs va jamiyatning iqtisodiy – ijtimoiy, ma'naviy – ruhiy, hamda tarbiyaviy extiyojlarini qondirish uchun zarur narsa va xodisalar ularning xossasi va xususiyatlaridir. Qadriyat, eng umumiy tarzda millatning, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklaridir. Olamdagi narsa va xodisalarni ikki hil qadriyatlarga bo'lish mumkin: bebaho - ma'naviy qadriyatlar olami va baholanadigan – qiymatli qadriyatlar olami. Qiymatga ega qadriyatlar olami insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qadriyatlar bo'lib, u qanday ehtiyojlarni qoplashiga qarab o'z narxi – navosiga, bahosiga ega, bebaho qadriyatlar olami esa inson ma'naviy – ruhiy olami va barkamolligi uchun xizmat qilib, unga hech qanday narx – navo, qiymat qo'yib bo'lmaydi, ya'ni bebahodir.

Yoshlar ma'naviy barkamolligiga erishuvning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf – odat va an'analrni shakllantirishdir. Milliy urf odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib,

bu an’analar bizni aynan qaysi millat vakili ekanligimizni ko‘rsatuvchi izoh, ya’ni bizni kim ekanligimizni isbotlovchi dalildir. Yuqorida aytilgan g‘oyaviy “evropalashtirish ta’siri”ga tushib qolgan ayrim yoshlar milliy urf-odat va an’analarni guyoki eskilik sarqiti, zamonaviylikdan uzoq deb izohlamoqchi bo‘ladilar. Lekin, xayr – sahovat, mehr – oqibat, muruvvat, andisha, or – nomus, sharm – hayo, iffat, bosiqlik, ulug‘vorlik, sabrlilik kabi ma’naviy fazilatlar, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngililik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat va an’analar orqali qaror topadi. O‘zbek oilasidagi keksalarga xurmat – extirom, kichiklarga g‘amxo‘rlik, maxallada qo‘ni – qo‘shnichilik munosabati, onaga va ayollarga bo‘lgan izzat, kattalar o‘giti va maslahati asosida ish ko‘rish xalqimizning minglab yillar davomida erishgan ma’naviy qadriyatlaridir.

Bizning fikrimizcha, har qanday bosqichdagi ta’lim tizimi tarbiyalanuvchilari o‘rtasida, har yili kamida ikki marta “Milliy urf – odatlar – barkamollik kaliti” – mavzusida ko‘rik tanlovlar o‘tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Ta’limda barkamol avlod tarbiyasini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kabi yondashuv bolalarda adabiyotga havas uyg‘otadi. Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida ham adabiyotimiz go‘zal namunalari orqali o‘zbek tilining boyligi, go‘zalligi, jozibasi va mukammalligini ochib berish o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muayyan mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda axborot to‘plash topshirig‘ining yuklatilishi, tabiiyki, ularni bosma va elektron kitoblarga murojaat qilishga undaydi.

**M.S. Muxtoriy – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**M.I. Ismonaliyeva – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA DARS JARAYONIDA MUSTAQIL ISHLAR BERISH ORQALI ULARNING NUTQINI O‘STIRISH TEXNOLOGIYASI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faollik darajasi o‘qituvchining ta’lim berish texnologiyasiga bog‘liqdir. O‘quvchilarga dars jarayonida berilayotgan topshiriqlar o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun xizmat qilmog‘i lozim. “Mustaqil ish mashqning faol turi bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadilar. O‘qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar taxminiy tayyorlanadi, albatta. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o‘quvchilar saviyasiga mos bo‘lishi lozim. Mustaqil ish turlari har xil bo‘lib, uni tanlashda o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘qiladigan matnning xarakteri, asarni o‘rganish bosqichi hisobga olinadi.[221]

O‘quvchilarga o‘qish darsida surat orqali hikoya tuzishni mustaqil ish sifatida bersak, o‘quvchilarning nutqi ravonlashadi. Masalan quyidagi suratni ko‘rsatib barchaga qisqa ertak yaratishni buyuramiz. Bu ertak mazmunini qo‘shimcha dars mobaynida o‘quvchilardan hikoya qilib berishlari so‘raladi.

[221] Karima Qosimova Ona tili o‘qitish metodikasi Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o ‘rta m axsus ta ’lim vazirligi tasdiqlagan. Toshkent «NOSIR» nashriyoti 2009



Bolalar ushbu suratni ko‘rgach, hamma hayvonlar shod-xurram ekanligini biladi. Ko‘p holatlarda susambil ertagini yodga olishadi va susambildagi hayotni ertak sifatida ta’riflashadi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq hayvonlar haqida ertaklar o‘qitiladi. “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” (Anvar Obidjon), “Ko‘zacha bilan tulki” kabi ertaklarning berilishi hayvonlarning ishtirok etgani uchun o‘quvchilarning diqqat e’tiboriga, qiziqishish bilan o‘qishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ertak bolalarda undagi ishtirok etgan qahramonlarning xatti-harakatlari, salbiy yoki ijobiy obrazligi to‘g‘risida muhokama qilib uni tahlil qilish ko‘nikmasi bilan birga ertakning yakunida doimo yaxshilik bilan tugashiga ishonch uyg‘otadi.[222] Shu sababli o‘quvchilariga ko‘proq hayvonlar surati tushurilgan rasmni taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ushbu texnologiya haftada bir marotaba o‘tkazilgan taqdirda ham o‘quvchilarning nutq boyligi oshadi. O‘quvchilarning nafaqat og‘zaki nutqi, balki yozma nutqi ham rivojlanadi. Muomala madaniyati yaxshilanadi.

**M.U. Buvajonova - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ta'limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ona tilida aniq, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so‘zlashga o‘rgatish masalasi asosiy o‘rinda turadi. Ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e’tibor o‘quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, fikrini sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko‘nikmalarini kengaytirishga qaratilmog‘i zarur.

O‘quvchilarni savodli, o‘z fikrini to‘g‘ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang‘ich ta’lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o‘z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o‘quvchi, albatta, boshqa o‘quv predmetlarini ham ancha oson va to‘liq o‘zlashtiradi, ularda bilim va madaniyatga bo‘lgan intilish kuchayadi.

Ona tilining boshlang‘ich kursida, asosan, nutqiy tadbirkorlikni rivojlantirish, orfoepik va imlo savodxonligini oshirish, so‘z va uning ma’nolari ustida ishlash, nutq sharoitiga mos ravishda so‘zdan to‘g‘ri

---

[222]Siddiqova, S. (2021). Boshlang‘ich sinflarda ertak o‘qitish darsining ahamiyati. *Boshlang‘ich ta'limda innovatsiyalar*, (November).

va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.O‘quvchilarning o‘rganishi uchun tavsiya etilgan har bir mavzu, ularning yosh xususiyatlari va ona tilini o‘rganish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda berilishi hamda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi metod va usullarini to‘g‘ri tanlay olishi kerak.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta'limining samaradorligi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash, “Ona tili” fanining amaliy yo‘nalishidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida ko‘proq o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undovchi, o‘quv topshiriqlarini ishga solish, o‘quvchilarda bilish - o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bog‘liq.

O‘quvchini ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantirishda ta'limiy o‘yinlar hal qiluvchi omillar sanaladi. Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga, o‘rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi. Ta'limiy o‘yinlar har bir o‘quvchiga o‘zini namoyish etish, o‘z fikr - mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqu - zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo‘lgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, xushyorlik, qat'iyatlilik, bilimdonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar ko‘pincha ta'limiy o‘yinlar orqali tarkib toptiriladi.

Ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o‘yinlar oldin egallangan bilimlarni faqat xotirada tiklashni va uni takrorlashni, shu egallangan bilimlarni qisman yangi sharoitda (notanish sharoitda) qo‘llashni va tamomila yangi sharoitda qo‘llashni talab etishi mumkin.

Dars mashg‘ulotlarida faqat bir xildagi o‘yin - topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko‘proq ijodiylikka undovchi o‘yin-topshiriqlarga e'tiborni kuchaytirishga to‘g‘ri keladi. Zero, o‘quvchilarni fikrlashga, o‘ylashga, matn yaratishga o‘rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo‘yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi.

Bola ilk bor maktabga qadam qo‘ygan ekan, ma’lum so‘z jamg‘armasi bilan keladi. U oilada, bog‘chada ko‘p so‘zlami ishlatsa- da, hali ularning ma’nosini chuqur anglamaydi.8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo‘lgan bolalar bo‘lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo‘ladi. Mashhur psixolog V.A. Kruteskiyning ta'kidlashicha, bu davrda ular o‘z oldilariga “Nima uchun bunday?” - “Nima uchun shu narsani o‘rganish kerak?” degan savolni qo‘ya oladigan bo‘lishadi. Bu davrda ular “Nima uchun o‘z ona tilimizni bilishimiz kerak?” degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o‘rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy, ilmiy adabiyotlami o‘rganishlariga keng yo‘l ochib berishini anglay boshlaydilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z idroklarining aniqligi, sofligi, o‘tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o‘rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so‘zlarni tez qabul qiladilar. Ona tilini o‘rganishga bo‘lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o‘quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o‘tkirlashtiradi. Ba'zan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida sinchkovlikni tarkib toptirish va rivojlantirishga alohida e'tibor berishi lozim.

**M.U. Buvajonova - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**Sh.B. Oripova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA NUTQNI O‘STIRISH METODIKASI

Nutq deganda so‘zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Aslida - chi, nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. So‘z signalizatsiyasi, ya’ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo‘lishida qatnashadigan turli qismlari. Aktiv nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo‘shlig‘i kiradi.

Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, kishilar o‘rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma’lum.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini individual shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va o‘quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning o‘sishini mustaqil tahlil qilish, o‘zaro har tomonlama tavsifnomalar, o‘qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, “Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?” mavzusida suhbat o‘tkazish.
2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi salbiy holatlarni yengish.
3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo‘lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan taqqoslash.
4.Nutqiy muomalada o‘z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar.

Ma’lumki, o‘qitish jarayonida pedagog o‘quvchilar bilan individual holda nutqiy muloqotda bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqdagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo‘pol tanbeh, noto‘g‘ri tanqid o‘quvchilar o‘rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, o‘quvchini o‘rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o‘qituvchi, nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilishi, o‘quvchilarning insoniy qadr-qimmati, obro‘sini saqlashga intilish zarur.

Bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun ”O‘qish kitobi” da ”Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” bo‘limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni obod - axloqqa o‘rgatishi, ma’naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Masalan, “Ur to‘qmoq” ertagidagi dehqon va boy obrazlari o‘quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosl qilai. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochko‘zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do‘stga mehribon bo‘lish, rostgo‘ylik insonning ma’naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. Bolalarda ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytiladi. Birga yaxshilikka doir so‘zlar, ikkinchisiga esa uning aksi bo‘lgan so‘zlar yozish ta’kidlanadi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar mehribon, saxiy, shirinso‘z, yoqimli, go‘zal, chiroyli, mehnatkash, e’tiborli, kamtar, aqlli, bilag‘on kabi so‘zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar yomon, xunuk, qo‘pol, yolg‘onchi, ayyor, to‘polonchi, tartibsiz, xasis, qizg‘anchiq kabi so‘zlarni aytadilar.

Nutq o‘stirish ishlarini iqtisodiy tarbiya bilan bog‘lab olib borish foydalidir. Bunda oila, uyro‘zg‘or, inoqlik, hamjihatlik, hamkorlik, tejamkorlik, foyda, zarar, dastyorlik, hurmat kabi so‘zlardan foydalaniladi.

Shuni xulosa o‘rnida aytamanki, O‘quvchilar nutqini o‘stirish ishlari ularning lug‘atini boyitish bilan bog‘liqdir. Bolalarning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shunchalik ravon gapiradgan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida o‘stirishda yod oldirish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko‘zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixoligik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsam, o‘yin dunyoni va o‘zlikni anglashda, bog‘lanishli nutqni o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi.

**Sh. Rustamova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## OILADA VA JAMIYATDA AYOLLAR HAMDA ERKAKLARNING TENGLIK DARAJASI

Oilada va jamiyatda ayollar hamda erkaklarning tengligini ta’minlash masalasi bugungi kunda dunyo bo‘ylab muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayol va erkaklarning tenglik darajasi bu gender tengligi deb ataladi. Bunda ko‘pincha urg‘u ayollarga qaratiladi, chunki ayol zoti tabiatan zaif jins vakilasi xisoblanadi. Ayollarning aksariyat qismi o‘z haq-huquqlarini talab qila olmaydilar va natijada turli taxqir va zo‘ravonlikka uchraydilar. Bugungi kunda xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosatni amalga oshirilishini ta’minlashga doir bir qancha islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.. Ayollarning huquq va

imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatda muhim bir tamoyilidir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo‘q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhimdir, balki boshqa sohalarda ham rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Yurtimizda gender tengligini ta’minlash chora-tadbirlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunni imzoladi.Hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 17 avgustda qabul qilingan. Qonun xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga qaratilgan huquqiy himoya va kafolat sifatida ma'qullandi. Kelgusi o‘n yillikda jinslarga asoslangan zo‘ravonlikning har qanday shaklini tugatish, ayollar va qizlar, erkaklar va o‘g‘il bolalarning ta'lim olish huquqini teng ravishda ta'minlash, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy resurslar va siyosiy ishtirok uchun teng imkoniyatlar yaratish belgilangan.

Pozitiv diskriminatsiya – bu kam sonli guruh yoki qatlamga alohida imkoniyatlar va kvotalar berish degani. U korxonada, ta’lim, ilm va hokazo sohalarda gender tenglikka erishish uchun qo‘llanadigan usuldir. Masalan, O‘zbekistonda olima, muhandis, dasturchi, jarroh ayollar kam. Ushbu sohalarda ayollarning ko‘payishiga esa ehtiyoj mavjud. Shunday sharoitda qizlarni ushbu yo‘nalishlarga ko‘proq jalb qilib, o‘qitish, buning uchun ularga alohida shart-sharoitlar yaratish pozitiv diskriminatsiya hisoblanadi. “Jinslar tengligiga erishish, ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish – bu davrimizning tugallanmagan vazifasi va bugungi kunda inson huquqlari bo‘yicha dunyodagi eng katta muammo", - dedi BMT Bosh kotibi Antonio Guterres. Jinslar tengligini ta'minlash uchun hali ko‘p ish qilish kerak, deya ogohlantiradi BMT. Butun dunyoda hozirgi kunda gendir tengligi ta’minlangan 150 ga yaqin davlat mavjud hisoblanadi. Ana shulardan ayollar uchun eng xavfsiz mamlakatlar reytingida birinchi o‘rinni Norvegiya, ikkinchisini Shveytsariya, uchinchisini esa Finlyandiya egalladi. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir. Darhaqiqat, qadim yunonning Suqrot, Arastu, Aflotun kabi olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g‘oyasini yunon olimi Antifont o‘z asarlarida qo‘llagan holda: “Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb ta'kidlagan. Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo‘lsa, 1791 yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o‘z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Bizning yurtimiz ham huddi shuday "Oilada va jamiyatda ayollar hamda erkaklarning tenglik darajasi" ta’minlanga davlatlar qatoriga kirishiga harakat qilishimiz kerak. Buning uchun hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz davlatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarni va qonunlarni ijrosini taminlashimiz kerak. Gendir tenglik haqida qonunlar tuzilgan ammo hali mukammal emas buning uchun barchamiz bir tan-u bir jon bo‘lib, chiqgan qonunlarni to‘gri qabul qilib, to‘g‘ri talqin qilsak biz ham gendir tenglik darajasiga erishamiz .

**M.R. Sobirova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TENGLAMA VA TENGSIZLIKLARNI O‘RGATISH METODIKASI

Boshlang‘ich maktabda matematika ta’limi o‘quvchilaning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga o‘z fikrlarni mustaqil bayon qila olishga egallagan bilimlarni ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llashga hamda ta’limning ikkinchi bosqichida o‘qishnini davom etirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Matematika kursi o‘quvchilar kuchi yetadigan darajada o‘quv materialini umumlashtirishni, o‘rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiy tamoyil va qonuniyatlarni tushunishi va qarab chiqiladigan hodisalar orasida mavjud bo‘lgan bog‘lanishlarni tushunishni ham nazarda tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda tengsizliklar va tenglamalar haqidagi tushunchalar o‘zaro bog‘lanishda ochib beriladi. Ular ustidagi ish birinchi sinfdan boshlab arifmetik materialni o‘rganish bilan bilan uzviy qo‘shib olib boriladi. I-II sinflarda sonli tenglama va tengsizlik haqidagi boshlang‘ich tasavvurlar shakllantiriladi. Tenglik, tengsizlik va tenglama haqidagi birinchi tasavvurlarini bolalar tayyorgarlik davridayoq bilib oladilar. Sonlar va ular ustidagi amallarni belgilaydigan matematik simvol (belgi) larning ma’lum qoidalar bo‘yicha tuzilgan ketma–ketligi matematik ifoda deb ataladi. Ushbu ko‘rinishidagi yozuvlar sonli ifodalardir.

14+2, 6-4, 5*3-7, 8+5*3, (13+7)-6+2....

Matematika dasturida o‘quvchilarni matematik ifodalarni yozish va o‘qishga o‘rgatish, amallarning bajarilish tartibi, qoidalari bilan tanishtirish, hisoblashlarni bajarishda ulardan foydalanishga o‘rgatish ko‘zda tutilgan. Bu ta’lim samaradoligini oshiradi. Ikki to‘plam orasidagi o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatish, bir xil miqdorda bo‘lmagan narsalar guruhlarini bir xil miqdordagi narsalar guruhlariga (ikki usul bilan) aylantirish guruhlarini bir xil miqdor bo‘lmagan narsalar guruhlariga (ikki usul bilan) aylantirish bilan “katta”, “kichik”, “kam”, “teng” tushunchalari mustahkamlanadi.

O‘qituvchining vazifasi tenglama yechish jarayonini har bir amal bo‘yicha turli xil variantlarda rivojlantirishdan iboratdir. Og‘zaki savol–javoblariga asoslanib quyidagi ifodalar 4+x=8, 3+x=5, x+5=9 tuziladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning algebraik bilimlari va tushunchalarini shakllantirishda ifoda, tenglama tushunchalarining o‘rni nihoyatda kattadir. O‘quvchilar tomonidan ifoda, tenglamalar tuzish va ularni bajarishga oid topshiriqlar tafakkurga yo‘naltirilgan ijodiy mazmundagi topshiriq ko‘rinishlardan biridir.

Bunday turga mansub topshiriqlarni:

a) tenglama tuzish

b) ifoda tuzish

d) tengsizlik tuzish kabilarga ajratib tahlil qilinadi.

O‘quvchilarning ifoda tuzishga oid tayyorgarlik ishlari 1-sinfning boshidan boshlab yaxshi samara beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni 10 ichida sonlar bilan tanishtirish davridayoq “raqam”, “qo‘shish” yoki “ayirish” amallari yozilgan kartochkalardan foydalanib yig‘indini, ayimani topishga doir masalalar tuzishga ajratib boradi. 10 ichida qo‘shish va ayirish mavzusini o‘rganish jarayonida qo‘shish hamda ayirish amali komponentlari bilan tanishayotgan davrda “yig‘indi”, "ayirma" so‘zlari ma’nolari anglab olingach, o‘quvchilarni sonlar, amal ishoralari yordamida sodda sonli ifodalar tuzishga o‘rgatib borish lozim.

Tenglama tuzish va uni yechishga tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. Nama’lum qo‘shiluvchini topish, noma’lum kamayuvchini topish kabi mavzularni o‘rganish jarayonida 1-sinf o‘quvchisida qo‘shish va ayirish amali hadlarni topish ko‘nikmasi tarkib topadi. 20 va 100 ichidagi sonlar uchun qo‘shish va ayirish amallar hadlarini topishga doir tizimli olib borilgan ishlar o‘quvchilarning tenglama tushunchasini o‘rganishga zamin hozirlaydi. 1-sinf og‘zaki mashqlardan tashqari darchali misollar ham tenglama tushunchasining kiritilishiga asos bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni birinchi darjali bir noma’lumli tenglamalarning ba’zi xillarini yechish bilan tanishadilar. Birinchi bosqichda tenglamalar bunday o‘qiladi.

*+1=4 4ni hosil qilish uchun qanday songa 1ni qo‘shish kerak?

9-*=7 7ni hosil qilish uchun 9dan qanchani ayirish kerak?

Asta sekinlik bilan o‘rniga “noma’lum son” so‘zini kiritamiz. 7+*=15, * -9=6 ko‘rinishidagi misollarni bunday o‘qiymiz.

1. 7 ga noma’lum sonni qo‘shganda 15 ni hosil qilamiz,

2. Noma’lum sondan 9 ni ayirganda 6 ni hosil qildik kabi o‘rgatiladi.

O‘quvchilar tomonidan tenglamalarni tuzish va ularni bajarishga oid topshiriqlar tafakkurga yo‘naltirilgan ijodiy mazmundagi topshiriq ko‘rinishlardan biridir.

Bunday turga mansub topshiriqlarni.

a) ifoda tuzish

b) tenglama tuzish

d) tengsizlik tuzish kabilar ajratib tahlil qilinadi.

O‘quvchiarda ifoda tuzish malakasi shakillantirgandan so‘ng ifoda tuzish biroz murakkablashtiriladi. Endi ularda ifoda tuzish emas balki “noma’lum qo‘shiluvchini topish”, noma’lum kamayuvchini topish", "noma’lum ayriluvchini topish" kabi murakkablashtirilgan ifodalarni tuzish masalasi turadi.

Hozirgi zamon uslubiyotida tenglamalar yechishni o‘rgatishda III bosqichda ish olib boriladi.

I.Tayyorgarlik bosqichi.

II. x harfi bilan x+2=5, x-3=4 kabi eng sodda tenglamalarda noma'lum sonni belgilash uchu qabul qilingan.

III.Tenglamalarni amallari va natijalari orsidagi bog‘lanish asosida yechish.

Boshlang‘ich ta’lim jaryoni mustaqil davlatning ta’lim –tarbiya tizimida umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi sifatida nomoyon bo‘ladi. Ma’lumki, amaldagi boshlang‘ch ta’lim predmetini O‘qitishga asoslangan ta’lim jaroyini bo‘lib uning asasiy maqsadi bolalarda elementar tarzdagi o‘qish, yozish, matematik bilimlarni shakllantirish, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda obektiv borliq haqidagi tasavvurlarni oshirishdan iborat. Boshlang‘ich ta’limning bosh maqsadi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ta’lim olishga qaratilgan faoliyatini shakllantirish asosida shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni talab qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan tenglama tushunchasini kiritishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda og‘zaki hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mavhum tasavvurlarni shakllantirish va albatta tenglamalarni ishlash jarayonida ketma – ketlikka rioya qilish qonun qoidalarini o‘rgatadi.Tenglamalarni yechish jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish dars samaradoligini oshirishga yordam beradi.Ya’na bundan tashqari tengsizlik tushunchasi orqali “<”, “>” tushunchalarini shakllantirish, o‘quvchilarni farqlay olishga o‘rgatish malakalarini rivojlantirushni nazarda tutadi.

**Sh.O. Yo‘lchiyeva - Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti**

## BOSHLANG‘ICH SINFDA MASALA YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARDA TEJAMKORLIK HISLATLRINI SHAKLLANIRISH

Jamiyatning axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta’lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o‘qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Faqat bilim olishga yo‘naltirilgan ta’lim o‘tgan zamonda qolmoqda.

So‘ngi uch yilda mamlakatimizning hamma jabhalarida rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Murojaatnomasida ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi:

Xalq donishmadlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu tarbiyasizlik!” Shuning uchun, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish, uzliksiz hayotiy e’htiyoj aylanish kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot-tehnologiyalarni egallashamiz zarur va shart.

Bu bizga yuksalishni eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero bugun dunyodagi barcha sohalarga axborot tehnologiyalar chuqur kirib bormoqda.

Yurtimizda “Xalqaro axborot-kommunikatsiya tehnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo‘yicha 2019-yilda 8-pog‘onaga ko‘tarilgan bo‘lsekda, hali judayam orqadamiz.[1]

Bolalarni tejamkorlik va iqtisod qilishga o‘rgatish chindan ham murakkab. Bunday uquvga, albatta osonlikcha erishilmaydi. Chunki, tejamkorlik shunchaki yirtmaslik, bulg‘amaslik, tashlab yubormaslik, sindirmaslik odati emas. Bu avvalo axloqiy fazilat, ma’naviy madaniyat ko‘rsatkichidir. Bu fazilat bola uy uchun, oila uchun yasagan buyumidan astoydil mehnat qilish ko‘nikmasigacha ona topshirig‘i qilingan birinchi xariddan uy byudjeti qanday tarkib topishini tushunishiga imkon yaratadi. Keyinchalik davlat mablag‘larini yaxshi hisob-kitob qilish uquviga ega bo‘ladi. Bularning barchasi oiladan boshlanadi. Tejamkorlik saboqlarini bolalar kattalarga qaraganda tezroq qabul qiladi. Chunki bolalarda odat bo‘lib qolgan ko‘nikmalar yo‘q. Ma’lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijobiy imkoniyatlari ochiladi. Oilaviy tarbiyaning qimmatligi va ahamiyati ana shundaki,

kichik bolalik paytidan oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota – onalarning bolalarini har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo‘yilgan. Deyarli ko‘pchilik tarbiya sabr – toqatni talab etishni e’tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug‘ma qobiliyat va malaka, ya’ni ko‘nikma kerak deb o‘ylaydilar; lekin juda kam insonlar sabr – toqat, tug‘ma qobiliyat va malakadan tashqari yana mahsus bilimlar kerakligi haqida ishonch bilan ta’kidlaydilar.[2]

Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta’qiqlashlar tizimi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to‘g‘ri xatti-harakatli mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu tizim bolaning kattalar xohishiga salbiy munosabatni tug‘diradi; bola mustaqilligining rivojlanishini susaytiradi.

Biz o‘g‘il-qizlarimiz o‘zimizdan yahshiroq bo‘lishini istaymiz. Bizning bu istagimiz o‘zida o‘z-o‘zini tanqid qilish, tahlil qilish ehtiyoji ham o‘z-o‘zini takomillashtirish istagi mavjud.

Zamonaviy oilada xo‘jalikni oqilona yuritish uchun shaxsiy madaniylikdan tashqari bir qator maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lmoq zarurdir. Bu oila xo‘jaligini oqilona boshqara bilish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, pulni joy-joyida sarflashdan iborat.

Boy bo‘lishning oltin qonuni, qilinadigan harajatlar qilinadigan daromaddan oshmasligi shart. Kimki, pulni ishlab topishdan ko‘ra, uni ishlatish qiyin desa, u inson tez boy bo‘ladi. O‘z uyida bekorga yonayotgan chiroqni o‘chirmaydigan, behuda oqayotgan vodoprovod jo‘mragini burab qo‘ymagan, pulni pala-partish sarflayveradigan, ishlab chiqarishda materiallarni tejamaydiganlar boy bo‘lishi mushkul.

Maishiy qulaylik qancha yuqori bo‘lsa, inson omili shunchalik hal qiluvchi bo‘lib qolmoqda. Aytaylik, suvni quduqdan chelaklab tashib ishlatsak, hayot uchun zarur bo‘lgan suv sarfi jon boshiga (sug‘orishni hisobga olmaganda) 25 – 40 litrni tashkil etadi. Sanuzellar bilan jihozlangan vodoprovoddan foydalanganda esa 250 – 330 litr va hatto bundan ham ortiq bo‘ladi.

Bolaga oila byudjetining nozik tomonlari uning o‘ziga taalluqli narsalardan uni xabardor qilish bilan boshlanadi.

Bola uning uchun olinadigan bir dona muzqaymoq bilan butun oila olinadigan baton nonining qiymati bir xil ekanligini bilish kerak, bolalarni konkret misollar orqali qiyoslashga baho berishga o‘rgatish kerak. Ota va ona bolaga eng avvalo, o‘zlarining kasb-hunarlariga qiziqtirish, ota payvandlashni, ona tikuvchilikni va boshqa kasblarni farzandlariga o‘rgata borishi ahamiyatlidir. Bu yosh insonda tejamli va saranjom-sarishtali, o‘z Vatani boyliklarini ehtiyot qila oladigan, inson mehnati bilan yaratilgan narsalarni qadriga yetadigan qilib tarbiyalash.

**Д. Тўхтасинов - Фарғона давлат университети ўқитувчиси**
**Б. Солиева - Фарғона давлат университети 2-курс талабаси**

## ДУНЁНИНГ ТУРЛИ МАМЛАКАТЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАНТИҚИЙ ТАФАККУРИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Жаҳонда мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчилар ноёб ҳодиса саналади. Дунёнинг турли мамлакатларида мазкур масалани тадқиқ этишга, мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчиларни танлаш, уларни тарбиялаш ва ривожлантиришга доир ўзига хос тажриба тўпланганлигини алоҳида қайд этиб ўтиш зарур. Масалан XX аср бошларида Америкада яоп этилган педагогик-психологик адабиётларда одатдаги тарбияланув-чилардан баъзи бир хусусиятлари билан фарқ қиладиган болалар турли номлар билан аталган. Адабиётлар таҳлили Америкада мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчиларни юқори интеллект ва аъло даражада ўзлаштирувчилар деб ҳисоблашганлигини кўрсатади.

Дунёда таълим тизимининг ривожланганлик даражаси бўйича етакчи Европа давлатларидан бири – Германияда ҳам мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчилар билан ишлашда ўзига хос тажриба тўпланган. Бироқ ҳатто мазкур давлатда ҳам мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчилари билан ишлашда қатор мураккабликлар кўзга ташланади. Бу энг аввало интеллект коэффициенти (IQ) билан боғлиқдир. Статистик маълумотларга қараганда Германияда 2 % болаларнинг интеллектуал коэффициенти 130 баллдан юқорини ташкил этади, яна 7 фоизида 120-130 бандлар

чегарасини ташкил этади. Мазкур кўрсаткич эса, бир миллион уч юз минг нафарга яқин юқори интеллектга эга бола чуқурлаштирилган таълим олишга эҳтиёж сезишини англатади

Германияда мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчиларни аниқлаш махсус методикалар ёрдамида 10-12 ёшда амалга оширилади. Мазкур давлатда мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчилар учун алоҳида ихтисослаштирилган гимназияларни ташкил этишга катта эътибор қаратилади. Масалан, Берлиндаги “Anna-Lindh-Schule”да 80 нафар “Европа иқтисодининг келажаги” таҳсил олишади.

Буюк Британияда ўқувчиларнинг мантиқий тафаккурини ривожлантиришга доир катта амалий тажриба тўпланган. Мазкур жараёнга Буюк Британия таълим вазрлиги, кўплаб университетлар, коллежлар ва жамоатчилик ташкилотлари фаол иштирок этишади. Мамлакатда мантиқий тафаккури ривожланган ўқувчиларга ёрдам кўрсатиш Миллий Ассоциацияси фаолият юритади, 1982 йилдан “Халқаро мантиқий тафаккурини ривожлантириш таълими” (Gifted Educational International) махсус журнали нашр эттириб келинади.

Англия педагогикасида ижодий мантиқий тафаккурини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Британиялик мутахассисларнинг фикрича, “ижод (креативлик) – мантиқий тафаккурини ривожлантиришнинг энг муҳим унсури ҳисобланади ва мантиқий тафаккури ривожланганликнинг барча турлари ижодий компонентдан алоҳида қаралиши мумкин эмас”.

Англия мактабларида таълимни табақалаштиришнинг иккита – ички ва ташқи тури мавжуд. Улар ўзаро уйғунликда ўқув жараёнининг юқори самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади. Ташқи табақалаштириш ўқув жараёнини ташкил этишнинг хилма-хил махсус шаклларида ўз аксини топади: тест ва суҳбат асосида қобилият даражаси бўйича ўқувчиларни потокларга тақсимлаш; таълимнинг маълум бир босқичида ўқувчиларни ўқув фанларига қобилиятига кўра гуруҳларга тақсимлаш; “аралаш” қобилиятли гуруҳларда ўқитиш ва ҳ.к.

Ички табақалаштириш ўқувчиларнинг билиш фаолияти усулларига мувофиқ алоҳида фанлар бўйича вақтинчалик гуруҳларга бирлашишида акс этади. Ички ва ташқи табақалаштиришни амалга оширишга доир таҳлил асосида мазкур жараён ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш, ўзаро бир-бирини назорат қилиш ва масъулиятни англаш, ҳамкорликда ўқитиш элементларини қўллаш асосида мустақил таълимнинг вариативлигини таъминлаш имконини бериши ҳақидаги хулосага келинди.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumaev M.E. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik) — T:. «Fan va texnologiya», 2005-yil.
2. CHorievich, J.S (2021). Rol kompozitsii v uvelichenii prostranstvennogo voobrajeniya studentov i studentov» Sentralno-Aziatskiy jurnal iskusstva i dizayna. – 2(11) 15-17

**Ф. Абдувалиева - Фарғона давлат университети таянч докторанти**
**Ш. Хушматов - Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, бўлим бошлиғи**

# ЎҚУВЧИЛАРДА ЖИСМОНИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНИШ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИКНИ ЎРГАНИШ

Ҳозирда Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан болаларнинг жисмоний, руҳий-эмоционал жиҳатдан соғлом ривожланиши учун шарт-шароитларни яратиш масаласи ҳар бир жамият келажаги учун устувор масала ҳисобланиши қайд қилинган[223]. Айниқса, таълим олиш жараёнида мактаб ёшидаги болаларнинг жисмоний ривожланиш даражаси ва саломатлиги ҳолатини доимий равишда мониторинг қилиш мақсадида физиометрик/антропометрик илмий тадқиқотларни

[223]School and youth health // [Электрон ресурс]. Режим доступа: http://www.who.int/school_ youth_health/gshi/hps/en/ Дата обращения: 09.09.2021 г.

амалга ошириш уларнинг саломатлигини мустаҳкамлаш чора-тадбирлари комплексини ишлаб чиқиш нуқтаи назаридан долзарб аҳамиятга эга ҳисобланади [1, 2, 3, 6][224].

Тадқиқотнинг мақсади – Ўзбекистон Республикаси Андижон вилояти Андижон шаҳрининг айрим мактаблари I-VII синф ўқувчиларининг жисмоний ва интеллектуал ривожланиш даражаси ўртасидаги боғлиқликни ўрганишдан иборат.

Тадқиқотлар Андижон шаҳрида жойлашган мактабларда I-VII синф ўқувчиларининг жисмоний ривожланиш даражаси стандарт услублар ёрдамида ўрганилди [4, 5].

Тажрибаларда ўқувчиларда антропометрик кўрсаткичлар (бўй узунлиги, тана вазни, кўкрак қафаси айланаси) ва Ландольт тести қийматлари ўртасидаги корреляция коэффиценти мос равишда – $r$=0,365; $r$=0,439 ва $r$=0,463 га тенглиги аниқланди. Шунингдек, ўқувчиларда юракнинг уриш частотаси ва интеллектуал ривожланиш даражаси ўртасидаги корреляция коэффиценти қиймати таҳлил қилинган кўрсаткичлар орасида максимал қийматга эгалиги ($r$=0,586) аниқланди.

Навбатдаги тажрибалар сериясида жисмоний тайёргарлик тестлари (30 метрга югуриш тести, ётган ҳолатда гавдани кўтариб тушириш, жойидан узунликка сакраш) ва интеллектуал ривожланиш Ландольт тести (юқори кўрсаткич) ўртасидаги корреляция коэффиценти мос равишда – $r$=0,932; $r$=0,584 ва $r$=0,642 га тенглиги аниқланди.

Шундай қилиб, тадқиқотларда Ўзбекистон Республикаси Андижон шаҳрининг айрим мактаблари I-VII синф ўқувчиларининг жисмоний ва интеллектуал ривожланиши ўртасида сезиларли даражада боғлиқлик мавжудлиги аниқланди. Олинган экспериментал натижалар мактаб таълим тизимида ўқувчиларнинг ҳар томонлама етук шахс сифатида шаклланиши ва қарор топишида «*антропоцентрик*» тамойилга асосланиш, яъни ўқувчиларнинг индивидуал физиологик сифатларига таянган ҳолатда, таълим жараёнини ақлий ривожланиш даражасига мос равишда ташкил қилиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Мазкур натижалар мактабда жисмоний тарбия машғулотлари, шунингдек дарс жараёнида ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиш ҳолатини мувофиқлаштиришда назарий асос сифатида фойдаланилиши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Фоминых А.В., Казаковцева Т.С. Теоретические аспекты взаимосвязи физического и умственного развития детей старшего дошкольного возраста (6-7 лет) // Теоретические вопросы общей педагогики. – 2011. – С.12-16.
2. Богус М.Б. Развитие умственных способностей у младших школьников // Майкоп (Адыгейск. гос. ун-т), 2002. – С.3-127.
3. Спиркина И.К. Методика формирования физической подготовленности детей дошкольного возраста к обучению в школе // Автореферат дисс. ... к.пед.н. – Волгоград, 2000. – С.3-21.
4. Холодная М. А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования // СПб.: Питер, 2002. – С.272.
5. Васильев С.А. Динамика показателей физического развития и физической подготовленности учащихся начальных классов городских школ // Ярославский педагогический вестник. – 2011. – С.13-18.
6. Chao Li, Lingxia Zeng , Duolao Wang , Stephen Allen , Shabbar Jaffar, Jing Zhou, Tao Chen, Victoria Watson, Hong Yan. Growth in early life and physical and intellectual development at school age: a cohort study // British Journal of Nutrition. – 2019. – V.121. – P.866-876.

[224] Physical development in school-age children. – 2021 // [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://www.aboutkidshealth.ca/Article?contentid=712&language=English Дата обращения: 10.03.2021.

**D.Q. Rafiqova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## PEDAGOGIK TA’LIMNING MODERNIZATSIYALASHGA OID KONTSEPTUAL YONDASHUVLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab yetish pedagoglarning muhim vazifasidir. Unda asosiy e’tibor O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishida mamlakatimizda muhim vazifalar sifatida belgilangan islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini isloh qilishga, shuningdek, dasturning 4-bandida ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta’lim, fan, san’at va madaniyatning rolini yanada oshirishga qaratilgan [1][225]. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta’lim tizimining uzluksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish eng muhim vazifalardan etib belgilangan.

Mamlakat kelajagi, uning kadrlar salohiyati ko‘p jihatdan yosh avlodni tarbiyalovchi va turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlaydigan o‘qituvchilarning kasbiy bilimi va mahorati, amaliy tayyorgarligining sifatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Demak, uning pedagogik ma’lumoti darajasi davlatning gullab-yashnashi, fuqarolarining ma’naviy va moddiy farovonligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Turli tadqiqotchilar tomonidan o‘qituvchi faoliyati funktsiyalarining o‘ziga xos tasniflarini taklif qilingan. Umuman, o‘qituvchining faoliyati funktsiyalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: axborot-ma’lumot berish, rivojlantirish, yo‘naltirish, safarbar etish, amaliy, kommunikativ, tashkiliy, tadqiqotchilik. V.A. Slastenin, I.F.Isayev va boshqalarning e’tirof etishlaricha, o‘qituvchilik kasbiga tarixan ikkita ijtimoiy, ya’ni moslashish va gumanistik funktsiyalari yuklatilgan. Adaptiv funktsiya ta’lim oluvchining zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitning aniq o‘ziga xos talablariga moslashishi bilan, insonparvarlik funktsiyasi esa uning shaxsi, ijodiy individualligining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq[2.380-b].

E.V. Balakirevaning pedagogik kasbshunoslikga bag‘ishlangan ishlarida pedagogik kasbning tuzilishi, ya’ni aynan uning umumiy xususiyatlari, ijtimoiy - iqtisodiy ahamiyati, mehnat sharoitlari, pedagogik faoliyatning xususiyati va mazmuni, pedagogik mahorat, o‘qituvchining ta’lim darajasi va kasbiy malakasiga qo‘yiladigan talablar, kasbning psixofiziologik o‘ziga xos xususiyatlari va boshqalar aks etgan.[226]

Pedagogik ta’lim tizimida eng dolzarb muammolardan biri bu, hech shubhasiz, o‘qituvchilarni o‘quv amaliyotining real shart-sharoitlariga, pedagogik jarayonda doimo duch kelinadigan yoki paydo bo‘ladigan qiyinchiliklariga tayyorlashning murakkabligidir. Bu umumiy muammolar o‘zaro bog‘liq, aniqroq aytsak, ayni paytda pedagogik ta’lim uchun dolzarb va muhim muammolarga aylanmoqda:

• bo‘lajak o‘qituvchilarning olgan bilimlarini muntazam yangilab borishi va amaliy qo‘llashda duch kelinadigan qiyinchiliklar;

• talabalarda shakllangan bilimlarning tarqoqligi va izchil emasligi, amaliy pedagogik faoliyat, uning ob’ekti, predmeti, o‘quv jarayoni haqida yaxlit tasavvurlarning yo‘qligi;

• talabalarni pedagogik amaliy faoliyatga tayyorlash tizimining takomillashtirilmaganligi va asosan tor uslubiy darajada amalga oshirishi;

• faoliyatni haddan ortiq texnologiyalashtirish, uslubiy ishlanmalarning kamligi va natijada bo‘lajak o‘qituvchining amaliy tayyorgarligining ijodiy komponentining rivojlanmaganligi;

• o‘qituvchilarning amaliy kasbiy faoliyat jarayonida mavjud vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, maqbul natijalarga erishishga qaratilgan strategiya va qaror qabul qilish taktikasini ishlab chiqishga tayyor emasligi;

---

[225] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni

[226] Балакирева Э.В. Подходы к построению концепции профессиологических основ педагогического образования // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. - 2005. - № 5 (12). - С.134-147

• pedagogik ta'limda amaliy faoliyatning samarali g'oyalari, tamoyillari, usullarini o'zida birlashtirgan yaxlit metodologik bazasining yo'qligi;

Ushbu muammolarni samaradorligi isbotlagan kontseptual yondashuvlardan foydalanish asosida hal etilishi mumkin.

Retrospektiv va zamonaviy nazariy-pedagogik tadqiqotlarda aks etgan g'oyalarni nazariy tahlil etish bizga kontseptual yondashuvlar guruhini aniqlash imkonini beradi. Bizning nazarimizda, pedagogik ta'limni modernizatsiyalashda quyidagi yondashuvlarga tayanilishi zarur: shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar; faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar; bilishga yo'naltirilgan yondashuvlar; ijtimoiy-madaniy yondashuvlar; ta'lim jarayoni dinamikasini hisobga oladigan yondashuvlar; integratsion yondashuvlar.

Pedagogik ta'limni tashkil etish va amalga oshirishga kontseptual yondashuvlarning belgilangan guruhlarini kompleks joriy etish talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb muammolarini hal qilish imkonini beradi, ularni kasbiy tayyorlashning innovatsionligi, majmuaviyligi, variativligi, dinamikligi, amaliyotga yo'naltirilganligi va yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Yuqoridagi kontseptual yondashuvlar asosida asosiy tamoyillar shakllantiriladi, pedagogik ta'limni modernizatsiyalash mexanizmlari va texnologiyalari tavsiflanadi.

**M. Maxmudov - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## STUDENTS' INDISCIPLINE: TYPES, CAUCES AND POSSIBLE SOLUTIONS IN SECONDARY SCHOOL

It has been realised that students' indiscipline in secondary schools has become a cankerworm that has eaten too deep into the students' moral up bring. Students have become uncontrollable and highly disrespectful to: themselves, teachers, school administrators, parents and to the society at large. Students portray different types of indiscipline behaviour among which include the following acts: boycotting of lessons, watching and practicing pornography, lies telling, violence, dishonesty, disobedient to teachers, prefects, and school administration, rapping school/class mates, alcohol consumption, confronting and stabbing teachers in schools, vandalism, lateness to school, cultism, drug abuse, insulting/assaulting, stealing, rioting; among others. The extent to which students' indiscipline behaviours in school are correlated with are not known whether these influences emanate from the perspectives of their peer group, their parents' socioeconomic achievements, parent's attitude, teacher' attitude, school culture, climate and environment; and the magnitude of disorder it triggers in school and what strategies should be put in place to curb this deviant behaviour. All of these are equally contributed to the fact that student come from different family backgrounds, economic status, cultures and values.

The most common cases of indiscipline relating to the collective misbehaviour of students such as the vandalization of school properties and mass protest, while the common cases of indiscipline relating to poor habits of students are speaking of pidgin English, chewing gum in class, fighting, wearing dirty and wrong clothing contrary to the official school uniforms and examination malpractice. The findings of the study on disobedience to school authority like assault on teachers corroborates the reports of Ebontane (2006) who reported violence and insubordination to administrative staff, teachers and school prefects among secondary school students in Cameroon. In addition, this study has the support of Ken Reid (2000) who reported high rates of vandalism and insolence to staff in schools in Chicago, New York, Washington and Detroit.

As regards the students based causes of indiscipline, the result of the study showed that constant negative labels on students, abuse of seniority by school prefects, students poor study habits and students restlessness and inattention in class were the major factors. The excess energy accumulated by children kept passive and inactive for long tends to make them inattentive in class and restless. In addition, students may become restless and inattentive when lessons are boring due to acute shortage of instructional facilities and problems of curriculum. The use of constant negative labels on students by the teachers can make them to begin to build low self-concept by developing a negative frame of mind. Such student may begin to see himself as one who cannot perform well whenever the teacher is in the class, become deliberately rude to

the teacher and may be withdrawn from activities. The school based causes of indiscipline revealed by this study are teachers' lateness and absenteeism in class, overcrowded classrooms, unconducive school environment, unenforceable school rules and regulations, poor teaching and poor leadership by school administrators. This finding has the supports of Asiyai (2005). She reported that unconducive school environment characterized by an acute shortage of facilities for teaching, games and sports, engendered unrest and crippled academic activities. In addition, Yaroson (2006) reported that unrealistic school rules were the causes of indiscipline. Rules and regulations are meant to guide and control activities in school but when they become too much and unenforceable, they tend to breed indiscipline.

The results further revealed the society based causes of indiscipline as parental overprotection of children, poor value system, and injustice in the society indicated by the practice of favouritism, nepotism and corruption, unwholesome mass media and unsatisfactory home condition. The poor value system in society which no longer honour the hard work and meritorious services are responsible for the breakdown of law and order in schools. Hard work is jettisoned while favouritism and nepotism become the order of the day. Unsatisfactory home condition breeds in children, a feeling of insecurity and frustration and thus contributing to the formation of deviant behaviour which they manifest at school. Some parents are too busy to keep their eyes on their children. Their children go out at will and return home any time they like. They do not even bother about the type of friends their children keep. Their children become morally loose. In school, such children have no respect for school rules and regulations and even they exhibit absolute disrespect for school authority.

It is imperative to ensure that the good behaviour and conditions are inculcated, established and maintained for effective learning in schools. Consequently, this article proffers the following recommendations:

•The government, policy makers, education reformers and school administrators should ensure that schools are provided with adequate facilities for teaching and learning, sports and games as well as information communication technologies and internet connectivity.

•Concerted efforts of stakeholders such as parents, teachers' non-governmental organizations, educational authorities, corporate bodies, past students and government should be made to find a lasting solution to the social menace.

•School administrators, parents and teachers must show good examples to students since they imitate and copy their behavior.

## References

1. Ken Reid (2000). Tackling truancy in schools: Practical manual for primary and secondary Schools, UK.
2. Rogers B (1994), Classroom discipline: A planned Approach, Washington: Jefferson College publishers.
3. Rosen L (1997). School discipline: Best practices for Administrators, Califonia: Corwin Press Thousand Oaks.

**S.B. Xusenova – Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA SINF RAHBARI FAOLIYATIGA TAYYORLASH

***O‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.***
***Sh.M.Mirziyoyev***

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909 “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu farmonda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash shart- sharoitlari keltirib o‘tilgan.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ni va «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ni amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot va amaliyot bilan ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik-faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘ladi[227].

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o‘z mutaxassisligini chuqur egallagan o‘qituvchilar zarur. Shuning uchun hozirgi kunda o‘qituvchilar oldiga juda ko‘p vazifalar qo‘yilmoqda. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tashkil etilayotgan pedagogik amaliyotning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik amaliyot jarayonida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash uchun ta'lim jarayonida pedagogik amaliyotni tashkil qilish va uni boshqarishning o‘ziga xos talablari mavjud:

Birinchidan, o‘quvchilarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasini to‘liq qamrab olishga erishish. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasidan tashqari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o‘zlashtirish, pedagogik amaliyot va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash jarayonida pedagogik amaliyotning vazifalariga quyidagilar kiritiladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;

---

[227]Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so‘zi» 2017 yil 1 iyul.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy ko‘nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo‘llash malakalari bilan ta’minlash;

4. Bo‘lajak o‘qituvchi ya’ni talabalarni ta’lim muassasalari maktab, litsey va kabs-hunar kollejlaridagi o‘quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg‘or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;

5. O‘qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy hislatlarini rivojlantirish;

6. Bo‘lajak o‘qituvchi ya’ni talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uyg‘otish;

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik amaliyot jarayonida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash shunday jarayondirki, bunda o‘qish davrida to‘plagan bilimlaridan kompleks tarzda foydalanish va o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondoshishga to‘g‘ri keladi. Tajribalarning ko‘rsatishicha, bo‘lajak o‘qituvchi, sinf rahbar o‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lsa, ya’ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi. Ta’lim muassasasida sinf rahbardan kutilayotgan asosiy natijalarga quyidagilar kiradi:

1. Sinf rahbarlarining o‘quvchilar tarbiyasiga ta’siri sezilarli ravishda oshishi;

2. 5-sinfdan 11-sinfgacha yagona sinf rahbarining biriktirilishi natijasida sinfdagi ijtimoiy muhitni sog‘lom ravishda ushlab turish imkoni;

3. Ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarini ta’lim tarbiya jarayoniga nisbatan qiziqishining ortishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qiladigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash jarayoni ayni pedagogik amaliyotda amalga oshiriladi. Buning uchun talabalardan faqat pedagogik amaliyotni mas’uliyat va zukkolik bilan olib borish talab etiladi.

**Z.D. Mirzakarimova - ToshDTU Olmaliq filiali dotsenti, fil.f.n.**
**M.E. Toshtemirova - MTTU “MISiS” ning Olmaliq filiali assistenti.**

## YOSHLAR TARBIYASINI ISLOH QILISH

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash hamda uning tadrijiy rivojlanishga vatanparvar shaxs sifatida hissa qo‘shish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog‘i kerak. Darhaqiqat, “Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchiliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda.

Bugungi kunda yoshlarni ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim va asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, “Yoshlarning tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarini hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uchun bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma’naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolalarda tayanch fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajada ko‘tarish darkor”.

Jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlatning puxta xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston uchun hayotiy zarurdir. SHularni nazarda tutib, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va xalqaro munosabatlarning sub’ekti sifatida o‘zining mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, shuningdek, davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o‘zgarmasligini hurmat qilish prinsiplariga asoslaydi.

Ushbu prinsiplardan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans davrida O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti ko‘magida yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda hamda ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishda, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishda, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda salmoqli

ishlarni bajarishga erishadi, degan umiddamiz. Oʻzbekiston davlatchiligi taraqqiyotida Amir Temur va Temuriylar sulolasi muhim oʻrin tutadi [1].

Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu buyuk ajdodlarga munosib shohlardan biridir. U oʻzbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, isteʼdodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Ulugʻ bobomizning sertashvish hayoti va joʻshqin faoliyati siyosiy jihatdan inqirozga uchragan Temuriylar davlatining soʻnggi davriga toʻgʻri keldi [2].

Ushbu davr barcha azob-uqubatlarini boshdan kechirish Bobur Mirzo chekiga tushdi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok boʻlgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga oʻtiradi. Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan oʻzaro munosabatni yaxshilash, qoʻshinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom oʻrnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim boʻlgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi [3].

Boburning oʻz guvohligiga koʻra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Bobur Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular oʻrtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar toʻplana boshlashi ham shu yillarga toʻgʻri keladi. Mirzo Bobur shuncha dard-sitamlar koʻrishiga qaramasdan qalam bilan shamshirni birdek yurgizgani, yirik davlatga asos solgani, benazir ashʼorlar bitgani kishiga hayrat baxsh etadi. Bobur ijodida insonning maʼnaviy kamolotini taʼminlovchi, ilm-maʼrifatga chorlovchi manzumalarni, maʼnaviy-maʼrifiy xarakterga ega badiiy lavhalarni nihoyatda koʻplab uchratishimiz mumkin. Ularning har biri barkamol yosh avlodni tarbiyalashda, inson ruhiy kamolotini yuksaltirishda muhim didaktik manba boʻlib xizmat qila oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev rahbarligida tariximizni, buyuk ajdodlarimiz merosini oʻrganish va ularni yoshlar oʻrtasida keng targʻib qilishga alohida eʼtibor qaratilayotgani quvonarli. Bu yoshlarni buyuk ajdodlar qoldirgan meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan bebaho ilmiy va maʼnaviy-madaniy meros esa buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, yurtni, Vatanni sevish tuygʻularini yanada joʻsh urdiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aliev A. Maʼnaviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Maʼnaviyat, 2000. – 630 b
2. Aliqulov X. Gumanistik meros va shaxs maʼnaviy kamoloti. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2006.–56 b.
3. Xabibullaev, S. X., Zufarov, T. U. (2020). Profilaktika zabolevaniy sredstvami fizicheskoy kulturы.
4. Academic Research in Educational Sciences, 1 (2), 315-324

**А. Қосимов – Фарғона давлат университети ўқитувчиси**

## ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР БИЛАН ШУҒУЛЛАНИШ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИДАН

Ҳозирги кунда "жисмоний маданият", "жисмоний тарбия " дарслари деб номланиб, таълим тизимининг барча ўқув муоссасаларининг ўқув режаси асосида ўқитилаётган фан тарихини ўрганиш мақсадидаги махсус адабиётларимизнинг тахлили орқали жисмоний тарбия жараёни машғулотларининг дарс шаклини юзага келиши, шаклланишига оид маълумотларни умумлаштиришга уриндик.

Жисмоний маданият дарси назариясига оид тадқиқотларнинг муалифларидан бири А.Н.Хан (1986)нинг такидлашича мактабларда жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулот ларига эътибор ХУ111 асрнинг ўрталарига тўғри келади.

Машҳур француз намояндаси Жан Жак Руссо (1712-1778), таниқли швецар демократ-педагоги И.Г.Песталоцци (1746-1827)нинг асарларидаги ғоялар таъсири оқибатида Германияда янги типдаги "филантропинлар"(инсонларни севувчилар) буржуа мактаб лари очилди ва илк бор шу мактабларда болалар жисмоний тарбияси масалаларига эътибор берилди ҳамда Г.Фит (1763-1836), И.Гутс Мутс (1759-1839) лар соҳанинг етакчи мутахасислари деб тан олинди. Лекин, янги типдаги мактаблар

ўзининг предметига, аниқ мақсади ва вазифаларига, воситалари, ўқитиш услубиётига эга бўлган тўла қонли дарсларга айланиши учун бир асрга яқин вақт ўтиши керак эди. Кейинчалик “немец гимнастикаси” деб ном оладиган, мамлакат жисмоний тарбия тизимига тамал тоши қўйилди, Фридрих Людвиг Ян унинг асосчиси бўлиб, гимнастикани бошқа фанларга муҳим қўшимча деб ҳисоблади.

Гимнастиканинг оргинал тизимини швед драматурги, жамоат арбоби Пэр Генрих Линг (1776-1839) яратди. Лекин унинг гимнстика дарси (агар, уни дарс деб ҳисобласак) ўзининг аниқ структурасига эга эмас эди. Кейинчалик унинг ўғли Яльмар Линг мактаб педагоглари Тренгрен, Балк, Норландер ва бошқалар билан дарсларнинг режасини ишлаб чиқдилар. Машқларнинг “кетма-кетлиги”, “узлуксизлиги”,”аста-секинлик”, “икки томонламалилик” ва бошқа қатор таълим жараёнининг ҳозирги принципларининг элементлари ҳам шаклланабошлади, дарсларнинг турли схемалари тузилиб амалиётга татбиқ этилди. Лекин , уларнинг асосида гигиеник вазифаларни ҳал қилиш назарда тутиларди холос.

Дарс, жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотла рининг ҳозирги кундагиларига мазмуни, тузилишига кўра яқинлари чехларнинг “Сокол гимнастикаси ” тизимининг асосчиси Мирослав Ть!рш (1832-1884) томонидан яратилган дарслар Х1Х асрнинг ўрталарида кенг кўламда қўлланила бошланди. Европа мамлакатларининг кўпчилигида, жумладан Россияда ҳам *вазифасига кўра жисмонан ҳар томонлама ривожлантириш, эстетик ва аҳлоқий тарбиялаш, давом этиш вақти аниқ белгиланган, уч қисмдан: тайёрлов, асосий, якунлов қисмли дарслар* юзага келди.

Машҳур француз физиологи, педагоги Жорж Демени (1850-1917) дарсларда илк бор анатомия, физиология ,гигиена, педагогика фанларининг ютуқларидан тўлиқ фойдаланди. Унинг дарси етти бўлимдан иборат бўлиб, ҳар бир бўлим учта компонентни (дарс вазифалари, воситалари, машқнининг меъёри) ўзида мужассам лаштирди. Бу дарслар замонасининг оргинал дарслари ҳисобланаган. Унинг шогирди , издоши Эбер (французларнинг жисмоний тарбиясининг “эбер” тизими асосчиси) ҳар куни гимнастика дарсини очиқ ҳавода ўтказиш кераклигини тавсия қилиб, ўқвчилар учун дарс вақтини илк бор 60дақиқа деб белгилади.

Мамлакатимиз жисмоний тарбия тизими ўзининг Жаҳонгир боболаримиз яратган машқланиш машғулотлари, уларнинг назарий асослари, фойдаланиладиган воситалари, услубиётлари ҳалқ оғзаки ижоди ва машҳур салтанат соҳиблари ҳаёти, ижодига бағишланаган асарларда баён қилинган. Масалан, бобокалонимиз соҳибқирон Амир Темурнинг сарбозлари машғулотлари, уларни танлаш ва тайёрлаш машғулотларининг мазмуни, тузилиши, воситалари, таълим услубиётларини тадқиқ қилиш, араб, форс, лотин тиллари даги манбаъаларга мурожат қилишни тақазо этмоқда. Бу тадқиқот илардан махсус тайёргарликни талаб этмоқда.

Хулоса қилиб айтишимиз лозимки, ҳозирги замон жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотлари, дарслари, гимнастика билан шуғулланиш машғулотларининг базасида ХУ111асрнинг охири, Х1Х асрнинг бошларидаги таълим жараёнида шаклланган ва оёққа турган.

**Z.D. Mirzakarimova - ToshDTU Olmaliq filiali dotsenti, fil.f.n.**
**M.E. Toshtemirova - MTTU “MISiS” ning Olmaliq filiali assistenti.**

## TARJIMANING MUHIM MUAMMOLARI

Tarjimaning birlamchi sharti til bilish bo‘lsada, tarjima uchun faqat shuning o‘zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko‘pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to‘g‘ri keladiki, bu g‘ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog‘liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o‘tgan, tildan tashqari muammolari g‘ayri lisoniy muammolar hisoblanadi.

G‘.Salomovning yozishicha, “Tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o‘tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an’ana, ikki she’riy sistema, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to‘qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir”deydi [1].

Asl nusxa va tarjima o‘rtasidagi asosiy tafovutlar avvalo, ikki til o‘rtasidagi farqlarda namoyon bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar bir tilda boshqa ma’noda, ikkinchi tilda boshqa ma’noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo‘llanadigan so‘z boshqa tilda salbiy ma’no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil burun Abu Rayhon Beruniy ham ko‘rsatib ketgan edi.

Har qanday ikki tilning grammatik qurilishi o‘rtasida ham muayyan tafovutlar bo‘ladi. Albatta tarjima tiliga yaqin tillar bundan mustasno. Lekin o‘zaro uzoq tillar ham ba’zan uslubiy tuzilishi jihatida mushtarak bo‘lishi mumkin. Masalan, ruschadan o‘zbekchaga tarjimada gapning oxiridan oldinga qarab kelinadi. Holbuki, tojikchaga tarjimada buning aksi, ya’ni rus va tojik tillarida jumla tuzish qolipi deyarli o‘xshash. Bunga tillardagi uslubiy va grammatik tafovutlar sabab bo‘ladi.

Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu turli tillardagi frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasidir. K.Chukovskiy iloji boricha maqollarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilish kerakligini aytadi. Chunki “ularda xalqning tug‘ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o‘z ifodasini topgan bo‘ladi”. deb yozadiv [2].

Boshqa tillarda shunday maqol va matallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmatni hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so‘zlarda o‘z in’ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko‘pdir. Shuning uchun boshqa tillardagi ko‘plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro‘yobga chiqarish mumkin. Ma’lum bo‘ladiki, tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki tilni bilish bilan chegaralansa, g‘ayri lisoniy muammolari nihoyatda ko‘p ekan: bu – ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e’tiqodi va marosimlari. Bundan tashqari, ilmiy tarjimada turli ilmlardan, publisistik tarjimada kechayotgan voqealardan, badiiy tarjimada adabiy-estetik qonuniyatlardan xabardor bo‘lish taqozo qilinadi.

Tarjima – oson ish emas, tarjimonlik – mashaqqatli kasb. tarjimon faqat tilni bilibgina qolmay, tarix, falsafa, estetika, adabiyot, dinlar, urf-odatlar kabi ko‘pdan-ko‘p narsalarni ham bilishi kerak. Aynan tarjimonning chuqur bilimi, keng dunyoqarashi tarjima tiliga hayotiy tajribasi tarjimaning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Xalq tabiati jonli tilini yaxshi biladigan tarjimon tarjima asarning hayotiyligi, xalqchilligi, tushunarliligini oshirish uchun lug‘atlarda yo‘q so‘zlar, iboralarni izlab topadi. Bu uning til sohasidagi ijodkorligidir.

Adabiyot − so‘z san’ati hisoblanar ekan, badiiy asarlar tarjimasiga nisbatan ham bu ta’rifni qo‘llash mumkin. Chunki tarjima adabiyoti original adabiyotning hosilasi. Badiiy asarlar tarjimasi uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik iste’dodi va badiiyat ilmidan xabardorlik ham talab etiladi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar yoki badiiy ta’bdan bobahra kishilargina qo‘l uradilar [3].

Ma’lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san’atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san’at iqlimidir.

Bir so‘z bilan aytganda, tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki, hosil bo‘lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo‘lsin va shu bilan birga asar yaratilgan davr uning ko‘z oldida jonlanib tursin. Buning ma’nosi shuki, tarjimada tilning arxaik va tarixiy qatlamlariga murojaat qilishda suiste’mollikka yo‘l qo‘ymasdan, ulardan kitobxonda asar yaratilgan davr to‘g‘risida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘lgan darajada foydalanish zarur.

Tarixiy voqea-hodisalar tasviriga bag‘ishlangan asarlar tarkibida qo‘llanilgan xalqlar tarixiy-milliy turmushi tushunchalarini aks ettiradigan lisoniy vositalarni tarjimada ijodiy, asliyat ruhiga mos tarzda talqin etish bilan bir qatorda goho ularni zamonaviylashtirishga intilish hollari ham uchrab turadi.

Bu hol ko‘p tarjimonlarning o‘z tillaridagi tarixiy va arxaik so‘zlardan yaxshi xabardor bo‘lmasdan, tarjima jarayonida mavjud ikki tilli lug‘atlargagina suyanib ish ko‘rishlari bilan bog‘liqdir. Mazkur lug‘atlar esa asosan tilning hozirgi davr so‘z boyligini qamrab olishlari sababli aksariyat hollarda tarixiy-milliy xususiyat tasvirini yaratishga ojizlik qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tarjima muammolari (Maqolalar to‘plami). ToshkentSamarqand, 1991.
2. Quramboyev K. Tarjima va tarjimon mas’uliyati. Toshkent: “Cho‘lpon”, 2007
3. Ochilov E., Xodjayeva. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: 2020. 182 b.

**D.Nuraliyeva – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**M. Maxmudov – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## AJRALISH ARAFASIDAGI OILALAR BILAN ISHLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xalqimizda bir gap bor; oshsiz uy bo‘lishi mumkin lekin nizosiz uy bo‘lmaydi. Faqat nizoning nizodan farqi bor. Aksariyat yaxshi oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o‘z ota-onasini, oilasini, ularning turmush tarzini, bir –birlariga bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurishganidan so‘ng o‘g‘il bolalar huddi o‘z otasidek va qizlarimiz o‘z onalaridek ota-ona, er-xotin bo‘lishni orzu qilishadi. Chunki, ular o‘z onalari misolida bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlardi ko‘rmaganlar. Shuningdek, yosh oilada er-xotinlarning o‘zaro munosabatlar rivojlanishining o‘ziga xos qonunyatlari, ayniqsa, yosh o‘zbek oilasida ularning etnik hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin kuyovlarning yangi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayoni bilan bog‘liq qiyinchiliklar er xotin munosabatida bir qator nizolarni yuzaga keltirishga sabab bo‘lishi mumkin. O‘tmish donishmandlaridan farqli ravishda er xotin kelishmovchiliklarini garim doriga qiyoslashar ekan bunga sabab uning achchiqligi. Lekin, u meyorida bo‘lsa ishtaxani ochadi, meyordan oshsa noxush hissiyotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Nizoli vaziyatlar xar qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bolishidan qattiy nazar nizolardan mutlaqo holi bo‘la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bolmaydi. Malumki bir-biriga aynan oxshash mos ikki odamning bolishi mumkin emas bunga sabab shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan tashkil topgan oila ham ikki uch takrorlanmasdir. Bir oila uchun meyorida bolgan shaxslararo munosabtlar tizimi ikkinchi bir oilada mutlaqo mos kelmasligi yoki biron bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bolmagan nizo va uning sababi boshqa oila azolaring munosabatida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin oilada yuzaga kelishi extimoli bo‘lgan nizo janjalning sabablarini aniqlash va ularni oldini olish masalalrini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularning kimlar o‘rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Oilali nizolarda kimlar ishtirok etayotganligiga ko‘ra ularning quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

1- Er-xotin o‘rtasidagi nizolar
2- Qaynona kelin o‘rtasidagi nizolar
3- Ovsinlar o‘rtasidagi nizolar
4- Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar

Nizolar shartli ravishda “konstruktiv” (biriktiruvchi) va “destruktiv” (ajratuvchi) nizolarga farqlanadi. Ular o‘zlarining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan muammolar bu muammolarning hal etilishi, Kechirish ishtirokchilar oqibati va boshqalarning harakteriga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.

Ayrim hollarda er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchilik ularning harakteridagi oziga hoslik natijasida yuzaga keladi. Inson harakteri batamom bir-biriga o‘xshash bo‘lmaydi. Er-xotin bir-birining harakterini o‘zgartirishga emas, bir-biriga moslashishga harakat qilishsa oilaviy muammolardan ancha yiroqda bo‘lishadi. Ba’zi yigitlar uy yumushlari bilan shug‘ullanmaydi. Buni haqorat deb biladilar shu bilan birga uy yumushlarini asosli sabablarsiz erning zimmaziga yuklaydiga xotinlar ham bor aslida er-xotin qo‘sh-ho‘kiz bo‘lib ro‘zgor tebratishlari va har qanday muammolarni birgalikda hal qilishlari lozim. Ayolga uy yumushlarini ortiqcha yuklanishi turmush o‘rtogini yordam bermasligi o‘zaro hamkorligi yo‘qligi talabchanlikni yuqori qoyilshi o‘zaro bir-birlarini tushuna olmasligi ham er-xotin o‘rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga ayolning qo‘polligi, oilani boshqarishga, leaderlik qilishga intilishi, o‘zaro ishonchning yo‘qligi, emotsional munosabatlarning buzilisha olib kelishi mumkin. Ayol kishi doimo qanoatli bo‘lishi, shukur qilishi eng avvalo o‘zini va o‘zini o‘rab turgan atrof joylarni ozoda tutishi kerak. Shu bilan bir qatorda o‘z oilasini o‘z vaqtida biologik ehtiyojlarini qondirishi kerak ayniqsa turmush o‘rtog‘ini. Soliha ayol doimo turmush o‘tog‘ini va uning yaqinlarini hurmat qilishga va mehrlarini qozonishga harakat qiladi bu orqali u turmush o‘rtog‘ini martabasini va oiladagi o‘rnini ko‘taradi. Bizga

malumki har bir oilada o‘zlarini sirlari bo‘ladi ayniqsa er-xotin o‘rtasida bu sirdan boshqalarning ogoh bo‘lmasligi er xotin o‘rtasidagi ishonchdi mustaxkamlaydi. Bu borada er xotin fahm farosatli bo‘lishi lozim.

Har qanday vaziyatda ular bir birlarini qo‘llab quvvatlashlari va bir birlariga yordam berishlari kerak. Oilaning mustahkam vat inch bo‘lishiga ikkala taraf ham birdek javobgardir bunga sabab “qars ikki qo‘ldan chiqadi “degan naql sabab. Agar ayol zukko va fahmli bolsa har qanday vaziyatda turmush o‘rtog‘ini eshita olsa hech qachon ichki ziddiyatlar yuzaga kelmaydi. Hozirgi kunda ko‘plab yosh qizlarimiz hali oilaga onalikga tayyor bo‘lmaslaridan ularni turmushga uzatib yuborishyapti. Natijada qizlarimizning borgan xonadonga ko‘nikishlari biroz qiyin bo‘lyapti. Biz onalarimizdan shuni iltimos qilardikki o‘z qizlaringa ro‘zg‘or tutishni, mehmon kutishni, kim bilan qanday muomalada bo‘lishni va eng asosiysi tejamkor bo‘lishni o‘rgatishsin. Qaynonalardan ham bir narsani iltimos qilgan bo‘lardik kelinni o‘z qizlaridek ko‘rib bilmaganini o‘rgatib kelinni hizmatkor yoki qul deb emas alloh tomonidan berilgan omonat deb bilishsalar. Shunda qaynona kelin munosabatlari hozirgi kunning muhim mavzusi emas balki namunasi bo‘lar edi. Hozirgi kunda bazi yosh qaynonalar o‘zlarini talab va ehtiyojlarini hamma narsadan ustun qoyib kelinlarni istak va hoxishlarini hisobga olishmayapti. Misol uchun ham o‘qib ham oilasi va o‘z ehtiyojlari uchun ishlaydigan kelinlar yo‘q emas jamiyatimizda shunday bo‘lishiga qaramay qaynonalarimiz kelinlaridan keragidan ortig‘ini talab qilishyapti. Bunday vaziyatlarga kelini Tayyormi yo‘qmi bu ularni hayoliga ham kelmayapti. Agarda kelin ham o‘qishga ham ishga va shu bilan bir paytda uy ishlariga ulgurmasalar ularni turmush o‘rtog‘lari tomonidan haqoratlarga qo‘yishyapti va natijada yosh bir oilani ajralib ketishlariga ham sababchi bo‘lib qolishyapti. Bunday hollarni oldini olish uchun yigitlarimizdan anchagina tadbirkorlik talab qilinadi ular ikkala tarafning hohish istaklarini inobatga olgan holda ish yuritishlari kerak.

Jamiyatimizda ko‘p kelinli oilalar bir xonadomda istiqomat qilishi sir emas barchamizga. Bunday hollarda yana qaynonalar masalasiga yuzlanamiz ular hamma kelinlarini birdek ko‘rmasliklari natijasida oilada ovsinlar orasida nizolar kelib chiqadi. Bunga sabab qaynonajonlarimizning hamma kelinlarini birdek kormasliklari. Qaysidur kelinlari oziga oxshaganligi sabab qaysidur manoda uni doim yaqin olishi va boshqalardan yuqoriroq korishi ham bazi holllatlarda ovsinlar orasiga nizo solib qoyapti. Bunday hollarni oldini olish uchun qaynonalar imkon qadar hamma kelinlardi bir hil korishlari va ularni muozanatda ushlab turishlari kerak. Bundan tashqari bazi qaynonalar o‘z o‘gillarini kelinlaridan qizg‘onishadi bunday holatlarni biz ko‘proq yolg‘iz o‘g‘illarda va otasi yo‘q oilalarda kuzatishimiz mumkin. Kelinlarning aql zakovatlisi bunday hollarga ham yechim topa oladi. Turmush o‘rtog‘I bilan birga onalariga etiborli mehrli bo‘lishadi.

**Sh. Po‘latova – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## MADANIY TADBIRLARNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Keling avvalo madaniyat haqida to‘xtalsak, madaniyat o‘zi nima?

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalarini izohlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma’noda madaniyat atamasi kishilarning faqat ma’naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me’morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Antropologiyada “madaniyat” atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma’no berish, hamda shu jarayonlarga bog‘langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma’noda madaniyat o‘z ichiga san’at, fan va ma’naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat arabcha Madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiy turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko‘chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o‘troq holda yashab, o‘ziga xos turmush tarziga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi asrlar davomida o‘ziga xos xilma-xil urf-odatlar, marosimlarni yaratdi. Ular doimiy takrorlanishi va xalqning ularga amal qilib kelishi natijasida umrboqiydir. Turmushga, zamonga qarab ularning ayrimlari unutiladi, yangilari paydo bo‘ladi, eng xalqchillari esa

avloddan-avlodga o‘tib keladi. Xalqimiz mustaqillik sharofati bilan o‘zligimizni namoyish qiladigan an’analarimiz, oilaviy-maishiy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qaytadan tiklash, ularni mazmunan boyitish, umrboqiyligini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Hayotiy ehtiyoj, mazmun, g‘oya, maqsad asosida vujudga keluvchi tadbirlarning shakli rang-barangdir. Tadbir hayotning barcha sohalarida qo‘llaniladi. Masalan, qishloq xo‘jaligida (g‘o‘zaga ishlov berish tadbirlari), texnikada (traktorlarni mavsumga shaylash tadbirlari), madaniyatda (Navro‘zni nishonlash), tarbiyada (mustaqil ishlash tadbirlari) va hokazo. Madaniyat sohasidagi tadbirlarga *madaniy tadbirlar* deb nom berilgan. Madaniy tadbirlar madaniylashgan, ruhiy, badiiy-ommaviy, hordiq muhitda o‘tadi. Madaniy tadbirlar hayotdagi muhim hodisalarga bag‘ishlanib, ko‘proq aholining bo‘sh vaqtida, madaniy dam olish shakli sifatida uyushtiriladi.

Madaniy tadbirlar- aholining ma’naviy kamol topishi, saviyasini oshishi, bilimini o‘sishi, dunyoqarashini kengayishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi, bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishi uchun ko‘mak beradigan shakl.

Madaniy tadbirlar hayotda shu qadar keng tarqalganki, ularda qatnashmaydigan birorta shaxsni topish qiyin. Ular jamiyatning quyidan-yuqorigacha barcha jamiyat guruhlarida eng kichik jamoa bo‘g‘inlari – oiladan tortib, to xalqaro darajada ham tashkil qilinadi. Tadbirlarni tashkil qilmaydigan bironta oila, jamoa, etnos, millat, mamlakatni topib bo‘lmaydi. Davlat va ijtimoiy hayot darajasida madaniy tadbirlar bilan bevosita mafkura, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat va ijodiy soha xodimi madaniy tadbir asoslarini yaxshi bilmog‘i lozim.

Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va kishilarning ishdan bo‘sh vaqtida kerakli axborotlar berish, badiiy estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi.

Madaniy tadbirlarning eng afzallik tomoni shundaki, ular madaniy muassasalarning keng qamrovli faoliyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Ommaviy tadbirlarni tarbiyaviy va madaniy ish sifatida barcha davlat muassasalari, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, san’at muassasalari, o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, jamoa xo‘jaliklari, mudofaa tashkilotlari, mahalla qo‘mitalari, sport, ekskursiya- turistlik muassasalari, kurort, sog‘liqni saqlash va dam olish tashkilotlari ham uyushtirishadi.

Sharq xalqlarining muhim qadriyati hisoblangan “Navro‘z”, “ Mehrjon” bayramlari, qadimiy diniy qadriyatlar hisoblashmish “Ro‘za hayit” va “Qurbon hayit” lari xalqqa qaytarildi. Ular bilan bog‘liq rasm-rusmlar, urf-odatlar, udumlarni davr talabiga, insonlarning ehtiyojiga moslashtirishga harakat qilinmoqda. Bu ham bo‘lsa istiqlol sharofati, mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan erkinlik mevasidir.

Xalqning ma’naviy ehtiyojlari qanchalik oshib borsa, tadbirlarning ham hayotdagi roli shunchalik oshib boradi. Chunki hayotimizning hozirgi taraqqiyoti bosqichida xalqimizning o‘sib borayotgan ma’naviy ehtiyoji- birinchidan, mehnat qilishga sarflangan jismoniy va ruhiy kuchni qayta tiklaydigan, ikkinchidan, muloqot uyushtiradigan, uchinchidan, ijodiy sharoit yaratadigan, to‘rtinchidan, g‘oyaviy-badiiy emotsional ta’sir etadigan axborotlarga boy va qiziqarli dam olish tadbirlarni talab qilmoqda. Kishilarda bunday ehtiyojlar oshib bormoqda va bu o‘z navbatida tadbirlarning ham samarasini oshirishga imkon yaratmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T.2000-yil.
2. Musiqa ta’lim va ma’naviyat “Toshkent” 1998-yil
3. B.Sayfullayev, V.Rustamov. “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati’ Toshkent 2016-yil.

**Sh. Ismoilova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## CHET TILI GRAMMATIKASINI O‘RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Ma’lumki bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish hamda o‘rgatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu sa’y-harakatlarni amalga oshirishda muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 2012-yil 10-dekabrda e’lon qilingan PQ-1875 sonli “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Bugungi kunga kelib esa chet tillarini o‘qitish hamda dars sifatini yaxshilashga qaratilgan metod va yangicha yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Chet tillarini egallash, unda aloqaga kirisha olish, fikr almashish insonga bugungi globallashgan zamonda bo‘layotgan voqea hodisalardan, har bir sohada kashf etilayotgan yangiliklardan habardor bo‘lish, boshqa davlatlarda yashayotgan odamlar hayoti, faoliyati va madaniyati bilan tanishish, o‘z fikr va g‘oyalari bilan dunyoga chiqish va ularga munosabat bildirish vositasidir va boshqacha qilib aytganda, chet tillarini bilish zamon bilan hamnafas bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, chet tilida muloqotga kirisha ilish zamonaviy shaxsning, har qanday sohada bo‘lishidan qat’iy nazar, eng muhum belgisidir.

Ma’lumki har qanday til uni tashkil etuvchi Grammatik, leksik va fonetik sathlardan tashkil topgan. Hozirgi kunda chet tillarini o‘rgatishda til sathlarini kommunikativ yondashuv asosida yondashishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ko‘pchilik chet tilini o‘rganuvchilar grammatika darsini zerikarli, faqatgina qoidalarga asoslangan mashg‘ulot deb qarashadi. Ammo chet tilida to‘g‘ri gapirish uchun grammatikani bilish juda muhimdir. Shuning uchun ham hozirgi davr pedagogi oldiga muhum vazifa qo‘yiladi, ya’ni o‘qituvchilar grammatikani o‘quvchilarga shunda yetkazib bersinki, uning metodlari orqati o‘rganuvchida shu tilni egallashga istak paydo bo‘lsin, qiziqishi ortsin va tilni o‘rganish unga zavq bag‘ishlasin. Va o‘qituvchuning navbatdagi vazifasi, o‘rganuvchinin zeriktiradigan Grammatik qonun-qoidalarni an’anaviy mashq va topshiriqlardan qochgan holda, yangicha uslublardan foydalanib, o‘quvchining ijodkorlik va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradigan va eng muhimi, bunda grammatikadan aloqaga kirishish vositasi sifatida foydalanishga o‘rgatadigan mashqlarni qo‘llashi ayni muaddaodir va bu davr talabi hamdir.

Kommunikativ grammatikaning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

4. Grammatika muloqotga kirishish uchun vosita. Zamonaviy grammatika darslarida gap Grammatik shakillarni yetkazib berishborasida emas, balki uning kommunikativ funksiyasi haqida ketadi. Bunda faqatgina Grammatik qoidani o‘zlashtirish emas, undan asosan kommunikativ vaziyatlarda foydalana bilish, o‘quvchilarda asosan kommunikativ konsepsiyalarni shakillantirish ko‘zda tutiladi.
5. Chet tilini o‘rgatishda ona tilini inobatga olish. Ayniqsa, boshlang‘ich darajada chet tilini o‘rgatishda albatta ona tilida egallangan bilimlarga murojaat qilish yaxshi samara beradi. Grammatik qoidani tushuntirishda tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar yordamida amaliy ko‘rsatib o‘tiladi.
6. Che tilini o‘rganayotganlarning o‘zlari konteks asosida gapiradilar va muloqotga kirishadilar. Zamonaviy grammatika darslarining maqsadi Grammatik strukturalarni o‘rganish emas, balki bu vositalardan maqsadga va situatsiyaga mos ravishda foydalana bilish ko‘nikmasini shakillantirishdan iboratdir. Bunda shakl emas, balki mazmun muhimdir. Bu orqali o‘quvchilarning kundalik turmush sharoitida eng ko‘p ishlatiladigan nutq namunalarini o‘zlashtirib olishga erishiladi.

Grammatik malakalarni shakillantirishda kommunikativ usullardan foydalanish muhumdir, chunki har qanday Grammatik malaka faqat nutq vaziyatlarida, muloqot jarayonida yaxshi o‘zlashtiriladi. Shuningdek, kommunikativ usullar o‘quv jarayoning motivlashtirilganlik darajasinini oshiradi.

References:

6. Жалолов Ж.Ж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. “English language teaching methodology”
7. Jeremy Harmer. “How to teach English” British Council. Pearson Education Limited, 2007.

8. “Types and peculiarities of phraseology in English and Uzbek languages” Gafurova Hilola "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, taklif va yechimlar" mavzusidagi 8-sonli respublika konferensiyasi, 2021, 1-fevral Master Hilola, 88-90 betlar
9. “Psychological and methodical factors of foreign language communication” P216 “Амалий тилшуносликнинг фанлараро масалалари: масофавий таълимдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги II халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари. - Фарғона, 2021 йил.
10. Dushatova Shohsanam. “O‘zbekiston ilmiy – amaliy tadqiqotlarda talabalarning o‘rni” masofaviy konferensiyasi. 2020. 3-4 bet

**M.B. Abdukarimova - Farg‘ona davlat universiteti fransuz tili o‘qituvchisi**

## BOBUR SHAXSIYATINI O‘RGANISH

O‘zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalardan biri, ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohasida muhim rol o‘ynagan yirik siymolardan biri, Zahiriddin Muhammad Boburdir.U atoqli davlat arbobi, sarkarda, iste’dodli shoir, adib, tabiatshunos olim va tarjimondir.U adabiyot, san’at, tarix, tabiyot fanining turli sohalarida ijod qildi, ajoyib tadqiqotlar yaratdi. Shu bois Boburning ilmiy adabiy merosi hozir ham o‘zining tarixiy-ma’rifiy, ilmiy-estetik qimmatini saqlab kelmoqda.Bobur shaxsiyatini o‘rganish va uning boy merosini kelajak avlodga to‘laligicha saqlab yetkazish eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.O ‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzodaning hayot yo‘lini o‘rganish masalasi hali hamon davom etib kelyapti.Yosh avlodni ajdodlar merosiga xurmat ruhida tarbiyalash maqsadida maktab darsliklarida ham Boburning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar keng yoritilgan.

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo Bobur 1483 yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan.Boburning otasi-Umarshayx Mirzo o‘z davrida Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lgan.Onasi-Qutlug‘ Nigorxonim esa Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo‘lgan.

Barcha temuriy shahzodalar kabi Bobur ham ilmli tarbiyachilar qo‘lida voyaga yetadi.Barcha fanlarni mustahkam egallaydi, ayniqsa she’riyatni juda mehr bilan o‘rganadi.Boburning otasi Umarshayx Mirzo mashhur so‘fiy Xoja Ahrorga ixlos qo‘ygan edi.Bobur ham otasi yo‘lidan borib, umrining oxirigacha shu e’tiqodga sodiq qoladi.Otasining bevaqt vafotidan so‘ng, 12 yoshida taxtga o‘tirgan Bobur shu yoshuda dovyurakligi, qat’iyligi va jasurligi uchun “Bobur”, ya’ni “Sher” laqabinin olib ulgurgan edi.Shuning uchun ham u davlat boshqaruvini qo‘rqmay qo‘liga oladi.Boburning asosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti Samarqandni egallash va Amir Temur saltanatini qayta tiklash edi.Lekin Bobur bu maqsadiga yeta olmaydi, ichki nizolar, mamlakatdagi sotqinliklar yosh Boburning o‘z yurtini tashlab ketishiga sabab bo‘ladi.200-300 nafar navkari bilan Xisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tib ketadi.U yerda ham mamalakat ichida kichik nizolar ro‘y berayotgan edi.Bu esa Boburga qo‘l keladi va osongina Qobulni egallab oladi. Bu haqda Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida shunday degan: ***“ …Rabiulavval oyining avoxirida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G‘azni mulk va viloyatini bejangu judol muyassar va musaxxar qildi”*** Afg‘onistonni o‘z yurti kabi ko‘radi. Mamlakatda kuchli intizom or’natadi va mamlakatni gullab-yashnashi uchun xarakat qiladi. Mamlakatni obdon o‘rganib chiqadi.Uning geografik joylashuvi, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma’lumotlarni to‘liq biladi.Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Afg‘oniston haqida xuddi o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt haqida gapirgandek ma’lumotlar berib o‘tgan: ***“Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdindur.Ma’muraning o‘rtasida tushubtur.Sharqi Lamg‘onot va Purshovar va Hashang‘ar va ba’zi Hind viloyatidur.G‘arbi Ko‘histonlardurkim, Karnud va G‘o‘r ul ko‘histondadur…Garmseriy va sardseriy mevalar Kobul tavobeida ko‘ptur va yovuqtur.Kobul kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o‘ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang‘oq ko‘ptur***…

Bobur shahar ichidagi Bolo Hisor qal’asini o‘z qarorgohiga aylantiradi va oilasi bilan yashay boshlaydi.Boburning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug‘iladilar.Bobur Afg‘onistonni kuchli davlatga aylantiradi.

Bobur bir necha bora Hindistonga yurushlar qiladi va 1526 yilda Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni yengadi.Endi Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismi Boburning nazoratiga o‘tadi.Bobur Agra shahrini poytaxt sifatida tanlaydi va bu yerda ham obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi.Hindistonni ham xuddi Afg‘oniston kabi birlashgan, kuchli, qat’iy intizomli, boy va obod mamalakatga aylantirish ishlarini boshlab yuboradi.Hindistonning geografik joylashuvi, viloyatlari, iqlimi, hayvonot dunyosi va o‘simlikari ham Boburning qiziquvchan nazaridan chetda qolmaydi. Hindistonni ham erinmay o‘rganib chiqadi.Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Hindiston haqida ham ma’lumotlar berib o‘tgan:

***“Hinduston avvalg‘i iqlimdin va ikkinchi iqlimdin va uchunchi iqlimdindur. To‘rtunchi iqlim Hindustonda yo‘qtur. G‘arib mamlakate voqe bo‘libtur.”*** Yoki,o‘simlik dunyosi haqida ***“…Ekinlari tamom lalimiydur… Ba’zi ziroatlarg‘a suv ehtiyoj bo‘lsa, er va xotun ko‘za birla suv tashib sug‘oradilar…”***

***“Hinduston maxsusidir, anbadur… Aksar xom uzadurlar,uyda pishadur, xomi xo‘b bo‘ladur.Go‘rasining murabbosi ham xo‘b bo‘ladur…”***

***“…yana kayladur, arab mavz derlar. Daraxti xeyli baland emas, balki daraxt deb ham bo‘lmas. Giyoh bila daraxt orasida bir nimadur.”*** Bundan tashqari, anbuliy, xurmoyi hindiy, mahva, gul chikon, kirni, joman, kamrak, kadhil, badhal, biyr, karunda, kunor, mirminxon, panyola, gular, panjula, omula, chirunchi, norgil, tor, noranj, limu, chanbiriy kabi juda ko‘p mevali daraxtlar haqida ham nodir ma’lumotlar berilgan.

Bobur Hindistonning hayvonot olamini ham to‘liq tasvirlab yozgan. ***”Hayvonotkim, Hinduston maxsusidur, fuhushdin bir fildurkim, Hindustoniy “hotiy” derkim, Kolpi viloyatining sarhadlarida bo‘lur.”***

***“Yana sahroyi govmishidur. Bu govmishdin heyli ulug‘roqdur. Shoxi bu govmishning shoxidek keyinga boqa yotuq emasdur.”***

***“Yana nilagovdur, balandlig‘i otcha bo‘lg‘ay, otdin bir nima inichkarakdur. Erkagi ko‘kdur. Bu jihatdin g‘olibo nilagov derlar.”***

Bobur Hindiston hayvonlarini har biriga alohida nisbat berib ta’riflagan. Hindistondagi kiyik turlarini alohida jihatlarini va nomlarini erinmay ta’riflagan.Bug‘u-maral, ko‘tahpoy, oq kiyik, jayran, o‘y, galahra kabilar shular jumlasidandir.Bundan tashqari, Hindiston maymunlarining turlari va qushlarining har biri haqida bir-biriga o‘xshamagan,alohida jihatlarini bayon etib, qimmatli ma’lumotlar keltirgan.Tovus, to‘ti, shorak,Kashmir to‘tisi, Jangaliy to‘tisi, lo‘cha, durroj, kanjal, pul-pakor, sahroyi tovuq, chalsiy, bedana, xarchal, tug‘doq, charz, bag‘riqaro, ding, soras,tevaturna, manik, laylak, ulug‘ bo‘zak, oq bo‘zak, sor, o‘rdak, burchin, g‘armpoy, shahmurg‘, zumaj, bo‘rk, olaqarg‘a, qarg‘a, hakka,murg‘i janjal, shappara, chamagdar, sondug‘och, qorlug‘och, quyil, zog‘cha, shaqroq kabi qirqdan ortiq qush va parrandalarni bir-biriga solishtirib bergan. Suvda yashaydigan hayvonlardan sheri obiy, sepsor, kals, huki obiy, karyol, kakka baliq, ushoq baliq, baqalarga ham alohida ta’rif bergan.

Bobur o‘zi yashagan joylarning nafaqat tabiatini, balki o‘sha yerdagi odamlarning ko‘rinishi, fe’l-atvori, tili, lahjasi, urf-odatlari haqida juda mukammal va aniq ma’lumotlar keltirganki, buncha ma’lumotni bir inson emas, balki ko‘pgina olimlar tomonidan to‘plangan ma’lumotlar deb o‘ylash mumkin.Bundan ko‘rinib turibdiki, Bobur hamma sohada ham mukammal bilimga ega bo‘lgan, har bitta yangi narsaga diqqat bilan, qiziqish bilan yondoshgan.”Boburnoma “ asari nafaqat Boburiylar haqidagi memuar asar, balki juda ko‘p soha vakillari ucnun ancha ma’lumotlar olish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar bazasi hamdir.

“Boburnoma” tilshunoslikda ham o‘rganish muhim bo‘lgan ma’lumotlarni bizga taqdim eta oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qarama-qarshiliklarga boy, murakkab va qisqa hayoti davomida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan bo‘lsa-da, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan.Boburning hozirgacha ilm xazinasiga yetib kelib qo‘shilgan asarlari- uncha to‘liq bo‘lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi “Mubayyin”nomli she’riy risolasi, “Volidiya” deb atalgan tasavvufga oid bir kitobchaning nazm bilan tarjimasi, Bobur ixtiro qilgan va “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan alfavit jadvali, hamda “Boburnoma” asaridir. Uning ishlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat qozonishi bilan chet el olimlarining diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda.

Boburning “Boburnonoma” asari ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi bois chet el olimlari diqqatini ham o‘ziga tortib kelmoqda.“Boburnoma” asari ayniqsa, fransuz olimi va tarjimoni Baki Grammon ilmiy ijodida kata qiziqish uyg‘otdi. U Bobur hayoti va ijodini sinchiklab o‘rganib chiqdi va

1991 yilda “Boburnoma” asarini fransuz tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Baki Grammon mana shu tarjima asari uchun “Nobel” mukofoti, hamda Fransiyaning “Palma” mukofotiga sazovor boʻldi.

“Boburnoma” asari juda koʻp tillarga tarjima qilingan.Juda koʻp olimlar Boburning hayoti va ijodini oʻrganishda davom etmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. B. Abdukarimova. Description of nature and its french translation in thework of bobur’s boburnoma. International journal of advanced research in management and social sciences Volume10, Issue12, December 2021 B. 427-431.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. « Boburnoma ». Toshkent. 1989.
3. Jean-Luis BASQUE-GRAMMONT.Le livre de Babur.Paris. 1985.
4. Axrorova R.U. Semantic analysis of phraseological units representing “youth” in French and Uzbek languages. Theoretical.Applied Science jurnali. Philadelphia, USA. 2021. №99, B.122-126.

**M.A. Abdumablonova - Fargʻona davlat universiteti magistranti**

## ALISHER NAVOIY GʻAZALLARIDA QOʻLLANGAN QUSH NOMLARINING SEMANTIK TADQIQI

Navoiy ijodini oʻrganish shoir yashagan davrdayoq boshlangan. Bir necha yillar davomida shoirning lirik va epik merosi tadqiq va tahlil etib kelingan. Bu ishlar, ayniqsa, XX asrda ancha rivojlantirilgan. Ammo mustaqillik qoʻlga kiritilgach, shoir ijodini tom ma’noda puxta tadqiq etish ishlari jadallashdi. Ayniqsa, shoir ijodi, xususan, lirikasida qoʻllanilgan ramz va timsollar, rang va raqam ramzlari, an’anaviy obrazlar, turli tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar kabi masalalar adabiyotshunoslar hamda tilshunos olimlarimiz tomonidan puxta oʻrganilmoqda, tadqiq va tahlil qilinmoqda.

Qush nomlari, ya’ni ornitonimlar mavzusi jahon tilshunosligida koʻplab tilshunos olimlarni qiziqtirgan va bu jarayon davom etib kelayotgan mavzulardan biridir.Qush nomlarini lingvistik tahlil qilish boʻyicha hozirgacha koʻplab ishlar amalga oshirilgan.Bularga R.Safarova, P.Safarov, H.Saidova, N.Nishonova, B.Abdushukurov, B.Zaripov, D.Yuldasheva, O.Oʻrinova, D.Tosheva, N.Pazliddinova[228]larning nomzodlik ishlari e’tiborga molikdir.

Bizning ushbu kichik tadqiqotimizda buyuk mutafakkir va ulugʻ soʻz san’atkori boʻlmish Alisher Navoiy asarlarida qush nomlari – ornitonimlarning badiiy matnda ifodalanishini ochib berish maqsad qilib olingan.Quyida biz shoirning ba’zi gʻazallarini tahliga tortamiz:

**«PARIM BOʻLSA UCHUB QOCHSAM...»**

*Parim boʻlsa uchub qochsam ulusdin to qanotim bor,*
*Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor.*

*Chiqib bu dayrdin Isogʻa nechun hamnafas boʻlmay,*
*Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor.*

*Xaloyiq suhbatidin ming gʻamim bordurki, muft oʻlgʻay,*
*Agar ming jon berib bilsamki, bir gʻamdin najotim bor.*

*Chekib agʻyordin yuz javru tortib yordin ming gʻam,*
*Ne oʻzga xalqdin gʻayrat, ne oʻzimdin uyotim bor.*

[228] Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материле общеупотребительных зоонимов). Автореф. дис… канд. филол. наук. –Ташкент, 1990.–23 с.; Сафаров П. Формирование зоонимической лексики современного узбекского языка по данным исторической грамматики. Автореф. дис… канд. филол. наук. – М., 1992. –19

*Kechib koʻzdin yozay bir xatki, dahr ahliga koʻz solmay,*
*Bu damkim koʻz savodidin qaro, koʻzdin davotim bor.*

*Tilar koʻnglum* ***qushi anqodin*** *oʻtgay nari yuz vodiy,*
*Muningdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.*

*Navoiy, bilki, shah koʻngli manga qayd oʻlmasa, billah,*
*Agar kavnaynga xoshok chogʻligʻ iltifotim bor.*

Ushbu gʻazalda Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarini sezishimiz mumkin. Beshinchi baytda keltirilgan ***Anqo qushi*** ornitonimi gʻazalda oʻziga xos vazifani bajarish uchun xizmat qiladi. Tilar koʻnglim xushi anqodin oʻtsa nori yuz vodiy, Muningdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor. Bu ikki misrada fano vodiysiga sayr e'tiborda tutilgan. Chunki ***anqo qushidan*** ham «nori yuz vodiy»ga oʻtishga ahli fanogina qodirligiga Navoiyning oʻzi guvohlik bergan.

Alisher Navoiy gʻazallarida tabiat manzaralari, gullar, qushlar, daraxtlarning turli xillari (lola, savsan, gul, bulbul, toʻti, sarv…) tasviri har xil maqsadlarni ifodalashga xizmat qildirilgan. Jumladan, quyidagi misralarda chamanzorning tasviri nihoyatda kuchli hayajon, shodlik va xurramlik kayfiyati bilan tasvirlanadi:

Vahki, chamandin yana esti shamol oʻzgacha,
Har dam oʻlur atridin koʻngluma hol oʻzgacha.

***Bulbul-u qumri*** chekib lahn-u navo oʻzga nav'
Koʻrguzadur sarv-u gul gʻanj-u dalol oʻzgacha.

Savsan oʻlub sarbaland, gʻuncha boʻlib noʻshxand
Elga alardin yetib daf'i malol oʻzgacha.

Sunbuli purtob ham, lolayi serob ham,
Dud ila oʻtdin boʻlub shibhu misol oʻzgacha.

(MAT, 6-tom, 372-bet)[229]

Bu tasvir bahor fasli, unda tabiatning uygʻonishi, koʻkatlarning koʻkarishi, turli qushlarning xonishi tufayli shoirda uygʻongan shodlik va bu goʻzallikdan hayajonga tushishidan bir lavhadir, xolos. Gʻazal mulkining sultoni boʻlgan ushbu zotning ijodiy merosi bir xazinaki, olganing, oʻrganganing sari koʻpayaveradi.Gʻazallarini oʻqib-oʻrganasan-u beixtiyor ularning asiriga aylanasan.

**M.A. Abdumalikova – Student of the Faculty of Foreign Languages, Fergana state university**

## AN ANALYSIS OF MARK TWAIN'S CONCEPTS OF THE CHILD AND EDUCATION

Today English is incredibly wide-spread and it is constantly expanding. The main reason for this, in my opinion, is because of the media. The first medium through which English is, and was, spread is through newspapers.

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 13 in Tashkent[230], Alisher Navoiy state university of the Uzbek language and literature was established. Our president SH. M. Mirzyoev paid great attention to developing and promoting Uzbek language and its culture to the world. The document also aims to develop intercultural relationships of Uzbekistan, to study Uzbek language and literature, its historical roots and transmit the masterpieces of Uzbek language to the European countries and vice-versa. Deep study of the prospects for development in the context of globalization, the

[229] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoni. MAT, 3-4-5-6-tomlar, Toshkent, 1988-1990.
[230] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirzyoev "On establishing Alisher Navoiy state university of Uzbek language and literature" Tashkent, May 13, 2016. 2976.

Uzbek language and literature at all stages of the education system, the quality of education and training, as well as the growing needs of the public.

Preparing scientific-pedagogical personnel, to produce highly qualified translators, scientific-research works in the country, engaged in the training and retraining of specialists in the field, as well as the areas of preparing research and teaching materials. The decree of our president gives much possibility to linguists for implementing various researches in the field of FL.

The analysis of the English literature is significant from practical point of view. Training students in the context of professional and specific aspects of the foreign languages, and also studying its genres helps them in the future to establish correct intercultural communication, to be well informed about linguistics and literature, obviously helps to improve literacy skills, to become among colleagues authoritative, stimulates professional growth in the professional environment.

In every period in the history of American literature a diversity of talented writers appear. Likewise, readers always exhibit a vast diversity of taste in what they want to read. I have investigated one of the world's famous literal works of America written by Mark Twain. Mark Twain left school at the age of twelve and went on to become one of American's best known and loved nationalistic authors. In spite of the shortness of his tenure, he reveals in his writings a unique insight into mid-nineteenth century "schooling." Most of his remarks and descriptions about education, people, and life in general, are satirical and humorous.

His novels, short stories and addresses reflect his society and cast shadows upon our own. Since education is an integral part of society, his views also reflect the educational ideas of the time.

There are many Uzbek writers whose works contributed to the development of the Uzbek literature. We know that some philologists like Qodir Mirmuhammedov, Nizom Komilov are famous with their translated literary works. Some well-known novelists also translated famous masterpieces of the world. (Cho'lpon, Mirzakalon Ismoiliy, Mirtemir). The great Uzbek poet and novelist G'afur G'ulom translated the world's masterpieces either, but he is best loved by his Uzbek lyric poems, short stories and novels. G'afur G'ulom's works appeared in the Uzbek Literature mid nineteenth century. In 1930, he translated into Uzbek the poem "Во весь голос" by Vladimir Mayakovskiy by the name "Ҳайқириқ". One may note the similarity between his novels and the great European novelists' works. I have found the delicate similarity between his famous character "Shum bola" and Mark Twain's "Tom Sawyer". In my opinion, every reader can appreciate Uzbek version of "The adventures of Tom Sawyer" by G'afur G'ulom. The writer could transfer the scene, the spirit, and the images of the characters into Uzbek language professionally. Due to his contribution made to our literature "The adventures of Tom Sawyer" became beloved novel of every Uzbek reader. It shows that his works have great impact on the world's literature.

**M.A. Abdumalikova - Student of the Faculty of Foreign Languages, Fergana state university**

## THE PROBLEMS OF TRANSLATION OF ARTICLES FROM ENGLISH INTO UZBEK: TWO INDEFINITE ARTICLES IN UZBEK

Every language has specific system, which differs from that of any other. The nature of the grammatical differences is between a pair of language-to-language. A comparative and contrastive analysis of the grammar of two languages, essential before a translator ventures to take up the job of translating.

It has sometimes been claimed that Uzbek has "no definite or indefinite articles"[231]. Contrary to these claims, we show that Uzbek has not just one but two indefinite articles, namely **bir** and **bitta.** Uzbek thus shares this cross-linguistically rather unusual property with languages such as Lakhota, which distinguishes between two "quasi-indefinite determiners"[232], Moroccan Arabic, which employs a "potential" and a

[231] Bodrogligeti András J. E. //An Academic Reference Grammar of Modern Literary Uzbek. Volume 1. Lincom Europa, München.2001.

[232] Lyons Christopher // Definiteness. Cambridge University Press, Cambridge, 1999.

"concretizing"[233], and Maori, a more well-known example of a language where we also find two indefinite articles[234].

First I present Heine's theory of the development of indefinite articles from numerals, then we discuss the relevant aspects of the numeral and classifier system of Uzbek, and finally we provide textual evidence that both **bir** and **bitta** occur in various usages as indefinite articles. I've compared the occurrences of these two indefinite articles in two novels, the first one published in 1926 and the second one published in 2001, and show that while **bir** has reached the last development stage already by 1926, the use of ***bitta*** is a more recent development (at least in written Uzbek).

The second important conclusion from this study is that the use of ***bitta*** appears to have spread to the expense of ***bir*** not just in written but also in colloquial Uzbek. Due to the inherent limitations of corpus studies, some important questions could not be answered by this methodology. Next, I have presented the results of an online questionnaire, which was designed to elicit acceptability judgments in order to address some of these questions. First, the absence of certain usages of ***bitta*** (from our corpus) is, of course, not evidence of the absence of this usage. Acceptability judgments can help settle this issue. Secondly, I wanted to know whether, and if so in which contexts of use, in modern spoken Uzbek the use of ***bitta*** is judged better than the use of ***bir,*** because if this were the case then this would corroborate the hypothesis that ***bitta*** has spread to the expense of ***bir.*** The main result is that when it is used as an indefinite article introducing human referents, ***bitta*** is at least as good as ***bir*** (except in predicative constructions), and indeed better if used to introduce referents whose identity neither the speaker nor the hearer knows or cares about.

Bodrogligeti claims that in Uzbek "there is no special morphological or grammatical means specifically designed to distinguish between definite and indefinite nouns: No definite or indefinite articles". In this article, I aimed to show that contrary to Bodrogligeti's claim there is not just one indefinite article in Uzbek, but also two, namely ***bir*** and ***bitta.*** Both of them developed from the numeral ***bir*** 'one'. Next, I turned to the basic ingredients for the development of these indefinite articles, namely the numeral ***bir*** 'one' and the classifier system of Uzbek. With these important preliminaries clarified, we turn to the two items ***bir*** and ***bitta,*** and indicate what stage they have reached in their development into indefinite articles.

4. Ijodiy muammoni hal qilishning yakuniy bosqichi - taqsimlash. Alohida sub'ekt tomonidan o'zining "eksport modeli" shaklida olingan natija boshqalarning mulkiga aylanadi, ommaviy muomalaga kiradi. Shuning uchun natijalarni yozma ravishda taqdim etish ijodiy muammoni hal qilishning zaruriy yakuniy bosqichidir.

Mustaqil ish jarayonida hal qilinishi kerak boʻlgan aniq ta'lim vazifalariga qarab, alohida bosqichlarning mazmuni, davomiyligi oʻzgaradi. Biroq, jarayon tarkibida ularning mavjudligi majburiydir. Bu boʻlajak mutaxassisga oʻzini nafaqat tayyor bilim iste'molchisi, balki uning tarjimoni, yangi bilimlarni tarqatuvchisi sifatida ham anglashga yordam beradi.

Shunday qilib, mustaqil ish asosan bilimlarni oʻzlashtirishdan iborat boʻlgan, nisbiy qarashlar birligi asosida ishlab chiqilgan oʻquv ishlaridan farqli oʻlaroq, ilmiy-amaliy xarakterdagi muammolarni ishlab chiqish bilan bogʻliq. Muammo deganda murakkab nazariy yoki amaliy masala, oʻrganish va hal etishni talab qiluvchi qarama-qarshi vaziyat tushuniladi. Koʻpincha talabaning mustaqil ishi quyidagi yoʻnalishlardan iborat:

– ilmiy muammoli guruhlarda (ilmiy konferensiyalar, seminarlar) ishtirok etish;
– ilmiy maqolalar chop etish;
– ilmiy anjumanlarda qatnashish;
– ilmiy tanlovlarda qatnashish.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻlib, u motivatsiyani, boʻlajak mutaxassisning kasbiy pozitsiyasini shakllantirishni, oʻquv fanlari mazmunini oʻzlashtirish jarayoniga mustaqil ishni organik ravishda kiritishni va integratsiyani oʻz ichiga oladi. zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllash tajribasiga ega boʻlgan talabalarning mustaqil ishlari va mustaqil ish natijalarini nazorat qilish shakllarini tanlash muvaffaqiyati esa koʻp jihatdan uning tashkil etilishiga bogʻliq

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin, oʻquv va ilmiy bilish faoliyatining usullari, qoidalari talabalarga mustaqil ish sifatini sezilarli darajada oshirishga, oliy ta’lim oʻquv dasturini muvaffaqiyatli oʻzlashtirishga imkon beradi. Ammo qoʻllaniladigan texnikaning samaradorligi va mustaqil ish metodikasi hal qiluvchi darajada talabaning ma'lum shaxsiy fazilatlariga bogʻliq.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga asosan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”

2. Hayitova Sh.D. The Contents of Students’ Independent Education and Methods of Implementation// Psychology and education// 2021 58(02) 9-14

3.Hayitova Sh.D Талабалар мустақил таълим олишини фаоллаштириш бугунги давр талаби “Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусида коференция материаллари № 32 30 сентябр 2021 йил

**D. Ismoilova – Fargʻona davlat universiteti magistranti**

## ANTONIM SOʻZLAR ASSOTSIATSIYASI

Hozirgi davr dunyo tilshunosligida tilni inson omili bilan bogʻlab, ya’ni amaliy jihatdan tadqiq etishga koʻproq e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, soʻzlovchining yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, ruhiyati kabilarning muloqot jarayonidagi oʻrni tilga amaliy yondashuvni taqozo etmoqda. Verbal tarmoq sifatida qaraluvchi assotsiativ tilshunoslik ham antroposentrik tilshunoslikning tarkibiy qismi sanaladi. Assotsiativ tilshunoslikda tilga oʻzaro munosabatdagi birliklar yigʻindisi sifatida ham qaraladi.

Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini oʻrganish muhim ahamiyatga ega.[248] Inson ongida tashqi voqea-hodisalar turli xil assotsiatsiyalarga birlashgan holatda saqlanadi. Insonlarning tafakkur doirasiga qarab, har bir shaxsning assotsiativ maydoni ham turlicha koʻrinishga ega boʻladi. Shaxs ongida saqlanuvchi turli xil assotsiatsiyalar verbal ifodalar orqali namoyon boʻladi. Verbal ifodalar tilning turli xil sathiga oid boʻlishi mumkin. Shuning uchun ular assotsiativ birliklar termini bilan yuritiladi. Professor D.Lutfullayevaning ta’kidlashicha, assotsiativ tarmoqda tilning turli sath birliklari orasida shunday aloqa-munosabatlar

[248] Lutfullayeva D. E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. Meriyus, 2017.

namoyon boʻladiki, bunday aloqalar bir sath birligi orqali bevosita boshqa sath birligi bilan bogʻlanishga imkon yaratadi. Bu holat stimul soʻzning leksik, morfologiik, sintaktik, soʻz yasalishi tizimi birliklari bilan bevosita aloqasida hamda assotsiatsiyalarning oʻzaro munosabatida oʻz ifodasini topadi.[249] Assotsiativ qatordagi birliklar turli sathga oid boʻlishi ham mumkin. Lekin mazmun jihatidan bir-biri bilan bogʻliqlikda boʻladi.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda J. Rumiy asarlarida qoʻllangan antonimik munosabatdagi leksik birliklarning assotsiativ bogʻlanishi xususida fikr yuritmoqchimiz. Professor D. Lutfullayevaning yozishicha, antonimik munosabatdagi leksik birliklarning assotsiativ bogʻlanishi ham semantik aloqadorlikka asoslanadi.[250] Zid a'zolarning qarshilanishi orqali bir-biriga bogʻlanishi ularning til egasi xotirasida yaxshi saqlanishiga zamin yaratadi. Bu esa oʻz navbatida oʻzaro zidlanuvchi leksemalar ham tilda leksik assotsiatsiyalar hosil qilishini anglatadi. Masalan, Alloh **kechani kunduzga** kiritur va kunduzni kechaga kiritur. **Oʻlimni tirik**dan va **tirikni oʻlikdan** chiqaradi. [Rumiy "Ichingdagi ichingdadur"] Yuqoridagi gap tarkibida qoʻllangan kecha leksemasi kunduz bilan, tirik leksemasi oʻlik lesemasi bilan antonimik munosabat asosida assotsiativ bogʻlanadi.

Jahon tilshunosligida oʻz oʻrniga ega boʻlgan, antonimlar mohiyatini assotsiativ tajribalar asosida oʻrgangan tilshunos olim J.Dizning yozishicha, zidlanishdagi a'zolar bir-biri bilan shu qadar kuchli bogʻlanganki, agar insonga antonimik juftlikning bir a'zosini aytib, undan javob tariqasida boshqa soʻzni aytish soʻralsa, u hech ikkilanmay antonim bilan javob beradi.[251]
Masalan, Rumiy yozganidek, oq rangni eshitganimizda uning ziddi boʻlgan qora rang hayolga keladi. Oyati karimada buyurilganidek, oq sigirdan qora sigirni vujudga keltirgan, qora sigirdan ham oq sigirni paydo qiladi.

Professor D. Lutfullayevaning qayd etishicha, til birliklarining assotsiativ aloqasini matn yaratilishining asosiy omillaridan biri deb hisoblash mumkin,[252] mana shu ma'noda antonimik bogʻlanishga ega boʻlgan assotsiativ bogʻlanishlar ham matn yaxlitligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

N. Xoshimovaning yozishicha, assotsiativ qatorlarni oddiy alohida soʻz-assotsiatlar sifatida tahlil qilish mumkin emas. Assotsiativ qatorning qismlari bir butun birlikl tarzida ifodalanadi.[253]
**Toʻgʻrilik** Musoning hassasi kabidir, **egrilik** esa sehrgarlarning sehriga oʻxshaydi.
Qara, anavi togʻ boshiga qoʻnib uchgan qush togʻning nimasini **orttirdi** va nimasini **kamaytirdi? Boshi** va **oxiri** boʻlgan hamma narsa surat va qolipdan iborat boʻladi. **Ibtidosi** va **intihosi** boʻlgan hamma narsa qolipdir.

**Tinchlikni urushdan** ajrata bil, chunki mohir **shisha yasovchi** bilan **boʻz toʻquvchi**ning bir yerda oʻtirishi yaxshilik alomati emas.
Alloh moʻminlarning yoridir. Ularni **zulmatdan yorugʻlikka** chiqaradi. Kofirlarning yordamchisi Togʻutdir. Ularni **yorugʻlikdan zulmatga** kiritadi.

Yuqoridagi misollarda keltirilgan kecha va kunduz, oʻlik hamda tirik, toʻgʻrilik va egrilik, bosh va oxiri, ibtidosi va intihosi, tinchlik va urush kabi juftliklar ot soʻz turkumiga oid assotsiativ bogʻlanishlarni vujudga keltirgan boʻlsa, oq va qora sifat soʻz turkumiga, orttirdi va kamaytirdi birliklari esa fe'l soʻz turkumiga oid assotsiativ birliklarni vujudga keltirgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, assotsiativ bogʻlanish inson ongida kechadigan jarayon sanaladi. Oʻzaro antonimik munosabatdagi lisoniy birliklar ham inson tafakkurida oʻzaro assotsiatsiya tarzida saqlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Lutfullayeva D. E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. Meriyus, 2017.
2. Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
3. Iskandarova Sh. Oʻzbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida oʻrganish (shaxs mikromaydoni): Filol.fan. dok. … diss. avtoref. – Toshkent. 1999. – B. 43.

[249] O`sha asar. 14-bet
[250] O`sha asar 40-bet
[251] Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
[252] Lutfullayeva D. E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent. Meriyus, 2017.
[253] Xoshimova Nargis Abdullayevna O`zbek tilida assotsiativ munosabatlar Fil.f.f.d.(PhD) diss. avtoreferati, Farg`ona, 2018, 14-bet

4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari ("Lingvistika" yoʻnalishidagi magistrlar uchun oʻquv qoʻllanma). – Andijon, 2006. – B 59.
5. Xoshimova Nargis Abdullayevna Oʻzbek tilida assotsiativ munosabatlar Fil.f.f.d.(PhD) diss. avtoreferati, Fargʻona, 2018.

**G.R. Astonova - teacher of Fergana state university**

## PECULARITIES OF WRITING IN GERMAN LESSONS

Writing is an elementary cultural technique and one of the basic skills. In writing, language is expressed in graphic symbols. Writing serves to record facts, opinions, thoughts, feelings, etc. in writing. The communication partner is not present and often not known. For foreign language teaching, writing is an important opportunity for contact with a foreign structure.

• Writing in DaF lessons

Writing has various functions in DaF lessons.

1. Purposefulness: The learner should be able to pass on information worth knowing to a communication partner (reader) while observing the usual conventions of the foreign language and foreign culture.

2. Supporting the language acquisition process (language learning): practicing and consolidating vocabulary and grammar, copying and editing texts, writing down essential information, etc. [1, 37 p]

• Writing as a goal and as a means

There are two different writing activities in DaF lessons:

1. Writing as a goal: e.g. when writing a letter, the goal of the action is a letter that you want to send to someone.

2. Writing as a means to an end: e.g. a certain structure is practiced in written grammar exercises.

• Writing as an intermediate skill

Writing serves as a means to an end, for example when a written grammar exercise serves to consolidate grammatical forms or when a certain vocabulary is practiced.

• Grammar exercises

In the textbook, which was created for the 9-10 classes of general education schools, the students practice the definite article, standing adjectives in the singular in the grammatically appropriate form, standing adjectives and possessive pronouns in the grammatically appropriate form. With these exercises, the students can not only practice, but also test their grammar knowledge while writing. [2, 106 p]

In the exercises given below, through association with nouns and adjectives, elementary school students will ask each other questions and recognize the adjectives. e.g.:

*The sharp knife, the sharp needle, the delicious pudding, the sticky honey, the busy bee, the clever child.*

Through the vocabulary exercise, the students develop good recognition when writing the flower names. e.g.:

*In spring, many early bloomers bloom in our garden.*



Lernausgangstest Grammatik

**Was kannst du schon und wo hast du noch Übungsbedarf?**

**1. Ergänze bei folgenden Wörtern den bestimmten Artikel.**

_______ Hündchen, _______ Belastbarkeit, _______ Männlein, _______ Überlegung,
_______ Wohnzimmertisch, _______ Klavierhocker, _______ Fernsehgerät,
_______ Telefonanlage, _______ Briefzustellung, _______ Abstellkämmerchen,
_______ Fußballmannschaft, _______ Akkuschrauber

von 12 Punkten

**2. Ergänze den fehlenden bestimmten Artikel und das in Klammern stehende Adjektiv im Singular in der grammatisch passenden Form.**

a) Die Augen _______ _____________ *(klein)* Mädchens leuchten.
b) Sie schickt _______ _____________ *(einsam)* Frau eine Karte.
c) Er läuft _______ _____________ *(verdächtig)* Mann hinterher.
d) Die Hände _______ _____________ *(wütend)* Jungen ballen sich zu Fäusten.
e) Sie liest _______ _____________ *(umfangreich)* Bedienungsanleitung.
f) Er fragt nach _______ _____________ *(neu)* Sekretärin.
g) _______ _____________ *(ängstlich)* Kätzchen flieht unter den Schrank.
h) Er findet _______ _____________ *(mollige)* Sekretärin attraktiv.

von 8 Punkten

**3. Ergänze die in Klammern stehenden Possessivpronomen und Adjektive in der grammatisch passenden Form.**

a) _________ _______________ *(mein/klein)* Schwester zieht nach Berlin.
b) Der Reißverschluss _________ _______________ *(dein/blau)* Jacke ist kaputt.
c) Ich überreiche _________ _______________ *(sein/erfreut)* Mutter das Geschenk.
d) Ich benutze _________ _______________ *(dein/alt)* Handy.
e) Er findet _________ _______________ *(ihr/golden)* Kette am Boden.
f) _________ _______________ *(unser/neu)* Sonnenschirm ist schon kaputt.
g) Die Augen _________ _______________ *(dein/jünger)* Tochter sind braun.
h) Ich habe _________ _______________ *(sein/neugierig)* Tante eine Lügenschichte aufgetischt.

von 8 Punkten

DaZ: Lernausgangstest Grammatik, Deutsch, 9+10, Haupt- und Realschule
© Lehrerbüro
1

In conclusion, it can be said that writing serves to develop grammatical exercises, facts, opinions, thoughts, feelings.

## Literature

1. Heringer, Hans Jürgen: word for word. interpretation and grammar. Stuttgart 1978.
2. Hoffmann, Ludger: Formulate: a case for grammar. IN: The German lesson 2000/ p. 6-20.

**G.R. Astonova - teacher of Fergana state university**

## PRINCIPLES OF COMMUNICATION BETWEEN TEACHERS AND STUDENTS

A friendly contact between the teacher and the student is one of the foundations of learning. The teacher, who should not underestimate the contact, strengthens the children's will to learn and helps to achieve mutual (work) satisfaction. Good teaching is not only determined by the learning content, but also by well-functioning relationships. Students show greater willingness to learn motivation and will when they feel a personal interest in them as a person and when they recognize their teacher as an authority. For respect, the teacher needs not only intellectual but also human qualities. If a teacher possesses both qualities and does not underestimate the importance of them, this forms the basis for success in the classroom.

The teacher must never forget his function as a role model and must also ensure that the children are treated well. Of course, every teacher has their own character and the way they communicate differs from teacher to teacher. However, the development of mutual relationships must always be in the foreground. It means with the children
to communicate.

Successful teaching and successful communication go hand in hand. An important part is also the common clear rules that should/should be fixed in class.

All these findings bring us to the conclusion that the following principles help to ensure a good teaching process:

- ✓ quality of the teacher
- ✓ mutual respect
- ✓ Good communication
- ✓ understanding of both parties
- ✓ clear rules

Before I get any further on this topic, I would like to make a small digression about the communicative competencies of the teacher. We experienced that the teacher forms the relationships in the class and that he has a big part in the communication.

The key competences are based on the development of the most important competences/characteristics of the personality. They are used in many subjects and situations.

Key general competencies include:

- ✓ communication
- ✓ Ability to resolve conflicts and problems
- ✓ Logical thinking
- ✓ leadership ability
- ✓ creativity
- ✓ motivation
- ✓ Teamwork
- ✓ ability to learn

A relationship develops between teachers and students that constantly changes over time. The good teacher should strive to create good relationships with and among students.

The teacher should not remain the only one. The students themselves also have a no less insignificant part in forming and shaping relationships in the class.

This is not the end of this knowledge. The next question, which we automatically come to here, is how such communication between teachers and students should look like? On what principles does communication in the class proceed?

Sides are interdependent as one cannot exist without the other. Communication takes place on the basis of certain relationships. These can be characterized as follows:

- ✓ teachers x students
- ✓ teacher x class
- ✓ teacher x group
- ✓ students x class
- ✓ students x group
- ✓ students x students
- ✓ group x group
- ✓ group x class

According to this pattern, the teacher not only communicates with the individual student, but also with the whole class or with the respective groups. Communication also occurs between students, between groups, and between the student and the class.

## Literature

1. ALTRICHTER, Herbert, Peter POSCH, Lehrer erforschen ihren Unterricht. Eine Einführung in die Methoden der Aktionsforschung, Bad Heilbrunn, Klinkhardt, 1998.
2. APITZ, Michael, Eberhard KUNKEL, Patrick KUNKEL, Karl - Der Spätlesereiter, Walluf, ak-verlag, [1988] 1998.
3. AQUINAS, St. Thomas, Quaestiones de Anima. A newly Established Edition of the Latin Text with an Introduction and Notes, hrsg. von J. H. Robb, Toronto, Pontifical Institute of Mediaeval Studies, 1968.
4. AQUINAS, St. Thomas, O.P., Questions on the Soul. Quaestiones de Anima, Milwaukee, Marquette University, [Translated from the Latin by J.H. Robb] 1984.

**O.O. Maxmudov - Qo'qon davlat pedagogika instituti magistranti**

## AXBOROT RESURS MARKAZLARI FAOLIYATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta'lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri turli sohalarga oid zarur axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog'liqdir. Bu maqsadga erishishda Axborot resurs markazlari faoliyatini yangi axborot texnologiyalari bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Axborot resurs markazlari faoliyatining asosiy jarayonlari: axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash, qidirish va iste'molchiga yetkazib berishga zamonaviy telekommunikatsiya kanallari vositasida elektron texnologiyalarni qo'llash samarali natijalar beradi.[254]

ARMning asosiy funksiyalari

1. O'quv zallarida, abonementlarda hamda yagona kitobxon bileti bo'yicha kitoblar berishning boshqa punktlarida, yakka tartibda va guruhlar bo'yicha xizmat ko'rsatish metodlarini qo'llagan holda, foydalanuvchilarga tabaqalashtirilgan xizmat ko'rsatishni tashkil etadi.

2. O'quv yurti kafedralarida, o'quv markazlarida, laboratoriyalarida shakllantirilgan elektron axborot resurslarini to'plash, tizimlash, kataloglashtirishni amalga oshiradi. Elektron kataloglashtirish bibliografik axborotni taqdim etish va uzatishning xalqaro formatlari (MAKS formatlari) talablariga qat'iy muvofiq holda olib boriladi. ARMda ma'lumotlarning original tematik bazalarini yaratish yo'li bilan ta'lim muassasalarining axborot resurslarini shakllantirishi mumkin.

3. ARM foydalanuvchilarni asosiy axborot xizmatlari bilan bepul ta'minlaydi:

4. ARM foydalanuvchilarga boshqa xizmatlar, shu jumladan, ro'yxati ARMdan foydalanish qoidalarida belgilanadigan pulli xizmatlar ko'rsatadi. Kichik va o'rta biznes korxonalariga, uyushmalar va boshqa tashkilotlarga shartnomalar bo'yicha kutubxona-axborot xizmati o'rsatishni tashkil qiladi. Kitobxonlarga kutubxonalararo abonement bo'yicha, shu jumladan, elektron pochtadan foydalangan holda xizmat ko'rsatadi.

5. ARM axborotlarni qidirib topish, ularni mustaqil ta'lim olishda, o'quv jarayonida va ilmiy ishlarda qo'llash, ARMning ma'lumotnoma-bibliografik apparatiga, axborot tizimlariga va ma'lumotlar bazalariga tayanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

6. Foydalanuvchilar uchun informatika va bibliografiya asoslari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qiladi.

7. Mintaqaning boshqa ARMlari bilan muvofiqlashtirilgan holda aholining axborotlarga bo'lgan talablari, shuningdek, ta'lim, kasb — hunar dasturlari, o'quv rejalari hamda ilmiy tadqiqotlar tematikalariga muvofiq fondning jamlanishini ta'minlaydi. O'quv, ilmiy, davriy, ma'lumotnoma, badiiy adabiyotlar va boshqa turdagi nashrlarni sotib oladi.

8. Fondlarni jamlash manbalarini mustaqil ravishda belgilaydi. ARMlar hamda respublikadagi boshqa muassasa va tashkilotlar bilan kitoblar va elektron resurslar ayirboshlashni, shuningdek, zaruriyatga ko'ra xorijiy mamlakatlarning kutubxonalari va tashkilotlari bilan xalqaro kitoblar va elektron resurslar ayirboshlashni amalga oshiradi.

9. Fondlarni jamlash rejalariga tuzatishlar kiritish, ta'lim muassasalari uchun adabiyotlar chiqarishni rejalashtirish hamda foydalanuvchilarning va fondlar tarkibining axborotlarga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiqlashtirish maqsadida kitobxonlar talabi qondirilishi darajasini o'rganadi. Barcha toifadagi foydalanuvchilarning o'quv va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ta'minlanganligini tahlil qiladi.

10. Fondlarni hisobga olish va joylashtirishni amalga oshiradi, ularning saqlanganligini, saqlash rejimini, hujjatlar nusxasini olishni va mikrofilmga hamda elektron formatga ko'chirishni ta'minlaydi.[255]

XX asr oxirlaridan yuz bera boshlagan «axborot inqilobi» Axborot resurs markazlari faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir natijasida kutubxonalar borgan sari ko'proq zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlanib, axborot resurslari markazlariga aylanib bormoqda. ARMlarda xizmat

---

[254] Karimov U. Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda standartlashtirish muammolari. Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi —Fan nashriyoti, 2006 . – 58-63 b

[255] Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining axborot-resurs markazlari to'g'risida namunaviy nizomi

koʻrsatish turlari ham keskin kengaydi: internet tarmogʻidan foydalanish, axborot-tahliliy materiallarni jamlab berish, kutubxona kataloglarining elektron koʻrinishi va toʻliq matnli maʼlumotlar bazalarini kitobxonlarga taqdim etish shular jumlasidandir. Kerakli axborotni olish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanilganda manbalarni qidirib topish imkoniyati yuz martalab oshadi.

Axborot resurs markazlari faoliyatini avtomatlashtirish uchun albatta biror bir dasturiy taʼminot yaratilishi lozim. Yaratiladigan dasturiy maxsulot axborot resurs markazi faoliyatini toʻliq qamrab olishi lozim. Yaʼni yuqorida aytib oʻtilgan funksiyalarni oʻz ichiga olishi kerak. Oʻz oʻrnida dasturiy taʼminot doimiy, xatolarsiz ishlashi uchun texnik taʼminot xam eng soʻnggi axborot texnologiyalari qurilmalari bilan taʼminlanishi lozim.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtish joizki, xar qanday soxada axborot texnologiyalarining qoʻllanilishi, shu soxaning rivojlanishini xamda xodimlarning ish samaradorligini oshishini taʼminlaydi.

**O.O. Maxmudov - Qoʻqon universiteti oʻqituvchisi**
**D.Oʻ. Boxodirov - TATU Fargʻona filiali magistranti**

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI OʻQUV JARAYONIGA TATBIQI

Axborot texnologiyalarni oʻquv jarayoniga qoʻllashda oʻqitishning mazmunini takomillashtiruvchi shakl va metodlarni izlab topish masalasi muhim oʻrin tutadi.

Pedogog xodimlarning asosiy maqsadlaridan biri har bir talabaga rejalashtirilgan oʻquv-materiallarini yetkazib berish va uni oʻzlashtirish darajasini oshirishga erishishdan iborat. Shu bois maʼruza darslariga mavzularni tushuntirishning murakkab emasligi va qabul qilishning osonligi kabi xususiyatlar xos boʻlishi lozim. Maʼruza darslarida mavzular boʻyicha oʻquv materiallariga tegishli hamma savollarni qamrab olingan va ular juda sinchkovlik bilan tanlangan boʻlishi kerak.

Har bir fan oʻqitilishi uchun, odatda belgilangan maqsadga koʻra, uning mazmuni tanlanadi. Uning oʻzlashtirish uchun mos metodlar, oʻquv vositalari va nihoyat bularga mos oʻqitish shakli tanlanadi.

Taʼlimda uzliksizlikni taʼminlash, metodik tizim deb ataluvchi maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl kabi uning tarkibiy qismlari orasidagi uzviy aloqalarga bogʻliq.

Oʻqituchi-talabalarning psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalariga qarab, har bir taʼlim bosqichi uchun mos mazmunini bayon qilish mantiqi va metodlari mavjud.

1. Oʻquv materiallarini obrazlar koʻrinishda taqdim etish;
2. Diferensial va individual oʻqitish jarayonini tashkil qilish;
3. Oʻqish jarayonini baholash, teskari aloqa bogʻlash;
4. Oʻz-oʻzini nazorat qilish va tuzatib borish;
5. Oʻrgatilayotgan fanlarni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini koʻrsatish;
6. Fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
7. Talabalarni mustaqil ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
8. Masofadan oʻqitish tizimining oʻquv adabiyotlari sifatida qoʻllash;
9. Taʼlim tizimida oʻquv-laboratoriya ishlarini bajarishda tejamkorlikka erishish kabi imkoniyatlar yaratadi.[256]

Masofaviy taʼlim kurslarini tuzishda multimedia vositalaridan va gipermatn texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Gipermatn- materialning turli qismlari orasidagi izohlar bilan taʼminlangan interaktiv oʻquv materialini yaratish imkoniyatidir. Gipermatn imkoniyati oʻqituvchi uchun materialni katta sondagi fragmentlarga ajratish imkonini berib, ularni giperizoh boʻyicha biror mantiqiy zanjirga tizishga imkon beradi. Bu yerda keyingi qadam-bir material boʻyicha xar bir oʻquvchi uchun, ularning bilim darajasiga qarab xususiy oʻquv qoʻllanmasi yaratish boʻlishi mumkin. Giperizohlar tashqi axborot manbalariga murojaat qilishga imkon berib, kursni internet tarmogʻining bir qismiga aylantiradi.

Shunga qaramay, oʻquv jarayonida saytdan foydalanishning amaliy tajribasi shuni koʻrsatadiki, bu struktura koʻpgina imkoniyatlarga egadir. Internetdagi ulkan axborot xajmi, umumiy strukturaning

[256] A.A.Abduqodirov, S.Q.Tursunov. Taʼlimda axborot texnologiyalari. Pedagogika universiteti magistrantlari uchun darslik. T.: «Adabiyot uchqunlari», 2018, 169-b

borligi, Internetda axborot qidirishni osonlashtiradi. Koʻp mamlakatlarning ogʻir xayotiy tajribasi shuni koʻrsatadiki, oʻz xoliga qoʻyilgan talaba, tezda keraksiz axborotlarga murojaat qila boshlaydi.

Multimedia- programma vositalari va apparatlari kompleksi boʻlib, turli muhitdan foydalangan holda kompyuter bilan muloqotdir. Multimedia oʻrganilayotgan hodisani illyustratsiyalashning boy imkoniyatidir. Agar ilgari orzuning chegarasi oq-qora film boʻlgan boʻlsa, xozirda zamonaviy texnik vositalar kompyuter animatsiyalari koʻrinishida koʻproq eʼtiborni tortadigan oʻquv qoʻllanmasi yaratishga imkon beradi. Multimedia vositalaridan foydalanish tovush, animatsiya, multimedia, rang, grafikdan aktiv foydalanish imkoniyatini beradi.

Gipermatn bilan ishlashda talaba oʻquv jarayonida yanada faolroq pozitsiyani egallaydi, u oʻtilgan material boʻyicha xulosalar qilishi mumkin va oʻzi gipermatn boʻyicha uzluksizlikni tanlashi kerak. Taʼlim talabalarga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Multimedia vositalaridan va satxlardagi gipermatndan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

1. Oʻquv materialini tasavvur qilishni yaxshilaydi.
2. Keng miqyosli muxokamani tashkil etish.
3. Qulay interfeysni taʼminlash.[257]

Masofaviy taʼlim kurslarini yaratishda Internet texnologiyalar xususiyatini xisobga olish kerak. Web-saxifalarni katta miqdordagi rasmlar bilan yuklash kerak emas. Grafik elementlar bilan toʻldirilgan, katta miqdordagi saxifalar, yuklash uchun koʻp vaqt talab qiladi. Aloqa uzilib qolganda foydalanuvchi Web-sahifalarni yana yuklashi kerak boʻladi. Katta miqdordagi betlarni yuklashni bir necha betlarga ajratish va ularni giperizoxlarga birlashtirish tavsiya qilinadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtish joizki, taʼlim jarayonida axborot texnologiyalarining qoʻllanilishi, taʼlim oluvchilarning sifatli taʼlim olishiga, taʼlim beruvchilarning esa taʼlim jarayonini qiziqarli boʻlishiga yordam beradi.

**Sh.T. Axmadjonova – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK COLLOQUIAL STYLE

Colloquial language is the specific use of language units in the context of everyday informal, informal, free communication of people. In a sense, it can be contrasted with other styles of the language.

The style refers to spoken language that allows people to interact in their daily activities[258]. This style freely uses dialect elements, words and phrases specific to passive vocabulary, that is, phonetic, lexical, morphological and syntactic phenomena that do not correspond to the norms of the literary language.

Since the style of speech is mainly dialogic in nature, it consists of gestures, additional comments, repetitions (so-called), repetitions; hand, head and body movements are used as an additional tool for expressing thoughts.

In the book “Stylistics of the Uzbek language” by A. Shomaksudov and others of 1983, the style of the modern Uzbek colloquial language (speech) is divided into two main types: the style of literary speech and the style of everyday speech[259]...

In English, a number of linguists have also compiled excellent commentaries on types of speech style. For example, Russian linguists M.D. Kuznets and Yu.M. Skebnev in his book "The Stylistics of the English Language" distinguishes two types of speech:

Free (“speaking”) style:
a) the style of the artistic word;
b) Informal style of communication[260].

---

[257] Qoʻqon DPI “Taʼlimda axborot texnologiyalari” fanidan oʻquv uslubiy majmua 79-b.
[258] Oʻriboyev B. Soʻzlashuv nutqi. — Toshkent: Fan, 1979, 9-b.
[259] Шомақсудов А. ва бошқалар, Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983, 14-б
[260] Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. - Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство, 1960. 131-б.

A. N. Morokhovsky and his co-authors O. P. Vorobieva, N. I. Liksoshurst and Z. V. Timoshenko also divided the style of speech into two types, namely the style of literary speech and the style of informal speech.

In her book I.V. Arnold also divided the style of speech into three independent types: literary style of speech, formal style of speech and simple style of speech, giving examples of each of them[261].

Literary discourse is characterized by organization and development in accordance with the literary norms of the language. The language is simple, devoid of slang and dialect elements. The literary and colloquial style of the language is used for everyday communication: this style is taught in schools and educational institutions, in addition is widely used in fiction.

The fact that this speech is dialogic in nature requires the use of a larger number of incomplete sentences in a speech situation. In addition, inversion in the style of speech, simple sentences are forms of a copied sentence that intersect the author's sentence, a compound sentence – u aytdiki, bunday dedi; she said, he said.

The use of an abbreviated form, i.e., the phonetic reduction of auxiliary verbs, is a peculiar feature of the English oral form of speech: it's, it's not is, I don't, I don't, you can't, you have, we will, etc. d. The opposite trend, i.e., redundancy (the use of additional words), is associated primarily with the unpreparedness of speech, its spontaneous formation. Redundant elements primarily include elements called temporary fillers, i.e. semantically meaningless, such as: well (yaxshi, hoʻsh), I mean (aytmoqchimanki), you see (koʻrganingizdek). Redundant components for logical information on a topic can be both expressive and emotional.

Words that have an expressive connotation in spoken language are also common in speech style. They can enter into synonymous relations with words of neutral meaning. In Uzbek, kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og’zi ochiq (yigʻloqi). In English, to interrogative pronouns such as how, when, where, who, what, what, why - *Whoever‘s that? However did you get in here? What on earth are you doing? Who the devil do you think you are? Who on earth can that be? Why the hell do you ask?* - We can see such statements in rude examples used in cases of anger and impatience of the speaker.

As mentioned above, there is enough data in both English and Uzbek to think about specific norms of speech style. But in any case, the search for these norms in the harmony of language and non-linguistic factors important for the style of speech brings us closer to the original goal.

**Sh.T. Axmadjonova – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## DEVELOPING SUCCESSFUL VOCABULARY LEARNING STRATEGIES

English, as an international language, plays an increasingly crucial role in daily life in Uzbekistan. With the increasing of economy and culture between countries, the importance of English is recognized by more and more Uzbek people. In addition to this, it would be better to mention the decision of the Head of State, which was directed to learn foreign languages, especially English, and to develop teaching system. The main purpose of the decision was to teach foreign languages from the nursery schools. More things have changed after the decree, notably the government paid attention to the importance of foreign languages among the young learners that gives opportunity to show our ability of learning international.

Vocabulary plays an important role in English language acquisition, especially for young learners. In the process of vocabulary learning, it is essential not only to know the meaning of particular word, but all the aspects of the word. As for me, while learning a word, sometimes I find it hard to choose a word and when I want to express meaning, I may have some difficulties in selecting a suitable word. Therefore, knowing the organization of the mental lexicon is a good way for EFL learners to acquire vocabulary more successfully.

Understanding the nature of vocabulary is important to the process of selecting appropriate instructional strategies that enable students to master the vocabulary need to learn to read and to read to learn.

[261] Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык *Электронный русурс+: учубник для вузов/ И.В.Арнольд. – 10-е изд., -М.: Флинта, 2010. -384с. 351-сс

In the English classrooms, the teacher teaches students with the same teaching method. However, some students can acquire the language successfully, while others fail. Why does this happen? It may have something to do with some learning strategies. The same learning strategies may be useful for some students but useless for others. It means that, the learners should master some learning strategies to make their language learning more effective. In addition, many studies also show that apart from teaching methodologies, learner strategies are another essential factor that can affect foreign language acquisition. They can help learners become more effective.

Schmitt (1977)[262] provides a useful overview of the rise in importance of strategy use in second language learning, noting that it grew out of an interest in the learner’s active role in the learning process. There are numerous strategies we not only need to know, but also we need to master them.

Many researchers give their opinions about vocabulary learning strategies. For instance, Nation develops a general classification of vocabulary learning strategies (Nation 20001: 218-222)[263]. From his beliefs, the first one if planning vocabulary learning, to choose words. Learners should know what their vocabulary goals are; and choose what vocabulary to focus on in items of their selected goals. What is more, learners should also have a clear strategy for deciding what vocabulary to focus on, and where to find this vocabulary. Using various strategies can make the learning process more efficient.

The second vocabulary learning strategy is choosing appropriate sources. In order to cope with new vocabulary when it occurs and to learn unfamiliar vocabulary, learners have to be able to get information about the words. Analyzing word parts is a useful strategy, because being familiar with the stems and affixes can provide useful for seeing connections between related words, checking guesses from context, strengthening form and meaning connections, and in some cases working out the meaning of a word.

There are some vocabulary activities to run in the ESL or EFL classroom. From this point, I want to open four activities that helped me to increase my vocabulary range. I am going give learners some tips that focus their attention on the vocabulary, require learners to get back the forms and meanings of the new words, and encourage learners to identify and develop a personalized repertory of specific preferred strategies for vocabulary learning[264].

Z.A. Axrorova Farg‘ona davlat universiteti magistranti

## BARQAROR BIRIKMALARDA TEMPORALLIK MA’NOSINING IFODALANISHI

Barqaror birikmali so‘zlar tilning frazeologik birikmalari deb ham yuritiladi.

Frazeologik birikmalar ikki yoki undan ko‘p so‘zlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir so‘zga ekvivalent bo‘lishi mumkin, odatda u bir so‘zli sinonimik ekvivalentga ega bo‘ladi, sintaktik jihatdan gapning bir bo‘lagini barpo etadi. Tuzilishiga ko‘ra frazeologik birikmalar ulkan xilma-xillikni o‘zida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi o‘rtasidagi semantik bog‘lanishlar turlicha bo‘lishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so‘z o‘zining ma’no mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.Barqaror birikmalarda ham temporallik ma’nosi mavjud bo‘lib, ularni matn[265] ichida qo‘llanganda yana-da aniqroq mazmun anglatishi bilan ahamiyatga ega hisoblanadi.Masalan:

**Bir kun bo‘lmasa - bir kun.** Q. bir kun emas - bir kun. **Bir kunmas - bir kun.** Q. bir kun emas - bir kun. **Bir kun emas - bir kun.**Qachondir kelgusida,oxiri bir kuni. Variant: **bir kunmas-bir kun; bir kun bo‘lmasa – bir kun; bir emas - bir kun.**

Ikki gapning birida rais: “O‘zi zax joy, yerning tagida sizo‘tsuv ko‘p”, - deb bahona qiladi. *M.Muhammedov, Yurak so‘zlari.* Ikki gapning birida: “Kishining husniga husn qo‘shadigan zeb-u ziynat emas, mehnat”,- derdi. *R.Fayziy,Qaynana.*

**Ikki gapning o‘rtasida.**Q. ikki gapning birida. **Ikki dunyoda.** Q. Ikki dunyoda ham. **Ikki dunyoda ham.** Hech qachon. Variant: ikki dunyoda; ikkala dunyoda ham. Murotali ikki dunyoda ham ko‘chmaydi.

---

[262] Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in language teaching.* Cambridge: Cambridge university press.
[263] Nation P. (2001). *Learning vocabulary in another language.* Cambridge university press: Cambridge.
[264] Folse, K. 1993. *Beginning reading practices: Building reading and vocabulary strategies.* Ann Arbor: university of Michigan press.
[265] Усмон Азим .Сайланма.Шеърлар.1996.

Tog‘day mahkam, so‘zidan qaytmaydigan odam. *Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.* “Molimni topib bermaguncha, badbaxt, u ikki dunyoda mendan qutulmaysan. O‘zing yo‘q qilgansan”,_dedi eshon. *P.Tursun, O‘qituvchi.* “Qo‘lga tushib bo‘pti. Ikkala dunyoda ham tushmas”. *S.Zunnunova, Yangi direktor.*

**Ikki ko‘z(i) to‘rt bo‘lib.** Q. ko‘z(i)to‘rt bo‘ldi.

**Kecha demay, Kunduz demay.** Q. Kechani kecha, kunduzni Kunduz demay.

**Kecha-kunduz demay.** Q. kechani kecha, kunduzni kunduz demay.

**Kechani kecha, kunduzni kunduz demagan.** Q. kechani kecha, kunduzni kunduz demay.

**Kechani kecha, kunduzni kunduz demay.** Vaqt tanlamay, sutkaning istagan bo‘lagida. Varianti: **Kechani kecha, kunduzni kunduz demagan; kechani kecha, kunduzni kunduz demay; kecha demay, kunduz demay; kecha-kunduz demay.**

Olti oy yoz, olti oy qish, kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qildi. (*G.G‘.G‘ulom, Eri bilan bahs boylashgan xotin)…*Kolxoz tuzishda kechani kecha, kunduzni Kunduz demagan bir odamning gapi inobatsiz qolib ketaversa-yu,… (*Said Ahmad, Hukm).* …Kecha demay, kunduz demay, yarim to‘q, yarim och holda qilgan qora va og‘ir mehnatlar.

**Ko‘z(i) to‘rt bo‘ldi** kimning - **ko‘z(i)ni to‘rt qilmoq** kim kimning. Intizor bo‘lmoq. Varianti: **ko‘zlar to‘rt bo‘ldi**(-);**ko‘z(i) to‘rt bo‘lib**; **ikki ko‘z(i) to‘rt bo‘lib; to‘rt ko‘z bo‘lib (-)**

Nahotki sakkiz oydan beri biron marta ko‘rish nasib etmasa? Yo‘lingizda ko‘zlarim to‘rt bo‘ldi. (*M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha).* Qani, qani … Keling, keling, o‘g‘lim. Kuttiraverib, ko‘zimizni to‘rt qildingiz-ku!

Turg‘un birikma – bu barqaror so‘z birikmasi, ya’ni butun birikma uyg‘unlashgan ma’noda va birikma ma’nosi ayrim birikma tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan yaratiladi. Turg‘un birikmaning umumiy ma’nosi asosida oson anglashiladigan so‘z yotadi. Uning tarkibidagi ayrim so‘zlar - mazmunan tobe va birikma tarkibidagi so‘zlarning har-birining ma’nosi umumiy ravishda birlikka bo‘ysundiriladi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so‘zlar ma’no jihatdan uyg‘unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko‘pincha mazmunan bir leksemaga to‘g‘ri keladi va ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Masalan, qulog‘i ding bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq, qovog‘i osilmoq – xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi qochdi – quvonmoq kabi. Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”[266] dan olingan quyidagi iboralarni tahlilga tortganimizda ularda insonning yosh davrlariga, ya’ni temporallikni ifodalashiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Qari leksemasining quyidagi ibora orqali ifodalanishi undagi tempoarallikka ta’sir qilmaydi, lekin nutqda ta’sirchanlikni oshiradi.

**Bir oyog‘i yerda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda.** Varianti: **Bir oyog‘i to‘rda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda** kimning, umri tugay deb qolgan. Variant: **bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i to‘rda-yu, bir oyog‘i go‘rda.**

“Qolaversangiz bo‘lmaydimi?!—deb bidirlading. ---Bir oyog‘ingiz to‘rda, bir oyog‘ingiz go‘rda. tag‘in o‘liklaringiz allaqaylarda qolib ketmasin!” - deding. *Oydin, Shiringa maktub.* Bir oyog‘im to‘rda-yu bir oyog‘im go‘rda, ajal degan ro‘dapo eshikning tirqishidan mo‘ralab turibdi-yu…*A.Muxtor, Opa-singillar.* Ashur mirzoning ko‘ziga ko‘ringan narsa…sevgili Jamilasi, shirin-shakar To‘tiqizi bo‘lmadi. Yo‘q, bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda bo‘lib qolgan imonsiz xo‘jayinning sirqit joni bo‘ldi. *M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha.* Mening bir oyog‘im yerda bo‘lsa, bir oyog‘im go‘rda. To‘satdan o‘lib qolsam…*O‘.Azimov, Aql chirog‘i.*

Quyidagi ibora esa “qari” so‘zi semasiga zid keladigan “yetuk” semali turg‘un birikmadir:

**Bo‘yga yetmoq,** Q. bo‘y(i) yetdi. **Bo‘y yetmoq.** Q. boy(i) yetdi. **Bo‘yiga yetmoq.** Q. boy(i) yetdi**. Bo‘y(i) yetdi** kimning — **bo‘yiga yetmoq** kim [o‘zining]. Yosh oila qurish darajasiga bormoq (qizlarga qarata). Varianti: **bo‘yga yetmoq** kim; **bo‘y yetmoq** kim. O‘xshashi: **er yetmoq; balog‘atga yetmoq.**

Hozir qizlar zvenosiga bor.Hammasining bo‘yi yetib, ko‘zlari o‘ynoqi bo‘lib qolgan. Oybek, Oltin vodiydan shabadalar. Guljamol va Zuhra yong‘oqdek bo‘yi bo‘yi yetgan qizlari, besh-olti evarasi bo‘lgan xalifa uchun yosh xotin kerak emas edi. S.*Ayniy, Qullar.* Uchta bo‘yiga yetgan singlisi bor. *Said Ahmad, Hasrat.* Mulla Shoshqol domlaning beshta bo‘yiga yetgan, qaddi barkamol, saydovutday-saydavutday

[266] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. Тошкент: Фан, 1964. -Б. -211.

qizlari bo‘lsa ham, bittagina o‘g‘ilning gadoyi edi. *G‘.G‘ulom, Farzandi solih.* Bo‘y yetgan qiz kun chiqquncha uxlab, boshqalardan keyin uyg‘onsa, otaning jahli chiqishi tabiiy. *Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.*

Turg‘un birikmalar o‘z nomidan ko‘rinib turganidek o‘zaro bog‘lanishning eng yuqori bosqichini namoyon etadi. Tarkibiy qismlarning ma’nosi butun ifodaning ta’sirchan xususiyatlari (xossalari) va ifodalilik ma’nosini qamrab oladi. Turg‘un birikmalar har bir tilda aniq shakllangan bo‘ladi va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida aynan so‘zma-so‘z tarjimani bermaydi.

**B. Xaitbayeva – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**M. Xaydarova, U. Mamadaliyeva –talabalari**

## O‘SMIRLAR SPORT MAKTABINING BOSHLANG‘ICH GURUHLARIDA EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI TARBIYALASH XUSUSYATLARI

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida chaqqonlik va egiluvchanlik jismoniy sifatlarini tarbiyalash metodikasi yangi holatlarni kiritadi. Akrobatik mashg‘ulotlar davomida chaqqonlik va egiluvchanlik jismoniy sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan mashg‘ulot vositalari qo‘llanildi. Tadqiqot Farg‘ona shaxar VGIBO‘SMning boshlang‘ich tayyorgarlik guruh o‘quvchilari bilan birgalikda olib borildi. Mazkur tadqiqotga akrobatika bo‘limidagi o‘g‘il bolalar jalb etildi. Tajriba va nazorat guruhlari 11 tadan o‘g‘il bolalar ishtrok etdi, jami 22 ta yosh sportchilar tadqiqotda ishtrok etdilar.

**Dolzarblik:** Mazkur tadqiqotda shu muammolarni kengroq yoritishga, murabbiylar mahoratini izchil egallab olishga ko‘maklashishga harakat qilinadi. Tadqiqotda akrobatika mashg‘ulotlari uchun vositalar misol tariqasida o‘quvchilarda o‘tkazildi. Namuna tariqasida berilgan mashg‘ulotlar majmuasi mutaxasislar uchun bilimlarini chuqurlashishga imkon beradi.

**Tadqiqot maqsadi:** Akrobatikada o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni boshlang‘ich egiluvchanlik va chaqqonlik jismoniy mashiqlar texnikasini o‘rgatish(7-9 yoshli bolalar bilan). Jismoniy sifatlarni tarbiyalash, akrorobatikada boshlang‘ich mashqlar texnikasini ishlab chiqish va o‘rgatish.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili va tadqiqot maqsadi quidagi vazifalarni belgilab olishga imkon beradi.

Umumiy jismoniy rivojlantirishga taluqli bo‘lgan ilmiy-uslubiy manbalarni o‘rganish. VGIBO‘SMda boshlang‘ich tayyorgarlik guruhi bolalarning chaqonlik va egiluvchanlik jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun akrobatikada boshlang‘ich mashqlar texnikasini ishlab chiqish va o‘rgatish.

**Tadqiqot metodi:** Oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun, ishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalanildi: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba, antropometrik ko‘rsatkichlar, ish qobiliyatini baholash metodlari.

**Tadqiqot natijalari va muxokamasi**: Tadqiqot Farg‘ona shaxar VGIBO‘SMning boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida olib borildi. Akrobatika bo‘limidagi o‘g‘il bolalar jalb qilindi. Tajriba va nazorat guruhida 11 tadan jami 22 ta yosh sportchi olindi.

O'tkazilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi fikrlarni umumlashtirish imkoniyatini beradi:

- maxsus akrobatika boshlang'ich mashqlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiyani o'quv- mashg'ulotlari davomida qo'llash sport texnikasini unumli shakllantirish imkoniyatini yaratdi va, binobarin, ushbu texnologiyaning samarali ekanligi isbotlandi;

7-9 yoshli akrobatika maxsus-texnik tayyorgarligining integral va yalpi ko'rsatkichlarini belgilovchi asl me'yoriy talablar yaratildi;

- akrobatika mashqdagi nazorat va yondashtiruv mashqlari majmualari sinovdan o'tkazildi va samarali ekanligi isbot qilindi;

- talabalar akrobatika boshlang'ich mashqlarni xarakat va texnik tayyorgarlikni shakllantiruvchi

| Test<br><br><br><br>Grux | "Ko'prik" tik turgan joydan, sm | Qo'llarga tayanib oyoqlarni ikki yonga ochish. | Oldinga egilish, sm | Gimnastika tayoqchasida qo'llarni orqa va oldiga aylantirish (sm). Elka bo'g'imlarini "burish", sm |
|---|---|---|---|---|
| **Eksperimental gruxi** | **54,9±2,6** | **13±1,9** | **17±4,2** | **34±2,6** |
| **Nazorat guruhi** | **56,5±2,9** | **13±1,6** | **16±4,9** | **34±3,5** |

mashqlardan ratsional foydalanish o'quv-trenirovka samaradorligini oshirishi mumkin ekanligi aniqlab berildi.

Akrobatika mashqlarini ijro etishda o'quvchilarning shakllangan tezkorlik-kuch sifatlari, koordinatsiya, egiluvchanlik, «portlovchi» kuch, xoreografik va akrobatik tayyorgarlikka ega bo'lishi muhim omildir.

Maxsus akrobatika boshlang'ich mashqlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiyani o'quv-trenirovka mashg'ulotlari davomida qo'llash sport texnikasini unumli shakllantirish imkoniyatini yaratdi va, binobarin, ushbu texnologiyaning samarali ekanligi isbotlandi.

**D.K. Baydjanova – Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti**

## TALABALARIDA G'OYAVIY-MAFKURAVIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, kasbiy kompetensiyalar negizida shaxsiy kompetentlikni qaror toptirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlari oliy ta'lim muassasalarida fuqarolik va siyosiy madaniyatni rivojlantirishga doir tanlov (elektiv) fanlarni o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning kasbiy faoliyatdagi o'rni va ahamiyati, talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishda Soft skills (moslashuvchan ko'nikmalar) modelini samarali qo'llash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalashda yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, shaxsni turli yot g'oyalar ta'siridan o'z-o'zini himoya qilishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish"[267] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalari talabalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, integrativ yondashuv asosida talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni va modelini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish huquqiy madaniyatning muhim omili sifatida ularning jamiyatda siyosiy-huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishi zarurligini taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy madaniyati shaxsning umumiy, shu jumladan, pedagogik madaniyatining tarkibiy qismini o'zida aks ettiradi. Bu bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan, huquqiy xulq-atvorni amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiluvchi kasbiy nuqtai nazardan zarur huquqiy qarash, tasavvur va his-tuyg'ular hamda o'quvchilarning huquqiy tarbiyasi bo'yicha samarali faoliyat tizimidir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, huquqiy madaniyat bilan aloqadorlikda bo'lajak o'qituvchilarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish quyidagi ideologemlar (mafkuraviy ijtimoiylashuvning asosiy elementlari) formulasi asosida amalga oshirilishi lozim: "Hayot sifati" ("Oila" – "Ijtimoiy faollik" – "Mobillik" – "Xavfsizlik") – "Inson (bola) huquqi" – "Obro', qadr-qimmatga ega bo'lish" – "Adolatlilik". Mazkur ideologemlar bo'lajak o'qituvchini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning g'oyalar tizimi – ideosfera bilan uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kompetensiyalar – bu insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o'z-o'zini kasbiy jihatdan ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradigan xususiyatlar to'plamidir. Shunga ko'ra, kompetensiyalar bo'yicha "bilim" qanchalik mos va to'liq bo'lsa, odamlar turli sohalardagi muammo va vazifalarni, ya'ni umuman sermahsul hayotiy faoliyatni hal qilishga shunchalik tayyor bo'ladilar.

G'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to'rtta ustuni – faol fuqarolik pozisiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, uning emosionol-motivasion, informasion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik[268] komponentlari aniqlashtirilgan (1-rasmga qarang).




**1-rasm. Talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi** [269]

[267] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[268] Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012.

[269] Xo'jayev M.O. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati – Toshkent, 2021.

Tahliliy ma'lumotlar asosida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikning komponentlari quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- *emotsional-motivatsion komponent* g'oyaviy-mafkuraviy bilimlarni egallash, turli til, millat, madaniyatlarni o'zlashtirishga qiziqish, ehtiyojlarning barqaror namoyon bo'lishi, o'z his-tuyg'ularini boshqara olish, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldorlik hissini anglash, vatanparvarlik va faol fuqarolik pozisiyasiga ega bo'lishga intilish kabilarni o'z ichiga oladi, degan xulosaga kelindi;
- *informatsion-kognitiv komponent* g'oya va mafkuralarga doir axborotlar ustida ishlash, axborotlarni mustaqil tahlil etish va to'g'ri xulosalar chiqarish, kommunikativ ta'sir ko'rsatish usullarini bilish va amaliyotda qo'llay olishni ko'zda tutadi.
- *faoliyatga doir komponent* mustaqil ravishda g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarni taqqoslash, o'zining g'oyaviy immunitetini mustahkamlash, g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning samarali usullarini qo'llay olishni o'z ichiga qamrab oladi.
- *aksiologik komponent* talabalarda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga aksiologik ong, munosabat, yo'nalganlikni tarkib toptirish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga qadriyatli yondashuvni ko'zda tutadi.

Xulosa ornida shuni aytish mumkinki, ***talabalarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish integral tavsifga ega*** bo'lib, emosional-motivasion, informasion-kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik komponentlar birligi va o'zaro aloqadorligini taqozo etib, hamkorlik pedagogikasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika va faol fuqarolik pozisiyasining imkoniyatlarini kengaytirishni talab etadi.

**B.Q. Baratov – Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIGA TAYYORLASH MEZONLARI

*«Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot –*
*yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir»*
*A. Avloniy*

Hozirgi globallashuv davrida tarbiyaning, ayniqsa uzluksiz ma'naviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ma'naviyat va ma'rifat bugun o'zining taraqqiyot yo'lidan buyuk kelajak sari odimlab borayotgan xalqimizga o'z ezgu maqsadlariga erishishi uchun ulkan quvvat manbai bo'lib xizmat qilayotgani shubhasizdir. Bunday vaziyat jamiyatimizda ma'naviyat va ma'rifat borasida olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emasligi, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan jiddiy chora-tadbirlar ko'rish zarurligini taqozo etmoqda.

Masalani har tomonlama o'rganish, tadqiq qilish natijasida shunday xulosaga keldikki, bizning fikrimizcha, bugungi kunda jamiyatimizda ma'naviyat va ma'rifat ishlari samaradorligini oshirish borasida quyidagi mulohazalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi: Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ta'lim-tarbiya samaradorligini aniqlovchi mezonlar tizimini ishlab chiqish va uning asosida mavjud holatni aniqlab, tegishli chora-tadbirlar o'tkazishimiz lozim. Ikkinchidan, yoshlarni sog'lom dunyoqarashga erishishlari uchun ularni erkin va mustaqil fikrlashga, shu asosda oq va qorani bir-biridan ajrata olishga o'rgatishimiz lozim. Bu borada mediata'limni ta'lim tizimiga kechiktirmay joriy qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Uchinchidan, "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi", deydi mamlakatimiz rahbari. demak, bu sohaning boshida turgan o'qituvchi, murabbiylarning ma'naviy yetuklik, pedagogik darajasiga tegishli baho berishimiz kerak[270]. To'rtinchidan, mamlakatimiz istiqbolini, farovonligini o'zida ifoda etuvchi milliy g'oya asosida mafkuraviy tarbiyani shakllantirish bo'yicha davr talabiga mos samarali mexanizm ishlab chiqib, tezlik bilan ta'lim-tarbiyaga joriy qilish lozim.Faqat shunday yondashuv bilangina yoshlarimizni g'ayrimilliy g'oyalar xurujidan asrab qolishimiz mumkin. Buning zaminida jamiyatimizda kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsadi yotadi.

[270] Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so'zi» 2017 yil 1 iyul.

Hozirgi davrda jamiyatimizda uzluksiz ma’naviy tarbiyani qaror toptirishning nihoyatda puxta o‘ylangan, ilmiy asoslangan shunday mexanizmini yaratish lozimki, toki u hozirgi davrimizning barcha talablariga mukammal javob bera olsin. Qayd etish joizki, milliy mafkura va ma’rifat ma’navıyatning muhim tarkibi, milliy demokratik qadriyatlar ko‘rinishi va ijtimoiy hayotning siyosiy manbaidir. Shu sababli O‘zbekistonda mavjud ma’navıyat hodisasi demokratik qadriyatlar va talablarga javob beradi. Mazkur tushuncha va atamaning xorijiy tillarda aynan shu shaklda qo‘llanilayotgani bejiz emas. Zero, mamlakatimiz ta’lim tizimida o‘quv fanlari va ma’naviy-axloqiy tadbirlar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Ayni paytda, bir muammo mavjudki, unga ko‘ra, o‘quvchi-talabalar ma’naviyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqilgan emas. Boshqacha aytganda, qanday ko‘rsatkichlar asosida o‘quvchi ma’naviyati shakllangan, deb hisoblash mumkin? Albatta, bu borada turli yondashuvlarning bo‘lishi tabiiy. Chunki har kim ma’naviyatni o‘zicha tasavvur qiladi. Ayni paytda, ana shu yondashuvlar va fikrlar xilma-xilligini uyg‘unlashtirib turuvchi vazifani ma’navıyat bajarishini esga olsak, shaxsning ma’navıyatlilik darajasini muayyan mezonlar asosida aniqlash zarurati kelib chiqadi.

O‘quvchi-talabalarining ma’naviyatlilik darajasini aniqlashda *asosiy* mezonlar
sifatida qabul qilish mumkin. Negaki, bu tamoyillarda demokratik jamiyatda yashovchi va fao liyat ko‘rsatuvchi shaxsning eng muhim fazilatlari, sifatlari va xususiyatlari mujassam bo‘lgan. e’tibor bering: irodalik komponentlari: chiniqqanlik, baquvvatlik, sog‘lomlik, ko‘tarinki ruhlik, moslashuvchanlik, o‘ktamlik va h.k. e’tiqodlik komponentlari: sog‘lom iymonlik, bilimdonlik, bag‘rikenglik, tushunuvchanlik, halollik, adolatlilik, ezgulik va h.k. vijdonlilik komponentlari: beg‘arazlik, diyonatlilik, insoflilik, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, faollik va h.k. Bu uch tamoyilda hozirgi jamiyatimizning shaxsga qo‘yadigan talab va ehtiyojlari o‘z ifodasini topgan. Shu sababli biz irodali, e’tiqodli va vijdonli o‘quvchini *ma’naviyatli shaxs* deb hisoblaymiz. Ta’lim-tarbiya tizimidagi ma’naviy tarbiyaning asosiy mo‘ljali o‘quvchi-talabalarning iroda, e’tiqod va vijdon tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Zero, har bir o‘quv muassasasida real imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqib,
yoshlarning ma’naviyatlilik darajasini aniqlash mexanizmini tanlash mumkin. Ammo bu masalada ikki mezon bor:

1) o‘quvchi-talabalar ma’naviyatining shakllanganlik darajasini real aniqlash;
2) o‘qituvchi va murabbiylarning faol bo‘lishi.

Shu o‘rinda o‘qituvchi va murabbiylarning yuksak ma’navıyat sohibi bo‘lishi ehtiyoji esga tushadi. O‘qituvchi va murabbiylarning yuksak ma’naviyatli bo‘lishi ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarining *asosi* va o‘quvchi-talabalarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning *stimulidir*. Shu ma’noda hozirgi zamon o‘qituvchi va murabbiylarining yuksak ma’navıyatligi muayyan mezonlarga javob berishi kerak.

Zero, ma’naviyatlilik hozirgi zamon kishisining eng muhim mavqeyi va sifatidir. Shu sababli bu boradagi ishlarning amaliy samarasiga jiddiy e’tibor berish dolzarbligicha qolmoqda. Shuning uchun ham ma’naviyat va ma’rifat ishlarini ilmiy-uslubiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bugungi kunda barchamizning oldimizda turgan o‘ta mas’uliyatli vazifa ekanligini chuqur anglab yetishimiz kerak. Bu borada olib borilayotgan barcha ishlarning samaradorligini muntazam ravishda tahlil qilib borish, shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish hamda ularning yanada progressivroq uslublarini joriy qilish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarimizdan biridir.

**F.A. Boltayeva - Farg‘ona davlat universiteti magistranti**
**F.O‘. O‘rinova - Farg‘ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n.**

## MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASHNING MOHIYATI

Maktabgacha ta'lim jarayoniga yangicha ko‘rinishdagi innovatsion metodlarni olib kirishdan maqsad har bir boladagi o‘ziga xos individual qobilyatlarni rivojlantirish va kreativ yo‘naltirishdan iborat. Yangi innovatsiyalar ta'lim sohasida o‘ziga xos yutuqlarni qo‘lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada ja'miyatda bilimli shaxslar salmog‘ining ko‘payishiga olib keladi. Respublika prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'lim sohasidagi yangilanishlanishlarga baho bergan holda: "mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” deb nomlangan ma’ruzasida: “... ta’limning yangi zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish..., bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani...”[271] alohida ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, birinchi prezidentimiz I.Karimov “Ta'limning yangi modeli ja'miyatda mustaqil ishlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz"[272]. Darhaqiqat, jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda faqatgina o‘z musta'qil fikr va dunyoqarashiga ega bo‘lgan shaxslargina ja'miyatda o‘zining munosib o‘rnini topa biladi. Shaxsning ijtimoiy tizim tarkibiga kirib borishining dastlabki bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta'limning bu boradagi o‘rni takrorlanmas ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim bolani yangi hayot pog‘onasiga tayyorlashdek muhim vazifani bajaradi. Bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishining dastlabki bosqichi tabiiyki, oson kechmaydi. Chunki bola faqatgina ota-onadan iborat bo‘lgan tor doiradan tashqariga chiqadi va jamoaviy hayotga qo‘shiladi. Bu jarayon turlicha individual xususiyatli bolalarga turli xil ta'sir ko‘rsatadi. Tarbiyachining vazifasi bolaning jismoniy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni jamoaviy hayot tarziga ko‘niktirish va jamoada erkin yashash malakasini shakllantirishdir. Jamoaviy muhit bolada ijobiy xislatlarni vujudga kelishiga turtki bo‘ladi.

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirishdan maqsad bu - bolani maktab ta'limi jarayoniga har tayyorlashni kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishdan iborat. Bolalarning intelektual shaxs bo‘lib shakllanishida maktabgacha yosh davri muhim o‘rinni egallaydi. Bolani maktabga tayyorlik darajasi deganda, uning pedagogik, psixologik hamda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari nazarda tutiladi. Boladagi intelekt ma'lum bilim doirasini hosil qilgan, nutqi o‘sgan holatda va fikrlab javob qaytarish, maktab o‘quv dasturiga qo‘yilgan talablarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz o‘zlashtirish darajasida bo‘lishi lozim. Axloqiy sifatlarida o‘z xulq-atvorini idora qilish, nojo‘ya hatti-harakatlardan o‘zini tiya bilish, xulq-atvor qoidalariga bo‘ysinish kabi xususiyatlar mujassamligi zarur. Psixologik ko‘rsatkichlarda ixtiyoriy idrok, barqaror diqqat, obrazli, so‘z-mantiqiy, mexanik turlardagi xotira shakli, analiz-sintez, taqqoslovchi va umumlashtira oluvchi xususiyatli tafakkur, tiklovchi xayol va ravon nutqning rivojlangan bo‘lishi talab qilinadi. Jismoniy rivojlanishda esa yoshiga mos ravishda tana a’zolarining o‘sish ko‘rsatkichlari proporsional darajani kasb etishi lozim. Bu ko‘rsatkichlarning barchasi maktabga tayyorlov guruhi bolalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ta'lim samaradorligini oshirishda va bolalar savodxonligini yuksaltirishda ta'limga noan'anaviy metodlarni joriy etish takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida ommalashib borayotgan ta’limiy faoliyatlar tizimida innovatsion texnologiyalar o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy, aqliy va jismoniy tarbiya berishda innovatsion texnologiyalar loyihalarini yaratish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta’limga joriy qilish ularni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

---

[271] 2 Mirziyoyev SH. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y. – 44-b.
[272] Arxiv.uz/ Prezident I.A.Karimov asarlarida barkamol avlod tarbiyasi/ 23.09.2019y

Integratsiya atamasi lotincha *integratio* - tiklash, to‘ldirish, *integer – butun* so‘zlaridan kelib chiqqan. Pedagogikada XIX-XX asrlar oralig‘ida kichik yoshdagi bolalarni tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalashgan kursi paydo bo‘ldi. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog‘liq.[273] Ular bolaga atrof-muhitdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo‘linmagan kursni joriy qilishni talab qilishgan. Hozirgi kunga kelib ta’limni integratsiyalash borasida ko‘plab yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Maktabgacha ta’limni integratsiyalashning mohiyati bu - bolaga barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni o‘z tasavvurida yaratib borishiga yordam beruvchi dastlabki bilimlarni o‘rgatishdan iborat. Bu uslub bolani ortiqcha zo‘riqishdan asrash, uning vaqti va kuchini tejagan holda o‘quv-bilish jarayonining samaradorlik darajasini orttirish imkoni beradi.[274]

Maktabgacha ta'lim jarayonining quyidagi faoliyat shakllarida innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash mumkin:

- Umumiy guruhlarda ishlash;
- Markazlardagi faoliyat;
- Ta’limiy o‘yinlar;

Ushbu fa'oliyatlarga tarbiyachi ijodiy yondashish orqali bolalarga bir-biri bilan uyg‘unlashgan bilimlarni berish imkoniyati ko‘payadi. Shu o‘rinda, innovatsiyalarni integratsiyalashning maktabgacha ta'limdagi muhim ahamiyati nimadan iborat degan savol tug‘iladi. Integratsiyani bilimlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini tushuntiruvchi bilimlar yig‘indisi, deb oladigan bo‘lsak, uning tub mohiyatini anglash osonroq kechadi. Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. An'anaviy ta’limda qo‘yilgan mavzu asosan fan doirasida o‘rgatiladi. Ammo boladagi individuallikni hisobga olgan holda, ulardagi qiziqishga yuqoriroq baho berish zarur. Albatta, yosh avlod ja'miyat mahsuli sifatida matematika, ona tili, tabiat-olam, tasviriy faoliyat, musiqa va jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni o‘zlashtirishi kerak. Boladagi bilim doirasi uning qiziqishlari asosida vujudga keladi. Shuning uchun yuqoridagi sohalarning biri yoki bir nechtasi bolaning qiziqishlaridan chetda qolishi mumkin. Lekin bolada o‘zi xohlamagan sohaga nisbatan iqtidor mavjud bo‘lsa, uni vaqtida yuzaga chiqarish kerak. Masalan, o‘zga tilni o‘rganishni bola xohlamaydi, ammo bu fa'oliyatga jalb qilinganda unda ijobiy yutuqlar ko‘zga tashlanishi mumkin. Lekin bu hodisa bolaga bilimni o‘zining shaxsiy ehtiyojiga aylantirilgandagina amalga oshadi. Bolalardagi bilimdonlik ko‘pincha 6-7 yoshda aniq ko‘zga tashlanadi.

Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni integratsiyalash asosan maktabga tayyorlov guruhlarida ko‘proq foyalaniladi. Bola 6-7 yoshda o‘qitish boshlanishida murakkablashadigan anchagina axborotlarni qabul qilish va qayta ishlashga tayyor bo‘ladi. Odatda integral loyihali faoliyat boshqa faoliyatlarga nisbatan ko‘proq vaqt davomida o‘tkaziladi. Chunki bir tizimda uyg‘unlashgan turli yo‘nalishdagi ma'lumotlardan iborat murakkab bilimlarni bolaning ongi va tafakkuriga singdirish uchun ko‘proq vaqt kerak bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalarni integral olib borayotgan tarbiyachi bunday faoliyat maqsadi va mohiyatini to‘liq anglab yetishi zarur. Shundagina samarali natijaga erisha oladi. Xususan, bir fikrni ikkinchisi bilan aniq dalillarga tayanib bog‘lab ketish talab qilinadi. Chunki bir fa'oliyat bilan shug‘ullanayotgan bolani to‘xtatib, ikkinchi bir fa'oliyatga o‘tkazib ketib bo‘lmaydi. Bu vaqtda, birinchidan, uning diqqati bo‘linadi, fikrlari chalg‘iydi, ikkinchidan, esa o‘z mehnatiga nisbatan loqayd kayfiyat vujudga keladi. Bola o‘zi bajargan vazifani natijasini ko‘rishni xohlaydi, o‘zgalar davrasida ma'lum bir yutuqqa erishishga intiladi. Buning zamirida bolaga beriladigan rag‘bat yotadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda o‘yin fa'oliyati ustunligining mohiyati ham ana shunda. Bola shaxsida o‘z-o‘ziga nisbatan yuqori baho berish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Tarbiyachi-pedagog boladagi xulq-atvor bilan bog‘liq kamchiliklarga e'tibor qaratishi, jamoada do‘stona muhit yaratishda jonbozlik ko‘rsatishi lozim.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik metodlarning barchasidan unumli foydalanish mumkin. Muhim tomoni bu jarayonda ularni bir mashg‘ulot davomida bir nechtasidan foydalanish imkoni bor. Quyida ta'lim-tarbiya jarayonini integratsiyalashtirish metodlariga qisqacha ta'rif

---

[273] Mavlonova.R, Raxmonqulova.N. Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O`qituvchi” 2006y, 12bet

[274] XXI asr-Intellektual avlod asri/Yosh olimlar va talabalar hududiy anjumani/ Andijon/ 2015y, Z.Azimova, F.Boltayeva, Maktabgacha ta’lim muassasalarida integratsiyalashgan mashg‘ulotlardan foydalanish, 116 bet

beramiz:

1. **Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bolalardagi o‘zaro va tarbiyachi-pedagog bilan bo‘ladigan muloqotning rivojlanishiga yordam beradi. Suhbat asosida boladagi alohida xususiyatlarni aniqlash mumkin.

2. **Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi**. Bu metod bolalarni fa'ollikka chorlashda o‘zidagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishiga bo‘lgan intilishni kuchaytirishda samarali xizmat ko‘rsatadi. Ijodiy faollikka undash bolani tashabbus ko‘rsatishga, harakat qilishga undaydi.

3. **O‘yinli ta’lim texnologiyasi**. Ushbu metodni qo‘llash jarayonida bola shaxsidagi mavjud kamchiliklar tuzatilishga erishiladi. O‘z-o‘zini anglash jarayoni yuzaga keladi.

4. **Loyihali ta’lim texnologiyasi**. Asosan markazlarda faoliyat o‘tkazish jarayonida bolalar diqqatini bir nuqtaga jamlash pedagoglar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bolalardagi taqlidchanlik xususiyati ularda taqlid obyektini hosil qiladi. Pedagogda oldindan tayyorlangan loyiha - obyekt bo‘lsa, u o‘zining barcha ko‘rsatmalariga bolani ishontira oladi.

5. **Muammoli ta’lim texnologiyasi**. Integral faoliyatlarda muammoli ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish imkoni mavjud. Chunki ularning musta'qil faoliyati bu yerda yetakchi o‘rinda turadi. Bolalarda ushbu metodni qo‘llash orqali ularning fikrlash qobilyati mustahkamlanadi, nutqi rivojlantiriladi, ijodiy yondashuv malakalari shakllantiriladi.

6. **Interfaol usullar**. Bunday yondashuvlardan foydalanib pedagog bolalarda fa'ollikni tarbiyalaydi. Har qanday topshiriqlarni interfaol yo‘llar orqali bajarish bolani qiziquvchanligini oshiradi. Natijada bolada yangi bilimlar sistemasi hosil bo‘ladi.

7. **Axborot va aloqa vositalaridan foydalanish**. Bu metoddan integral faoliyatt davomida bir necha marta foydalaniladi. Chunki integral faoliyatning maqsadi har bir bolaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini tekshirishdan iborat. Shuning uchun berilgan topshiriqni har bir bola bajara olishida texnik vositalardan foydalanish juda muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning kelgusida har tomonlama barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishlarida o‘sish va o‘rganishning eng maqbul vaqti sanaluvchi bolalik davrini foydali mashg‘ulotlar bilan band qilish kattalarning muhim vazifasi sanaladi. Bu borada yangi texnologiyalar samarasi pedagog va ota-onalarga zarur ko‘makchi sifatida xizmat qiladi.

**G.Q. Boqiyeva - Farg‘ona davlat universiteti, ikkinchi bosqich magistranti**

## OLIMLARNING XARAKTER HAQIDAGI MULOHAZALARI

Badiiy asar borki, xarakter, obraz, personaj bor. Kichkina bir hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she’rda xarakter kayfiyati, munosabati mujassamdir. Ijodkor badiiy asar yaratar ekan, avvalo, real hayotdagi voqealardan ta’sirlanadi. O‘zi yaratayotgan obrazning imkon qadar yorqinroq, boshqalardan ajralib turadigan qirralarini ochib berishga intiladi. Bunda san’atkor o‘z fantaziyasi, tasavvurini ishga solib, asarga olib kirgan obrazining individual tomonlarini badiiy-estetik jihatdan tasvirlaydi. “Xarakter-badiiy asarda mazmunning shaklidir. Xarakter qirralarini ochishda voqelikni badiiy idrok etish, badiiy anglash va ifodalashning o‘ziga xos usul va yo‘llari mavjud”[275]. Xarakter xususidagi dastlabki qarashlar Aristotelning “Poetika” asarida ya’ni asarning XV bobida keltirilgan. Unda xarakterning turlari, izchilligi, hayotiyligi haqida so‘z yuritiladi. Aristotel xarakterning to‘rtta turi xususida so‘z yuritar ekan ularga quyidagicha ta’rif beradi: “Ulardan to‘rt maqsad ko‘zda tutiladi. Birinchi va asosiysi: qahramon oliyjanob bo‘lishi kerak. Shaxs agar o‘zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadlarga amal qilsa, xarakterga ega bo‘ladi.

Agar shaxs yaxshi maqsadlarni ko‘zlasa, xarakteri ham yaxshi bo‘ladi…Ikkinchidan, xarakterlar o‘ziga xos bo‘lishi kerak: xarakter mardona bo‘lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi. Uchinchidan, xarakterlar haqqoniy ya’ni hayotiy bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, xarakterlar izchil bo‘lishi kerak, hatto, tasvirlangan shaxs noizchil bo‘lishi mumkin. Ammo xarakterning mana shu noizchilligi ham izchil bo‘lishi zarur…”[276]. Rus olimlari ham o‘z navbatida xarakter xususida fikrlar

[275] Jabbor Eshonqul, Folklor: obraz va talqin. Qarshi “Nasaf” 1999
[276] Арасту.Поэтика.Ахлоқи кабир.Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б.40.

bildirib, adabiy-nazariy qarshlarni ifoda etadilar. Masalan, L.I. Timofeyev fikriga koʻra “xarakter- bu insonning jamiyatda oʻzini namoyon qilishidagina maʼlum tip. Bu shaxs aynan jamiyatda fikr, kechinma va hatti-harakat yetakchiligi bilan ajralib turadi. Insonning konkret, betakror qiyofada namoyon boʻlishi mana shu tarixiy sharoitda yuzaga chiqadi”[277]. Yangi davr nuqtayi nazaridan yondoshib tahlil qilgan olimlarimiz esa inson obrazi haqida quyidagi gʻoyalarni ilgari surganlar: “XIX asrda sanʼatning realistik ijod tajribasiga tayangan bilish sifatidagi yangi konsepsiyasi qaror topdi va ustunlik qildi. Bu davrda ilgariroq paydo boʻlgan nazariyalar yengib oʻtildi, va sintezlashtirildi. Sanʼatda inson obrazini markazga qoʻygan bu konsepsiyaning tayanch tushunchalari-tip va xarakterdir”[278].

Nemis klassik shoiri I.R. Bexer taʼkidlaganidek, adabiyotning milliy mazmuni deganda, shubhasiz, adabiyotning millat oldida turgan tarixiy vazifalari xalqning milliy manfaatlari bilab bogʻliqligi tushuniladi. Xalqning milliy xususiyatlari, mavhum tushuncha yoki hodisa emas, balki maʼlum tarixiy davrning, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning mahsulidir. Binobarin, sanʼatdagi milliy xarakter aniq ijtimoiy-iqtisodiy davr kishilari tabiatining badiiy anikosi boʻladi va shunga koʻra milliy xarakter deganda aniq ijtimoiy-badiiy hodisa tushuniladi. Mashhur avar shoiri Rasul Hamzatov badiiy adabiyotdagi milliylik va umuminsoniylik tushunchalari toʻgʻrisida toʻxtalib, bu ikki tushuncha bir-birini rad etmasligini, aksincha toʻldirishini taʼkidlaydi: “Shoxlar tomirlar bilan, jilgʻalar buloqlar bilan bogʻliq boʻlganidek, bu ikki tushuncha ham bir-biridan ajralmasdir. Negaki, bizning gʻoyaviy poeziyamiz milliy madaniyatni rad etmaydi, aksincha, uni tasdiqlaydi va gullab-yashnashi uchun sharoit yaratib beradi”.

Darhaqiqat, yozuvchi oʻzi mansub boʻlgan xalqning milliy oʻziga xosligi tarafida mustahkam tursa, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga oʻz millatining jonkuyari, ilgʻor farzandi nuqtai nazaridan qarasa va kelajakni tasavvur qila olsa, uning asarida ifodalangan milliy tuygʻular, unsurlar, ruhiy holatlar, shubhasiz, umumbashariy qadriyatlarga dahldor boʻladi[279]. Adabiyotning bunday xislatlarini esa kitobxon birinchi galda, ijobiy qahramon qiyofasida, faoliyatida, xatti-harakatlari, qiliq-odatlari, xulq-odobi, gap-soʻzlari va oʻylash tarzida koʻradi. Badiiy adabiyotdagi milliylik faqat shakl hodisagina emas, balki ayni chogʻda mazmun masalasi hamdir. Chunki har bir badiiy asarda tasvirlanayotgan millatning iqtisodiy-siyosiy turmushi ham, oʻsha millat dunyoqarashining ichki murakkab mazmuni ham oʻz ifodasini topgan boʻladi.

Adabiyotshunos olimlarimizdan biri boʻlgan Dilmurod Quronovning fikriga koʻra esa xarakterning oʻz mantigʻi boʻlishi-bu odatiy hol, yaʼniki, xarakterning oʻz mantigʻi boʻlishi zarur. Olimning fikrlariga koʻra badiiy obraz yozuvchi solib qoʻygan qolipda qotib turishga majbur emas, u oʻzining xarakter mantigʻiga koʻra harakat qilib oʻzgarib turadi. Toʻgʻri, barcha obraz va xarakterlar ijodkorning mehnat mahsuli sifatida asar boshida shakllantirilgan boʻladi, ammo ular voqealar rivojida toʻla shakllanib, mustahkamlanib, endi muallif yoʻnalishini qabul qilmaydi, ular voqealar rivojiga qarab oʻsib, oʻzgarib boradi. Xarakterning oʻzligi, oʻzgarib borishi, voqealar tanlashi haqida Aristotel juda ham aniq va tiniq maʼlumotlar yozib qoldirgan. Aristoteldan keyin minglab adabiyotshunoslar xarakter, obraz haqida tadqiqotlar olib borganlar. Qaysi olim masalani toʻgʻri qoʻygan, unga jiddiy yondashgan boʻlsa, xarakter formulasi borligini bilgan va uni qoʻldan kelgancha ishonarli yoritib berishga intilgan.

[277] Тимофеев Л.И. Проблемы теории литературы. – Москва: Государственное учебно-педагогическое издательство министерства просвещения РСФСР, 1955. – С.42.
[278] Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С.29.
[279] Солижонов Й. Йўлдош Сулаймон ижодида миллий характер ифодаси. // ФДУ хабарлар, 2004. №1.

**G.G. Burkhonova - teacher of FerPI**

## SCENARIO TECHNIQUE IN GERMAN LESSONS

Projects lead through exercises and assignments that follow the rules complex target task. The students who are in the airport project interview and use the interviews for later learning purposes in the classroom. In this preparation, the students must linguistic, social-interactional and media skills into account. The link of texts with exercises and tasks that help to create the conditions are called scenarios. It can e.g. B. Planning and implementation of a fashion show, talk show, transformation of a short story into a film treatment. The meaning of everyone involved becomes transparent.

Scenario technique is a method that uses isolated ideas about positive and negative changes in individual development factors in the future comprehensive images and models, i.e. possible and probable "futures", are summarized and which are both sensually and intellectually comprehensible, i.e. are "communicable".

According to GÖTZE, scenarios are linguistically formulated, hypothetical images of the future of socio-economic problem areas, as many alternatives as possible consider development opportunities, be developed systematically and you theirs development are comprehensible for others. They contain quantitative and qualitative Statements about the future and serve as orientation and preparation for decisions.

In the scenario method, three basic types of scenarios are developed:

- a positive extreme scenario (best-case-scenario)
- here the best possible future development modeled. It's about a "desired scenario" that describes a positively assessed state of the future. The realization of such scenarios may seem improbable, but never must be impossible.
- a negative extreme scenario (worst-case scenario) - this is about the Representation of the worst possible future situation. It's s.g. "horror scenario", i. H. a negatively evaluated extreme state. This scenario seems improbable, but never impossible.
- a trend scenario - it is about so-called "business as usual scenario".

Here a future is modeled as an "extended present" can be interpreted. The probability of the trend scenario is higher than the probabilities of the two extreme scenarios. Hence the name "trend" scenario.

The scenario method can be divided into different phases. But there is one
Example of how to do the individual steps:

1) Task and problem analysis

The facts to be examined are identified and described. The whole group lays determine the topic and work out all the necessary information, e.g. B. through presentations, text excerpts or films. Everyone should have the technical knowledge at this point in time. She should provide extensive information and source material for this purpose. To the At the end of this phase, an explicit description of the problem should be available.

2) Impact Analysis

In this phase of the work, the factors that influence the object of investigation are determined describe and possibly influence. The best way to do this is through brainstorming realize. It is about the process of communication and debate possible and probable connections and dependencies.

3) descriptor analysis

The areas of influence and influencing factors are described here in terms of their quantitative and quality content rated. They are presented as descriptors, i. H. more accurate described. Descriptors are formulated in a value-neutral and factual manner and then analyzed and rated. Unique descriptors have a single-minded course, alternative descriptors describe several possible, clearly distinguishable developmental processes.

The task of the scenarios is to deal with social problems and risks with their future development. They are supposed to control their spheres of influence

and analyze influencing factors. The scenario method works with the quantitative data and qualitative information and gives their estimates and opinions based on it from a holistic view of given problems of the present, which predicts be analyzed and discussed. A scenario is about an update of
Problem situations taking into account the development of different influencing factors and disruptive events.

This method is about unification through this analysis and development
the empirical-analytical and creative-intuitive elements. In the scenario method
The following skills and willingness should be promoted:

- Thinking in context systems and alternatives
- Well-founded analysis of active information behavior
- Ability to make decisions
- Raising awareness of current problems and the variety of possible futures
- Understanding-oriented communication skills
- Willingness to participate in the active design of a safe humane, environmentally and socially acceptable future

The challenge for schools is that there is a lack of right and wrong. Different people arrive at different scenarios. Everything can be right but also not because we don't know the future. In any case, scenarios show us valuable hints about what is important in the future and how we can react to it.

We can describe scenarios as "thinking ahead". Strategies for action serve for the development of future events. Everyday things can be personal extend time horizons. In school lessons, scenarios represent something new.

**L.D. Yadgarova - Bukhara state university**
**S.B. Ergasheva - "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University**

## INNOVATIVE COMPUTER TECHNOLOGIES IN CONDUCTING ENGLISH CLASSES

The needs of our state for highly qualified specialists capable of establishing business contacts and business cooperation with foreign partners, specialists who speak a foreign language at a professional level, are reflected in the working curricula of the country's universities. A foreign language today is not just a part of the culture of a certain nation, but it is also the key to success, a successful future career for students. It is important for a teacher to know the latest methods of teaching foreign languages, special teaching techniques in order to optimally select one or another teaching method in accordance with the level of knowledge, needs, and interests of students.

It should be pointed here that all of the latest teaching methods and techniques are closely interconnected with computer technologies. With the development of multimedia and the spread of the Internet, it became possible to talk about a different approach to the creation of computer training language environment. It does not consist in the development of a specialized software product, but in systemic and complex use carefully selected for specific purposes of teaching computer authentic and educational materials, applied and instrumental programs. Another characteristic feature of the modern stage of development computer linguodidactics is the closest possible integration computer and traditional education. This is due not only to the fact that Internet resources are widely used as a source of authentic materials for classes, and discussing the use of e-mail and The Internet is organically included in the range of topics studied in general and professional oriented language courses, but also with a change in the structure of the educational complex and the emergence of new types of teaching aids and materials.[1]

In the process of learning a foreign language, a computer can perform functions that should ensure the formation of a language or communicative competence:

1) to carry out training and testing in the dialogue mode;

2) simulate real speech situations using graphics, animations and videos, create the effect of contact with the language environment;

3) visualizing the speech situation, use it as a stimulus, supports in the process of educational dialogue;

4) provide communication in the target language using computer communication lines.

Modern computer tools allow you to create new computer programs for teaching, training, and controlling. Such programs are created in special educational purposes and are widely used in the process of self and home work in the study of a foreign language. To master English language in the classroom for students can be offered the following computer training programs: "Triple play plus in English", "English Gold", "Tutor", "Talk to Me!",“Learn to Speak English”, “Hello, America!”, “Bridge to English”, “English for communication”, “Speaking Oxford Dictionary", "English Puzzle" and others.

A wide range of training programs available foreign language, their diversity, determined by the goals and content of training, technical capabilities, level of language training of students, makes the problem of assessing the quality of software designed to study foreign language. The use of a computer in teaching reading encourages students to participate more actively in the learning process, without fear of giving wrong answers. Computer technology certainly contributes to the realization such a goal of education as the creative development of the individual, since in creativity is always a game. As F. Schiller noted, “A person plays only when he is human in the full meaning of this words, and only then is he a real person when he is playing."

The list of used literature:

1.Simons, K. (n.d). How can computers and the Internet help me as a classroom literacy teacher? University of Pittsburg School of Education, May 15, 2016, p 22-61.

**D. Asrorova – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## DIQQAT PSIXOLOGIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI

Diqqat - shunday psixik jarayonki, uning yordamida biz o‘zimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, hodisalar, predmetlar mohiyatiga ongimizni qaratamiz. Bizni o‘rab turgan borliq va undagi hodisalar, predmetlar shunchalik murakkab va turfaki, biz ongimizni bir paytda ularning barchasiga yo‘naltira olmaymiz. Diqqat shuning uchun kerakki, u bizga ayni vaqtda kerak bo‘lgan obyektni shu turfaning orasidan ajratib, uni o‘rganish yoki tanishishga imkon beradi. Diqqat inson hayotining turli xil sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

1. O‘qishda - zehnlilik bolaga o‘quv materialini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga, ma’lumotni tezda tushunishga va ko‘p qirrali insonga aylanishiga yordam beradi. Aqliy faoliyatda diqqatning rolini baholab, K.D.Ushinskiy “Diqqat - bu tashqi dunyodan odamning ruhiga kiradigan hamma narsa o‘tadigan eshikdir” deb ta’kidlagan.
2. Shaxslararo munosabatlarda - tinglash qobiliyati xushmuomalalik ko‘rsatkichlaridan biridir. Yaxshi, qiziqarli suhbatdoshga aylanish uchun nafaqat chiroyli gapirish, eshitish, balki bizga aytilgan narsalarni tinglash ham zarur. Shunday qilib, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish uchun inson o‘ziga va odamlarga diqqatli bo‘lishni o‘rganishi kerak.
3. Mehnat faoliyatida - diqqatli bo‘lish, shuningdek, ish joyingizda o‘z ishingizni yaxshi bajarish uchun zaruriy shartdir. Har qanday ish insondan ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Odamning diqqati bir nechta xususiyatlarga ega bo‘lib, asosiysi - diqqatning bo‘linuvchanligi va ko‘chuvchanligidan iborat. Diqqatning kuchi va barqarorligi deb odam o‘z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida mutassil qaratib tura olishiga aytiladi.

Diqqat hissiy, ham mnemonik, aqliy va motor jarayonlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Sensor e’tibor turli xil modallikning stimullarini idrok etish bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, vizual va eshitish sezgirligi ajralib turadi. Intellektual e’tiborning eng yuqori shakli sifatida xotiralar va fikrlarni tushunamiz. Eng ko‘p o‘rganilgani hissiy e’tibordir. Aslida, diqqatni tavsiflovchi barcha ma’lumotlar ushbu e’tibor turini o‘rganishda olingan.

Diqqat turlarining bir necha xil tasnifi mavjud. U.Jeymsning so‘zlariga ko‘ra, diqqat, birinchi navbatda, sezgi, ya’ni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri (agar obyekt o‘ziga qiziqish bilan bog‘liq bo‘lsa, vositachilik qilinadi), ikkinchidan, ixtiyoriy (passiv, refleksiv, harakat hissi bilan birga kelmaydigan) yoki

o'zboshimchalik (faol, harakat hissi bilan birga). Diqqatning xususiyatlari (barqarorlik, konsentrasiya va boshqalar) ma'lum darajada nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga ham xosdir. Ammo diqqatning o'ziga xos xususiyati - o'zboshimchalik haqiqatdan ham insonga xos. Hayvonlar faqat ixtiyoriy e'tiborga ega.

Dastlab, bolada e'tibor irsiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. 10 oygacha u faqat e'tiborni jalb qilishga qodir, ko'zlari porloq, yorqin narsalarga va tanish yuzlarga qaraydi. Bolada diqqat tashqi nafasni vaqtincha ushlab turish va harakatlarning cheklanishida, harakatga tayyorlanish uchun xizmat qiladigan letargiyada namoyon bo'ladi. 10 oydan keyin ixtiyoriy e'tibor paydo bo'ladi, bu qolgan hayot uchun majburiy bo'lib qoladi. Onasi obyektni chaqirib, bolaga imo-ishora bilan ishora qilib, uni atrof-muhitdan ajratib tursa, bolaning e'tiborini qayta tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, biz har qanday yoshda diqqat-e'tiborni rivojlantira olamiz. Ammo, tezroq va ko'proq mashq qilsak, natijalarni tezroq ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda, diqqatimizni mustahkamlash uchun turli xil samarali mashqlarni qo'llab turishimiz kerak bo'ladi.

**S.M. Dadaboyev - Chust pedagogika kolleji "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi mudiri,
FDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 1-bosqich magistranti**

## ILM ZAKOVATLI YOSHLAR TARBIYASIDA PEDAGOGLARNING O'RNI

Inson sha'ni, avvalo, o'zini himoya qilish, o'z qadrini bilishdan boshlanadi. Shu ma'noda, xalqning o'zini qadrlay bilishi g'oyat muhimdir. Chunki "o'zini qadrlaydigan xalq hech qachon taqdirini birovga bog'lab qo'ymaydi ". O'zini bilgan odam Vataniga xiyonat qilmaydi. Uning qalbida el – yurtiga xiyonat qiluvchi oriyatsiz kimsalarga nisbatan cheksiz nafrat yashaydi. Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustuvor bo'lmog'i kerak milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak. Bu muqaddas g'oyalar, millati va e'tiqodidan qat'iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak.[280]

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy ta'lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqiy va odobi bilan ham yuksak ma'no – mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o'zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an'analarimizga ko'ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy yetukligida, ajdodlar me'rosini chuqur o'rganib, uni boyitish, katta – kichikka ehtirom ko'rsatish borasidagi harakatlarida ko'zga ko'rinadi. Komillik darajasini har kim o'zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir shaxsning o'zidan ko'ra boshqalarga yaxshiroq ma'lum bo'ladi. Komil inson – qullik, mute'lik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan insondir. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo'ladi. Komil inson o'z maslagi, Vatani,xalqi manfaatlariga yod, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r – ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.[281]

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, muallim, o'qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa – jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan. Hatto ibtidoiy jamoa tuzumidayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar. O'qituvchilik kasbining paydo bo'lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog'liqdir. Ibtidoiy kishilarning mehnat faoliyati va bunda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tarbiyaning vujudga kelishi uchun asosiy shart bo'ldi. Inson mehnat qurollari tayyorlay boshlagan davrdan boshlab kishilik jamiyati paydo bo'ldi. Eng oddiy mehnat qurollarini qo'llash va ularni ongli ravishda tayyorlashning toboro kengayib va murakkablashib borishi yosh avlodga mehnat bilimlarini, ko'nikma va tajribalarini berish zaruratini tug'dirdi.

---

[280] http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14447-hozirgi-davrda-o-qituvchilik-kasbi-va-uning-jamiyatda-tutgan-o-rni

[281] https://hozir.org/hozirgi-davrda-oqituvchilik-kasbi-va-uning-jamiyatda-tutgan-or.html

Oʻzining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni oʻqitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qoʻshayotgan ijodkor oʻqituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, islohotlar davrida bunday murabbiylar el-yurtga tanilmoqda. Har yili eng yaxshi oʻqituvchini aniqlash uchun oʻtkazilayotgan maktab koʻriklari, tuman, viloyat, Respublika tanlovlari ana shu yutuqlarga omil boʻlmoqda. Maktablarda «metodist oʻqituvchi», «katta oʻqituvchi», «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan oʻqituvchi» unvonlariga sazovor boʻlgan oʻqituvchilar soni tobora koʻpaymoqda.

Soʻnggi yillarda pedagogika institutlarida, universitetlarda, pedagogika bilim yurtlarida oʻqituvchilar tayyorlashni yaxshilashga qaratilgan koʻpgina ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorligini kuchaytirish, ixtisosga doir fanlarni chuqur oʻrgatish va pedagogic mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllashga oʻrgatish masalalariga e'tabor kuchaydi. Shunindek, boʻlajak oʻqituvchilarga pedagogika, ruhshunoslik, usuliyotga doir fanlarni oʻrgatish koʻlami yanada kengaydi. Pedagogika oily oʻquv yurtlarida bir qancha yangi ixtisosliklar boʻyicha oʻquv rejalari joriy etildi.[282]

Uzluksiz pedagogik ta'lim gʻoyalari amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan oʻqituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilikning diqqat markazida boʻladi. Bu tadbirlar universitet va pedagogika institutlarining maxsus fakultetlarida, malaka oshirish institutlarida amalga oshirilmoqda. Oʻqituvchilarni falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, mulohazali boʻlishlariga e'tabor berilayotir. Sinfiy, tarbiyaviy qarashlarning bir yoqlamaligidan, ayrim shaxs va guruhlar manfaatidan umum insoniy qadriyatlar ustun turishi ta'kidlanmoqda.

Oʻqituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi oʻqituvchi boʻlish uchun pedagogic nazariyani egallashning oʻzigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni oʻqitish va tarbiyalash umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy gʻoyalar bayon etiladi. Oʻquvchilarning yosh, individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa oʻqituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogic mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

**S.M. Dadaboyev - Chust pedagogika kolleji "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi mudiri,
FDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi yoʻnalishi 1-bosqich magistranti**

## "WORLD SKILLS INTERNATIONAL" YOSHLARNI XALQARO KASBLAR CHEMPIONATIDA QATNASHISHIDA KENG IMKONIYAT

Mamlakatimizda,eng avvalo,yangi ish oʻrinlari tashkil etish va tadbirkorlik tashabbuslarini faol qoʻllab-quvvatlash xisobidan aholi,ayniqsa,yoshlar farovonligini oshirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga,ushbu soxadagi vazifalarni xal etish mehnat bozorining,shu jumladan joylarda tashkil etilayotga yirik korxonalar va klasterlarning extiyojlarini hisobga olgan holda, yuqori malakali i shchi mutaxasislarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Mehnat bozorining malakali kadrlarga boʻlgan ehtiyojini qondirish, kasbiy ta'limni ishlab chiqarish amaliyoti bilan integratsiyalash, kasbiy kasbiy bilim va koʻnikmalarni baholashning xalqaro tizimini joriy etish va yoshlarni kasbga oʻqitishning zamonaviy tizimini rivojlantirish maqsadida «World Skills International» harakatiga qoʻshilish boʻyicha 2019 yil 13 mayda Vazirlar Mahkamasining "Mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 394-sonli qarori qabul qilindi[1], unda, jumladan, Oʻzbekistonda kasbiy ta'lim va malakalarni baholash tizimiga World Skills standartlarini joriy qilish, shuningdek World Skills standartlari boʻyicha ishchi kasblar milliy va mintaqaviy chempionatlarini oʻtkazishni koʻzda tutuvchi "World Skills Uzbekistan" ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish assotsiatsiyasini yaratish nazarda tutilgan.

"World Skills International" oʻzi nima? World Skills-bu ikki yilda bir marta oʻtkaziladigan xalqaro chempionatlarni tashkil etish orqali tashkil etish orqali, ishchi kasblar nufuzini va maqomini,shuningdek kasbiy tayyorgarlik standartlarini oshirishga qaratilgan xalqaro notijorat assotsiatsiyadir.

[282]nemis_va_ozbek_adabiyotida_oqituvchi_obrazining_talqin__etilish_xususiyati.pdf

World Skills bo'yicha yurtimizda dastlabki qadamlar 2019 yil 29 avgustda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va boshqa manfaatdor idoralar muassisligida "Ishchi kasblarni rivojlantirish va ommalashtirish" assotsiatsiyasi (WorldSkills Uzbekistan) tashkil etilib, 893-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi.Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'laridan Ustav fondiga 10 mlrd.so'm ajratildi.

2019 yilning 17-18 dekabr kunlari Toshkent shahridagi "Ishga marhamat" Monomarkazida WorldSkills International xalqaro standartlari asosida Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston jamoalari ishtirokida Ishchi kasblar bo'yicha birinchi ochiq chempionat o'tkazildi. Chempionatda jami 150 dan ziyod chet ellik ishtirokchilar va ekspertlar ishtirok etib, 2 yo'nalish bo'yicha (kurilish quruk ishlari va sartaroshlik) O'zbekistonlik vakillar birinchi o'rinlarini egallashdi.

2019 yilning 24 avgustida O'zbekiston delegatsiyasining World Skills International prezidenti bilan uchrashuvi davomida O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan mazkur xalqaro assotsiatsiyaga a'zo bo'lish uchun ariza kiritildi.

2020 yil 17 yanvar kuni WorldSkills International direktorlar Kengashi O'zbekistonning WorldSkills International harakatiga qo'shilish haqidagi arizasini tasdiqladi.2020 yilning 18-yanvar kuni O'zbekiston "WorldSkills International" xalqaro assotsiatsiyasining 83-chi a'zo davlati etib tayinlandi.[2]

WorldSkills International assotsiatsiyasiga qo'shilish O'zbekiston uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Birinchidan, O'zbekistonda WorldSkills International'ning xalqaro standartlari bo'yicha ishchi kasblarga o'qitiladigan markaz tashkil etiladi.

Ikkinchidan, WorldSkills International xalqaro standartlari bo'yicha ishchi kasblarga o'qigan shaxslarga kasbiy malakasi tasdiqlanganligi haqida xalqaro sertifikat beriladi. Aynan mana shu sertifikat xorijiy ish beruvchilar tomonidan ishchiga to'liq ishonch bildirishi va ishchi boshqa davlat fuqarosi bo'lsa, uning kasbiy tajribasiga kim kafolat beradi kabi yuzaga keladigan savollarga javob bo'lishi uchun asos bo'ladi.

Uchinchidan, dunyo miqyosida ishchi kasblar bo'yicha o'tkaziladigan jahon chempionatlarida bevosita ishtirok etish orqali katta tajriba to'plash va talab yuqori bo'lgan kasb yo'nalishlari bo'yicha milliy kadrlar safini kengaytirib borish imkonini yaratadi.[3]

Hozirgi kunda WorldSkills Uzbekistan milliy chempionatidan saralangan yoshlar 2022-yil Shanxay shaxrida bo'lib o'tadigan xalqaro musobaqaga tayyorgarlik ishlarini olib borishmoqda.

**G.N. Shodieva - 1st year master of linguistics of Fergana State University**
**M.A. Rakhmonova - 3rd course student of Uzbekistan journalism and Mass communication university, faculty of international journalism**

## EDUCATION IS THE MOST IMPORTANT FACTOR IN THE FUTURE AND LIFE OF A PERSON

*"Investing in human capital is an economic success not only for those who receive education, but also for the whole economy."*

**AJ. Rolnik and Rob Grunevald**

In the world, 57 million children have no idea what it's like to be in class. Again, millions of people are learning, but not learning effectively. Although many teachers are still resisting the use of new technologies instead of traditional teaching methods, it is necessary to recognize that technology can bring a lot of benefit in the classroom.

One of the most common mistakes parents make is that they do not have an individual attitude to their children. Failure to accept children as an individual can lead to the fact that parents perceive the behavior of their children as strange and incorrect.

Before we understand the importance of early childhood education, we need to be on the same page about what age early childhood education belongs to.[283] Usually, early childhood education includes any

[283] Education : The Importance Of Education In Youth Today | Bartleby. https://www.bartleby.com/essay/Education-The-Importance-Of-Education-In-Youth-PKDWXUF5WSR

education that a child receives before the age of eight or until the third grade. In these early years of life, the brain of children grows and learns at a rapid pace, and learning to them is usually very easy.[284] The purpose of education at this stage is to create a solid foundation for the entire life of children. Meta-analysis of studies on the benefits of early childhood education, when considering a pre-school educational institution, which is one of the most initial educational opportunities, "7 out of every 10 preschool-aged children showed a better outcome than the average child in the control or comparison group." When considering the standard dimensions of intelligence and academic achievement. Given the fact that education in those early years directs children to success, this makes sense. Another study followed a group of students who received early high quality education and compared them with the control group. Over the years, students with higher quality education achieved better results both academically and socially in many areas than other students. These are students: the list of studies that show the importance of education in early childhood lasts almost forever.[285] In addition to the educational advantages that students with high quality early education see, they often enjoy learning more than others. If parents and teachers fall in love with learning, children can love to study at school.

The more well-founded the students are from a young age, the higher the probability of success and not falling into despair. When students struggle because of poor education in early childhood, they are more likely to surrender. A solid foundation protects against lagging behind, which is important because once students start lagging behind, it will be very difficult to keep them. In addition to the obvious benefit for each child, many studies have shown that early childhood education programs bring economic benefits to the society as well.

The quality of life of the child and the contribution of the child to society as an adult can be observed in the first years of life. A child from birth to about 5 years of age has three to very large growth and changes. If this period of life includes support for the growth of perception, language, motor skills, adaptation skills and socio-emotional functions, then the child is more likely to succeed in school and subsequently contribute to society. Early education also teaches children how to become a student. While it is true that students do not stay at the table all day and they are able to fulfill their best knowledge in the real world, the truth is that most of the formal education passes in the classroom. Early childhood education teaches children how to learn and behave in the classroom.

"In a constantly changing, increasingly complex world, it is more important than ever for young people in our country to have the knowledge and skills to solve problems, understand information, gather evidence for decision making and know how to evaluate. These are the types of skills that students develop in science, technology, engineering and mathematics - together with the disciplines known as information technology.[286] If we want our future leaders, our troops and our workers to have the ability to understand and solve some of today's and tomorrow's complex tasks, meet the demands of a dynamic and developing workforce, have the ability to formulate students ' skills, meaningful knowledge. We all have to admit that we live in an era of constant scientific discoveries and technological advancements that will have a direct impact on our lives and will require our contribution as citizens. And we must admit that our economy is increasingly dependent on these revolutionary new achievements, creating many new jobs in the fields of Information Technology.

**In conclusion,** those who have more knowledge, live longer, live healthier, and are even more likely to help strangers. Investing in different types of education from the youth of children ensures that they have a solid foundation and that the whole person receives knowledge. The more diverse and harmonious we make education for children, the better educated they will be.

---

[284] Anderman, E.M. (2011). The teaching and learning 21st century skills. Paper presented at the NRC Workshop on Assessment of 21st Century Skills, National Research Council, Irvine, CA, January 12-13. Available: http://www7.nationalacademies.org/bota/21st_Century_Workshop_Anderman_Paper.pdF

[285] UNESCO, (2013) UIS Fact Sheet "Adult and Youth Literacy". http://www.uis.unesco.org/literacy/Documents/fs26-2013-literacy-en.pdf

[286] Why is Education Important and What is the Purpose of Education. https://www.educationcorner.com/education-important-purpose.html

**N.Ergasheva – Farg‘ona davlat universiteti**

## KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONTSEPT MASALASI

**Kognitiv lingvistika** – tilshunoslikning til va ong o‘rtasidagi munosabatlari muammolarini, tilning dunyoni kontseptlashtirish va kategoriyalashdagi, insoniyat tajribasini bilish jarayoni va umumlashtirishdagi, insonning ayrim kognitiv qobiliyatlarining til bilan aloqasi va ularning o‘zaro ta’sir shakllari munosabatlaridagi rolini tadqiq etuvchi yo‘nalish hisoblanadi. Umuman olganda, kognitivizm tafakkur (fikrlash) jarayonlarini boshqaruvchi, umumiy printsiplar (tamoyil) tadqiqotlarini birlashtiruvchi fanlar mujmuidir. Shunday qilib, til tafakkur jarayonlaridan foydalanish uchun vosita vazifasini bajaradi. Aynan tilda insoniyatning tajribasi, uning fikrlashi jamlanadi, mustahkamlanadi; til – ma’lumotni o‘ziga xos tarzda kodlashtiruvchi va bir shakldan boshqa shaklga aylantiruvchi bilish mexanizmi, belgilar tizimi. Kognitiv lingvistikaning obyekti bilish mexanizmi bo‘lgan tildir.

XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi lingvistika kognitivizm belgisi (yoki shiori) ostida rivojlanmoqda. Olimlar til va fikrlashning murakkab munosabatlarini o‘rganishning yangi bosqichini aynan kognitiv lingvistika bilan bog‘lamoqdalar. Har qanday fan o‘z rivojlanishi jarayonida yangi ma’lumotlar va metodlarning, yondashish va tadqiqotlarning yangi yo‘nalishi ishlab chiqilishi natijasida, muqarrar ravishda asosiy tushunchalarni aniqlashtirish va qayta anglash zaruriyatiga duch keladi. Bugungi kunda kognitiv lingvistika doirasida ko‘plab, ba’zida bir-biriga zid yondashuvlar, kontseptsiyalar va yo‘nalishlar belgilandi.

Bunday sharoitlarda kognitiv lingvistikaning jadal rivojlanishi asosiy kategoriyalarga, avvalo, kontseptga yanada aniqroq tavsif berish imkonini beradi. Shu bilan birga kontseptlarning keng spektri allaqachon lingvistlar tomonidan faol o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, kognitiv lingvistikaning asosiy kategoriya va muammolarini ishlab chiqish jarayonida olimlar ham tilni, ham nutqni o‘rganishda ko‘pdan ko‘p yangi aspektlarga duch keldilar. Fandagi modernistik va dekonstruktiv kayfiyatlar ehtiborga olinsa, olimlarning spetsifikasi kontsept doirasidan tashqarida bo‘lgan elementlarga qiziqishlarining kuchayib borayotganini tushunsa bo‘ladi. Ramzni o‘rganishda boshqa yondashuvlardan bilan bir qatorda lingvistik yondashuv ham mavjudligi, uning mohiyati kontseptning asosi sifatida tushunilishi ma’lum bo‘ldi [Shelestyuk, 1997].

Ushbu tadqiqotlarning dolzarbligi nafaqat alohida olingan kontsept strukturasida ramziy komponentning ahamiyati va o‘rnini o‘rganish hamda anglash zarurati bilan, shu bilan birga uning umuman millatning kontseptosferasidagi, jamiyat va individ hayotidagi o‘rni bilan belgilanadi. Umuminsoniy va milliy qadriyatlar sistemasida alohida roli va katta ahamiyati bilan ajralib turuvchi XUDO va IBLIS ning lingvomadaniyat kontseptlari. Milliy lingvomadaniyatning kalit ramzlari bo‘lgan ushbu kontseptlar, ko‘plab xalqlarning, jumladan rus, frantsuz va inglizlarning eng muhim kategoriyalari va hayot falsafalari dasturini aks ettiradi. XUDO va IBLIS kontseptlarini obyektlashtirishning muhim vositasi bo‘lib, rus tilida XUDO / IBLIS, frantsuz tilida Dieu / Diable va ingliz tilida God / Devil leksemalari xizmat qiladi. Keng semantik strukturasi, ahamiyatining neytralligi, ko‘p darajali XUDO va IBLIS kontseptlarining turli belgilarini verballashtiruvchi boshqa leksemalar bilan qiyoslaganda umumlashtiruvchi xarakteri ushbu ajratilishning ko‘rsatkichi xisoblanadi.

Oliy darajada abstrakt bo‘lgan XUDO va IBLIS kontseptlari, asosida ko‘rgazmali obraz emas, xissiy ko‘rgazmalilikdan mahrum bo‘lgan, abstrakt g‘oya ustuvor bo‘lgan obrazli komponentni to‘ldirishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, yangi diniy oqimlar va ommaviy madaniyat ta’sirida an’anaviy qonun-qoidalarning o‘zgarishi kuzatilmoqda, bu xolat XUDO va IBLIS kontseptlari qadriyatli komponentlarining to‘ldirilishida o‘z aksini topmoqda. Xissiy ko‘rgazmalilikdan mahrum bo‘lgan, qadriyatli komponentlar bazasidagi obraz asosida ramziy ma’noning shakllanishi, XUDO va IBLIS lingvokultur kontseptlarining o‘ziga xosligi xisoblanadi. Shuningdek, uning amaliy foydasi XUDO va IBLIS kontseptlarini madaniyatlararo munosabatini optimallashtirish demakdir.

**D.M. Abdullayeva – Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## TARIXIY ROMANLARDA AYOL OBRAZIGA YUKLATILGAN VAZIFA

XX asr o‘zbek nasri millatimiz adabiyotiga munosib izdoshlardan hisoblanadi. U davrning zabardast darg‘alari behisob. Shundaylardan biri Primqul Qodirov bo‘lsa, ikkinchisi Odil Yoqubovdir. “O‘zbek prozasini balandda uchib borayotgan bir qush desak, Odil Yoqubov bilan Pirimqul Qodirov uning ikki qanotiga o‘xshaydi, — dedi Pirmat Shermuhammedov. — Bularsiz nasrimiz ko‘rimsiz, kambag‘al va g‘arib bo‘lib qolardi”.[287]Darhaqiqat, bu ikki ijodkor o‘zbek nasrining zabardast darg‘alari hisoblanishadi. Ular nasrimizni dunyo sahniga olib chiqqanlardandir. Har ikkisining ham ijodi o‘zbek nasri uchun eng qadrli , o‘lmas durdonalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, ular yaratgan tarixiy asarlar, ya’ni romanlar o‘zlariga, nafaqat o‘zlariga, balki o‘zbek xalqiga qo‘yilgan haykal kabidir. Chunki o‘z asarlarida millarimiz faxri bo‘lgan Bobur, Ulug‘beklarni shu darajada yarata olganlarki, ular har qanday kitobxon diqqatini tortadi va ma’naviy ozuqa bo‘la oladi. Yuqoridagi ijodkorlarning asarlarini o‘qigan kitobxon yuziga o‘sha davr nafasi ufurib turadi. Bu asarning mazmunida, yaratilgan manzaralarida, tilida, badiiyatida va shu kabi jihatlarida namoyon bo‘ladi.

Pirimqul Qodirov yaratgan Bobur siymosi, davr manzarasi o‘ta mohirlik bilan ochib berilgan. Adibning san’atkorligi shundaki, - tarixiy faktlarga asoslanib, to‘qimalardan foydalanib haqiqiy badiiy uyg‘unlik yaratgan. Faktlarni mohirona tarzda badiiyat bilan bezagan. Bu narsa o‘quvchiga nafaqat badiiy adabiyotdan olinishi kerak bo‘lgan estetik zavqni, balki tarixiy bilimni ham beradi. O‘z ajdodlariga mehr, hurmat tuyg‘usini uyg‘otadi. Ijodkor har bir obrazga individual tarzda yondoshadi. Har birini o‘zining pozitsiyasiga qarab talqin etadi. Ayniqsa, ayollarga, ayollar obrazini yaratishga katta urg‘u beradi. Bu obrazlar “Yuzduzli tunlar” va “Avlodlar dovoni” asaralarida bosh qahramonga yondosh shaklda vazifa bajarsa, ularning shakllanishiga vosita bo‘lsa, “Ona lochin vidosi”da bosh obraz darajsiga ko‘tariladi. Umuman olganda, muallif temuriy malikalar va o‘sha davr ayollari taqdiri orqali davr muhitini yanada aniqroq his etishga imkon yaratadi. Yozuvchi tarixiy faktlarga asoslansa-da, asarda keltirilgan ayollar chinakamiga o‘zbek ayolini namoyon etadi. Millat vakili sifatida o‘zligimizni, urf-odat, qadriyatlarimizni saqlab qolishga, ularni takomillashtirishga hissa qo‘shganligini ko‘rsatib beradi. Hatto ruhiyatlarini ham turli ochqichlar orqali berib ketadi. Bunga misol qilib birgina ayollar mingan otlarni va tasvirni olishimiz mumkin. “Yuvosh qora otda o‘tirgan va oppoq kiyingan o‘rta yashar ayol-Boburning onasi Qutluq Nigor xonim edi. Gulibodom rangli sho‘x va o‘ynoqi otda qirmizi ipak kabo kiygan Xonzoda begim kelmoqda edi.”[288] Tabiatan og‘ir, vazmin, farzandlari uchun jonini berguvchi ayol va endigina balog‘at yoshidagi, sho‘x, serg‘ayrat qiz timsoli hatto egnilaridagi libos va mingan otlarida ham namoyon bo‘ladi. Muallifning mohirligi, milliyligimizning ochilgani shundaki, agar obrazlar ismlarini keltimay, “Boburning yaqinlari kelmoqda edi “deyilganda ham qora otdagi ayol onasi va o‘ynoqi otdagisi opasi ekanligi anglashilib turadi.

Bunday obrazlardan bo‘lmish Boburning buvisi-Eson Davlat begim obrazi ham diqqatga sazovor. Bu obraz asar davomida kam keltirilgan bo‘lsa ham, o‘z zimmasiga yuklangan vazifasini qoyilmaqom tarzda bajaradi. Ya’ni Boburning mana shunday shaxs bo‘lib kamol topishida, ulg‘ayishida yonida yelkadosh bo‘lgan, o‘zining maslahat va takliflarini bergan ekanligida namoyon bo‘ladi. Har qanday o‘zbek xonadonida ulug‘lanuvchi, nabiralari bilan birga bo‘lguvchi buvilar kabi Eson Davlat begim ham asarga Bobur bilan birgalikda kirib keladi. Albatta, unga podshohdan buyruq bo‘lgan, “Chunki podshoh hazratlari Boburni ko‘z qorachig‘iday asrashni Eson Davlat begimga topshirib, chorbog‘ va qasrni hamma xizmatkorlari bilan uning ixtiyoriga berib qo‘ygan.”[289] Ammo shunday bo‘lmagan taqdirda ham Bobur bolasining bolasi. Har qnaday sharoitda ham u bilan birga bo‘lishga, samimiy mehr berishga intilar edi. Obraz ham o‘zining tadrijiy taraqqiyotida buni isbotlaydi. Ya’ni, Boburga Hirotdan keltirilgan Navoiy suratini mudarris ko‘rib, uni olib qo‘yganligi manzarasida namoyon bo‘ladi. Bunda Eson Davlat begim g‘azablangan, hatto suratni yirtib tashlashga-da tayyor turgan mudarris va bor umidi, ilinji bilan boqib turgan o‘n ikki yoshli nabirasini mohirona yarashtirb chiqib ketadi. Ana shu o‘rinda uning naqadar oqila, fozila ayol ekanligi ko‘rinadi. Navoiy haqida bilishligi, uning Samarqandga kelgani va taklif etilsa

[287] Ko‘chimov A. Buni hayot deydilar. //“Yoshlik”2008/6-son.
[288] Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. “Sharq” Toshkent-2016. 75-bet.
[289] Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. “Sharq” Toshkent-2016. 37-bet.

Farg'onaga ham kelajagi Eson Davlat begim orqali kiritib o'tiladi. Bu esa qalbida barq urayorgan ezgu amallarga, ilm olishga moyillik, Navoiy bilan yuzlashishga ich-ichidan ishtiyoq bildirayotgan yosh Bobur obrazining qanotlanishiga sabab bo'ladi. "Bobur suratni buvisidan bir nafasga so'rab oldi-yu, avaylab kitob orasiga solib berdi. –Ehtiyot qilingiz, sizga orzuyimni topshirdim"[290] degan dialogda Eson Davlat begimning ham samimiyati ochiladi. Unga mehr bilan boqib, so'zlarini yoqtiradi.

Muallif bu obrazni yaratishda alohida e'tiborga olgan jihatlari ham shundadir. U ona qiyofasida gavdalanadi. Ona qiyofasini chizishda milliy mintalitetimizni ham shunday singdiradiki, kitobxon qalbida o'zligiga, o'zbekligiga g'urur tuyadi. "Ellik besh yoshlardagi salobatli kampir sidirg'a oq atlas ko'ylagini shitirlatib darsxonaga kirib kelayotganda Bobur darhol o'rnidan turib, buvisiga salom berdi."[291]Bobur buvisi bilan shu kuni tongda, albatta, ko'rishgan, salomlashgan. Ammo buvisi xonaga kirishi bilan muallif uni o'rnidan beixtiyor turgazadi va salom berdiradi. Bundan tashqari, Eson Davlat begim "harir dakasining bir cheti bilan yuzini mudarrisdan to'sib, unga yarim o'girilgan holda"[292] murojaat etishi ham milliyligimizdan dalolatdir. Oq rangli libos kiyish, boshiga oq ro'mol yopinish qadimdan millatimiz ruhiyatida bor xislat. E'tabor berilsa, qariya onaxonlarimiz ham boshlariga oq ro'mol yopinib yuradilar, to'q, bo'g'iq ranglardan qochadilar. Buning ma'nosi esa poklik, soflikka intilish, qaysidir ma'noda oxiratga tayyorlanish belgisi hisoblanadi. Aynan, shuning uchun Eson Davlat begimning qizi- Qutlug' Nigor xonimdan kelgan noxush xabarni o'qigan manzarasida boshidan ro'moli tushib ketadi. Bu manzara ham ruhiy holati Boburning bundan keying taqdiri, keljagiga parallel tarzda yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, adib ayollar obrazini yaratishda, ularning ruhiyatini ochib berishda va asar g'oyasiga xizmat qildirishda mohir ustoz sanaladi. Ularni milliyligimiz nuqtayi nazaridan tasvirlaydi. Yuqorida muallif ayollar obrazini yaratishga urg'u berganini aytdik. "Yulduzli tunlar"da ham yosh jihatidan endi tarix sahnasiga kelgan Boburning o'sha Hindiston fotihi bo'lgunga qadar o'tgan davrigacha yo'ldosh tutadi. Ularni bosh obrazga mehribon buvi, ona, suyukli yor, qadri baland opa siymosida tasvirlaydi va, albatta, badiiy vazifa yuklaydi. Masalan, asar boshida keltirilgan buvisi Eson Davlat begim orqali o'yinqaroq bola siymosi, yosh qalbida barq urgan orzular ketidan ergashuvchi bosqichi ochilsa, opasi Xonzoda begim obrazi orqali shaxs sifatida shakllanishi, bunyodkorlikka kirishish bosqichi ochib beriladi. Onasi Qutlug' Nigor xonim orqali esa o'sha davr iskanjasidan chiqib ketolmay qiynalganligi isbot etiladi. Keyingi bosqichda, ya'ni Hindistonni egallaganidan, to umrining oxirigacha bo'lgan vazifalar Mohim begimga yuklanadi. Barchasida ayollar mohirona chizgilarda gavdalanadi.

**U.Q. Tog'ayeva - Jizzax davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti**

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Bugungi kun ta'lim tizimida kompetensiyaviy bilimlarni shakllantirish orqali erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilimlarni egallash va amalda qo'llash, qabul qilinadigan qarorlarni tezkor va puxta o'ylab chiqish va harakatlarni aniq rejalashtirish, turli xil guruhlarda samarali hamkorlik qilish, yangi aloqalarga ochiq bo'lishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim jarayoniga bilim olish faoliyati bilan birga kompetensiyaviy ko'nikmalarni egalashning muqobil shakllari va usullarini keng joriy etishni talab etadi.

Hozirgi zamon talabi o'zbek tilining o'ziga xos jozibasini, go'zalligini, boyligini, ta'sirchanligini ko'rsatishni boshlang'ich ta'limdanoq boshlash va uzluksiz davom ettirish vazifasini yukladi.

Bolalar iqtidorini rivojlantirish va har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ta'lim jarayoniga nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuv ham katta rol o'ynaydi. Masalan, turli tadbir yoki ochiq darslarga tayyorgarlik jarayonida fanning asosiy kursida egallanadigan bilimlardan ko'ra chuqurroq bilimlarga ega bo'lish, olgan bilimlarni amaliy faoliyatda namoyish eta olish talab etadi. O'quvchilarning jamoat joylarda o'zini tuta olishi, fikrini bayon etishi, muloqotga tez kirishishlari fan dasturlaridagi bilimlarga qo'shimcha ravishda darslar jarayonida o'rgatib boriladi.

---

[290] Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. "Sharq" Toshkent-2016. 40-bet.
[291] Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. "Sharq" Toshkent-2016. 40-bet.
[292] Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. "Sharq" Toshkent-2016. 40-bet.

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishda asosiy e'tibor ularning nutqiy faoliyatining obrazli bo'lishi, mustaqil fikrlay olish va dunyoqarashining keng bo'lishiga ahamiyat qaratilmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich ta'limdanoq ularning lingvistik bilimlarini chuqurlashtirishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib so'z va iboralarning ma'nosi, qo'llanishini o'quvchilarga o'rgatib borish yaxshi natija ko'rsatishi isbotini topmoqda.

Boshlang'ich sinf darsligida keltirilgan iboralarning ma'no-mazmunini to'liq holda ochib berish, obrazli tarzda tushunturush, o'z ma'nosi bilan taqqoslash o'quvchilar xotirasida o'rganilgan iboraning ma'nosi mustahkam saqlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Darslikdagi o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lgan har bir so'z, har bir ibora ma'nosi batafsil ochib berilishi kerakki, birorta ham o'quvchi uchun ma'nosi anglashilmagan so'z yoki ibora qolmasin. Bu orqali o'quvchillarning lug'at boyligini oshirish, nutqiy malakalarini o'tirish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga poydevor yaratamiz. Chunki bola salohiyati, dunyoqarashi o'sib borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham rivojlanadi. "O'quvchilarning nutqini o'stirishda aytmoqchi yoki yozmoqchi bo'lgan jumlalarni oldindan o'ylab olish ko'nikmasini hosil qilib borish ham zarur jarayondir. O'quvchilardan shuni talab etingki – degan edi M.I. Kalinin, - ular oldin o'ylasinlar so'ngra so'ylasinlar, lekin oldin gapirib qo'yib, undan keyin o'ylamasinlar"[293]. Bu jarayonda esa o'quvchining lug'at boyligi asosiy o'rin tutadi.

O'quvchilarga ibora ma'nosini to'liqroq, batafsil tushuntirishda dars mashg'ulotlarid jarayonida gapda berilgan so'zlarni iboralar bilan almashtirish, ular ma'nosini sharhlash, ma'no darajalarining oshib yoki kamayib borishini taqqoslash kabi amaliy ishlardan foydalanishni tavsiya etamiz. Masalan,

1. *U el oldida uyatli bo'ldi. – U el oldida yuzi qora bo'ldi.*
2. *Nargiza ishni oson bajardi. – Nargiza ishni xamirdan qil sug'urganday bajardi.*

O'quvchilarga iboralar lug'atini tuzdirish, iboralarga zid ma'noli, muqobil yoki so'z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanish, shuningdek, o'quvchilar badiiy asarni o'qiyotganda uchraydigan shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli iboralar ma'nosi sharhlangan izohli lug'at daftari tutsalar, mazkur so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzsa, so'z boyligini oshirish va nutqiy mahoratini takomillashtirishda muhim qadam qo'ygan bo'lamiz.

Boshlang'ich ta'lim dasturida iboralarni o'rgatish uchun alohida dars soati ajratilmagani va darslikda asosiy bir mavzu sifatida kiritilmaganligi uchun o'quvchilarga iboralarni o'rgatish jarayonida bir-qancha qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Masalan, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llaganimizda tinglovchiga ba'zan tushunarli, ba'zan mavhum tushuncha bo'lib qolishi mumkin. Iboralar esa to'lig'icha ko'chma ma'noda qo'llanadigan frazalogiyalardir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun iboraning ma'nosini tez va ongli ravishda tushunilishi qiyin holatdir. Aynan shu jarayonda o'qituvchidan katta mahorat, ijodkorlik, eng asosiysi, tinimsiz mehnat talab qiladi va o'qituvchi iboralar tarkibi, tuzilishi, anglatgan ma'nolari jihatidan o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompetensiyaviy bilimlarni shakllantirish o'quvchilarning lug'atini yanada boyitadi, nutqini mazmundor, chiroyli bo'lishiga yordam beradi, qolaversa, mustaqil fikrlash bilan birga fikrlarini faktik materiallar va dalillarga suyanib asoslashiga, dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

**T.I. Boygaziyev - Qarshi davlat unversitetining Pedagogika instituti katta o'qituvchisi**

## ABU NASR FOROBIYNING MANTIQIY TA'LIMOTI VA MANTIQ ILMINING TA'LIM RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy (873-950-yillar) mantiq ilmi rivoji va taraqqiyotigaulkan hissa qo'shdi, xususan, Aristotelning ilmiy ijodi va mantiqiy ta'limotini o'rganish, sharhlash bilan bir qatorda o'zining mantiqiy ta'limotini yaratdi.

Forobiy mantiqqa oid «Isoguvchi» (Kirish), «Ma'qulot» (Kategoriya), «Ibora, «Qiyos», «Burxon», «Jadal», «Safsata», «Xitoba», «She'r» deb nomlangan 9 risolani yaratdi. Bulardan tashqari, «Mantiq ilmiga kirish», «Aql haqida» «Sillogizm» kabi risolalarni yozdi. Forobiy mantiqni «to'g'ri fikrni amalga oshirish,

[293] Tojiyeva H. Iboralar o'tish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish metodikasi. Bitiruv malakaviy ishi. - Jizzax: 2020.

haqiqatni qo‘lga kiritish san’ati» - deb hisoblagan. Uning fikricha, mantiq shunday bir san’atki, u har doim odam notiqlikda adashib qoladigan bo‘lsa, to‘g‘ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biron-bir xulosa qilinadigan bo‘lsa, xatolardan asrovchi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Alloma mantiqni tafakkur to‘g‘risidagi fan, deb bildi. Uning ta’limoticha, tafakkur haqiqatni bilishga xizmat qiladi va bu yo‘lda u turli mantiqiy shakl va usullar: tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash kabilardan foydalanadi. «Mantiq,-deb yozadi Forobiy, - falsafaning u yoki bu qismlarida qo‘llangan hollarda nazariy va amaliy san’atlarni qamrab oluvchi haqiqatni qo‘lga kiritish asbobidir». Buyuk alloma - mantiqning asosiy tushunchalari, bo‘limlarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi. Uning mantiq bilan grammatika, mantiqiy fikr bilan notiqlik (fikrni bayon qilish) san’atining bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

Mutafakkir mantiq (logika) ilmini sakkiz qismga ajratdi: 1) oddiy iboralar - tushunchalar; 2) murakkab iboralar - gap; 3) sillogizmlar – xulosalar. Mantiqning qolgan beshta qismini fikr yuritishning shakl va usullariga qaratadi. Bular a) isbotlash (dalillash) usuli; b) dialektika (yoki baholash) usuli; v) sofistik (yoki yolg‘onni haqiqat qilib ko‘rsatishga qaratilgan) usul; g) notiqlik; d) she’riyat. Bu ko‘rsatilgan usullar sillogistik san’atning turli xildagi ko‘rinishlari bo‘lib isbotlashga tayanadi, deb hisoblaydi buyuk mutafakkir1.

Forobiyning quyidagi fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir. “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha xollarda, to‘g‘ri tafakkurga etaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarni ko‘radigan san’atni-mantiq san’atini o‘rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san’ati qoidalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to‘g‘rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aklni to‘g‘rilab turadi”[294].

Mantiq ilmining ta’lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O‘quv jarayonining samaradorligi ma’lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasini to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni echish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasini o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmati, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma’naviy, axloqiy nuqtai nazardan takomillashishiga bog‘liq.

Hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, bularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak. Fan yordamida inson faoliyati rivojlandi, uning oyoq, qo‘li va boshqa organlarining o‘rnini bosadigan mashinalar paydo bo‘ldi. Mantiq ilmini tadbiq etish natijasida inson intellektini rejalashtiruvchi «aqliy mashina» lar vujudga keldi, binobarin, sun’iy aql vujudga kelmoqda.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma’lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e’tiqodga va, umuman, komil inson bo‘lishlariga bog‘liq. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deb ta’kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo‘ladi».[295]

Hozirgi kunda globallashuv sharoitida ajdodlarimiz, buyuk qomusiy allomalarimiz xususan, Forobiyning ilmiy-amaliy va boy ma’naviy merosini o‘rganish, tadqiq etish, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar uchinchi Renessansning muhim poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

1Abu Nasr Forobiy. Ixso-al-o‘lum, - Qohira, 1918, 60-68-betlar.

[294]Аль-Фараби. Вводный трактат в логику. // Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: «Фан», 1976, с. 128.

[295]Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. //Асарлар тўплами. 7 жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 1999, 134-бет.

**S.N. Fazildinova - FerSU, English teacher**

## SOLUTIONS FOR THE TRANSLATORS OF LITERARY PROSE. (on the base of A. Navoi's "Alexander's Wall")

Initially, the translation of literary works - novels, short stories, plays, poems, etc. - is considered a literary recreation in its own right. However, as far as the solutions are concerned, the prose-translators should start with the careful adherence to the following principles:

1) a great understanding of the language, written and verbal, from which he is translating i.e. *the source language*;

2) an excellent control of the language into which he is translating i.e. *the target language*;

3) awareness of the subject matter of the book being translated;

4) a deep knowledge of the etymological and idiomatic correlates between the two languages;

5) a delicate common sense of when to *metaphrase* or 'translate literally' and when to *paraphrase*, in order to guarantee exact rather than fake *equivalents* between the source- and target-language texts.

Moreover, the prose-translators can unite some of the following methods to deal with the translation problems efficiently.

1. Back Translation: "Comparison of a back-translation with the original text is sometimes used as a check on the accuracy of the original translation…". [296] It is one of the most familiar practices used to search for equivalents through:

a. The translation of items from the source language to the target language.

b. Free translation of these back into the source language.

2. Conference with Other People: Discussions about the use and meaning of words with bilingual people around a table to make decisions about the best terms to use.

3. Interviews or Questionnaires or Any Kind of Tests: These are used to remove translation-related difficulties.

Besides, the translators should keep the *translation shifts* in mind. J.C. Catford describes them as "departures from formal correspondence in the process of going from the S.L to the T.L".[297] He believes that there are two major kinds of translation shifts, i.e. *level shifts*, where the S.L item at one linguistic level, e.g. grammar, has a T.L equivalent at a different level, e.g. lexis, and *category shifts* that have been categorized into four kinds:

1. *Structure-shifts* involving a grammatical alteration between the structure of the *Source Text* and that of the *Target Text*;

Example, *U Doroning barcha yashirin va ma'lum boyliklari haqida bilishni xohlardi.*[298]

*He wanted to be informed about all disclosed and secret treasure of Darius.*

In this sentence we observe the shift in the sentence structure of the original. In SL the author uses active voice and reversed object order, while in translation, we preferred to use passive voice and the verb "bilmoq"(to know)

2. *Class-shifts,* when a *Source Language* item is translated with a *Target Language* item belonging to a diverse grammatical group, i.e. a verb may be translated with a noun;

Example, *U avloddan avlodga o'tib kelgan edi*

*It was inherit from ancestors.*

Here, the passive form of the verb is used instead of the original active.

3. *Unit-shifts* involving alterations in position;

Example, *Tungi qorovullar qo'shinlari to'siqlar bo'ylab aylanib, hushyor tortib qo'riqlashardi.*

*Nocturnal guards defended the troops walking along the barricades soberly during the night.*

---

[296] Crystal, Scott Back Translation: Same questions – different continent. In Communicate. London: Association of Translation Companies 2004.

[297] Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press, 1965.

[298] Алишер Навоий, Садди Искандарий, Насрий баёни билан.(Қаюмов А Махсумов И., Хамидова М.,.) Тошкент, Ғ.Ғулом, 1991 -829 б.

4. *Intra-system shifts,* which occur when "S.L and T.L possess systems which approximately correspond formally as to their constitution, but when translation involves selection of a non- corresponding term in the T.L system" [299]. For example, when the S.L singular becomes a T.L plural.

Example: *Ular boshini yerga urib gunohlarini kechirishini so'radilar.*

*They bowed with their heads touching the ground and begged to forgive their sin.*

The original source uses the word 'gunohlar' in plural form, while in translation we use a singular word 'sin'. Correspondingly, a natural translation must also be in reference to the situation of the specific message, which could include not only the grammatical and lexical elements but also detailed matters such as intonation and sentence rhythm. However, Harris and Sherwood are of the view that a natural translator has to go through the following stages:

1. 'Pre-translation', where the translator typically uses single words;
2. 'Auto-translation', whereby the translator translates to others what he has said or written himself;
3. 'Transduction', whereby the translator works as a mediator between two other people.[300]

Therefore, the principles, managed by the translator, go further than the exclusively linguistic, and decoding as well as recoding processes take place. Ultimately, it all depends on what the translator, or more often, the publisher wants to achieve with a certain translation.

**M. Shamsiyeva – Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD**
**B. Talabjonov – Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## FARG'ONA VODIYSI TURIZM MASKANLARIDAN BIRI

Bugungi kunda turizm sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakat turizimining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish, balki madaniy aloqalarning rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Xususan, O'zbekistonda turizimning madaniy, etnik, gastronomik, ekoturizm, yoshlar turizmi, ziyorat, badiiy va boshqa turlariga alohida e'tibor qaratilishi natijasida dunyo hamda mamlakat miqyosida turistlarni jalb qilib qilish tobora kengaymoqda.

Aytish joizki, mamlakatimiz o'zining tabiy-geografik joylashuvi, aholisining etnik xilma-xilligi, tarixi, tabiati bilan bevosita bog'liq holda turizm sohasining ma'lum yo'nalishlarini yanada rivojlantirish mumkin. Jumladan, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Termiz va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining hushmanzara tabiati, xilma-xil yashash tarzi, urf-odatlarining saqlanib qolishi, noyob ekzotik nabotot va milliy hunarmandchilikning taraqqiy etishi turizmning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xususan, YUNESKO ning "Ipak- yo'li – muloqot yo 'li" loyihasi doirasida 1991-yil 17-apreldan to 18-iyunga qadar "Cho'l yo'li" ekspeditsiyasi davomida Farg'ona vodiysidagi o'zbek, qirg'iz va tojiklar madaniyatining o'rganilishi ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga ma'lum ma'noda xizmat qildi.

Farg'ona viloyatida turistik obyektlar soni 79 tani tashkil etadi. Har bir obyekt sayyohlarni jalb qilishda faoliyat turiga qarab ma'lum guruhlarga bo 'linadi. Jumladan, 23 tasi arxitektura yodgorligi, 11 tasi muzey, 7 ta ziyoratgoh shuningdek, agroturizm, ekoturizm va diqqatga sazovor joylar sifatida faoliyat olib bormoqda. [301]

Bugun turizm maskanlari sifatida hunarmandchilik markazlari ham muhim ro'l o'ynamoqda. Farg'ona vodiysining Marg'ilon, Rishton, Chust, Qo'qon va yana ko'plab hunarmanchilik markazlari turizim industriyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Sayyohlar mablag'larining 30 foizini hunarmanchilik buyumlarini xarid qilishga safrlanishini inobatga olsak, tashqi turizm jozibadorligini oshirishda milliy hunarmandchilikning o'rni katta ekanligi ma'lum bo 'ladi[302].

---

[299] Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press,1965.
[300] Harris, B., & Sherwood, B. Translating as an Innate Skill. In D. Gerver & H. Sinaiko (Eds.), Language,1978.
[301] Farg 'ona viloyati yo 'nalishlari va turistik obyektlari reestri 6- ilova.
[302] Rasulov. M. F. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo'lgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent , 2020. – B. 97

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-5242-sonli Farmoni hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Mazkur farmonga muvofiq, Qoʻqon va Margʻilon shaharlarida hunarmandchilik markazlari faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Rishton shahri mashhur kulolchilik markaziga aylandi. Xususan, 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, Rishton tarixi muzeyi, bank xizmatlari markazi bunyod etildi. Har bir kulol xonadonida 6 oʻrinli mehmonxonalar tashkil etilib, chet ellik sayyohlar bu yerda yashab, kulollarning ishi bilan yaqindan tanishishi mumkin[303].

Hunarmandlarni qoʻllab-quvvatlanishi, turistlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar yildan-yilga Fargʻonada turistlar oqimini ko ʻpayishiga xizmat qilmoqda.

Fargʻona vodiysi turizmning koʻplab yoʻnalishlarida ulkan imkoniyatlarga ega boʻlganligiga qaramasdan tizimda hal etilishi kerak bo ʻlgan masalalar mavjud. Xususan, xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan mehmonxonlarning mavjud emasligi ma’lum ma’noda turistlar oqimini kamayishiga sabab boʻluvchi omillardan biridir[304]. Fargʻona vodiysida turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi ham bu sohaning muammolardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga koʻra, Fargʻona viloyatida 37 nafar tarjimonlar gid-tarjimonlik litsenziyasiga ega bo ʻlib[305], bu viloyat miqyosida ozchilikni tashkil qiladi.

Xorijlik turistlar xarid qilgan turli milliy aksessuar buyumlari bojxona postida tarixiylik nuqtai nazardan ekspertizadan oʻtkazish uzoq vaqtni olishi ham turizm sohasi ravnaqi uchun hal qilinishi zarur boʻlgan masalalardan biridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining yanada ravnaq etishida turizm asosiy sohalardan biri boʻlib qolmoqda. Bu turizm nafaqat xorijliklar uchun balki mahalliy aholi uchun ham ichki turizmning yanada rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

**A.B. Gʻulomov - PhD, Fargʻona davlat universiteti**
**R. Adhamjonova - Fargʻona davlat universiteti talabasi**

## JADIDLARNING EKOLOGIK MADANIYATGA DOIR QARASHLARIDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIKNI UYGʻUNLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida gʻoyalar va ta’limotlar vorisiylik zanjiri asosida sayqallanib, zamonga moslashib, dialektik oʻzgarib boraveradi. Bu esa tarixiylikdan zamonaviylikka oʻzgarishda, mushtaraklashuvda namoyon boʻladi. Jadid mutafakkirlarining ekologik tarbiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatga oqilona munosabatni shakllantirishga oid qarashlari bugungi ekomadaniyatni, xalqimizning ekologik dunyoqarashini oʻstirishda muhim omil hisoblanadi. Jadid mutafakakirlari ta’limotlarining eng muhim ahamiyati, ekologik tanglik sabablarini va uning oqibatlarini jamiyatdagi ma’rifatsizlik, ma’naviy qashshoqlik bilan bogʻlab koʻrsatilishini axloqiy determinizmning tizimlashgan shakli sifatida qarash mumkin.

Ijtimoiy-ekologik muammolar echimida zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan oqilona foydalanish an’analariga asoslangan etnoekologik yondashuvning ahamiyati haqida davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev shunday yozadi: “Xalqimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda boʻlish va umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasida koʻp asrlik an’analariga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz.”[306] Bundan tashqari, BMTning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish boʻyicha xalqaro dasturida belgilangan 17 ta “maqsad”lardan biri “Quruqlik ekosistemalarini muhofaza qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, oʻrmonlarni ratsional (oqilona) boshqarish, choʻllashishga qarshi kurashish, erlarning

---

[303] https://daryo.uz/2021/02/04/shavkat-mirziyoyev-rishtondagi-kulolchilik-markaziga-tashrif-buyurdi/

[304] Rasulov M. F. Oʻzbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga boʻlgan munosabatning transformatsiyasi(1980-2019-yillar) tarix falalri boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –Toshkent, 2020. – B.70

[305] Oʻzbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo ʻmitasi Farg ʻona viloyati hududiy boshqarmasi ma’lumotlari // 2018 yil. Joriy arxiv

[306] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркманистоннинг Туркманбоши шаҳрида бўлиб ўтган Оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 25 август, № 173 (7131).

degradatsiyasini to‘xtatish va biologik xilma-xillik yo‘qolishining oldini olish”vazifalari echimiga yo‘naltirilgan.[307] Mazkur vazifalar echimi demografik yuki og‘ir, tabiatga ko‘rsatilayotgan antropogen bosim miqdori yuqori bo‘lgan mintaqalarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday vaziyatda ilm-fan vakillari, tadqiqotchi-olimlarga o‘z sohalaridan kelib chiqqan holda yondashuvlar va echimlar talab qilinadi. Falsafa ham tabiat va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi soha bo‘lganligi uchun ham bugungi kunda ekologik muammolarning echimini ishlab chiqishda mas’uliyatli vazifalarni o‘z zimmasiga olmoqda. Jadidlar musulmon olami bilan jahon sivilizatsiyasining uyg‘un jihatlarini teran ilg‘ay oldilar, turli davrlarda har xil dinlarga e’tiqod qiluvchilar bu hududda tinch va totuv yashaganliklari, konfessiya va etnoslar mavjud bo‘lganligini, diniy bag‘rikenglikning ildizlari uzoqlarga borib taqalishini e’tirof etdilar. Buning uchun ular Yevropa va Osiyo tarixiga murojaat qilib, uzoq tadrijiy rivojlanish jarayonida madaniyatlarning vorisligi, o‘zaro aloqadorligi diniy bag‘rikenglik tamoyilining qaror topishida asosiy omil bo‘lgan, degan xulosaga keldilar. Butun tarix davomida, – deb yozadi faylasuflar, – madaniy merosdan foydalanish va uni o‘zlashtirish jarayoni ikki xil aspektda sodir bo‘lgan. Vorislikning birinchi (“vertikal”) aspekti o‘tmish bilan hozirgi zamonning o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi. Boshqa bir (“gorizontal”) aspekti esa bir davrda mavjud bo‘lgan madaniyatlarning o‘zaro ta’siri jarayonidagi vorislik ko‘rinishidir. Jadidalr ham o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy va ekologik g‘oyalar orqali zamonaviy madaniy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatdilar.

Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda jadidlarning ekologik madaniyatga doir qarashlari muhim ahamiyat kasb etganligini ularning ekologik ta’lim-tarbiya va atrof-muhitni asrab avaylash, tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish haqidagi fikrlardan ham bilsa bo‘ladi. Bu borada Abdulla Avloniy va Hoji Muinlarning mulohazalaridan ham bilish mumkin. Har qanday tarixiy davrda milliy ekologik axloqiy normalarning umuminsoniy manfaatlarga mos kelishi, ularning gumanistik mohiyatidadir. Buni jadidchilik harakati vakillari to‘g‘ri tushunishgan edi. Jadidchilik fenomeni savodxonlik, ma’rifat, nazariya va amaliyot sinkretizmi, nekbinlik, samaradorlik, insonparvarlik, erkin fikrlash, bag‘rikenglik kabi elementlardan tashkil topgandir. Jadidchilik o‘ziga xos ijtimoiy-tarixiy hodisa hamdir. Jadidchilik vakili Abdulla Avloniy er yuzida intizom bo‘lmasa, insonlar bir daqiqa ham yashay olmasligini ta’kidlash orqali tabiatga oqilona munosabatning naqadar muhim ekanligiga e’tibor qaratadi. “janobi Haq eru osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tartib berib yaratmushdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so‘zlamakdan ojizdir.[308] Abdulla Avloniyning tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish to‘g‘risidagi bunday qarashlari jadidlarning ekologik madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyos bo‘lganligini anglatadi.

Bugungi kunda yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda mintaqadan etishib chiqqan faylasuf-olimlarning, xususan jadidlarning ekomadaniyatga doir qarashlaridan ilmiy-amaliy faoliyatda foydalanish vazifalari zaruratga aylanmoqda. CHunki uchinchi mingyillikda ekologik muammolarning keskinlashib va globallashib ketishi bilan ekologik axloq normalarining regulyativ funksiyasini takomillashtirishga ehtiyoj ustuvorlashmoqda. Bu esa, unga ta’lim-tarbiya tizimida alohida e’tibor berishni taqozo qiladi. Biroq, ekologiyaga oid mavjud darsliklarda ekologiyaning ma’naviy-axloqiy masalalari e’tibordan chetda qolgan. SHuning uchun ham jadid mutafakkirlarining ekologik axloq va tabiatni asrab-avaylashga oid xulosalaridan unumli foydalanish va zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyatda ekologik axloqiy normalar ustuvorligini ta’minlash huquqiy qonunlarni bajarish mas’uliyatini ham, siyosiy talablar majburiyligini ham istisno qilmaydi, balki taqozo etadi. Ma’lumki, jadidchilik harakati davrida ekologik madaniyat tushunchasi bo‘lmasada, bu davrda ekologik muammolar global ahamiyat kasb etmagan bo‘lsada jadid mutafakkirlari atrof-muhitni asrab avaylash, shaxsiy ozodalik gigienik madaniyatni shakllantirishda ijtimoiy ongni yuksaltirish zarurligini anglab etganlar. Bugungi kunda barcha ijtimoiy ong darajalari va madaniyat shakllarining ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida o‘zaro bog‘liq, lekin nisbatan mustaqil ikki yo‘nalishni bir – biridan ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jadidchilik harakati davrida ekologik madaniyat masalalari jiddiy tus olmagan, tabiat va inson o‘rtasidagi ziddiyatlar keskinlashmagan, texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy-global muammolarni kun tartibiga qo‘yib ulgurmagan edi. Biroq jadid publitsistikasi, adabiyoti va pedagogikasida

[307] Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года // Электронный доступ: http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru

[308] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 –жилд. Тошкент: Маънавият. 2006. –Б. 52-53.

ekologik tafakkurning XX asr boshlariga xos hukm-xulosalari, yaqin yillarda tabiat bilan munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar to‘g‘risida muayyan kuzatishlar mavjud. Ogohlikka da’vat kabi jaranglagan bu mulohazalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o‘z hayotiy tasdig‘ini topdi.

**G.V. Abdullayeva – farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## BOLALAR SHE’RIYATINING MA’RIFIYLIK FUKSIYASI

Bolalar adabiyoti yosh avlodni ilm-ma’rifat nuridan bahramand bo‘lishga chorlaydimi, kasb-hunar o‘rganishga chaqiradimi, eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladimi, bulardan qat’iy nazar uning bosh vazifasi ma’naviy - ahloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir.[309] Zero, she’riyat nasriy asardan ko‘ra insonga kuchli estetik ta’sir ko‘rsata oladi. Dastlab, o‘zbek she’riyatida tarbiyaviy ahamiyat ilgari surilgan bo‘lsa, istiqlol davrida tarbiya bilan birga fikrlash, o‘ylash, tahlil qilish, falsafiy xulosalar chiqarishga undash keng o‘rin egallamoqda. Yangi davr bolalar she’riyatida kitobxonlik madaniyatini, badiiy - estetik didini o‘stirishga, olam va odam to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirishga e’tibor qartildi. Bu borada Abdurahmon Akbarning ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning “Uyquchining tushlari” nomli she’rlar to‘plami shakliy va mazmuniy jihatdan o‘zgachaligi bilan xarkterlidir. Shoirning ushbu to‘plamiga kirgan “Uchqunjonning toychog‘i” she’rini olaylik. Bunda matematikaga oid bo‘lgan raqamlardan so‘z hosil qilinib, bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan nazmni yarata olgan.

*3 qunjonning toychog‘i* [310]
*Shamoldan 3qur*
*Orzu qilar bolalar*
*Minmoqni 3qur. / Kimdur tutar duv3cha*
*Kim suv - xov3lab*
*Kimdur toychoq yollarin*
*Qo‘yadi silab.*

Bu she’rni o‘qib, bolalar 3 raqamini so‘z bilan ifodalab qo‘shimchalarini qo‘shib so‘z hosil qiladi. Bunda bolaning dunyoqarashi kengayadi. Fikrlash qobiliyati ortadi. Matnni ziyraklik va alohida e’tibor hamda qiziqish bilan o‘qiydi. Ulardan so‘z hosil qiladi. Raqamlardan tashkil topgan so‘z bola ongida shakllanadi.

*1000 an borki zavqlanib,*
*Der tulporjon 3 !*
*Misdanman deb o‘kinma*
*Osmonlarni q 3 !*

1000 - Ming tarzda so‘zda ifodalanadi va “an” qo‘shimchasini qo‘shsa “mingan” so‘zi hosil bo‘ladi, “- ng ” “n” va “g” tarzda ifodalanadi. Bu so‘z o‘yini singari bola taffakurini kengaytiradi. Raqamlarni so‘zda ifodalab yozsa uning ma’nosi oydinlashadi. Ushbu she’rda ijodkorning yosh kitobxonni fikrlashga, o‘ylashga undash g‘aroyib tarzda namoyon bo‘lgan. Shoir bolalarni o‘ylab ko‘rishga chorlashi bejiz emas, u shunday yo‘l tutib yosh kitobxonni potensial imkoniyatlarini uyg‘otish she’rning ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.[311] Shoirning “Qo‘ng‘izvoyning quvonchi” she’ri ham raqamlardan tashkil topgan quvnoq she’rdir.

*D10 galakning ustida,*
*D10g peshona 1 q10g‘iz,*
*Shodligidan g‘10g‘illab*
*Tinmasdan 3 ar viz-viz.*

---

[309] XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Р.Баракаев. Фан нашриёти. Тошкент 2012.

[310] А.Акбар “Уйқучининг тушлари”. “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент – 2006. (Barcha she’rlar shu kitobdan olingan)

[311] Р.Баракаев. Алифбо шеър ва ўзбек болалар шеъриятининг маърифийлик хусусиятлари. Фан нашриёти. Тошкент – 2012.

Ushbu she’rlar shakliy jihatidan yangilanishni yorqin namunasi bo‘lsa, ma’no va mazmun jihatidan yangilanishni quyidagi she’rida ko‘rishimiz mumkin. Bunda teskari sarlavha berilib, misralarda shu so‘zning to‘g‘ri ma’nosi kelib chiqadi. Masalan “Shom” she’rini olaylik.

*Kaptarlarga olish kerak don,*
*Kaptarlarga olish kerak don!*
*Shu to‘rt so‘zni xar kech ming marta,*
*Yurakdan o‘tkazar Davron.*

*Davronboyni tashvishidan*
*Mosh mushugi ayladi xalos-*
*U kechqurun tomga chiqdi-da*
*Kaptarlarni tushirdi paqqos.*

Bu she’rni o‘qib to oxiriga etguncha bolalar “nega bunday nomlangan” deya o‘yga toladi va she’rning so‘nggi bandida “Mosh” mushuk haqida ekanligini anglab etadilar. “Shom” so‘zini teskarisi “Mosh” bo‘lishini bilib oladi. Bunda so‘z o‘yinlari vositasida bolaning dunyoqarashi kengayadi, tafakkuri yuksaladi, shu bilan birga tarbiyaviy jihatdan ham ta’sir ko‘rsatadi. A.Akbarning “Bobur” sarlavhali she’rida:

*Peshtaxtada “mum tishlab”*
*Yotdim bilsang butun yoz.*
*Meni sotib olganing*
*Juda soz bo‘ldi shavvoz. / Qunt qilsang bas yangrayman,*

*“Shahlo”ga , “Tanovor”ga,*
*“Andijon polkasi” yu,*
*“Lazgi” ga, “Sho‘x Alyor” ga.*

Shoir “Rubob” haqida yozganini musiqa nomlarini keltirish bilan kitobxonga etkazadi va bunda She’r sarlavhasida keltirilgan “Bobur” ismli yigitga murojaat qilayotgani, ismning teskarisi “Rubob” bo‘lishligi ifodalanadi. Bu bilan bolaning so‘z boyligi ham oshib boradi. A.Akbar so‘z va raqamlar yordamida noan’anaviy tasvir usullaridan foydalangan holda yosh kitobxon fikri va dunyoqarashini, kitobxonlik didini o‘stirishga e’tibor qaratganini anglash qiyin emas. Uning she’rlari bola tafakkur tarzini yanada kuchaytiradi, badiiy -estetik didini oshiradi, zero, bugungi kun talabi ham shuni taqozo qiladi.

**O. Kochkarova - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**Sh.X. Nuritdinova - lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 1-kurs magistranti.**

## GLOBALLASHUV VA INTERNET

Internet (International Network-xalqaro kompyuter tarmog‘i) - butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog‘idir. 206 yilning statistik ma’lumotiga ko‘ra, internet dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida 100 millionlab abonentlarga ega. Xar oyda tarmoq miqdori 7-10%ga ortib bormoqda. Internet dunyodagi turli xil ma’lumotlarga oid axborot tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani amalga oshiruvchi yadroni tashkil kiladi.

Internet qachonlardir fakat tadqiqot va o‘quv guruxlarigagina xizmat qilgan bo‘lsa, xozirgi kunga kelib, u ishlab chiqarish doiralari orasida keng tarqalmoqda. Kompaniyalarni Internet tarmog‘ining tezkorligi, arzon, keng qamrovdagi aloqa, xamkorlik ishlaridagi qulaylik, xammaning ishlashi uchun imkon beruvchi programma xamda ma’lumotlarning noyob bazasi ekanligi o‘ziga tortmoqda. Arzon xizmat narxi evaziga foydalanuvchilar, Kanada, Avstraliya va boshqa ko‘pgina Yevropa mamlakatlarining tijorat yoki notijorat axborot xizmatlariga yo‘l topadilar. Internetning erkin kiriladigan arxivida insoniyat faoliyatining barcha jabxalarini qamrab oladigan axborotlarga, yangi ilmiy yangiliklardan tortib, to ertangi kungi ob-xavo ma’lumotigacha bilib olish mumkin.

Ayniqsa, kundalik kommunikatsiyaga muxtoj shaxslar, tashkilot, muassasalar uchun ko‘pincha telefon orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga nisbatan Internet infrastrukturasidan foydalanish anchagina arzon tushadi. Bu narsa, ayniqsa, chet ellarda filiallari mavjud bo‘lgan firmalar uchun qulaydir, chunki Internetning konfidensial noyob aloqalari butun dunyo bo‘yicha imkoniyatga ega.

Shu bilan birga yana bir narsani aytish lozimki, bosma nashrlarni kompyuter tarmog‘i kanali orqali tarqatish ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, o‘z samarasini beryapti. Tez-tez biz sevgan gazeta va jurnallarimizning oxirgi ma’lumotlarini WWW so‘zlaridan boshlangan manzilda ko‘rish va uni shu manzildan nusxasini ko‘chirib olish mumkin degan so‘zlar ko‘proq uchrab turibdi. Shu bilan birga elektron nashrlar tushunchalarining qamrovi oyma-oy kengayib bormoqda. Yangi-yangi elektron usulda chop etilgan jurnallar paydo bo‘lmoqda. Hamda, kinotear va televideniya orqali namoyishlar belgilangan vaqtga bog‘lik bo‘lsa, WWW dan xoxlagan kishi istalgan vaqtda yangi filmlar xaqida to‘liq ma’lumot olishi mumkin WWW ning ommalashuviga Yana bir omil gipermatndir. Gipermatn Web-saxifaning biror qismiga yoki boshqa Web-saxifaga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi ilova bo‘lib , u so‘z yoki rasm bo‘lishi mumkin. Gipermatn yordamida Web-saxifaning kerakli qismiga yoki boshqa Web-caxifaga tez va oson o‘tish mumkin.

Bitta tashkilot yoki xususiy shaxsga tegishli va mazmuniga ko‘ra o‘zaro bog‘langan bir nechta Web-saxifalar majmuyi Web-sayt deyiladi . Web-sayt kitobga , Web-saxifani esa kitobning saxifasiga o‘xshatish mumkin . Web-saxifalar o‘zaro gipermatn yordamida bog‘lanadi. Web-saytlar ham, Web-saxifalar ham Web-server deb ataluvchi Internetga ulangan maxsus kompyuterlarda saqlanadi va o‘z adresiga ega bo‘ladi. Bu adres URL deb ataladi . URL xamisha **http://** yozuvdan boshlanadi . So‘ngra Web-saxifa joylashgan tarmoq (provayder) adresi (masalan , https://fardu.edu.uz/), keyin Web-saxifa nomi yoziladi . Shunday qilib, misolda keltirilgan Web-saxifaning Internet dagi adresi https://fardu.edu.uz/ ko‘rinishda bo‘ladi.

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakat , korxona, kampaniya, koorparatsiya va qolaversa firma boshqaruvida ham axborot komunikatsiyasining o‘rni juda kattadir. XXI asr – Axborot texnologiyalar asri deb e’lon qilingan va hozirgi kunda maktab, internat, gimnaziya, akademik litsey va oliy o‘quv yurtlarda zamonaviy, talabga javob beradigan kampyuterlar o‘rnaligan. Shuningdek, glabal tarmoq – internetga ulangan. O‘zbekiston Respublikasi shakllanayotgan glabal axborot jamiyatida munosib o‘rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mamlakat Hukumati tomonidan O‘zbekistonda axborotlashtirish texnologiyalarini tez sur’atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha soxalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari bergilandi.

Axborot ochiqligini va qarorlar qabul qilish oshkoraligini ta’minlash, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ishonch darajasini oshirish uchun axborot ayirboshlashning zamonaviy metodlarini rivojlantirish negizida davlat bilan jamiyat o‘rtasida prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, davlatning umumiy ma’lumotlarini internet orqali topish imkoniyatlariga egamiz, misolda, www.lex.uz – O‘zbekiston to‘g‘risidagi ma’lumotlar, qarorlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, jahon tajribasidan foydalanib, korxona, firma, koorparatsiya, kompaniyani boshqarish imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

**H. Abdullayeva - Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## TYUTORLIK FAOLIYATI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Bugun barcha e’tibor va imkoniyatlar yoshlarning mukammal ilm olishini ta’minlash, ularga ta’lim jarayonida ko‘ndalang kelib qoladigan turli muammo va masalalarda ko‘mak berishga qaratilmoqda. Zero, yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtrok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilayotgani bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son hamda 2021-yil 9-sentabr 563-son qarorlaridagi vazifalarni amalga oshirish tartibi va yo‘nalishlarini belgilab berish maqsadida Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom amaliyotga joriy qilingan. Ular qatorida 2021-yil 1-noyabrdan boshlab Farg‘ona davlat universitetida talabalar bilan ishlash bo‘yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilinib, uning o‘rniga talabalar bilan ishlaydigan “tyutorlar” amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Zamonaviy oliy ta’limda nafaqat o‘qitish usullari va vositalariga, balki pozitsiyalarga ham tegishli doimiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.Yangi kasblar va pedagogik mutaxasisliklar joriy etilmoqda. Bugungi kunda o‘quv jarayoni ta’limni individuallashtirishga intiladi. Ushbu tendensiyaga munosabat tyutorlikning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Mavjud axborot resurslarining har birida “tyutor” so‘ziga va “tyutor funktsiyasi” tushinchasiga ko‘plab tariflar beriladi. Agar biz ularning semantik soyalarini birlashtirib, oliy ta’lim uchun asosiy narsani ajratib oladigan bo‘lsak, tyutor-talaba tomonidan individual ta’lim dasturini tuzishda hamrohlik qiluvchi maxsus o‘qituvchi ekanligini tushunamiz.[312]

Hozirgi davrda “Tyutor” atamasining bir necha ta’riflari mavjud bo‘lib, ingliz tilidan tarjima qilinganda “Tyutor” (tutor) tom ma’noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo‘l ko‘rsatuvchi ma’nolarida qo‘llaniladi. Pedagogik-psixologik atamalar lug‘atida “o‘z o‘quvchilarining bilimdon murabbiyi o‘quv jarayonini osonlashtiruvchi shaxs, o‘qituvchi” deb ta’rif berilgan. Professor A.Xoliqov o‘z ilmiy maqolasida tyutor so‘ziga quyidagicha ta’rif bergan: “Tyutor – o‘quv kurslarini interfaol taqdim etish bo‘yicha mutaxassis”.[313] Demak, tyutor talabalarga ta’lim olishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishda yordamlashuvchi, ularni qo‘llab quvvatlovchi shaxs, o‘qituvchi hisoblanadi.

Tyutor ma’lum bir sohaning mutaxasisi bo‘lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko‘nikmalar berishdan iborat. Kengroq ma’noda esa, tyutor talabaga o‘quv jarayoni davomida o‘z salohiyatini namoyon qilish, o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish va tanlashni o‘rgatadi. U talabaga har bir qadam va harakatlarining oqibatlarini anglash, hayotda o‘z qiziqishlarini topishga yordam beradi. Buning uchun tyutor o‘quvchilarining qiziqish moyilliklarini, muammo va qiyinchiliklarini chuqur tahlil qiladi. U talabaning atrofidagi intellektual va psixologik muhitni sinchkovlik bilan o‘rganadi. Bir so‘z bilan aytganda, tyutor o‘quvchi va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi bog‘lovchi kuch hisoblanadi. Tyutorlik faoliyati mamlakatimizda yangi kirib kelayotgan kasb sohasi bo‘lsada, ushbu faoliyat xorij mamlakatlarida bir necha asrlar avval paydo bo‘lgan. Tyutorlik XII asrda Angliyada Oksford va Kenbrijda paydo bo‘lgan. O‘sha davrda ta'lim standartlari va talaba uchun katta akademik erkinlik mavjud bo‘lmaganligi uchun, talabaga berilayotgan katta hajmdagi ta'lim xizmatlarini boshqarishga va ularni talabaning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan solishtirishga yordam beradigan murabbiyga muhtojlik seziladi. Tyutor talaba bilan muloqot o‘rnatib, qaysi amaliy mashg‘ulotlar va ma’ruzalarda qatnashish kerakligini aniqlashga yordam berdi, individual o‘quv rejasini tuzishga yordam berdi, professor-o‘qituvchilar talablarining topshiriqlarni bajarilishini va talabalarning imtihonlarga tayyorligini nazorat qiladi.[314]

XVII asrda yashab o‘tgan mashhur ingliz tili o‘qituvchisi Jon Lokk tyutorlik faoliyati haqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Tyutorning vazifasi bolani hayotiy faoliyatiga tayyorlaydigan potentsial qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Tyutorlik ta’limi - xarakterni shakllantirish, ong va tanani shakllantirish jarayonidir. Tyutorining maqsadi - bolaga hamma ma’lum narsalarni o‘rgatish emas, balki uni bilim olishga muhabbat va hurmatda tarbiyalashdir"[315] Shuni ta’kidlash lozimki, bu davrda tyutor hech qanday me’yorlar bilan o‘lchab bo‘lmaydigan, printsipial jihatdan boshqa hech kim tomonidan takrorlanmaydigan “o‘ziga xos”, “yagona” ta’lim mahsulotini ishlab chiqaradigan o‘qituvchi va murabbiyga aylandi.

Aytish kerakki, tyutorlar o‘z vazifasiga ko‘ra, yuksak mas’ulyat egalari hisoblanadi. Zero, tyutor dunyoqarashi endi shakillanayotgan talaba bilan muntazam tarzda ishlaydi. Puxta o‘ylangan talab va takliflar asosida joriy etilgan tyutorlik amaliyoti oliygohda talabaga yelkadosh murabbiy va mohir konsultant sifatida baho olishiga ishonch bildirmoqda. Talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobilyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ishlashni o‘rgatadigan mazkur mutaxassislar yangi avlod kadrlarini tarbiyalashga o‘z ulushini qo‘shadi.

---

[312] Сидоров, С.В. Теоретические предпосылки проектирования рефлексивной компетентности [Текст] / С.В. Сидоров, А.Г. Гаврилов // Мир науки, культуры, образования. – 2010. – № 1. – С. 253-256.

[313] Xoliqov.A. “O‘qituvchi faoliyatida pedagogik mahoratning o‘rni”. Ilmiy maqolalar to‘plami.TDPU Ilmiy axborotlari. 2019/3(20). 15 bet.

[314] Семенова В.В, Сухаревская И.А История возникновения тьюторского сопровождения как педагогического феномена// нучно-методический электронний журнал «Консепт» 2019.

[315] А.В. Верхозина. Тьютор как педагогическая специальность в системе профессионального образования. Студенческий вестник. 2015. 133 с.

**Sh.A. Hamidov – Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti**

## MAKTAB O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOLALAR, O'SMIRLAR SPORT MAKTABINING AHAMIYATI

So'nggi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk va jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi, sport, shu jumladan, uning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish borasidagi tadbirlar lozim darajada tashkil etilyapti. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat'iy nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashda BO'SM lar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ogohlik davr talabi bo'lgan, yot g'oya va mafkuralar tahdid solib turgan bugungi zamonda maktab, ota-ona va mahalla hamkorligida o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarida BO'SM larga jalb etish va ma'naviy targ'ibot tadbirlarida ishtirok etishlarini ta'minlashda ota-onalarning o'rni nihoyatda katta. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini sermazmun o'tkazish,voyaga yetmaganlar orasida turli xil jinoiy ishlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi

Jismoniy tarbiya, badan tarbiya — sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi, jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

O'zbekistonda Jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Koshgariyning "Devonu lug'otit turk" asarida 100 dan ziyod xalq o'yinlari to'g'risida ma'lumot berilgan. "Alpomish" o'zbek xalq qahramonlik dostoni, Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" ("Nodir voqealar"), Boburning "Boburnoma" asari va b.da jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik, bahs-munozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi.

BO'SM lari o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda ozlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. BO'SM lar faoliyati mazkur tarbiyaviy ishlarda shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Mamalakatimiz kelajagi uchun sog'lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda katta . So'nggi yillarda sport va jismoniy tarbiya yosh lar hayotining ajralmas qismiga aylanib bor moqda . Sport farzandlarimiz xarakterini toblaydi qalbida o'z xalqi , yurti bilan faxrlanish tuyg'u larini shakllantiradi. Zero, g'urur faxru - iftixor inson uchun o'z maqsadlariga erishishda madat bo'ladi.

Mashg'ulotning to'g'ri va muntazam ravishda tashkil etilishida nafaqat o'qituvchi, balki maktab rahbarining mas'uliyati va tashabbuskorligi muhim omillardan biri hisoblanadi . Xususan , BO'SMlarda mashg'ulot jadvalini qat'iy belgilash va to'garak mashg'ulotlariga mas'ul etib tayinlangan o'qituvchini bu vaqtda boshqa vazifalarga jalb etmaslik , sport zallarida kerakli sport buyumlari va anjomlari bilan to'garak faoliyatini doimiy qo'llab - quvvatlashi ayni muddaodir. Jalb etilgan o'quvchilarda o'rganilayotgan mashqlarni mukammal yaxshi bilmasligi tabiiy hol. Mashg'ulotlarda doimiy ishtirok etish orqali mashqlarni mukammal bilish konikmalari shakllanmoqda.Seksiya mashg'ulotlarining vazifasi dars o'tish yoki bilim berishgina emas, balki o'quvchilar bilan birgalikda turli o'yinlar , darsdan tashqari bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish hamda mashqlarni amaliy jarayonga uzliksiz bog'lagan holda olib boriladi. Uni yanada foydali va qiziqarli olib borishning samarali usullaridan biri ota-onalarni jalb etish.

Ma'lumki, jismoniy mashg‘ulotlarninglarning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. O‘yin bolalarning jismoniy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi . Harakatli o‘yinlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi va uyg‘un ritmik harakatlar tarbiyalanadi. To‘g‘ri tanlangan yoshiga mos bo‘lgan sport anjomlari va ko‘rgazmali qurollar estetik didni tarbiyalashda qo‘l keladi. Musoboqalar musoboqa nizomi qoidalari asosida tashkil etiladi. Qoidalarga rioya qilgan holda o‘quvchilar jamoada o‘zini tuta bilishni, o‘rtoqlarini hurmat qilishni ularga yordam berishni o‘rganadi , intizomga odatlanadi. Musoboqa o‘yinlari soflik va haqiqatgo‘ylikni tarbiyalashga yordam beradi. O‘yin jarayonida o‘z kuchiga ishonch , intiluvchanlik , qa'tiylik , sinchkovlik sifatlari tarbiyalanadi.

Jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, ularning bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida BO‘SM larga jalb etish.

Bundan tashqari o‘quv yili davomida o‘quvchi-yoshlar va aholi o‘rtasida turli jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni muntazam o‘tkazib borish zarur.

BO‘SM larda mashg‘ulotlar davomida quyidagilarni inobatga olish zarur:
***Birinchidan***, O‘quvchilarining zaif tomonlarini sezganda bunga e’tiborliroq bo‘lish. ***Ikkinchidan,*** O‘quvchi fikr bildirayotganda uni e'tibor bilan tinglash. ***Uchchinchidan,*** Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarni noto‘g‘ri fikri uchun jazolamaslik. ***To‘rtinchidan,*** Mashq davomida nimani qilmaslikni emas, nega qilmaslik kerakligini tushuntirishga harakat qilish. ***Beshinchidan,*** Muvaffaqiyatli harakat va mashg‘ulotlarni yaxshi bajargan, faol o‘quvchilarni muntazam rag‘batlantirib borish. ***Oltinchidan,*** O‘quvchilarining zerikishiga imkon bermaslik. ***Yettinchidan,*** Har bir o‘quvchining mashg‘ulotda faol ishtirok etishiga imkon yaratish. ***Sakkizinchidan,*** Mashg‘ulotdagi muammoli vaziyatlarni hal etishda o‘quvchilarga yordam berish va o‘zaro hurmatni shakllantirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi**.** 29.12.2020y
2. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch / I.A.Karimov. - Toshkent: Ma’naviyat
3.Jismoniy tarbiya: 4-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. K.Mahkamjonov, F.Xo‘jayev. Beshinchi nashr. Toshkent: ”O‘qituvchi” 2013
4.Jismoniy tarbiya: 5-6 sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma.T.S.Usmonxo‘jayev, S.G.Arzumanov.Toshkent: ”O‘qituvchi”2006
5. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 6-son/2016 yil/iyun
6.Kasbiy fanlar metodikasi jurnali. 7-son/2020 yil
7.www.uzhurriyat.uz

**M.N. Hasanova - QDUPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 1-kurs talabasi**

## HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI OSHIRISHDA KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI

Ma’lumki, mamlakatimizda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh mezoni bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbar xodimlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar negizida, avvalambor, Konstitutsiyamizda belgilangan davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi haqidagi qoidani amalda tatbiq etishdek ezgu maqsad mujassam ekani ham aynan shuni taqozo etmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash uchun ko‘plab yangi qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinayotgani muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

**Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 26 yillik** tantanali marosimda so‘zlagan **nutqida “Xalqimizning farovon hayot kechirishi uchun munosib sharoit yaratish – Konstitutsiyamizning bosh maqsadidir”,-deb ta’kidlagan edilar**[316] . Darhaqiqat, konstitutsiya jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, inson-jamiyat-davlat tushunchalarining o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi va huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

So‘nggi yillarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish borasida qonunchiligimizda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2019-yil 9-yanvarda ”Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida[317]” gi PF-5618 sonli Prezident Farmoni bu boradagi ishlarni yanada yuksak bosqichga ko‘tardi. Farmonga binoan, **“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati”** degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi[318].

Huquqiy axborotni yetkazishda shaxs-oila-mahalla-ta’lim muassasi - tashkilot- jamiyat zanjirida shaklida targ‘ib etilmoqda. Oilada huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiyani shakllantirish jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifadir. Bolalarda konstitutsiyaga oid dastlabgi tushunchalarni hosil qilish, kundalik hayotda muloqotda bo‘lgan huquqiy bilimlarni berish, oilada bolalarda huquqiy ongni rivojlantirish uchun ota - onalarga huquqiy tavsiyalar berish, kundalik huquqlarini bilishi uchun bepul o‘quv qo‘llanmalarini tarqatish, ularda siyosiy huquqini o‘stirish, yoshlarni siyosiy jarayonlarga qiziqtirish uchun uchun audioertaklar, multfilmlar, kinofilmlar, ularni jalb qiluvchi rangli sahifali, rasmlardan iborat bo‘lgan jurnallar nashr qilish, huquqiy bellashuvlar o‘tkazish huquqni yetkazib berishda muhim hisoblanadi.

Xalqimizni hozirgi bo‘layotgan siyosiy jarayonlarga daxldor ekanligini his qilishga undash esa yana bir bor konstitutsiyani o‘rganish davr taqozo etmoqda, bu borada tashabbusni oshirish uchun joylarda " Axborot kuni " o‘tkaziladi . Aholi huquqlarini to‘liq tushunib yetishi va huquqiy axborotni olish uchun hech qanday muammolarga duch kelishmaydi va o‘zlarini qiynayotgan mavzular yuzasidan advice .uz sayti orqali bilib olishlari mumkin.

Bola hayoti davomida oladigan axbotning 70 foizini 5 yoshgacha oladi. Shuni hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim muassalarida huquqiy ta’limni kiritish, bolalar uchun tushunarli bo‘lishi uchun media dasturlar yaratishi lozim. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, universitet va institutlar salmog‘ini oshirish raqobatni kuchaytiradi va ta’lim sifatini yaxshilashga ko‘maklashadi. Fuqarolarimiz o‘z huquq va burchlarini chuqur anglab yetsa, huquqlarini amalda qo‘llay olsa, qonunlar faqat o‘zlarining farovon hayoti uchun yaratilganligini his qilishsa, huquqiy idoralar ham faolroq harakat qiladi, jamiyatni gullab yashnashi uchun bor iqtidorini namoyon qiladi. Fuqarolar o‘z huquqlarini amalga oshirishda ko‘plab to‘siqlar, murakkabliklar qonunlarni chetlab o‘tishni kuchaytirmoqda va bu osonroq yechim topishga harakat qilib korrupsiya holatlarini yuzaga keltirishga sabab bo‘lmoqda.

Konstitutsiya fuqarolarning shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy huquq erkinliklarini aks ettirib qolmasdan, fuqaroviy burchlari ham belgilab beradi. Har bir fuqaro o‘zining ijtimoiy faolliklarini huquqiy va siyosiy jarayonlarga munosabati va ishtiroki orqali namoyon etadi. Buni ko‘rsatishda konstitutsiyani bilishi va anglashi lozim bo‘ladi. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim[319]”,- degan konstitutsiyaviy norma mustahkamlab qo‘yilgan. Bu davlat organlari, muassasa va tashkilotlarida ulkan mas’uliyat va vazifa yuklaydi

---

[316]https://udz.uz/uzb/news/prezident_shavkat_mirziyoyevning_ozbekiston_respublikasi_konstitutsiyasi_qabul_qilinganining_26_yilligiga_bagishlangan_tantanali_marosimdagi_maruzasi.html
[317] https://lex.uz/docs/-4149765
[318] https://lex.uz/docs/-4149765
[319] O`zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi.-T.: “O`zbekiston”. 2019, 15 b

Huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali insonlarni konstitutsiyaviy bilimini oshirishimiz va bu orqali esa yurtimizda malakali kadrlarni va huquq bilimdonlarini yetishtirgan bo'lamiz.

**D.J. Haydaraliyeva - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## SAMIMIYAT KUYCHISI

O'zbek adabiyoti shunday bir bog'ki, har ijodkorning yaratgan asarlari she'r-u dostonlari bir nihol sifatida yillar mobaynida ildiz otib sevimli bo'lib boraveradi. Shunday bog'larni o'z ijod mahsuli bilan ma'lum darajada boyitgan, xalq qalbidan chuqur joy olgan asarlar, she'rlar muallifi Muhammad Yusuf edi. O'zbek she'riyatining o'ta iqtidorli namoyondalaridan biri Muhammad Yusuf ijodining gullagan pallasi XX asr oxiri - XXI asr boshlariga, ya'ni O'zbekiston yangi mustaqilligi davriga to'g'ri keladi. Uning qisqa, ammo yorqin hayotini Pushkinning Bayron haqidagi so'zlari bilan izohlash mumkin: "U o'z she'rlarida ixtiyorsiz tarzda she'riyatning zavqu-shavqi ila iqrorlik bildirgan".

Ijodining ilk yillari u kitobxonlarga o'zining o'zbek do'ppisi haqida she'ri bilan tanilgan, keyin uzoq yillar davomida bu she'r shoirning tashrif qog'oziga aylangan:

Bu qandayin ko'rgulik savdo,
Do'ppi kiymay qo'ydi xaloyiq.
Boshga loyiq do'ppi yo'qdir yo
Bosh qolmadi do'ppiga loyiq.[1]

Unda Muhammad Yusuf nima uchun o'zbeklar do'ppi kiymay qo'yganidan hayratlanadi. Axir, ushbu bosh kiyimining turli xillari bor. Yoki uni kiyish og'irlik qilib qoldimi? Xulosa quvonarli emas: gap mos do'ppi yo'qligida emas - hamma gap uni kiyishga loyiq inson qolmaganligida.

Muhammad Yusuf 1954 yil Andijon viloyatining Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida dehqonlar oilasida tug'ilgan.

1971 yil o'rta maktabni tugatib, u Respublika rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi, o'qishni bitirib, O'zbekiston kitobxonlar jamiyatiga muharrir bo'lib ishga kiradi. So'ngra, Muhammad Yusuf "Toshkent oqshomi" gazetasi muxbiri, G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at tahririyati musahhihi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi muxbiri, O'zbekiston milliy axborot agentligi bosh muharrir o'rinbosari, "Tafakkur" jurnali bo'lim mudiri lavozimlarida faoliyat yuritadi.[2]

1996 yil shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'ladi. Avvaliga, u adabiy maslahatchi, 1997 yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi rais o'rinbosari bo'lib ishlaydi.

Shoirning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasi munosib baholangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning farmoni bilan, Muhammad Yusuf "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan, "O'zbekiston xalq shoiri" sharafiga musharraf bo'lgan.

Ilk she'ri 1976 yil "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan. Oradan to'qqiz yil o'tgachgina, 1985 yil shoirning ilk she'riy to'plami "Tanish teraklar" chop etiladi.[3] Ushbu to'plamda shoir o'z hissiyotlari bilan lirik va erkin tarzda bo'lishadi, o'z hayoti voqealari haqida gapiradi. Shunisi qiziqki, uni ham tanqid olami, ham shoir birodarlari juda iliq qabul qildi. Muhammad Yusufning hayotda omadi chopgan edi: ijodiy yo'lining eng avvalida, taqdir uni Erkin Vohidov bilan yuzlashtirdi, u esa Muhammad Yusufning ajoyib iqtidorini sezib, uni rivojlantirishda yordam berdi. Keyinroq shoir Abdulla Oripov bilan yaqinlashadi. Bu ikki atoqli zamondosh shoirlar Muhammad Yusufning iqtidorini to'g'ri yo'naltirishdi, ularning ijodida - mavzularda, timsollarda, she'r ohangida o'zaro ta'sir va o'zaro bir-birini boyitishni payqash mumkin.

Barcha yirik shoirlar kabi Muhammad Yusuf ham tarjima faoliyati bilan shug'ullangan. Bu ishni u ifodali bajarib, o'z tarjimalariga katta mas'uliyat bilan yondashgan. O'zi ham tarjimaga yirik shoirlarning asarlari orqali o'rgangan bo'lsa-da, uning tarjimalari o'ziga xos ijod namunasi hisoblanadi. Ularga nisbatan V. Jukovskiyning keyingi so'zlarini qo'llash mumkin: "Nasr tarjimoni - qul, she'riyat tarjimoni - raqib".

Muhammad Yusuf uchun har bir so'z, hayotidagi har bir hodisa she'riyat edi. U go'yo, osmonlarda qanot qoqayotgan qush kabi juda yengil va yorqin hayot kechirgan. Ammo shoir hayoti juda erta uzilgan. Ijodiy pallasi parvoz vaqti uzilgan... Shoir 2001 yilning 29 iyul kuni vafot etgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, Muhammad Yusuf kabi oʻta keng qamrovli, hissiyotlari va oʻylari chuqur shoir oʻlimini bir narsagina — undan meros qolgan va shubhasiz, oʻzbek sheʼriyati rivojiga samarali taʼsir koʻrsatuvchi sheʼrlariginа yupatadi. Oʻzbekiston tuprogʻida shunday buyuk, zabardast shoir yetishib chiqqani bizga oʻzgacha faxr-iftixor tuygʻularini junbushga keltiradi.

**M.M. Husaynova - Fargʻona davlat universiteti magistranti**

## OʻZBEK MILLIY LATIFALARI MATNIDA UCHROVCHI AYRIM STILISTIK HODISALAR

Latifalar barcha xalqlar tillariga xos badiiy janr turlaridan biri boʻlib, ularning matni jahon tilshunosligida muayyan lingvistik hodisa sifatida ilmiy-nazariy jihatdan nisbatan ancha keng tadqiq etilgan, lekin oʻzbek tilshunosligida bu muammo haligacha chuqur oʻrganilmagan. Maʼlumki, latifalarning ogʻzaki va yozma badiiy nutq shakllarida keng tarqalganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Shu jihatdan olib qaralganda, adabiyot nazariyasi, xalq ogʻzaki poetik ijodi haqidagi tadqiqot ishlarida, ayrim adiblar ijodiga latifalarning taʼsiri masalasidagi ilmiy-nazariy qarashlarda oʻzbek adabiyotshunos olimlari tomonidan latifalarning badiiy-estetik xususiyatlari masalasiga toʻxtalib oʻtilgan[320], lekin tilshunoslik nuqtai nazaridan latifalar matnini tadqiq etishga kam eʼtibor qaratilgan.

Shuningdek, rus tilshunosligida nisbatan ancha keng talqin etilgan, fransuz tilidagi «calamo burlare» – qalam bilan, yaʼni yozib hazillashish maʼnosidagi "kalambur" atamasi bilan yuritiladigan soʻz oʻyinlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarda ham latifalar matniga qisman toʻxtalib oʻtilgan[321]. Bu tadqiqotlarda soʻz oʻyinlarining asosan hajviy-yumoristik, hazil-mutoyibaga xos qirralari ochib berilgan[322]. Kalamburlar – turli maʼnodagi soʻzlarning ohangdoshligi va yoki shaklan oʻxshashligi asosida vujudga kelgan obrazli figuralarga asoslangan soʻz oʻyinlari ekanligi va asosan hajviy-yumoristik, hazil-mutoyiba boʻyogʻiga ega boʻlgan fikrlar boʻlib, koʻpincha latifalar matnida foydalanilishi qayd etilgan[323]. Shuningdek, baʼzi ilmiy manbalarda yozma adabiyotdagi latifalar janriga ham toʻxtalib oʻtilgan.[324] Yuqorida aytib oʻtganimizdek, latifalarni ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganish jahon, shu jumladan rus tilshunosligi va adabiyotshunosligida bu muammoning oʻziga xos xarakterli xususiyatlarini keng tadqiq etilgan.

Shakliy jihatdan olib qaralganda latifalarda dastlab koʻzga tashlanuvchi xususiyat ularda dialogik nutqning ustuvor boʻlishidir. Har bir latifa dialogik nutq koʻrinishida boʻlib, unda asosan ikki suhbatdosh ishtirok etadi. Bu jihatdan u shaklan koʻpincha dramatik asarga yaqin turadi. Shuning uchun latifalar matnida uslubiy jihatdan dramatik asarlar matniga xos qurilish – muallif nutqi, dialogalar matnidagi koʻchirma gaplar koʻzga yaqqol tashlanib turadi. Latifa matnidagi muallif gaplarining kesimi odatda -b(-ib) qoʻshimchali oʻtgan zamon hikoya feʼlidan tashkil topadi:

*Qarindoshlari Afandini aldab, choʻtir, puchuq va qari qizni olib berishibdi. Yuz koʻrishar kuni kelin Afandidan soʻrabdi:*

*– Qarindoshlaringiz koʻp ekan. Qaysi biriga koʻrinay, qaysi biridan qochay?*

*– Hammasiga koʻrinavering, jonon, debdi Afandi. – Faqat mendan qochsangiz, bas*[325].

Shuningdek, latifalar asosan improvizatsiya – badihagoʻylik asosida yuzaga kelganligi sababli ularda nutqiy birliklarning maʼlum bir vaziyatlarga xoslangan shakllari koʻzga tashlanadi. Soʻzlovchi yoki yozuvchi tinglovchi yoki oʻquvchini hayratda qoldirish, kulgi uygʻotish, komik vaziyatni yuzaga keltirish uchun noodatiy hodisalar, kutilmagan va aql bovar qilmas yechimga ega, qahqahali kulgi uygʻotuvchi

---

[320] Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 216-226; Йўлдошева Ф. Ўзбек латифаларида Насриддин афанди образи. - Т.: Фан, 1979; Шоҳ Акбар ва доно Бирбол. - Т., 1994; Афанди латифалари. - Т., 1989.

[321] https://www.litdic.ru/kalambur/

[322] Кузнецова А. Каламбур в газетном тексте. – Газета "Култура" №24 [54] 23.12.2000.

[323] Игнатьева Т. Языковая игра в художественной литературе. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.- Рязань, 2012.

[324] Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. 18-бет.

[325] Афанди латифалари. www ziyouz.com kutubxonasi. 19-бет.

mazmundagi matnga murojaat etishi lozim bo‘ladi. Quyidagi latifada ana shunday vaziyatni kuzatish mumkin:

*Bemor vrachga debdi:*

*– Doktor, aytishlaricha, chiroylilik ham bir kasallik emish.*

*– To‘g‘ri, lekin sira tashvishlanmang. Siz soppa-sog‘siz*[326].

Yuqoridagi latifa matni mazmuni zamiriga singdirilgan fikrga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda vrach qabuliga ataylab kelgan bemor unga o‘zining chiroyli ekanligini ta’kidlamoqchi bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi, vrach esa bunga e’tibor qaratmaydi va improvizatsiya – badihago‘ylik asosida chiroylilik kasallik, ammo siz chiroyli emassiz, shuning uchun soppa-sog‘siz ma’nosida javob qaytaradi. Uning bu javobi zamirida kuchli kulgili yakun va kinoyaga asoslangan hajviy nutqiy vaziyat yuzaga kelganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek milliy latifalarida bir qator lingvostilistik hodisalar komik va ironik vaziyat yaratishga xizmat qiladi. Ulardan biri *sintagmalash (kontaminasiya)* bo‘lib, so‘zlarni qo‘shish yoki ajratish bilan okkazional hosilani yuxaga chiqaradi:

*Yigit bilan qiz rasman nikohdan o‘tish uchun nikoh uyiga kelishdi.*

*Yigit: – Azizam, endi mening familiyamga o‘tasizmi?*

*Qiz: – Yo‘q, o‘tmayman. O‘zimning familiyam yaxshi.*

*Yigit: – Voy hozirdan gap qaytaryapsizmi?*

*Qiz: – Menga do‘q qilib gapirmang.*

*Shunda nikohni tasdiqlovchi xodim: – Kelinglar, yaxshisi bitta taklif bor. Ikkalangizning familiyangizdan faqat bir bo‘g‘in olib, yangi familiya qilsak. Masalan, sizning familiyangiz nima, kuyov bola?*

*Yigit: – Ahmedov.*

*– Sizniki-chi, kelin bola?*

*Qiz: – Maqsudova.*

*Tabriklayman, sizlarni Ahmaqovlar oilasi deb e’lon qilaman!*

Latifalar matnini lingvostilistik jihatdan tadqiq etish unda ishlatilgan barcha til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini hajviy-yumoristik nuqtai nazardan o‘rganish imkonini beradi. Latifalar matnini o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, ularda ba’zan so‘zlarning polisemantik xususiyatiga tayangan holda, ba’zan ularning ma’nosiga yangicha yondashish, ba’zan ko‘chma ma’noda ishlatilgan lug‘aviy birlikni o‘z asl ma’nosida tushunish orqali kulgili vaziyat yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 216-226; Йўлдошева Ф. Ўзбек латифаларида Насриддин афанди образи. - Т.: Фан, 1979; Шоҳ Акбар ва доно Бирбол. - Т., 1994; Афанди латифалари. - Т., 1989.
2. https://www.litdic.ru/kalambur/
3. Кузнецова А. Каламбур в газетном тексте. – Газета “Култура” №24 [54] 23.12.2000.
4. Игнатьева Т. Языковая игра в художественной литературе. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.- Рязань, 2012.
5. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. 18-бет.
6. Афанди латифалари. www ziyouz.com kutubxonasi. 19-бет.
7. http://www.parvona.com/publ/sms_latifa_sms_latifa/eng_sara_latifalar

[326] http://www.parvona.com/publ/sms_latifa_sms_latifa/eng_sara_latifalar

**Sh.M. Jalolova - Doctor of Philosophy, Associate Professor**
**I.K. Gafforov - student of the Faculty of Foreign Philology of the National University of Uzbekistan**

## SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL YOUTH MORNING POWER OF THE COUNTRY

Youth policy is the recognition of youth as an important strategic force in the development of the country along the path of democratic development, the needs of youth in the modern world, the sum of legislative and executive functions aimed at their correct adaptation to the existing democratic environment, the full implementation of administrative and social functions at the level required democratic political system, international or national legal norms. The main task of youth policy is to reconcile the interests of the younger generation with national interests, without prejudice to the interests of most other strata.

The UN General Assembly has declared the education of youth socially, legally and politically active as one of its priorities through the adoption of the Declaration on Universal Youth Ideas and the promotion of mutual respect and understanding among peoples[327]. To date, UNESCO has passed over a hundred pieces of legislation on youth issues. According to the United Nations, 130 countries have adopted specific laws to enhance the social, legal and political participation of youth. Also, the fact that about 90 countries have higher state bodies and structures directly authorized to develop normative legal acts on youth policy[328], indicates the need to pay special attention to the creation of new methods, forms and means of improving their legal and political culture[329].

In today's fast-paced world, we can all see how difficult it can be if young people are not given more attention than ever before. For this reason, the head of state and government make decisions and decrees containing the necessary opportunities for the future rising generation. In addition, nowadays focusing on the level of quality of work, rather than on quantity, is becoming a key aspect of today's leaders. The President republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev in his speech at the IV Congress of the "Kamolot" youth public movement on June 30, 2016: "…It is known that the upbringing of the younger generation has always been important and relevant. In the 21st century in which we live, he says, this question really becomes a matter of life and death"[330]. In this regard, the President signed a new edition of the Law on State Youth Policy in Uzbekistan from the first days of his presidency. Due to the fact that the summit focused on international youth issues, it was proposed to create youth organizations such as the Youth Union of Uzbekistan and the Agency for youth of the Republic of Uzbekistan, and the appointment of the head of the organization from among the youth is a vivid example of reforms in Uzbekistan. In this sense, it is no coincidence that the development and implementation of a set of measures aimed at educating young people who have strong positions and views, are able to withstand spiritual threats and external influences. Today, when the ideological struggle becomes more and more complicated and new methods are invented, only a strong idea, self-awareness and healthy ideology can resist these threats and influences[331].

How not to waste time. It is safe to say that the holding of the Contest of Young Readers on the initiative of the President has further increased the interest of young people in reading in our country. The fact that the number of young people wishing to take part in this competition is growing every year. It is a sign that a third renaissance is beginning to emerge in our ancient and great country. Because in order to achieve our ultimate goal, we need to prevent any unpleasant actions and problems, given how quickly and rapidly times are changing.

It is also important that the foundations and members of an enlightened society are highly spiritual, enlightened and cultured and be an example for everyone. However, the growing popular culture around the world continues to affect almost all peoples and countries. In the 60s of the 20th century, the French

---

327 www.un.org.
328 http/www.cis.minsk.by/page/php?id=13786
329 A.Qodirov, T.Norboyeva. Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!. 2018-y, 98-b.
330 Speech by Presedent Shavkat Mirziyoyev at the IV Congress of the "Kamolot" Youth Social Movement. https://president.uz/uz/lists/view/729
331 Jim Yon Kim. Banker to the Poor//The journal of Foreign affairs//USA, 2014. https://www.foreignaffairs.com/interviews/2014-08-18/banker-poor

sociologist A.Moll was right when he said: “That in our time knowledge is formed mainly through the mass media, and not through the education system”[332]. Popular culture, along with social and spiritual indifference, instills national traditions, customs, national culture, and wider indifference to national interests. Feelings of patriotism, active citizenship, populism and national identity are weakened. He begins to think of himself as a citizen of the world, a child of all mankind, and in fact such thoughts are alien to him. He is now childish, conformist, indifferent man. Wherever the stream of life begins, it follows it. It does not seek to change its social status, does not set itself lofty goals[333]. As we have seen, such pernicious currents will inevitably lead the youth of a society that wants a great future, every citizen, not to good, but to humiliation and disgust. Over the years, a number of European countries have suffered great losses as a result of untimely attention to popular culture, and this is still being felt. In particular, in the age of computers and the Internet, information technologies are able to control the consciousness of the population, destabilize social and political stability in unpopular countries, and even carry out color revolutions and coups. This is confirmed by the events in the Arab world in 2011 or the resignation of French President de Gaulle in 1968 as a result of a student uprising. From this we can conclude that the recipients of the benefits from this and any other alien ideas are always different, and, of course, the perpetrators are the victims of any trouble. Naturally, as a result of such attacks, any state suffers moral damage, and disputes and conflicts arise between its citizens[334]. In such cases, spirituality, morality and education are the saviors of the world and of man. It is in vain that spirituality is the driving force of social development. It is well known that our scientific and spiritual heritage, our national values have very ancient roots, but in their time they made an invaluable contribution to the morality of mankind. This legacy is of a humanistic nature and in its essence seeks to serve all the achievements of mankind. Therefore, the reforms initiated by our President, the opportunities and conditions created, can certainly become the cornerstone of building the third renaissance of youth. It is important to note that the rhetoric has no basis for a Renaissance. Just as a flower without thorns is not work without hard work, so the result requires high passion. The only requirement for Uzbek youth today is to be worthy of our ancestors, to use the spiritual heritage left by them and, most importantly, to show the world what the potential of the youth of independent Uzbekistan.

**References:**

1. www.un.org.
2. http /www.cis.minsk.by/page/php?id=13786
3. Qodirov A., Norboyeva T.. Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!. 2018-y, 98-b.
4. https://president.uz/uz/lists/view/729
5. https://www.foreignaffairs.com/interviews/2014-08-18/banker-poor
6. Моль А.. Социодинамика культуры. 1973, 45-b.
7. Quronov M.. Niqob ortiga bir nigoh. 2018, 4-b.
8. Erkayev A.. Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya. 2018, 17-b.

**Z.N. Mahmudova - Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## YUKLAMANING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Ma’lumki, uslubshunoslik ilmida har bir birlikning stilistik ahamiyati mavjud. Mazkur birliklar xoh leksema, xoh ko‘makchi morfema shaklida bo‘lsin, ularning gap tarkibida atash ma’no berish bilan birga, qo‘shimcha ma’no ottenkasini berish vazifasi ham mavjud. Shuni inobatga olinsa, uslubshunoslik har bir “detal”ni e’tiborga oladi. Masalan, yordamchi so‘zlar tarkibidagi “yuklamalar so‘z yoki gaplarga qo‘shilib, so‘roq, turli his-hayajon, ta’kid, taajjub, kuchaytiruv ma’nolarini ifodalaydi”.[335] Tilshunoslikka oid kitoblarda yuklamaning so‘roq-taajjub, kuchaytiruv-ta’kid, ayiruv-chegaralov kabi turlari mavjud ekanligi ta’kidlanadi. Shu kabi yuklamalar gap yoki so‘zga qo‘shilganda yuqorida aytilganidek, ularga o‘z nomiga

[332]А.Моль. Социодинамика культуры. 1973, -с. 45.
[333] M.Quronov. Niqob ortiga bir nigoh. 2018, 4-b.
[334] A. Erkayev. Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya. 2018, 17-b.
[335] Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: «Ўқитувчи», 1992. 79-б.

oid ma’nolarni beradi. Solishtiring: *Ertaga kelasiz – Ertaga kelasiz**mi**? // Farhod kelmadi –* ***Faqat*** *Farhod kelmadi.* Birinchi misolda birgina *-mi* yuklamasi gapga so‘roq-taajjub ma’nosini, ikkinchi gapda *faqat* yuklamasi gapga ayiruv-chegaralov ma’nosini berishga xizmat qilmoqda. Yuklamaning bu kabi shakliy belgisi bilan birga ularning yashirin, faqat kontekstda oydinlashadigan boshqa uslubiy ma’no berish vazifasini bajaradigan shakllari ham bor. Quyida ayrim gaplar misolida bir shakldagi, ammo turli ma’nolarni yuzaga chiqarayotgan yuklamalar haqida fikr yuritamiz.

Yuklamalarning ma’no turiga ko‘ra “-mi, -chi, -a, -ya yuklamalari so‘roq-taajjub yuklamalari” [336] sirasiga kiradi. Demak, mazkur yuklamalarni olgan o‘z yoki gapda so‘roq yoki taajjub ma’nolari anglashiladi: *Men-a? Keldingmi? Oyim-chi?*

*– Tag‘in gapiradi-**ya**! – Dadam hammasiga oyim aybdordek yana tizzasiga mushtladi. – Hech kim unga unaqa qilsin deb o‘rgatgan emas!* (O‘. Hoshimov) Bu gapda qo‘llanilgan gapdagi *-ya* yuklamasining ma’nosida so‘roq va taajjub deyarli yo‘q bo‘lib, muallif *-ya* yuklamasini kuchaytirish, tinglovchiga gapini uqtirish uchun qo‘llagan. Bir paytning o‘zida so‘zlovchining kayfiyati: jahli chiqayotganini ham *-ya* orqali bildirilmoqda. Endi quyida keltirilgan *-ya* yuklamasi ishtirok etgan gapga e’tibor bering: *– Afzalxon yoshlik qilmasin, - dedi dadam o‘ylanib. – Har qalay, umr savdosi-**ya** bu.* (O‘. Hoshimov) Bu gapda yuklama so‘roq ma’nosini emas taajjub ma’nosini ifodash uchun xizmat qilmoqda. *Xudodanam o‘rgilay! Bandasining boshiga shuncha g‘am solmasa, nima qipti-**ya**!* (O‘. Hoshimov) bu yerda qo‘llanilgan -ya yuklamasi so‘roq ma’nosidan tashqari gina, afsus ma’nosini ham ifodalaydi. *Yasaydi-ya, yasaydi! Mendan boshqa ishi yo‘qmi? Maktabdan beri kelmaydi-ku!* (O‘. Hoshimov) Ushbu gapdagi *-ya* yuklamasining ma’nosi inkor ma’noni ifodashdan iboratdir, ya’ni *yasaydi-ya yasaydi* shakli, aslida *yasamaydi, yordam bermaydi* ma’nosini ifodalash uchun ishlatilgan. *Mazalikka mazaku-ya, biroq Beshyog‘ochga yetib olguncha ancha gap bor-da!* (O‘. Hoshimov) Bu gapning ma’no ottenkasi berish biroz qiyinroq, chunki gapda ham yuklama, ham bog‘lovchi yonma-yon qatnashgan. Ushbu gapga zidlik ma’nosini *biroq* bog‘lovchisi, kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini *-ku* yuklamasi beryapti. U holda *-ya* yuklamasining gapdagi vazifasi qanday? Ma’noni aniqlash uchun -ya yuklamasini tushirgan holda o‘qib ko‘rish lozim: *Mazalikka maza-ku, biroq Beshyog‘ochga yetib olguncha ancha gap bor-da!* Ushbu gapda qatnashgan -ya yuklamasini vazifasi kuchaytiruv yuklamasi va zidlov bog‘lovchining ma’nosini yana-da ta’kidlash uchun qo‘llanilgan. Demak, ma’nosi xiraroq bo‘lgan yuklamaning ma’nosini aniqlashtirish uchun uni gap tarkibidan tushirilgan holda o‘qib ko‘rish bilan ham ma’nosini izohlasa bo‘lar ekan.

“Yuklamalarda ham ohang orqali turli ma’nolarni keltirib chiqarish mumkin. Masalan, *-chi* yuklamasini olaylik, u asli *so‘roq* va *taajjub* ma’nolarini berishga xizmat qiladi. Ana shu ma’nolar bilan birga *-chi* yuklamasi *buyruq, iltimos, xohish, ta’kid, uqtirish* kabi ma’nolarini ham ifodalashi mumkin”[337]: *- Vali-**chi**, Vali ham keladimi? – dedim nariroqda tol yog‘ochidan hushtak yasayotgan Valiga imo qilib.* (O‘. Hoshimov) Ushbu gapda *-chi* yuklamasida so‘roq ottenkasi bor.

*- Olsang-chi, qo‘lim kuyib ketdi! – dedi u zarda bilan.* (O‘. Hoshimov) Ushbu gapda *-chi* so‘roq taajjub yuklamasi qatnashgan bo‘lib, unda faqatgina so‘roq ma’nosi (olmaysanmi?) emas, g‘azab ma’nosi ham ifodalanmoqda. *- Aytib ko‘r-chi! – Jo‘raboshi yana mushtini do‘laytirdi. – Jig‘ingni ezib qo‘yaman.* (O‘. Hoshimov) Bu gapdagi *-chi* yuklamasida ham so‘roq (aytasanmi?) ma’nosidan tashqari buyqur ma’nosi, so‘zlovchining tinglovchiga tahdidi ham sezilib turibdi: *aytib ko‘r-chi – aytmaysan!*

Uslubshunoslik juda qiziqarli soha bo‘lib, uning boshqa til bo‘limlaridan farqi bir birlikning kontekstda turli ma’nolarni berish, ifodalay olishi bilan izohlanadi. Til yaruslarining barchasidagi birliklarning barchasi faqatgina qat’iy bir qonunga bo‘ysunavermaydi, ayrim formal birliklar o‘zining ma’nosini gapda o‘zgartirib, yuqorida izohlangan boshqa qo‘shimcha ma’nolarni ham ifoday olishi mumkin. Bu bilan yuklamalar shu kabi boshq ma’nolarni ham bera olish imkoniyatini biroz yoritdik, xolos.

[336] Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T., 2017. 109-bet.
[337] Do‘smtov H. Mahmudova Z. USlubshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona, 2021.

**G.S. Mirzayeva - Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## BADIIY MATNLARDA LINGVOKULTUREMALARNING SEMANTIK VA STRUKTUR TADQIQI

Ingliz tilida hamda o‘zbek tillaridagi nutq birliklarini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularni milliy jihatlarini hamda madaniy jihatlarini yoritishda hozirgi kundagi obyektdan subyektga ko‘chish asosida o‘rganish talab etiladi. Bu asosan zamonaviy tilshunoslikdagi antroposentrik paradigma qobig‘idagi qiziqishlarining obyektdan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilinishidir. I.A.Boduen de Kurtene ta’biri bilan aytganda, “til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko‘ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo‘ladi”. [4.11]

Barcha narsalarning o‘z o‘lchovida anglash insonga uning ongida narsalarning antroposentrik tartibini ijod qilish huquqini beradi. Uni maishiy emas, balki ilmiy darajada tadqiq qilish mumkin bo‘ladi. Insonning miyasida, ongida mavjud bo‘lgan bu tartib uning ma’naviyatini, qadriyatlarini va xattiharakati motivlarini belgilaydi. Bularning barchasini inson nutqini, xususan, uning eng ko‘p qo‘llaydigan ifodalarini tadqiq qilish orqali tushunish mumkin. Tilshunoslikda antroposentrik tilshunoslik (yoki antroposentrikparadigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilining tadqiq etish bilan bog‘liqdir. “Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan masaladan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga ko‘chdi... Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi bo‘lgan shaxs omili nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi”[1.24] Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini, insonning o‘ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi” [5.23] Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining struktral-semantik qurilishi,ularning kundalik muloqotda kommunikativ-pragmatik jihatdan ongli qo‘llanishi va eng muhimi – u yoki bu til jamoasi vakillari bo‘lmish sotsiuslar muloqotining to‘laqonli kechishida,qolaversa muloqotdek bir murakkab jarayonga daxldor bir qator linvokognitiv va lingvokultrologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar berishda aynan tilda so‘zlashuvchi/yozuvchi inson omilini roli beqiyos ekanligi, shuningdek, bu omilga doimo asosiy e’tiborni qaratish soha tadqiqotchilari tomonidan bevosita tan olinib, unga og‘ishmay, qat’iy amal qilib kelinayotganligidandir. Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili o‘rganilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko‘proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarda o‘quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan. Yurtimiz tilshunos olimlarining D.Ashurova, SH.Safarov, M.D.Djusupov, A.Abduaziziv, J.Yoqubov, G.Mahkamova, A.E.Mamatov, M.Hoshimov va boshqalar lingvokultrologiyaning tayanch tushunchalaridan biri bo‘lgan konsept muammolariga qaratilgan tadqiqotlar bilan lingvokulturologiya sohasiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari bu “konsept” va “lingvokulturema” terminlari bo‘lib, ulardan dastlabkisi ong birligi, ikkinchisi til birligi hisoblanadi. Bu tushunchalar o‘zida madaniyatning bir bo‘lagini aks

ettirishi tufayli ayrim tilshunoslarning ishlarida sinonim tushunchalar sifatida qaraladi. Shunday ekan, “konsept” lingvokultrologiya va kognitiv tilshunoshlikning rivojlanib, tobora sayqal topib borayotgan eng asosiy o‘rganish obyektidir. Til konseptosferasini tadqiq qilishda bu metoddan foydalanuvchilar mos konseptlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi, u yoki bu madaniyat vakilining konseptosferasida mutanosib konseptlarning spetsifikasi va mazmunining aks etilishini o‘rganiladi. *Lingvokulturema* terminini ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan V.V.Vorobyev unga quyidagicha ta’rif beradi: “Lingvokulturema tilning sathlararo birligi sifatida o‘zida lisoniy va nolisoniy omillarning dialektik butunligini namoyon etadi” [3.3]. U o‘zida til va madaniyatni mujassam etgani bois faqatgina til va til birliklari bilan emas, balki madaniyat va madaniy birliklar bilan shug‘ullanadi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko‘rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o‘sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o‘zining mazmun va ifoda planiga ega bo‘lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, “lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi” [2.15] Bundan ko‘rinib turibdiki *Lingvokulturema* realiya va lakunalarga qaraganda kengroq tushunchani qamrab olib, mazmun va ifoda planiga ega hisoblanadi. Lingvokulturemalarga madaniyatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, paremiyalar, murakkab sintaktik birliklar, gap, matn kabilarni kirtish mumkin. Lingvokulturemalarni so‘z bilan qiyoslaganda uning so‘zdan chuqur, teranroq va keng ma’no kasb etishini ko‘ramiz. Shu sababdan frazeologik birlik, so‘z birikmasi singari shaklan va semantik jihatdan murakkab ma’no ifodolovchi til birliklarini unga kiritamiz. *Lingvokulturemalar* anglatadigan ma’noga to‘xtalar ekan O‘.Yusupov “lingvokulturema semantikasiga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, nutq klishelari, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va h.k. kiradi” degan fikrni ilgari suradi [1.24].

Bundan xulosa qilish mumkinki, *lingvokulturema* ma’lum bir millat yoki xalqqa xos bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligini bildiruvchi, o‘zida lisoniy va g‘ayri lisoniy omillarni mujassam etuvchi va yuqorida ta’kidlanganidek tilning istalgan birligida namoyon bo‘ladigan lingvokturologiya obyektihisoblanadi.

A.E.Mamatov esa lingvokulturema haqida shunday deydi: “Lingvokulturemada lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo‘lib, bu yaxlitlik tushuncha va predmetga oid mazmunni o‘z ichiga oladi. Dialektik aloqa obyektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan, ularning mosligini, aynan o‘xshashligini taqozo etadi. Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning “yuzaki”, ya’ni tilga oid ma’nosi haqida, balki uning “tugal” mazmuni madaniyatning asosi(elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi” [1.32]. Bundan quyida biz og‘zaki nutqimizda mavjud bo‘lgan milliy va madaniy

so‘zlarimizni, ya’ni voqealantiruvchi sathlararo til birliklarining har birini imperik misollar asosida ko‘rib chiqishga harakat qilamiz Safari, sari, valyuta, samuray,aqcha, rubl, kopeyka, shilling, funt, sterling,pens, penni,sent, borsh, chops, barbeque, drugstore, cloverleaf, sponge,cuckoo‘s call, kimano, lord, jazz, rock, pop, masjid, parlament, abbat, kayuta,funt, frank,kuyoyqochdi, atala, surpaochdi, surpaqoqdi, o‘rama, dimlama,qaynatma, so‘m, tanga, xemiri, sariqchaqa, mullajiring, dollar, va h.k., kabi so‘zlarning ayrimlari biz kabi o‘zbeklar madaniyati va tilning ajralmas qismi bo‘lsa, boshqa bizga qardosh bo‘lmagan xalqlar va millatlar uchun umuman tushunarsiz voqeliklardir. Bu asosan kognitiv semantika ma’lum guruh til egalarining tafakkuriga xos bo‘lib, boshqalar uchun noma’lum, ahamiyatsiz, yoki keraksiz bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept va madaniy konnotatsiya bo‘lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko‘rsata oladi.

Ilmiy tadqiqotlarda lingvokulturema termini qo‘llanila boshlandi. Lingvokulturemalar (tilning ma’nosi-nominativ ma’no, predmetlik ma’nosi) dan tashqari, milliy-madaniy (tildan tashqaridagi madaniy ma’no) kabi segmentlarni o‘z ichiga oladi. So‘z (belgi-ma’no) til birligi sifatida lingvokulturemaning tarkibiy qismi hisoblanadi. So‘z tildagi narsa-hodisalarni ifodalasa, lingvokulturema predmet mazmunini ifodalaydi. Lingvokulturema tildagi ifodasiga ko‘ra so‘z, gap, atama, so‘z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin.

Lingvokulturema til birligiga nisbatan murakkab hodisadir. U o‘zida tilning ifodasini, tasavvuri bilan birga tildan tashqaridagi muhitni (vaziyat, reallik), mavjudlikni ifoda etadi. Ona tili yoki boshqa chet tilini yaxshi biladigan har qanday shaxsning nutqida madaniy ma’no ishtirok etadi. Madaniy ma’nosiz u yoki bu matnning mohiyatiga kira olmaymiz, u haqidagi mazmunni idrok eta olmaymiz. Matn mazmunidagi madaniy fenomenni tushunib yeta olmaymiz. U yoki bu millatga xos bo‘lgan o‘ziga xoslikni tasavvur etish uchun milliy mentallikni anglash bilimi zarur.

Lingvokulturema o‘ziga xoslangan nominativ ma’noni ifoda etishi bilan birga madaniy-ma’rifiy, milliy mentallik assotsiativ tasavvurlarni anglab yetish imkoniyatini yaratadi. Lingvokulturemalar semantikasida ma’lum bir xalqning urf-odat va an’analari, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, xo‘jalik muhiti bilan tutash milliy madaniy xususiyatlari aks etishi sababli ular bilan bog‘liq muammolar tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda.

Ko‘proq amaliy tabiatga ega bo‘lgan lingvokulturologiya fani XIX asrda til hodisalarini antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o‘rgana boshlagach, ancha dolzarblik kasb etdi. XX asrning oxirgi choragiga kelib lingvokulturologiyaning Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.Vorobev, V.Shaklenay maktablari shakllandi.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiya bevosita va bilvosita millat va uning qadryatlari bilan ish olib boruvchi sohadir va bu albatta uning tilida aks etadi. V.A. Maslova ta’kidlab o‘tganidek, “til-bu millatning verbal hazinasidir…”. [6.5]

1. *Tandir* –non yopish uchun belgilangan maxsus loy o‘choq; tandir qurmoq, tandirga o‘t yoqmoq, tandirda non yopmoq. *Uyida chaksa uni y’oq, tom boshida qo‘sh tandir (maqol) Supradagi unga qaramay, tandirga o‘t qalaydigan_bor –yo‘g‘ini surishtirmay hatamlik qiladigan.*
2. *Atlas*-bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama.
3. *Belbog‘*-belga bog‘lanadigan, chorburchak ro‘mol shaklidagi gulli yoki gulsiz mato parchasi, qiyiq, qiyiqcha, belbog‘ bog‘lamoq, Belingda belbog‘ing bormi? Yigitmisan, yigitlik g‘ururing bormi? Ma’nosida [8.28]
4. *Beshik*-chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun yasalgan to‘rt oyoqli maxsus moslama. Beshigini tebratmoq –ardoqlamoq, rivojlantirmoq, o‘sha sohaga o‘z hissasini qo‘shmoq. Beshigimni tebratganmisan? _ o‘zidan kattaga betakkaluflik qilmoq
5. *Qumg‘on*-choy qaynatish uchun ko‘pincha misdanyasaladigan ko‘zacha shaklidagi idish; kata choy idish, mis qumg‘on, cho‘yan qumg‘on [7.62]
6. *To‘n*-1. Oldi ochiq uzun ustki milliy kiyim; chopon. 2. To‘n bichmoqbiror narsaga yoki biror kimga

qarab ish tutmoq, amalqilmoq. Har kim oʻziga qarab toʻn toʻn bichadi. 3. Toʻniga kirmoq- qiyofasiga, tusiga kirmoq. 4. Toʻnini teskari kiymoq- biror kimsa yoki narsadan, ishdan achigʻlanib ish tutmoq, terslanmoq.

7.*Doʻppi*- Avra-astarli, koʻpincha qavima, plita oʻralgan, tepasi kizak va jiyakdan iborat guldor yoki gulsiz toʻgarak bosh kiyimi.

Bosh omon boʻlsa, doʻppi topilar. (Maqol.) Doʻppi tagida odam bor.(Maqol). Doʻppi tor kelganda1. ish qistalang boʻlgan yoki noiloj qolgan paytda. 2. kamchilik, yetishmovchilik yuz berganda Doʻppisi yarimtaishi joyida, chor ishkali but, gʻam- tashvishi yoʻq. Bizningʻʼ sartiyaʼʼjuda begʻam, … hech nima boʻlganday, doʻppisi yarimta.

8. *Atala*- 1. Qizdirilgan yoqqa un chalib, suv qoʻshib pishiriladigan suyuq ovqat. 2. Koʻchma. Shunday ovqat singari suyuq narsa. 3. Atala maxsum boʻshashgan, lalaygan, lanj odam haqida.

9. *Lapar*- toʻy va yigʻinlarda yigitlar bilan qizlar orasida tarfma-taraf boʻlib aytiladigan terma qoʻshiq.

10. *Oʻchoq*- 1. Odatda uch tomoni yopiq boʻlib, ichiga oʻt yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon oʻrnatiladigan qurilma. 2. Koʻchma. Biror narsa paydo boʻladigan, amalga oshadigan, tarqalladigan joy, manba, markaz. Bilim oʻchogʻi, Maʼrifat oʻchogʻi.

11) *Andisha*-1. Ketini, oqibatini oʻylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza; ehtiyotkorlik. Andishaning oti qoʻrqoq. (Maqol) 2. Umuman fikr, mulohaza. 3. Sharm-hayo, or-nomus; uyat. Andishasi yoʻq odam.

Andisha qilmoq 1) oʻylab koʻrmoq, mulohaza qilmoq, mulohazaga bormoq. Bahri borgisi kelsa ham, nimanidir andishasini qilib turgan ekan shekilli, bu gapni eshitib goʻyo qanot chiqardi. (A.Qahhor. “Xotinlar”)

12) *Barokat* – hayirlilikni, yaxshilikni, hissa va ulushni koʻpayishi, oshishi maʼnosida. Bu soʻzga ingliz tilida shunday izohlash yaʼni definition berishimiz mumkin. Barakat- in the sense of goodness, kindness, and increase of share. Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat. (Maqol) Shuningdek, barakatli, barakatsiz

13) **Nasib**- Kishiga taqdirda buyurilgan hissa, ulush; taqdir. Nasib boʻlmoq (yoki qilmoq, etmoq) taqdiran buyurilgan hissaga muyassar boʻlmoq. Nasiba-Kishining taqdiran buyurilgan hissasi, ulushi 2. Umuman hissa, ulush, rizq. Shuningdek, nasibali, nasibasiz.

14) *Havas*- Biror narsaga boʻlgan qizizqish, intilish, mayl; xohish, istak, orzu, Havasi kelmoq, havas qilmoq

15) *Niyat* –koʻngildagi istak-orzu, ahd, maqsad. Yaxshi niyat – yarti mol [8.123]

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1.A. E. Mamatov “Zamonaviy Lingvistika” 2019, Toshkent
2.A. Moʻminova, 2016
3.M.Zokirov, R.Majidova, Sh.Sultonova.Oʻzbekcha – ruscha – inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lugʻati.Fargʻona.2016.
4. Q.Musayev “Tarjima nazariyasi asoslari”-Toshkent, 2005
5. S.Dovlatov Filologichiskix roman.Vestnik KOstromskogo. 1967
6. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие. Тетра Системс, 2008
7. Сафаров Ш. Семантика. – Ташкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2013
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Биринчи ва иккинчи жилд, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти
9.Salomov Gʻ. “Language and translation” - T.Fan Publishing House 1996

**Sh. Dushatova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## EVFEMIZMLARNING TURLI TILLARDAGI O‘RGANILISHI TADQIQI

Har qanday til jamiyatga aloqador va jamiyatdan tashqarida o‘zicha, alohida rivojlana olmaydi. Til, avvalambor, jamiyatning, odamlarning o‘zaro muloqot vositasidir, shu sababli jamiyat – odamlar til leksikasining shakllanishiga bevosita aloqador hisoblanishadi. Unutmaslik kerakki, til o‘zida ichki shakllanish tizimi qonuniyatlari mavjudligi bilan ahamiyatga egadir. Vaziyatdan kelib chiqib, har qanday rivojlangan tildagi birgina fikr turlicha talqin qilinadi.[338]

“Webster Online Dictionary” lug‘atiga ko‘ra evfemizm - bu haqoratli deb hisoblangan yoki yoqimsiz narsani bildiruvchi so‘z o‘rniga ishlatiladigan zararsiz so‘z yoki ibora hisoblanadi.[339] Evfemismlar turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ba'zi evfemizmlar o‘yin-kulgi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, boshqalari esa foydalanuvchi kamsitmoqchi bo‘lgan tushunchalar uchun nojo‘ya atamalar o‘rniga yengil, yumshoq atamalardan foydalanadi.

Bundan tashqari evfemizmlar uyatli so‘zlarni yashirish yoki nogironlik, jinsiy aloqa, ajralish yoki o‘lim kabi taqiqlangan mavzularga murojaat qilish uchun ishlatilishi mumkin.[340]

Evfemizm yunoncha “evfemiya” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yaxshi so‘zlar” dan foydalanish degan ma’noni anglatadi. Bu “yaxshi” ma’nosini bildiruvchi eu va “bashoratli nutq”, “mish-mish” degan ma’nolarini anglatuvchi phḗmē so‘zlarining birikmasidan iboratdir.[341] Evfemizm atamasining o‘zi qadimgi yunonlar tomonidan evfemizm sifatida ishlatilgan. Ularning talqiniga ko‘ra “Muqaddas sukunatni saqlash” ma’nosini bildirgan. Buning tub ma’nosi esa kimnidir xafa qilib gapirgandan sukut saqlagan yaxshi deganidir.[342]

Evfemizmlarni o‘rganish uzoq vaqtdan beri dolzarb lingvistik muammo hisoblanib, o‘nlab yillar davomida evfemizmlarning shakllanish jarayoni o‘ziga xos tarzda davom etib kelmoqda. Yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda evfemizmlar nihoyatda ahamiyatli bo‘lib jamiyat uchun nutq faoliyati sohalarida, masalan, ommaviy axborot vositalarida keng tarqalmoqda.

Burridge[343] ifodasiga ko‘ra, evfemismlar bu sodir bo‘ladigan turli vaziyatlarda so‘zlovchi o‘zining maxsus so‘zlarini tanlab tinglovchini xafa qilmasdan qo‘pol bo‘lmagan so‘zlarni ishlatishi yoki “shirin” eshitiladigan so‘z va iboralar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar evfemizmlar tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Bularda nazarda tutilgan ma’no shundaki, tinglovchi o‘ziga nisbatan aytilgan so‘zlarni lug‘aviy ma’nosiga emas, uning tub ma’nosiga e’tibor berilishi ko‘zda tutiladi. Bundan tashqari, ta'riflarda evfemizmlarning maxsus referentsial maqomni ifoda etishi ham ko‘zda tutilgan. Ya'ni, evfemizmlar biron-bir narsaga aniq yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora qilmaydi yoki tasvirlamaydi.

Bu ma’lum bir madaniyatga oid vaziyatdan kelib chiqib, so‘zlab bo‘lmaydigan, nomaqbul deb hisoblangan, turli xil tarzda salbiy, yoqimsiz, haqoratli, qo‘pol va uyatchan hisoblangan so‘zlarni o‘rniga qo‘llaniladigan va tabu so‘zlar bilan yaqindan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni qo‘llanilish o‘rnini bosadi. Boshqacha qilib aytganda, to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nodan qochish evfemizmlarning asosi hisoblanadi. Shuni ayti o‘tish joizki, evfemizmlar o‘z-o‘zidan yaxshi so‘zlarni ishlatish emas, balki haqoratli yoki odobsiz so‘zlardan foydalanishdan ixtiyoriy ravishda qochishdir. Shu maqsadda, og‘zaki nutqda so‘zlovchi nisbatan qulay, kamroq yoqimsiz, va kamroq haqoratli iboralarni qo‘llashni afzal bilingan tanlovidir. Masalan, “ketish” (departure), “sayohat” (journey), “tinchlikda dam olish” (rest in peace), “cheksiz uyqu” (endless sleep) madaniyatlararo "o‘lim" so‘zining odatiy evfemizmlari hisoblanadi.

---

[338] Dushatova Shohsanam “Ingliz tili nostandart leksikasi – slang so‘zlar”. “O‘zbekiston ilmiy – amaliy tadqiqotlarda talabalarning o‘rni” masofaviy konferensiyasi. 2020.
[339] Webster's Online Dictionary.
[340] Etymonline.com. Retrieved 7 January 2014.
[341] Henry George Liddell, Robert Scott, *A Greek-English Lexicon*, on Perseus
[342] *Online Etymology Dictionary. Retrieved 10 June 2015.*
[343] Burridge, Kate. 2012. "Euphemism and language change: The sixth and seventh ages."

Chet tilidagi evfemizmlarga yana bir misol bu Amerika ingliz tilidagi rangli odamlarning negro bilan almashtirilishi.[344]

## References

1. Burridge, Kate. 2012. "Euphemism and language change: The sixth and seventh ages."
2. Dushatova Shohsanam "Ingliz tili nostandart leksikasi – slang so'zlar". "O'zbekiston ilmiy – amaliy tadqiqotlarda talabalarning o'rni" masofaviy konferensiyasi. 2020. 142- bet
3. Etymonline.com. Retrieved 7 January 2014.
4. Henry George Liddell, Robert Scott, A Greek-English Lexicon, on Perseus
5. Ismoilova Shodiya. "Psychological and methodical factors of foreign language communication" P216 "Amaliy tilshunoslikning fanlararo masalalari: masofaviy ta'limdagi muammolar va ularning yechimlari". II xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjumani materillari. Фарғона-2021.
6. Online Etymology Dictionary. Retrieved 10 June 2015.
7. Webster's Online Dictionary.

**A.B. Mirzayev - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**

## MASOFAVIY TA'LIMDA ONLINE TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

XXI asr insoniyat ilm-fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda juda katta yutuqlarga erishish, yashash standardlarida yana bir pog'ono yuqorilash asri bo'libgina qolmasdan, odamlarda juda ko'p yangi ko'nikmalarni, mahoratlarni umuman olganda yangicha hayot tarzida yashashga o'tishni zaruratga aylantirdi. Bu nafaqat ijtimoiy-maishiy yoxud tibbiy sohada balki ilmiy, aniqroq qilib aytganda - ta'lim-tarbiya sohasida ham qator o'zgarishlarni, yangilanishlarni keltirib chiqardi va chiqarmoqda. Bulardan eng ko'zga tashlanarlisi bu masofaviy ta'lim tizmining ommalashuvidir. Shu boisdan bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy-texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Albatta, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, hozirgi paytda xech kim uchun yangilik hisoblanmaydi, xattoki eng chekka hududdagi maktab o'qituvchilari ham o'z darslarida proyektor, noutbuk, ovoz kuchaytirgich kabi texnologik vositalardan foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsada, kun talabi esa biroz o'zgardi va xuddi shu vositalarni onlayn tarzda, masofadan turib qo'llash ya'ni o'quvchi-talabalarda masofadan turib bilim-ko'nikmalarni shakillantirish zaruratini tug'dirmoqda.

Quyida esa, onlayn texnologiyalardan foydalasnishning o'quv-didaktik jihatdan qanday manfaatli jihatlari borligiga nazar solib o'tsak. Birinchidan, an'aviy usuldagi darslarda o'quvchi ko'proq kuzatuvchi ro'lini o'ynagan bo'lsa, onlayn texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi (2,103). Chunki, an'anaviy ta'lim darslarida, o'qituvchi va o'quvchilar bir sinfda bo'lganligi va outsoursdan foydalanishga imkon yo'qligi sababli ko'p hollarda boshqa bilimliroq o'quvchilarning bilimiga tayanish, tayyor yechimlarni topishga harakatlar ko'proq kuzatilsa, onlayn texnalogiyalar masalan "Zoom" ilovasi orqali dars o'tilganda, barcha talaba-o'quvchilarda faqatgina o'z kuchlariga tayanish, ma'lumotlarni elektron bazalardan o'zlari qidirib topib, uni tushungan holatda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ikkinchidan, yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish tuyg'usini shakillantiradi. Bunda, yuqorida takidlangani kabi, onlayn texnologiyalar asosida berilgan toshiriqlarni o'quvchi o'z bilim ko'nikmalari asosida, mustaqil ish olib brogan holda bajarishga harakat qiladi. O'quvchilarda mustaqil fikirlash ko'nikmasini shakillantiruvchi yana bir omil bu, onlayn texnologiyalarni o'quvchilar o'zlari boshqarishi, kerak hollarda texnik muammolar yuzaga kelganda, mustaqil sozlash holatlarining vujudga kelishidir. Chunki, Adizov ta'kidlagani kabi, "O'quvchilar texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak", (1,101).

[344] "Why We Have So Many Terms for 'People of Color'"

Onlayn texnologiyalar vositasida o‘tilgan darslarning yana bir muhim jihati shundan iboratki, o‘qituvchi darsda boshqaruvchi, o‘quvchilar esa, ishtirokchiga aylanishidir (2,102). Buning asosiy omili, masofaviy darslarda o‘quvchilarga ishtirokchilik ro‘lini beruvchi, darsga qatnashayotgan o‘quvchilarning barchasi bir vaqtning o‘zida mashg‘ulotlarga qamrab olishni imkonini beruvchi onlayin vozitalarning mavjudligidir. Misol uchun, hozirgi kunda turli soha o‘qituvchilari orasida keng tarqalayotgan “Kahoot.com”, “Quizziz.com”, “WordWall.com” ta’limiy veb saytlari orqali amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar, bir paytning o‘zida barcha o‘quvchilarni turli xil o‘yinlar yoki mashg‘ulotlarga qamrab olish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni darsda o‘z o‘rinlari borligini his etishga, o‘z ustilarida ko‘proq ishlashga undashi turgan gap.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnalogiyalaridan foydalangan holda onlayn darslar olib borish, talabalarda darsga nisbatan chinakam qiziqish uyg‘otadi va bu o‘z navbatida turli xil ilm sohalarini egallashga va motivatsiyani oshirishga yordam beradi (3,10). Bundan tashqari, hozirgi zamon talabi bo‘lib turgan masofaviy talimni olib borishda, unda o‘quvchilar bilan chinakkam mashg‘ulotlar o‘tkazishda onlayn texnalogiyalar va ilovalardan foydalanish XXI asr pedagoglari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri deb hisoblash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.T.:2003-y
2.Jabbarova Z. O. Islamova N. Boshlangich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari. 2021-yil.
3.Mamadjanova M. Формирования перцептивных грамматических навыков английского языка. 2020.

**A.T. Jangabaev - Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti talabasi**

## NAVOIY ASARLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMALARIDA SINONIMLARNING QO‘LLANILISHI

Bir sinonimik qatorga kiruvchi so‘zlarning birlashtiruvchi ma’nosi bir xil bo‘lsa-da, lekin bu so‘zlarning ma’no ottenkalari ularning bir-biridan farqini ko‘rsatadi [Пинхасов, 1969: 24].

Navoiy asarlari tilining leksika-semantik jihatlari uning sinonimlardan ko‘p foydalanganligida ko‘rinadi. Navoiy va uning asarlarini tarjimalagan tarjimon sinonimlardan foydalanar ekan, fikrni bir so‘z bilan qaytalay bermasdan, ularni boshqa ma’nodosh so‘zlari bilan berishi, asarni badiiy jihatdan yaxshi yoritib beradi. Masalan:

Jarlı–kámbaǵal:
Jarlınıń balası kiyatır jolda,
Bilim alsam eken degen maqset bar onda [Nawayı, 2020: 71].
Shadban biraq usıǵan-aq. Kámbaǵalda jetpey me sol,
Mezgilinde bos qaldırmay tamaq ber berman, neterseń [Nawayı, 2020: 28].
Watan–el:
Dógerektiń bári oǵan jat: «Sende–
Watan, el bar ma?» dep qızıqpas bende [Nawayı, 2020: 72].
Ǵárip–biyshara:
Ǵárip shadlı bolmas ǵayrı ellerde–
Jat el óz elińdey mehir bermeydi [Nawayı, 2020: 22].
Dúnyada joq jáne bir biyshara mendey,
Bunshelli óz halına sergizdan mendey [Nawayı, 2020: 22].
Pálek–dúnya:
Pálek maǵan hijran qanjarın tarttı bul tún,
Qoymadı bir zárre bawırımdı pútin [Nawayı, 2020: 24].
Dúnya uyatsızǵa dáreje berer,
Xalıqta jılay-sıqlay kún keshe berer [Nawayı, 2020: 70].

Bunday leksik sinonimlar shoir asarlarida koʻplab uchrashadi. Shoir leksik sinonimlar bilan bir qatorda kontekstlik sinonimlardan ham foydalangan. Masalan, uning:

Ǵıybatı sırtıńnan bolǵan doslardan,
Aldıńnan oq atqan biytanıs artıq.
Eki júzli satqın biradarlardan,
Basıńdı alaman degen jaw artıq [Nawayı, 2020: 21], degan qit'asining birinchi qatori bilan uchinchi qatori, ikkinchi qatori bilan toʻrtinchi qatori kontekstlik jihatdan sinonimlardir.

Alisher Navoiy asarlarini yozar ekan, muhabbat mavzusi uning asarlarining asosiy bir boʻlagi boʻldi. U oʻzining suyukli yoriga bagʻishlab koʻplab satrlar yozadi. Asarlarida oʻz yorini, jamiyki qiz obrazini yasashda quyidagi sinonimlardan foydalangan:

1. Gúl iysi baǵ ishinde, ol sahibjamal keldi me [Nawayı, 2020: 13].
2. Rawshan turqlı dilbar meniń janımdı aldı. Kórdim [Nawayı, 2020: 27].
3. Qalay sánem meni erteń kóredi [Nawayı, 2020: 18].
4. Qay periniń zulımınan delbe bolǵanda ne–
Áy periyzat, jismi-janım tayar qıldım saǵan [Nawayı, 2020: 20].
5. Bir gúldiń dártinde ahıw-zar edim [Nawayı, 2020: 22].
6. Sózsiz jan almaq ushın jaralǵan nigar, kózleriń [Nawayı, 2020: 62].
7. Nawayı yardan ráhim kúter. Onıń ya aqılı joq [Nawayı, 2020: 64].
8. Ótti názálim qasımnan bir sóz benen bende qılıp [Nawayı, 2020: 70].
9. Aytpa gózzal gúlge jaqın tur dep. Qáddi-boyıń [Nawayı, 2020: 65].
10. Jetker dep ay júzlige, qushaq jayıp [Nawayı, 2020: 68].
11. Áy tań samalı, halımdı dilaramıma ayt,
Zulpı súmbil, júzi gúl, sáwri gúlandamıma ayt [Nawayı, 2020: 10].
12. Aytıń, meni áwere-sarsań qılǵan janan keldi me [Nawayı, 2020: 13].

Bu misollar shoirni sinonimlardan mohirlik bilan foydalanganini koʻrsatadi. Boshqa tarafdan shoir orqali oʻzbek tilining boyligini, tarjimon tarafdan qoraqalpoq tilida soʻzlarning boyligini dalillaydi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy oʻz asarlarida va uni qoraqalpoq tiliga tarjimalagan tarjimon sinonimlardan mohirlik bilan foydalangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Nawayı. Ǵázzeller. -Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2020.
2.Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. -Тошкент, «Ўқитувчи», 1969.

**Jumaeva Mukarrama Bekhzodovna**
**Jumaeva Mokhira Bekhzodovna**
**Students of Samarkand state institute of foreign languages**

## INTEGRATED SKILLS IN WRITING PROCESS

**"There is a strong relationship between oral language development and expression and the ability to express oneself in writing".**

**Introduction**. It has been estimated that English is a absolutely foreign language in Uzbekistan. That is why, Uzbek students find difficulties in learning English. There is no way for them except trying to find out English if they need to adapt themselves in these period. The success of somebody in learning is usually supported by his willingness to find out a lot. Whereas today English is one among the most important speaking and learning, world language. Additionally to the present, the number of learners is increasing day by day. It is a explanation for importance of English in lifestyle. There are variety of things behind this:

- The rise in vocational learning and training throughout the planet , as education becomes less academic, and more practical and application-oriented;

- Students want their studies to steer to something useful;
- Economies and markets want to use people with vocational skills;
- The power to use English, is very helpful for students to explore the fields of science they study;
- With the excellent English skill, students can understand the contents of reference books, information from the internet, scientific journals and other sources of information that use English [3].

In addition, students need to prepare their English skill for their career in the future because the ability to use English can be a very useful thing in the competition they are going to face when finding a good job. English subject for students with non-English majors are one among the themes that are considered difficult because most of scholars do not have an honest basics of English. The research on needs analysis for English to students is performed to seek out the aims of scholars to find out English, the aspects of English students want to find out, the aim of learning four English skills namely reading, writing, speaking, and listening, and therefore the difficulties students face when learning English.

**Main part**. The traditional Western view of writing, from Aristotle down to the present day, has treated the written word as a visual substitute for the spoken word. Ferdinand de Saussure was the first thinker to provide this traditional assumption with a reasoned basis by incorporating it into a more general theory of signs. In the wake of Saussure’s work, modern linguistics has ignored or marginalized writing in favor of the study of speech. As in all literate societies, however, speech in turn is interpreted by reference to whatever writing system happens to be in general use. This puts in place an educational system which ensures that the more literate members of society maintain superiority over the less literate. Rethinking Writing argues that this scale of priorities obscures the fact that writing is a far more powerful mode of linguistic communication than speech ever could be [1]. Teachers spend a lot of time in class working on reading, writing, listening and speaking with their students. These skills are essential for effective communication and are the areas tested in many well known English language examinations. We may work on a number of these skills within a single lesson, however, we often teach students to do them in isolation. If we want our learners to become successful communicators, we need to make the situations as authentic as possible inside the classroom [2]. To do this we need to use an integrated approach to language learning. Integrating skills can help students transfer skills, for example, if students have to read a blog post before writing their own they will become familiar with the structure and content which will help them write it. It also allows you to vary your activities in class, creating a more engaging and motivating experience for students [4].

Finally, I surely can say that the role of integrated skills in writing process which turn into practicing is extremely effective tool for teaching English subject as a second language and e-learning. Integrated skills made students interested and encourage their willingness of the students to eager to write the letter or essay of English. After researcher used this way for the students' it was successful to increase the score of the students. The results of the research indicates that students want to learn all aspects of language with the main skill they want to learn is writing. Then, the research concludes that their main difficulties when learning writing skills are limited vocabulary and insufficient understanding of grammar. Our article is devoted to the method of integrated skills in the writing process of foreign language teaching, and we think it provides practical assistance to students who are learning English as a second language.

**Sh.R. Karimjonova – Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## COGNITIVE ASPECTS OF THE CAUSATIVE VERBS

The causative meaning is fixed in a number of meanings of the verb to let. The lexicographic criterion for the presence of the causation in the definition is the verb allow or another verb synonymous with it.
a) to allow somebody to do something. Such a meaning characteristic of the following constructions with this verb: let somebody do something, let somebody have something;
b) to allow something to happen, which characteristic of constructs like let something do something;

c) to allow a person or animal to leave a place where they have been kept. This value is typical for such constructions as: to let somebody go.

d) to tell someone something let somebody know[345].

Synonyms of the verb to let in the causative sense are 14 verbs, obtained by continuous sampling from Roget's II Electronic Thesaurus dictionary:

1) to afford an opportunity for: allow, permit, admit;
2) to engage in the temporary use of (something) for a fee: hire, rent, lease, charter;
3) to give one's consent to: allow, permit, authorize, sanction, consent;
4) to neither forbid nor prevent: have, leave, allow, suffer, tolerate[346].

The lexicographic criterion for the presence of causative verbs in the definition is the verb cause or another verb synonymous with it. Longman Dictionary of Contemporary English fixes the causative verbs in such meanings.

III. Cause a state / situation

1)to cause a particular state or situation or make something happen. Such a meaning characteristic of the following constructions with this verb: make somebody do something; make somebody /something; make somebody ill / happy / popular; make somebody feel good / guilty / sick; make somebody look old/thin; make yourself heard/understood; make it clear(that); make it known.

2) to do something that causes trouble, noise etc., which is typical for such combinations verb make with nouns like: make trouble / a noise / a mess, etc.

IV. force somebody to do something

3) to force someone to do something, or force something to happen: make somebody do something, be made to do something.

4) to cause a change, especially an improvement, in a situation: to make a difference, to make all the difference;

5) to cause either great success or complete failure: make or break.

Synonyms of the verb to make in the causative sense are 58 verbs, obtained by the method of continuous sampling from the Roget's II Electronic dictionary Thesaurus, for example:

1) to be the cause of “to be the cause”: produce, bring about, effect, lead to, induce, result in, engender, occasion, effectuate;
2) to cause (a person or thing) to act or move in spite of resistance “to force (of a person or thing) act or move against resistance”: force, compel, oblige, coerce, constraint, pressure;
3) to cause to be by official action to-l official action’: establish, constitute, enact, legislate;
4) to cause to come into existence generate, originate, engender, hatch, father, sire, parent, procreate, spawn.

It should be noted that this verb has the most a large number of synonyms compared to other causative verbs (compare let - 14, get - 47, have - 21, cause - 17), which indicates the breadth of its semantic potential.

The verb to get has repeatedly become the object of various studies. Since this verb plays a very important role in the system in English. According to D. Beiber, the use of this verb is 3400 cases per 1,000,000 words, and among the 12 most common verbs in modern English, the verb to get is in second place: say, get, go, know, think, see, make, come, take, want, give, mean.

This is due to the fact that the studied verb belongs to the words of a wide semantics and is characterized by a high degree of lexical abstraction. K. A. Gorshkova notes that this verb has a wide significant meaning able to "include in its semantic volume any lexical meaning of any words of the same morphological class”. According to S. A. Leshchinsky, the invariant value of to get is the “state change” value.

The get verb, like the keep verb, occupies a special place in the system broad-meaning verbs, which is connected, first of all, with its origin and evolution. Unlike such wide-ranging verbs as be, have, do, make, take, give, come, go, in all periods of the English language, which had a wide usage and therefore naturally became the backbone of inventory broad-meaning verbs, these two verbs at the beginning of their evolution had a narrow value (to extract and preserve, respectively), were usually combined with specific subject additions and had a low frequency.

---

[345] 333. Longman Lexicon of Contemporary English [Text] / Ed. by T. McArthur. – Longman Group Limited, 1998. – 913 p.
[346] Roget’s II Electronic Thesaurus [Electronic resource]. – Availabe at: Microsoft Bookshelf CD-ROM reference library. – Wearnes, 1993.

**F.T. Kobilova - ESP teacher of BSU**
**S. Saidova -The student of BSU**

## THE PROBLEM OF NATIONALITY AND PRESERVATION OF PROVERBS (On the basis of A.Kadiri’s novel “ Days gone by”)

Proverbs are an invaluable example of folk art, reflecting the national and cultural characteristics of the people, their worldview and the spirit of the nation. As the famous linguist Dal put it, "a collection of proverbs is a set of wisdoms derived from the language of the people, an experience, a set of common sense, a fact that people have learned in life."

When we look at proverbs in different languages, we see that they are a reflection of the historical, spiritual and material culture of the people who speak that language. Therefore, a comparative study of different language proverbs helps to reveal the specific cultural and national aspects of a nation, in other words, it reflects the mentality of that nation.

Although the concept of “mentality” has only recently been introduced into the linguistic paradigm, it is now widely used. In the narrow sense, mentality is used in the sense of "scope of thought, worldview", and in the broadest sense, it means "understanding the morals, upbringing and imagination of the people."

The concept of mentality can also be seen in the views of the linguist W. von Humboldt. In his view, mentality is "a character of a people that is reflected not only in language, but also in literature, religion and other spiritual aspects." Therefore, as mentioned above, this "national character" is closely related to the religion, politics, customs, social strata, lifestyle, history and even geographical location of the people.

When we talk about nationalism in English proverbs, we can’t help but talk about the character of the English people. Among the nations of the world, these people are distinguished by their pride and respect. This aspect is also reflected in the proverbs:

- English: Better go to heaven in rags than to hell in embroidery.

Uzbek translation: Jahannamga kimhob kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal.
Uzbek version: Boy bo‘lib bezillaguncha, Qul bo‘lib qo‘porib yur.

- English: Better untaught than ill-taught.
  Uzbek translation: Chalasavoddan savodsiz afzal.
  Uzbek version: Chalasavod — chirik rabot.
- English: Better die a beggar than live a beggar.
  Uzbek translation: Kambag‘al bo‘lib yashagandan kambag‘al bo‘lib o‘lgan afzal.
  Uzbek version: Otliqning qamchisi ham, Yayovning kaltagi ham, Kambag‘alning boshiga tegadi.

As you can see, the Uzbek translation of this English proverb condemns living in poverty. That is, it is said that living in poverty is a disgrace. However, in the Uzbek version, the meaning is not the same as in the English version. It says that the poor are always humiliated. In the general sense of the Uzbek version of the proverb, poverty is not condemned as shame or sin.

This means that the British people have more pride and respect than the Uzbek people. We can see this in a slightly different way in Uzbek folk proverbs. In other words, the Uzbek people express in their proverbs that respect for others is a noble virtue.

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda.
Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.

Another characteristic of the British is that they have a greater love for pets than children, as we see in the use of the image of "dog", especially "cat", rather than the image of "child".

For example:
Dog does not eat dog. - Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi.
Barking dogs seldom bite. - Ko‘p vovullagan it tishlamaydi.
A cat in gloves catches no mice. - Qo‘lqopli mushuk sichqon tuta olmaydi.

However, in some Uzbek proverbs, the images of "dog" and "cat" are more negative used in a negative sense.

For example:

It hurar karvon oʻtar. - The dogs bark, but caravan goes on.

Itni suyak bilan ursangiz, qopmas. - A dog will not howl if you beat him with a bone.

Itdan suyak artmas, mushukdan – bez. - Two dogs over one bone seldom agree.

Tanlay, tanlay tozga yoʻliqdim, boshi piyoz kalga yoʻliqdim.

Scornful dogs will eat dirty puddings.

In these proverbs, the image of the "dog" is more focused on people who are angry, ugly, dirty, corrupt, greedy. But there are other proverbs in which the image of a dog is embodied in the images of loyalty, kindness, wisdom, and honesty.

Yaxshi itga- yaxshi suyak. - A good dog deserves a good bone.

Oʻlik arslondan tirik it afzal. - A living dog is better than a dead lion.

Qari it koʻp yoʻl bilar. - An old dog barks not in vain.

But children, children's stories are one of the favorite topics of the Uzbek people. Because Uzbeks are a childish nation, it is important to pay attention to mother and child:

Ona bilan bola – gul bilan lola.

Bolali uy – bozor, bolasiz uy mozor.

Bolamning bolasi – qandin oʻrik donasi.

From the proverbs about mother and child we can cite not only in everyday life, but also in the works of writers. As an example, consider the place where the proverb about mother and child in the famous Uzbek writer Togay Murad's "Fields left by my father" is used in the play:

"-Qargʻish urgan odamni peshonasi ana shunday boʻladi. -Enani qargʻishi bolaga urmaydi. Ena, enani qargʻishi bolaga urmaydi. Ogʻzingizni toʻldirib qargʻay bering- baribir qargʻishingiz menga oʻtmaydi!

Onamiz tovuqlar koʻz koʻrinib donlasin uchun –soʻri girdilatib don sochdi.

- Seni men emas-seni Xudo qargʻagan.

- Xudo qargʻagan? Eb-e, men xudoga nima yomonlik qildim-e? Xudo nima deb qargʻagan-e?

-Xudo, iloyim, shu oʻzbak degichni topgani aziz mehmoniga buyursin, deb qargʻagan."

The proverb in the passage, "Enani qargʻishi bolaga urmaydi" ("The curse of the mother does not strike the child") means that no matter how much the child suffers for the mother, the mother will never curse the child, and even if she curses, she will not be sincere. The last sentence of the passage also shows how hospitable the Uzbek people are. Therefore, if we talk about the concept of mentality in Uzbek folk proverbs, we can not forget about the hospitality in the blood of our people. Respect and tolerance for guests are evident in our proverbs.

For example:

Mehmon – atoyi xudo.

Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan.

It should also be noted that the images of "mother-in-law" and "bride" are unique to Uzbek proverbs. In other words, Uzbek proverbs cover this topic more than English proverbs. This is due to the fact that the Uzbek people take this relationship much more seriously.

For example:

Kelin boʻldim — qaynonamga yoqmadim, qaynona boʻldim — kelinimga yoqmadim.

Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan.

It is safe to say that topics such as shame and modesty are more common only in Uzbek proverbs. Because over the centuries, such qualities inherited from our ancestors have been ingrained in the blood of the Uzbek people. Here are the following proverbs to prove it:

Andishaning oti qoʻrqoq.

Sharmsizlik – sharmandalik nishoni.

The Uzbek people hold bread in high esteem and consume more than the British. Uzbek women knead dough and bake bread. In everyday life, this situation has been repeated for thousands of years. This is often seen in Uzbek folklore.

Non moʻlligi — el toʻqligi.

Nonga hurmat – elga hurmat.

Another image that provides the national color in the proverbs is the people dishes. In English for proof:

Every cook praises his own broth - Har bir oshpaz oʻz shoʻrvasini maqtaydi.

Too many cooks spoil the broth - Oshpaz koʻp boʻlsa, shoʻrva buziladi.

In Uzbek:

Har kuni yema palovni, har kuni yoqqil olovni.

Kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye,
Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye.

As you can see, "plov", one of the favorite national dishes of the Uzbek people, has found its place in the proverbs. The reason is that this dish is one of the most popular dishes among the Uzbek people. In English folklore, "soup" is more commonly used. This dish is not a favorite of the English people, it is found in proverbs only because it is consumed more in everyday life.

Proverbs are the cultural heritage of this nation. They reflect all the thoughts, attitudes, lifestyles, attitudes, and beliefs of the people. As each nation has its own characteristics, this will affect their proverbs as well. Even though the themes in the proverbs are similar, the images in them are unique. It is these images that provide the national color in the proverbs.

In the process of analyzing the linguocultural aspects of Uzbek and English proverbs, it is important that the languages and cultures of both peoples are interrelated. Some of the proverbs analyzed in this chapter from a linguoculturological point of view reveal their features, sometimes by the same people, sometimes by a completely different expression. In this regard, English and Uzbek proverbs reflect all the traditions of the Uzbek and English nations from the past to the present, and proverbs as examples of folklore are a leader in this task. In studying the peculiarities of the mentality of the Uzbek and British peoples, Uzbek and English proverbs can show the similarities and differences between the two peoples.

Analyzing Uzbek and English folk proverbs in terms of themes, we came to the conclusion that all the topics in the Uzbek proverbs can be found in English folk proverbs as well. Similar equivalents of proverbs in both languages can be found on the same topic. As a result, don't take a proverb on any topic, it has its own alternative in both languages.

So, the subject matter of English and Uzbek proverbs is diverse and has almost the same themes in both languages. However, proverbs on some topics may be more common in one language than in another. This is because the topics covered in the numerous proverbs are a major part of people's lives. In the process of comparative analysis of proverbs in both languages, the mentality and national character of the people are the main leaders. Here, based on the unique mentality and traditions of the English and Uzbek peoples, proverbs in the language can express the national identity of peoples in a concise and expressive way. While the importance of family and kinship is evident in Uzbek proverbs, the strength of love for pets is more evident in English proverbs. In addition, national dishes and national costumes are also found in folk proverbs. Based on these characteristics, we can explore the similarities and differences between the two peoples.

In short, English and Uzbek folk sayings are the cultural heritage of these peoples. They reflect all the thoughts, worldviews, lifestyles, attitudes and beliefs of the English and Uzbek peoples. As each nation has its own characteristics, this will affect their proverbs as well. Even though the themes in some English and Uzbek proverbs are similar, the images in them are unique. It is these images that provide the national color in the proverbs.

## References:

1. Mamatov A.E. Problems of lexical and phraseological norms in modern Uzbek literary language. - Tashkent: 1991. - 274 p.
2. Yusupov O.Q. On the terms of meaning, concept, concept and lingvokulturema // Stylistics in modern directions of linguistics. Proceedings of the scientific-practical conference. - T., 2011. 49-55 p.
3. Kobilova Feruza, Avezova Nigora. "Description analysis of the protagonists of the A. Qadiris novel “Days Gone By” Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN 2792-1883” (May 4, 2021).

4. Murodov G'ayrat Nekovich, Feruza Kabilova, Turayeva Khurshida Tokhirovna, A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" romaninig inglizcha tarjimasi va unda aks etgan tabiat tasvirining tarjimadagi in'ikosi . "Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi"
Том 6 Номер 6 Страницы 193-199 (2021).
5. Zaripova Ra'no Ibodullayevna Feruza Kabilova, Turayeva Khurshida Tokhirovna ". Analysis of the protogonist of the novel days gone by. "The American journal of social science and education innovations " volume 3, issue 02 (2021/2/3).
6. F.T. Qobilova, KT Turaeva. " Implication of debate and discussions for EFL learners at secondary school. Theoretical & Applied Science, 2020. 2. Страницы 180-184
7.F Kabilova, TK Tokhirovna. " English Translation of Abdullah Qadiri's Novel" Days Gone by" and Its Reflection Skills". International Journal on Integrated Education Том 3. Страницы 304-306 Издатель Research Parks Publishing. (2020)
8. Kobilova, Feruza. "Developing learning English as the second language." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
9. A. Qodiriyning 'O'tgan kunlar ' romaninig inglizcha tarjimasida portret tasviri va unda aks etgan milliy xarakterning berilishi
Feruza Kabilova ,2021 'Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi' Том 9, Номер Страницы ,307-310

**А.М. Расулов – Фарғона давлат университети ўқитувчиси**
**Х.М. Расулова – Фарғона давлат университети талабаси**

## БОЛА ТАРБИЯСИДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ ЎРНИ

Ёш авлодни келажакка ишонч ҳосил қилиш учун авлодимиз маънавий-ахлоқий меросини чуқур ўрганиб, ўз фаолият, истеъдод ва қобилиятини ҳаёт йўналишини юрт, халқ, давлат мақсади билан уйғунлаштириш лозим.

Маълумки, Форобий, Абу Али ибн Сино, Беруний, Хоразмий, Фарғоний каби буюк қомусий олимлар асарларида, уларнинг илмий-назарий таълимотларида таълим-тарбия масалаларига кенг ўрин берилган, чунончи, тарбия муаммоларига жаҳон маданияти мезонлари билан ёндашилганига гувоҳ бўламиз. Жумладан, Аллома Абу Наср Форобий (873-950)нинг "Фозил одамлар шаҳри", "Бахт-саодатга эришиш ҳақида кўрсатмалар", "Бахт-саодатга эришиш ҳақида", "Фуқаролик сиёсати", "Давлат арбобининг афоризмлари" каби асарларида жамиятнинг келиб чиқиши, мақсад ва вазифалари ҳақида фалсафий таълимот ўз ифодасини топган. Унинг фикрича, инсон жамоалари ва жамият кишиларнинг яшаши ва камолотга эришиши учун зарур бўлган моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш учун интилишлари натижасида келиб чиққан.

Бинобарин, инсон якка ҳолда ҳеч қачон асл маънода бахтли бўлолмайди: "Ҳар бир инсон ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади; у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёжи туғилади".

Асли ҳам масъулиятни ҳис қилган одам ўз ишини доимо пухта режалаштириб, унинг оқибатларини олдиндан тасаввур қила олади ва зарур натижага эришиш учун бутун кучи ва салоҳиятини сафарбар этишга қодир бўлади. Бунга эришишнинг энг қулай йўли – аввало ота-оналарнинг ғоявий билимларини ошириш, уларда соғлом тафаккур ва янги илмий дунёқарашни шакллантиришдир.

Ҳозирги кунда ота-оналар фарзандларнинг эл-юрт олдидаги маънавий бурчини тўғри англаши, оилавий муносабатлар доирасида миллий урф-одат ва анъаналаримизни турмушга сингдириши орқали болалар онгида миллий ғояга меҳр-муҳаббат уйғотиш, уларни мустақил фикрлайдиган кишилар қилиб тарбиялаш, уларни комил инсон бўлиб етишишида мухим роль ўйнайди.

Ахлоқий маданият – инсоннинг ахлоқ қонунларини, қоидаларини, меъёрларини, фазилатларини билиши, эгаллаши ва уларга бошқа инсонлар билан бўлган муносабатларда риоя этиш даражаси ҳисобланади. Оилада шаклланган ўзига хос ахлоқий маданият унда муайян миллий

қадриятлар тизимининг шаклланишида муҳим асос бўлиб хизмат қилади. Зеро, халқимиз жуда қадим замонларданоқ оилани муқаддас ҳисоблаб келган.

Ахлоқий маданиятнинг муҳим элементларидан бири миллий ахлоқий урф-одатлардир. Ахлоқий урф-одатлар қадимда пайдо бўлиб, авлоддан-авлодга ўтиб, бойиб, ривожланиб боради. Уларни сақлаш, давом эттиришда оила тарбияси муҳим роль ўйнайди. Миллий урф-одатлардан бири – кексаларни ҳурмат қилиш, парваришлаш, уларга моддий, маънавий шарт-шароитлар яратиб бериш киради.

Халқ билан муроса ва мадоро деганда шундай нарсани тушуниш керакки, унда ёлғончилик бўлмайди, ҳеч кимни алдамайди, тили билан дили бир-бирига мувофиқ бўлади, каттаю кичик билан бирдек муомала қилади, барчани яхши ишлар сари ундайди, ҳеч кимга зарари тегмайди.

Ақлли киши барча оғир ишлар олдида довдирамайди, ўзини маҳкам тутади, сабот ва ирода туфайли ғалабага эришади.

Муҳаммад Жабалрудий Қанчадан-қанча одамлар ақл билан пастликдан юқорига кўтарилади, қанчадан-қанча қадрли одамлар нодонликка йўл қўйиб, пастлик сари қулайди.

Бир ҳакимнинг айтишича, яхши ҳулқнинг ўнта белгиси бор. Улар қуйидагилардир: ақл, инсоф, илм, ҳилм, олижаноблик, кўркам феъл, эҳсон, сабр, шукр ва мулойимлик.

Сабрлилик мусибатнинг биринчи дақиқаларида билинади. Ҳадис Нафснинг тизгини ақлнинг қўлидадир, ақл нафс устидан ҳукм юргизиб, уни ёмон йўлдан асраб туради. Одатда қайси нарса кўпайса, қадри камайиб кетади. Аммо ақл кўпайган сари қадри ошаверади. Ҳамма нарсанинг чегараси ва тўхтайдиган жойи бор, аммо ақлнинг чегараси йўқ. Арслон ўз қуввати ва шижоати билан овқат топиб, кун кечиргани каби инсон ҳам қайда бўлмасин ўз ақли билан кун кечиради. Агар кишида молу дунё кўп бўлсаю, ақли бўлмаса, қадру қиммати ҳам бўлмайди. Ақлнинг аломати камтарлик, аҳмоқликнинг белгиси эса такаббурликдир.

Инсоннинг энг юксак ахлоқий фазилатлари: камтарлик, мардлик, меҳрибонлик, интизомлилик, тежамкорлик, истеъдодлилик, мулойимлик, сахийлик, саховатлилик, сабрлилик, тўғрилик, ҳаёлилик, ҳимматлилик, вафодорлик, латофатлилик ахлоқий маданиятнинг муҳим элементлари ҳисобланади.

Камтарлик – инсон ўзини бошқалардан устун қўймаслиги, барчага табақаси, мавқеи, бой-камбағаллиги, чиройли ёки хунуклигига, миллатига қарамасдан, ҳар қандай шароитда ҳам самимий, беғараз муносабатда бўлиши.

Мардлик – бу қаҳрамонлик, жасурлик, ваъдага вафо, садоқат, бошлаган ишини якунига етказиш, ҳар қандай тўсиқларни енгиб, мақсадга эришиш.

Меҳрибонлик – инсонпарварлик, одамийлик, олийжаноблик, мардлик, саховатлилик билан чамбарчас боғлиқ ҳолда намоён бўлиб, давлатга, ота-онага, турмуш ўртоғига, фарзандларга, дўст, биродарларга, қариндошуруғларга, устозларга, шогирдларга ғамхўрлик, меҳрмурувватли бўлиш.

Интизомлилик – инсон ўз ишини, бурчини, вазифасини масъулият билан ўз вақтида, жойида тартиб билан бажариши, доимо ваъдасининг устидан чиқиши, ўзининг билимини, тажрибасини орттириб бориши.

Тежамкорлик – уй-рўзғор буюмларини авайлаб-асраб ишлатиш, озиқ-овқатнинг етарлисини тайёрлаш, исрофгарчиликка йўл қўймаслик, пулни зарур, фақат керакли нарсаларга сарфлаш, ҳамма нарсада меъёрга риоя этиш.

Кишиларнинг оқил ёки жоҳил эканлиги уларнинг сўзидан ва тутган ишидан маълум бўлади. Шунинг учун ҳам донолар: «Қозонда бори чўмичга чиқади», — деб бежиз айтишмаган.

Ақлли киши шавкатли ва моли кўп бўлишига қарамай, душман билан ортиқча адоват йўлини тутишдан парҳез қилади.

Низомий Ганжавий Ҳакимлардан бири айтади: — Одамнинг дилидаги нарсани ақлимиз сеза олиш қувватига эга. Дилдаги нарсани аввало кишининг ти-ли, сўнгра эса кўзи билдиради. Шунинг учун: «Кўз кўнгил ойнаси» дейдилар.

Улуғликнинг сабаби ақл ва одобдир. Кимки соф ақл ва комил фаросатга эга бўлса, пастлик даражасидан улуғлик мартабасига эришиши мумкин.

Узоқни кўрувчи ақлни ва оламни безатувчи тафаккурни ҳар қандай ишда ўзинг учун одил ҳоким ва комил синовчи қилиб олки, инсонийлик шарафининг жавҳари бошқа ҳайвонлардан ақлининг уткирлиги билан ажралиб туради.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ш. Мирзиёев. Ўқитувчи ва мураббийлар куни муносабати билан ўтказилган тантанали тадбирдаги маърузаси. 2020 йил. октябр.
2. М. Холматова Оилавий муносабатлар маданиятини такомиллаштириш ва соғлом авлодни тарбиялаш муаммолари: – Тошкент, 1998. 270-бет.
3. Ж. Ҳасанбоев, Ҳ. Сарибоев ва бошқалар. Педагогика. – Т.: Фан, 2006.
4. Маънавият юлдузлари – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.

**M.A. Dedaxanova - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi**

## RAUF PARFI SHE’RIYATIDA SHAMOL KONSEPTI

XX asr o‘zbek modern she’riyatida ko‘chma ma’noni ifodalash masalasini lingvokognitiv jihatdan o‘rganish bugungi kunda dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Bu borada metaforik ifodalarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish, modern poetik manzarani shakllantirishda antroposentrik metaforalar rolini o‘rganish alohida e’tibor talab qiladi. **ABSTRAKT → ODAM,** ya’ni insonga nisbatan qo‘llangan mavhum otlar jonli mavjudotdek tasvirlanishi o‘zbek modernizmida, jumladan, uning asoschilaridan bo‘lmish Rauf Parfi ijodida talaygina uchrab turadi. Ularni shartli ravishda **abstraktomorfik metafora** deya alohida turga ajratishimiz mumkin.

Abstraktomorfik metafora sifatida SHAMOL timsoli ham antroposentrik xarakterga ega. U Rauf Parfi ijodida *“OZOD RUH”*mi yoki *“DUSHMAN”* timsolimi?” – degan savol tug‘iladi. Bu obraz zimmasiga muhim ma’no-mazmun, badiiy yuk ortilgan. “*Shamolga osilib yashadim*” [Р.Парфи. Туркистон руҳи: Б. 240], deydi shoir. Uni o‘qib, mantiq ko‘chalariga qo‘yilgan qizil chiroqlarga parvo qilmay, yo‘lni kesib o‘tayotgan yo‘lovchi holatiga tushgandek bo‘lamiz: axir, qanday qilib shamolga osilib yashash mumkin? Biroq haqiqiy poeziyaning qudrati mana shunday o‘ta nozik va qaltis ma’no tovlanishlarida namoyon bo‘ladi. Shoir boshqa bir she’rida shamollarni “dolg‘alarning shoshqin oqimida shiddat ila yuzayotgan” kemaning darg‘asiga o‘xshatadi[347]. “Shamollar” sarlavhali she’rida esa bu metaforik timsol yanada mukammallashadi. She’rning boshlanishidayoq shamol shovqinini eshitgandek bo‘lamiz: “*Shamollar boshimda aylanur*”. She’r davomidan anglash mumkinki, lirik qahramonning boshida aylanayotgan shunchaki shamol emas, “odamlarning, vatanlarning shamollar shaklida hayqiriq ovozi”dir. Bunga shamollar onasi bo‘lgan o‘z asri sabab (“*Shamollar onasi, hey asrim*”). She’r “shamollar poyida” xazondek sinayotgan notavon odamzodning achchiq qismatiga marsiya o‘laroq yangraydi. Uning nihoyasida shamollar bo‘ronga aylanadi. B.Fazliddin ta’biri bilan aytganda, “shoirning shamolini xohlang olis-olis *ORZULAR* deb tushuning, xohlang ulkan dardlar, to‘zondan iborat *HAYOT* deb qabul qiling, xohlang *ERK* deb biling… shoirni ko‘proq shamoldagi ozod ruh maftun etgan bo‘lsa kerak. Ammo o‘ta hur ko‘ringan shamolning ham ixtiyori o‘zida emas – butun olamlar Sohibining izmida”[348].

Ammo, bizningcha, shamol metaforik timsoli yovuz, ichi qora, hasadgo‘y, xiyonatkor raqib, *DUSHMAN* qiyofasida aks etadi va *“Yo‘limizni kesma, ey yovuz shamol!”* [Р.Парфи. Туркистон руҳи: Б. 87] – deya murojaat qilinadi. Lirik qahramon: *“Sanchilar ko‘zimga shamolning ignasi”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 160], deya to‘siqlarga qarshi kurashar ekan, dushmanning soxta mulozamati, “mehribonchiligi”ga shunday e’tiroz bildiradi: *“Shamol, sochlarimni tarama, Oqarsa oqarsin azobdan*” [Р.Парфи. Сакина: Б. 200], “*Xushomad qila boshladilar maysalar, Shamollar, Bulutlar, changlar, Yana allaqanday narsalar”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 231]... Bir o‘rinda aldangan bulutni ovutadi:

*Nechun qo‘l berdingiz shamolga, nechun,*
*Nechun qul bo‘ldingiz bulutlar, qayta?*
*Holbuki: shamol – yo‘q, siz – yo‘q, bulutlar,*
*Siz telba shamolga bir ermak faqat* [Р.Парфи. Сакина: Б. 111].

[347]Фазлиддин Б. Беҳзод Фазлиддин. Сўз салтанати // Рауф Парфи поэтик оламига бир назар *(https://kh-davron.uz).*
[348] Фазлиддин Б. Ўша манба (kh-davron.uz)

Raqibini qo‘llab-quvvatlayotganlar ko‘pligidan o‘zini ojiz sezib, “*Nechun boshim uzra qora shamollar, Osmonda ignadek nur yo‘qdir, nechun?”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 270], “*Nahot chekinmasdir vabo shamoli*” [Р.Парфи. Сакина: Б. 275], deya xayolga toladi:

*Yo‘lni darg‘a shamollar oldi,*
*Mana, sudrab borar kemamni.*
*U tomonda nimalar qoldi,*
*Bu tomonda ne kutar meni?..* [Р.Парфи. Сакина: Б. 159]

Nihoyat, kurashishdan charchab: “*Achchiq shamollarga sotdim o‘zimni. Shamollar o‘qisin tanimni teshib”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 163], deydi va ayni yangi hayot boshlanadigan tong vaqtida raqib hujumiga qarshiliksiz o‘zini topshiradi: *“Ay, sovurdim ul sovuq shamollarga, Hukm qildim o‘zimni. Tong chog‘i otdim”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 249]. Yaproqdek xazon bo‘lishga rozi bo‘lgani natijasida yori raqibga nasib qiladi: *“Bu payt falaklarga sovrilar kulim, Yerga to‘kilaman seni yo‘qotib, Shivirlab shamollar marsiyasini”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 179]. Ammo vaqt o‘tib, *“Jismimni sindirdi — ajal shamoli. Tobutimni quchib yig‘ladingiz”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 250], deya taslim bo‘lganidan biroz o‘kinadi. Chunki bu xato nafaqat o‘zini, balki onasini ham tiriklayin o‘ldirgan edi: *“Ko‘zguning ko‘zinda shamol uxlaydir, Onajon, qaydasan, jannatmi joying?”* [Р.Парфи. Сакина: Б. 245]. Lekin endi kech, o‘zini ovutishdan boshqa chora yo‘q, negaki kurashishga kuchi ham qolmagan edi: “*Shamolga osilib yashadim, Mingga kirdim, chiridi jismim, So‘ngaklarim oqardi qaqshab* [Р.Парфи. Сакина: Б. 236].

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi ijodidagi mavjud lingvistik metaforalar kognitiv tilshunoslikning obyektidir, chunki ular ko‘proq asosiy sezgilardan kelib chiqib, mental birlik sifatida yuqori darajadagi polisemiya va idiomatiklikni aks ettiradi. Bunday ijodiy mahorat nazariy tilshunoslikda ham o‘ziga xos qator yangiliklar ochilishiga asos bo‘lib, o‘zbek tilida imkoniyatlar kengligini ko‘rsatadi. Shu bois bunday tadqiqotlar til nazariyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

**Mahliyo Yuldasheva – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## YOLG‘IZLIK HISSINI TUSHUNTIRISHDA FENOMENOLOGIK VA GUMANISTIK YONDASHUVLAR TAHLILI

Fenomenologik yondashuv namoyandalari inson tasavvuridagi shaxslararo munosabatlar, ya’ni fenomenologik ideallar hamda real muloqot tuzilmasi o‘rtasida tafovut mavjud, deydilar. Xuddi ana shu tafovut yolg‘izlik hissini vujudga keltiruvchi asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Inson to‘g‘ri muloqot o‘rnatishga intiladi va u jamiyatdagi ideal munosabat deb yuritiladi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, jamiyat individni shaxsiy individual xususiyatlari, tasavvurlari, qiziqishlari, xohish-istaklariga zid ravishda harakat qilishga undaydi. Natijada inson o‘zining fenomenologik ideallari mavjud bo‘lmagan qirralarini anglagan holda jamiyatdan o‘zgalarga o‘xshamagan o‘zining noqis tomonlarini ko‘ra boshlaydi. Bu esa unga og‘riqli holatni boshdan kechirishga olib keladi.

Ba’zan yolg‘izlik ijodkorlik, yaratuvchanlik holatini ham ifodalaydi. Bunda inson uchun o‘z g‘oyalarini kashf etishida yolg‘izlikni his qilish muhim o‘rin egallaydi. Yolg‘izlikni qabul qilish o‘ziga yarasha qat’iyat va matonatni talab qiladi. Ijodkor inson o‘ziga mos suhbatdoshni topadi, lekin jamiyatga nisbatan ular baribir yolg‘izdirlar. Fenomenologik yondashuv modeli K.Rodjersga taallqli. Uning asosida shaxsning “Men” nazariyasiga qarama-qarshi “Ichki men” va “Ijtimoiy tasavvurdagi men” tuzilmasi yotadi. Ularning o‘rtasidagi kurash natijasida esa yolg‘izlik hissi kelib chiqadi. Inson o‘z-o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlarini kashf qilishi uchun ham yolg‘iz bo‘lishga intiladi. “Haqiqiy men” va “Ideal men” o‘rtasidagi tafovut yolg‘izlik deb atalgan himoya mexanizmiga olib keladi, deb yozadi Rodjers[349]. Yolg‘izlikning yuzaga kelish sabablari esa individning ichki shaxsiy menida mujassamlashadi. Psixodinamik yondashuv namoyandalari qarashlaridan farqli ravishda K.Rodjers yolg‘izlikning ildizlarini shaxsning yoshga xos bo‘lgan xususiyatlarida emas, balki shaxsga nisbatan bo‘lgan ta’sirotlarga borib taqaladi.

Uilyam Sadler va Tomas Djonsonlar yolg‘izlikni zamonaviy jamiyatdagi universal hodisa, deb atashadi. Uning yorqin ifodasi insonning o‘z-o‘ziga, ichki olamiga g‘arq bo‘lishidir. Yolg‘izlik o‘zining

[349] Yuldasheva, M.B. Yolg‘izlik psixologiyasi. // Monografiya. – Farg‘ona, 2020. – 122 b.

muayyan joylashuviga ega emas, u insonni to'lig'icha qamrab oladi. Mualliflar, yolg'izlik insonning bu olamda kim ekanligini anglashga yordam beradi, deyishadi.

Inson yolg'izligi muammosi A.Maslou ishlarida gumanistik yo'nalishda ifodalangan. Uning fikricha, o'z-o'zini takomillashtiradigan shaxs yolg'izlikka ehtiyoj sezadi va uning mohiyati o'z-o'zini anglash, takomillashtirish jarayonidagi meyyoriy ko'rsatkich deb baholanadi. O'zining "Motivasiya va shaxs" nomli mashhur kitobining "O'zini o'zi takomillashtiradigan insonlar psixologik salomatligini o'rganish" bobida shunday fikr-mulohazalar berilgan: o'z-o'zini takomillashtirishga ehtiyoj sezadigan insonlarda yolg'izlikka moyillik kuchli bo'ladi. Albatta, bunday yolg'izlik inson uchun mahsuldor xarakterga ega bo'lgan pozitiv ijobiylikni bildiradi. Haqiqiy o'zini anglash yolg'izlikdan ayro holda bo'lmaydi. Bunda mazkur holatning qanday kechirilishi muhim ahamiyat kasb etadi[350]. Pozitiv yoki negativ tarzda yolg'izlikni idrok qilish muayyan shaxsning ushbu kechinmani qanday his qilishiga bog'liq. A.Maslou o'zini aktuallashtirishga intilgan shaxs o'z hissiyotlari, fikrlari, kechinmalari va qadriyatlari tizimini ham takomillashtiradi, deydi. O'z-o'zini takomillashtirish jarayoni insonning butun hayoti davomida ro'y beradi. Shu sababli yolg'izlik hissi ham insonning butun umri davomida ifodalanib boradi.

Rus faylasuflaridan S.N.Solovyov, N.A.Berdyayev, E.N.Trubeskaya, I.A.Ilin, N.O.Losskiy va P.A.Florenskiylar yolg'izlikni insondagi ma'naviy va madaniy inqiroz, deb qarashgan. Ular yolg'izlikning sababi sifatida insoniyatda axloqiylikning mantiqiy mavjudligining yo'qolishi bilan bog'lashgan. Yolg'izlik muammosi insoniylik chegarasi bilan bog'lanadi. Boshqa tomondan axloqiy o'z-o'zini anglashning shart-sharoitidir. N.A.Berdyaevning fikricha, "inson yolg'iz qolish huquqiga ega, chunki ana shundagina u shaxs sifatida kamol topadi..."[351].

Yuqoridagi tahliliy mulohazalardan ko'rinib turibdiki, ekzistensial va gumanistik yondashuvlar bo'yicha yolg'izlik inson tabiati va mavjudligi uchun muhim hodisa degan fikrlarda yakdil. Bunda ekzistensialistlar yolg'izlikni psixika uchun immanent, ya'ni ichki ruhiy hodisa sifatida talqin qilishadi. Shuning uchun yolg'izlikning ifodalanishi turli ko'rinishlarga ega. Gumanistik yondashuv vakillari esa yolg'izlikni pozitiv tomon, ya'ni shaxsiy o'sish, rivojlanish va takomillashuv bilan bog'lashadi.

**O.N. Madaminov – Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**H.S. Nabiyev – Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## XECH KIM MAMLAKATNI SPORTCHILARDEK MASHHUR QILA OLMAYDI

Sport bu-sog'lik, sport bu-hayot, sport bu-absurdlik darajasiga yetkazilgan jismoniy tarbiya! Bunday jumlalarni yana ko'plab misol qilishimiz mumkin. Lekin yuqorida aytilganidek mamlakatning tez dunyoga tanilishi, uni mamalakat sifatida shakllanishi uchun qaysidir ma'noda sportning ahamiyati juda kata. Shunday ekan biz sport haqida nimalarni bilamiz o'zi. Uning jamiyat uchun qanday ahamiyati bor:

Sport so'zining ma'nosi (fransuschada: desporter-"o'ynamoq", "maza qilmoq")qatnashuvchilarning jismoniy va yoki aqliy qobiliyatlarini solishtirishga va yoki zavqlanishga mo'ljallangan tayinli qoidalarga ega faoliyat turidir.

Sport (inglizchada: sport-o'yin)-jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarni turli majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog'ligini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga sport musobaqalarida yuqori natija va g'alabalarga erishishdir. Dastlabki sport musobaqalari Yunonistonda bo'lib o'tgan. Xalqaro olimpiada qo'mitasi tashkil qilinganidan keyin sport juda tez rivojlana boshladi, 1896-yilda 1-zamonaviy olimpiada o'yinlari o'tkazildi.

Sport turlarining ikki asosiy guruhi mavjud: milliy sport turlari va xalqaro sport turlari. Milliy sport turlari xar bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan. Xalqaro sport turlari muayyan sharoitlarda musobaqalar o'tkazishning umumlashtirilgan tizimlaridan iborat bo'lib, bunda musobaqa ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini, natijalarini hisobga olish va baholashni xalqaro miqyosida bir xil tartibga keltirish, yagona qoidalardan foydalanishga asoslangan mahsus cheklashlar nazarda tutiladi.

[350] Маслоу, А.Г. Мотивация и личность. / 3-е издание. СПб.: Питер, 2008. – 352 с.
[351] Бердяев, Н.А. Опыт философии одиночества и общения / Н.А. Бердяев. - М.: Республика, 1993. - 390 с.

Oʻzbekiston Respublikasida sport umumdavlat ishi hisoblanib, jismoniy madaniyat bilan birga axolining barcha qatlamlarini va yosh guruhlarini qamrab olgan. Mamlakatimizda 50 dan ziyod sport turi ommalashgan, ulardan 30 turi olimpiada oʻyinlari dasturiga kirirtilgan.

Sport sohasida juda kata yutuqlarga erishgan fuqorolar, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda alohida xizmat koʻrsatgan sport ustozlari, sportchilarni taqdirlash maqasadida “Oʻzbekiston iftixori”, “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sport ustozi”, “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan sportchi” faxriy unvonlari taʼsis etilgan. Shunday ekan sportchilarimiz ularga yaratilayitgan shart sharoit va inkoniyatlardan keng foydalanib jaxon arenalarida yurtimiz bayrogʻini yuksaklarga koʻtarib munosib gʻalabalarni qoʻlga kiritmoqdalar.

Oʻzbekiston Respublikasining milliy sport qoʻmitasi jamoasini xalqaro maydonlarda mustahkam va baland choʻqqilarni zabt etgan xolda oʻz tarkibiy sonini yildan-yilga koʻpaytirb bormoqda. Sportchilarimizning yuqori choʻqqilarga erishishi yosh respublikamizning xalqaro maydondagi obroʻsini mustahkamlashda shubhasiz koʻmaklashadi. Nufuzli anjumanlarda milliy bayrogʻimizni himoya qiluvchi yoshlar mahsus yakka va oʻyin sport turlarining professionallari oʻz tayyorgarliklarini va mahoratlarini namoyish etib mamlakatimizning boy sport anaʼnalariga egaligini namoyon etmoqdalar va tasdiqlamoqdalar.

Shuni taʼkidlash muhimki, Oʻzbekiston mazkur yoʻnalish boʻyicha uning yuksak ahamiyatini tushunadigan mamlakatlar qatoridan joy egallagan va uni tark etmay kelmoqda. Mamlakatning hukumat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va sport muassasalari sport va jismoniy tarbiya sohasida moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ommaviylikka erishish, professional sportni kuchaytirish kabi muhim muammolarni har doim birgalikda yechishda hamjihat faoliyat olib bormoqda. Sportni qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan kompleks chora-tadbirlar oʻzining samarasini bermoqda. Mustaqillik yilarida Oʻzbekistonning sport delegatsiyasi jami 5ta Olimpiya va 9 ta Osiyo oʻyinlarida vatanimiz sporti shaʼnini munosib himoya qildilar. Olimpiya oʻyinlari davomida Oʻzbekiston vakillari tomonidan 6 ta oltin, 5 ta kumush va 11 bronza medallari, Osiyo oʻyinlarida esa 54 ta oltin, 76 kumush va 93 ta bronza medallari qoʻlga kiritildi. Bu yutuqlar shundan dalolat beradiki, Oʻzbekiston yil sayin sport sohasi jadal surʼatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy olmoqda.

Respublikada sportni rivojlantirish boʻyicha asosiy faoliyatni Oʻzbekiston Respublikasi madaniyat va sport vazirligi olib boradi va muvofiqlashtiradi. Shu bilan bir qatorda olimpiya harakatini kelgusida rivojlantirish tadbirlarini va ularda respublika sportchilarini ishtirok etishini taʼminlash 1993-yilda Xalqaro Olimpiya xarakatiga aʼzo boʻlgan Milliy Olimpiya
Qoʻmitasi zimmasidadir. Bugungi kunda Oʻzbekiston milliy sport federatsiyalari 32 sport turi boʻyicha xalqaro federatsiyalarning aʼzosi hisoblanib, ular xalqaro musobaqalarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni tayyorlashni Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti amalga oshiradi. Unda har yili 2 mingga yaqin talabalar tahsil olmoqda. Oliy oʻquv yurti jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini va sport boʻyicha murabbiy-oʻqituvchilarni tayyorlamoqda.

Sportning katta tennis turi ommaviylig boʻyicha «birinchi oʻrin»dagi sport turidan qolishmaydi. Respublikada tennisining rivojlanganlik darajasini Oʻzbekiston tennischilarning muvaffaqqiyatlari orqali koʻrish mumkin. 1994 yildan buyon mamlakatning barcha yirik shaharlarida har yili jahonning kuchli tennischilari ishtirokida xalqaro turnirlar oʻtkazilmoqda. Respublika poytaxtining asosiy tennis musobaqasi «Prezident sovrini» boʻlgan yillik turniri hisoblanadi. oʻzbekiston boks boʻyicha Osiya chempionati, taekvando boʻyicha Osiya va Okeaniya chempionati, erkin kurash boʻyicha «A» darajali xalqaro turnir kabi nufuzli musobaqalar va turnirlarning oʻtkazish joyi boʻlib kelmoqda.

Olimpiya oʻyinlari turkumiga kiruvchi sport turlari boʻyicha terma jamoalar oily sport taʼlim muassasalarida tayyorlanmoqda. Bu sport dargohlarida oily toifali 2000 nafar sportchilar 150 nafar malakali mutahassislar qoʻl ostida tayyorlanishmoqda. Ular 32 ta sport turlari boʻyicha milliy jamoa asoslarini tashkil etadilar. Mazkur maktablar qoshidagi Olimpiyaga tayyorlov markazlarida istiqboli porloq va iqtidorli atletlar shugʻullanmoqdalar. Yosh mamlakatning hayotida katta miqdordagi 6,5 mln aholi band boʻlgan jismoniy tarbiya oʻziga hos oʻrin tutadi. Ular 145000 jamoa asoslarini tashkil etadi. Respublikada paraolimpiya sportlarini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Uning bazasini kengaytirishda nafaqat muassasa va jamoat tuzilmalari, balki OʻzR ijtomoiy taminoti Vazirligi, Respublika nogironlar jamiyati, Xalqaro Qizil Jamiyatining hududiy vakolatxonalar faoliyatlarining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlmoqda.

Milliy Sport O‘zbek halqi ko‘p asrlardan beri o‘zining O‘zbekiston Milliy sporti bo‘lmish kurash, belbog‘li kurash, turon va boyqo‘rg‘on asoschilari bo‘lgan jangchi polvonlari va afsonaviy chavandozlari bilan fahrlanadi. Mustaqillik tufayli, jahonga bizning madaniy merosimiz bo‘lgan milliy sport turlarimizni tanishtirish imkoniyati tug‘ildi. Agarda Yaponiya millionlab sport ishqibozalari uchun dzyudo, karate, sumo, Hitoy – ushu va kung-fu, Korea – taekvondo va sirim, Angliya – futbol, Kanada – shaybali hokkey, AQSh – beysbol, basketbol, amerika futbolining vatani deb hisoblansa, endi O‘zbekiston milliy sport turlari – kurash, belbog‘li kurash, turon, boyqo‘rg‘on va boshqalar xalqaro sport arenasida bizning davlatimizni dunyo ahliga tanitadi.

Hozirgi kunda Kurash dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida taraqqiy etdi, shuningdek, chempionatlar va jahon birinchiligi hamda qit’alararo musobaqalar o‘tkazilmoqda. Quvonch bilan shuni ta’kidlash lozimki, Kurashni Osiyo o‘yinlari dasturiga qo‘shilishi, nafaqat O‘zbekistonning balki butun jahon sport taraqqiyotidagi yana bir muhim hodisalardan biri hisoblanadi.

**F.B. Rahmonova - Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING PSIXO-LINGIVISTIK XUSUSIYATLARI

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadi bugungi kunda “Ilk qadam” davlat dasturining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Shu bois bugungi pedagog yuksak bilim, malaka, ko‘nikma va kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero yuksak ma’naviyatli shaxsgina haqiqiy ma’nodagi barkamol insonni tarbiyalash qobilyatiga ega bo‘ladi

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixikasi ya’ni ruhiyati o‘ziga xos bir olam. Hali to‘la to‘kis ochib o‘rganilmagan qirra sifatida namoyon bo‘ladi. Bola dunyoga keldimi - endi u o‘sadi, rivojlanadi. Tashqi olamni sezib borish barobarida tashqi muhit ham o‘z navbatida unga ta’sir eta boshlaydi. Shakllanish jarayonida bola tashqi dunyoni o‘zi uchun kashf etib boradi. Bolaning ijodiy qobilyatlarini yuzaga chiqishini ta’minlovchi vositalar ichida nutq alohida ahamiyatni kasb etadi.

Bolada rivojlanish bosqichlari nutq xususiyatlarining yuzaga kelishida ko‘rina boshlaydi. Boladagi dastlab ki paydo bo‘layotgan tafakkur jarayonlari unda nutq hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi. Tafakkurning ilk kurtaklarini bolada hali nutq qobilyati shakllanmasdan oldin payqash mumkin. Chunonchi bola o‘zining o‘yinchoqlarini taniy boshlaydi, har bir o‘yinchoq bilan o‘zgacha harakatlarni amalga oshiradi. Ovoz chiqaruvchi o‘yinchoqlarni harakatlantirib ovozini chiqarishga urinadi.

“Ideyalar tug‘ma bo‘ladi” degan nazariyaning yorqin namoyodasi Dekart fikricha, tug‘ma ideyalar intellektda boshlang‘ich holatda bo‘ladi. Bu ideyalar moyillik sifatida “tug‘ma bo‘lib, faqat keyinchalik to‘la anglanguncha sekin asta taraqqiy etadi, shu bilan birga, tashqi tajriba ideyalar faoliyati uchun faqat turtki bo‘lib xizmat qiladi, ularning yanada takomillashuvi uchun, material hisoblanadi deb ko‘rsatildi.[352]

Bundan ko‘rinadiki, maktabgacha yoshdagi bola nutqning dastlabki shakllarini egallagan. So‘zlarni mukammal talaffuz etolmasada, tug‘ma instinkt tufayli talaffuzdagi so‘zlar ma’nosini tushunadi va o‘z istaklarini atrofdagilarga tushuntirishni xohlaydi. Bolaga qanday so‘z taklif qilinsa uni tushunib qabul qiladi. Ular bu jarayonda ilk yoshda amaliy harakatlarni bajarishda qiynalishlari mumkin. Bolalarga o‘z qarashlarini nutqida to‘g‘ri bayon qilishga majburlamaslik zarur. Aks holda bolada qo‘rquv hissi shakllanib, u jamoa ichidagi erkin muloqotdan cho‘chiydigan bo‘lib qoladi. Bolalardagi ba’zi tovushlarni to‘g‘ri talaffuz eta olmaslikning sababi ularda hali nutq apparati ( artikulyatsiya ) to‘liq shakllanmagan. Shuningdek bolaning nerv sistemasi ham shakllanish bosqichida va bola o‘zi talaffuz etayotgan tovush birikmalarini bu davrda to‘liq idrok etmagan bo‘ladi.

Bolalardagi nutq buzilishlariga kattalar ham bevosita sababchi bo‘lishadi. Kattalar bolalarni erkalash va’jida ko‘proq ularning gapirish usullariga taqlid qiladilar. Natijada boladagi kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf qilinmaydi va maktab yoshida davom etishiga sabab bo‘lib qoladi. Shunday ekan har bir bola bilan

[352] M.Zufarova tahriri ostida, Bolalar psixologiyasining muammolari, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2008y, 8 bet

faqat to'g'ri muomalani yo'lga qo'yish va bu munosabatlarda kattalar bolaga emas, balki bola kattalarga taqlid qilishi kerak.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.[353]

Bolaning so'z boyligi ko'payib borishi bilan bir qatorda u o'z talaffuzidagi so'zlar ma'nosini ham yaxshi tushunib borishi zarur. So'z ma'nosini to'g'ri anglash nutqni to'g'ri egallash yo'lidir. Bolalardagi nutqning dastlabki shakllari ko'pincha so'zlarning aynan o'zidan yoki buyruq shaklidagi gaplardan iborat bo'ladi. Shu bilan birga bu so'zlardan faqat bir ma'no emas turlicha mazmunni payqaladi. Bola " non" degan so'zni aytganda shu so'zning o'zida u " nonni yeyman", " non ber" yoki " ana non" degan ishoralardan birini bildirayotgan bo'ladi. Bola 2 yoshga yetganda so'zlardan sodda gaplarni tuzishni o'rganib oladi. Endi ular "Menga non bering" deb to'liq xohish bildiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning o'sib borishi natijasida ularning fikr qilish doiralari kengaya boradi. Endi bola o'zi shu onda idrok etgan narsalardan tashqari, ilgari kuzatgan voqealar haqida fikr qila boshlaydi. U xayolan yaqin kelajak haqida, yaqinda bo'ladigan bayram yoki kelayotgan tug'ilgan kunini kutib xayol suradi. Yoki tarbiyachi opa aytib bergan turli ertaklar ta'sirida o'zgacha o'y-xayollarni boshidan o'tkazadi. Ertakdagi qahramonlardek qahramonlik ko'rsatishni yoki yosh qizaloqlar ertakdagi malikalardek chiroyli bo'lishni orzu qiladilar. Bularning barchasi unda ijodiy tafakkurni shakllanayotganligini bildiradi.

Ertaklarning ana shunday ruhiyatga ta'siri tufayli bolajonlarda ijobiy xislatlarni, yaxshi xulqli bo'lishlikni, faqat yaxshi ishlar orqaligina o'z maqsadlariga haqqoniy yeta olishlarini anglatish mumkin. Bola ertakdagi ziddiyatlarni, yaxshilik va yomonlik orasidagi kurashlarni kuzatib, o'zicha xulosa chiqaradi. Qilayotgan hatti-harakatlarida o'sha qahramonlardek bo'lishga urinadi. Ertakdagi ijobiy qahramonlarga nisbatan mehr uyg'onadi, salbiy qahramonlarni qoralaydi. Ba'zan bolalar tabiatda ayrim kishilar baho beradilar, yoki bu harakat noto'g'ri ekanligini isbotlamoqchi bo'ladilar. Dadasi ishdan charchab kelib dam olishni xohlaydi, lekin shu payt kimdir eshikni taqillatadi va otani so'raydi. Shunda ota erinib o'zini yo'q deb aytishlarini buyuradi. Yosh farzand yolg'onchilik yomon odatligini biladi va otasidan ranjiydi. Chunki bola o'z ertagida yolg'onchi qahramonlarning halokatiga guvoh bo'lgan. Bu bolaga ta'sir etgan ertak sujetidagi o'ziga xoslikning oddiy namunasidir.

Bolalardagi o'ziga xos jihatlar ularning yoshi ulg'ayib borishida shakllanib boraveradi. Bolalarga o'rgatib borilayotgan maqollar, she'rlar, tez aytishlar, qo'shiqlar ularning nutqi yanada ravon bo'lishiga, nutqiy go'zalliklar hosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etib boraveradi.

Oddiygina milliy qadriyatimiz bo'lmish ona allasining o'zida ham ulkan ma'no va madaniyat mujassamlashgan. Onaning mehrga qorilib aytilayotgan ezgu niyatlar, pok orzular, bolaning yorqin iqbolidan umidlar sadosi akslantirilgan xirgoyidan go'dakning ilk dunyoqarashi shakllanadi. Ona timsoli orqali o'z kelajagini poydevorini quradi. Alla ta'sirida unda ilk tasavvurlar, ilk xayol obrazlari, ilk tushuncha va xulosalar, hatto o'ziga xos hukm ham hosil bo'lishi mumkin. Bu tafakkur jarayonlari notekis bo'lar, lekin keyinchalik o'tkir fikrlar shakllanib borishiga bosh omil bo'lib xizmat qilishi ayni haqiqat. Shularni anglay olgan dono xalqimiz o'z turmush tajribasida "alla" qo'shig'ini eng oldingi safga olib qo'ygan. "Alla" sehri bolani jo'shqin hayotga yo'llaydi. Unda irodaviy xislatlarni tarkib toptiradi.

Maktab yoshi davrida nutqiy xarakter xususiyatlarini rivojlantirish asosida bola "insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushuna"[354] boradi. Lekin bu xarakter xususiyatlarning aniq belgilari va davomiyligi maktabgacha yosh davrida beriladigan bilimlar ta'sirida singdirilgan holatlar yig'indisidir.

---

[353] G.V.Izbullayeva, Z.N.Salomomova, Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish yo'llari, Bitiruv malakaviy ishi, Buxoro, 2017y, 4 bet

[354] И.В.Грошева, Л.Г.Евстафьева, Д.Т.Махмудова, Ш.Б.Набиханова, С.В.Пак, Г.Э.Джанпеисова, "Ilk qadam" davlat dasturi, Toshkent, 2018 yil

**N.X. Toirjonova – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## ERKIN VOHIDOVNING "RUHLAR ISYONI" DOSTONIDA OZODLIK TUYG‘USINING TALQINI HAQIDA

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni kabi yuksak mukofotlarga sazovor bo‘lgan yurtimizning sevimli o‘g‘loni Erkin Vohidov ijodida Vatan, erk, ozodlik, tinchlik tushunchalari alohida o‘rin tutadi. Mashhur "O‘zbegim" she’ri orqali Vatan, "Ruhlar isyoni" dostonida erk va ozodlik, "Nido" ijodiy merosida esa tinchlik obrazlari o‘zining yorqin ifodasini topgan.

1978-1979-yillarda yozilgan "Ruhlar isyoni" dostoni hind xalqining otashqalb shoiri Nazrul Islomning hayotiga bag‘ishlanadi. Unda o‘z Vatanini ingliz mustamlakasidan ozod bo‘lgan holda ko‘rishni istagan va bu yo‘lda nafaqat ijodini, balki hayoti va erkini ham ayamagan xalqparvar shoirning achchiq qismati, o‘y-xayollari birin-ketin hikoya qilinadi.

Nazrul Islom va uning alamli qismati bir durbinkim, shoir mazkur usturlobning bir uchini o‘quvchi ko‘ziga tutib, ikkinchi og‘zini insoniyatning xatolarga liq to‘la kechmishi va buguniga qaratadi. Natijada, o‘quvchi Nazrul Islom kechmishi orqali o‘zi odamzotning botiniga nazar tashlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, inson tabiatidagi o‘zak masalalarga bir nuqtadan qarash va uni kuzatish maydonini qo‘lga kiritadi. Yoshi va davridan qat’iy nazar, o‘quvchiki bor, endi shu maydonga tushsa, albatta, istibdod va ozodlikdan, jaholat va ma’rifatdan, olomon va xalqdan dars oladi. “Ruhlar isyoni”ning davrlar chig‘irig‘iga dosh berib kelayotganining sababi – shu. Bu esa dostonni sharaflagan unsurlardan tag‘in biridir.[355]

Asarda Vatan, ozodlik, ma’rifat, tinchlik, birdamlik kabi barcha ezguliklar Nazrul Islom orqali beriladi. Bu nafaqat hind eli uchun, balki barcha istibdodga qarshi kurashyotgan xalqlarga tegishli edi. Bunda asosan yurt ichiga kirib olib nifoq urug‘ini sochgan "oq tanli janoblarning" qilishlari , buning oqibatida ikki jondosh el - hind va musulmon o‘rtasida g‘alayon boshlanganligi, ko‘pchilik insonlarning hayoti xavf ostida qolganligi aks etadi va rivoyatlar birin-ketin bir-biriga bog‘lanib ketadi.

Janob shodon, ushalmoqda niyatning eng ulug‘i,
Hosil bo‘ldi shu tuproqda ekkan nifoq urug‘i.
Bo‘lmasin, deb qilar orzu, bu nizoga hech poyon,
Mayli, ko‘proq o‘lsin hindu, ko‘p qirilsin musulmon.

Dostonda "Inson" so‘ziga ham alohida urg‘u qaratiladi. Aslida hayot chig‘irig‘ini harakatga keltiradigan kuch har bir odamning o‘zi ekanligini ta’kidlaydi.

So‘yla, inson , so‘yla, qadding ko‘tarib baland,
Yuksaklikda sening qadring Himolay monand.
So‘yla, sening poyingdadir bu ulug‘ zamin
So‘yla, otib zolim asr dard-u alamin.

Faqatgina o‘zidagi irodani topa olsa, barcha muammolarga yechim yo‘li o‘z-o‘zidan chiqishini va, albatta, ozodlikka erishishini baralla aytadi.

Asriy g‘aflat yetar endi, ey, mazlum inson!
Uyg‘onmoqning vaqti keldi, bosh ko‘tar, uyg‘on.
Bosh ko‘targil, ming yil to‘kkan ko‘z during haqqi,
Qo‘zg‘al, asriy qullik bukkan g‘ururing haqqi.

"Ruhlar isyoni” dostonidagi ruhlar isyoni ham aslida, insonning qullikka, jaholatga, zulm va istibdodga ko‘nishiga qarshi ko‘tarilgan muqaddas harakatdir.

Qo‘zg‘al, buyuk Tojmahalning shukuhi uchun,
Qo‘zg‘al, ulug‘ bobolarning pok ruhi uchun.
Erk bongin ur, sen intiqom – tablin baland chol
Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol!

Mana shunday haroratli satrlarga ega bo‘lgan "Ruhlar isyoni" dostoni XX asr o‘zbek adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri sanaladi. Erk, ozodlik, g‘urur tuyg‘ularining so‘nmas kuychi dostonidir!

---

[355] Ulug‘bek Hamdam. Jaholatga qarshi isyon. "Tafakkur" jurnali, 2006.

**J.N. Sharobidinov - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## IJTIMOIY ISH XODIMINING MAHALLADA-AHOLINI AYRIM QATLAMLARI VA GURUHLARI BILAN ISHLASH TAMOYILLARI

Dunyo mamlakatlarida taraqqiyot darajasi,odatda aholini turli qatlamlari bolalar va keksalarning xolati va oʻzlarini qay darajada xis etishlari bilan belgilanadi. Oʻrta osiyoda ijtimoiy muxofaza nafaqat davlat ahamiyatiga molik masala , balki mahalliy aholining turmush tarzi va an'analarini bilan bevosita bogʻliq xodisadir. Sababi , bu xududda aholi qadimdan jamoalarga- mahallalarga birlashib yashaganlar. Jamoa a'zolarida oʻzaro birdamlik va hamdardlik koʻnikmalari tabiiy tarzda shakllanib, rivojlanib borgan. Bu noyob hodisa boʻlib asrlar davomida mahalla aholisi uchun jamoadagi nochor insonlarga gʻamxoʻrlik qilish ham qarz ham farz boʻlgan. Odamlarning yakdilligiga va ularda jamoaviy birdamlikni paydo boʻlishiga eramizgacha I mingyillikning birinchi yarmida Oʻrta osiyoda "mustaqil mazmunga ega jamoa"[356] sifatidagi ijtimoiy tashkilot aynan mahallalarning paydo boʻla boshlagani sabab boʻlgan.

Agarda kengroq nazar tashlaydigan boʻlsak, ogʻir xayotiy vaziyatga tushib qolgan kishilarga koʻmaklashish-jamiyatda madaniyat va taraqqiyot darajasining yuqori ekanligidan darak beradi. Oʻz yaqinlariga yordam berish, hamdardlik va xayr-ehson qadimdan turli davlat xalqlariga xos boʻlgan xususiyatdir. Bu xususiyatlardan Oʻzbekiston xalqi ham mustasno emas, albatta. Ular saqlanishi va rivojlanishi zarur boʻlgan milliy qadriyatlar, an'analar va udumlarning asosini oʻzida aks ettiradi. Aholini turli guruh va qatlamlari deganda ijtimoiy ta'minotdan foydalanuvchilar, bolalar, oʻsmirlar va ularning oilalari, nogironligi boʻlgan shaxslar, spirtli ichimlik va narkotik moddalarga ruju qoʻygan insonlar tushuniladi. Ijtimoiy ish xodimi yangi inson qiyofasini yaratishga harakat qiladi. sIjtimoiy ish xodimlari aholini jtimoiy himoyaga muxtoj qismi bilan ishlashda statsionar va nostatsinoar muassalarga joylashishida va hujjatlarni rasmiylashtirishda yordam beradi. Shifoxonaga yotqizishda yordam beradi, nafaqa oluvchi mehnat faxriylarini avval ishlaga ish joylari va qolgan davlat, jamoatchilik va xayriya tashkilotlari bilan aloqaga chiqishiga amaliy yordam koʻrsatadi. Ijtimoiy masalalar boʻyicha kerakli maslahatlar beradi. Muammoli oilalar bilan ish olib boradi. Ijtimoiy ish xodimlari bundan tashqari yana shaxs psixologiysi asoslari sohasida bilimlarga ega boʻlishi va nafaqa oluvchi keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga yordam koʻrsatishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini bilishi talab qilindi. Jamiyatdagi imtiyoz va afzalliklarni nogironligi boʻlgan odamlar, urush va mehnat faxriylari uchun belgilangan tizimini va ularni parvarishlashni ham bilishi ham lozim[357].

Ijtimoiy himoya yuksak rivojlangan davlatlarda ijtomoiy ish xodimi aholini turli qatlamlaari bilan ishlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor berishlari lozim.
- insonparvarlik tamoyili;
- adolatlilik tamoyili;
- vakolatlilik tamoyili;
- altuizm tamoyili (oʻzganing manfaatini oʻzining manfaatidan yuqori deb bilish)
- shaxsiy yondashish tamoyili (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini koʻra olish layoqati);
- mujassamlilik tamoyili;
- vositachilik tamoyili;
- jalb etishlilik tamoyili;
- ishonch tamoyili[358].

Ijtimoiy ishning integral tavsifiga koʻra , unda iqtisodiy , huquqiy, tashkiliy, ma'muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik kabi usullardan foydalaniladi. Ijtimoiy ish xodimi ijtimoiy masalalarni hal qilish jarayonida ijtimoiy koʻrsatkichlar tizimidan foydalanadi. Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan tamoyillar ijtimoiy ish xodimining kasbiy faoliyati davomida amal qilishi kerak boʻlgan asosiy tamoyillar hisoblanadi. Shu bilan birga ijtimoiy ishchi boshqa maxsus bilimlarga ham ega boʻlishi zarur. Ijtimoiy xodimlar faoliyatiga qoʻyiladigan umumiy axloqiy talablar professionalizmni, ya'ni qadriyatlar, bilimning

---

[356] A Saidov "Mahalla- umumiy uyimiz" Toshkent. 2003
[357] A.Vahobov " Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot" Toshkent-2018
[358] Social work and social welfare P. 120-164

butun bir tizimi bo‘lib, amaliyot va ixtisoslikning aniq bir sohasida nimalar ro‘y berayotgan bo‘lsa, shunga muvofiq ko‘nikmalarga egalikni nazarda tutadi. Ijtimoiy ishchi oilaviy terapiya usullaridan bemalol foydalana olishi mumkin, lekin u korreksion yoki preventiv, ya’ni krizisning oldini olishga qaratilgan amaliyot bo‘yicha tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin. Bundan tashqari professionalizm tarkibi muntazam ravishda ortib borayotgan bilimlar, shakllantirilayotgan ko‘nikmalar va amaliyotda o‘zgarib borayotgan talablar asosida to‘planib rivojlanib boraveradi.

**R.R. Nematova - BUXDUPI o‘qituvchisi**

## OLIY MAKTABDA HAMKORLIKDAGI FAOLIYATNING SHAKLLANISHI VA UNING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, shuningdek mustaqil fikrlay oladigan, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limiy islohotlarning sifat bosqichi kechayotgan mavjud sharoitda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirishga erishish yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. Dasturning bosh maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “Aslida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi yo‘q, toki hayot davom etar ekan, ta’lim ham, tarbiya ham zamon o‘rtaga qo‘yayotgan yangi-yangi talablarga ko‘ra mustaqil ravishda o‘zgarib, yangilanib boraveradi”.[359]

Oliy maktabda hamkorlikdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy psixologik jihatini tashkil qilish har qanday faoliyatni, shu jumladan, o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarini o‘rganish so‘nggi o‘n yillarda amalga oshirila boshlandi. Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyatni psixologik jihatdan o‘rganishni V.YA. Lyaudis boshchiligidagi psixologlar guruhi amalga oshirdi. Uning asosiy maqsadi yangi psixik fazilatlarning shakllanishida o‘qituvchi bilan talaba hamkorligining rolini ifodalash edi. Ushbu nazariyaga binoan, o‘quv faoliyatining shakllanishi fan asoslarini egallashning negizi emas, balki shaxsning ijtimoiy madaniy qadriyatlarini egallash jarayonidir. Mazkur nazariya asosida vaziyatni talaba shaxsining rivojlanishidagi “yaqin kamolot zonasi”nigina emas, balki “Perseptiv rivojlanish zonasi”ni ham yaratadigan yo‘sinda loyihalash mumkin.

V. YA. Lyaudis o‘quv vaziyati tartibidagi 4 ta o‘zgaruvchi holatni ko‘rsatadi: [360]
a) tashkiliy o‘quv jarayonining mazmuni (uning xususiyati, o‘quvchi o‘zlashtiradigan faoliyat dasturi, egallanadigan bilim faoliyatining turlari);
b) ta’lim mazmuni va o‘quv faoliyati usullarini o‘zlashtirish: bir bosqichdan boshqasiga o‘tish tartibi;
v) talaba bilan o‘qituvchining o‘zaro ta’siri va hamkorlik sistemasi;
g) ta’limdagi o‘zgaruvchan omillarning o‘zaro aloqasini takomillashuvi: o‘zaro hamkorlikning muhim omili va talabalarning o‘zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos bu o‘qituvchi bilan talaba hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyati o‘qituvchi va talaba munosabatlarining birgalikdagi hatti-harakatlarining alohida turidirki, u o‘zlashtirish ob’ektini, bilish faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta’minlaydi. Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli talabalarning ilgari surgan yangi g‘oyalari va o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar, sheriklikda shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan talabaning birgalikdagi hatti-harakatlarining sistemasini tushunish kerak. Bunday hatti-harakatlar o‘qituvchining talabaga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi; talabalarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi. O‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikning sakkizta shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: 1) faoliyatga kirish; 2) mustaqil harakatlar; 3) o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; 4) taqlid harakatlari; 5) madad harakatlari (o‘qituvchi talabaga maqsadni anglash va unga erishish usullarini

[359] Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.:O‘zbekiston/. 1998.
[360] Ляудис В.Л. – Методика преподавания психологии. из.во 2000 УРАО

tanlashda yorlam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 6) oʻzini-oʻzi boshqarish harakatlari; 7) oʻzini-oʻzi boshqaruvchi harakatlar; 8) oʻzini uyushtiruvchi harakatlar[361].

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi hatti-harakatlar shaklida namoyon boʻlib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qoʻyiladigan ushbu almashuvni oʻz ichiga oladi: oʻqituvchi harakat boshlaydi, talaba uni davom ettiradi yoki tugallaydi. Oliy maktablarda hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarini oʻrganish va tajribalarda sinab koʻrishning asosiy maqsadi talabalarning bilimlarni oʻzlashtirishdagi qiyinchiliklarning sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda taʼlim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyatda bilimlarni oʻzlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir. Oliy maktab taʼlimi samaradorligini oshirishda, hamkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyishda talabalarning aqliy imkoniyatlari, zaxiralari, umumiy saviyasi, bilimlarni oʻzlashtirish darajasi, oʻqishga munosabati, oʻz- oʻzini boshqarish darajasini tadqiq qilish muhim ahamiyatga aga. Talabalarda uchraydigan ijtimoiy-psixologik, bilishga oid kasbiy qiyinchiliklar, ularning oldini olish uchun taʼkidlab oʻtilgan mezonlarni aniqlash koʻzlagan maqsadni amalga oshirish sari yetaklaydi. Chunki, oʻqituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyati koʻlami qancha keng boʻlsa, bilimlarni oʻzlashtirish darajasi shunchalik yuqori, oʻz-oʻzini boshqarish esa puxta egallangan boʻladi.

**D. Ismoilova – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

## JINOYAT SEMANTIKASINI IFODALANISHINING NAZARIY VA AMALIY XUSUSIYATLARI

Soʻnggi yillarda tilshunoslikning turli yoʻnalishlarida koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilayotganligi sohadagi insoniyatga nomaʼlum jihatlarni namoyon boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Shu jumladan jahon tilshunosligida lisoniy birliklarning til sistemasida namoyon boʻlishini tematik asosda oʻrganish masalasi yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda.

Shunday tematik izlanishlardan biri jinoyat maydonini ifodalovchi verbal vositalarni tadqiq etish hisoblanadi. Jinoyat konsepti ham insoniyat bilan hamohang tarzda shakllangan va bugungi kunda jamiyat rivoji asosida keng qamrovli tushunchaga aylanayotgan boʻlib, dunyo olimlari uni tilshunoslikning turli jabhalarida tadqiq qilishmoqda. Shuningdek, jinoyat semantikasini tashkil etuvchi leksik birliklarning ekstralingvistik xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan. Bu borada sotsiolingvistik nuqtai nazardan taqdim etilgan xulosalar til sistemasi rivojiga katta hissa qoʻshib kelmoqda.

Jinoyat olamini aynan ichidagi shaxslarning tilidan aytiluvchi va doimiy qoʻllanuvchi nostandart til qatlamini oʻrganish ham ilmiy amaliy xulosa berishda yordam beradi.

Jinoyat konsepti doirasi ham globalizatsiya jarayoni taʼsirida boyib bormoqda, kundan-kunga yangi jinoyat turlari yuzaga kelmoqda. Bu esa tabiiyki, tilshunoslikda yangi soʻzni nomlash muammosini ham hosil qiladi. Bu esa bevosita lugʻatshunoslarning oʻrganish obyektiga aylanadi. Ushbu masalani ingliz tili leksikoni asosida dalillaydigan boʻlsak, soʻnggi yillarda til lugʻat tarkibiga *environmental crime, natural resource crime, farm crime, waste crime, ecological crime, green criminology, conservation crime* kabi terminlarni kirib kelganligini guvohi boʻlamiz. [362]

Vaholanki, yuqoridagi jinoyat turlarining hammasi atrof-muhitga nisbatan boʻlgan huquqbuzarliklarning nomlanishi boʻlib, ular albatta zamonaviy ingliz tili leksikoniga xos hisoblanadi. Sababi, katta miqdordagi chiqindilarni tabiat qoʻyniga uloqtirish faqat katta zavod-fabrikalarga oid jinoyat boʻlib, bu ham albatta texnologiya rivoji bilan uzviy bogʻliqdir. Hozirgi kun uchun odatiy jinoyat turi sanalgan *cyber crime* yaʼni internet bilan bogʻliq jinoyat va uning doirasidagi boshqa lugʻaviy birliklar ham internet tizimi rivoji asosida yuzaga kelgan. Ushbu jinoyatni amalga oshiruvchi shaxs cyber criminal deb atala boshlangan.

Jahon tilshunosligida huquqiy soha terminlari va diskursini tadqiq qiluvchi lingvistikaning maxsus yoʻnalishi mavjud boʻlib, tilshunoslikning eng yangi boʻlimlaridan biri hisoblanadi. *Forensic linguistics* –

---

[361] Goziyev E.Gʻ., Toshimov R.Yu. Psixologiya oʻqitish metodikasi. T.2002

[362] Friedo JW Herbig, The phronesis of conservation criminology phraseology: a genealogical and dialectal narrative, Department of Criminology & Security Science, UNISA, 2014.

ya’ni Huquqiy tilshunoslik yoki sud tilshunosligi deb ataluvchi ushbu yo‘nalish doirasida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Huquqiy tilshunoslik-sud-huquq sohasi bilan hamkorlikda olib borilib, u tilshunoslikning fonetika, semantika, diskurs kabi boshqa yo‘nalishlariga ham katta e’tibor qaratadi.[363]

Jinoyat olamini aynan ichidagi shaxslarning tilidan aytiluvchi va doimiy qo‘llanuvchi nostandart til qatlamini o‘rganish ham ilmiy amaliy xulosa berishda yordam beradi. Shu o‘rinda ingliz tilidagi “speakers”, “longs”, “shorts”, “apples”, “killings” “stool pigeons” kabi og‘zaki nutqqa mansub bo‘lgan verbalizatorlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Qolaversa, til- har bir millatning o‘z madaniyati, tafakkuri doirasida rivojlanishini inobatga olgan holda, frazeologik qatlamga mansub birliklar- maqollar, iboralarni ham lingvokulturolik jihatdan o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, iboralar stilistik ta’sirchanligi va ma’noviy bo‘yoqdorligi bilan tinglovchiga yaxshi ta’sir qiladi. Ingliz tili ham shunday iboralarga boy til hisoblanib, jinoyat semantik maydoniga mansub iboralar esa katta salmoqli o‘rin egallaydi.

*Doing time* iborasi qamoqxonada mahbus sifatida yashash, qaysidir ma’noda vaqtni o‘tkazish sifatida ifodanadi. Shuningdek, *put behind bars*- panjara ortiga qo‘ymoq- ya’ni qamoqqa olmoq ma’nosini ifodalovchi ibora o‘zbek tilidagi so‘zma –so‘z ekvivalentiga ega. Chunki bizda ham panjara ortiga tiqmoq, yoxud panjara ortida umr o‘tkazmoq kabi iboralar ham mavjud.
Do a runner- o‘g‘irlik qilib qochib ketish ma’nosini anglatsa, o‘zbek tilida ham shu ma’nodagi iboralar talaygina. *Blow the whistle*- jinoyat haqida ma’lumot berish, *go straight*- qonunga bo‘ysunmoq semantikasini ifodalaydi. *Sharp practice* iborasi esa o‘g‘irlik yoki qalloblik qilmoq, o‘zbek tilida ham qaltis ishni amalga oshirmoq mazmunini beradi. Cat burglar – sirli ravishda binoga yoki uyga o‘g‘irlikka kirgan odamga nisbatan ishlatilsa, to cook the books- qalbaki moliyaviy hisobot tayyorlamoq ma’nolariga egadir.

Jinoyat semantikasini ifodalovchi lug‘aviy birliklarning ko‘lami kengligini hisobga olgan holda, ularning morfologik tuzilishiga ko‘ra o‘rganish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda jinoyat maydoniga mansub dominant va periferik a’zolar tub, qo‘shma va yasama so‘zlarga ajratilgan holda o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu usul orqali leksik birliklarning paradigmatik xususiyatlari ham tahlilga tortiladi va amaliy xulosalar berishda qo‘llaniladi.

**N.Z. Shakarova - Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich magistranti**

## MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH BOLALARINI IJTIMOIYLASHTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Hozirgi vaqtda zamonaviy dunyoda maktabgacha yoshdagi bola shaxsini ijtimoiylashtirish jarayoni juda dolzarb bo‘lib qoldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi yosh avlodning keyingi hayotga muvaffaqiyatli kirishi uchun asosdir: maktabda, ta'lim muassasalarida, ishda va shaxsiy munosabatlarda. Bu yoshda eng qimmatli muloqot qobiliyatlari, hayot va jamiyatdagi o‘z o‘rnini tushunish uchun asoslari yaratiladi. Bolalar xulq-atvor me'yorlari va motivlarini, o‘zi o‘sib-ulg‘ayayotgan jamiyatga mos keladigan qadriyat tushunchalarini o‘rganadi. Bola tug‘ilishidanoq jamiyatning bir qismiga aylanadi, chunki uning har qanday ehtiyojlari boshqa shaxs ishtirokida qondiriladi va u jamiyat bilan o‘zaro munosabatda bo‘lmasdan turib, insonga xos bo‘lgan fazilatlarni o‘zida shakllantira olmaydi.

Ijtimoiylashuv – bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayonidir. Ijtimoiylashuv jarayoni tom ma'noda bolaning hayotining birinchi oylaridan boshlanib, buni chaqaloq unga g‘amxo‘rlik qilayotgan odamlarni jonsiz narsalardan, yaqinlarini begonalardan ajrata boshlaganida, qo‘llarini uni qiziqtirgan narsalarga uzatganida, qarindoshlarning imo-ishoralari va yuz ifodalariga javob berishga harakat qilgan paytida, ya’ni bola oilaning bir qismi bo‘lishni o‘rganganda sodir bo‘ladi. Bolaning jamiyatning bir qismi sifatida rivojlanishini taxminan bir necha bosqichlarga bo‘lish mumkin:

---

[363] Negar Momeni, Fraud in Judicial system’ as a Language Crime: forensic linguistics approach, Academy Publisher, Finland, 2012

1,5 yoshgacha bo‘lgan bolalar atrofdagi dunyo haqida asosiy ma'lumotlarni, xususan, munosabatlar imkoniyati haqida o‘rganadilar, o‘z yaqinlari bilan muloqot qobiliyati shakllanadi.

1,5-3 yoshgacha bo‘lgan davrda chaqaloqlar tengdoshlari bilan muloqot qilish zarurati tug‘iladi. Ushbu davrda jamoada mavjud bo‘lishning birinchi ko‘nikmalari, boshqa bolalar va kattalar bilan hech bo‘lmaganda minimal darajada o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati shakllanadi.

4 yoshgacha bolgan davrda bola o‘z mustaqilligini ko‘rsatishga urinishlari bilan tavsiflanadi. U hammaga o‘zining "men"ini ko‘rsatadi. Dastlabki uch-uch yarim yil ichida bolaning shaxs sifatida uning atrofidagi odamlarga bo‘lgan motivatsiyasi va asosiy munosabati shakllanadi. Bu vaqtda bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi asosiy vositalar uning eng yaqin qarindoshlari yoki unga g‘amxo‘rlik qiladigan boshqa shaxslar, shuningdek, agar bola muntazam ravishda bolalar bog‘chasiga, to‘garaklarga boradigan bo‘lsa, bolalar jamoasi hisoblanadi.

5-6 yoshida bola boshqalar bilan to‘liqroq va faolroq munosabatda bo‘ladi, bu maqsadda ilgari olingan muloqot qobiliyatlari va nutqidan foydalanadi. Notanish odamlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi, uni o‘rab turgan madaniyatga xos bo‘lgan ijtimoiy tushunchalarini o‘rganadi.

6-7 yoshda bola kattalar va tengdoshlar bilan muloqot ko‘nikmalarini bir qadar egallagan, hissiyotlarini va xatti-harakatlarini boshqaradigan bo‘ladi. Bu esa bolaning maktab ta’limiga tayyorligidan dalolat beradi.

Bolaning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo‘lgan kishilar muhim o‘rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari, o‘qituvchilari agent bo‘lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o‘rtog‘i, hamkasblari ham qo‘shilishlari mumkin. [1]

Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, bola ijtimoiylashuvida oiladan keyingi dastlabki maskan - maktabgacha ta’lim tashkiloti hisoblanadi. N.P.Grishaeva maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoylashtirish, ya'ni ijtimoiy jamiyatda yashash qobiliyati muhimligini ta'kidlab, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun bolalar bog‘chasi hududida do‘stona jamiyatni tashkil etish yangi holatga aylanmoqda, deb hisoblaydi. [2]

Maktabgacha yoshdagi bolalik davrida to‘liq ijtimoiy muvaffaqiyatli shaxsning asoslarini yaratish maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishining vazifalari:

- Bolalarning kattalar va bir-biri bilan muloqot qilish normalari va qoidalarini o‘zlashtirishi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Jamoada mehnat qilish va undan zavqlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- "Men jamoa a'zosiman", "Men o‘g‘il yoki qizman" va hokazo ijtimoiy rollarni boshlang‘ich darajada bolalar tomonidan o‘zlashtirilishi;
- O‘z-o‘ziga ishonch, axloqiy tanlov va olingan ijtimoiy tajribani anglash, xatti-harakatlarni o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalari asosida o‘z qarorlarini qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola ijtimoiylashuvida muhim maskan bo‘lib, bu yerda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning jamiyatga moslashuvchanligini belgilaydigan barcha ta’lim-tarbiya jarayonlari amalga oshiriladi va bolaning har tomonlama rivojlanishi, barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Turg‘unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov IJTIMOIY PEDAGOGIKA ASOSLARI (o‘quv qo‘llanma) Toshkent “Fan va texnologiya” 2008 yil
2. Н. П. Гришаева, Л. Н. Белая, Е. В. Брынцева Технологии эффективной социализации детей 3—7 лет : система реализации, формы, сценарии : методическое пособие. — М. : Вентана-Граф, 2017.

**Y.Sh. Shuxratova – Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**S. Shermatova – Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi**

## DRAMATIK ASARLAR VA NUTQNING HASRAT KONSEPTI

"Tilning estetik vazifasi tinglovchida his-tuyg'ularni qo'zg'atishga xizmat qiladigan vazifasidir"[364]. Bu vazifalarni tahlil qilishda badiiy matnlar eng ma'qul manbalar hisoblanadi. Matnning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar;
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar;

Yuqorida keltirilgan vositalardan nazmiy va nasriy matnlarda ham kuzatish mumkin. Lekin dramatik matnlarda lisoniy va nolisoniy vositalardan juda keng foydalaniladi. Dramatik matnda boshqa matnlardagi kabi muallifning batafsil bayoni va hikoyasi bo'lmaydi, drama kishining faqat harakatini ifodalaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, dramatizm faqat so'zlashuvdagina emas, balki bir-biri bilan so'zlashayotganlarning jonli harakatidan iboratdir.

Drama badiiy adabiyotning asosiy turlaridan bo'lib, monolog va dialoglardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham u roman, qissa, hikoya va she'riy asarlardan tubdan farq qiladi. Dramatik asarda muallif qahramonlarning turli kayfiyatini, holatini, ayniqsa, ichki hissiyotini ham ularning nutqi va xatti-harakati orqali bayon etiladi. Dramaturg o'z qahramonlar hayoti haqida hikoya qilibgina qolmay, ularning o'zlarini jonli tarzda ifodali nutqini amalga oshirib, ularni harakatga keltiradi. Dramada barcha harakatlar qahramonlarning xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Dramatik asarlardagi qahramonlarining nutqi nasriy asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik matnlarda nutqning aniqligi, uslubi, temb va ritm, pauzalar katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bunday asarlar har bir adresatga ta'sir etmasdan qolmaydi. Adresat bunday asarlarni o'qir ekan, undagi qahramonlarning dardini o'zida his qilgan holda hayolida aktyorlardek rol ijro etgandek harakatga keladi. Qahramonlar holatiga kirishda ikki narsaga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Birinchisi – ovoz. Ifodali o'qishda ovoz shunday bo'lish kerakki, sokin o'rinlarda muloyim, g'azabli joylarda tarang, shiddatkor, his-hayajonli o'rinlarda ehtirosli, titroq holda o'zgarib turishi lozim. Asar mohiyatiga mos tarzda nutning bunday o'zgarib turilishi natijasida adresatda turli kayfiyatlarni uyg'otadi. Ikkinchisi – yuz ifodasi va harakatlardir. Bunday harakatlar aytilayotgan fikrni yanada to'ldirishga, yuz berayotgan voqealarni ko'z oldimizda yorqin jonlantirishga yordam beradi. Drama badiiy adabiyotning asosiy turlaridan bo'lib, monolog va dialoglardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham u roman, qissa, hikoya va she'riy asarlardan tubdan farq qiladi. Dramatik asarda muallif qahramonlarning turli kayfiyatini, holatini, ayniqsa, ichki hissiyotini ham ularning nutqi va xatti-harakati orqali bayon etiladi. Dramaturg o'z qahramonlar hayoti haqida hikoya qilibgina qolmay, ularning o'zlarini jonli tarzda ifodali nutqini amalga oshirib, ularni harakatga keltiradi. Dramada barcha harakatlar qahramonlarning xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Dramatik asarlardagi qahramonlarining nutqi nasriy asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik matnlarda nutqning aniqligi, uslubi, temb va ritm, pauzalar katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bunday asarlar har bir adresatga ta'sir etmasdan qolmaydi. Adresat bunday asarlarni o'qir ekan, undagi qahramonlarning dardini o'zida his qilgan holda hayolida aktyorlardek rol ijro etgandek harakatga keladi. Qahramonlar holatiga kirishda ikki narsaga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Birinchisi – ovoz. Ifodali o'qishda ovoz shunday bo'lish kerakki, sokin o'rinlarda muloyim, g'azabli joylarda tarang, shiddatkor, his-hayajonli o'rinlarda ehtirosli, titroq holda o'zgarib turishi lozim. Asar mohiyatiga mos tarzda nutning bunday o'zgarib turilishi natijasida adresatda turli kayfiyatlarni uyg'otadi. Ikkinchisi – yuz ifodasi va harakatlardir. Bunday harakatlar aytilayotgan fikrni yanada to'ldirishga, yuz berayotgan voqealarni ko'z oldimizda yorqin jonlantirishga yordam beradi.

Dramatik turda muallif epik turdagi kabi voqea-hodisalarga erkin aralasha olmaydi, ayni shu xususiyatiga ko'ra, dramaning bir butun asar sifatida o'qilishida remarkaning o'rni katta.[365]

---

[364] Yo'ldoshev M. Badiiy matn va ularning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent. 2007. – B. -42.
[365] Jalilov B. O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. – Toshkent, 1984

Remarka-fransuzcha izoh, ya'ni muallif izohi degan ma'noni bildiradi. Ma'lumki, remarkada asarda ishtirok etuvchi shaxslarning yoshi, tashqi ko'rinishi, qalb kechinmalari, so'zdagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit, payt-o'rin kabilar izohlanadi.[366]

Dramalarda qahramonlarning xarakter sifatida shakllanishida remarkalarning o'rni nihoyatda katta. Biz qahramonni adresant sifatida oladigan bo'lsak, uning ichki kechinmalarini, dard-u hasratini ifodalashda ham remarkalar ahamiyati kattadir.

Harakatni ifodalovchi remarkalar:

BOYVUCHCHA (*to'lg'onib*). Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u![367] (49-bet)

Ruhiy holatini ifodalovchi holat remarkalari:

QUMRI (*yig'lamoqdan beri bo'lib*). Bu sho'xliklaringiz o'n olti yildan beri *(qo'lini bo'g'ziga olib borib)* mana bu yerimga kelgan… Sh.Boshbekov "Temir xotin"(4-bet)

**P.Sh. Qahramonova, Sh.Sh. Qahramonova – Farg'ona davlat universiteti talabalari**

## KULGI QO'ZG'ATUVCHI AYRIM LEKSIK VOSITALAR

So'zlovchining fikrini aniq-ravshan bayon etishida leksik sath birliklari yuqori o'rin egallaydi. Uslubshunoslikda leksik stilistika so'zlarning qo'llanilish ahamiyatini, omonim, sinonim, antonim, paronim, ko'p ma'noli leksikaning; faol va nofaol, tarixiy va arxaik leksikaning; boshqa tildan kirgan birliklarning; qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika (shevaga oid so'zlar, jargon, argo kabilar)ning; emotsional-ekspressiv leksikaning; ibora va maqollarning hamda atama va termin kabilarning uslubiy xususiyatlarini, ularning to'g'ri qo'llanilishini o'rganadi.[368]

Qiziqchilar nutqida ham leksik-stilistik usul va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Qiziqchilar tinglovchida kulgi qo'zg'atish uchun leksik vositalardan keng foydalanishadi. So'z ustalari nutqida omonim, polisemantik, antonim, shevaga xos so'zlardan o'rinli foydalanib kulgi qo'zg'atish ko'zga tashlanadi.

Xalq og'zaki ijodida so'z o'yinlari omonim birliklar vositasida ko'p hosil qilinadi.[369] Qiziqchilar nutqida ham omonimlar orqali so'z o'yinlari hosil qilish hodisasini uchratish mumkin. Xususan, qiziqchi Avaz Oxun tomonidan aytiladigan latifalarda bu hodisa yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ikkita odam bir ish masalasida talashib qolishibdi. Qoziga borishdan oldin bittasi boribdi-da, qozining qo'liga qirq ming so'mni berib:

- Qozibuva, mana shu ishni biz tomonga hal qilib berasiz, - debdi.

Haligi odam ketgandan keyin ikkinchi da'vogar kelibdi-da, shart yuz mingni berib:

- Mana shu ishni biz tomonga hal qilib berasiz, - debdi.

Ertasi kuni qozi majlis qilyotgan emish, tinmay gapni aylantiryotgan emish:

- Kelishinglar endi, hammasi yaxshi bo'ladi. Kelishinglar.

Aniq gap gapirmasmish. Qirq mingni bergan odam kesatib:

- Hoy qozi domla, bir qirqib-qirqib gapirsangiz bo'lmaydimi? - desa, qozi:

- Endi, uka, qirqib gapiraman desam, manavining yuzidan o'tolmayapman-da, debdi.

Yuqorida keltirilgan dialogda foydalanilgan yuz so'zining son va insonning yuzi ma'nosida, qirq so'zining qirqmoq fe'li hamda son ma'nosini ifodalashi orqali omonimiya hodisasi kuzatilgan va shu orqali tomoshabinda kulgi qo'zg'atiladi.

Frazeologik birikmalar kulgi hosil qiluvchi lisoniy vosita sifatida, asosan, dialogik nutqda so'zlashuvchilarning o'zaro munosabati asosida ularning to'g'ri va ko'chma ma'nolari yordamida hosil qilinadi.[370] Qiziqchilar nutqida qo'llangan frazeologik birlik suhbat jarayonida ko'chma ma'noda qo'llanilib, keyin qiziqchi tomonidan to'g'ri ma'nosining izohlanishi orqali tinglovchida kulgi

---

[366] Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent, 1983
[367] M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi. 49-bet
[368] Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. - Farg'ona, 2021. - 107-bet.
[369] Dusmatov X. Askiya matnining lingvostilistikasi. Filol.fan.fal. dok…diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. 112- bet.
[370] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 17 б.

qo‘zg‘atiladi. Masalan, *Abdurayimning qizini kelin qilmoqchi bo‘lyapman-u o‘g‘limga, lekin qo‘lim kaltalik qilyapti-da* gapi dastlab dialog sifatida bayon etiladi. So‘ngra to‘g‘ri ma'nosi noverbal vositalar va so‘zlar vositasida izohlanadi. Shu yo‘l bilan frazeologik birliklardan foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo‘zg‘atiladi.

Antonimlardan maqsadli foydalanish ham kulgi qo‘zg‘atishga xizmat qilishi mumkin. *Hazilakamdan taklif qilsa, rostakamdan borib olaman* misolida hazil va rost so‘zlarining so‘z ustasi tomonidan o‘zgacha uslubda talaffuz qilinishi kulgini yuzaga keltiradi.

O‘zbek qiziqchilari o‘z nutqlarini ta'sirchan, kulgiga boy bolishi uchun turli stilistik usul va vositalardan foydalanadilar. Asosan, ta'sirchanlik, ekspressivlik yozma nutqdan ko‘ra og‘zaki nutqda yorqinroq ifodalanadi. Qiziqchilar so‘zlarni ma'lum talab darajasida talaffuz qilish, so‘zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko‘ra turlaridan, frazeologik birliklardan keng foydalanish, ko‘chma ma'nodagi qo‘llangan birliklarning to‘g‘ri ma'nolarini izohlash, uslubiy hodisalardan maqsadli foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo‘zg‘atishga muvaffaq bo‘ladilar.

**D.A. Maxmudov - Qarshi davlat unversitetining Pedagogika instituti o‘qituvchisi**

## ILK O‘RTA ASRLARDA ZARAFSHON DARYOSINING O‘RTA HAVZALARIDAGI YIRIK AHOLI MASKANLARI

Bizga ma’lumki Ilk o‘rta asrlarda zarafshon daryosining havzalaridagi o‘zining bir yoki bir necha shaharlar va rustoqlarini o‘rganish va tadqiqot jarayonida dolzarblik kasb etmoqda, va o‘rganilib kelinmoqda. Bu davr tarixini o‘rganish muhim hisoblanadi. Ushbu mulkliklardan deyarli har biri o‘zining muayyan chegarasi boshqaruvchi sulolasi, boshqaruv markazi, tanga zarbi va hokazo kabi hokimiyat atributlari bilan o‘zini namoyon qiladi. Miloddan oldingi so‘nggi mingyillikning VI – V asrlaridan to milodning IV – V asrlarigacha, qariyb ming yillik bir vaqt mobayonida Sug‘diyona, Sute (Sug‘d) nomlari ostida qadimgi fors, yunon va xitoy yilnomalarida tilga olingan Sug‘d, asosan, Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan iborat bo‘lgan qadimgi tarixiy-geografik viloyat sifatida bilinadi. Ilk o‘rta asrlarga kelib qadimgi turk, sug‘diy, tibet, pahlaviy (o‘rta fors), yunon, suryoniy va arman tillaridagi yozma manbalarda tilga olina boshlagan[371] Sug‘d siyosiy hayotida bir qator o‘zgarishlar yuz beradi. Ko‘p asrlar davomida muayyan bir siyosiy uyushma sifatida dastlab asosan Samarqand, Kesh va Naxshab kabi hukmdorlik yoki mulkliklardan iborat bo‘lgan Sug‘d vohasi bu davrga kelib, xususan, milodiy VI – VIII asrlarda ushbu ma’muriy-siyosiy birliklar bilan birga Kushoniya, Ishtixon, Kabudon, Fay, Maymurg‘, Panch kabi yana bir qator mulkliklardan tashkil topgan hudud sifatida qayd etila boshlaydi.

Ushbu mulkliklar orasida ayrimlari bo‘yicha nisbatan kam tadqiqotlar olib borilgani uchun ularning egallagan hududi, boshqaruvchi sulolasining kelib chiqishi, tanga-pul tizimi borasida ba’zi anglashmovchiliklar kelib chiqqan. Shunday ma’muriy-siyosiy birliklar orasida Maymurg‘ va Panch bilan bog‘liq muammolar haligacha o‘zining to‘laqonli yechimini topmagan. Ayrim tadqiqotchilar ularning har ikkalasiga alohida-alohida hukmdorlik – mulklik sifatida qarasalar, ayrim tadqiqotchilar esa ularni bitta siyosiy uyushma sifatida talqin qiladilar. Bunday farqli yondashuvlar nafaqat mamlakatimizda, balki xorij sug‘dshunosligida ham uchraydi. Masalan, fransiyalik sug‘dshunos E. de la Vessiyer Maymurg‘ va Panchning bir muddat yagona hukmdorlik bo‘lganligini olg‘a suradi[372].

---

[371] Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 166 б.; Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962. – 222 с.; Согдийские документы с горы Муг. Чтение. Перевод. Комментарий. Вып. III. Хозяйственные документы. Чтение, перевод и комментарии М. Н. Боголюбова и О. И. Смирновой. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963. – 132 с.; Moravcsik G. Byzantinoturcica. II. – Berlin: Akademie-Verlag, 1958. – 376 s.; Пигулевская Н. В. Византия на путях в Индию (Из истории торговли Византия с Востоком в IV-VI вв.). – М-Л.: Изд-во АН СССР, 1951. – 410 с.; Тер-Мкртичян Л. Х. Армянские источники о Средней Азии V – VII вв. – М.: Наука, 1979. -97 б.; Абдуҳолиқ Абдурасул ўғли. Туркий халқлар тарихига оид тибетча ҳужжат // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1997. – №6. – Б. 72-77; Pahlavi Texts. The Bundahis-Bahman Yast, and Shayast La-Shayast. Trans. by E. W. West. BSE. – Delhi, 1987. – Vol. 5. Part 1. – 438 p.

[372] Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura 2002. – P. 364–372.

B. G'oyibovning yozishicha, alohida hukmdorlik bo'lgan Maymurg' Zarafshon daryosining yuqori havzasidagi, ushbu daryoning janubiy qirg'og'ida joylashgan Varag'sar va Sanjarfag'n rustoqlarini o'zi ichiga olganligi va ehtimol Panjikent ham uning tarkibida bo'lgan[373]. Ushbu tadqiqotchiga ko'ra, o'zining muhim siyosiy mavqeiga qaramasdan xitoy yilnomalari, arab va fors manbalarida Panch nomi eslatilmaydi. Shu bilan birga, B. G'oyibov ularning har ikkalasini alohida-alohida hukmdorlik sifatida talqin qilib, Panch - Samarqand hukmdorligidan sharqda, Maymurg' esa Samarqandning janubi-sharqiy tomonida joylashgan siyosiy uyushmalar sifatida keltirib o'tganligi ko'zga tashlanadi[374].

Darhaqiqat, xitoy yilnomalarida Mi yoki Mimoxe (Maymurg')[375], Shatial (Pokiston) xarsangtoshlaridagi sug'diy bitiklarda Maymurg' nomi ko'p uchrashi[376], араб va fors manbalarida asosan Maymurg' tilga olinishi[377], Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida esa aksincha Maymurg' nomi uchramasdan: asosan Panch muayyan bir siyosiy uyushma sifatida namoyon bo'lishi[378] va hokazolar tadqiqotchilarni ularning yagona hukmdorlik yoki bir-biridan alohida bo'lganligi masalasida bir qarorga kelishiga to'sqinlik qiladi. Shu o'rinda yana bir omil shuki, islomdan oldingi sug'diy yozuvli O'rta Osiyo tangalarida Panch nomi pncy shaklida uchrasa-da, Maymurg' nomi bilan zarb qilingan tangalar bo'lganligi shu paytgacha aniqlanmagan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Xitoy va unga qo'shni hududlar - Sharqiy Turkiston va Shimoli-Sharqiy Hindistondan topilgan, sug'diy diasporaga taalluqli sug'diy tilli epigrafik yodgorliklar (midodiy III–IV asrlarga oid "Eski xatlar", 639 yilga oid Chinanchkand (Turfon) hujjati, Yuqori Hind / Shatial qoya yozuvlari va h.k.)da Panch nomi uchramasdan, doimo Maymurg' toponimining tilga olinishi, buning aksi o'laroq Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida bu hududga nisbatan Panch nomi ishlatilishi bir muddat har ikkala toponimning geografik va siyosiy jihatdan ayni hududga nisbatan qo'llanilganidan darak beradi. Panch muhitida yaratilgan sug'diy hujjatlarda Samarqand, Ustrushona kabi yirik joy nomlari uchrashi, hatto, Yuqori Zarafshon va Urgut atrofidagi kichik qishloqlar nomlari qayd etilishi barobarida Maymurg' nomining uchramasligi tadqiqotchilar orasida turli munozaralarni keltirib chiqaradi.

**D. Asqarova - Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GENDER SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Bugungi kunda davlat siyosati darajasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan gender masalalari hech kimning e'tiboridan chetda qolmayapti. Chunki butun dunyoda aynan gender siyosati olib borilgan va davom etmoqda. O'zbekistonda ham ushbu masalaning ustuvor ahamiyat kasb etayotganligining sabablari ko'p. Gender tenglik bu faqatgina ayollar, ular manfaatlarining qadrsizlanishigina emas, balki erkaklar mafkurasi bilan ham ifodalanadi. Azaldan o'zbek xalqiga xos xususiyat sanalmish ayolga erkakka nisbatan quyi nazar bilan qarash, uning imkoniyatlarini cheklash, erkinligiga raxna solish holatlari, afsuski, hali hamon ucharaydi. Shuning uchun gender masalasini avvalo erkak dunyoqarashiga ta'sir etishdan boshlash muhimroqdir. Qachonki, qarama-qarshi jins vakillarining ayolga nisbatan munosabati tenglik xususiyatini ko'rsata olsa, ana shunda inqilobiy yangilanishlar yuzaga chiqishni boshlaydi. Ya'ni, ayollarning har jabhadagi imkoniyatlari aniq ko'zga tashlanishi mumkin bo'ladi.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik – bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir.

---

[373] Ғойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. – Самарқанд, 2020. – Б. 13.
[374] Ғойибов Б. Суғд тарихидан лавҳалар. ..., б. 3, 77, 156; Ғойибов Б. Маймурғ тўғрисида тарихий маълумотлар // Ўзбекистон археологияси, №1 (6). – Самарқанд, 2013. – Б. 105-110.
[375] Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М. - Л.: Изд. АН СССР. – том I. – 1950. – С. 287.
[376] Vaissière E. de la. Sogdian traders: a history. Translated by J. Ward. (Handbook of Oriental studies = Handbuch der Orientalistik. Section eight, Central Asia; v. 10). – Leiden – Boston: Brill, 2005. – P. 120.
[377] Aydınlı O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yıkılışına kadar (93 – 389 / 711-999). 2. Basım. – Ankara, 2018. – S. 52.
[378] Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent …, p. 364–372.

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi – bu patriarxal tizimidan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi.[379]

Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng imkoniyatlarni yaratishdan iborat.[380]

O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019 yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019 yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62 o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etish va 15-19 yoshdagi har ming o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.[381]

O‘zbekistonda 2019 yil 2 sentabrdan 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan. [382]

Maktabgacha yoshda gender masalasining ilgari surilishidan maqsad, ko‘rinib turibtiki yuqoridagi holatlar va ko‘plab statistikadan tashqari holatlarning oldini olish uchun erta yosh bosqichlaridan bolalarda gender xususiyatlarini shakllantirib borish sanaladi. Maktabgacha yoshda gender masalalasi, avvalo, tarbiyachining bolalar bilan munosabati ko‘rinishlari bilan ifodalanadi. Chunki tengdosh o‘g‘il qizlarning o‘zaro muomala munosabatlari dastlabki shakllanish jarayonida bo‘ladi. Shuni hisobga olgan holda tarbiyachi o‘g‘il bolalarda erkaklik xususiyatlarini oqilona xarakterda, qizlarda esa ayollik nafosatini tarbiyalashga muhim e’tibor qaratishi lozim.

O‘g‘il bolalarni qizlarga nisbatan hurmat va himoya ruhida shakllantirish, ularning qarashlarida zo‘ravonlik xususiyatlariga barham berish kelajakda yetuk ma’naviyatli shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta’minlaydi.

Afsuski, bizning o‘zbekona madaniyatimizda qiz bolaga nisbatan erkinlik masalasi ko‘p tomonlama cheklanadi. Do‘st tanlash, hayotiy rejalarini tuzish, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qizlar turli qarama-qarshiliklarni yengib o‘tishlari kerak bo‘ladi. Shuning uchun ko‘plab qizlar mashaqqatlardan qo‘rqib itoat qilishni afzal ko‘radi.

Maktabgacha yosh davridan boshlab, kichik yoshdagi qizaloqlarda qat’iyat va o‘ziga bo‘lgan ishonch sifatlarini shakllantirishga e’tibor berish muhimdir. O‘ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalangan qizlar hayotiy qiyinchiliklardan oqilona o‘tib borishda shaxsiy pozitsiyasini ko‘rsata oladi, muammolarga yechim topishda qiynlamaydi. Masalan, ayrim qizaloqlarning o‘g‘il bolalar bilan do‘st tutinishiga tarbiyachilar salbiy nazar bilan qaraydi. Ammo gender masalasining kichik nuqtasi mana shu yoshda qo‘yilayotgan qadamlarda ifodalanadi. Qachonki, qaysidir qiz va o‘g‘il do‘stlik rishtasini bog‘lay olyaptimi, demak bunga ijobiy nazar bilan qarash lozim. Do‘stlik tushunchasining mohiyatini bolaga singdirishga nisbatan harakat qilinishi zarur. Yigit va qiz o‘zaro munosabatlari mohiyatini bolalarga tushuntirishga harakat qilishi kerak.

Bugungi kunda yurtimizda ajralishlarning asosiy sabablari sifatida o‘zaro kelisha olmaslik, moddiy qiyinchiliklar va uchinchi shaxs aralashuvi natijasi hisoblanmoqda. Ammo bu holatlarning barchasining tub mohiyati – yoshlarda mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmasining yo‘qligi, o‘z qarorlarini ongli tarzda qabul qila olmasligidir. Shu bois har bir shakllanayotgan organizmni insoniy sifatlarni o‘zida mukammal shakllantira olgan shaxs sifatida voyaga yetishida tarbiya jarayoniga muhim e’tibor berilishi davr talabi sanaladi.

Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatda muhim bir tamoyilidir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo‘q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhimdir, balki boshqa sohalarda ham rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda quyidagilar o‘rtasida obyektiv qarama-qarshiliklar mavjud:

- ta'lim muassasalarida gender farqlarini hisobga olmagan holda bolalarni o‘qitish va tarbiyalash amaliyoti asosida tarbiyalashda jamiyatning obyektiv ehtiyoji;

---

[379] Kalabixina Irina Yevgenevna Kandidat ekonomichiskix nauk, dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomichiskogo fakulteta MGU

[380] Kalabixina I.Y. Kratkiy ponyatniy slovar po gendernim issledovaniyam// Sotsialniy pol: ekonomicheskoe I demograficheskoye povedeniye Uchebno-metodicheskie materiali po kursu, M, 1998

[381] Gender tengligi bo‘yicha butun jahon statistikasi

[382] https://lex.uz/docs/-4494849 Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari tog‘risidagi O‘RQ-562, 02.09.2019

- maktabgacha yoshdan boshlab gender tarbiya zarurati va oʻspirin yoshigacha boʻlgan bolalarni gender tarbiyasi uchun pedagogik shart-sharoitlarning yetarli darajada nazariy rivojlanishi oʻrganish ostida jarayonining ilmiy-uslubiy qoʻllab-quvvatlash va amaliy talab yoʻqligi,
- oʻrganish ostida jarayonning ilmiy-uslubiy qoʻllab-quvvatlash va amaliy talab yoʻqligi, bolalar uchun gender ta'lim amaliy jihatlarini yaratilishiga ehtiyoj mavjudligidir.[383]

Ushbu izlanishlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda gender masalalariga ustuvor vazifa sifatida yondashib, ta'lim berishning ahamiyatli mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi oldimizda turibti. Bu borada, avvalo, oliy ta'lim muassasalarida yetishib chiqayotgan kadrlar ma'naviy-ilmiy salohiyatini kengaytirish, ularni keljakdagi faoliyatga har tomonlama tayyorlashni davr taqozo etadi.

**S.R. Kamolov - Fargʻona davlat universiteti magistratura 2-bosqich talabasi**

## OʻZBEK SHE'RIYATIDA ADABIY ALOQALAR VA AN'ANA NAZARIYASIGA OID

Oʻzbek adabiyotiga yangi janrlarning kirib kelishi va taraqqiy etishi XX asrda bardavom boʻldi deb ayta olamiz. Bu asrda millatimiz shoirlari ijodiy izlanishlari davomida bir qancha lirik janrlarni "kashf etdilar" yohud rivojlantirdilar. Avvalo, u qaysi janr boʻlmasin, shoirning biror bir lirik janrda mahorat koʻrsatishi uning oʻsha janr boʻyicha qanchalik izlanishlar olib borishiga bogʻliq. Oʻzbek she'riyatining taraqqiyotini ta'minlash yoʻlida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan katta-yu kichik shoirlarning barchasi inson ruhiy olamining eng chigal, eng botiniy nuqtalarini poetik tadqiq etish uchun intilmoqdalar. Bu intilish ularning obrazli kashfiyotlaridagina emas, balki ana shu obrazli topilmalarni yangi-yangi she'riy shakllar, muhimi, qulay shakllarda ifodalash yoki tasvirlashga boʻlgan intilishlarida namoyon boʻlmoqda.

Jahon she'riyatining badiiy tajribalarini oʻzlashtirish natijasida paydo boʻlgan kichik poeziyamizning terset, tanka, xokku kabi janr va shakllari oʻzbek shoirlari ijodida mustahkam oʻrin egalladi. Bu she'riy shakllarning ayrimlari, masalan, sonet, 30-yillar oʻzbek poeziyasida ilk bor namoyon boʻlgan boʻlsa-da, (Usmon Nosir ijodida), ular asosan asrimizning soʻngi choragida oʻzbek shoirlarining poetik zahirasida katta mavqe topib bordi va she'riyatimizning faol shakllariga aylana bordi.

Navqiron she'riyat har bir davrning poetik izlanishlariga etalon boʻlib xizmat qiladi.[384] U bevosita yoki bilvosita adabiy aloqalar ta'sirida yangi poetik gʻoyalarni ilgari suradi. Keyingi davr mobaynida oʻzbek poeziyasiga kirib kelgan yangi she'riy janr va shakllar, eng avvalo, adabiyotimizning iste'dodli shoirlari tufayli, ular izlanishlarining samarasi oʻlaroq shakllandi va rivojlandi. XX asr boshida terset (uchlik) Oybek tufayli, sonet Usmon Nosir tufayli, "pillapoyali" she'rlar esa Hamid Olimjon va Gʻafur Gʻulom tufayli oʻzbek poeziyasiga kirib kelganidek, xokku, tanka, oktava va verlibr shakllari ham Abdulla Sher, Anvar Obidjon, Farida Afruz, Faxriyor, Abdunabi Boyqoʻziyev, Rauf Parfi keyinroq Nodir Jonuzoq kabi shoirlar tomonidan ilk bor oʻzlashtirildi va bu bilan oʻzbek she'riyati zahirasi ancha boyidi. Va bu bilan koʻhna Sharq adabiyoti bagʻrida kurtak ochgan oʻzbek she'riyati adabiy aloqalar ta'sirida xalqni ilgʻor she'riy madaniyatga yaqinlashtirdi. Lekin bu adabiy aloqalar ta'sirida kirib kelgan lirik janr va shakllar oʻzbek milliy an'analaridan vos kechishga yoʻl qoʻymadi, aksincha milliy va xalqaro oʻzaro aloqalar bir-biriga chambarchas bogʻlanib yangi badiiy birlikni hosil qildi.

She'riyatimizda kechayotgan bunday shakliy va uslubiy izlanishlar masalalari N.Karimov, M.Ibrohimov kabi adabiyotshunos olimlar tomonidan bir qadar oʻrganilgan. She'riyatning miqyosi mavzuning ulkanligi, obrazlarning katta-kichikligi, tuygʻularning yuksakligi bilan emas, balki obrazning yangi qirralarini kashf etishi bilan belgilanadi,- deb yozgan edi atoqli ispan shoiri Federiko Garsia Lorka.[385] Mana shu ma'noda oʻzbek she'riyatining taraqqiyotida janriy izlanishlar olib borgan ijodkorlarning barchasi yangi-yangi poetik obrazlar yaratish, mavjud an'anaviy obrazlarning yangi qirralarini kashf etish yoʻlidagi intilishlarni kashf etadi. Negaki, haqiqiy ijodkor ana shunday tafakkur mahsulini betakror shaklda ifodalashga harakat qiladi.

---

383 Teacher,Muallim, Uchitel, №8 (2021) DOI http//dx.doi.org, D.M.Yuldasheva, D.Asqarova, Maktabgacha ta'limda gender masalalari xususida, 33bet

384 Karimov N. Oʻzbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.,T..,"Fan".,1983.104-bet.

385 Лорка Федерико Горсиа.Избранные произведения в 2 томах. Т.1.М.,1986.С.398-399.

O‘zbek she’riyatida adabiy an’analar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, Sobiq sovet davrida klassik she’riyatimiz vazni bo‘lgan aruz vaznini ko‘pchilik "taqiqlangan" yoki bu vaznda mo‘jazgina she’rlar bitish mumkin emas yohud amri mahol ish edi. Ammo Erkin Vohidov aruz vaznining yangi imkoniyatlarini inkor etuvchi sharoitda inson ruhiy olamini yanada rang- barang tasvirlashda aruzdan foydalanishga jur’at etdi. U bu ishni birinchi bo‘lib boshlab berdi va keyinchalik boshqa shoirlar ham bu jarayonga befarq bo‘lishmadi (masalan, Jamol Kamol aruzning muxammas, musaddas, to‘rtlik janrlarida muvaffaqiyatli qalam tebratdi). Natijada aruz vazni o‘zining yangi qirralarini namoyon eta boshladi va umuman, faqatgina keksa avlodning emas shakllanib borayotgan o‘zbek she’riyatining ham mulki bo‘lib qoldi. Shunday qilib aruz va u bilan bog‘liq she’riy janr va shakllar ( g‘azal,muxammas, musaddas) hozirgi o‘zbek poeziyasida keng tarqalgan janrlar guruhini tashkil etdi.

**N.X. Egamova - Farg‘ona tumani 54-maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi**

## BOSHLANG‘ICH SINFDA MASALALAR YECHISH USULLARI

"O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida’’gi Nizomda ta’kidlanganidek; "Boshlang‘ich ta’lim o‘qish, yozish, sanash, o‘quv faoliyatining asosiy malaka va ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish uquvi, nutq va xulq – atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini egallab olishini ta’minlashga da’vat etilgan."[386] Shu asosga ko‘ra boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umum-madaniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchi bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakillantirishga,hatotda qo‘lay olishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zallikni xis eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga matematika o‘rgatadi.

O‘quvchi bola maktabdagi matematika darslaridagi mashg‘ulotlarning birinchi kunidanoq masala bilan uchrashadi. 1-sinf o‘quvchilari bilan qilinadigan dastlabki suhbatlarining birida o‘qituvchi o‘quvchi qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida eng soda masalaga murojaat qiladi: Masalan, "Menda 5 ta daftaring bor edi, men bitta daftar berdim. Mendagi daftarlar nechta qoldi?".Bunda o‘qituvchi amaliy va ko‘rgazmali tushuntirib beradi.

Maktabda o‘qitishning boshidan oxirigacha matematik masalalar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni to‘g‘ri shakllantirishga uni o‘rab turgan muhitning o‘zaro aloqadorligining turli tomonlarini chuqurroq aniqlashga yordam beradi, o‘rganilayotgan nazariy qoidalarni qo‘llanish, kuzatilayotgan hodisalarda har xil sonli bog‘lanishlarni o‘rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga masalalar yechish mumkin bo‘lgan masalalar tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi.

Matematik masalalar sodda va murakkab(tarkibli) masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan yechish mumkin bo‘lgan masalalar sodda masalalardan jumlasiga kiradi. Bir nechta sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar murakkab(tarkibli) masalalar deyiladi.[387]

Har qanday sodda masalalarga doir ikkita teskari masala tuzish mumkinki ularning har biriga o‘sha sharti bo‘yicha izlanayotgan son sifatida esa to‘g‘ri masala shartidan ma’lum bo‘lgan son qatnashadi 388. Masalan, "Botirning 10ta kitobi bor edi. U o‘rtog‘i Oybekga 5 tasini berdi. Nodirning nechta kitob qoldi?" masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Birinchisi: "Botirning bir nechta kitobi bor edi. U o‘rtog‘i Oybekga 5 tasini bergandan keyin unda 5 ta kitob qoldi. Oldin Botirda nechta kitob bor edi?". Ikkinchisi: "Botirda 10ta kabutar bor edi. U bir nechtasini o‘rtog‘i Oybekga bergandan so‘ng o‘zida 5 ta kabutar qoldi. Botir o‘rtog‘iga nechta kitob bergan?" Bu masala berilgan birichi masalaga nisbatan, shuningdek ikkinchi masalaga nisbatan ham teskari masala sifatida qarash mumkin.

[386] "O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida’’gi Nizom 2020
[387] Bikbayeva N. U, Sidelnikova R. I, Adambekova G. A "Boshlang‘ich sinflarda maematika o‘qitish metodikasi", T – 1996

Masalani yana bir marta oʻqib chiqqandan keyin oʻquvchilardan biriga masalada nima haqida soʻralmoqda deb savol berish, ikkinchisiga savolni takrorlashni, uchinchisiga masalada nima maʼlumligini aytishni taklif qilish kerak, soʻngra bir qancha oʻquvchiga masala takrorlashni taklif qilish kerak. Shunday mashqlardan keyin oʻquvchi bolalar masalaning sharti va savolini qanday ajratish kerakligini tushunadilar.

Bir masalaning bir qancha har xil yechimlarini topishni oʻquvchilarga individual yaqinlashishning metodik usullaridan biri deb ham hisoblash mumkin. Haqiqatdan ham, bir gruppa oʻquvchilarga masalani har xil usul bilan yechishni taklif qilaylik. Baʼzi oʻquvchilar yechishning bir ikkita usulini, baʼzi oʻquvchilar bundan koʻproq usulini topa oladilar. Masala yechilishining har xil usullarini topishga oid topshiriqning bajarilishi har qaysi oʻquvchiga oʻz mahoratini koʻrsatishga yordam beradi, imkoniyat yaratadi.

**Z.Gʻ. Sulaymonova – Fargʻona davlat universiteti 2-bosqich magistranti**

## TIL SATHLARIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI FUNKSIYANING YUZAGA CHIQISHI

Birlamchi va ikkilamchi funksiya tushunchasi tilshunoslikka dastlab nemis olimi Slotti tomonidan olib kirilganligi tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan[389]. Tilshunos olim Y.Kurilovich tomonidan ham birlamchi va ikilamchi funksiya borasida asosli fikrlar aytib oʻtilgan. Olimning fikrlariga asosan, har bir soʻz turkumida asosiy, birlamchi sintaktik funksiya mavjud boʻladi. Birlamchi sintaktik funksiya soʻz turkumining leksik ma’nosidan kelib chiqadi va bu ma’noning oʻziga xos transpozitsiyasi sifatida gavdalanadi[390]. Tilshunos olim Y.Kurilovich olgʻa surgan birlamchi va ikkilamchi funksiya haqidagi gʻoya tilshunos V.Gumboldtning tushunishlik va tushunmaslik antinomiyasi va A.A.Potebnyaning yaqin va uzoq ma’no haqidagi qarashlari bilan chambarchas bogʻlanadi. A.A.Potebnya birinchi ma’noni yaqin, ikkinchisini esa uzoq ma’no hisoblaydi. Uning fikricha, yaqin ma’no xalqona, uzoq ma’no shaxsiydir.[391] Shu asosda u tilda umumiylik va individuallik oʻrtasidagi munosabatni belgilaydi.

Birlamchi va ikkilamchi funksiya ifodalay oladigan birliklar polifunksionallik hodisasining yuzaga chiqishi uchun zamin yaratadi. Biz quyida affiksoidlar hamda koʻmakchi fe’l vazifasida kela oladigan fe’llarning birlamchi va ikkilamchi funksiyalari haqida fikr yuritmoqchimiz,

Affiksoidlarning bir qismi soʻz yasash vazifasida va shuningdek, soʻz maqomida kelsa, yana bir guruhi soʻzga qoʻshimcha grammatik ma’no yuklash bilan birgalikda mustaqil holatda qoʻllanib, lugʻaviy ma’no ifodalash xususiyatiga ega. Shu jihatdan affiksoidlarni polifunksional lisoniy birliklardan biri sifatida e’tirof etish oʻrinlidir. Ular ham qoʻshimcha vazifasini bajarishi, shuningdek soʻz maqomida ham kela olishi bilan boshqa morfemik birliklardan farqlanib turadi.

Masalan, *-xona, -noma, -poya* kabi birliklar affiks xarakterida boʻlib, soʻz yasovchi morfema vazifasini bajara oladi:

*Endi biz tashqari havlini qoʻyib, mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz.*(Abdulla Qodiriy)

*Qushbegi oʻzining yozilib qoʻyilgan hukmnomasini qoʻligʻa olib, oʻqishgʻa hozirlandi.* (Abdulla Qodiriy)

*Rimni alishmasman bedapoyangga.* (Muhammad Yusuf)

Quyidagi parchalarda esa, ayni shu birliklar mustaqil soʻz vazifasida kelmoqda:

*Qatorasiga ikki xona, ikkovini bir-biriga ulaydigan eshiklar katta ochiq…birinchi uy ikkinchisidan kengroq, unda katta bir stol, oppoq dasturxon yopilgan, usti toʻla har xil ovqat, shirinlik va ichkiliklar…*(Choʻlpon)

*Bu noma ertasi kuni xonga yuboriladirgʻan boʻlib, bunga maxsus kishi belgulandi.* (Abdulla Qodiriy)

*Kunduzlari, odatda, tush vaqtiga borib, bola serpoya shiroljinlar gʻuj boʻlib oʻsgan tomonga joʻnashni yaxshi koʻrardi.* (Chingiz Aytmatov)

---

[389] Gʻanieva D.A.Oʻzbek tilidagi fe’lning funtsional shakllarida sinkretiklik va polifunktsionallik:Filol.fanlari nomzodi… diss. avtoref. – Toshkent, 2012

[390] Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М.,1962 – С. 61

[391] Потебня А.А. Из записок по русской грамматики.Т.1 –2 – М:ГУПИ Министерства просвецения РСФСР, 1953. – С.20.

Shuningdek, fikrimizcha, fe'l so'z turkumi doirasida ikkilamchi funksiyaning yuzaga chiqishini ko'makchi fe'l vazifasida ham kela oladigan ba'zi fe'llarda kuzatish mumkin. Masalan, ba'zi fe'llar o'zining atash ma'nosini yo'qotmagan holda ko'makchi fe'l vazifasida keladi. "O'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan (mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat ko'makchi fe'l sifatida qo'llanadigan) birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi va turli-tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi[392]... " Ko'makchi fe'l vazifasida kelish ayrim fe'llarning ikkilamchi funksiyasidir. Ko'makchi fe'l vazifasida kelgan fe'llar o'zining atash ma'nosini faqat kontekst ichidagina yo'qotib, unda ko'makchilik vazifasi faollashadi:

*– O'zingiz to'g'risini so'zlatib, tag'in nega mendan xafa bo'lasiz, oyi, deb muqobala qila boshlagan edi, O'zbek oyim yana gurullab ketdi…*(A.Qodiriy)

*Yuragi yomon g'ash bo'lib ketganidan keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko'rdi.* (Cho'lpon)

Yuqoridagi gaplarda ***muqobala qila boshlagan edi, gurullab ketdi, g'ash bo'lib ketganidan, chiday olmasdan va aytib ko'rdi*** birikmalari ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasini shakllantirgan. *Boshlamoq, ketmoq, olmoq, ko'rmoq* fe'llari ko'makchi fe'l vazifasida kelmoqda. Ko'makchi fe'l vazifasida kelgan fe'llar quyidagi ma'nolarni ifodalamoqda: *boshlamoq* fe'li ko'makchi fe'l vazifasida kelib, ish-harakatning boshlanganini, *ketmoq* ko'makchi fe'li yetakchi fe'ldagi harakatning boshlanganini va ma'noning kuchayganini, *olmoq* fe'li ravishdoshning bo'lishsizlik shakli bilan kelib, inkorni, *ko'rmoq* fe'li yetakchi fe'ldagi harakatni sinash, bilish uchun bajariluvchi harakatni ifodalayapti.

Yuqoridagi fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida kelganda birlamchi funksiyasi, ya'ni mustaqil fe'l so'z turkumi sifatidagi atash ma'nosini ifodalash uchun emas, balki asosiy fe'lga qo'shimcha grammatik ma'no yuklash maqsadida qo'llaniladi. Ammo shu bilan birgalikda ko'makchi fe'l vazifasida kelganda ham asl ma'nosini ma'lum darajada saqlab qolganini kuzatishimiz mumkin.

**M.O. Dadaxanova - O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti tayanch doktoranti**

## HUDUDIY NODAVLAT TELEKANALLAR TARIXIY TARAQQIYOTI

O'zbekistonda nodavlat televideniyelar 90-yillarning boshlarida vujudga keldi. Nodavlat radiokanallar taraqqiyoti dastlab poytaxtda jadal rivojlangan bo'lsa, nodavlat telekanallar, asosan, viloyatlarda taraqqiy etdi. Keyinchalik poytaxtda ham paydo bo'la boshladi. Mamlakatimizda xususiy telekanallar evolyutsiyasini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

I bosqich. O'zbekistonda xususiy telekanallarning paydo bo'lish davri (1990-1997-yillar);

II bosqich. Poytaxtda xususiy telekanallarning rivojlanishi va viloyatlardagi nodavlat telekanallarning inqiroz davri (1997-2010-yillar);

III bosqich. Xususiy telekanallarning tiklanish va taraqqiyot davri (2010-yildan to hozirgi davrgacha).

Xususiy telekanallar evolyutsiyasining dastlabki davri 1990-1995-yillarga to'g'ri keladi. Biz bu davrni "O'zbekistonda xususiy telekanallarning paydo bo'lish davri" deb nomladik. Viloyatlarda faoliyat olib borayotgan telekanallardan eng birinchisi Samarqandda paydo bo'lgan. Shunday qilib, respublikamizdagi birinchi xususiy televideniye STV hisoblanadi. Shu bilan birga dastlabkilaridan yana biri - Toshkent viloyatidagi "Chirchiq TV" jamoasidir. Shahar telemarkazi 6 kishidan iborat tashabbuskor guruh o'z televideniyesini tashkil etish uchun g'ayrat bilan kirishgan mahalda mustaqillikning ilk shabadalari endi esa boshlagan edi. Ulkan o'zgarishlar, yangiliklar davrida Chirchiqda 1990-yil dekabrda televideniyening ochilishi o'ziga xos voqea bo'ldi. Chirchiq shahar hokimiyatining muassis sifatida televideniyeni har jihatdan qo'llab-quvvatlashi natijasida Chirchiq televideniyesi ijodkorlari telelaboratoriya tajribalarini o'rganishdi: montaj, tasvir jarayonlarini bevosita shahar sharoitida sinovdan o'tkazishdi. 1994-yili o'z ko'rsatuvlari, telemarkazning o'z efir vaqti yuzaga keldi. Maqsad: poydevori mustahkam, doimiy va hammaga manzur televideniyeni vujudga keltirishdan iborat edi. Televideniye nafaqat Chirchiq shahri, balki Qibray va Bo'stonliq tumanlarini ham qamrab olgan. Qariyb 120.000 kishilik tomoshabinlarga ega bo'lib, eng faol televideniyelardan biri sifatida nom qozondi. Shu zayl viloyatlarda ham ketma-ket telekanallar ochila boshladi.

---

[392] Hojiyev A.Fe'l. Toshkent: Fan, 1973. – 14-15 b.

Shiddat bilan kechayotgan hozirgi kunimizda vaqt biz uchun asosiy masala. Televideniye sohasidagi asosiy muammolardan biri koʻrsatuvlar xronometraji 10-15 daqiqada aytish mumkin boʻlgan fikr 30-40 daqiqa davom etadi. Oldi-qochdiga, safsataga boy koʻrsatuvlar tomoshabinga hech qachon qiziq boʻlmagan. Eskirmaydigan deb qaraladigan mavzular bor... Ular aslida tomoshabin me’dasiga tegib ulgurgan: kiyinish madaniyati, maktab formasi, “ommaviy madaniyat” tahdidlari, ekologiya va shunga oʻxshash mavzular. Ularni tahlil qilish emas, odamlar koʻrsa, oʻrnak oladigan loyihalar bilan yangicha gʻoya va yondashuvlar bilan tomoshabinga yetkazishi kerak. Bu borada xususiy telekanallar qator yutuqlarga erishmoqda.

Tok-shoular “Bu yil Yangi. Yangi nigoh” media-dasturidan oʻrin olgan edi. OʻzEOAVMA a’zolarining umumiy yigʻilishida barcha hududiy nodavlat telekanallar bilan hamkorlikda yagona teletarmoq yaratish rejasi bir ovozdan qoʻllab-quvvatlangandi.

Ma’lumki, OʻzEOAVMA ellikka yaqin nodavlat markaziy va hududiy teleradiokanllarni oʻzi ichiga oladi. “Renessans TV” teletarmogʻi mamlakatimizning turli hududlarida faoliyat koʻrsatayotgan 14 ta nodavlat telekanalni oʻzida birlashtiradi. “Renessans TV” orqali ushbu telekanallar tomonidan uzatilgan, hududlardagi yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi xabar va yangiliklar, tahliliy materiallar butun respublika boʻylab tarqatiladi. Shuningdek, “Renessans TV”ning markaziy tahririyati suratga olingan media-mahsulotlar, siyosiy-ijtimoiy dasturlar, film va koʻrsatuvlar hududiy telekanallar efiri orqali tarqatilishi mumkin.

Ayni paytga qadar “Renessans TV”ni davlat roʻyxatidan oʻtkazish, tegishli chastotalarga ulanish bilan bogʻliq tashkiliy masalalar hal etildi. Oʻzbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligiga qarashli, foydalanilmay turgan bino Agentlik rahbariyati bilan kelishilgan holda qayta ta’mirlandi. Zarur jihozlar, texnika vositalari keltirildi. Telekanalning ijodiy va texnik jamoasi shakllantirilmoqda.

2021-yilning 1-sentyabridan “Renessans TV” telekanali test rejimida ish boshladi. Hoziri kunda telekanal orqali muhim yangiliklar, saylov xabarlari, oʻzbek kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan filmlar, konsert dasturlari ijtimoiy roliklar muntazam berib borilmoqda. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaralari, xalqimizning turmush tarzi, yurtimizda va xorijda yuz berayotgaan hodisalar tezkor va xolisona tarzda yoritib boriladi.

Telekanal ijodiy jamoasi taqdim etayogan dasturlarni “Yuksalish” umummilliy harakati, “Taraqqiyot strategiyasi markazi”, Oʻzbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va boshqa bir qator nodavlat tashkilotlar rahbarlari va vakillari, shuningdek, taniqli jurnalistlar, yozuvchilar, olimlar, soha ekspertlari ishtirokida muhokama qilindi. Muhokamalar jarayonida yangi telekanalni jamoatchilik minbariga aylantirish taklifi ilgari surildi.

**Sh.N. Mexmonaliyev – Fargʻona davlat universiteti 2- bosqich magistranti**
**S.S. Evatov – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**
**O.A. Tursunov – Fargʻona politexnika instituti akademik litsey oʻquvchisi**

## TALABALAR MALAKAVIY AMALIYOTI JARAYONI VA MAZMUNI

Boshqacha ifodalasak, bu jarayon yaxlit metodik tuzilma sifatida oʻqituvchi va talabalarning birgalikdagi aqliy va jismoniy mehnat faoliyati natijasida tegishli kasbiy koʻnikma va malaka darajasini (kasbiy mahorat asoslarini) shakllantirish metodikasiga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar malakaviy amaliyoti jarayonini tizimli tashkil etishning metodik tuzilmasi (modeli) mazkur jarayonning tarkibiy qismlari oʻrtasida ichki tartiblarning oʻrnatilishini ierarxik darajalarda aks ettirgan. Biroq biz bu masalaning mohiyatini boshqa, ya'ni malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik nuqtai nazaridan qarab chiqamiz.

Ma'lumki, bir-biriga bogʻlanganlik yoki oʻzaro bogʻliqlik deyilganda tomonlarning biri ikkinchisiga bogʻliqligi yoki tomonlar orasida biri ikkinchisiz boʻlmaydigan aloqadorlik tushuniladi. Malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni oʻrtasida ham xuddi shunday aloqadorlik (bogʻlanish) mavjud. Bu aloqadorlikning mohiyatini ochib berish malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini yanada takomillashtirishga, ya'ni metodik innovasiyalar (yangidan kiritiladigan tartib-qoidalar) ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishiga zamin tayyorlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida mazkur muammoning holatini o‘rganish va tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, amaliy kasbiy ta'lim jarayonining tashkil etilishi bilan uning mazmuni o‘rtasida metodik aloqadorlik etarlicha o‘rnatilmagan, chunki bu borada maxsus fanlar o‘qituvchilari uchun etarli metodik adabiyotlar yaratilmagan va chop etilmagan. Shuningdek, oliy ta'lim metodikasida ham bu masalaga etarlicha e'tibor qaratilmagan, tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Oqibatda oliy ta'lim muassasalarida yaxlit malakaviy amaliyot jarayoni ko‘pincha pala-partish, muayyan tizimsiz, samarasiz tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilgan.

Bu esa bitiruvchilar - bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy mahorat asoslari standart talablari darajasida shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Biz mazkur kamchiliklarni bartaraf qilish uchun malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini takomillashtirishga harakat qildik.

Shu maqsadda malakaviy amaliyot jarayonini tizimli yondashuv asosida ikki jihatdan tahlil qildik:

1) malakaviy amaliyot mazmunining tizimli tahlili;

2) malakaviy amaliyot jarayonining tizimli tahlili. Birinchi navbatda, malakaviy amaliyot mazmunining tizimli tahlili natijalarini keltiramiz. 1. Malakaviy amaliѐt mazmuni quyidagi tarkibiy qismlarni (turlarni) o‘z ichiga oladi:

1. Amaliy-laboratoriya ishlari mazmuni.
2. O‘quv amaliyoti mazmuni.
3. Ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti mazmuni.
4. Bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti mazmuni.

Malakaviy amaliyotning mazmuniy tarkibiy qismlari, ya'ni turlarining har biri alohida tizimli tahlil qilinsa, ular bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro shartlangan o‘ziga xos tarkibiy qismlar majmuidan iborat ekanligi aniqlanadi. Xususan: I. Amaliy-laboratoriya ishlari quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

1) o‘quv-tajriba ishlarini aniq rejalashtirish;

2) maxsus o‘quv laboratoriyalarini jihozlash va ishlarni bajarishga to‘liq tayyorlash;

3) laboratoriyalarda bajariladigan o‘quv-tajriba texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

4) o‘quv-tajriba texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;

5) mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta'minlaydigan amaliy-laboratoriya ishlari metodikasini ishlab chiqish va joriy etish.

**U. Millabuvayev**

## THE ROLE OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN A FOREIGN LANGUAGE TEACHING

The teaching of any kind of language is mainly carried out orally. It aims to develop foreign language communication skills that include listening comprehension and expressing one’s thoughts orally. In this process, tasks and activities must be varied to keep learners motivated. This issue gives the students of the non-philological institutions various opportunities when they talk about their major subjects. They must also combine saying and doing so. They follow progress that meets specific objectives, defined in terms of language elements in relation to knowledge — the expected corresponding actions of learners.

In our article, we tried to explain the benefits of the communicative approach to train language skills to learners and to use it in French teaching/learning as a foreign language. We tried to find solutions to the choice of media, audiovisual documents, the exploitation of these documents, use of the communicative approach in the language teaching/learning process of foreign language, to its role and place.

The communicative approach aims not only to develop students' ability to understand but also to express themselves orally or in writing. To do this, students must use the language they are learning in class. When we use the communicative approach, not only we have a grammatical lesson, but we put this course in relation with communication situations in which the grammar elements will be useful to be able to understand or express themselves. These communication situations may be:

- real communication situations, for example when a teacher asks students to tell a story event they have experienced;

- simulations (also known as role-playing), for example, when students invent a dialogue between a merchant and a buyer or between an official and someone who comes to pick up an administrative document;

- Games in which students use the language to communicate while having fun.

The first advantage, when using an approach communicative in language class is that we put the students directly in a situation where they use the language. This prepares them for the moments of their present or future life where they will need the skills communicators worked in class. They will be able to use a number of linguistic elements (grammar, vocabulary and structures, phonetics, etc…). In addition, implement a communicative approach in language classes allows increasing students’ motivation. When they play a game or when they invent dialogues, they have fun and learn by doing little efforts.

In recent years, didactic specialists’ languages also speak of the actionable approach, being part of the communicative approach, bringing students to implement and develop their skills in carrying out tasks. Learners must be motivated by the task they have to accomplish (for example informing other students about serious illnesses, enter a contest…). This motivation will encourage them to think about how to accomplish the task and to consider the important elements to lead it as well. The communicative approach and the actual approach rely heavily on group work, play of roles, etc

Language communication activities include writing obviously has its place, as the oral, in production as reception, interaction and mediation. These are some examples of written activities:

- Written production: forms, articles, reports, notes, free texts, letters, etc.

- Reception in writing: reading to orient oneself, inform oneself, follow instructions, learn, entertain

- Written interaction: correspondence, online forums, negotiations

- written mediation: translations, summaries, reformulations

These various activities are distinguished for the purposes of description, but in life as in the classroom, they constitute a continuum and sometimes overlap.

How can the written word be defaulted? According to current Dictionary of education, written means: *“the field of education of the language that involves teaching and learning reading, writing, spelling, and production of texts of different levels and filling in different language functions*[393]*”*.

The term is a means of action implemented by an issuer on a recipient, the first wanting to produce an effect on the second thanks to the language. To express oneself is to seek to fill a gap in the recipient (to whom information is given) or

the issuer (requesting information). The recipient does not know the content of the message he will receive. He certainly has the possibility to anticipate it, to anticipate, with a more or less high precision, but it remains an essential part of discovery. If you want to place the learner in a situation of authentic communication, it will be necessary to preserve this communication issue:

So, authenticity is to be sought in written expression, by setting up production. The simulation is here necessary. What to verify in an instruction thus formulated: for instance, tell your vacation story! The communication is located in a school-only setting, since the learner tells a history, in a copy intended for his/her teacher, for getting a good score. Communicative situation that the student will never meet out of school, and without of any practical objective should be provided. It would be appropriate to reformulate the instruction, for example: You write a letter to a friend to tell him what you did during your last summer vacation. It is therefore through the authentic situation that the written expression can fulfill its purpose: to put the learner in a specific communication situation to which that must appropriate his speech, in accordance with the constraints. Furthermore, it contains linguistic, discursive and sociocultural elements. It is therefore understandable that the expression, located in a situational context, cannot be confused with capacity to produce a correct sentence in a grammar exercise.

[393] ROBERT, J.-P. Practical didactic dictionary of the French language. Lassay-les-Châteaux: EMD S. A. S., 2008, p. 76.

**N.Mahmudova – Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi**

## O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ORNITONIMLARNING HOSIL BO‘LISH USULLARI

Hozirgi paytda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli har bir sohaga yuksak e’tibor qaratilmoqda, shu jumladan, tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Bunday yangilanishlar natijasida tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar va neologizmlar oqimi yanada jadallashmoqda. Bu jarayon esa o‘z navbatida soha mutaxassislarining o‘z kasbiga oid tushunchalar va terminlarning aniq ifodasini bilishlarini, ularning mazmun-mohiyati haqida to‘laqonli bilimga ega bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Shu bilan birga turli tizimli tillarda muayyan leksema, frazeologik birliklarning shakllanishi, rivoji va taraqqiy etishi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish maqsadida mutaxassislar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, ornitonimlarning tilda frazeologik birlik, yoki semema shaklini tadqiqi etish, tilda foydalanish ahamiyatini o‘rganish dolzarbligini yo‘qotmagan va ayni paytda o‘z echimini kutmoqda. Shu ma’noda ***ornitonim*** tushunchasi atrofida sodir bo‘layotgan turli xil yangiliklar, ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslarni, balki boshqa soha mutaxassislarini ham birdek o‘ziga jalb qiladi va dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ornitologiya aslida zoologiyaning qushlarni va ularga tegishli bo‘lgan barcha narsalarni uslubiy o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘limidir. Til tarkibi, tilning so‘z boyligi jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarga uchraydi. Aynan qushlar nomi bilan shug‘ullanuvchi fan bo‘limi ornitologiya deyiladi, ya’ni, qushlarni ularga tegishli bo‘lgan barcha narsalarni uslubiy o‘rganish bilan bog‘liq. Ornitologiyaning bir qancha yo‘nalishlari, turdosh fanlardan farq qiladi, bu qisman qushlarning yuqori ko‘rinishi va estetik jozibasi bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, ornitologiya – qushlarni ilmiy o‘rganadi. Qushlarning terminologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nazariy va amaliy jihatdan qiziqish uyg‘otadi. Qushlarning nomlarini birlashtiruvchi semantik guruh nisbatan ochiq tuzilishga ega; atamalar yo‘q bo‘lib ketishi yoki yangilari bilan almashtirilishi mumkin. Qushlar terminologiyasining mavzusi ko‘plab mualliflar tomonidan ko‘rib chiqilgan; ularda turli tillarda ishlatilgan qush nomlari tahlil qilingan. Mavzuga doir semantik, etimologik, lingvistik-geografik va boshqa jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar mavjud.

O‘zbek tilida qush nomlari (ornitonimlar) ham o‘ziga xos lug‘aviy tuzilishga ega. O‘zbek tilshunosligida ornitonimlarning tadqiqi masalasi ko‘p yillardan buyon tilshunoslar e’tiborini tortib kelmoqda. Keyingi yillarda bunday mavzu bo‘yicha bir qancha monografik izlanishlar hamda izohli lug‘atlar yaratib kelinmoqda. Ornitonimlarni o‘z ichiga olgan turgun iboralar yoki frazeologik birliklar ingliz va o‘zbek tillarida frazeologiyaning faol qatlami hisoblanadi. Ular kichik do‘stlarimizning tashqi ko‘rinishi, odatlari haqidagi ko‘p asrlik kuzatishlarni aks ettiradi va insonning hayvonot dunyosiga munosabatini aks ettiradi, bu esa o‘z navbatida har bir tilning madaniy va axborot bazasi hisoblanadi. Bunday iboralarga xos bo‘lgan obrazlilik va antropotsentrik yo‘nalish, asosan, ularda insoniy fazilatlar – jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlar aks etganligi bilan bog‘liq.

O‘zbek tilidagi qush nomlari (ornitonim)larning ma’lum qismi tub, sodda so‘zlar bo‘lsa, asosiy qismi soddalashish va yaxlitlanish (idiomatizatsiya) asosida vujudga kelgan deyiladi. Misol uchun, o‘zbek tilida ukki, to‘rg‘ay, kakku, burgut, chumchuq, shunqor, o‘rdak, qirg‘iy singari yuzlab ikki va undan ortiq bo‘g‘inli ornitonimlar mavjud. Hozirgi til nuqtai nazaridan muayyan so‘z yasash qolipining hosilasi bo‘la olmaydigan bu ornitonim leksemalarning barchasi tub so‘zlar bo‘lib, nutqda tayyor leksemalar sifatida qo‘llaniladi. Aslida esa ular leksema emas, balki nutqiy hosila – yasama so‘zlar yoki so‘z shakllari deyiladi. Ornitonimlar shakllanishining yana bir keng tarqalgan usuli yaxlitlanishdir. Yaxlitlanish deb tarixan yasama bo‘lgan leksema ma’nosining so‘z yasash qolipi ma’nosidan uzilishiga, uzoqlashishiga aytiladi. Masalan, tuyaqush, laylak, oqbag‘ir, qorabag‘ir, qizilishton, sassiqpopishak, zarg‘aldoq, go‘ngqarg‘a singari ornitonimlar tarixan ikki o‘zakli hosiladan iborat bo‘lgan, ular hozirgi paytda yaxlitlanib ornitonim – leksemalarga aylangan.

Ingliz tilida ham qush nomlari – ornitonimlar qo‘llaniladi. Garchi, uni lingvistik jihatdan tadqiq etilishi hozirda dolzarb masala deb qaralmasada, ikki til qiyosiy tahlillarida markaziy tadqiqot mavzusi sifatida dolzarblik kasb etadi. Qush nomlari haqida til aspektidan avval quyidagi ta’rifga biroz to‘xtalsak:

*“Birds are an essential part of nature; some birds fly, some don’t, some have long beaks, others not”- Qushlar tabiatning ajralmas qismidir; ba’zi qushlar uchadi, ba’zilari uchmaydi, ba’zilarining tumshug‘lari uzun, boshqalari esa yo‘q.YA’ni qushlar nomlarini o‘rganishda ularning shakli ham qaysidir ma’noda ahamiyat kasb etadi, degan uslubga asos yasaydi.*

*Canary, Crane (Stork), Crow, Cuckoo, Dove, Duck, Eagle, Flamingo, Hawk, Hen, Kingfisher, Nightingale, Owl, Parrot, Peacock, Pheasant, Pigeon, Raven, Crow, Rooster, Sparrow, Swallow, Swan, Turkey, Weaverbird, Woodpecker, etc.*

*Kanareyka, turna (laylak), qarg‘a, kakuk, kaptar, o‘rdak, burgut, flamingo, kalxat, tovuq, baliq baliqlari, bulbul, boyqush, to‘tiqush, tovus, qirg‘ovul, kaptar, qarg‘a, xo‘roz, chumchuq, qaldirg‘och, oqqush, kurka tovuq, to‘quvchi qush, o‘rmonchi qizilishton va boshqalar.*

Shunday qilib, ornitonimlarni bildiruvchi frazeologik birliklar ikki tilda ham o‘xshash va farqli xususiyatlarga ega, chunki qushlarning jismoniy xususiyatlari, xulq-atvori va tabiatini, oziqlanishi bilan bog‘liq belgilarni, shuningdek odamlarning qushlar va ba’zi turlarning tabiatini sub’ektiv tasavvurlarini tasvirlaydi.

**N.V. Raxmatova – Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti.**

## “OTA” KONSEPTIGA XOS BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLAR

Hozirgi ilm-fan, texnika rivojlangan davrda tilshunoslik sohasida ham juda ko‘p tadqiqotlar olib borilmoqda. Mana shunday tadqiqotlar mahsuli sifatida konsept muammosini olishimiz mumkin. Bizga ma’lumki, lingvistik adabiyotlarda konsept terminiga turlicha ta’riflar beriladi. Oxirgi o‘n yillik ichida filologiya fanida konsept eng faol qo‘llanuvchi terminga aylandi. Konsept nafaqat tilshunoslik, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik fanlarida ham qo‘llanadi, biroq konsept termini hozirgacha aniq bir ta’rifga ega emas va turli sohalarda turlicha ta’riflanadi. Tilshunoslikda birinchilardan bo‘lib, konseptni o‘rgangan olimlardan biri S.A.Askoldovdir. U konseptga potensial, dinamik struktura sifatida baho beradi. Uning fikricha, konseptning eng muhim funksiyalaridan biri o‘rinbosarlik funksiyasidir. Konsept real predmetlar bilan birgalikda shu predmetning ba’zi tomonlari yoki real haqiqatning o‘rnini bosishi mumkin.[394] Y.S.Stepanov esa o‘zining rus tili madaniyatiga oid asarida konseptga quyidagicha sharh beradi: “Konsept – bu insonning madaniy bilish tushunchasi bo‘lib, mantiqiy maqomga ega”, deya ta’kidlaydi[395]. Konsept inson ongida mavhum ma’no bo‘lib vujudga keladi, borliqqa bo‘lgan konseptual qarashni shakllantiradi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bir xil konseptlar turli madaniyatlarda har xil tarixiy, milliy mental, moddiy va ma’naviy madaniyatning rivojlanish bosqichlari izlarini o‘zida saqlab qoladi. Turlicha madaniyatlarning o‘zaro aloqadorligida milliy konseptlarning munosabati ham namoyon bo‘ladi. Biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan “ota” konsepti ham turli xalqlarda turlicha ma’no-mazmun kasb etadi. Shu bilan birga mavqei, unga bo‘lgan munosabat jihatidan ham ”ota” konsepti xalqlar o‘rtasida farq qiladi. Bu badiiy asarlarda ham o‘zining yaqqol aksini topgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida otaga bo‘lgan o‘zbekona hurmat, izzat aks ettirilgan. Masalan, Yusufbek hojining o‘g‘li Otabekka qarata yozgan maktubidan parchada otalarga xos belgilar quyidagicha ifodalanadi:

*„Huvalboriy…ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh“ biz* ***duogo‘y*** *padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘stlaringiz munda Xaq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z*

[394]Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста.Москва: Академия, 1997. – С.267.

[395]Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С.40

*nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom rabbulolamindan rajo va tamanno etmakdamiz"*[396].

Maktubning yakunida ham yuqoridagi **duogo'y** leksemasiga sinonim tarzda quyidagi **addoi**, ya'ni **duo qiluvchi** sifati keltirilgan:

*„Munda barcha yor-u do'st salomat, mendan Hasanaliga salom ayt! **Addoi** otang Yusufbek hoji".*

Duogo'ylik sifati, ayniqsa, o'zbek otasiga xos xususiyat hisoblanadi. Bundan tashqari quyidagi parchada ham ota konseptining mana shu xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi:

*"Ota tovushidagi titroq qizni to'xtatdi.*

*- Qayda bo'lsang ham boshing omon bo'lsin, - dedi u "*[397].

Shu bilan birga **nasihatgo'y** leksemasi ham ota konseptiga xos sifat hisoblanadi:

*" – Mening bu gaplarimni sen ham esda tutgil. Bobur mirzo sendan faqat ikki yosh katta bo'lsa ham, agar mening o'rnimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo'lg'il"*[398].

Yuqoridagi "Yulduzli tunlar" romanidan keltirilgan parchada Umarshayx mirzo tilidan o'g'li Jahongir mirzoga qarata aytilgan nasihati aks ettirilgan bo'lib, bu xususiyat o'zbek otalarining barchasiga xos.

Quyidagi maqolda ham ota konsepti quyidagicha sifat so'z turkumi bilan qo'llanadi:

*"Men aziz, otam mendan **aziz**".*

Yuqoridagi kabi frazeologik va paremiologik birliklardan quyidagisida ham ota konsepti presuppozitsiya asosida sifatlangan, ya'ni

*"Ustoz otangday **ulug'** ".*

Ushbu paremiologik birlikda bir qarashda ustozga ulug' deb ta'rif berilgan, lekin undan otaning ham ulug' ekanligi semasi anglashilyapti. Bu sema esa ota leksemasiga -day o'xshatish-qiyoslash affiksini qo'shish orqali hosil qilingan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ota konsepti o'zbek badiiy adabiyoti va frazeologik qatlamida, asosan, ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan sifatlar bilan keltiriladi.

**N.X. Djuxonova – Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**D. Ibrohimov - – Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## O'QUVCHILARDA BILIM OLISHGA BO'LGAN EHTIYOJNING TARKIB TOPISHI

Yoshlarni mustaqil bilim olishga, o'quv faoliyatini o'zi boshqarishga, ta'limiy ilg'or g'oyalarni ilgari surish orqali ularni yangicha fikrlash, narsa-hodisalarga nisbatan ongli munosabat va puxta uslubiy tizim bilan qurollantirish maktabning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat**"** deb aytib o'tdilar. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

[396]A. Qodiriy, O'tkan kunlar, Toshkent: "Sharq", 2012. – 34-36 b.
[397]Said Ahmad, Tanlangan asarlar, Toshkent: "Sharq", 2010. – 294 b.
[398]Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar, Toshkent: "Sharq", 2004. – 28 b.

Agar bolalar, yoshlar erkin fikrlashga oʻrganmasa, berilgan taʼlimning samarasi past boʻlishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim oʻz yoʻliga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”[399]. Boshqacha kilib aytganda, qadimiy, mumtoz monologik (oʻqituvchining auditoriya hokimligidan) maʼruza oʻqishdan asta-sekin dialogik maʼruza (oʻquvchi oʻquv faoliyatining subʼektiga aylanishida oʻz ifodasini topuvchi oʻqituvchi bilan hamkorligi) oʻqishga oʻtish demakdir. Oʻqituvchining bir tomonlama kommunikativ fikr uzatish munosabatidan oʻquvchilar bilan hamkorlik (teng huquqlilik, sheriklik asosida) faoliyatiga oʻtishni taʼminlashdan iboratdir. Taʼlimning mazkur metodi jarayonida yangi bilimlar oʻqituvchi tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri tinglovchilar diqqatiga havola qilinmasdan, balki ularni oʻzlashtirishda oʻquv faoliyatining teng huquqli subʼekti (shaxsga subʼekt tariqasida yondashish) sifatida oʻquvchilar ham bevosita va faol ishtirok qiladilar. Taʼlimning ushbu shakli mana bunday tarzda namoyon boʻlishi mumkin: oʻqituvchi-oʻquvchi-oʻquvchilarning oʻzaro hamkorligi. Auditoriyada oʻquv muammosini echishda, bilimlarni oʻzlashtirishda hamkorlik faoliyatining subʼektlari (oʻqituvchi bilan oʻquvchilar) bir tekis qatnashishlari lozim. YOshlarga taʼlim berish va kasb-kor oʻrgatish tizimi boshdan oyoq jaxon ilm-fani taraqqiyotiga bebaxo hissa qoʻshib kelgan xalqning boy madaniy merosini oʻzlashtirishga, dunyo miqiyosidagi zamonaviy bilimlarni va fan texnika taraqqiyoti yutuqlarini egallab olishga qaratilgan boʻlishi lozim. Bu maqsadlarga erishmoq uchun yosh insonni oiladan, bolalar bogʻchasi, maxalla, maktabdan to oliy oʻquv yurtlarigacha aqliy rivojlantirishning muantazam va uzluksiz boʻlishini taʼminlash zarur.

Insonni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat eʼtibor talab qiladigan ichki ziddiyatli jarayondir. Binobarin, oʻsayotgan kishi shaxsining qaysi yoʻllar bilan shakllanib barayotganini olimlarga xos zoʻr xavas va sinchikovlik bilan kuzatish lozim. Oʻqituvchi oʻzining faqat muammosiga, intuitsiyasiga tayanib ish qilmasligi kerak.

U pedagogik jarayonni boshqarish uchun uni yaxshi bilish kerak. Taʼlim berish ishida shaxsni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bajariladi yoki avlodga insoniyat tajribasida olingan bilimlar beriladi, unda zarur hayoti malaka va koʻnikmalar shakllantiriladi. Oʻquvchi taʼlim jarayonida oʻzining umumiy mexnat faoliyatida ishtirok etishga va muhim, ijtimoiy ishlab chiqarishni takomillashtirishga imkoniyat beradigan bilimlarni oladi. Taʼlim bilish faoliyatini bir turi sifatida hozirgi pedagogik psixologiya fanida bir necha asosiy maʼnoni anglatadi. YAʼni:

-oʻquvchilarda bilim, malaka va koʻnikmalar xosil qilish;

-ularda dunyoqarashni, fikr va eʼtiqodlarni shakllantirish;

-oʻquvchilarning muayyan darajada oʻqilishi, madaniyatli, tarbiyali kishi boʻlishlariga erishishi;

-ularni qobiliyatlarini oʻstirish;

-taʼlim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri boʻlib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni oʻzlashtirishni ancha tezlashtiradi.

Oʻqish (bilim olish) oʻquvchining kishilar tarbiyasida bilib olgan qonuniyatlarni oʻzida aks ettirishdir. Tevarak atrofdagi dunyoning qonuniyatlarini bilishning kamida ikki usul bor: biri ularni insoniyatning ijtimoiy – taraqqiyoti orqali, ikkinchisi esa, odamning individual rivojlanishi orqali bilishdir. Ilmiy nazariyasi paydo boʻlishi va shakllanishning birinchi usuli takrorlanmaydi, ikkinchi usuli esa bolaning yoki oʻqib turgan katta yoshli individual rivojlanishi davomida takrorlanadi. Garchi oʻquvchi yangi nazariyalar yarata olmasdan, u maʼlum narsalargina oʻrganish bilan shugʻulansa ham, uning bilish faoliyatidan olimlarning bilish faoliyatiga xos xususiyatlar bor.

Oʻqish faoliyati eng avval oʻqituvchi rahbarligida va oʻquvchilarning faol faoliyati natijasida oʻquvchilarning bilim, iqtidor va malakalar egallash jarayonidir. Oʻqituvchi bolalarga bilim bera borib, ularga iqtidor va malakalarni singdira borib oʻquvchilarni fikrlashga va kuzatishga, oʻz fikrini va tushinchalarni ifoda qilishga oʻrgatadi.

Oʻqituvchining eng muhim vazifalardan biri bolalarda badiiy adabiyot oʻqishga, jamoa ishiga boshqa kishilarga foyda keltirishga intilishi ehtiyojlarini taraqqiy ettirishdir.

Bilimga boʻlgan ehtiyojni 7-8 yashar bolalar uncha tushunib etmaydilar. Binobarin, oʻqituvchi maktabda oʻqitishni birinchi yilidayoq ularda ilmiy maʼlumotlarga qiziqishni uygʻotish kerak.

K.D.Ushinskiy bunday deb yozgan edi; «Oʻrta va quyi oʻquv yurtlarida oʻquvchini oʻz-oʻzidan fanga qiziqishini kutib oʻtirishi yaramaydi, lekin oʻqituvchi oʻzini tinglovchi barcha oʻquvchilarni hamisha

---

[399] Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 9 сессиясидаги маъруза. 1997 йил 29 август.

qiziqqan xolda ushlab turishga yordam beradigan metod kerak bo‘ladi». O‘qish ma’lum darajada o‘quvchilarni qiziqishlariga tayanishi, lekin ayni vaqtda o‘qish ularni ehtiyojlarini taraqqiy ettirishi ham lozim.

O‘quvchilarni rivojlantirishda o‘quv materiallarining foydaliligi va zarurligini bir-biridan farqlash lozim. O‘quvchining o‘z atrofini o‘rab olgan dunyoni to‘g‘ri tasavvur qilishi va tushunishiga yordam beradigan bilimlarning hammasi ham foydali. Lekin, shunga qaramay, o‘quv materialini muayyan qismlarga bo‘lish va bolaning rivojlanishi uchun ayni fursatdir bilimlarning xuddi shu yig‘indisi zarur, degan ishonch bo‘lishi kerak. Masalan, birinchi sinf o‘quvchilariga o‘rgatilgan geometrik material foydali. Ammo shunday bo‘lsa ham, o‘qituvchi bu materialni sinfda o‘rganishi albatta zarurligini pedagogik va metodik asoslarini bilishi kerak.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilishi zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlari uchun foydasiz va keraksiz deb o‘ylashi mumkin. Masalan, ba’zi bolalar nota yozuvini o‘rganishni xoxlamaydilar, chunki o‘zlari uchun keraksiz deb hisoblaydilar. SHuning uchun o‘qituvchi berayotgan bilimni qanchalik foydali ekanligini, inson xayotida muhim o‘rin tutishini o‘quvchilar ongiga singdirib borishi va bilim olishga qiziqishini rivojlantirish kerak. maktabda beriladigan yangi bilimlar o‘quvchida bo‘lgan bilimlarga, uning turmush tarzida asoslanishi kerak: o‘rganiladigan bilimlar sistemasi bolani umumiy saviyasini yuqori ko‘tarishga yoki shundayo o‘zgarishga qaratilgan an’analar yaratish lozim: konkret sharoitlarda o‘quv materialining o‘quvchilarni rivojlantirish uchun zarurligi ochiq ko‘rinib turishi kerak.

O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni tarkib toptirish uchun avvalo maktab tamonidan beriladigan bilimlar, qa’tiyan ilmiy ya’ni xaqiqiy; tushunarli bo‘lmoi lozim; o‘quvchilar tamonidan o‘zlashtiriladigan bilimlar o‘zaro bog‘langan, aniq mantiqiy tuzimga va izchillikka ega bo‘lish lozim; o‘quvchilarning bilimi ma’lum ma’noga ega bo‘lmoi lozim. YA’ni o‘zlashtiriladigan bilimlarning ma’nodorigi shundan iboratki, bu bilimlar, birinchi navbatda, konkret mazmun o‘rganilayotgan narsa va xodisalar ularning qonuniyatlari to‘risida aniq tasavvur va tushunchalar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. O‘rganilayotgan materialning mahiyatiga turmushi ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish va munosabatlarni topishi, o‘zlashtirilayotgan qonuniyatlarni asoslab berish hamda to‘g‘ri xulosa chiqarishni bilish demakdir: o‘quvchilarga berilayotgan bilim chuqur va xar tamlonlama bo‘lishi hamda hayot tajribalari bilan bog‘langan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish xosil qilishda ularni faol ijodiy faoliyatga tortish katta ahamiyatga egadir. Bunda o‘quvchilarga o‘quv materiallaridan ularning kuchi etadigan, qiziqarli topshiriqlar berib bajartirish yo‘li bilan erishish mumkin. SHu narsa juda muhimki, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni ijobiy emotsional kechinmalar: bilim olishda erishgan yutiidan, bu yo‘ldagi qiyinchiliklarni engishdan quvonish kabi emotsional kechikmalar bilan bog‘langan bo‘lishi lozim. O‘rganilayotgan materialning mazmuni va ahamiyatini xayot bilan tushuntirish o‘quvchilarni o‘qish va mexnatda o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatganligida ularni rabatlantirish – bularning hammasi bilim olishga qiziqishni tarkib toptiradi.

O‘quvchilarda qiziqishlarning paydo bo‘lishi va o‘sishiga o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi, uning bilimlarini chuqur va keng bo‘lishi o‘quv materiallarini qiziqarli ravishda bayon eta olish, o‘quvchilarni o‘z darsiga, o‘z faoliyatiga torta olishi katta ta’sir etadi.

**M.S. Baxromova - Farg‘ona tumani 51-maktab o‘qituvchisi,**
**Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI
## (O‘yin texnologiyasi misolida)

Zamonaviy ijodkor pedagog -o‘z kasbining yetuk ustasi , ma’lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Pedagog barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, darslarni tashkil etishda innovatsion va axborot texnologiyalarni, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib,uni dars jarayonida qo‘llab boradi.

Ayniqsa texnologiya darslarida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib (1-guruh texnologiya va dizayn, 2- guruh servis xizmati ), darslar tashkil etiladi. Biz dars jarayonlarida o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun, ularni ijodkorligini oshirish uchun, ularni Yoshi ,jinsi, qiziqishlarini inobatga olib innovatsion texnologiyalarni to‘gri tanlasak, ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz.

“Innovatsiya’’- umumjahon tillaridan kirib kelgan bo‘lib, (“indeks“, “instansiya”, “inflyatsiya”, “inkassa” kabi), 2ta- yunoncha „Inos”- oid taaluqli va ruscha „новый”- yangi, yangicha so‘zlarning birikmasidan tashkil topgan. „Innovatsiya’’ tushunchasi- yangilikka oid, yangitdan kiritilayotgan degan ma’nolarni anglatadi. Bu tushuncha ingiliz tilida ham („innovation’’) deb yuritilib yangilik kiritish, yangicha ma’nolarida qo‘llaniladi.[400]

Texnologiya darslarida quyidagi innovatsion usullar qo‘llaniladi.„Modellashtirish”, „Namoyish qilish”, „Kichik guruhlarda ishlash", „Aqliy hujum”, „Tanqidiy tafakkur”, „Rolli o‘yinlar”, „O‘yin” va hokazo.

Pedagogik maqsadda foydalaniladigan o‘yinlar , o‘yin texnologiyalari deyiladi. O‘yin texnologiyalari – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishningbarcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy baholovchifaoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarni ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biridir.

Jismoniy hatti harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar, bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intelektual konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga fikrlashga mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi.[401]

Quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi.

- o‘yin ssenariysini puxta tayyorlanganligi;
- o‘yin maqsadi va vazifalarini to‘g‘ri, aniq belgilanganligi;
- o‘yin qoidalari aniq lo‘nda ifodalanganligi;
- o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;
- rollarni samarali, to‘g‘ri taqsimlanganligi;
- jamoada ko‘tarinki kayfiyatni yuzaga kelishi;
- ishtirokchilarni bir- birini tushuna olishlari va qo‘llab quvvatlashlari;
- har ishtirokchi o‘yin natijasi uchun ma’suliyatni his etishi;
- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilganligi;

## FUTBOL METODI

Bu metod asosan texnologiya fanida o‘g‘il bolalarni darsga qiziqtirish uchun o‘ylab topilgan. Bunda sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linishadi va o‘zlarini guruhlariga nom topishadi texnologiyaga oid. Masalan **kasb** va **hunar**.

Har bir guruh o‘zaro kelishib, o‘zlaridan **varatabon, himoyachi, yarim himoyachi** va **xujumchi** saylab olishadi. Bu metodda asosan ma’suliyat varatabonga tushadi. Varatabon guruh sardori hisoblanadi.

O‘yinni qur’a tashlash bilan boshlab olinadi. Qaysi guruh o‘yinni boshlasa (hunar) hujumchi tomondan keyingi guruhga (kasb) dars yuzasidan savol beriladi va kasb guruhini yarim himoyachisi savolga javob beradi, agar yarim himoyachi javob berolmasa savol himoyachiga uzatiladi, himoyachi ham savolga javob berolmasa, savol varatabonga uzatiladi. Varatabon savolga javob qaytarsa, savol berish navbati kasb guruhida qoladi, aksincha javob berolmasa gol o‘tkazib yuborgan bo‘ladi va hunar guruhi hisobiga 1:0 hisobi qayt etiladi va savol berish yana hunar guruhida qoladi. Dars shu usulda davom etadi va oxirida natijalar hisoblanib g‘olib bo‘lgan gurh o‘quvchilari baholanadi. Eslatma: bu yerda **to‘p** tanlangan mavzuga oid savollar. Bu metodni afzalligi shundaki sinfda sog‘lom raqobat shakllanadi, har bir o‘quvchi o‘ziga yuklatilgan vazifaga ma’suliyat bilan yondashadi.

Xulosa qilib aytganda o‘yintexnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum bir voqelik, xodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun, dastlabki ko‘nikma malakalarni hosil qilishga yordam beradi.

---

[400] T. Madumarov, M. Kamoldinov „Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayoniga qo‘llash” Toshkent, “Talqin” 2012.62- bet

[401] M.M.Ahmedov, A.M.XudoberdiyeV,S.M.Ro‘zmatova “O‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalari va zamonaviy yondashuvlar’’, Farg‘ona-2020. 35-bet

**M. Zohidova - Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## OILADA SOG‘LOM MA’NAVIY MUHITNI YARATISH

Oila - ja’miyat taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi eng mustahkam qo‘rg‘on hisoblanadi. Ja’miyatning gullab yashnashi avvalo oiladan boshlanadi. Millatning barqaror rivojlanishi ham ko‘p jihatdan oilaning tinch – totuv, hamjihat va o‘zaro mehr-muhabbat tuyg‘ulari bilan bog‘langanligiga asoslanadi. Oilanig muqaddasligi farzandlarni kamolga yetkazish bilan belgilanadi. Mustahkam oilalarning bunyodga kelishi uchun bugungi voyaga yetayotgan avlodlar munosib turmush tarzini yo‘lga qo‘ya olgan oilalarda kamolga yetishlari zarurdir. Shuning uchun mamlakatimizda oilaviy bolalar uylariga urg‘u berilmoqdaki, ushbu oilalarda voyaga yetayotgan bolalar kelgusida oilaning qadr-qimmatini ulug‘lay oladigan va sog‘lom ma’naviy muhit hukm suruvchi oila egalari sifatida shakllansinlar.

Prezidentimizning Sh.Mirziyoyev oilaga quyidagicha tavsif beradilar: “Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa vatan tinch bo‘ladi”.[402]. Darhaqiqat shunday, vatanimizning ravnaqi va dunyo hamjamiyatida o‘rnining tobora yuqorilashib borishi albatta, kichik qo‘rg‘onlardagi hayot tarzining mo‘tadilligi natijasidir. Shuningdek birinchi prezidentimiz I.Karimovning ham bu boradagi fikrlari qimmatlidir: “Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. ...Bu esa oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”[403].

Mamlakatimiz bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olmoqda. Qilinajak ishlar samaradorligini oshirish yanada muhim vazifalarga aylanib bormoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan yurtimizda keying yillarda ko‘plab muhim ta’rixiy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning yorqin bir misoli sifatida har bir o‘tayotgan yil o‘ziga xos ravishda nomlanib kelinmoqda. Bu nomlar zamirida ulkan islohotlar o‘tkazib borilishi mamlakatning rivojlanish strategiyasiga aylanmoqda. Yillar nomlari bir-biri bilan o‘zaro uyg‘un va bir-birini to‘ldirib boradi. Xususan 2021 yilning “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligi” yili va uning uzviy davomi sifatida 2022 yil muhtaram yurtboshimiz tomonidan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yili deb e’lon qilindi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, “Ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi Qonun”, “Oila Kodeksi”, Bu qonun va qarorlar asosida mamlakatimizda jismonan sog‘lom , ma’naviy yetuk , har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, intelektual salohiyatga ega, chuqur bilimli va zukko yoshlarni tarbiyalash vazifalari turibdi. Ular safiga O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim tog‘risidagi Qonun” ining yangi tahriri kiritildi. Barcha qabul qilingan qarorlar tarkibida bolani tarbiyasini belgilab beruvchi – oila institutiga muhim e’tibor qaratiladi.

Biz esa bugun shu dasturlar asosida sog‘lom ma’naviy muhitni oilada yaratish borasida so‘z yuritamiz. Oilada so‘g‘lom ma’naviy muhit yaratishning mazmun – mohiyati nimada ? Ma’naviy barkamollik bizga qanchalar zarur yoki uning tub mohiyatini anglay olyapmizmi? - degan savollar qiziqtiradi.

Bola dunyoga kelgandan so‘ng endi shakllanishni boshlaydi. Ham jismonan , ham ruhan, ham ma’nan rivojlanadi. Sog‘lomlik bu faqatgina tan sihatligi va me’yoriy rivojlanib borishdagina emasligini barchamiz to‘g‘ri anglaymiz. Shu o‘rinda ruhan va ma’nan sog‘lomlikni bir xil tushuncha deb qarashdan uzoqlashish kerak. Chunki ruh sog‘lomligi ko‘pchilikda mavjud. Lekin ma’naviy sog‘lom bo‘lish har kimga nisbatan ishlatilmaydi. Ma’naviy sog‘lomlik uchun to‘g‘ri tashkil qilingan tarbiya, ma’rifiy-madaniy muhit, harakat, mehnat va o‘qish zarur.

Ta’rixiy qadriyatlarimizga nazar tashlansa, buyuk Sohibqiron Amir Temur farzandlarida uch xislat bo‘lishini istardi. Eng avvalo, insonparvarlik, so‘ng mushohadalilik va nihoyat, oqibatlilik – bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo‘lishi mumkin. Mushohadali, bosiq odamgina jangu jadalda xatoga yo‘l qo‘ymaslikka, ulkan saltanatni boshqarishga qodir.[404][3]

---

402 www.xabar.uz Siyosat, 22.01.2018y

403 Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. T., “O‘zbekiston”, 1996, 49-bet.

404 O.Hasanboyeva, Oila pedagogikasi, Toshkent, 2007 yil, 30 bet

Ma’naviyat esa avvalo oilada vujudga kelib atrof – muhitga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb aytilgan hikmatli gap ham bunga yorqin misoldir. Ja’miyatda qanchalar o‘z kamchiliklarimizni yashirishga urinmaylik, qachondir u o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Qachondir bu kamchilik, qaysidir holatda bizni izza qiladi.

Kundalik hayotda bobo- momolar bilan yashab, voyaga yetayotgan bolalar ko‘pincha boshqa bolalarga nisbatan ajralib turadilar. Chunki, nuroniylarning boy tajribasida o‘sgan bolalar aql buloqlaridan suv ichib katta bo‘ladilar. Ma’naviyatning asl negizlari ham ular orqali namoyon bo‘ladi. Bunday bolajonlar o‘tkir zehnli, jamoat joylarida o‘zlarini tuta oladigan, kattalarga hurmat ko‘zi bilan qaraydigan, mehnatning ma’nosini anglaydigan, xalq durdonalaridan xabardor, qo‘yingki bu fazilatlarni davom ettirsangiz bo‘laveradi. Ammo ana shunday xislatlardan mosuvo bolalar borligi insonni o‘ylantiradigan, dolzarb masaladir. Ma’naviy qashshoq ko‘rinishdagi farzandlar ahvolini nima bilan bog‘lash mumkin. Ota-onalardagi beparvolikmi yoki atrof- muhitning ta’sirimi? Javob o‘rnida oilani albatta oilani oldingi qatorga qo‘yamiz. Ma’naviy nosog‘lom ota – onalar o‘z farzandlarini ham shu toifaga kiritib qo‘ymoqdalar. Oddiygina vatanga muhabbat tuyg‘usini ham farzand ota- onadan o‘rnak olib o‘rganadi. Vatanparvarlik tuyg‘usini chinakam talqinini, madhiya yangragan paytdagi holatning qanday bo‘lishini u oiladagi muhitdan oladi. Ota – onalardagi hayotga nisbatan o‘ta real qarash va yengil – yelpi hayotga intilish insoniylik tuyg‘ularidan yiroqlashtirmoqda. Tubanlik sari yetaklab ketmoqda. Tuban hayot faqat hayvonlarga xos. Lekin shuni bilish kerakki hatto eng sodda mavjudot ham bolasining kelajagi uchun oldindan qayg‘uradi.

Aytib o‘tish joizki bu bilan ja’miyatdagi oilalarni 2 guruhga ajratib qo‘yish fikri to‘g‘ri emas. Ya’ni ma’naviy barkamol hamda ma’naviyati sust ko‘rinishlarida. Bu o‘ta yuzaki qarash bo‘lib qolishi mumkin. Ja’miyatdagi mavjud oila qatlamlarining barchasi o‘ziga xos tarzda tuzilgan va ular bir-birini takrorlamaydi. Qaysidir oilaga havas qilsangiz, boshqa bir oilani ko‘rib ibrat olasiz. Hayot o‘zi shunday odamlar bir- birlaridan tarbiya oladilar va bir – birlariga tarbiya beradilar.

Nuroniy otaxon – onaxonlarimiz bolajonlarni o‘z qadriyatlarimiz ruhida kamolga yetishlariga intiladilar, zamonaviy oilalar esa bolalarni zamon talabi bo‘yicha tarkib toptirishni xohlaydilar. Binobarin bola yozilmagan oppoq qog‘oz, unga nimalar yozishni kattalar hal qilishga urinadilar.

Bolalardagi o‘ziga xos fe’l- atvorlarning rivojlanishi oila muhitida yuzaga kelar ekan, ota – onalar o‘zlari yoshlikda duch kelgan xatoliklarni farzandlarda qaytarilishini istamaydilar. Bolani ma’lum bir sohaga yo‘naltirishga intiladilar. Bola fikr – mulohazalariga yuzaki qaraydilar. Nima uchun deyilganda javob oddiy “U hali yosh bola, ko‘p narsalarning asl mohiyatini bilmaydi. Mendan keyinchalik xursand bo‘ladi” - degan fikrni bildiradilar. Lekin bilib olish kerakki, bolalarda potensial qobilyatlar mavjud bo‘lishi mumkin. U vaqtida aniqlansa ota – ona undan ko‘zlagan maqsaddan ko‘ra ko‘proq natijaga erishishi mumkin. Shuning uchun boladagi ko‘zga ko‘rinmayotgan imkoniyatlarni baholashga, ko‘proq pedagog va psixolog maslahatiga tayanish muhimdir.

Ma’naviy barkamollikka faqat intilamiz va ma’lum qudratlarni o‘zimizda hosil qilamiz. Bugungi ja’miyatning talabi ham taklifi ham ma’naviy va jismoniy sog‘lomlikni tenglashtirish hisoblanadi. Shuning uchun ma’naviyat tarkibiy qismlarini chuqurroq va puxtaroq egallash zarur.

**S. Mo‘minov - Farg‘ona davlat universiteti professor f.f.n.**
**X.T. Gopirova - Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## RAUF PARFI IJODIDAGI ONOMASTIKANING O‘RNI

Har bir shoir yoki yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘ladi. Badiiy uslublarda umumxalq tili qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Umumxalq tilini dengizga o‘xshatadigan bo‘lsak, u cheksiz va tubsiz to‘lqinlari bilan oshib-toshib yotadi. Shoir va yozuvchilar esa ana shu to‘lqinlarni ma’lum bir qismini o‘z o‘zaniga burishi bilan umumxalq tilining til imkoniyatlarini boyitadi, mukammallashtiradi. Mana shunday tilimizning boy imkoniyatlarini ochib berishda biz ijodkorlarning izlanishlariga e’tiborimizni qaratamiz. E’tiborimizni qaratishimiz mumkin bo‘lgan serqirra ijod sohiblarimizdan biri Rauf Parfidir.

Rauf Parfi ijod maydoniga shunchaki kirib kelgani yo‘q. U o‘zining boshq alarnikidan tubdan farq qiladigan va takrorlanmas ijod qirralari orqali she’riyat maydonida paydo bo‘ldi. Aytish joizki, shoir

she’riyat olamida oddiy, lekin shu bilan bir qatorda murakkab yo‘nalishni yarata olgan tengi yo‘q hassos insondir. U so‘zdan unumli foydalanadi, uni o‘z tizgini bo‘licha yo‘rg‘alatadi. Bu haqda taniqli shoir Asqad Muxtor: “Rauf Parfi yaralari ochiq shoir. Unda hazinlik ko‘p, ora-chora shunchaki marsiya ham yozib tashlaydi, tushkunlik alomatlari ham uchraydi. Men buni shoirning aybiga yoymasdim. Shoir insoniy dardlardan xoli bo‘lolmaydi. Rauf Parfi esa, shoir sifatida o‘zligini to‘laroq ifodalashga intiladi”[1] – deganida tamomila haq edi.

Rauf Parfi bor narsalarni ochiq ifodalar ekan, bunda tilimiz imkoniyatlarini kengaytiradi va mukammallashtiradi. Onomastika ana shunday til imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Onomastika (yunoncha, onomastike – nomlash, nom qo‘yish san’ati) – tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘lim, shuningdek, barcha atoqli otlar yig‘indisi.[2]

Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo‘limlarga ajratadi:

1. Antroponomika kishilarning atoqli nomlari;

2.Toponimika – geografik obyektlarning atoqli nomlarini;

3.Teonimika – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudodlarning nomlari va boshqa.

Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponomika ma’nosida ham qo‘llanadi. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Onomastikaning atoqli nomlarini realionimlar va avval yoki hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari va mifonimlar (xayoliy – to‘qima obyektlarning nomalari) ga bo‘ladi.

**Firdavsiy** bir zamon aytgani kabi
Har ne o‘tkinchidir, fanoning o‘zi,
Faqat ikki narsa qolur abadiy –
Botirning shavkati, dononing so‘zi.[3]

Bu bandda shoir Ona vatan muhabbati hamda ajdodlarimizning yodi haqida teran, go‘zal fikrlar bildirib, fors-tojik adabiyotining mashhur mutafakkiri Abulqosim Tusiy (Firdavsiy)ni nomini keltirgan. Yana bir misrada:

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,
Kunlar gizlar tug‘yon, bosib kelar she’r.
Nechuk qismat erur, shoir qismayti?!
Tushlarimni buzar hasrat **Alisher…[4]**

Rauf Parfi shoirlik qismati haqida ta’sirli va asosli fikrlarni bildirgan holda, turkiy adabiyotning yuksalib, rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan XV asrda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy nomiga ishora qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Rauf Parfi ijodi serqirra va takrorlanmasdir. U she’rlaridagi betakror vositalar orqali tilimizning boy va go‘zal imkoniyatlarini ochib bergan

**Z.A. Qochqorova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## SENTENSEMALAR – KONSEPT IFODALOVCHILARI SIFATIDA (“To‘y” konsepti misolida)

Ma’lumki, bugungi kun tilshunosligida kognitiv tilshunoslik bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda konsept, uning lingvokognitiv tabiati va turli tillarda verballashuviga doir dolzarb masalalar qizg‘in muhokama qilib kelinmoqda (Y. S. Kubryakova, V. A. Maslova, N. N. Boldirev, A. D. Shmelev, G. P. Melnikov, Sh. S. Safarov, O‘. Q. Yusupov, A. E. Mamatov, G‘. M. Xoshimov va boshqalar). Xususan, tilshunos olim G‘. M. Xoshimov konseptga quyidagicha o‘ziga xos ta’rif beradi: “Konsept – bu tafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog‘liq nafaqat ikki muhim jarayon: konseptuallashtirish (konseptualizatsiya) va kategoriyalashtirish (kategorizatsiya) ning natijasi bo‘lib sanaladi, balki unga qo‘shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo)semantizatsiya, sotsiolektizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasidir, u yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda til birligida o‘zining semantik sig‘imi bilan bog‘liq

holda ma'lum darajada (qisman) aks etadi"[405]. Haqiqatan ham konsept tushunchasi bizning ongimizda kechuvchi bir qator lingvokognitiv jarayonlarning bevosita natijasi bo'lib, pirovardida u verbal (va ehtiyojga ko'ra noverbal) vositalar orqali tizimli voqelantirilishi mumkin.

Tahlilimizning asosiy obyekti hisoblangan "to'y" mavzusi ham tilshunoslar tomonidan keng o'rganilgan. Biroq ularda "to'y" konsept sifatida til birliklari orqali ifodalanishiga oid tahlillar amalga oshirilmagan.

Ushbu risolada esa biz o'zbek va ingliz tillarida "to'y" konseptini ifodalovchi sentensema (gap) larni o'rganib, qiyosiy tahlil qilishga va ilmiy yoritishga harakat qilamiz.

Avvalo, har ikki tildagi izohli lug'atlarni o'rganish mobaynida "to'y" konseptining quyidagi ma'nolari va ta'riflarini aniqlandi:

*o'zbek tilida:*

- To'y – uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va boshqa munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm–tomoshalar bilan o'tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi [O'zbek tilining izohli lug'ati, 229].

*ingliz tilida:*

- Wedding is a) a marriage ceremony usually with its accompanying festivities; b) an act, process, or instance of joining in close association; c) a wedding anniversary or its celebration [Oxford Dictionary];

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, to'y – bu muhim sana bilan bog'liq bo'lgan, ziyofat va bazm (ba'zida bazmsiz) o'tkaziladigan marosim nomidir.

"To'y" konseptini verballashtiruvchi sentensemalarni o'rganish davomida, har ikki qiyoslanayotgan tillardagi sentensemalar tuzilishiga ko'ra turlarga ajratilgan holda tahlil qilindi. Xususan,

**a) Sodda sentensemalar:**

- *O'zbek tilida:* Yigitlar kuyovni mehmonxonag'a olib kiradirlar, ziyofat boshlanadi [A. Qodiriy, O'tkan kunlar, 31]; Nikoh o'qilish mobaynida onasi kuyov yelkasiga beqasam chopon yopdi [T. Murod, Oydinda yurgan odamlar, 8]; To'yxona to'la to'ylovchi bo'ldi [T. Murod, Oydinda yurgan odamlar, 6];
- *Ingliz tilida:* A wedding is not a wedding without the feast; A wedding is the last gasp of your childhood family; Weddings are great places to meet people [J. Guillory, The Wedding Date, 18], An invitation to a wedding invokes more trouble than a summons to a police court does;

**b) qo'shma sentensemalar:**

- *O'zbek tilida:* Kuyovto'ra kelib qarab tursin, kim qanday sovg'a tashlaydi [T. Murod, Oydinda yurgan odamlar, 6]; Karnay-surnaylar eshittirdim, to'yxona havosini oldirib-oldirib keldim [T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 18]; Bu qish kuchim yetmaydi, kelasi qish katta to'y beraman [T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 36];
- *Ingliz tilida:* We are a little crazy with wedding stuff, but I know we'd both love to catch up with you [J. Guillory, The Wedding Date, 25]; Okay, well, that's obviously your dress for the wedding, and you have the perfect shoes for it, those gold ones you bought to wear with the gold sequined dress [Ibidem, 31].

Tipologik jihatdan turli tillar oilasiga mansub bo'lgan ingliz va o'zbek tillarida keltirilgan misollarni qiyoslab tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin: qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarda so'zlashuvchilarning tafakkurida, ongida, konseptosferasida "to'y" konsepti universal hodisa sifatida mavjud, chunki ushbu konsept kommunikativ nuqtai nazardan muhim va zarur bo'lgan konseptlar sirasiga kiradi va u tillarda voqelantirilmay iloji yo'q.

[405] Xoshimov G'. M. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. Filologiya fanlari doktori, professor N.K. Turniyozov tavalludining 70-yilligiga bagishlangan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. –Samarqand, 2010. –68-69 b.

# TALABALARINI O‘QUV VA SPORT FAOLIYATIGA MOSLASHISH JARAYONING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**R.Ubaydullayev – Farg’ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**H.Toxirov – Farg’ona davlat universiteti**

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi ta’limiga moslashish boshqa ta’lim yo‘nalishlariga nisbatan o‘z xususiyatlariga ega. Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari boshqa talabalardan moslashuvchanlikning dastlabki darajasi va ta’lim jarayonining harakat faolligi hajmi yuqoriligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko‘p yillar davomida sport bilan shug‘ullanish organizmning morfologik va funksional zahirasini tez safarbar qiladi.

Oliy o‘quv yurtiga kirish vaqtiga kelib sportchilar sport faoliyati natijasidagi yutuqlar asosida shakllangan yuqori ijtimoiy mavqega ega bo‘ladilar, yaxshi jismoniy rivojlanganlik va tengdoshlariga nisbatan muloqot doirasi kengligi bilan ajralib turadi. Bularning barchasi yuqori malakali sportchilarni sinfdoshlari o‘rtasida alohida o‘ziga xos o‘ringa qo‘yadi. Lekin institutidagi yangi ijtimoiy muhitga moslashishi qiynroq kechadi, chunki bu erda sportchi tenglar ichida teng holatga tushib qoladi (masalan, jismoniy tarbiya fakulteti tahsil olayotgan talabalarning ko‘pchiligi sport ustasi yoki sport ustaligiga nomzod).

Intellektual salohiyatning oshib borishi va ilm olish qobiliyatining rivojlanishi nafaqat oliy o‘quv yurtida ta’lim olishga muvaffaqiyatli moslashish natijasi, balki yaxshi jismoniy holat, sog‘lomlik, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari ham bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbiy faoliyat va hayotga moslashishining zarur shartidir.

Biz jismoniy tarbiya fakulteti ta’lim samaradorligini o‘rganish maqsadida talabalarining o‘quv va sport faoliyatiga oliy o‘quv yurtidagi ta’lim olish davriga, intellektual va jismoniy yuklanishning muttanosibligiga, mashq jarayonining yo‘naltirilganligi va sport malakasining darajasiga, konstitusion va yosh xususiyatlariga, ruhiy va fiziologik mavqeyiga, bilim olish qobiliyatining xususiyatlariga ko‘ra, moslashish xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlashga harakat qildik.

Yoshlarning talabalik hayotiga moslashishlari ijtimoiy va biologik zahiralari etarli darajada shakllanmagan organizmining moslashishini talab etuvchi murakkab jarayon sanaladi. Moslashish jarayonida talabalar oliy ta’lim shaklidagi o‘qitish tizimiga o‘tish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur qiyinchiliklar quyidagilar bilan izohlanadi:

1) uzluksiz ta’lim tizimining oliy ta’limga qadar bo‘lgan bosqichlari (umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari – akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlaridan keskin farq qiladigan o‘quv ishlarining yangi shakl va metodlariga o‘tilishi; o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning, shuningdek, har bir mashg‘ulotning o‘ziga xosligi, pedagoglarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan yondashuvlari – mashg‘ulotlarning tashkiliy shakllari (ma’ruza, seminar hamda amaliy ishlar)ning tashkil etilishi, turli darajadagi pedagogik talablarning qo‘yilishi, pedagoglar shaxsida o‘ziga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi;

2) talabalar jamoasiga moslashishda, xususan, o‘zgacha ijtimoiy muhitga duch kelish, talabalar bilan pedagoglar o‘rtasidagi psixologik to‘siqni engib o‘tish chog‘ida o‘ziga xos qiyinchiliklarning yuzaga kelishi;

3) bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida ixtisoslik sohasiga doir kasbiy faoliyat mazmuni bilan tanishib chiqish bilan bog‘liq qiyinchiliklarning ko‘zga tashlanishi.

Oliy ta’lim muassalarida ta’lim jarayoniga moslashishda asosiy o‘rinni birinchi bosqich talabalarining faoliyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu sababli ta’limning birinchi yili bevosita oliy ta’lim muassasalariga moslashish deb ataladi.

Oliy ta’lim muassasalari, eng avvalo, muhim darajada o‘z-o‘zini anglashga asoslanuvchi talabalarning o‘zgacha ta’lim va xulq-atvorlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu boradagi ehtiyojning yuzaga kelishi:

1) har kungi topshiriqlar va ularning bajarilishi yuzasidan kundalik nazoratning yo‘qligi;

2) talabalar uchun mustaqil ishlarni olib borish va hayot tarzini yo‘lga qo‘yishda katta erkinlikning mavjudligi bilan izohlanadi.

**A.I.Saminov – Farg'ona davlat universiteti tayanch doktaranti**

## OKSYUMORON QISMLARINING BIRIKISH USULLARI

Nutqda semantik munosabati jihatidan bir-biriga mos bo'lmagan g'ayriodatiy[406] tarzda bog'langan so'zlarning o'zaro aloqaga kirishganini kuzatishimiz mumkin. Bunda so'zlar o'rtasidagi semantik munosabat uyg'unligi buziladi. Biroq bu tarzda birikkan so'zlar yordamida shakllangan nutqda fikr hissiy ta'sirchanligi, bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi, so'zlovchi nazarda tutayotgan niyat-maqsadi bir-birini mantiqan taqozo etmaydigan leksemalar yordamida amalga oshiriladi.

G'ayriodatiy tarzda birikkan so'zlarning o'zaro munosabatga kirishuv natijasida alohida bir badiiy-tasvir vositalar, o'ziga xos stilistik figura yuzaga chiqadi. Bu nutqning ifodali tus olishiga va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi. Tashbeh, o'xshatish, jonlantirish, intoq kabi badiiy san'atlar hamda oksyumoron (g'ayriodatiy birikma) usulini yuzaga chiqarishda ham noodatiy bog'lanishdan keng foydalanish mumkin.

Ifoda shakli jihatidan, asosan, so'z birikmasi va gapga teng keladigan sintaktik figura hisoblangan oksyumoron qismlari o'rtasida sintaktik valentlik mavjud. To'g'ri, oksyumoron qismlari orasida sintaktik munosabat, leksik valentlikdagi singari, bir so'z aytilganda, ikkinchisining ko'z oldimizda gavdalanishi, ya'ni *o'qidim* so'zini yozsak *kitobni, gazetani, jurnalni* kabi narsalar ongimizda faollashmaydi. Lekin har qanday birikmada sintaktik munosabat bo'ladi. Demak, oksyumoron qismlari o'rtasida ham so'z birikmasi va gapdagi kabi sintaktik aloqa va sintaktik munosabat mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'zlar va gaplar o'rtasida ikki xil bog'lanish mavjud. Bularning birinchisida sintaktik aloqa grammatik shakllar yordamida shakllanadi. Masalan: *kitob**ning** varog'i, uy**ga** bormoq, Har qanday narsada isrofgarchilik bor,* ***ammo*** *yaxshilikda isrof bo'lmaydi.* ("Ajoyib nasihatlar"), *Kimki o'tmishni yaxshi bil**sa**, u hozirgi zamon qadriga yetadi.* ("Oz-oz o'rganib dono bo'lur"); bu misollarda sintaktik munosabat so'zlar hamda gaplar orasidagi semantik bog'liqlik orqali yuzaga chiqadi. Masalan: *to'g'ri fikr, baland bino; Gulnoza uyga keldi. Dadasi bilan ko'rishdi.*

Ko'rinib turibdiki, birinchi bog'lanishda ***-ning, -ga, ammo, -sa*** kabi gramatik shakllar so'zlarni va gaplarni bog'lash uchun xizmat qilmoqda. Ikkinchi bog'lanishda esa grammatik shakllar mavjud emas, lekin bunday gaplarda biror bir grammatik shakl yordamida gaplar bir-biriga bog'lanmagan bo'lsa-da, semantik jihatdan, harakatning ketma-ket bajarilishi, mazmunning bir fikr doirasiga tegishliligi orqali bir-biri bilan mazmuniy munosabatga kirishgan. Shu bilan birga gap qurilishida *shubhasiz, albatta* kabi kirish bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Bunday bo'laklar boshqa biror so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, lekin nutqqa aniqlik va ta'kidlash ma'nolarini yuklab, boshqa qismlar bilan semantik jihatdan aloqadorlik mavjudligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, nutqda so'zlar o'zaro ikki xil grammatik aloqa teng va tobe aloqa yordamida bog'landi. Bu aloqalar natijasida turli xil sintaktik birliklar hosil qilinadi. Avvalo, birikma va so'z birikmalari atamalari ostida qanday sintaktik birliklar tushunilishi lozim ekanligini to'g'ri anglab olish zarur. Shu ma'noda grammatik aloqa yordamida shakllangan sintaktik birliklarni uch turga ajratish mumkin:

a) uyushgan bo'laklar – teng birikma;

b) so'z birikmasi – tobe birikma;

v) gap – tobe birikma.

Yuqoridagi uch xil sintaktik birlik sintaksisning o'rganish obyekti hisoblanadi. Shulardan uyushgan bo'laklar teng aloqa yordamida shakllanadi, so'z birikmasi va gap esa tobe aloqa natijasida hosil bo'ladi. Oksyumoron – g'ayriodatiy birikmalar har uchala ko'rinishdagi birlik yordamida ifodalanishi mumkin. Odatiy birikma esa so'z birikmasi va gapdan tashkil topadi. Ularning asosiy farqi ham ana shunda.

Misollar:

1. Uyushgan bo'laklar qolipidagi oksyumoronlarning tobe qismi uyushib keladi:

*"U (Zevarxon) eshakka og'zini yarim ochgan holda allaqanday* ***mehr va jirkanish*** *bilan razm soldi*". (N.Aminov "Yolg'onchi farishtalar").

2. So'z birikmasi ko'rinishidagi oksyumoronlar:

*Obbo,* ***soqolli chaqalog'****-ey! – dedi Shamsi To'raevich Usharovning elkasiga qo'l tashlab.* (N.Aminov "Yolg'onchi farishtalar").

---

406 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. "Сўз эстетикаси", Фан нашриёти – Тошкент, 1981.

3. Gapga teng birikma qolipidagi oksyumoronlar:

*Inja ko‘nglim bardoshlariga,*
***Hazin qo‘shiq kuylar sukunat***.
*Ota, goho sizni o‘ylasam,*
*Tushaverar yodga saltanat. (* Mamlakat O‘ktam. Otam*).*

Stilistik figuraning bir ko‘rinishi bo‘lgan oksyumoron qismlarining bog‘lanishida turli sintaktik aloqa vositalaridan foydalaniladi. Bunda, asosan, so‘z tartibi va ohang muhim vazifa bajaradi. Lekin leksik-grammatik vositalar orqali shakllangan ko‘rinishlari ham uchraydi.

Odatiy birikmalardagi so‘zlar ikki xil shakl yordamida bog‘langani singari oksyumoron qismlari o‘rtasidagi grammatik aloqa ham teng yoki tobe aloqadan iborat bo‘ladi.

Umuman, oksyumoron usulida shakllangan birikmalar birikish usullari yuqoridagi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu kabi holatlar tilimizning sintaktik, semantik va stilistik jihatdan ifoda imkoniyatlari cheksiz, chegarasiz ekanligidan dalolat beradi.

**Sh. Ismoilova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## CHET TILI GRAMMATIKASINI O‘RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Ma’lumki bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rganish hamda o‘rgatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu sa’y-harakatlarni amalga oshirishda muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.nKarimovning 2012-yil 10-dekabrda e’lon qilingan PQ-1875 sonli “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Bugungi kunga kelib esa chet tillarini o‘qitish hamda dars sifatini yaxshilashga qaratilgan metod va yangicha yondashuvlarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Chet tillarini egallash, unda aloqaga kirisha olish, fikr almashish insonga bugungi globallashgan zamonda bo‘layotgan voqea hodisalardan, har bir sohada kashf etilayotgan yangiliklardan habardor bo‘lish, boshqa davlatlarda yashayotgan odamlar hayoti, faoliyati va madaniyati bilan tanishish, o‘z fikr va g‘oyalari bilan dunyoga chiqish va ularga munosabat bildirish vositasidir va boshqacha qilib aytganda, chet tillarini bilish zamon bilan hamnafas bo‘lish imkonini beradi [3:2]. Shuningdek, chet tilida muloqotga kirisha ilish zamonaviy shaxsning, har qanday sohada bo‘lishidan qat’iy nazar, eng muhum belgisidir.

Ma’lumki har qanday til uni tashkil etuvchi Grammatik, leksik va fonetik sathlardan tashkil topgan. Hozirgi kunda chet tillarini o‘rgatishda til sathlarini kommunikativ yondashuv asosida yondashishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ko‘pchilik chet tilini o‘rganuvchilar grammatika darsini zerikarli, faqatgina qoidalarga asoslangan mashg‘ulot deb qarashadi. Ammo chet tilida to‘g‘ri gapirish uchun grammatikani bilish juda muhimdir. Shuning uchun ham hozirgi davr pedagogi oldiga muhum vazifa qo‘yiladi, ya’ni o‘qituvchilar grammatikani o‘quvchilarga shunda yetkazib bersinki, uning metodlari orqali o‘rganuvchida shu tilni egallashga istak paydo bo‘lsin, qiziqishi ortsin va tilni o‘rganish unga zavq bag‘ishlasin. Va o‘qituvchining navbatdagi vazifasi, o‘rganuvchini zeriktiradigan Grammatik qonun-qoidalarni an’anaviy mashq va topshiriqlardan qochgan holda, yangicha uslublardan foydalanib, o‘quvchining ijodkorlik va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantiradigan [4:216] va eng muhimi, bunda grammatikadan aloqaga kirishish vositasi sifatida foydalanishga o‘rgatadigan mashqlarni qo‘llashi ayni muaddaodir va bu davr talabi hamdir.

Kommunikativ grammatikaning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

7. Grammatika muloqotga kirishish uchun vosita. Zamonaviy grammatika darslarida gap Grammatik shakillarni yetkazib berishborasida emas, balki uning kommunikativ funksiyasi haqida ketadi. Bunda faqatgina Grammatik qoidani o‘zlashtirish emas, undan asosan kommunikativ vaziyatlarda foydalana bilish, o‘quvchilarda asosan kommunikativ konsepsiyalarni shakillantirish ko‘zda tutiladi.

8. Chet tilini o‘rgatishda ona tilini inobatga olish. Ayniqsa, boshlang‘ich darajada chet tilini o‘rgatishda albatta ona tilida egallangan bilimlarga murojaat qilish yaxshi samara beradi. Grammatik qoidani tushuntirishda tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar yordamida amaliy ko‘rsatib o‘tiladi.

9. Che tilini o‘rganayotganlarning o‘zlari konteks asosida gapiradilar va muloqotga kirishadilar [2:28]. Zamonaviy grammatika darslarining maqsadi Grammatik strukturalarni o‘rganish emas, balki bu

vositalardan maqsadga va situatsiyaga mos ravishda foydalana bilish ko'nikmasini shakillantirishdan iboratdir [1:19]. Bunda shakl emas, balki mazmun muhimdir. Bu orqali o'quvchilarning kundalik turmush sharoitida eng ko'p ishlatiladigan nutq namunalarini o'zlashtirib olishga erishiladi.

Grammatik malakalarni shakillantirishda kommunikativ usullardan foydalanish muhumdir, chunki har qanday Grammatik malaka faqat nutq vaziyatlarida, muloqot jarayonida yaxshi o'zlashtiriladi. Shuningdek, kommunikativ usullar o'quv jarayoning motivlashtirilganlik darajasinini oshiradi [5:144].

**References:**

11. Gafurova Hilola "Types and peculiarities of phraseology in English and Uzbek languages" "Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, taklif va yechimlar" mavzusidagi 8-sonli respublika konferensiyasi, 2021, 1-fevral Master Hilola, 88-90 betlar

12. Sh. Ismoilova "Psychological and methodical factors of foreign language communication" P216 "Амалий тилшуносликнинг фанлараро масалалари: масофавий таълимдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари" мавзусидаги II халқаро онлайн илмий-амалий анжумани материаллари. - Фарғона, 2021 йил.

13. Jeremy Harmer. "How to teach English" British Council. Pearson Education Limited, 2007.

14. Жалолов Ж.Ж., Махкамова Г.Т., Ашуров Ш.С. "English language teaching methodology"

15. Dushatova Shohsanam. "Ingliz tili nostandart leksikasi – slang so'zlar" "O'zbekiston ilmiy – amaliy tadqiqotlarda talabalarning o'rni" masofaviy konferensiyasi. 2020. 144-bet

**Sh. Karimova – Fergana state university**

## PRACTICE OF INDUCTIVE INSTRUCTIONS IN THE LINGUISTIC UNIVERSITIES

The fundamental approach to inquiry learning is based on constructivist learning theory. Constructivist learning strategies capitalize on learning through inquiry and problem solving via critical and creative thinking. According to Asselin student inquirers are encouraged to explore new ideas and understandings through personal discoveries and explorations as well as interactions with objects and with other people. Learning is enhanced through the inquirers opportunity to engage in real life activities, situations and with real audience.[407]

From the theory teachers generate the facts that students:

- can actively build their knowledge and understanding through their inquiries and information - seeking nature.
- develop their cognition as well as meta cognition as they absorb the information.
- experience changes in their affective and cognitive domains as they progress.
- need time to reflect on their new - found knowledge and process the information.

As the students attempt to analyze the data or scenario and solve the problem, they generate a need for facts, rules, procedures, and guiding principles, at which point they are either presented with the needed information or helped to discover it for themselves. Inductive teaching and learning is an umbrella term that encompasses a range of instructional methods, including inquiry learning, problem-based learning, project-based learning, case based teaching, discovery learning, and just-in-time teaching.[408]

The above mentioned types of inductive approach have much in common, as they all qualify within inductive approach to FLT.

Correspondingly, all of the types have the following features:

1. They are all student-centered, which is seen in imposing more responsibility on students for their own learning;
2. They are all research based, as students learn by fitting new information into already known cognitive structures;

[407] Alebaikan R. Perceptions of Blended Learning in Saudi Universities: Unpublished PhD Dissertation. - Exeter, UK:University f Exeter, 2010.

[408] Prince M.P., Felder R.M. Inductive teaching and learning methods: definitions, comparisons and research bases. // J. Engineering education, April, 2006. –Pp123 – 38.

3. They can all be characterized as constructivist approaches, building on the widely accepted principle that students construct their own versions of reality rather than simply absorbing versions presented by their teachers.

4. All of them support active student learning, involving discussions, and solving problems in class.

5. They all share collaborative and cooperative learning, with much of the study being done in and out of the class by students.

6. All types of inductive learning involve *diagnostic teaching,* with lessons being designed to "discover what students think in relation to the problems on hand, discussing their misconceptions sensitively, and giving them situations to go on thinking about which will enable them to readjust their ideas".[409]

However, these types differ in the nature and scope of the challenge and in the amount of guidance students receive from their instructor as they attempt to meet the challenge (Many faces of inductive teaching and learning, 2007).

Problem-based learning (PBL) begins when students are confronted with an open-ended, ill-structured, authentic (real-world) problem and work in teams to identify learning needs and develop a viable solution, with teachers acting as facilitators rather than primary sources of information.[410]

PBL originated, and is extensively practiced, in different non-linguistic HE, both of which provide links to many additional resources. It is now extensively spread in the fields of engineering, architecture, psychology, business and giving way to be practiced in FLT.[411]

Above, we examined the individual inductive methods – what they are, how they differ, and what is known about how well they succeed in achieving desired educational objectives.

**List of used literature:**

1. Alebaikan R. Perceptions of Blended Learning in Saudi Universities: Unpublished PhD Dissertation. - Exeter, UK: University of Exeter, 2010.
2. Boud D., Feletti G.The Challenge of Problem-Based Learning. 2nd ed., London: Kogan Page, 1997.
3. Prince M.P., Felder R.M. Inductive teaching and learning methods: definitions, comparisons and research bases. // J. Engineering education, April, 2006. –Pp123 – 38.
4. Prince M.P., Felder R.M. Inductive teaching and learning methods: definitions, comparisons and research bases. // J. Engineering education, 2012. p.123).
5. Savin-Baden,M., Major C.H. Foundations of Problem-Based Learning. Maidenhead, Berkshire, England: Open University Press, 2004.

**Sh. Mamajonova - Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**
**B. Kimsanova - Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## SHAXSLARARO MUNOSABARLARDA MUOMALANING SHAXS TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Necha ming yillardan beri insonlar o'zaro muloqat qiladilar. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo`lish imkoniyatidan mahrum bo`lgan odam o`zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo`lolmaydi.Biz atrofimizdagi insonlarga nafaqat so'zlarimiz, tashqi qiyofamiz orqali ham ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishimizni izlanuvchu tadqiqotchi olimlar isbotlab berishmoqda .Shunday ko'rinishlarimizdan biri bo'lgan "jiddiylik"haqida U.Kennoning gomeostazis (organizm funksiyalari ichki sharoitining doimiyligi )haqidagi ta'limotida va G.Selenning "umumiy adabtatsion sindrom" haqidagi ya'ni organizmning o'ziga xos himoya qilish xarakterida ,aniqroq qilib

[409] Prince M.P., Felder R.M. Inductive teaching and learning methods: definitions, comparisons and research bases. // J. Engineering education, 2012. p.123).
[410] Boud D., Feletti G.The Challenge of Problem-Based Learning. 2nd ed., London: Kogan Page, 1997.
[411] Savin-Baden,M., Major C.H. Foundations of Problem-Based Learning. Maidenhead, Berkshire, England: Open University Press, 2004.

aytilganda jismoniy yoki nerv –psixik ,emotsional ,endokrin tizimlarida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi ekan .Bu o'zgarishlar fizologik asoslab berilgan .Jiddiylik holatlarida yurak qon tomirlari sistemasi ,nafas olish sistemasi va boshqa vegitativ nerv sistemasi ishida kuzatilgan elektroensofalagrammada xattoki qonning bioximik tarkibida ham o'zgarish yuzaga kelgani aniqlangan. Shuningdek ancha kuchli jiddiylik holatida yuqoridagi o'zgarishlar bilan birga umumiy tormozlanish ,passivlik ham kuzatilar ekan .Biz o'zimizni jiddiy,sovuqqon ko'rsatishimiz nafaqat atrofdagilarni balki, o'z tanamizga salomatligimizga ham zarar keltirar ekanmiz.Endi munosabatlarda nutqimizning o'rni qanchalik ekanini ko'rib chiqamiz .

Nutq-shaxslararo munosabatlarda ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.Ta'sir ko'rsatish –biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo'lsak ,shu insonda biz istagan hislar ,intilishlar va xarakatlarni tug'dirish, ularni fikrini biz istagan tomonga burish ,ularni o'zimiz xohlaganimizcha o'ylashga majbur etish,ularni ishontirish demakdir .Ma'lumki, nutq yordami bilan boshqalarda xursandchilik ,qo'rquv g'azab,ruhlanish xislarini tuydirishimiz mumkin .Katta bir armiyaning qo'mondoni Rudnev to'g'risida qilingan hikoyada odam nutqining qanchalik zo'r ta'sir ko'rsata olishi haqida bunday deyilgan "U o'zining katta ishini amalga oshirayotganida,nutqidan asosiy qurol sifatida foydalanardi…U jangchilar bilan gaplashayotganida…men odamning so'zi nimalar qilishi mumkinligini birinchi marta o'z ko'zim bilan ko'rdim va bilib oldim"

Muloqot jarayoni o`ziga xos ravishda murakkab bo`lib, bunda uch xil bosqich mavjud. Dastlabki bosqich — odamning o`z-o`zi bilan muloqotidir. T. Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo`lsa ham o`zini anglasa, demak, u o`z-o`ziga ko`rsatmalar bera oladi»— deb to`g`ri yozgan edi. Odamning o`z-o`zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Boshqalar bilan muloqot— muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A. N. Leontev o`zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli— avlodlar o`rtasidagi muloqotning ahamiyati to`g`risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o`lib ketganida, insoniyat turi yo`q bo`lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo`qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o`z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo`ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg`or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar. Bundan tashqari rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o`z qo`l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o`sha suhbatdoshlarnnng fikr-o`ylari, niyat-maqsadlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo`lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko`proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Ba'zida kunlik munosabatlar vaqtida bir birimizni tushunmasligimiz gohida tushinishni xohlamasligimiz sababli noxush ziddiyatli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu o'rinda sharq faylasufi Aristotelni o'z zamonida aytgan bir xikmatli so'zlarini keltirib o'tmoqchimiz "Bahslashayotgan xar ikkala tomon ayni bir fikrni tushinmoqlari uchun avvalo ishlatilayotgan so'zlarining mazmuni va ma'nosi haqida kelishib olmoq kerak ."Kishining o'z nutqida har bir so'zining ma'nosini aniq tushinib foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan lug'at boyligi, shu kishining nutqi qay darajada o'sganligini ko'rsatadi Biz insonlar jamiyatimizni tarkibiy birligimiz,boshqalarga bildirayotgan munosabatimiz aslida o'zimizga qilayotgan munosabatimiz sanaladi.Shunday ekan zarar yetkazish ham ,asrab avaylash ham o'z qo'limizda .

**Shaxloza Karimova – Fergana state university**

## MODERN APPROACHES AND THEORETICAL ASPECTS OF LINGUISTICS TO FLT AT THE HIGHER EDUCATION

In the new millennium many educators are overwhelmed by the repertoire of classroom methodologies and techniques available. In the search of the best method they need to carefully examine the need of the students to truly grasp the necessary skills to acquire knowledge. In order to achieve this, the roles of educators must constantly evolve to meet the needs of learners today. From the traditional role of teacher as director, other more effective roles such as the collaborator or facilitator are sought after which

are more relevant to this new millennium era that strives for better curriculum reform. Thus, educators have begun to look at goals, characteristics and outcomes of the inquiry-based learning method that is able to provide the possible better alternative. Although inquiry-based learning method has only been introduced recently, it has become one of the most popular learning methods in the developed countries such as USA and Canada. In Malaysia, it is yet to be introduced. However, some related classroom methodologies, such as problem–based learning method, has been practiced. “Inquiry” is defined as a quest “for truth, information, or knowledge…seeking information by questioning”.[412]

Individuals go through a process of inquiry from birth until they die. Babies begin to make sense of their surrounding through their curious observations. The process of inquiry begins with “…constructing and gathering information and data through applying the human senses”.[413]

The fundamental concept in inquiry - based learning regards to a process of personal discovery by the learners. The learners or the student inquirers are guided to inquire or generate relevant questions and to come up with the appropriate answers through critical thinking. In inquiry learning learners are also shown how knowledge is generated, how it is transmitted, and how all parties including experts, teachers, parents and society contribute to a learners “knowledge. Inquiry learning teaches the learners to respect one” s own interest and the interest of others.[414]

Foundations of Inquiry-Based Learning. In order to provide a sound and meaningful learning experience in an inquiry-based classroom teachers must first equip themselves with a sound knowledge of the method. Therefore, the teachers need to grasp the roots and the essence of the methodology such as from the respective disciplines and learning theories it has sprouted.

As for the modernization process, after gaining Independence of Uzbekistan, it had been revealed that the system of FLT was in an unsatisfied condition and demanded modernization. During the process of modernizations, we faced FLT curricula, teaching materials, methodology and tools didn’t meet the modern international requirements. The main challenges in FLT in all stages of education can be summarized as follows:

- poor attitude among teachers and learners as to the feasibility and value of FLT, and consequently lack of a sense of purpose;
- failure to promote a communicative ability among students so that they might feel some sense of practical success;
- lack of any coherent policy of differentiation;
- failure to promote students responsibility;
- lack of curriculum skills among teachers, leading to blind reliance on textbooks and external examinations.

Thus, it has become crucial to identify the challenges and innovations in order to satisfy the language policy in Uzbekistan.

The CEFR document is universally recognized international standard which contains the main concepts reflecting modern approaches to FLT in various grade levels and national contexts.[415] It gives the certain description of competences for FL acquisition and suggests the necessary instruments for evaluation of the achieved language proficiency. Levels of language proficiency are dealt with in the terms of “knowledge and skills” used in the communication, in particular, taking into account fluency of the speech, its flexibility, and appropriate using language means in the different contexts of communication.

Competence-based approach to FLT presupposes acquisition of certain number of knowledge and skills for the purpose of achieving professionally and socially significant competences in independent, educational and informative, social and cultural fields of their activity.

All in all, adoption of competence-based approach to language learning can represent a significant challenge for teachers. The success of this approach to language teaching depends crucially on the skills and professional readiness of teachers who will be required to implement it.

---

[412] Exline, J. Concept to classroom. Inquiry-based learning. 2004. P31
[413] Exline, J. Concept to classroom. Inquiry-based learning. 2004. P 34
[414] Donham, J. The importance of a model. 2001.
[415] Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment, 2003.

**D.O.Abduraxmonova – Beshariq tumani 4-maktab o‘qituvchisi**

## TA’LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Zamonaviy ta’limning hal etuvchi xususiyatlaridan biri o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. “Innovatsiya” tushunchasi qator olimlarning fikricha, XIX asrda paydo bo‘lgan va bir madaniyatning, ya’ni ijtimoiy va ma’naviy hayotda erishilgan yutuqlarning ayrim elementlarini boshqasiga kiritishni anglatgan.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqadi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkaziladigan darslar larni muhim hayotiy yutuq va muammolarga munosabatlarini bildirishga intiltiradi va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublarining, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati beqiyosdir.

Mavzularni o‘qitishda innovatsion usullar bilan muloqotning yangi usullari, ular bilan ish yuzasidan hamkorlik vaziyati va ularni joriy muammolariga jalb etishdir. Innovatsion usullarning o‘zini namoyon qilishlariga imkon beradigan usuldir. O‘zini namoyon qilish esa o‘ziga kasb tanlashning to‘g‘ri yo‘lidir.

Bugungi zamonaviy ta’limda ta’limning turli usullaridan foydalaniladi. Klassik turdagi, ya’ni darsning an’anaviy turi hozirgi davrda kam samarali bo‘lib qoldi. Bu borada, o‘qitishda integrallashgan uslublar alohida o‘rin egallaydi. Ular o‘quvchilarning ijodiy va bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi, o‘qitish motivini kuchaytiradi. Bunday darslarni o‘tkazish – o‘qitishga faoliyatli yondashish prinsiplari asosida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish yo‘llaridan biridir.

Predmetlar(fanlar)aro tushunchani shakllantirishda yordam beradigan integratsiyalash usuli vaqt omili bo‘yicha (ilgarigi, istiqboldagi va sinxron bog‘lanishlar) fanlararo bog‘lanishning xarakterini aniqlaydi, mavzuga doir o‘quv materiali mazmunini optimallashtirish (takrorlanishni, turlicha talqin qilishni, xronologik nomuvofiqlikni bartaraf qilish) maqsadida fanlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirishga imkon beradi. Mazkur usul aniq o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab o‘quv dasturlarining mazmunini soddalashtiradi, o‘qishning ijobiy motivini, o‘zini baholashga adekvatlik yoki moslikni, muvaffaqiyatli o‘qishning maksimal imkoniyatlarini, har bir o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning ijobiy sharoitlarini yaratadi.

Fanni o‘qitishda loyihaviy faoliyat turi ham o‘quv-bilimdonlik faolligini faollashtirish usuli hisoblanadi. Bunga loyihani tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning yuqori mustaqilligi yordam beradi. Muvofiqlashtiruvchi bo‘lib chiqadigan o‘qituvchi, tanlangan mavzuni tadqiqot qiluvchi o‘quvchi faoliyatini yo‘naltira turib, mavzu to‘g‘risida eng to‘liq axborotni yig‘adi, olingan ma’lumotlarni tizimlashtiradi va turli texnikaviy vositalardan, shu jumladan, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, ularni taqdim etadi.

Fanini o‘qitishda loyihaviy yondashuv bo‘yicha ishning asosiy bosqichlari quyidagilar hisoblanadi:

- maqsad qo‘yish: loyiha topshirig‘i mavzusini uning amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda tanlash, muammolarni aniqlash, vazifalarni aniq ifodalash;
- loyihani amalga oshirish uchun o‘quvchilarga zarur bo‘lgan intellektual, moddiy va moliyaviy imkoniyatlarni baholash;
- adabiyotlarni o‘rganish jarayonida zarur bo‘lgan axborotni yig‘ish va qayta ishlash, ma’lumotlar bankiga murojaat qilish;
- mustaqil o‘qish va o‘qituvchining maslahatlar yordamida bilimlarni dolzarblashtirish;
- natijalarni umumlashtirish va xulosalash;
- bajarilgan ish sifatini baholash, loyihani himoyalash;
- muvaffaqiyatlar va xatolar tahlili.

Ayniqsa darslarda ijodiy loyiha o‘quv-mehnat topshirig‘i natijasida sub’ektiv, ba’zan esa ob’ektiv yangilikka ega bo‘lgan mahsulotning paydo bo‘lishidir.

O‘qitishda o‘quvchilar ishini loyihalar usuli bo‘yicha tashkil etishda, o‘quvchilar nafaqat individual, balki guruh shaklida ham mustaqil ish bajarishlari mumkin bo‘ladi. Guruh bo‘lib ish bajarishning o‘ziga xos ijobiy tomonlari bor. Guruh bo‘lib ishlash ishtirokchilarni ishchanlikka yo‘naltirilganligi, munosabatda

bo'lishligi, guruxdoshlarini yaxshi bilish imkoniyati, ularga o'zini tenglashtirish va o'zini baholash doirasini kengaytirish bilan o'ziga jalb etadi. Bundan tashqari, guruh bo'lib ishlash:

- o'quvchilarga qiziqishlari bo'yicha birlashish imkonini beradi;
- o'qitish jarayonida o'quvchilar uchun turli rollarni bajarish faoliyatini ta'minlaydi;
- belgilangan muddatlarda topshiriq bajarilishi majburiyligi ruhida tarbiyalaydi, chunki butun jamoaning muvaffaqiyatli ishi shunga bog'liq bo'ladi;
- tenglik va g'oyalarni erkin ifodalash, ularni himoya qilish, isbotlash imkoniyatlarini taqdim etadi, ayni paytda boshqaning nuqtai nazariga sabr-bardosh berishga o'rgatadi;
- shaxsning individual o'zi rivojlanishida psixologik to'siqlarni yengish usullaridan biri hisoblanadi;
- o'zaro yordamlashish imkoniyatini namoyon qiladi, shu bilan birga musobaqalashish ruhini va raqobatlashishni rag'batlantiradi.

Jamoaning guruhli loyihasi ustida ish olib borilganda guruhning har bir a'zosining individual ishini birlashtiruvchi katta buyumni barpo etish imkoni bo'ladi.

**Sh.A. Hamidov – Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, insonning salomatligini har tamonlama muhofaza qilish ajdodlarimiz merosidan boshlab to shu kungacha o'z aksini topib kelmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ma'nan yetuk va jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi, sport, shu jumladan, uning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi yosh avlodni jismonan barkamol qilib tarbiyalash va ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, bolalar sportini rivojlantirish sohasida yoshlarni , ayniqsa qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va inshootlarini qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz hamda ayol - murabbiylar tayyorlash masalasiga etibor yanada oshirildi.

O'quvchilar o'z sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashda, har tomonlama jismoniy rivojlanishida yaxshi tuzilgan kun tartibi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Harakat, avvalo, jismoniy mashqlar organizmning barcha sistemalari: asab, yurak – qon tomir, nafas olish, mushak sistemalarining rivojlanishi uchun juda zarur. Jismoniy mashqlardan to'g'ri foydalanilsa, inson mushaklari kuchli , harakatlari aniq bo'ladi, butun organizm esa tashqi muhitning har xil ta'siriga yaxshi moslashadi.

O'quvchilar doimiy harakatda bo'lishi juda muhim sanaladi. Chunki harakat orqali hayotni, atrof - muhitni anglaydi, mehnat malakasi va ko'nikmalariga ega bo'ladi. Yosh qizlarni raqs to'garagiga berish, gavdani, qad-qomatni to'g'ri shakllanishida katta rol o'ynaydi. Raqs mashqlari bolalarda milliy raqs harakat lari haqida tushunchalar paydo qiladi, ularda epchillik, go'zallik, nafislik kabi zarur xislatlarni rivojlantiradi. Raqs mashqlarini bajarish qomatning shakllanishiga yordam beradi. Bu mashqlar bilan muntazam shug'ullanish bolalardagi eshitish qobiliyatini hamda ritmni his qilishni o'stiradi, harakatlarni sur'at o'zgarishiga qarab bajara olish malakasini hosil qiladi, musiqa jo'rligi esa his-tuyg'ularga ta'sir kuchini oshiradi. Oddiy raqs mashqlarini bolalar bilan davra qurgan holda, safda, shuningdek, ikkitadan, uchtadan, to'rttadan yoyiq qatorda o'tkaziladi. Mashqlarni siz sanash, kuylash va musiqa jo'rligida bajarsangiz jo'shqinroq bo'ladi. Nima uchun jismoniy tarbiya darslarida raqs mashqlari bajariladi. Chunki sportning gimnastika, akrobatika, muzda figurali uchish kabi turlaridan raqs elementlari mustahkam o'rin egallagan. Agar o'quvchilar kelgusida shunday sport turlari bilan shug'ullansalar ularga jismoniy tarbiya darslarida raqs mashqlarini bajarishdan olgan ko'nikmalari albatta yordam beradi. Muhimi, bu harakatlar bolani o'sishi va rivojlanishi uchun zarur vosita hisoblanadi. Ammo ortiqcha harakatlar bilan o'quvchilarni toliqtirmaslik lozim. Kun tartibidagi harakatlar bolalar yoshiga mos bo'lishi ayni muddao.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi bo'yicha hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali har bir o'quvchida turli xil kasallikka qarshi kuchli immun tizimi paydo bo'lishini ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga

amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida tegishli ishlar olib borilmoqda

Odam organizmi turli kasalliklarga bakteriyalar tufayli duch keladi. Tanamiz millionlab bakteriyalar uchun makon hisoblanadi.Ammo ularni mikroskopsiz ko'rib bo'lmaydi.Bakteriyalar tanamizga turli taraflardan kirib kelishadi.Ba'zilari juda kichik suv zarralari tarkibida havoda suzib yuradi. Yana bir turi eshik tutqichi, pul kabi ko'p ushlanadigan buyumlarda joylashib shu yo'l bilan boshqa odam tanasiga ko'chib o'tadi. Boshqalari yegan narsalarimiz bilan birga ovqat hazm qilish tizimiga tushadi. Tug'ilganimizdan ikki kun o'tiboq bakteriyalar tanamizga joylashib oladi. Bakteriyalar tanamizning turli qismlarida yashashi mumkin. Ba'zi bir bakteriyalar terimizda yana ba'zilari sochimizda yashaydi. Hatto qovoqlarimizda yashovchi bakteriyalar ham bor. Oshqozonimiz,yog'on va ingichka ichaklarimiz bakteriyalarga eng boy joy hisoblanadi. Bakteriyalar ovqatni hazm qilishda yordam beradi. Tana uchun kerakli vitaminlarni hosil qilish ishlarida qatnashadi. K vitamini qon va suyaklarni sog'lom tutadi,Biotin esa hujayralarning o'sishiga yordam beradi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari salomatligini muhofaza qilish, ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, kasal o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlash, ularni sog'lomlashtirish, turli kasalliklarni oldini olish ishlari keng yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ham o'tgan davrlardagidek muhim hisoblanadi va bu muammo ham o'tgan davrlardagidek ijtimoiy muammo sifatida o'rganilgan. Bu borada bir qator pedagog olimlarimiz tadqiqot ishlarini olib borib tavsiyalar berganlar.Boshlang'ich sinf o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, zararli odatlar va ularni bartaraf etish yo'llari pedagog olimlar ishlarida o'rganilgan.

Bolalarni maktabda va uyda o'zini tutishi hamda o'tirish holatini nazorat qilishning oddiy usullarini pedagoglar tomonidan tushuntirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Pedagoglar bolaning o'tirishini sabr bilan boshlang'ich sinflarda kuzatishlari va shu orqali xato hamda kamchiliklarni bartaraf etishlari muhim sanaladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazorati bolalarning sog'lom bo'lishlari uchun katta ahamiyatga ega.

An'anaviy shakllangan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga asosan o'tirgan holatda dars o'tiladi. Shu sababdan o'quvchilar holatiga beparvolik bo'lmaslik va toliqtirib qo'ymaslik lozim. Hozirgi kunga kelib yoshlarimizning salomatligini nazorat qilishga katta e'tibor berilmoqda. Bolalarda ovqat hazm qilish va qon hosil qilish a'zolari kasalliklari, asab kasalliklari, yuqumli teri kasalliklari yetakchi o'rin egallashi tufayli bolalar sog'ligiga alohida urg'u berilmoqda. Suvni kòproq ichish, fastfodlardan kechish, ko'proq salat yeyish, sut va sut mahsulotlarini kunda istemol qilishi, inson ovqatlanganda 60 % salat va 40 % ovqatligini bilishlari kerak.

Ta'lim – tarbiya ishlarini yoshlar organizmining fiziologik xususiyatlariga asoslangan, gigiyena qoidalariga to'liq rioya qilingan holda ta'lim tizimini faoliyat ko'rsatishni ta'minlash bugungi kundagi muhim pedagogik muammolardandir. Shuning uchun pedagoglar o'quvchilarni dars vaqtida o'tirish holatlarini nazorat qilishlari, darslarda jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazishlari, ijobiy ta'sir qiladigan harakatlar tartibini tashkil qilishlari, jismoniy tarbiya mashqlariga gavdani to'g'ri tutishga yo'naltirilgan mashqlarni kiritishlari zarur.Mashqlarni musiqa ijrosida bajarish yanada ko'proq ijobiy samara beradi. Maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlaboq birinchi sinf o'quvchilarida to'g'ri o'tirishni shakllantirishga e'tibor qaratish zarur.

**Sh.Sh. Qahramonova – Farg'ona davlat universiteti talabasi**

## SO'Z USTALARI NUTQIDA IFODALANUVCHI AYRIM STILISTIK HODISALAR

O'zbek tilshunosligida shu kunga qadar so'z ustalari va qiziqchilar nutqi, ulardagi kulgini yuzaga keltiruvchi usul va vositalar tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Lekin kulgili yo'nalishdagi asarlar, askiyalar, latifalarda kulgini yuzaga keltiruvchi lisoniy vositalar o'rganalishida Sh. Abdurahmonovning "O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar", X. Dusmatovning " Askiya matni lingvostilistikasi", X. Abdurazzoqovning " Satira va yumor" kabi mavzularda olib borgan tadqiqot ishlari

o‘zining amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bugungi kun o‘zbek tilshunosligi o‘zbek qiziqchilari va so‘z ustalari nutqining o‘ziga xususiyatlarini o‘rganish, ulardagi kulgi qo‘zg‘atuvchi usul va vositalarni aniqlash, tadqiq etishni talab qilmoqda.

“Kulgi qo‘zg‘atuvchi vositalar xilma – xil bo‘lib, ularni barcha sathlarda, jumladan, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarda uchratish mumkin”.[416] Qiziqchilar nutqida geminatsiya, assonans, alliteratsiya, omonimiya, paronomaziya, stilistik sintagmalash, agnomaziya, oksyumoron, metonimiya, metafora kabi turli sathlarga oid bo‘lgan stilistik hodisalar ifodalanishi mumkin. Ushbu maqolada ularning ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

Assonans - aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik.[417] Qiziqchilar nutqida unlilarni cho‘zib talaffuz qilish orqali turli ma'nolar ifodalanadi:

a) *kinoya, piching:* San'atkor san'atkorga do‘- o‘st bo‘ladi-da.

b) *tasviriylik:* Agar shu sahnaga Ozodbek Nazarbekov chiqib kelganda bo-o-ormi, ayollar qi-iyqirib yig‘lab yuborardi.

c) *ma'no kuchaytirish:* Tog‘ning o‘- o‘rtasidan chiqayotgan mu-uzdek suvni to‘ldirib, shunga tushasan dermish.

Oksyumoron - mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki tushunchani (mazmunan bir-biriga zid ikki so‘zni) o‘zaro qo‘shishdan iborat stilistik figura.[418] Ma'lumki, oksyumoron hodisasi, asosan, so‘z birikmasi shaklida (issiq qor, so‘zsiz suhbat) ifodalanadi. Biroq qiziqchi Avaz Oxun nutqida oksyumoron qo‘shma so‘z shaklida ifodalanishi ko‘zga tashlanadi: *O‘zbek ayollari kabi bolasevar, ersevar, g‘iybatsevar, kaltaksevar ayollar dunyoda bo‘lmasa kerak.* Ushbu misolda keltirilgan g‘iybatsevar, kaltaksevar so‘zlari semantik jihatdan birinchi qismi salbiylikni, ikkinchi qismi ijobiylikni ifodalaganligi uchun qo‘shma so‘z bilan ifodalangan oksyumoron deb qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agnomaziya - badiiy nutqda agnonimlarning uslubiy maqsadda qo‘llanilish hodisasi.[419] Agnomaziya, asosan, dialogik nutqqa xos bo‘lib, suhbatdoshiga no‘malum bo‘lgan so‘zlardan foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo‘zg‘atishga xizmat qiladi.

- Bordingizmi doktorga?
- Ha, bordim. Juda qimmat dori yozib berdi. Qidirib-qidirib topib keldim.
- Ha, topdingizmi, ishqilib?
- Bu tonusingiz juda pasayib ketibdi,-deydi.
- Nima ekan u tonus?
- Tonus bu - odamning kayfiyati tushib ketgan bo‘larkan-da, shuni ko‘tarish uchun kerak ekan (kiyimiga yashirilgan bir shisha aroqni chiqaradi).
- Ha, shunaqami? Ko‘p-ko‘p iching unda.

Yuqorida keltirilgan er-xotin suhbatida *tonus* so‘zi vositasida agnomaziya hodisasi yuzaga chiqariladi. Bunda tonus ayol uchun agnonim so‘z sifatida ifodalanadi.

O‘zbek qiziqchilari o‘z nutqlarini ta'sirchan, kulgiga boy bo‘lishi uchun turli stilistik usul va vositalardan foydalanadilar. Asosan, ta'sirchanlik, ekspressivlik yozma nutqdan ko‘ra og‘zaki nutqda yorqinroq ifodalanadi. Qiziqchilar nutqining o‘ziga xos jihatlaridan biri nutq so‘zlash jarayonida noverbal vositalar (qo‘l harakatlari, mimika va ishoralar[420]) dan o‘rinli foydalanishlaridir. Qiziqchilar so‘zlarni ma'lum talab darajasida talaffuz qilish, stilistik hosilalardan o‘rinli foydalanish, ko‘chma ma'nodagi so‘zlarning to‘g‘ri ma'nolarini izohlash, uslubiy hodisalardan maqsadli foydalanish orqali tinglovchida kulgi qo‘zg‘atishga muvaffaq bo‘ladilar.

---

[416] Абдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 4 б.
[417] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – 19 б.
[418] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – 74 б.
[419] Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. - Farg‘ona, 2021. - 364-bet.
[420] Dusmatov X., Mahmudova Z. Uslubshunoslik asoslari. - Farg‘ona, 2021. - 283-bet.

**Sh.R. Sulaymonova – Farg‘ona davlat universiteti talabasi**

## INGLIZ TILI GRAMMATIKASINI TEZ VA OSON O‘RGANISH

Ingliz tili grammatikasini o‘rganuvchilar grammatika qonun-qoidalari bilan tanishib chiqqanda u nihoyatda zerikarli va tushunarsiz bo‘lib tuyilishi tabiiy. Lekin ingliz tili grammatikasi ham xuddi o‘z ona tilimiz kabi qonun-qoidalarga ega. Agar til o‘rganish uchun insonda xohish bo‘lsa, albatta o‘rgana oladi. Grammatikani o‘rganishni osonlashtirishdagi birinchi qadam- bu til grammatikasi qurilishini butun vujudingiz bilan his qilgan holda uning har bir qoidasi mazmunini tushunib olishingiz hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, grammatikani o‘rganish uchun siz uni butun vujudingiz bilan his qila olish darajasida tushunishingiz, shu tushunchani aqliy hayotingizga kirita olishingiz kerak.

Ingliz tili grammatikasini o‘rganishdan avval o‘zbek tili grammatikasini yaxshilab tushunib oling. Avvalo, ona tilini bilmagan kishi xorijiy tilni mukammal darajada o‘rgana olmaydi. Ingliz tili grammatkasini o‘rganishdan oldin o‘zbek tili grammatikasini o‘rgansangiz yoki mavjud bilimlaringizni takrorlasangiz, xorijiy til grammatikasini o‘rganishingiz oson kechadi. O‘zbek tili va ingliz tili grammatikalari tuzilish, kelib chiqish va o‘rganilish jihatidan ancha farqli bo‘lishga qaramasdan tilni o‘rganishda ishlatiladigan asosiy grammatika tushunchalar bu ikki tilda bir xildir. O‘z ona tilingizni qancha yaxshi bilsangiz, uning grammatika qoidalarini qancha yaxshi tushunsangiz, ingliz tili grammatikasini ham shunchalik oson o‘rganasiz.

Siz ingliz tili grammatikasida son (the numeral) mavzusini o‘rganmoqchisiz. Buning uchun siz faqatgina son haqidagi qoidalarni o‘qish bilan cheklanib qolmang. Qo‘lingizga ruchka va yangi varaq olingda, mavzu haqidagi siz tasavvur qilgan eng sodda, eng tushunarli, eng qiziqarli bo‘lgan qoidani o‘zingiz uchun yarating. Agar zarur bo‘lsa qo‘shimcha tushunchalarni yozing. Mayli, bu yozganlaringiz kitoblardagidek murakkab bo‘lmasin, muhimi u sizning qarashlaringizga uyg‘un holda tabiiy bo‘lsin! Shu tariqa har bir mavzuni o‘zingizga moslagan holda ingliz tili grammatikasini o‘z xohishlaringiz, uslubingiz, qarashlaringizdan kelib chiqqan holda oson o‘rganishni boshlaysiz.

Siz qaysi usulda dars qilsangiz yaxshiroq o‘rganasiz? Kimlardir eshitish orqali, kimlardir ko‘rish yoki bajarish orqali yaxshi o‘rganadi. Agar sizda eshitish orqali o‘rganish oson bo‘lsa, grammatik qoidalarni o‘zingiz telefoningiz diktofoniga yozib olib, keyin uni kun bo‘yi tinglab yurishingiz mumkin. Ko‘rish orqali yaxshi o‘rgansangiz ingliz tili grammatikasiga oid slaydlar va video darslar yordamida bilim oling. Bajarish orqali o‘rganishingiz osonroq kechsa, mavzuga doir mashqlarni odatdagidan ko‘proq bajarishga va o‘rganilgan grammatik qoidani ko‘proq amalda qo‘llashga harakat qiling.

Ingliz tilida so‘z boyligini oshirish uchun lug‘atni ochib uni boshidan-oxirigacha yod olish shart emas. Shunchaki, bitta inglizcha matn olib uni tarji-ma qilishga harakat qiling. Bilmagan so‘zlaringizni yozib lug‘atdan qidirib yod oling va bu so‘zlarni og‘zak nutqda qo‘llashga urinib ko‘ring. Agar yod olgan so‘zlaringizni takrorlab turmasangiz vaqti kelib bu so‘zlar xotirangizdan o‘chib ketadi.

Ingliz tili grammatikasini o‘rganishda har xil interaktiv o‘yinlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bitta qog‘ozni bo‘laklarga bo‘lib, unga har xil so‘zlar yozing. Masalan, day, go, she, school, to, every va bu so‘zlardan so‘z birikmasi tuzishga urinib ko‘ring- She goes to school every day. Agar bu mashqni muntazam bajarib borsangiz, ingliz tilida so‘zlardan mustaqil ravishda gap tuzish qobiliyatingiz yanada rivojlanadi.

**L.I. Rustamova - To‘raqo‘rg‘on tumani 1-IDUM o‘qituvchisi**
**N.M. Mutalov - Namangan yuridik texnikumi o‘quvchisi**

## 5-SINFDA ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” ASARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘RGATISH USULLARI YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Alisher Navoiyning “Xamsa” asariga kirgan birinchi doston “Hayrat ul-abror”, ya’ni “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob ,20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, shoir, avvalo, o‘quvchini bir mavzu bilan tanishtiradi. So‘ngra o‘sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O‘quvchining tasavvurlari aniq bo‘lishi uchun juda ko‘p qiyoslar keltiradi va eng so‘ngida mavzuga mutanosib ibratli hikoyatni bayon qiladi.

“Sher bilan durroj” hikoyati o‘rin olgan o‘ninchi maqolatning “Rost so‘z ta’rifida” qismi ham xuddi shunday qurilishga ega. Dostonning bir qismi rostlik , to‘g‘rilik tushunchalariga bag‘ishlangan.

5-sinfda Alisher Navoiy hayoti va ijodi va “Hayrat ul-abror” dostonini o‘rganish uchun o‘quv dasturda 3 soat vaqt berilgan. 1-soatda shoir hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar berilsa, 2-3-soatlarda “Hayrat ul-abror” dostoni bo‘yicha mashg‘ulot olib boriladi.

O‘quvchilarning yoshini hisobga olgan holda mutafakkir hayoti va qoldirgan ma’naviy merosiga bag‘ishlangan 1 soatni “Tafakkur”, ”Klaster”, ”BBB”, ”Kim ziyrak?”, “Aqliy hujum’’ usullari orqali,2-3-soatlarda “Musobaqa”usuli orqali tushuntirish mumkin.

O‘quvchilar 4 guruhga ajratiladi, nomlanadi.(“Adabiyotchilar”,”Tarixchilar”,”Geograflar”,”Biologlar”). O‘quvchilar guruh nomlarini o‘zlari tanlashlari mumkin.Guruhlarning javoblarini baholab boradigan turli fan o‘qituvchilaridan iborat hay’at a’zolari tayinlab olinadi.

Darsning avvalida Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar “Klaster” usuli orqali so‘raladi. Bunda o‘quvchilar shoir hayot yo‘li va ijodiga doir bilgan ma’lumotlarini keltiradilar. Shundan so‘ng “Kim ziyrak?” usuli orqali tezkor savol-javob orqali o‘quvchilar bilimi sinaladi. Ixtiyoriy 2 nafar o‘quvchiga qiyidagi savollar beriladi:

1.Navoiy qayerda tug‘ilgan? (Hirotda)
2.Uning to‘liq ismi nima? (Nizomiddin Mir Alisher)
3.Navoiyning ustozlari kimlar? (Abdurahmon Jomiy,Lutfiy)
4.”Xamsa “ necha dostondan iborat? (5dostondan)

Savollarning barchasiga to‘liq javob bergan o‘quvchiga shoirning hikmatli so‘zi yozilgan rag‘bat taqrqatmasi beriladi.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar o‘quvchi yoshiga, qabul qilish xusisiyatiga mos bo‘lgan holda bo‘lishi lozim. Texnologiyalar soddadan murakkabga qarab qo‘llanilishi kerak. O‘quvchilar quyi sinflarda ham Alisher Navoiy haqida ma’lumot olishgan. Bugungi kun talabiga muvofiq har bir o‘quvchi kreativ fikrlashga ega bo‘lishi zarur. Shu o‘rinda “BBB” texnologiyasini qo‘llaymiz.

Bilaman qismiga o‘quvchilar Alisher Navoiy qachon, qayerda tug‘ilganligi, hikmatli so‘zlarini,shoir haqidagi rivoyatlar o‘qiganini aytib yozishadi.

Bilmoqchiman qismiga o‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan avollarni yozadilar.

Bilib oldimga Navoiyning “Xamsa” dostoni, unga kiritilgan asarlar haqida, ”Hayrat ul-abror” dostinida odob-axloq, kamtarlik, saxiylik, to‘g‘r iso‘zlik kabi biratli fazilatlarni, xasislik, yolg‘onchilik, odobsizlik kabi salbiy xislatlarni bilib olganliklarini aytishadi.

Yangi mavzu:Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”dostoni

Darslikda berilgan materiallar va qo‘shimcha ma’lumotlar asosida o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi va mustahkamlaydi.

Bobomiz har bir inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilmog‘i haqida so‘z yuritar ekan ,kimki to‘g‘rilik yo‘lini qanday ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, bu yo‘l ikki xil bo‘ladi, deydi. Birinchisi, to‘g‘riso‘z odam. Agar u to‘g‘ri so‘zli bo‘lsa, uning ishi, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Ikkinchi toifa kishilar andisha

bilan, betgachoparlik qila olmay, ”to‘g‘ri” deguvchidir. Navoiy birinchi toifani to‘liq ma’qullagan holda, ikkinchisi ham “yomon emas” deya inkor qilmaydi. Albatta, iloji boricha yolg‘onni gapirmagan ma’qul.

Shu o‘rinda shoir zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo‘ylikdan chekinayotgani, yolg‘on-yashiq kuchayib ketayotganidan xavfsiraydi. Shundanmi, shoir o‘z atrofini qamragan odamlardan to‘g‘ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsa bilmaydi, deydi. Zero, egrilikning ham, to‘g‘rilikning ham o‘z ta’rifi bor. Egrilik yolg‘ondan paydo bo‘ladi, to‘g‘rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg‘on so‘zlash, yolg‘on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi.

O‘quvchilardan bugungi kunda atrofimizdagi odamlar yolg‘onchilik va rostgo‘ylikka qanday munosabatda bo‘layotganliklari so‘raladi.

“Noma” (maktub)usuli orqali “Hayrat ul-abror” dostoni uch bo‘lakka bo‘lib beriladi. O‘quvchilar matn bilan tanishadilar, uning mazmunini bilan bir-birlariga yetkazadilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga aqliy hujum orqali quyidagi savollar beriladi:

1.Siz rost gapirasizmi?

2.Yolg‘onchilik shunchaki odatmi yoki nuqson?

3.Qanday insoniy fazilat va illatlarni bilasiz?

4.Haqiqatni gapirishdan cho‘chimaysizmi?

5.Asar sizda qanday taassurot qoldirdi?

6. Asarni o‘qigach, siz o‘zingizni qanday inson deb hisoblayapsiz?

7. Yolg‘onning zararini tavsiflab bera olasizmi?

8. Qanday illatlar durrojni fojiaga olib keldi?

9. “Sher va durroj” hikoyatiga o‘xshash qanday hikoyatlarni bilasiz?

10.Ota-onangiz bilan rostgo‘ylik va yolg‘onchilik haqida so‘z yuritganmisiz?

Savollarga javob bergan o‘quvchilar shoirning hikmatlari yozilgan rag‘batlarga ega bo‘ladilar, eng ko‘p rag‘bat olgan guruh g‘olib hisoblanadi.

Yuqoridagi savollar o‘quvchilarni rostgo‘y va haqiqatgo‘y bo‘lishga undaydi.

Adabiyot, tarix, geografiya, biologiya fani materiallari asosidagi savol-javoblar musobaqasi o‘tkaziladi.[1]

Musobaqani o‘tkazish uchun yuqorida nomlari sanalgan fan o‘qituvchilari birgalikda ish olib boradilar va uni boshqaradilar.

Musobaqadan bir hafta avval o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab ularni turli guruhlarga bo‘linadi (Yuqorida guruhlarning nomlari keltirildi). Musobaqa shartlari tushuntiriladi.

Fan o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan savollar guruhlarga beriladi.Quyida savollardan namunalar:

1.”Xamsa” va “Boburnoma” haqida qisqacha ma’lumot bering(“Adabiyotchilar”guruhi uchun).

2.Asrlardagi ijtimoiy hayot haqida,o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan tarixiy shaxslari haqida gapiring(“Tatixchilar”guruhi uchun).

3.Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lgan joy nomlarini sanang(“Geografla

2.XIV-XVI asrlardagi ijtimoiy hayot haqida,shuningdek,o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan tarixiy shaxslari haqida gapiring(“Tarixchilar”guruhi uchub).

3.Ikki buyuk shoirning tabiatga munosabatini ifoda etuvchi asarlari,ularning ahamiyati haqida so‘zlang(“Biologlar” guruhi uchun).

Musobaqa hay’at a’zolari o‘quvchilarning javoblarini baholab beradilar.Eng ko‘p ball to‘plagan guruh a’zolari g‘olib bo‘ladi va hay’at a’zolari tomonidan Alisher Navoiy asarlaridan iborat kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanadilar.

Uyga vazifa: 154-160-betlar.

O.O‘. Xolmatova – Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## MAQOLLARNING USLUBIY IMKONIYATLARI

Har bir xalq asrlar davomid juda katta hayotiy tajriba to`playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so`zlar ana shunday ma`naviy merosimiz hisoblanadi.Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan,ularni asrlar osha ko‘z qorachig`iday asrab,avaylab,sayqal berib dilida,tilida saqlab kelmayotgan biror bir xalq yo‘q.

Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni,teran mazmunni,so‘z san’atining dur-u javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv vositalari orasida ta’sirchan,eng esda qoluvchi,kishini o‘ylashga,fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga ega.

Yevropaning taniqli sharqshunos olimi Herman Vamberri XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lkamizga qilgan safaridan qaytgach,quyidagilarni yozgan edi: "…Maqollarni yozma tilda ham,jonli tilda ham uchratish,yurt kazolarining saroyida ham,ko‘chmanchilarning o‘tovida ham eshitish mumkin …Sahro o‘g‘loni bunday otalar so‘zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi.Maqol ma’nosiga zid bo‘lgan hech qanday oqilona gap,hech qanday ishontiruvchi so‘z uning fikriga ta’sir qila olmaydi,uning tabiatidagi tug`ma mutassiblik hech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga,noto‘g`ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchida boshqa hech bir narsaga bunchalik kuchli tarzda namoyon bo‘lmaydi". [421]

Biz bilamizki, maqollar asosan, og`zaki-so‘zlashuv,badiiy va publitsistik uslublarda qo‘llanadi. Xalqimizning ming yillar davomida to‘plagan boy hayotiy tajribasi maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan.Ularda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni,kechirgan turmushlarini,shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini his etib turamiz.Bu hissiy kechinmalarning ifodasi bo‘lgan poetik matnda maqollarning uslubiy xususiyatlari to‘la namoyon bo‘ladi.

Dastlab, Mahmud Qoshg‘ariy "Devonu lug‘otit turk" asarida turli xalq hikmatlari,janrlar tasviriga bag‘ishlangan to‘rtliklar bilan birgalikda maqol va hikmatlarni keltirgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida maqollar, asosan, g‘azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog‘ishtirish uchun qo‘llanilgan.Natijada misralarning sodda va ravon o‘qilishiga,qolaversa,nutqiy ta’sirchanlikka erishilgan.Masalan,Lutfiyning "Ayoqingga tushar har lahza gisu…" deb boshlanuvchi g‘azalining har bir baytida maqollar qo‘llangan.

G‘azalda maqol keltirish uchun ko‘pincha "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo‘ldi"singari jumlalar qo‘llangan,ular ta’kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Chun Navoiy ko‘ngli sindi emdi lutfung ne osig`,
Kim ushatsa shishani butmas oni payvand ila.

Zamonaviy she’riyatimizda ham maqollar she’r mazmunini boyitishga, ta’sirni oshirishga va nutqning xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi.Masalan:

Hatto qo‘ng‘iz o‘z bolasini,
Oppog‘im deb bo‘lar ekan shod,
Oppog‘im deb bo‘lar ekan yod.(H.Olimjon)

Maqol matni qisqa,ixcham va lo‘nda fikrlash,aniq bayon etishni taqozo etgani bois,ijodkorga qo‘l keladi.[422]

Bundan tashqari zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyondalarining badiiy ijodini o‘rganish asnosida ularning hech birini xalq og`zaki ijodi namunalaridan,jumladan,maqol va matallardan ajratgan holda tadqiq qilib bo‘lmaydi.

Maqol va matallar nafaqat nasrda ishlatibgina qolmay, u publitsistik asarlarda ham badiiy ifoda kuchi, hissiy ta`sirni ko‘rsatish, tilni ifoda imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish uchun ishlatiladi.Xalqning hikmatli so‘zlari ommabop asar tilining siyosiy o‘tkirligini oshiradi va o‘quvchi xotirasida eng muhim elementlarni muhrlab qoldirishga xizmat qiladi.Maqollar ifodalangan yoki muallif ifodalamoqchi bo‘lgan fikrga assotsatsiya qilishi natijasida bu publitsistik asar mazmuni o‘quvchi yoki tinglovchi xotirasida

[421] Vamberri G.Ocherki Sredney Azii.Moskva,1968.Str.321-324
[422]Qurbonova S.Hamid Olimjon she`rlarida xalq maqollaridan foydalanish//O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari.Farg`ona.2010.137-b

chuqur iz qoldiradi.G`oyaviy mazmuni,ma`naviy-axloqiy xulosasiga ko‘ra xilma-xil bo‘lgan maqol va matallar bajaradigan uslubiy vazifasi jihatidan ham alohida xususiyat namoyon etadi.Maqol va matallarda g`oyani qisqa,ixcham shaklda ifodalash,kishilar nutqiga e`tibor berish,o‘ziga va atrofdagilarga har tomonlama talabchan bo‘lishga,to‘g`ri va mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.[423]

Ilmiy uslubda esa maqol va matallar leksik birliklar stilistikasi bilan bog`liq ishlarda, frazeologiyaning obyekti sifatida sintaktik stilistika doirasida sodda yoki qo‘shma gaplar uslubiyati bilan bog`liq tadqiqotlarda bayon qilingan fikr-mulohazalarni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan

Keyingi yillarda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalidagi ayrim maqollarda an`anaviy va system tilshunoslik namoyandalarining formal va substansial tahlil haqidagi pozitsiyalarini bayon qilishda oppozitsiyadagi tilshunoslar fikrlariga o‘z munosabatlarini ilmiy matnda qo‘llangan maqollar orqali ifodalangan o‘rinlar ham uchraydi.Bu esa maqollarning qo‘llanish doirasini ilmiy uslub tomon kengayganligini ko‘rsatadi.Shuningdek,ilmiy tilde qo‘llangan maqol yangi stilistik xususiyatlarga ham ega bo‘ladi.Masalan: “Tadqiqotning ongli va izchil metodologik asosi uni fanda juda ko‘p uchraydigan mantiqiy va gnoseologik xatodan – Attoru Rumiylar timqorong`ulikda filni yaxlit “ko‘rish”ga intilgan johillar, Mir Alisher ko‘rlar,Frensis bekon esa “g`or ruhi’ bandalari deb atagan va o‘zbek xalqi “ko‘r tutganini, kar eshitganini qo‘ymas” maqolida ixcham ifodalangan mahdudlikdan asraydi”.Yoki quyidagi misolni ko‘raylik: “…Ammo bir yo‘nalishda hosil qilingan hukm,xulosa ikkinchi yo‘nalish vakiliga “yoqmasligi” tabiiy va buni xalqimiz “ qo‘ng`iz bolasini oppog`im deydi’ maqolida mujassamlashtirgan[424].

Ko‘rinib turibdiki,maqollar nafaqat badiiy va publitsistik uslubda, balki ilmiy uslubda ham muallifning nutqiy niyati va kommunikativ maqsadini ifodalashning muhim usullaridan biri.

**M. Sultonova – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## SUSTAINING STUDENTS’ MOTIVATION IN LEARNING ENGLISH AUTONOMOUSLY

Developing independent learning component in learning foreign languages is the huge demand of the 21st century. There are effective online resources and materials which show a number of benefits that can change the way of learning positively. Although, there have been a lot of reforms in teaching foreign languages in Uzbekistan, there still have some challenges to keep students motivation to make them work on their skills by assessing their needs and interests as an additional support for language acquisition. There are a number of methods and new ways to sustain English language learners self study. According to David Little, the autonomy of learner is ‘essentially a matter of the learner's psychological relation to the process and content of learning-a capacity for detachment, critical reflection, decision-making, and independent action' [1].

Independent learning style is highly recommended to English as foreign language learners, as there are lack of motivation and information regarding ways of learning in easy and effective ways. Although self-studying is desirable in learning language, it is not enough to tell students simply to learn independently. Implementing independent learning component requires EFL instructors to provide the students with useful methods, resources and particularly steps for the process of autonomy learning. The following steps should be asked from students;

-Assessing students’ needs through reflecting on their strengths and weaknesses in their English language acquisition and identifying necessary skills they want to enhance.

-Asking them what they want to learn and identify the specific areas in English for a certain period of time (for example, till the end of the semester)

-Providing students with the list of online resources, websites for improving the skills

-Asking the students to record what kind of activities they learned in a learner log.

Implementing a number of intriguing ways to sustain students’ motivation for learning independently is very important for teachers who should check their progress in learning language [2]. To check students’

[423]Nagornaya S.Y.Nagorniy I.A.Russkaya yazikovaya kartina mira I staroobryadcheskiy tekst||Nauchniye vedomosti Belgorodskogo gosudarstvennogo universiteta. – Belgrad,2010. -46 s.

[424] Ne`matov H. O‘zbek tili va adabiyoti /O‘zbek tilshunoslligida formal,structural va substansial yo‘nalishlar xususida.№42009.38-b

process of learning, the EFL teachers should organize learning contract with their students. The following learning contract was presented as a first template for students’ autonomous learning [3].

**Appendix A**

Student instructions

Learner: ___________________________

Learning Experience: _________________________________

| *What are you going to learn? (Objectives)* | *How are you going to learn it? (ResourcesandStrategies)* | *Target date forcompletion* |
|---|---|---|
| Itemize what you want to be able to do or know when completed. | What do you have to do in order to meet each of the objectives defined? | When do you plan to complete each task? |
| | | |

| *How are you going to know that you learned it? (Evidence)* | *How are you going to prove that you learned it? (Verification)* | *Advising faculty member feedback (Evaluation)* |
|---|---|---|
| What is the specific task that you are to complete to demonstrate learning? | Who will receive the product of your learning and how will they evaluate it? | How well was the task completed? Provide an assessment decision. |

(Knowles, Using Learning Contract, 1986)

In the context of EFL, teachers’ behaviour and pedagogical techniques are also considered as an important role [4]. To gain such skills, EFL teachers should know the list of reliable websites to recommend their students.

**Appendix B**
**Websites for English Language Learning**

**AudioEnglish.net (http://wwwaudioenglish.net)**

A collection of English conversations focused on specific areas of learning English such as Travel English, Telephone English, Banking English and Accounting English, which is useful from the level of beginners to the level upper intermediate.

**Conversation for ESL students** (http://www.rong-chang.com/book/)

An online conversation book for ESL intermediate level students

**English Page (http.englishpage.com/prepositions/phrasaldictionary.html)**

Students and teachers can use this website for improving their skills by online English lessons and resources.

1. Little, D. 1991. Learner Autonomy. 1: Definitions, Issues and Problems. Dublin: Authentik

2. Assor, A., Kaplan, H., & Roth, G. (2002). Choice is good, but relevant is excellent: Autonomy-enhancing and suppressing teacher behaviors predicting students’ engagement in school work. British Journal of Educational Psychology, 72, 262-278. http://dx.doi.org/10.1348/000709902158883

3. Knowles, M. S. (1986). *Using learning contracts: Practical approaches to individualizing and structuring learning*. London: Jossey-BassPublications.

4. Bernaus, M., & Gardner, R. (2008). Teacher motivational strategies, student perceptions, student motivation, and English achievement. The Modern Language Journal, 92(3), 387-401. http://dx.doi.org/10.1111/j.1540-4781.2008.00753.x

**D.O. Abduraxmonova – Beshariq tumani 4-maktab o'qituvchisi**

## TA'LIMDA NOAN'ANAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING DOLZARBLIGI

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi – noan'anaviy ta'lim texnologiyalarning turli uslublarini qo'llashni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonini bir tizim deb olsak, uni tashkil etuvchi elementlariga quyidagilar kiradi: o'quv maqsadi, kutilayotgan natijalar, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, shakli va vositalari, nazorat va baholash. Ta'lim jarayonini loyihalashda ana shu elementlardan biri chetda qolsa yoki to'g'ri tanlanmagan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim maqsadiga erishib bo'lmaydi. Bugungi kunda joriy etilayotgan, kelgusida joriy qilinishi zarur bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv, innovatsion ta'lim texnologiyalari ko'proq ta'lim oluvchilar faolligiga asoslanishi, ularda mustaqil o'rganish ehtiyoji va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'nalgan bo'lishi lozim. O'qituvchi bilim uzatuvchi rolidan ta'lim oluvchilarning faol o'rganish jarayonini tashkil qiluvchi, ularning o'qish motivatsiyalarini va faoliyatini boshqaruvchi, ulardagi mavjud bilish, erkin fikrlash, ijod qilish, yangilik yaratish ehtiyojlarini psixologik va pedagogik jihatdan oqilona qo'llab-quvvatlab, rivojlantiruvchi roliga o'tishi zarur.

Umumta'lim maktablarda ta'limning yangi modelini amaliyotga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham — o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash, unda bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Oliy ta'lim jarayonida tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Darhaqiqat, bozor iqtisodi sharoitida faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina ijtimoiy hayotda o'zining munosib o'rnini topa oladi, jamiyat uchun ham, o'zi uchun ham foydali bo'ladi va turli g'arazli oqimlar ta'siriga berilmaydi. Shuning uchun ham, so'nggi yillarda oliy ta'lim ta'lim tizimida malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi noan'anaviy ta'limni tashkil qilish, faol usullardan foydalanishga ko'proq e'tibor berilmoqda.

Modulni o'qitishda noan'anaviy ta'lim usullarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- *o'qituvchi o'quvchilarga tayyor o'quv materialini taqdim etmaydi;*
- *o'quv materiali shunday bayon etiladiki, o'quvchilar faol bilish va mustaqil o'zlashtirish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;*
- *o'qituvchi faol o'qitishning negizida o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi.*

Modullarni o'qitishda noan'anaviy ta'lim usullari – o'quvchilarni o'z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi.

Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil-ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi.

**D.B. Madaminova - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## HARFIY IFODA TUZISHGA O`RGATISH USULLARI

Boshlang`ich sinf matematikasi dasturida masalalarni tenglamalar tuzib yechish usulini o'rgatish masalasi ko`zda tutilgan. Dastlab o'quvchilar a+b, c-d, x+y, a-c, b+d, x+a, x-a kabi harfiy ifodalarni o`qish bilan tanishadilar. So'ngra harfiy ifodalarni qiymatlarini hisoblash yo'llari ko'rsatiladi. Bunda quyidagi ko'rinishdagi misollar keltiriladi:

1. a + 2 harfiy ifoda qiymatini a = 1, 2, 3, 4 bo'lganda hisoblang.

2. Jadvalni to'ldiring

| a | 16 | 18 | 20 | 22 | 24 | 28 | 28 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| b | 8 | 10 | 12 | 14 | 16 | 18 | 20 |
| a-b | | | | | | | |

O'quvchilarni harfiy ifoda tuzishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun dastlab ularga quyidagi ko'rinishdagi mashqlarni tavsiya etish zarur:

1. 15 soni noma'lum sondan 3 taga ortiq. Noma'lum sonni toping.
2. 7 soni noma'lum sondan 5 taga kam. Noma'lum sonni toping.
3. 33 soniga qaysi sonni qo'shsa, 38 soni hosil bo'ladi?
4. 20 sonidan qaysi sonni ayirsak, 15 hosil bo'ladi?
5. 20 soni 6 dan qancha ortiq?
6. Qaysi sondan 8 ni ayirsak, 18 hosil bo'ladi?
7. 48 soni 70 sonidan qancha kam?
8. O'ylangan son 17 dan 10 taga ortiq. Qanday son o'ylangan?
9. O'ylangan son 13 sonidan 8 ta kam. Qanday son o'ylangan?
10. Ikki sonni yig'indisi 40 ga teng. Ulardan biri 8 bo'lsa, ikkinchi qo'shiluvchini toping.

Harfiy ifoda tuzishga o'rgatishda turli masalalardan ham foydalanish mumkin.

1- Masala. Omborda x ta xaskash va 40 ta belkurak bor. Omborda hammasi bo'lib nechta asbob bor?

2- Masala. Lolada 10 ta she'riy kitob va x ta rasmli kitob bor. Lolaning hammasi bo'lib nechta kitobi bor?

3- Masala. Lolaning 16 ta kitobi bore di. U x ta kitobini dugonasiga sovg'a qildi. Lolaning nechta kitobi qoldi?

4- Masala. Rahim x ta lola ko'chatni ekdi. 5 ta lola ko'karib chiqdi. Nechta lola unib chiqmadi.

5- Masala. Munira 10 yoshda. Ukasi esa undan x yosh kichik. Ukasi necha yosh kichi?

Harfli ifodalar mavzusi matematika darsligining 2-sinfidan boshlab berilgan. Eng avvallo harfiy ifodani tushuntirish uchun quyidagi misollardan foydalanilgan:

□ + 8   □ + 5   □ + 7

Darchaga boshqa sonlarni qo`ying va hosil bo`lgan ifodalarning qiymatini hisoblang. O`quvchilar o`zlari xohlagan sonlarni darchaga qo`yadilar va misol hosil qilib, misolni yechishadi. Matematikada "darchalar" o`rniga kichik lotin harflari qo`yiladi. Ularning o`qilishi va yozilishi quyidagicha: Masalan: a harfi "a" deb, b harfi "be" deb, k harfi "ka" deb o`qiladi.Demak, a = 9, a = 8 bo`lsa , a+7 yoki 7+a ifodaning qiymatini bunday topish mumkin: 9+7=16 yoki 7+9=16; 8+7=15 yoki 7+8=15.[425] Bundan ko`rinib turibdiki, a+7 bu harfiy ifoda deyiladi. a=9 bu esa a ning o`rniga qo`yiladigan son, ya`ni a harfi 9 soniga tengligi berilgan. O`quvchi shundan foydalanib misol tuzadi va yechadi.

Misol. Agar a=6, a=8, a=10, a=12 bo`lsa, a+8 ifodaning qiymatini toping.

Jadvaldagi keltirilgan ifodalarni o`qing.

| | |
|---|---|
| ( d + 2 ) + d | Yig`indiga sonni qo`shish |
| ( b – 3 ) – a | Ayirmadan sonni ayirish |
| ( a · 5 ) – b | Ko`paytmadan sonni ayirish |
| ( c: 4 ) + a | Bo`linmaga sonni qo`shish |

Mana shu jadvaldan foydalanib songa yig`indini, ayirmani, ko`paytmani, bo`linmani qo`shishga doir harfli ifodalar tuzing.[426]

Namuna: a + ( b + c )

---

[425] N. Abdurahmonova, L.O`rinboyeva "Matematika" Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent.: "Yangiyo`l Poligraf Servis" 2018-yil

[426] S. Burxonov, O`. Xudoyorov, Q.N. Orqulova, N. Ruzikulova, L.Goibova "Matematika" Umumiy o`rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. "Sharq" Toshkent - 2019

Manashunday ifodalar orqali o`quvchilar yig`indigo sonni qo`shish, ayirmadan sonni ayirish, ko`paytmadan sonni ayirish hamda bo`linmaga sonni qo`shish kabi ifodalarni tuzishni osongina o`rganadilar.

Test savollari

★ x va 7 sonlarining yig‘indisini toping.

A) x-7 B) x+7 C) x·7

★ x va 8 sonlarining ko‘paytmasini toping.

A) x+8 B) x:8 C) x·8

★ Alisher birinchi kuni 8 bet, ikkinchi kuni 13 bet kitob o‘qidi. Alisher hammasi bo‘lib necha bet kitob o‘qigan?

A) x+13 B) x:13 C) x·13

★ Bir qavatda x ta deraza bor. 3 ta qavatda nechta deraza bor?

A) x·10 B) x:13 C) x·3

**S.B. Xusenova – Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA SINF RAHBARI FAOLIYATIGA TAYYORLASH

***O‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.***
***Sh.M.Mirziyoyev***

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909 “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori e’lon qilindi. Ushbu farmonda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash shart- sharoitlari keltirib o‘tilgan.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ni va «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ni amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot va amaliyot bilan ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik-faqatgina zamonaviy asosda ta’lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘ladi[427].

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o‘z mutaxassisligini chuqur egallagan o‘qituvchilar zarur. Shuning uchun hozirgi kunda o‘qituvchilar oldiga juda ko‘p vazifalar qo‘yilmoqda. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tashkil etilayotgan pedagogik amaliyotning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashdan iborat.

[427] Mirziyoyev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so‘zi» 2017 yil 1 iyul.

Boʻlajak oʻqituvchilarni pedagogik amaliyot jarayonida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash uchun ta'lim jarayonida pedagogik amaliyotni tashkil qilish va uni boshqarishning o`ziga xos talablari mavjud:

Birinchidan, o`quvchilarning kasbiy bilimlarni o`zlashtirish darajasi davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash.

Ikkinchidan, o`quvchilarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko`nikma va malakalari doirasini to`liq qamrab olishga erishish. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko`nikma va malakalari doirasidan tashqari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o`zlashtirish, pedagogik amaliyot va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko`nikmalariga ega bo`lish yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi.

Boʻlajak oʻqituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash jarayonida pedagogik amaliyotning vazifalariga quyidagilar kiritiladi:

1. Boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
2. Boʻlajak oʻqituvchilarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
3. Boʻlajak oʻqituvchilarni amaliy koʻnikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qoʻllash malakalari bilan ta'minlash;
4. Boʻlajak oʻqituvchi ya'ni talabalarni ta'lim muassasalari maktab, litsey va kabs-hunar kollejlaridagi oʻquv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilgʻor pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
5. Oʻqituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy hislatlarini rivojlantirish;
6. Boʻlajak oʻqituvchi ya'ni talabalarda pedagogik kasb va mehnatga hurmat va muhabbat uygʻotish;

Boʻlajak oʻqituvchilarni pedagogik amaliyot jarayonida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash shunday jarayondirki, bunda oʻqish davrida toʻplagan bilimlaridan kompleks tarzda foydalanish va oʻz ishiga mas'uliyat bilan yondoshishga toʻgʻri keladi. Tajribalarning koʻrsatishicha, boʻlajak oʻqituvchi, sinf rahbar oʻquvchilar bilan toʻgʻri munosabatda boʻlsa, ya'ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi. Ta'lim muassasasida sinf rahbardan kutilayotgan asosiy natijalarga quyidagilar kiradi:

1. Sinf rahbarlarining oʻquvchilar tarbiyasiga ta'siri sezilarli ravishda oshishi;
2. 5-sinfdan 11-sinfgacha yagona sinf rahbarining biriktirilishi natijasida sinfdagi ijtimoiy muhitni sogʻlom ravishda ushlab turish imkoni;
3. Ota-onalar tomonidan oʻz farzandlarini ta'lim tarbiya jarayoniga nisbatan qiziqishining ortishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qiladigan boʻlsak, boʻlajak oʻqituvchilarni sinf rahbari faoliyatiga tayyorlash jarayoni ayni pedagogik amaliyotda amalga oshiriladi. Buning uchun talabalardan faqat pedagogik amaliyotni mas'uliyat va zukkolik bilan olib borish talab etiladi.

**B.H. Abdusaidova - Samarqand davlat universiteti talabasi**
**M.B. Jumayeva - Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi**

## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA MATEMATIK BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

Oʻzlikni anglash matematikani oʻrganishdan boshlanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari, aksariyat hollarda maktabga qadam qoʻygan kunidan boshlab fanlar bilan tanishadi, oʻrgana boshlaydi. Inson kelajakda oʻz oʻrnini topishiga, erishadigan yutuqlariga, xullas, qanday inson boʻlib yetishishida boshlangʻich ta'limning oʻrni beqiyos. Har bir xatti-harakatning negizida qiziquvchanlik turadi. Oʻqituvchi oʻquvchidagi ana shu qiziquvchanlik qobiliyatini anglay bilishi, uni toʻgʻri tomonga yoʻnaltira bilishi lozim.

Har qanday fanning asosida matematika turadi. Xotirasi kuchli oʻquvchilar matematikani yaxshi oʻrganadi, degan fikr mutlaqo xato, balki matematikani biladigan oʻquvchining xotirasi yaxshilanadi. Matematikani oʻrganish uchun esa, albatta, **qiziqish** boʻlishi kerak, kuchli xotira emas.
Albatta, bu qiziqishni shakllantirish oʻqituvchining vazifasidir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining deyarli barchasi texnologiya, musiqa, tasviriy san'at fanlariga qiziqadi. Shuning uchun oʻquvchilarni matematikaga qiziqtirish, ularning matematik bilimlarini mustahkamlash maqsadi shu fanlarni matema- tikaga bogʻlab

dars o‘tish o‘quvchilarning matematik bilimlarini oshirishda, fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Texnologiya darslarida o‘quvchilarning tasavvuri kengayadi. Bu fan bolalarni mehnatsevarlikka, ijodkorlikka undaydi, bolaga estetik zavq bag‘ishlaydi. Texnologiya darsining asosida ham matematika turadi.

O‘qituvchi esa ana shu bog‘liklikni o‘quvchilarga yetkaza bilishi kerak. Texnologiya darsida o‘qituvchi biror predmetni yasashni o‘rgatayotganda uni faqatgina yasashni o‘rgatmasdan matematik atamalarni qo‘llab, imkon qadar matematikaga bog‘lab yasashni o‘rgatishi kerak. Masalan 1-sinf texnologiya darsligidagi “ Qog‘ozdan kuchukcha yasash” (15-dars) mavzuni o‘rgatishda o‘qituvchi matematikaga murojaat qiladi: kuchukcha yasash uchun rangli qog‘ozdan kvadrat hosil qilamiz ( 1. Rang qog‘ozning shakli qanaqa? 2.To‘rtburchakning qanday turlari mavjud?) Endi kvadratni simmetriya o‘qi bo‘yicha buklang, bunda qanday shakl hosil bo‘ldi? (2-rasm). (1.Simmetriya o‘qi nima? 2. Kvadratning nechta simmetriya o‘qi bor? ) Endi kuchukchamiz- ning quloqchalarini yasaymiz(3-4-rasm). Buning uchun har ikki yondan teng uchburchaklar hosil qiling.




Kuchukchani yasash jarayoni xuddi shu tartibda (har bitta harakat matematikaga bog‘liq savollar berish orqali) hikoya tarzida, savol-javob tarzida amalga oshiriladi. Ish oxirida esa kuchukcha yasashda qanday shakllardan foydalanganlik, bu shakllar ko‘p bo‘lsada hammasi oddiygina to‘g‘ri to‘rtburchakdan kelib chiqqani tushuntiriladi…

O‘qituvchi har bir darsni mana shu tarzda o‘tsa (fanlarni bir-biriga bog‘lagan holda) o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari ortadi, matematik tafakkuri kengayib fikrlash qobilyati shakllanadi.

Matematikaga qiziqib, uni mukammal o‘zlashtirgan o‘quvchi hayotda har qanday muammoga tez va oson yechim topa oladi.

**A.M. Tojaliyev - Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## ILM-FANDA KOMPYUTER LINGVISTIKASINING O'RNI

Hozirgi kunda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilf-fan va innovatsiyani rivojlantirishga katta ahamiyat qaratmoqdalar va bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.Kompyuter kundan kunga jamiyatimizning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda.Kompyuter texnologiyalari doimo bizni kerakli axborot bilan ta'minlayd.Axborot doim jamiyat hayotida ham,alohida shaxs hayotida ham muhim o'rin egallagan.Har qanday jamiyat rivoji albatta axboratlashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq.Bugungi globallashuv davrida axborot mamlakat hayotining ko'zgusi,odamlarning tafakkuring shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirda jahonning eng yirik kompyuter kompaniyasi bo'lmish Microsoft asoschisi Bill Geytsning shunday gaplari bor: *«Kim axborotga ega bo'lsa, u hamma narsaga ega bo'ladi.* Kompyuter texnologiyalarining tilshunoslik fani bilan ijobiy hamkorligi natijasida kompyuter lingvistikasi fani shakllandi. Bu fan XX asrning 50-60-yillarda yuzaga kelgan bo'lib,u turlicha nomlar bilan atalgan: hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistikasi,kvantitativ lingvistika, injener lingvistikasi kabi.[428] Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo'lib,u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi.Kompyuter lingvistikasi 1954-yil AQSH da Jorjtaun universitetida mashina tarjimasi bo'yicha dunyoda o'tkazilgan birinchi tajriba asnosida yo'nalish sifatida shakllana boshladi,1960-yilga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.Hozirgi vaqtda mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida "Kompyuter lingvistikasi" alohida fan sifatida talaba yoshlarga o'rgatilmoqda. Bu fan kelgusida til qoidalarining matematik modellarini yaratish, o'zbek tilining formal nazariyalarini ishlab chiqish, shu asosda berilgan materiallarni kompyuter yordamida tahlil qilish, o'qitish, bilimlarni baholash, xatolarni tuzatish algoritmlarni yaratish uchun xizmat qiladi.Kompyuter lingvistikasi kelajak fani bo'lib, uning yutuqlari mamlakatimizda amaliy va nazariy tilshunoslikning uzviyligini ta'minlash, nazariy tadqiqotlar natijalarini jamiyat manfaatlari yo'lida qo'llash uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi. Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish,inson va mashina(kompyuter) muloqotini optimallashtirish[429],tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing)dir[430]. NLP kompyuter lingvistikasida tabiiy tillarning kompyuter analizi va sintezini o'z ichiga oladi. Bunda *analiz* tabiiy tilning kompyuterda morfologik, sintaktik va semantik tahlil yordamida tushunilishga nisbatan ishlatiladi, sintez esa kompyuterda matnning Grammatik shakllantirilishi va generatsiyasi (hosil qilinishi) demakdir.

Hozirgi kunda kompyuter lingvistikasi tilshunoslikda yangi sohalardan biri shuning uchun ko'plab yosh tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Umid qilamizki shu kabi izlanishlar kelajakda lingvistika yo'nalishini yanada rivoji uchun katta hissa qo'shadi.

**D. Toshtemirov, X. Xolbo'tayev – Farg'ona davlat universiteti talabalari**

## EKZISTENSIAL YO'NALISHDA INSON YOLG'IZLIGI MUAMMOSI

Yolg'izlik - obyektiv mavjud hodisa bo'lib, uning tabiati, rivojlanishi va namoyon bo'lishi haqidagi jahon psixologiyasining tarixiy taraqqiyotidagi yondashuvlarning talqini manbalarda yetarli darajada yoritilgan. Yolg'izlikni o'rganish bo'yicha har bir yondashuv bir-biridan masalaning chuqur tadqiq qilinganligi va nazariy tahlili bilan farq qiladi. Yolg'izlik hissini o'rganish ilmiy yo'nalishda o'z murakkabligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun uning ro'y berishi tashqi va ichki sabablar, vaziyatga, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga bog'liqligi jihatidan muhim metodologik asoslangan tadqiqotlar bosqichini talab qiladi. Nazariy yondashuvlarning har biri yolg'izlik hissining psixologik xususiyatlarini diqqat markaziga qo'yadi va bu bilan mazkur kechinmaning inson tomonidan yaxlit idrok qilinishining noyobliligini ochib beradi. Barcha yondashuvlar birgalikda yolg'izlik hodisasini ilmiy-nazariy

---

[428] A.Rahimov «Kompyuter lingvistikasi asoslari». «Akademnashr» nashriyoti, 2011-yil.
[429] Новое в зарубежной лингвистике. Вып.24. Компьютерная лингвистика.-М .: Прогресс, 1989.-С . 10.
[430] Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. - New Jersey,2 0 0 0 .-P .2 -3 .

anglanilishining ahamiyatini ko‘rsatadi. Jumladan, ekzitensial yo‘nalish vakillari yolg‘izlik muammosini tahlil qilishda hayot va o‘lim masalalari chegarasida yondashadilar.

Ekzistensial yo‘nalishning barcha vakillari shaxsni yolg‘izlikda mavjud bo‘lgan imkoniyatlari ko‘lami orqali tadqiq qiladilar. Ular shaxsning jamoadagi taraqqiyotini inkor qiladilar. Inson faqatgina yolg‘izlikda nimalargadir qodir, jamiyat ichida u hech kimga aylanmaydi, deb hisoblaydilar. Ekzistensialistlar tasavvurida inson yoshlik va yetuklik davri bosqichida shaxsiy, noyob, qaytarilmas mavjudligini ilgari suradi. Shaxsning yolg‘izlikni kechira olishga bo‘lgan qodirligi esa ana shu mavjudlikni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ekzistensial yondashuvga ko‘ra, barcha inson mohiyatan yolg‘izdir. Faqatgina ushbu kechinma turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Yakkalanish va muloqotga intilmaslik insonga xos bo‘lgan tabiiylikni ifodalaydi. Ekzistensialistlar yolg‘izlikni psixik hodisa sifatida ongga taalluqli, deb hisoblaydilar. Inson psixikasida shaxsiy yakkalanishning ongli anglanishi ro‘y beradi va uni shaxsiy tabiatdan chiqarib tashlash yoki inkor etish mumkin emas. Yolg‘izlik insonning tabiatiga xos bo‘lgan individual holatdir, bu holat bilan kelishib yashash lozim. O‘z tabiatini anglash va his qilishgina insonni inson darajasiga olib chiqadi.

Rus tadqiqotchilaridan L.I.Starovoytovaning fikricha, yolgizlik insonning ichki yakkalanishi bo‘lib, u individual mavjudlik asosidir. Agar inson muloqot jarayonida suhbatdoshidan hissiy qo‘llab-quvvatlash ehtiyojini qondirmasa, u yolg‘izlikni afzal ko‘radi[431].

Yolg‘izlik muammosini tadqiq qilgan zamonaviy ekzistensial psixologlardan Karl Mutaskas va Irvin Yalomlarning ishlarini ta’kidlash o‘rinli. K.Mustaskasning konsepsiyasi asosida behalovat yolg‘izlik va sof ekzistensial yolg‘izlik o‘rtasida farq mavjud. Yolg‘izlik hissini kechirish xavotirligi insonda himoyaviy harakatlar tizimini ishlab chiqishga undaydi. Natijada inson ko‘proq muloqot doirasida qolishga intiladi. Bu esa uning shaxsiy mavjudligidan qochish bilan izohlanadi. Sof ekzistensial yolg‘izlik esa insonning o‘lim kabi hayotiy murakkab vaziyatlarga duch kelishi bilan his qilinadi. Mavjud holat insonga o‘z-o‘zi bilan ruhan yaqinlashuvni yuzaga keltiradi va inson mavjudligi boshidan yolg‘izlik bilan hamnafas ekanligini anglatadi. Tashqi omillar esa ikkilamchi o‘ringa tushib qoladi. Karl Mutaskas va Irvin Yalomlar yolg‘izlikning ildizlarini tahlil qilmagan holda, uni inson mavjudligi bilan bog‘lashadi. Shuning uchun yolg‘izlikdan qochish yoki undan qutulish yo‘llarini emas, balki undan oqilona foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish lozim ekanligini uqtiradilar. K.Mustaskas yolg‘izlikning ijobiyligini ta’kidlagan holda u insonning ijodiy kuchlarini faollashtiradi va yangiliklar yaratish uchun zamin hozirlaydi, deydi. Bu orqali inson shaxsiy faoliyatdagi unumdorlikning yuqori darajasiga ko‘tariladi. Mustaskas bo‘yicha, yolg‘izlikning kechirilishi insonga haqiqiy tom ma’nodagi o‘z-o‘zini anglashiga olib keladi.

Yana bir ekzistentsialist Ben Miyuskovich yolg‘izlikni tahlil qilishda inson tabiatidagi motivasiyalar nazariyasiga tayanadi. Inson mavjudligidan yolg‘izlik mavjud deydi olim. Inson o‘zining fiziologik va biologik ehtiyojlarini qondirganidan so‘ng yolg‘izligini yengillatishga harakat qiladi. Yolg‘izlik inson tabiatiga xos bo‘lsada, u orqali o‘z “Men”ini kashf qilishga intiladi. Yolg‘izlik muammosini o‘rganar ekan B.Miyuskovich o‘lim tushunchasiga to‘xtalib o‘tadi. Miyuskovich yolg‘izlikni psixikaning immanentligi tushunchasiga qiyoslaydi, ya’ni immanentlik bu inson ruhiyatidagi sof ichki kechinma tarzida ifodalanadigan holatdir. Olim ongni ekstro va introrefleksiv toifalarga ajratadi. Ulardan ikkinchisida yolg‘izlikka moyillik kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, ekzistensial yondashuv yolg‘izlik muammosini tadqiq qilishda insonning tabiiy mavjudligi va unda yolg‘izlikning tabiiy holatda muqarrarligi tushunchalarini ilgari suradi. Yolg‘izlik o‘lim bilan yuzma-yuz bo‘lgan holatda aktuallashadi. Shu sababli yolg‘izlikni anglash va u bilan kelishish lozim.

---

[431] Юлдашева, М.Б. Психологическое исследование глубины переживания одиночества в подростковом возрасте. // Инновации в педагогике и в психологии. Научный журнал. № 7, 2019 год. 69-79 стр.

**B.O. To‘raxonova - O‘zDJTU o‘qituvchisi**

## LINGUISTIC PECULIARITIES OF RELIGIOUS STYLE

At the end of the 20th century, linguists paid close attention to the problem associated with the diversity of functional styles in the modern Russian literary language. Millions of Russian-speaking citizens then turned to faith, thereby actively creating a new type of communication - religious, which began its formation in the post-Soviet space, and after it scientists started talking about a new functional style - religious. In the textbook on social linguistics N.B. Mechkovskaya notes that addressing the higher forces required speech that was different from everyday speech ... "[432].

Domestic scientists, noting the importance of linguistic analysis of the religious sphere of public consciousness, offer different terms. So, V.I. Karasik, speaking of religious discourse as an important and necessary act of communication, believes that the study of religious discourse allows revealing the deep characteristics of both language and religion, and is of interest for linguistic study of the structure of institutional discourse and building a classification types of discourse[433]. N.N. Rozanova speaks of the religious use of language, offering the multifaceted term religious communication][434]. I.V. Bugaeva, fully analyzing modern linguistic trends that study religion as a sphere of social consciousness [Bugaeva 2010], introduces the concept of religionlect, describing confessional marked linguistic means at the lexical, phonetic, grammatical level.

This study is written in line with the functional style, so let us dwell in more detail on the issue of the emergence of the term religious style.

The functional style, including the religious one, is a system of text-type genres: “Functional styles are nothing more than generalized speech genres, that is, speech norms for constructing certain, fairly wide classes of texts ...”. In the triad style – genre - the text will focus on the concept of genre.

Linguists were primarily interested in the stylistic and genre features of the religious style. A significant number of works devoted to this problem have appeared. In 1992, the Slovak linguist J. Mistrik began to speak and write about religious style, who based his arguments on biblical texts. In Russian linguistics, L.P. was one of the first to speak about the allocation of a religious style. Krysin, who drew attention to the stylistic signs of spiritual speech. Over the course of a decade, works appeared on the study of a special stylistic variety of language that found its application in the religious sphere

However, there is still some disorder in the names of the style: religious-preaching style, church-religious style, religious style.

We agree with the opinion O.A. Prokhvatilova, who, calling this style religious, believes that it is in this name that its main feature is preserved: the scope of use. Based on the research of A.K. Gadomsky,[435] we define the concept of "religious style" as "a style that develops on the basis of the literary national language and the language of a particular religion".

The peculiarity of the religious style lies in the fact that the spoken speech must correspond, on the one hand, to the norms of the literary language, and on the other hand, to the content, meaning, and lofty intention of the imam's sermon. This means that, first of all, there is a relationship between the richness, expressiveness of the speaker's language and the possibility of influencing the hearts of the listeners.

The most important communicative quality of speech is correctness. Compliance with literary norms determines the culture of the preacher's speech.

At the same time, vivid and figurative speech is created with the help of lexical and stylistic means. Therefore, the knowledge of such means is necessary for the development of the individual style of the imam.

---

[432]Мечковская, Н.Б. Социальная лингвистика: пособие для студентов гуманит. вузов и учащихся лицеев. 2-е изд., испр. [Текст] / Н.Б. Мечковская. М.: Аспект Пресс, 1996. – 207с.

[433]Карасик В.И. Религиозный дискурс // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики. Волгоград, 1999. С. 5-19.

[434] *Розанова Н.Н.* Коммуникативно-жанровые особенности храмовой проповеди / / Н.Н. Розанова / И.А. Бодуэн де Куртенэ: Ученый. Учитель. Личность / Под ред. Т.М. Григорьевой. Красноярск, 2000. С. 25-41.

[435] Гадомский, А.К. Стилистический подход к изучению религиозного языка [Текст] / А.К. Гадомский // Стил. – №7. – Белград, 2008. – С. 21–36.

At the same time, the preacher's speech must also correspond to such a quality as understandability, because the imam's call, filled with scientific and foreign words, will not be accessible to the understanding of a wide circle of believers (listeners).

The language of the sermon as a genre of religious style has its own characteristics.

The use of words, expressions and images from the Qur'an.

The use of special terms that correspond to the topic of the statement, for example: blessed days, creations of the Almighty, I testify, Messenger of Allah, Sahaba, etc.

The deepest respect for what is said in the sermon, which means a strict selection of words and expressions uttered at this time (no jargon or slang vocabulary!)

The presentation of religious truths should correspond to the spiritual needs of the listeners, whose circle is very diverse both in terms of social and educational criteria. The imam must be able to use figurative means (metaphors, comparisons, epithets), include descriptions, contrasts, examples from the life of the prophets and sahabahs, numerous narrations of modern events in the text. This will visually confirm the main idea of the sermon. With the help of such language means, the brightness and figurativeness of the imam's speech is achieved, which will allow solving the main task of the sermon - to influence the mind and feelings of the listeners. It is especially important to remember that the sermon is delivered today, which is called “on the topic of the day,” so it is important to use examples from the past to ascertain the facts of today.

The use of a colloquial style of speech, which in no way means the use of words and expressions that are beyond the bounds of the literary language and the language norm. On the contrary, colloquial speech will allow the listener to be involved in the spoken word. The listener who came to the mosque should feel that the imam is talking to him, and someone, perhaps even be surprised, thinking that the imam knows about what happened in his life. This will be facilitated by rhetorical questions, personal appeals to those who come (Brothers and sisters!), the use of the pronoun “we”, and not “you”, wishes, etc.

- The faith of the preacher in what he says!

**D.R. Turg‘unpo‘latov - Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi**

## YOZUVCHILIK - BUYUK ISTE’DOD

Dunyoda shoir-yozuvchilar ko‘p, ularning asarlari ham talaygina. Lekin ularning hammasi ham o‘qilavermaydi. Xuddi kutubxonadagi ba’zi bir kitoblarning qo‘lma-qo‘l bo‘lib yurishi-yu, ba’zi birlarining bir necha yil o‘qilmaganidan chang bosib yotishidek. Yangi yozilgan asarni qo‘lingizga olganingizdagi xursandchilik qanchalik yoqimli bo‘lsa, bosmaxonadan chiqishini kutishdagi gasht ham undanda yoqimli.

Shunday asarlar bor: yuragingizni shirin g‘ulg‘ula bosadi. Bu g‘ulg‘ulaning lazzatini faqat kitobxongina tushunadi. Shunday asarlar bor: voqealar rivojida asar qahramonlari bilan birga yashaysiz. Xursandchilik kunlariga sherik bo‘lasiz; yig‘lasalar yig‘laysiz, kulsalar kulasiz; g‘am-tashvish, qayg‘uli kunlariga hamdard bo‘lasiz. Asarning o‘qiy olmay qolgan qismini o‘ylab kechasi to‘lg‘onib chiqasiz... Lekin O‘tkir Hoshimov ta’biri bilan aytganda: “Yozuvchi o‘zi his qilgan hamma narsani to‘la-to‘kis qog‘ozga tushira olmaydi. Kitobxon qog‘ozga tushganlarning hammasini to‘la-to‘kis his qila olmaydi. Binobarin, kitob yozayotgan qalamkash hayajoni kitob o‘qiyotgan o‘quvchi hayajonidan o‘n karra kuchliroq bo‘ladi.

Asar o‘qiyotganingizda jinday tabassum qilsangiz, bilingki, o‘sha sahifalarni qalamkash rostmana kulib yozgan. Kitob o‘qiyotganingizda ko‘zingizga bir qatra yosh kelsa, bilingki, qalamkash o‘sha sahifalarni rostmana yig‘lab yozgan”.

Asar qahramonlari bilan birga yig‘lasangiz - bu sizning yutug‘ingiz: insoniy kechinmalar, his-tuyg‘ular sizda mavj urar ekan; asar qahramonlari bilan birga yig‘lasangiz - bu asar muallifining yutug‘i: sizga shunday vaziyatni tuhfa qila olibdi.

Bir asarni yaratishda muallif o‘sha narsa, voqea-hodisani, eng kamida, to‘liq tasavvur qila olishi kerak. Hayotiy qarashlar, yillar tajribasi, xalqni tili bilan aytganda “ko‘pni ko‘rish” - yozuvchilikda qo‘l keladigan omillardir. Bularsiz yozuvchi bo‘lib qolishiga ishonish qiyin. Albatta, hayotiy qarashlarini jamlay olgan, undan kerakli xulosalarni chiqara olgan insongina yozuvchilikka qo‘l urishi mumkin.

"Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!" - deb bejiz aytmagan yozuvchi ajdodlarimiz. Uch qator she'r yozib, u yog'iga so'z topa olmay turishdan yomoni yo'q. Yozuvchilik ham shunday: yarim varoq yozilganidan keyin o'ylanib qolib, davom ettira olmasa, unday insondan yozuvchi chiqmaydi. Buning uchun esa Alloh bergan iste'dod, ko'ngliga solgan ilhom kerak.

Yozuvchini xalq tanishi uchun, avvalo, mahallasi, qishlog'i tanishi kerak. Mahallasi tanimagan yozuvchining xalqi tanimaganidek, xalqi tanimagan yozuvchini jahon kitobxoni tanishi mumkin emas.

**O.M. Uzakova - master student of Ferghana state university**

## THE WAYS OF IMPROVING WRITING SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS

Today knowing languages is very controversial and important issue in our developing society. Language has an essential role in helping learners develop their thinking and creative skills through using the language in several processes such as, relating, commenting, connecting, predicting, recalling, comprehending, applying, associating, analyzing, synthesizing, evaluating and solving problems.

English is the most popular foreign language in the world. It already constituted an amalgam of many different language strands, but the developing language did not stay where it started.

Discussions about who speaks English have been heavily influenced by the work of Braj Kachru who, more than three decades ago, proposed a "three circles view of English in the world, where the "inner circle" comprised countries such as the USA, the UK, Australia, etc. These were countries where English was the national language (320- 350 mln. English speakers). In the "outer circle" Kachru included 150- 100 mln. Speakers from countries such as India and Singapore. Kachru proposed an "expanding circle" where English is a dominant foreign language. This expanding circle included countries as diverse as China, Sweden, Turkey and Argentina.[436] Through acquisition of English language, we can communicate hundreds of countries.

In order to learn this language, you should know four main competences: listening, reading, speaking and writing. Among them writing is accounted as the grade of literacy.

Bello indicated that writing, as a productive language skill, plays an essential role in promoting language acquisition as learners experiment with words, sentences, and large chunks of writing to communicate their ideas effectively and to reinforce the grammar and vocabulary they learn in class.[437]

Writing, is frequently, formed after occupying language material. In order to write neatly and professionally, we need to know the grammar, lexis and vocabulary stock in L1 and L 2. It demands us a long time and hard work. It is pointed out not only writing appropriately, but also beautiful handwriting.

Writing helps to develop creativity in children`s mind. During school lessons, EFL teachers need to develop some writing exercises and interest beautiful handwriting, for example, writing minutes, "Who write appropriately?"

Darayseh noted that teaching writing no longer means simply having students do grammar exercises in writing or getting writing which is free from grammar, punctuation and spelling mistakes, instead, we are after writing about what students are interested in and what they really want to communicate to the reader, and how they reach their final writing products.[438]

Learners make these mistakes during writing:

- Spelling mistakes;
- The rules of transferring
- The words in the correct context;
- Ignorance grammar, repeating words and sentences;

---

[436] Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching, Pearson Education Limited, 2015, p.1.
[437] Bello, T. (1997). Writing Topics for Adult ESL Students, Paper presented at the 31st Annual Teachers of English to Speakers of Other Language Convention, Orlando, Fl, USA.
[438] Darayseh, A. (2003). The Effect of a Proposed Program Based on Semantic Mapping and Brainstorming Strategies on Developing the English Writing Ability and Attitudes of the First Scientific Secondary Students, Unpublished Ph.D. Thesis, Amman Arab University for Graduate Studies, Amman, Jordan.

- Using words those are no longer in use;
- Using the verb “to be” more often.

EFL teachers follow these: "In writing classes, teachers emphasize mechanics, spelling, punctuation, grammar, sentence structure, width of margins, and so on, with little attention to development or style.

In addition, the stages of writing: pre-writing, while writing, and post-writing are expected to contribute to strengthening students’ thinking skills because they engage them in processes such as connecting, analyzing and evaluating ideas, a fact that leads to sharpening students thinking skills.

New games, interactive methods, modern pedagogic technologies give vital results in FLT. Certainly, they must be adapted to the lesson content. We will discuss some of them in the following:

Brainstorming Technique:

Brainstorming is a technique used to encourage individuals to generate ideas and come up with a list of possible solutions to a certain problem. In 1953 the technique was popularized by Alex Osborn in a book called "Applied Imagination". Osborn proposed that groups could double their creative output with brainstorming.

During the brainstorming session, a number of rules should be taken into account including:

- No criticism of ideas.
- Building on what others have suggested.
- Strange and wild ideas are accepted.
- Welcoming the large quantities of ideas. You may use these types at the lessons:

1. Free writing:

In this session, you allow your ideas to flow directly to your pen to paper. You want to write down whatever ideas and thought you can think about concerning the topic you are researching. Do not worry about sentence structure; is it a complete or incomplete sentence, is it correct punctuation or spelling; am I using correct grammar. You must only be concern about writing as much as possible. You could set a time limit, or just continue writing until you run out of thoughts and ideas. The important issue is to WRITE, WRITE, AND WRITE!

2. Cubing.

This allows you to write about the topic from six different directions. Since a cube has six sides, you can jot down six different approaches to the issue that you are reporting on:

1. **Describe it-** use descriptive sentences, adjectives, prepositional phrases, colorful language
2. **Compare it**- use compare and contrast reading and writing strategies, talk about similar and differences.
3. **Correlate it**- with something similar or different.
4. **Investigate it** - again, complete some Internet searches and research it-
5. **Engage it.** - get into the habit of writing as much about a specific detail using descriptive language. Describe the issue fully.
6. **Dispute for and against it.** Encourage the student to express an opinion, and maybe how history could have been changed if something was done different.

One of the most interesting game is “Running dictation”. Running dictation is a classic ESL game because it`s fun, covers all 4 skills in a single activity and it also gets students up out of their seats and moving around. You can use it for adults, university students, kids- whoever! Running dictation requires a bit preparation before students arrive. Ideally, you will have two areas: one for the sentences to be posted, and another for the “secretaries” to sit and write. Runners can only dictate, they cannot write for the secretary. Spelling words out is fine. You need to emphasize to the runners that they can only whisper to their partners and not speak in a normal voice. If you let students speak in their normal voices, they will start shouting from across the room. Students should be divided into two main groups: runners/ dictators and secretaries. The runners will find the sentence strips/ story, and will memorize as much as they can. Then, they will run back to their secretary and dictate what they remember. They will repeat running and dictating until they have correctly dictated the entire passage. Then, they have to check with the teacher to make sure it`s correct.

In conclusion, writing has always regarded as an important skill in the teaching and learning English as a foreign Language (EFL). On the one hand, it stimulates thinking, compels students to concentrate and

organized their ideas, and cultivates their ability to summarize, analyze, and criticize. On the other hand, it reinforces learning in, thinking in, and reflecting on the English language.

## References

1. Bello, T. (1997). Writing Topics for Adult ESL Students, Paper presented at the 31st Annual Teachers of English to Speakers of Other Language Convention, Orlando, Fl, USA.
2. Darayseh, A. (2003). The Effect of a Proposed Program Based on Semantic Mapping and Brainstorming Strategies on Developing the English Writing Ability and Attitudes of the First Scientific Secondary Students, Unpublished Ph.D. Thesis, Amman Arab University for Graduate Studies, Amman, Jordan.
3. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching, Pearson Education Limited, 2015, p.1.
4. Jim Flowers. Five brainstorming structures. Department of Technology. Ball State University, 2006.
5. Language and literature education. 2016y. №11
6. Salem Saleh. Brainstorming and essay writing in EFL classes, Academy Publisher, Finland, 2011.

**G.O. Ergasheva - Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi**

## "VATAN KELAJAGI BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA"

Vatan muqaddasdir! Darhaqiqat, Alloh taolo insonlarni bu dunyoda turli-tuman ne'matlari bilan siylagan bo'lib, har bir ne'matlarining o'ziga yarasha qadr-qiymati bor. Ammo bular ichida bebaho yana bir ne'mati borki, har birlarimiz uning qadriga yetmog'imiz, uni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz lozim. Bu albatta Istiqlol ne'mati Vatanga bo'lgan muhabbatdir.

Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir. Uni asrab avaylash har birimizning farzandlik burchimizdir. Inson qayerda tug'ilsa, o'sha yer uning uchun qadri baland bebaho Vatan hisoblanadi. Hattoki sahroda tug'ilsin yoki tog'u-toshlar orasida tug'ilgan inson bo'lsin kindik qoni to'kilgan joydan aziz va mukarramroq joy bo'lmaydi. Shuning uchun ham har bir iymonli kishi o'z vatanini sevishi, ardoqlashi, uning rivojlanib gullab yashnashi uchun qo'lidan kelganicha o'z hissasini qo'shishi, uning sarhadlarini moli-yu joni bilan himoya qilishi lozim bo'ladi.

Vatan-inson tug`ilgan muqaddas zamin. Vatan deganda ota-onalarimiz, avlod-ajdodlarimiz kindik qoni to`kilgan ona yerni tushunamiz. Vatan tushunchasi va unga bo`lgan muhabbat insonga ona suti, ona bag`ri, ona mehr-muhabbati,ona allasi bilan yuragiga jo bo`ladi. Vatanni qalban chuqur his qilish uchun xalqning vatanparvarlik na`munalarini bilish, uni e`zozlash, qadriga yetish, mustahkamlash kerak. Mana shu tuyg`ular, mana shu go`zal insoniy oliy fazilatlar bugungi erkin kunimiz uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir. Vatan millat idroki bilan mavjuddir, ya`ni millat Vatanning ustunidir. Faqatgina shu zaminda yashagani uchun emas,balki uni sharaflagani,shuhratga burkagani va ona yerni Vatan bilgani ham unga uyg`undir.

Vatanni onaga qiyoslashadi. Har birimiz onamizni qanchalik yaxshi ko'rib, mehr berib ardoqlasak, Vatanimizni ham shu qadar sevib, ardoqlashimiz, uni har qanday xavf-xatarlardan himoya qilishimiz lozim. Vatanimiz bizni o'z quchog'ida o'sib ulg'aytiradi, xuddiki onamiz bizni asrab-avaylab, voyaga yetkazganidek. Shuning uchun ham biz bu so'zni muqaddas zot nomi bilan tilga olamiz, ona Vatan deya ardoqlaymiz. Vatanimiz bizga Alloh tomonidan berilgan eng ulug' ne'matdir. Bu ne'matning qadriga yetib, tuprog'ini ko'zlarimizga to'tiyo aylab, uning har qarich yerini asrashimiz, himoya qilishimiz kerak. Inson ilk bor nafas olib, o'sib ulg'aygan ona zaminiga mehr-muhabbatli, sadoqatli bo'lmog'i va unga berilgan ne'matlarga shukr qilib yashamog'i lozim.

Tinchlik – eng oliy tushunchadir. Tinchlik va xotirjamlik bo'lgan yurtdagina o'sish, rivojlanish bo'ladi hamda shu yurt barqarorlikka erisha oladi. Birovga qaram xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimiz Konstitutsiyasida Vatan himoyasi, yurt tinchligi uchun

kurashish har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligi qayd etilgan. Xalqimizning tinch va osoyishta yashashi, oydin kelajagi Vatan, yurt taqdiri bilan bogʻliq. Modomiki shunday ekan, bugungi kunda “Yurtim tinch – men tinch, oʻzimni oʻz uyimni oʻzim asramogʻim darkor” degan haqiqatni chuqur anglash nihoyatda muhim. Yuksak ma’navoyat, siyosiy madaniyat, doimiy ogohlik va hushyorlik, millatning gʻoyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning eng muhim omilidir. Xalqimiz uchun muqaddas bu gʻoya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega boʻlgan barcha kuch va harakatlarni birlashtiradi, shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tariximizga nazar tashlasak, yurtimiz tinch, xalqimiz xotirjam yashagandagina yurtimiz yuksak moddiy va ma’naviy yutuqlarga ega boʻlganiga guvoh boʻlamiz. Xususan, sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugʻbek Movorounnahrga hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvorlik boʻlgani sababli ilm-fan, madaniyat taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, koʻhna zaminimiz gullab-yashnagan. Tinchlikka oʻz oʻzidan quruq xohish-istak bilan erishib boʻlmaydi. Uni izchil va qat’iy harakatlar tufayligina ta’minlash mumkin. Xalqimiz tinchlikni yuksak qadrlaydi hamda uni oʻz orzu-umidlari oliy maqsadlarining kafolati deb bilasi. Shu bois ota-bobolarimiz duoga qoʻl ochsa, dastavval tinchlik, omonlik tilaydi, xalqimiz ham “Tinchlik boʻlsa har qanday ezgu maqsadga erishish mumkin” degan qarashga tayanib yashaydi. Lekin tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, orzu-niyatning oʻzi bilangina uzoqqa borish qiyin. Yurt tinchligi – dunyo va mintaqalar tinchligi bilan chambarchas bogʻliq. Davlatlar oʻrtasida oʻzaro ishonch va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda tinchlik nihoyatda muhim omil sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yurt tinchligi – milliy istiqlolimizning asosiy gʻoyalaridan biri boʻlib, u bebaho ne’mat, ulugʻ saodatdir. Bashariyat oʻz taraqqiyotining barcha bosqishlarida avvalo, tinchlik-totivlikka intilib kelgan. Tinchlikni saqlash va mustahkamlash umumbashariy masala. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy masalalari tinchlik-totivlik sharoitidagina samarali hal etilgan. Shu boisdan ham yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir.

Vatan ravnaqi – mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladigan asosiy gʻoyalardan biridir. “Vatan” va “Vatan ravnaqi” tushunchalari mustaqillik yillaridanoq alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Bugun biz Vatanimiz mustaqil boʻlgan davrda yashamoqdamiz. Mustaqillikni asrab-avaylash vatanparvar insonning eng birinchi vazifasidir. Bunda eng avvalo biz yoshlarning oʻrnimiz kattadir. Chunki vatanimiz kelajagi biz yoshlarga bogʻliqdir. Bugun biz uzoq oʻtmish, boy tarix, umumbashariy qadriyatlar mujjasamlashgan, ezgu va ulugʻ maqsadlari sari mardonavor odimlab borayotgan, oʻz kuch va salohiyatiga tayanib demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida ulkan natijalarga erishayotgan va bu natijalar asosida jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻrnini egallab borayotgan mustahkam irodali xalq farzandlarimiz.

Avvalombor, mana shunday yorugʻ zamonlarda dasturxoni toʻkin-sochin, nuroniylari tetik, yoshlari istedodli, kelajagi porloq vatanda yashayotganimizga yaratganga behisob shukrlar boʻlsin.

Bu kunlarga erishish oson boʻlmaganiga ibratli tariximiz guvoh. Bu haqida koʻp gapirilgan boʻlsada biz buni inkor eta olmaymiz. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek “Oʻz tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yoʻq. Biz buni chuqur anglagan holda bugungi dorilomon kunlar qadrini teran his etamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yoʻlidan borar ekan, bu yoʻlda har tomonlama barkamol, ertkin shaxslarni kamol toptirish bu borada barcha shart-sharoitlarni yaratish va taminlashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻydi. Ilm-fan, madaniyat va sport soxalarida olib borilayotgan islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar fikrimiz tasdigʻidir.

Bizga ma’lumki, yurtimizda ta’lim sohasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Vaholanki, oʻsib kelayotgan yosh avlodni ham ma’nan ham jismonan sogʻlom, barkamol, komil inson ruhida tarbiyalash bugungi kun tartibiga aylandi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Uzoq tariximiz guvohlik beradiki, hech bir millatning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush-tarzi, ma’naviy qadriyatlari oʻz-oʻzidan shakllanib qolmagan. Shu kabi intilishlar, ezgu fazilatlar, qanoat-u matonat asrlar davomida xalqimiz qon-qoniga singib ibratli koʻrinish kasb etgan. Bugungidek bir davrda ya’ni, hayot suratlari koʻz ilgʻamas darajada shiddat bilan harakatlanayotgan zamonda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi oʻz milliy qadriyatlarini, milliy oʻzligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida oʻziga munosib oʻrin egallashi uchun fidoiylik bilan, jonkuyarlik bilan kurasha olishi mumkin. Bu haqiqatni teran anglagan holda

biz yoshlar- ertangi kun egalari elkamizdagi mas’uliyatli burchimizni chuqur anglamog‘imiz darkor. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A. Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-etibori avvalombor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak” degan edilar.

Biz yoshlar bu so‘zlarni aslo unutmasligimiz lozim. Har doim o‘z ustimizda ishlashimiz, yurtimiz ravnaqi, Vatanimiz kelajagi uchun munosib farzand bo‘la olishimiz darkor. Buning uchun esa chuqur bilimga ega bo‘lishimiz, ko‘nikma va malakalarimizni oshirib borishimiz, har qaysi sohada o‘z qobiliyatlarimizni ishga solgan holda say-harakatlarimizni amalga oshirishimiz, mustahkam iroda, kuch-g‘ayrat bilan yuksak marralarni zabt etib, ona vatanimiz O‘zbekistonni jahon hamjamiyatida eng yuqori o‘rinlarni egallashiga hissa qo‘shmog‘imiz lozim. Zero, yirt kelajagi – bilimli yoshlar qo‘lidadir.

**M.Sh. Musayeva – Farg‘ona davlat universiteti magistranti**

## XVI ASR O‘ZBEK ADABIYOTIDA YASSAVIY AN’ANALARI

An’ana (arabcha, nasldan naslga o‘tuvchi qoida)- hayotda qaror topgan udum, urf-odat va boshqa amallar.[439]

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov an’anaga quyidagicha izoh beradi: ”O‘tmish adabiyoti to‘plagan tajribalar, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qismi".[440] Demak, adabiy an’ana bu-har bir davrning to‘plangan eng yaxshi tajribalari va ularning turli davrlarda ijodkorlar tomonidan davom ettirilishidir.

XVI asr o‘zbek adabiyotining eng sermahsul davrlaridan biridir. Bu davrda o‘z zamonasining mashhur shoirlari, din va san’at arboblari yashab ijod etgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro davri juda ko‘plab iste’dodlarni yuzaga chiqargani kabi Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrda ham madaniy hayotda o‘ziga xos "ko‘tarilish" bo‘ldi. Bu davrning ham siyosatda, ham badiiy ijodda ko‘zga ko‘ringan peshqadamlaridan biri shayboniy sulton Ubaydullaxondir. Ubaydullaxon Shayboniyxonning inisi Mahmud Sultonning o‘g‘li bo‘lib, Xoja Ubaydulloh Ahror unga o‘z ismini bergan. Ubaydiy, Qul Ubaydiy taxalluslari bilan qalam tebratgan ijodkor o‘z davrining yetuk olimlaridan tahsil olgan. Jumladan, Mir Arab nomi bilan mashhur bo‘lgan Abdulla Yamaniy uning ustozi bo‘lgan. Hofiz Tanish Buxoriy o‘zining "Abdullanoma" asarida bayon etishicha: "Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro gullab-yashnadi". Ubaydullaxon siyosatchi, mohir sarkarda bo‘lish bilan birga buyuk ijodkor hamdir.

Olim M. Abdullayevning aytishicha, Ubaydiy she’riyatda Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy, Lutfiy va Navoiy an’analariga tayangani holda ularni o‘zaro uyg‘unlashtirishga harakat qilgan.[441] Ubaydullaxon ijodida bevosita Yassaviy ta’siri sezilib, ayniqsa, hikmatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ubaydiyning ham ohang, ham shakl va mazmun jihatidan Shayx Ahmad Yassaviyga o‘xshash hikmatlari orqali ul zotning izdoshi o‘laroq ijod qilganini ko‘ramiz.

Professor Abdurauf Fitrat Ubaydiy haqida ma’lumot berarkan, ham "Naqshbandiy", "Yassaviy" tariqatini qabul qilib, shayxlarga murid, muridlarga shayx bo‘lganini, tasavvufiy she’rlar yozganini ma’lum qiladi. Uning fikricha, Ubaydullaxon "bu davrning eng yaxshi shoiridir". Ahmad Yassaviyning "Beshak biling bu dunyo barcha xalqdin o‘taro" hikmatiga ham mazmunan, ham shaklan o‘xshaydigan hikmatlar Ubaydiy kulliyotida uchrab turadi. Jumladan,

4 3 4 3
Ko‘ch ayladik / ey rafiq, / olam bari / ko‘charo. 14
4 3 4 3
Ko‘zni yumib / ochquncha / aziz umring / kecharo. 14
4 3 4 3

[439] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. 89-bet
[440] Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-Akademnashr,2010. 12-bet
[441] Ubaydiyning hikmat gulshani. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции. Москва. 2020г., 28 февраля, 20-стр

O‘lim solur / motamg‘a, / odam o‘g‘lin / har damg‘a. 14
4 3 4 3
Aqli bo‘lg‘on / odamg‘a / ushbu ibrat / yetaro.[442] 14

Qul Ubaydiyning ushbu hikmati barmoq she’r tizimining o‘n to‘rtlik (4+3+4+3) turkumida yozilgan. Muallif bu orqali dunyoning ko‘z yumib ochguncha tez fursatda o‘tib ketishini, har nafasda o‘lim yaqin kelishini aytib, bundan ibrat olgan holda u dunyolik "sandiq" ni to‘ldirishga chaqiradi.

Bu davrdagi Shayx Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan yana biri Shayx Xudoydod Validir. Uning asl ismi Xudoyberdi bo‘lib, asli xorazmlik Azizon Ortiq Shayxning farzandidir. O‘z davrining ham siyosiy, ham ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega shaxsiyatdir. Abdurauf Fitratning keltirishicha, Shayboniyxonga yordam qilmagani uchun Samarqanddan Hirotga haydalgan Jamol shayxning murididir. Xudoydod Vali fors tilida ham betakror baytlar yaratgan bo‘lib, bu haqda Abdurauf Fitrat ham aytib o‘tgan. Ulug‘ avliyo Shayx Xudoydod Vali kitobida Xudoydodning fors tilidagi baytlari bilan birga ul zotning o‘zi tomonidan tahlilga tortilgan baytlar ham berilgan. Masalan:

Man az on dam/ ki, shu-dam az/ dar-di ish-qash/ xo- ru zor,
- V - - / - V - - / - V - - / - V -
Vo-ra-ho-ni/dam xu-dam-ro/ az ha-ma bo/qi-shi yor.
- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Mazmuni: men uning ishqida xor-u zor bo‘lgan vaqtimdan boshlab, yorga begona bo‘lgan barcha narsalardan o‘zimni xalos etdim.

Ushbu bayt aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun foilotun foilotun foilun) vaznida yozilgan bo‘lib, oshiqning murodi yor(Alloh) rizosi uchun dunyoning barcha ne’matlaridan voz kechish ekanligini ko‘rsatadi.

Yassaviyshunos olim Islomjon Mannopov o‘zining "Ahmad Yassaviy va Shayx Xudoydod" maqolasida keltirishicha, Shayx Xudoydodning hikmatida "Devoni hikmat" ning quyidagi an’analari davom ettirilgan:

1. Mavzu va g‘oya an’anasi (ishq va oshiqlik)
2. Vazn va shakl an’anasi (barmoq tizimining o‘n ikkilik turkumi va to‘rtlik shaklida bitilganligi)
3. Til an’anasi (turkiy tilda ifodalanishi)
4. Ifoda, uslub va ohang an’anasi (sodda va xalqona aytilganligi)[443]

Shams O‘zgandiy ham Yassaviy maktabi shoirlaridan biri bo‘lib, "Samarat ul-mashoyix" asarida Mavlono Shams O‘zgandiyning piri Sayid Ahmad bo‘lib, uning murshidi esa Kamol Shayx Iqoniy ekanligi haqida ma’lumot berilgan. Asli O‘zgandan, rasmiy tahsilni Hirotda bitirgan. Undan qaytib, Samarqandda Sayid Ahmad shayxga murid bo‘lgan. Keyinchalik O‘zgandga qaytib, dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Piri Sayid Ahmad vafotidan so‘ng Samarqandga qaytib, uning o‘rnini olgan. Vafoti Samarqandda bo‘lib, piri Sayid Ahmad shayxning yoniga dafn etilgan.[444] Mavlono Shams O‘zgandiy XV asr oxiri XVI asr birinchi yarmida yashab ijod etgan. "Samarat ul-mashoyix"da aytilishicha, Mavlono Shamsiddin zohir va botin ilmlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, Xoja Ahmad Yassaviyga ergashib hikmat aytgan. Professor Abdurauf Fitrat o‘zining "Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar" maqolasida 1906-yilda Qozonda chop etilgan "Boqirg‘on kitobi"da Shams O‘zgandiydan ham parchalar borligini aytib, jami 24 parcha, 1058 misradan iborat ekanligi haqida ma’lumot beradi.[445] Shams O‘zgandiy ham Yassaviy an’analarini munosib davom ettirgan va shu ruhda hikmatlar aytgan:

4 3 4 3
Yo rab, o‘zing / bilursan, / sandin o‘zga /kimim bor, 14
4 3 4 3
Biru borim / erursan, /sandin o‘zga / kimim bor. 14

Yuqoridagi baytdan Alloh taoloning "Biz sizga qon tomiringizdan ham yaqinmiz" degan so‘zlariga yaqin ma’no kelib chiqadi. Ya’ni, lirik qahramon ko‘nglidagi barcha sirlari yolg‘iz Allohga ayonligi va bor-yo‘q "yaqini" Alloh ekanini ta’kidlab o‘tadi.

[442] Kulliyoti Ubaydiy. O‘zRFASHI, qo‘lyozma, inv.№8931.-V.233
[443] Filologiyaning dolzarb muammolari.ii kitob. Mannopov I.ahmad yassaviy va shayx Xudoydod. 64-bet
[444] Yassaviy kim edi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994,36-bet
[445] Yassaviy kim edi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994,35-bet

Xulosa shuki, XVI asr oʻzbek adabiyotida yuksak choʻqqiga erishgan aruz tizimi bilan parallel ravishda Yassaviy boshlab bergan xalqona ruhdagi barmoq tizimida ijod qilish davom etdi. Uning hikmatlari ruhida hikmat aytish Yassaviy maktabining “odobi”ga aylandi.

**Q.Sh. Kaxarov - Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash boʻlimi boshligʻi**

## OʻZBEK VA NEMIS OILALARIDA OTA NUTQINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma’lumki, dunyoning barcha xalqlarida oilada ota-onaning muhim oʻrni, ularning nutqiy etiketlariga oid leksemalar turli lingvokulturologik xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Shu jihatdan oʻzbek va nemis xalqlarida ota bilan bogʻliq leksik birliklar semantik jihatdan oʻzaro farqlanadi. Dastlab, biz nemis oilalaridagi ota bilan bogʻliq leksik birliklarning ma’nolariga toʻxtalib oʻtamiz.

Nemis tilining “Langenscheidt” nomli izohli lugʻatida ota bilan bogʻliq leksemalarga quyidagicha izoh beriladi.

Der Vater 1. ein Mann der ein Kind gezeugt hat. Guter, schlechter, liebevoller, strenger Vater. 2. verwendet als Anrede für einen Priester. 3. Gott.[446]

Birinchi ma’nosi farzandning xaqiqiy otasiga nisbatan ishlatilib, yahshi, yomon, mehribon, qattiqqoʻl sifatlari ota leksemasi bilan qoʻllanilishi mumkin. Ikkinchi ma’nosi ruhoniyga nisbatan ota deb murojaat qilinadi. Uchinchi ma’nosi Allohni anglatadi. Bundan tashqari izohli lugʻatda ota leksemasi bilan qoʻllanilgan quyidagi birliklarni ham koʻrishimiz mumkin. Väterchen – keksa kishiga nisbatan, Vaterfreuden – otalik quvonchlari deb tarjima qilinib, yaqin orada farzand kutayotgan otaning holatiga nisbatan qoʻllaniladi. Vaterhaus – ota uyi tushunilib, oʻsha uyda voyaga yetgan yoki u yerda ota-onasi yashayotgan uy tushuniladi. Vaterland – ona-Vatan ya’ni, tugʻilib oʻsgan yashagan joy tushuniladi. Koʻrinadiki, oʻzbeklarda tugʻilib, yashab oʻtgan joyga nisbatan ona-Vatan deyilsa, nemislarda esa ota-Vatan leksemalari ishlatiladi. Vaterländisch sifati ostida vatanparvar ma’nosini anglash mumkin. Väterlicherseite ota tomonidan qarindosh ma’nosi tushuniladi. Vaterschaftsnachweis birligi ostida otalikni isbotlovchi hujjat, Vaterschaftsklage leksemasi agar ota-ona ajragan boʻlsa, otalik nafaqasini toʻlash ma’nosi, Vaterstadt leksemasi ostida ota shahar tushunilib, oʻzbek tilida esa ona shahar ma’nolarini tushunish mumkin.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida esa ota bilan bogʻliq leksik birlikga quyidagicha izoh beriladi:

Ota – farzandli, bola-chaqali er kishi (oʻz bolalariga nisbatan). Ota boʻlmay, ota qadrini bilmas. Maqol. Siz otamisiz, nimasiz axir, oʻgʻlingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? /A.Qodiriy, Oʻtgan kunlar/. Tojiddining otasi ham kampirining oʻlimidan keyin koʻp oʻtmay vafot etgan edi /S. Zunnunova, Olov/. Bundan tashqari izohli lugʻatda ota bilan bogʻliq turli ifodalarga ham izoh berib oʻtiladi. Masalan, ota kasb, ota yurt, qayin ota, ota-buva, otalarcha, otali, otalik qilmoq, otabezori, otaliq, otamlamoq, otamlashmoq, ota-ona kabilar.[447]

Koʻrinadiki, oʻzbek tilining izohli lugʻati nemis tilining izohli lugʻatidan ota leksemasi ota kasb, ota-buva, otalarcha, otali, otalik qilmoq, otabezori, otaliq, otamlamoq, otamlashmoq kabi ma’nolarga egaligi bilan farq qilsa, nemis tilining izohli lugʻatidagi ota leksemasi ruhoniyga, Allohga nisbatan ota deb murojaat qilinishi, ota-Vatan, vatanparvar, ota shahar ma’nolarini anglatishi bilan farq qiladi.

Islom diniga mansub davlatlarda, jumladan, oʻzbek xalqi oilalarida ota nutqining oʻziga xos xususiyatlari mavjudki, albatta ular nemis xalqi oilalaridan tubdan farq qiladi. Oilada ayniqsa, otaning nufuzi qaysidir ma’noda yuqoriligi sabab, oilada ba’zan farzandlar oʻz fikr muloxazalarini avval onalariga aytib, soʻngra otalariga murojaat qilishlari yoki onalari orqali aytishlari qadimdan ma’lum. Balki, shu sababdan ham “ota-ona” ifodasi ishlatilganda birinchi boʻlib, “ota” leksemasi ishlatilgandir.

Tilshunos olim J.Umarov erkak kishi ota boʻlgandagi baxtni, baxt tuygʻusining eng oliy koʻrinishi ekanligini, mol-davlat, mansab-martabaga erishgandagi baxtdan ham ustun ekanligini quyidagi ifodalarda tasvirlab beradi:

---

[446] D.Götz, G.Haensch, H.Wellmann. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. – Langenscheidt, 2008. S.1138.
[447] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 151.

“Dunyoda inson baxti olmos kabi turfa qirralarga ega. Ular orasida eng ajoyiblaridan biri ota bo‘lish baxtidir. Otaning farzandini qo‘lga olgandagi hayajonini so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi. U juda ulkan faxr va g‘urur hissini tuyadi. Ayniqsa, birinchi farzandi dunyoga kelganda yeru ko‘kka sig‘maydi. Mol-davlati, mansab-martabasi tufayli sezmagan huzur-xalovatga ega bo‘ladi.”[448]

Erkak kishi ota bo‘lgandan so‘ng bu uning ruhiy holatiga ham o‘zgacha ta’sir etishini olim quyidagi jumlalarda xayotiy tasvirlab beradi:

“Ota bo‘lmish endi murg‘ak go‘dagini sog‘inib ishdan uyga shoshadigan, uning yoniga talpinadigan bo‘ladi, barchaga mehr ulashgisi, ezgulikni baham ko‘rgisi keladi. Ota bo‘lish katta o‘zgarish, ya’ni hayotga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlash deganidir.”[449]

Otaning oilada farzandlar tarbiyasiga nisbatan qattiqqo‘lligi, onaga qaraganda mas’uliyatning bir qadar yuqoriligi, farzandlarni moddiy jihatdan ta’minlash ko‘proq ota zimmasiga yuklatilishi kabilar ota nutqida ham o‘z aksini topganligini kuzatishimiz mumkin.

*Aylanayin bo‘yingdan, ko‘zlaringga ko‘z tumor,*
*O‘tir, o‘g‘lim, sen uchun aytadigan gapim bor.*
*Pahlavonim, shunqorim, qil so‘zimga e’tibor:*
*Osmonda bir Xudoyu yerda yolg‘iz otang bor.*
*Mo‘rtsan, hali bilmaysan dunyoning ne ekanin,*
*Otasizlar hayotda tinmayin pand yeganin,*
*Uqib olgin ajdodlar yoshlarga ne deganin:*
*Osmonda bir Xudoyu yerda esa otang bor. /S. Mo‘min. E’zoz/*

Yuqorida biz shoir va tilshunos olim S.Mo‘minovning “Otalar zikrida” nomli she’rida ota nutqiga xos bo‘lgan o‘zbekona farzandiga qilgan pandu nasixatlarini she’riy yo‘lda jo aylaganini ko‘rishimiz mumkin. She’rda otaning o‘z o‘g‘lini “aylanayin bo‘yingdan”, “ko‘zlaringga ko‘z tumor”, “pahlavonim”, “shunqorim” kabi so‘zlar bilan erkalagan holda o‘g‘lining xali yoshligi bois hayotda yashash va to‘g‘ri yo‘ldan ketish oson emasligini, bu yo‘lda otasining pand-nasixatlariga quloq tutishi lozimligini, otasi yo‘qlar hayotda ko‘p qoqilganini va xatto ajdodlar otani Xudoga tenglashtirganini uqtiradi.

Qadimdan ota-bobolarimiz o‘z o‘g‘il farzandlarini el-yurt xizmatiga shay, mard va jasur yigit qilib tarbiyalashi lozimligi uqtirib kelingan. Shuning uchun ham donishmandlar “Otaning farzandga eng katta hadyasi, bergan yaxshi tarbiyasidir” deb aytishgan. Otalar bola tarbiyasida uch jihatga ahamiyat berish kerakligi xaqida uqtirib kelingan:

1. Munosib jufti halol tanlash.
2. Homila davridagi parvarish.
3. Farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya.[450]

Xatto buyuk Amir Temurning o‘gitlarida ham “Men uchun dunyoni zabt etishdan ko‘ra ham farzandlarim uchun munosib kuyov va kelin topish mushkul ishdir” degan so‘zini o‘qiganmiz va eshitganmiz. Chunki, xar bir inson balog‘at yoshiga yetib uylanish yoki turmush qurish chog‘ida o‘ziga har tomonlama munosib bo‘lgan yor topishdir. Shuning uchun xam shox va buyuk sarkarda Amir Temur munosib jufti-halol topishni mamlakatlarni bosib olishdan ko‘ra ham qiyinligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda hayotda bir-biriga nomunosib juftliklar haqida yozgan shoira Marxabo Karimovaning “Taqdirga ham qoyilman” she’rini keltirib o‘tmoqchimiz:

*... Olovni suvga qo‘shar,*
*Soddani quvga qo‘shar,*
*Atay qilganga o‘xshar,*
*Taqdirgayam qoyilman!*
*...Bir badfelga bir zebo,*
*Bir ko‘lmakka bir daryo,*
*Bir nodonga bir dono*
*Taqdirgayam qoyilman!...*
*...Er yayraydi kuy tinglab,*
*Xotin o‘tirar esnab,*

[448] Ж.Умаров. Асл оталар китоби. – Тошкент, Akademnashr. – Б. 3.
[449] Ж.Умаров. Асл оталар китоби. – Тошкент, Akademnashr. – Б. 3.
[450] Ж.Умаров. Асл оталар китоби. – Тошкент, Akademnashr. – Б. 4.

*Qovushmaydi gapga-gap,*
*Taqdirgayam qoyilman!... /Marxabo Dunyoning bir qavati/*

Bunday holatlarda kishilar nutqida oʻzaro “Taqdirga ham qoyilman” degan iborani uchratib turamiz.

Homila davrida ham otaga katta mas’uliyat yuklanishi ya’ni, homilali ayoliga ogʻir yuk koʻtartirmasligi, “Nima yeging kelyapti?” deb soʻrab turishi lozimligi kabilar.

Bola tarbiyasida “Bolaga besh yoshgacha podshohga munosabatda boʻlgandek, oʻn toʻrt yoshgacha qulga munosabatda boʻlgandek va oʻn toʻrt yoshdan boshlab doʻst-oʻrtoqqa munosabatda boʻlgandek boʻl!” degan naql bor. Otadan zarur bilimga ega boʻlish va sabr-qanoatli boʻlishni talab etadi. Chunki bola tarbiyasi – juda uzoq va mashaqqatli jarayon ekanligi ma’lum. Ota farzand tarbiyasida yoshi ulugʻlar nasihati va tajribasiga amal qilishi lozim.

**S.N. Sultonov – Fargʻona davlat universiteti talabasi**

## YANGI OʻZBEKISTON MA'RIFATLI JAMIYATINI YARATISHDA YOSHLARNING OʻRNI

***Biz yurtimizda qanday islohotlarga qoʻl urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-gʻayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz*.**
***Shavkat Mirziyoyev.***

Vatan. Bu soʻz ortida juda katta ma'no juda va mantiq bor. Mening vatanim bu – Oʻzbekiston. Oʻzbekiston mustaqil demokratik davlat hisoblanadi. Oʻzbekiston bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatoriga asta sekinlik bilan qoʻshilib bormoqda. Bunga asosiy sabab respublikamizda yoshlarga qaratilgan juda katta e'tibor desak mubolagʻa boʻlmaydi. Hozirda yoshlarga nisbatan juda katta, keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bunday sharoitlardan qay darajada va qay maqsadda foydalanish oʻzimizga havoladir.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimiz tepasiga kelgandan boshlab birinchi amalga oshirgan ishlari bu – yoshlarni ma'naviyatli va ma'rifatli tarbiyalash va yoshlarga hamma imkoniyatlarni yaratib berishi boʻldi. Chunonchi, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlar va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga haydovchilik guvohnomasini olish, bir oylik harbiy xizmatni oʻtash xarajatlari byudjetdan toʻlab berilishi qanchadan qancha yoshlarning orzu-istaklari roʻyobi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Buning zamirida xalqimizning farzandlar taqdiriga befarq emasligini yana bir bor guvohi boʻlamiz. Illo, oʻzingiz oʻylang, oʻz ota-onasining mehridan mosuvo boʻlgan, kattalarning gunohi, xatolariga javobgar boʻlib, «Mehr uylari»da mungli koʻzlari bilan boqib turgan yoshlarimiz taqdiriga bugun davlatimiz bee’tibor emas. Bunga asosiy birinchi sabab jannatmakon Oʻzbekistonimizda yangidan ma'rifatli jamiyat yaratishdir. Ma'rifatli jamiyat deganda koʻz oʻngimizga qanday jamiyat kelishi mumkin? Keling avval ma'rifat soʻzini ma'nosini bilib olsak.

Bizning nazarimizda, ijtimoiy qadriyatlar tushunchasining mazkur talqini mazmun jihatidan ijtimoiy mentalitetni ham qamrab oladi, chunki bu yerda ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar g‘oyalar ham, tasavvurlar ham, mo‘ljallar ham, kechinmalar hamdir.

M.S.Kagan asarida ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgacha talqini taklif qilinadi. Bir tomondan, u ijtimoiy qadriyatlarni turli siyosiy partiyalar va harakatlardan iborat bo‘lgan ijtimoiy guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurashdir, degan falsafiy tasavvurdan kelib chiqib talqin qiladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy qadriyatlarni tavsiflashda muallif shundan kelib chiqadiki, ular “ijtimoiy ongning ijtimoiy-psixologik darajasida milliy fe’l-atvor, tabaqa psixologiyasi, sinfiy o‘zlikni anglashning makroguruh uchun umumiy bo‘lgan jihatlari sifatida vujudga keladi va mafkuraviy darajada nazariyachilar tomonidan shakllantiriladi. Ijtimoiy qadriyatlar shaxsdan ustun turadi, chunki tegishli baholarni individ o‘z nomidan emas, balki o‘zi mansub bo‘lgan birlik nomidan beradi, lekin mazkur baholar individ o‘zi mansub bo‘lgan birlikning manfaatlari va ideallarini qay darajada idrok etgani bilan belgilanadi”[478].

Ijtimoiy qadriyatlarning ahamiyati, M.S.Kagan fikriga ko‘ra, ikkiyoqlama xarakterga ega: bir tomondan ular odamlarni birlashtiradi va ikkinchi tomondan ularning o‘rtasiga nifoq soladi, chunki insoniyat biron-bir qismining birligini mustahkamlaydi va ayni vaqtda uning yaxlitligiga putur yetkazadi, hatto harbiy va inqilobiy konfliktlarga sabab bo‘lishi va ularni oqlashi ham mumkin. Huquqiy qadriyatlar o‘z tabiatiga ko‘ra tartibga soluvchi, barqarorlashtiruvchi, turg‘un kuch bo‘lsa, ijtimoiy qadriyatlar konstruktiv xususiyatga ham, destruktiv xususiyatga ham ega bo‘lishi, reaktsion amaliyotni ham, islohotchilik amaliyotini ham, inqilobiy amaliyotni ham oqlashi mumkin[479].

M.S.Kagan ko‘p conli kishilarni ular bir-biri bilan tanish yoki tanish emasligi, bir-biri bilan bevosita muloqot qilishi yoki qilmasligidan qat’iy nazar birlashtiruvchi vatanparvarlik, fuqarolik, milliy g‘urur, partiyaviy intizom kabi tayanch ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qayd etadi[480].

Shakllangan tadqiqotchilik amaliyotidan farqli o‘laroq, biz nazariy jihatdan ijtimoiy qadriyatlarni ijtimoiy tasavvurlar va mo‘ljallardan ajratamiz. Ijtimoiy qadriyatlarni tavsiflash uchun M.S.Kagan ilgari surgan g‘oyalardan tashqari, sotsiologlar U.Tomas va F.Znanetskiy hamda aksiolog M.Rokich qadriyat tushunchasiga bergan ta’riflar, bizningcha, diqqatga sazovordir. U.Tomas va F.Znanetskiy qadriyat tushunchasini ta’riflashga pozitivistik nuqtai nazardan yondashganlar va uni “ta’riflash mumkin bo‘lgan mazmunga va biron-bir ijtimoiy guruh a’zolari uchun ahamiyatga ega bo‘lgan har qanday predmet” sifatida tavsiflaganlar. Shuningdek ular qadriyatlarning “guruh o‘z a’zolari o‘rtasida harakatlarning tegishli tiplarini tarqatish, tartibga solish va saqlash uchun qo‘llaydigan xulq-atvor qoidalari”[481], degan talqinini ham taklif qilganlar.

Qadriyatlar ildizi chuqur bo‘lsa-da, bu to‘g‘risidagi fan – akseologiya XIX asrning o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, mazkur atama ilmiy bilimlar sohasiga o‘tgan asrning ikkinchi yarimida nemis akseologi E. Gartman va frantsuz olimi Lapi tomonidan kiritilgan va o‘zlarining asarlarida qo‘llaganlar.

Akseologiyani qadriyatlar to‘g‘risidagi fan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qadriyatshunoslik, deb atash ham mumkin. Har bir fanga o‘z nomini bergan asosiy tushunchalar kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun asos rolini bajaradi.

---

Ментальность наций – Москва: 1997; Бондаренко О.В. Ценностный мир народов: аксиология самобытного общественного развития. – Ростов-на-Дону: 1998.
[477]Қаранг: Политология. Энциклопедический словарь. – Москва: 1993. – С.391
[478] Каган М.С. Философская теория ценности - СП(б): 2005. –С. 100.
[479] Каган М.С. Философская теория ценности - СП(б): 2005. –С. 101.
[480] O‘sha yerda. – С.100.
[481] Беккер Г., Босков А. Современная социологическая теория. –Москва: 1961. –С. 114-133.

Har qanday fanni ilmiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash shu fanga xos bo‘lgan mavzular, funktsiyalar, tushunchalar, qonunlar, kategoriyalar borligi orqali e’tirof etish mumkinligini ko‘rsatadi. Aksiologiyani ijtimoiy-falsafiy bilimlarning maxsus sohasi sifatda qarash ham bundan mustasno emas. Unda ham bu sohadagi fanlarga hos bo‘lgan hamma hususiyatlarni kuzatish mumkin.

**Ш.О. Арипов – Фарғона давлат университети ўқитувчиси**
**И. Аминова - Фарғона давлат университети талабаси**

## ИЛМ-ЗАКОВАТНИНГ МАМЛАКАТИМИЗ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ

**“Илм ва билим – ўтда ёнмайдиган, сувда чўкмайдиган, ҳеч ким сиздан тортиб ололмайдиган бойлик эканини асло унутманг!”**Бу фикрларни Президентимиз «Ҳумо» спорт аренасида мамлакатимизнинг илғор ёшлари билан бўлиб ўтган учрашувида қайд этди.

Бу сўзлар замиридаги чуқур мазмунни албатта, ёшларимиз дарҳол илғаб олади. Янгиланаётган дунёда турли-туман соҳаларнинг илм-фан билан боғлиқлиги янги марраларга чиқмоқда, шу билан бир қаторда, иш фаолияти ва бизнес юритиш тизимлари ҳам ўзгармоқда.

Ёшларимиз шу шиддатли жараён орасида ўз келажак йўлини аниқ белгилаб, ўзларининг ақл-заковатини ва куч-қудратини ватан тараққиётига бағишлаши зарур. Дунёда янги фанлар пайдо бўлди, улар мамлакатимиз ҳаётига ҳам кириб кела бошлади. Кишилараро муносабат ва бизнесда ишлаб чиқаришда янги қонуниятлар пайдо бўлди. Шунингдек, муваффақиятли иш юритиш ва илғорлардан бўлиш учун бир эмас, бир қанча фанларни эгаллашни тақозо қилади.

Президентимизнинг ёшларга қарата айтилган тилак ва истаклари у кишининг Учинчи Ренессанс ҳақидаги эзгу ғояси билан муштарак янгради. Айтиш мумкинки, Президент маърузаси мазкур улуғвор ғоя мазмун-моҳиятининг ёшлар билан мулоқот тарзидаги кўриниши бўлди. Президент илм олаётган ёшларга яратиладиган қулайликлар билан бир қаторда, улуғвор мақсадларга эришиш йўлидаги амалий ечимларни ҳам таклиф қилди.

Жорий йилда ёшлар ўртасида энг яхши илмий ишланмалар учун умумий қиймати 30 миллиард сўмдан ортиқ бўлган «Ёш олимлар» инновацион лойиҳалар танлови эълон қилинган эди. Мазкур танлов ўзининг ижобий томонларини намоён қилганлиги учун 2021 йилда вазирлигимиз ва бошқа давлат органлари билан биргаликда мактаб ўқувчилари ва олий ўқув юртлари талабалари ўртасида «Бўлажак олим» танловини ташкил қилиш ва ёшларнинг энг яхши инновацион ҳамда стартап лойиҳаларига 50 миллиард сўм маблағ йўналтириш бўйича топшириқ бердилар.

Оила, мактабгача таълим, мактаб ва олий таълимни ҳамда илмий-маданий даргоҳлар бўлғуси Ренессанснинг энг муҳим бўғинлари эканига эътибор қаратилса, Президентнинг ушбу таклифи мазкур бўғинларнинг жуда муҳим қатламини – мактаб ва олий таълим тизимидаги иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлашга қаратилган. [1]

Ўзбекистонда амалга оширилаётган улкан ва кенг кўламли янгиланиш жараёнлариаро ёшларга яратиб берилаётган яна бир қулайликка – ёшлар лойиҳаларининг шакллантирилиши, экспертизаси ва жорий қилинишидаги осонлаштирилган усулга тўхталиб ўтиш жоиз.

Яъни, ёшларимизни аввал ўқитамиз, кўникма ҳосил қиламиз, иш жойи билан таъминлаймиз, маблағини берамиз, шу тариқа, равнақ топиши учун керакли бўлган барча имкониятларни тақдим қиламиз. Бошқача айтганда, умумий 50 миллион сўмлик лойиҳалар ва уларнинг экспертизаси шундай усулда ўтказилади.

Ўқувчи ва талабалар, тадқиқотчилар ҳамда илмга чанқоқ иқтидорли ёшларнинг инновация, стартап, технология, дастурлаш бўйича билимларни ошириш, шунингдек лойиҳалар ишлаб чиқиш ҳамда тижоратлаштириш кўникмаларини шакллантириш мақсадида TechnoWays технологик ривожланиш марафони ташкил этилди. Мазкур марафоннинг биринчи мавсуми Тошкент шаҳрида ўтказилган бўлса, иккинчи мавсуми Сирдарё, Андижон ва Самарқанд вилоятларидаги ёшларни қамраб олиб, фавқулодда иқтидорларни рўёбга чиқаришга хизмат қилди. Мазкур марафоннинг учинчи босқичини эса Қорақалпоғистонда ўтказишни режалаштирилди.

Халқаро тажрибага кўра, иқтисодий ўсишда илмий лойиҳалар билан бир қаторда стартап лойиҳаларни ривожлантириш катта аҳамиятга эга. Ривожланган давлатларда стартап лойиҳаларини

такомиллаштириш ва стартап компаниялар ташкил этиш борасидаги бир қанча ишларни мисол қилиб келтириш мумкин. Хусусан, бу соҳага 2019 йилда АҚШ 158 млрд, Хитой 110 млрд, Ҳиндистон 27 млрд, Буюк Британия 23 млрд ва Исроил 18 млрд АҚШ доллари сарфлаган.

Ушбу ажратилган маблағлар ҳисобига биргина 2019 йилда АҚШда 7568 та, Буюк Британияда 1570 та, Хитойда 1505 та ва Ҳиндистонда 798 та янги стартап лойиҳалари амалга оширилган.

Ўзбекистонда стартап лойиҳаларини ривожлантириш ва бу орқали республиканинг жаҳон стартап бозорида нуфузини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, стартап лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш жараёнида уларни бошланғич босқичида молиялаштириш муҳим ҳисобланади. Кўплаб ривожланган давлатларда бу босқичда давлат томонидан кичик грант маблағлари (seed funding) йўналтирилади ва кам маблағ сарфлаш асносида лойиҳаларнинг барқарорлиги аниқланади.

Ёшларнинг таълим-тарбияси келажагимиз учун алоҳида аҳамиятга эга. Шу боис мамлакатимизда уларнинг пухта таълим-тарбия олиши учун қулай шароит яратиш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки жамиятимиз осойишталиги, мамлакатимиз тараққиётига рахна солмоқчи бўлганлар кўп ҳолларда ёшларни ўз томонига оғдиришга ҳаракат қилади. Шу боис йигит-қизларнинг турли ғараз ниятли гуруҳларга қўшилиб қолишининг олдини олиш, бундай кучларга қарши курашиш борасида изчил ишлар олиб борилмоқда.[2]

Олимлар ва ўқитувчилар истеъдодли, янги ғоялар ва билимлар – олий илмий мактаб модернизацияси суянадиган фундаменти. Бошқача айтганда, илмий тадқиқотлар ва ишланмаларнинг сифати, кенг қамровлилиги, амалиётга жорий этилганлиги ва илмий жамоа томонидан тан олинганлиги жиҳати билан баҳоланади. Шунинг учун “ёшлар илм-фани” кенг маънода – мамлакатнинг илмий кадрлар салоҳияти ривожи билан боғлиқ бўлган барча жараёнларнинг “ибтидоси”дир. Ўз олдимизга қўяётган энг муҳим вазифа – бу, таълимнинг асосий дастурларидан бироз четлашган ҳолда, ёшларни илм-фанга жалб этиш, уларнинг янги илмий билимларга бўлган эътибори ва қизиқишларини уйғотишдан иборатдир. Бу эса – яхши илмий натижаларни амалиётда қўллаш ва тажрибалар алмашуви, маъруза жараёнида юзага келадиган муҳокамалар ва мунозаралар орқали эришилади. Буларнинг барчаси биргаликда, ҳақиқий иқтидорли ёшлар етишиб чиқувчи, қайноқ муҳитни ташкил этади. Ҳеч ким бирор-бир кишини даҳо бўлишга мажбур эта олмайди. Аммо, иқтидорли ҳаёт кечиришига кўмаклашиш – бизнинг қўлимиздан келади.[3]

Хуллоса урнида шуни айтиш мумкинки бугунги кунда мамлакатимизнинг тараққиёти, аввламбор илм-фан ва олий таълимга асосланади. Илм-фан ва таълимга юқори технологиялар асосида янгича сифат билан ёндашмас эканмиз, бу соҳада юксак натижаларга эришиш даргумон. Шу боис, мавжуд имкониятларни йўқотмаслик, ўзбек академик илм-фани ва олий таълимидаги барча яхши жиҳатларни асраб қолиш ва ривожлантириш, кадрлар тайёрлашда сифатни кўтариш энг муҳим вазифамиз бўлиб қолади.

**N.Z. Axmadjonov – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**

## PRETSEDENT NOM VA UNING MEZONLARI

So‘nggi paytlarda tilshunoslikda madaniyatlararo aloqa bilan bog‘liq muammolarga qiziqish kuchaymoqda. Turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqa amaliyotining kengayishi dunyo manzaralarida sezilarli farqlarni nafaqat lingvistik kod bilan, balki milliy xarakterning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan madaniy faktlarni bilish bilan ham ochib beradi va o‘zlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bunday faktlar odatda “pretsedent” deb nomlanadi. Ular dunyo g‘oyasini minimallashtirilgan shaklda belgilab beruvchi lingvokultural hamjamiyatning kognitiv bazasining yadro qismidir.

Pretsedent tushunchasi dastlab xuquqshunoslik sohasida ishlatilgan. Shuning uchun pretsedent ko‘pincha sud so‘zi bilan ishlatiladi. So‘z iborasi sifatida pretsedent sud prosessida ishlatilmaydi, lekin hozirda pretsedent so‘zi til va madaniyat sohasida uchraydi[482].

[482]Кавалов Г.Ф. Имя собственное как прецедент в рекламе/Вестник Воронежского государственного университета.Серия: Филология. Журналистика .2004 №№С-158

Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning etakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, *pretsedent* termini tilshunoslikda birinchi marta YU.N.Karaulovning "Rol pretsedentnых tekstov v strukture i funksionirovanii yazыkovoy lichnosti" nomli maqolasida qo'llangan[483].

Qomusiy olim Y.V.Gyote ham o'zining "Hikmatlar xazinasi" nomli asarida pretsedent so'ziga quydagicha ta'rif beradi: "Pretsedent, boshqacha qilib aytganda, qachonlardir sodir bo'lgan, aytilgan yoki hal etilgan narsani dalil qilib keltirishning ahamiyati kattadir; biroq faqat o'ta ketgan rasmiyatchi odamgina pretsedentsiz ishi bitmaydi"[484].

Pretsedent nazariyani o'rganish va uning rivojlanishiga I.V.Zaxarenko, D.B.Gudkov, D.V.Bagaeva, V.V.Krasnix, E.A.Naximova kabi mashhur olimlar katta hissa qo'shganlar.

O'zbek tilshunosligida pretsedent nomlar tadqiqot sifatida etarli o'rganilmagan. Bu borada faqat D.Xudoyberganovaning "O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini"[485] nomli doktorlik dissertatsiyasining to'rtinchi bobida qisman to'xtalib o'tilgan.

Pretsedent nom individual ism sifatida, murakkab belgi sifatida talqin qilinadi, ishlatilganda uning differensial xususiyatlari to'plamiga murojaat paydo bo'ladi. Har bir aniq matnda pretsedent nomlarning mavjudligi ularning mualliflik niyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan madaniy, umumiy semantik va assotsiativ ahamiyati bilan oqlanadi. Muallif o'z matniga asos qilib olgan pretsedent nomlar syujetning rivojlanishiga ta'sir qiladi, chunki ular hikoya chizig'idagi yo'nalishni belgilaydi. SHuning uchun, bu nomlarning nominativ, aniqlovchi va farqlovchi, ijtimoiy, hissiy, estetik va ishontirish kabi funksiyalari bilan to'ldirilib, ulardagi muhim qo'shimcha imkoniyatlar to'plashga yordam beradi.

Y.N.Karaulovning ta'kidlashicha, pretsedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar bo'lib, ular ko'p qirrali hodisa sifatida tilshunoslikda turli aspektlarda o'rganilishi lozim. Bu borada olim pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqini ham nazarda tutgan bo'lib, bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi ko'pchilikka tanish bo'lgan mashhur nomlarning ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita bo'la olishini aytadi[486].

Pretsedent nomlar deganda, avvalambor, taniqli badiiy asar, tarixiy shaxs, siyosiy arbob, xalq uchun ma'lum bir qiymatga ega bo'lgan geografik voqelik, shuningdek, keng tarqalgan ma'lum bir vaziyat bilan bog'liq bo'lgan individual ismlar tushuniladi. Pretsedent nomlar nazariyasi rus tilshunosligida keng va chuqur tadqiq etilgan mavzulardandir. Ularning aksariyatida muayyan adib asarlaridagi nomlarni tahlil qilishga katta e'tibor qaratilgan[487]. Badiiy asarlardagi pretsedent nomlarni aniqlash, ularni mazmuniga ko'ra tasnif qilish matndagi lingvopoetik vazifasini aniqlash markaziy o'rinni egallaydi.

Tilshunos tadqiqotchilar o'rtasida dolzarb masala - bu hozirgi kungacha qizg'in muhokama qilinayotgan pretsedent nomlarni aniqlash mezonlari masalasidir. E.A.Naximova o'zining "Ommaviy kommunikatsiyadagi pretsedent nomlari" nomli asarida pretsedent nomlarni tanlashning quyidagi mezonlarini belgilaydi:

1. **Grafik mezon -** ommaviy axborot vositalari matnlarida, pretsedent antroponimlar (atoqli nomlar) turli imlolar bilan uchraydi: ba'zi hollarda kichik harflar bilan, ba'zilarida katta harflar bilan. Katta harf muallif tasvirlagan otni atoqli ot sifatida belgilashini bildiradi.
2. **Morfologik mezon -** bu mezon atoqli otni birlik va ko'plik shaklda qo'llashni nazarda tutadi. Ko'pincha atoqli ot birlikda ishlatiladi.O'z navbatida umumiy otlar sonlarda o'zgarishga moyil bo'ladi.
3. **Tinish belgili mezon -** pretsedent nom uchun eng xarakterli va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan mezondir. Odatda, so'zning o'ziga xos qo'llanilishini ta'kidlash va foydalanish uchun pretsedent nomi qo'shtirnoq ichiga olinadi.

---

483 Қаранг: Гунько Ю.А. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский гос.ун-т, 2002. – 24 с.

484 Й.В.Гёте Maximen und Reflexionen . (Werke) , М.Акбаров (таржимон) "Ҳикматлар хазинаси". Шарқ нашриёт-мабаа, аксиядорлик компанияси , Бош тахририяти, 2008 .Б-19

485 Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матннинг антропоцентрик тадқиқи : Филол. фан. д-ри ... дис. автореф..Тошкент-2015

486 Гунько Ю. Оссобенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русскогоязыка: Дисс....дра. филол. наук. – Санкт Петербург, 2002. – С.76-77.

487 Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: Теория и методика когнитивнодискурсивного исследования. – Екатеринбург, 2011; Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: Дисс. ...дра. филол. наук. – СанктПетербург, 2014.

4. **Atributiv mezon -** ushbu mezon ishlatilgan pretsedentning maxsus, g‘ayrioddiy ma’nosini ta’kidlaydigan ta’riflar bilan tavsiflanadi.

5. **Vaqt mezoni -** Ko‘pincha muallif pretsedent nomdan foydalanganda ataylab g‘ayrioddiy vaqtdan foydalanadi. Masalan, o‘tmishdagi raqamlar hozirgi zamonda qo‘llanilganda.

6. **Pretsedent manbalariga havolalar -** aytish joizki, ayrim hollarda pretsedent otlar hech qanday manbalarsiz qo‘llanadi, lekin muallif tomonidan pretsedent nomi olingan manbalarga havolalar berilgan holatlar ham mavjud.[488]

Pretsedentlik nazariyasida pretsedent nomlarini farqlash uchun xizmat qiluvchi ko‘plab mezonlar mavjud. Taqdim etilgan mezonlar pretsedent manbalari uchun eng muhimi hisoblanadi. SHuningdek, hozirda ham tilshunoslar tomonidan batafsil tadqiqot qilinadigan mezonlar sifatida foydalanib kelinmoqda.

Hulosa qilib aytish mumkinki, pretsedent nomlar nutqiy jarayonda qo‘llanganda so‘zlovchining fikridagi ta’sirchanlikni oshirish, ongangni o‘zgaritirishi, emotsional-ekspressivligini berish maqsadida foydalaniladi. Buning natijasida so‘zlovchi o‘z nutqidagi fikrning samaradorligiga erishadi.

**Р.Б. Ахматов - студент 3 курса английской филологии УзГУМЯ**
**М.О. Носирова - старший преподаватель кафедры общего языкознания УзГУМЯ**

## ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ (НА ПРИМЕРЕ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА)

Интерактивные методы являются наиболее популярными и практичными методами, которые требуют взаимодействия между учащимися, а также между учащимися и учителями. Интерактивные методы обучения открывают реальную возможность создать на уроке атмосферу партнерства, их применение позволяет придать обучению исследовательский характер, что так важно именно для формирования профессиональной компетентности студентов и повышения педагогического мастерства педагогов.

В современной педагогической практике разработаны и применяются стратегии, методы и приемы, в том числе интерактивные, многообразные на разных уровнях знаний учащихся. Процесс изучения корейского языка показал, что наиболее эффективными методами изучения тем являются «Диаграмма Венна», «Рыбий скелет», «Пирамида», «Цветок лотоса».

Одной из актуальных задач педагогики была и остается проблема активизации познавательной деятельности, развития самостоятельности и творчества учащихся, а также создание дидактических и психологических условий, в которых участник образовательного процесса может проявлять не только интеллектуальную и познавательную активность, но и личню социальную позицию. Для этого в современной практике разработаны и применяются различные методы и приемы, в том числе и интерактивные.

Обучение интерактивными методами – это процесс открытия, т.е. образовательный процесс организован таким образом, что практически все учащиеся вовлечены в процесс обучения, имеют возможность понять и поразмышлять над тем, что они знают и думают, тем самым интерактивное обучение развивает «способность учиться». Учитель не дает готовых знаний, а побуждает учащихся к самостоятельному поиску, создает условия для их инициативы, т.е. выполняет функцию помощника в работе, одного из источников информации. Учащийся, напротив, становится полноценным участником учебного процесса, который очень активно, «учится критически мыслить, решать сложные задачи на основе анализа обстоятельств и актуальной информации, взвешивать альтернативные мнения, принимать обдуманные решения, участвовать в дискуссиях»[489].

Как известно, существуют такие методы:

---

[488] Е.А.Нахимова Прецеденты имена в массовой коммуникациии. Монография, Екатеринбург 2007. С.60-72
[489] Мусина Р.Г. Интерактивные методы и приемы обучения. // Терминологический словарь. – Т., 2005. – С.86.

- Таблица-вставка, Схема кластера, Категориальная таблица, Концептуальная таблица, таблица З/Х/У, способствующая формированию умения связывать ранее изученную информацию с новой;

- Диаграмма Венна, Т-диаграмма, развивающие системное мышление, умение сравнивать, противопоставлять, анализировать и синтезировать;

- выявление, анализ и планирование решения проблемы;

- схемы и диаграммы: «Рыбий скелет», «Пирамида», «Цветок лотоса»[490].

В процессе обучения корейскому языку необходимо учитывать индивидуальный уровень знаний учащихся в группе. Рассматриваемые нами методы можно использовать в соответствии с имеющимися на момент обучения практическими знаниями синтаксиса и стиля корейского языка.

1. «Диаграмма Венна» - графический органайзер, построенный на двух пересекающихся окружностях, развивает у учащихся системное мышление, умение сравнивать, противопоставлять, анализировать и синтезировать при рассмотрении двух-трех аспектов (фактов, понятий), имеющих разные и общие черты.

2. «Рыбий скелет» - графический органайзер, образец постановки и решения задачи, позволяющий описать и решить целый комплекс задач. На верхней «косточке» написана формулировка проблемы, а на нижней – факты, подтверждающие существование этой проблемы.

3. «Пирамида» - средство иерархического представления идей. Рекомендуются следующие этапы использования: в самом верху формулируется проблема, а затем подзадачи, и от каждой из них отходят «мелкие ответвления», служащие для более детального рассмотрения подзадач или задач.

4. «Цветок лотоса» - средство решения проблем. Воплощает образ цветка лотоса. В его основе девять больших квадратов, каждый из которых образован из 9 квадратов. Развивает и активизирует системное, творческое, аналитическое мышление.

Таким образом, рассмотренные выше методы интерактивного обучения стали наиболее эффективными, что способствовало вовлечению учащихся в активный процесс получения и обработки знаний. При использовании данных методов студенты проявляли живой интерес к теме занятий, основными составляющими которых были интерактивные упражнения и задания.

**Z.Sh. Ahmadova – Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi**

## NAVOIYNING AJAM HUKMDORLARI TARIXIGA OID IJODI

Hazrat Alisher Navoiy asarlari sal kam 600 yildan beri Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Odamlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash, inson manfaatlari uchun qayg'urish g'oyasi Navoiyning deyarli barcha asarlarini ichdan nurlantirib turadi. Ayni haqiqat ulug' mutafakkirning barcha nazmiy va nasriy asarlariga, shu jumladan, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi Muluki Ajam" kabi tarixiy asarlari, tarixga oid qarashlari teran tajassumini topgan "Majolisun-nafois", "Munshaot", "Mahbubul-qulub" kabi o'nlab asarlariga ham daxldordir.

Navoiy o'z qahramonlarini benuqson qilib ko'rsatmaydi. U voqelikning ayrim ziddiyatli tavsilotlariga ko'proq ahamiyat beradi. Tolut bilan Dovud o'rtasidagi ziddiyat esa tor fikrlilik va yovuzlikning iste'dod va istiqbolga qarshi kurashi edi. Navoiy Dovudni adolatli hukmron, mohir hunarmand va qobiliyatli san'atkor sifatida tasvirlaydi. Shu bilan birga Dovudning nuqsoni ham aniq ko'rsatiladi. Bu Dovudning Uryoni o'ldirtirib, uning xotinini o'z nikohiga olganida ko'rinadi.

Dovud Uryoning xotinini tortib olganiga pushaymon yedi. Bu xotin Dovudga bir shart bilan tekkan edi. Agar o'g'il tug'ilsa u Dovudga valiahd bo'lishi kerak. Dovudning valiahdi Sulaymon shu xotindan tug'ilgan. Dovudning hikoyasiga quyidagicha yakun yasalgan:

Dovudki, shoh erdi va payg'ambari pok,
Johi qoshida past erdi avji aflok

[490] Ходиев Б.Ю., Голиш Л.В., Хашимова Д.П. Способы и средства организации самостоятельной учебной деятельности. – Т., 2010. – 115 с.

emas, balki oʻlimning haqligi orqali hayotni tasdiqlaydi, hayotni munosib kechirmoq toʻgʻrisida oʻgit soʻzlaydi.

Ulamolar "Injil"da Ashobi Kahor toʻgʻrisidagi gap borligini aytadilar. Podshoh Tamilhoga yoʻl boshlatib, Ashobi Kahor huzuriga keladi. Ashobi Kahor ovqatlanib shukr va sajda qilganidan soʻng jon beradi. Podshoh bu gʻor eshigiga gumbaz yasab, bu yerni muqaddas maʼbadga aylantiradi.

Ashobi Kahor hikoyasi yazdonparastlikning oʻrnashuvi muhaqqaq ekanini bildiradi. Zolim Daqyonus hukmronligi davrida bu ogʻaynilar podshoh shaxsiga sigʻinmoqdan koʻra yagona Tangriga sigʻinmoqni afzal koʻrganlar va yashirincha yazdonparastlikka oʻtganlar. Ular shu eʼtiqodga sadoqat bilan olamdan koʻz yumdilar va keyinchalik ular yotgan gʻor eshigi muqaddas qadamjo boʻlib qolgan.

Sharq adabiyotida "Ashobi Kahor" hikoyasi juda mashhurdir. Bu hikoya O.Sharafiddinov tuzgan "Oʻzbek adabiyoti xrestomatiyasi" ning 1-tomida ham nashr etilgan. Navdar Manuchehrning oʻgʻlidur. Va podshohligʻin baʼzi olti yil va baʼzi iki yil bitibdurlar[491].

Navoiy "Ashobi Kahor" hikoyasining qahramonlarini "Xamsa"ni yozishga kirishayotganida esga oladi va bunday deb yozadi: "Ul vaqtkim, faqir "Xamsa"ga tatabbu qildim, bir dostonda Hazrati Shayx Nizomiy va Amir Xusrav Dehlaviy va ul Hazrat (Jomiy – *Aziz Qayumov*) maddohliklaridakim, oʻzimni ixlos va niyozmandlik yuzidan alarga tobe va payrav tutib, suxanguzarlik voqe' boʻlib erdikim.

Navoiy "Xamsa"ni yozmoqqa kirishganda oʻzini juda kamtarona tutib Nizomiy, Xisrav, Jomiylar agar Ashobi Kahor boʻlsalar, men ularning toʻrtinchilari, yaʼni yonlaridagi itlari kabi boʻlarman, degan fikrni izhor etadi. Bu misol ham Ashobi Kahor qahramonlari obrazlarining XV asr Hirot adabiy muhitida qanchalar shuhrat topganini bildirib turadi.

Bu hikoyalar Navoiyning umumiy tarixga oid asarining birinchi qismidagi ikkinchi boʻlagini tashkil qiladi. Uni "Ubbod zikri" deb atash mumkin. Bu boʻlakda uch obid (ibodat qiluvchi) - Barsiso Obid, Shamsun Obid va Jorih Rohiblar toʻgʻrisida hikoya qilinadi. Har bir hikoya ketidan shoir bir bayt bilan aytilganlarga xulosa yasaydi. Barsiso Obid toʻgʻrisidagi hikoya yuz bergan jinoyat evaziga keladigan jazo muhaqqaq ekanini, nafs vasvasasiga berilmaslik kerakligini bildiradi.

Shamsun Obid toʻgʻrisidagi hikoyada esa yomon xotinning xiyonati qanday mudhish boʻlajagi toʻgʻrisida soʻz boradi. Sheʼriy xulosada bu yomon xotin umuman yovuzlik dunyosining timsoli sifatida talqin etiladi. Navoiy bu hikoyasini qisqa, sodda, biror ortiqcha soʻz kiritmagan holda yaratgan. Voqealar esa oʻz mohiyatiga koʻra butun bir roman uchun mavzu boʻla oladi.

Navoiy voqealarni xolis bayon etadi, ammo uning bayon etmoqqa boʻlgan nafsdan tiyilmoq, shayton makridan ehtiyotlanmoq borasidagi fikrlari oʻquvchining xotirasida mustahkam oʻrnashadi. Shunday qilib bu hikoyalar Navoiy koʻngliga yaqin boʻlgan fikrlarni, toʻgʻrilik, halollik, poklikni tashviq etadi.

Eʼtibor qaratilsa, Hazrat Alisher Navoiyning asarlarida inson takomili, uning tafakkuridagi oʻziga xos evrilishlar, qalb tugʻyoni yorqin tashbehlarda, kuchli ehtiros bilan ifodalanganligini koʻrish mumkin. Ayniqsa, yaxshilik va ijobiy insoniy munosabatlar, xalq farovonligi yoʻlida mehnat qilish, oʻzidan yaxshi nom qoldirishga intilish gʻoyasi Navoiyning barcha asarlarida oʻziga xos zohiriy va botiniy quvvat ila yoritilgan.

Xoh ilmiy, xoh badiiy asar boʻlsin bu asarlarning deyarli barchasida ulugʻ mutafakkirning oʻz zamonasiga oid qimmatli tarixiy maʼlumotlar mavjud. Birgina «Majolisun-nafois» tazkirasida jahongir Amir Temurdan tortib, Sulton Ali Mirzoga qadar boʻlgan 22 nafar shoh-u shahzodalar shaxsi, faoliyati, ularning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi haqida aniq tasavvur paydo qiladi.

Yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti davrida Hazrat Alisher Navoiy asarlarini yangicha talablar asosida oʻrganish yoshlarning yurt ertasi boʻlib munosib kamolga yetishida muhim omil boʻladi.

[491] Alisher Navoiy. Tarixi muluki ajam. Elektron manzil: http://e-tarix.uz/milliyat-insholari/621-navoiy.html

**N.A. Baxriyeva - BuxDU ning Pedagogika instituti o‘qituvchisi**

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “MEN-OBRAZ” ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK VAZIFA SIFATIDA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men obraz” shakllanishi muhim o‘zgarishlarga moslashuvchanligi, sezuvchanligi bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi asosini pozitiv o‘zini-o‘zi baholashga asoslangan, assimilyatsiyalanadigan yangi tajriba va ijobiy o‘zini-o‘zi idrok etish tashkil etadi. Xorijiy adabiyotlarda “Men-konsepsiya” va “Men obraz” tushunchalari orqali insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari tushuniladi. Bular insonning boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatga kirishganida shakllanadi va yangi tajribani egallash natijasida o‘zgarish tendensiyasiga (K.Rojers, R.Berns, T.Shibutani) hamda yosh bilan bog‘liq jihatlarga (G.Olport, B.F.Skiner, E.Erikson) ega bo‘ladi.

“Men obraz” paydo bo‘lishi va rivojlanishining pedagogik-psixologik mexanizmlarini bilish maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini anglash jarayonini takomillashtirish uchun maqbul pedagogik shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi. O‘rganilgan qator ilmiy tadqiqotlar natijalari bolaning o‘z mohiyatini anglashi uning atrofidagi kishilar va tengdoshlari bilan munosabatlarni tashkil etishida, o‘z ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishidagi muhim ahamiyatga egaligini ta’kidladi. “O‘z-o‘zini baholash rivojlanayotgan “Men-obraz”da muhim omil sanaladi va yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi”[492].

Tarixiy-pedagogik tajriba bolada o‘zi haqidagi tasavvurlarning shakllanishi borasida dastlabki tayanch bilimlarni singdiradi. Ta’kidlash lozimki, amalga oshirilgan ishlarda tadqiqotchilar “Men obraz” tuzilishi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishni maqsad qilishmagan. Biroq, tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlarini o‘rganish “Men obraz”ning umumiy tuzilishi kontekstida aynan mohiyatli rivojlanishi borasida fikr yuritish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarlar o‘z hayotiy faoliyatini o‘zaro kesishadigan va o‘zaro singib boradigan tuzilmalar, ya’ni, kattalar va bolalar olamida amalga oshiradi. Ularning har biri bolaning u yoki bu yosh davrida ma’lum ahamiyatli xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining (MTT) ta’lim maskani sifatidagi predmetli muhiti bolaning o‘zini anglashga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etish uchun ma’lum resurslarga ega va uni ma’lum darajada boyitadi. Bola rivojlanishining turli bosqichlarida MTTda o‘zini anglash tajribasini ta’minlovchi pedagogik muhit modelini yaratish orqali bolada o‘zi haqidagi tasavvurlar shakllanishi uchun yanada optimal sharoitlar yaratilishi ta’minlanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish asosida shunday xulosaga keldikki, ushbu yoshda “Men-konsepsiya” emas, asosan “Men obraz” ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ilk ontogenetik bosqichlarda shaxsning o‘zi haqida tasavvurlarining rivojlanishi unda “Men obraz” shakllanishining yaxlit bo‘lmagan, haqiqiy o‘zini, o‘zining mohiyatini anglashi bilan namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Bu holat bolaning maktabgacha yosh davrining istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilishni ma’lum darajada qiyinlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarlar “Men obraz” idagi kognitiv komponent ularning o‘zlari haqidagi tasavvurlari, tushunchalari va hukmlarida namoyon bo‘ladi. “Men obraz” ning kognitiv va baholash komponenti yagonadir: o‘zi borasidagi bilimlar doimo baholovchi xususiyatga ega, shunga binoan ular emotsiyalar va kechinmalar bilan izchil aloqadorlikda bo‘ladi. “Men obraz” ning xulq-atvor komponenti bolaning kattalar va tengdoshlari bilan ma’lum munosabatlarni tashkil etishga amaliy tayyorligi bo‘lib hisoblanadi.

Kognitiv komponent “Men obraz” shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Uning shakllanishi bolada rivojlanayotgan shaxsning asosini tashkil etuvchi qadriyatli tajribaning to‘planishiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men obraz” shakllanishi o‘zi haqida tasavvurlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan pedagogik muhitda amalga oshiriladi. “Men obraz” shakllanishining turli darajalarida pedagogik muhit komponentlari turli vazifalarni bajaradi. Birinchi

[492]Xromova M.A. “Eksperimentalnoye issledovaniye osobennostey razvitiya samootsenki (ot starshego doshkolnogo do starshego podrostkovogo vozrasta). El. manzil: https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/94/khromova_94_308_315.pdf

darajada bolaning kattalar bilan muloqoti turadi; ikkinchi darajada – bolalar submadaniyati muhiti va; uchinchi darajada – kattalar muhiti turadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bola tomonidan o‘z tengdoshlari, kattalar va predmetli olamdan qabul qilinadigan axborot tanlangan xarakter kasb etadi. Faqat baholashdan so‘ng u bola tomonidan qabul qilinadi.

“Tarbiyaviy jarayonda bolalarda uchraydigan egotsentrizmni nazarda tutish lozim. Tabiiy holatiga qarshi harakat qilish bola tomonidan talab bajarilishiga emas, balki, inkor etilishiga olib kelishi mumkin. Bola ehtiyojlarini qondirishda pedagogik jarayonning shu tomonga og‘ishiga, ya’ni, bir tomonlamalikka yo‘l qo‘ymaslik “Men obraz”ning aks ettiruvchi jarayon tarzidagi rivojlanishini ta’minlaydi[493].

Muxtasar aytganda, pedagogik jarayon bolaning shaxsiy potensialini faollashtirishga, o‘z hatti-harakatlarini ijtimoiy muhit talablari asosida tashkil etishiga yo‘naltirilsa “Men obraz”ning shakllanishi jadallashadi. Ya’ni, “Men-obraz” bolaning o‘zi haqidagi tasavvurlari va bilimi majmuasini, o‘z shaxsiga nisbatan emotsional munosabatini, shuningdek, ushbu bilim, tasavvurlar, baholar bilan bog‘liq hatti-harakat va xulq-atvor shakllarini aks ettiradi.

**М. Бахрамова - студентка Ферганский государственный университет**

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА И РАСШИРЕНИЕ ПРАВ

Всем известно, что в соответствии с Резолюцией № 70, принятой на саммите по Устойчивому развитию Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций в сентябре месяце 2015 года, а также в целях организации системной работы по последовательной реализации Целей устойчивого развития Глобальной повестки дня ООН на период до 2030 года, Кабинет Министров Республики Узбекистан принял постановление «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года».[494]

Наряду с этим, в рамках реализации Пятой цели Устойчивого развития, Узбекистан разработал девять задач, направленных на «Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин и девочек».

В последнее время, работы по обеспечению гендерного равенства и повышению роли женщин в общественно-политической жизни страны проводятся в нескольких направлениях:

● совершенствование законодательных актов по правам женщин;

● совершенствование институциональных основ защиты женщин;

● повышение степени осведомлённости общества о гендерном равенстве и правах женщин;

● обучение ответственных лиц на основе соответствующих правовых норм для обеспечения исполнения их в практике применения права.

В данной сфере Узбекистаном принят ряд законодательных актов, в том числе приняты указы и постановления Президента Республики Узбекистан об обеспечении прав женщин, в частности, о гендерном равенстве и защите женщин от притеснения и насилия, об укреплении статуса женского предпринимательства.

Воспользовавшись удобным случаем, я считаю уместным привести цитату из выступления Президента Шавката Мирзиёева на двадцатом пленарном заседании Сената Олий Мажлиса 21 июня 2019 года:

«Меня волнует стереотип, укоренившийся в сознании наших людей. Обычно мы почитаем женщину, прежде всего как мать, хранительницу семейного очага. Это, безусловно, правда. Однако, сегодня каждая женщина должна быть не пассивным наблюдателем, а активным и инициативным участником демократических преобразований, осуществляющихся в стране».

---

[493]Korepanova M.V. Formirovaniye “obraza-Ya” rebenka v sisteme doshkolnogo obrazovaniya. Avtoreferat diss. doktora ped. nauk. Volgograd, 2001. – 22 s.

[494]Постановление Кабинет Министров Республики Узбекистан «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года». Ташкент. 2021 г.

Что касается институциональных мер по гендерному равенству, то в структуре Сената Олий Мажлиса был создан новый Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства, который занимается имплементацией в национальное законодательство международных норм по обеспечению прав женщин и искоренению всех форм дискриминации. Кроме того, в целях дальнейшего усиления гарантий трудовых прав и поддержки, оказания помощи жертвам бытового насилия созданы такие новые структуры, как Республиканский центр реабилитации и адаптации лиц, пострадавших от насилия, и предупреждения суицидов; Центр женского предпринимательства и Научно-практический исследовательский центр «Оила» при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Принятые нормативно-правовые документы и практические меры являются важным шагом в гендерной политике Узбекистана, которая полностью соответствует международным нормам и стандартам законотворчества и практики применения законов. Вместе с тем, часть этих документов и мер основывается на предложениях учреждений ООН по правам человека.

Принятие Закона «О защите женщин от притеснения и насилия» приобретает особенно важное значение. Данный закон был принят после многолетнего обсуждения. В настоящее время закон является основой для защиты женщин путем оказания помощи жертвам семейного насилия, предоставления им убежища, привлечения к обязательной ответственности не только за физическое насилие, но и за психологические или экономические преступления, а также посредством телефонов доверия для жертв от притеснения и насилия. Такие меры предлагались соответствующими учреждениями по правам человека ООН в течение длительного времени.

В области мониторинга и оценки эффективности гендерной политики, благодаря введению 54 дополнительных гендерных показателей произошли важные изменения.

Наряду с этим, в данном направлении необходимо принять долгосрочные последовательные меры. Здесь имеют важное значение не только принятые показатели, но и их соответствие международным обязательствам и стандартам, их своевременное и точное исполнение на местах.

Можно сделать выводы, что принимаемые меры должны охватить все регионы страны и все категории женщин. В частности, актуальной задачей является учет принципов последовательного претворения в жизнь Целей устойчивого развития Глобальной повестки дня ООН на период до 2030 года, в особенности принципа «никого не оставлять без внимания», и проявление особого внимания состоянию женщин, склонных к различным формам дискриминации. Сюда относятся женщины, живущие в кишлаках удалённых районов страны, группы этнических меньшинств, инвалиды, женщины с ВИЧ/СПИДом, женщины, находящиеся в местах лишения и ограничения свободы (в том числе, в тюрьмах, пансионатах, домах для престарелых и больницах для душевнобольных), защитницы прав человека, лица без гражданства и беженцы.

**A.R. Bahriyev - O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, ps.f.n.**

## MILLIY MUSIQA MADANIYATI – MA’NAVIY TARBIYA MANBAI

“Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga” o‘tish sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillarining musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish dolzarb ijtimoiy masalalardan biriga aylandi. Zero, musiqa asarlarida ifodalangan yuksak insoniy sifatlar, fazilatlar va axloq-odob namunalari “Uchinchi Renessans” poydevori yaratilayotgan davrda jamiyatimiz ma’naviy-psixologik taraqqiyotini yanada jadallashtiruvchi omillaridan biriga aylanishi mumkin.

Musiqiy tinglovchilik madaniyati psixologiyasi masalasi fanlar kesishgan nuqtada amal qiladigan fenomen bo‘lib, ijtimoiy psixologiya, musiqa pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologiyasi, falsafasi, shuningdek, madaniyatshunoslik va boshqa fanlar negizida o‘rganiladi.

O‘zbek xalq musiqa madaniyati jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Biroq, yigirmanchi asrda milliy musiqa madaniyatimizga kuchli tazyiq o‘tkazilishi natijasida bu bebaho qadriyatga e’tibor pasayib ketdi.

O‘tgan yillarda musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish uchun pedagogik jihatdan musiqa ta’limining asosiy vazifalaridan biri maktab o‘quvchilarining tinglovchilik madaniyatini shakllantirish va

hozirgi shiddatkor, oʻzgaruvchan sharoitlarda oʻqituvchi uchun oʻquvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan maxsus oʻqitish metodlari, shakllari, oʻqitish vositalarining past darajasi bilan namoyon boʻldi.

Natijada san’at oʻquvchilarni insonning tarixiy, ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan tanishtirishning kuchli va faol omiliga aylanmadi, oʻquv-tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etmadi, vaholanki, san’at kognitiv, estetik, ma’naviy-axloqiy, kommunikativ va kompensatorlik funkiyalariga egadir”[495].

Mustaqillik yillarida “milliy an’analarga ijodiy tayangan badiiy yetuk namunalar bilan bir qatorda xorijiy “yoʻl”larga taqlid etilgan, ba’zan esa ohanglari bevosita “chet”dan olingan qoʻshiqlar ham tobora koʻpaydi”[496] (D.M.Mullajonov. 2004, 5).

“Yangi Oʻzbekiston” sharoitida zamonaviy musiqa san’atimizning kuchli tarbiyaviy va emotsional-psixologik ta’sir imkoniyatlaridan yoshlarni zamonaviy talablar asosida tarbiyalashda foydalanish, ularda musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda yoshlarning musiqiy qiziqishlari asosan, milliy xususiyatlarni oʻzida hamisha ham toʻla aks ettirmayotgan, mazmuni va saviyasi koʻp hollarda yuqori boʻlmagan ommaviy “oʻzbek milliy estradasi” va xorij pop-musiqasi janrlaridagi asarlar doirasida namoyon boʻlayotganligi haqiqat. Mazkur janr va yoʻnalishlar talqinidagi asarlarga nisbatan esa yoshlar ongida stereotiplar allaqachon shakllanib ulgurdi. Natijada yoshlarning umuman musiqa, xususan, milliy musiqamizdagi oʻziga xos badiiy-estetik, ijtimoiy-ma’naviy va tarbiyaviy xususiyatlarni anglab yetishi nisbatan qiyin kechmoqda.

Musiqiy tinglovchilik madaniyatini shakllantirish asosan umumta’lim maktabi 1-7 sinf “Musiqa madaniyati” darslari orqali amalga oshiriladi. Mashgʻulotlarda tinglash faoliyati berilgan kuy-qoʻshiqni yoki uning parchasini tinglash va bu boradagi qisqa sharh bilan yakunlanadi. Koʻp hollarda tinglangan musiqa asari borasida kengaytirilgan tushuntirishlar berilmaydi, musiqa asarini qanday tinglash lozim, tinglashda nimalarga e’tibor qaratish zarur, uning janr, shakl tavsifi, tinglangan musiqa natijasida tinglovchi ongida qanday assotsiatsiyalar, emotsional holatlar kuzatilishi mumkinligi borasida keng ma’lumot berilmaydi.

Istiqbolda potensial tinglovchiga aylanadigan ushbu shaxslar radio yoki televidenie, konsert tashkilotlari orqali targʻib etiladigan va tinglovchiga taqdim etiladigan musiqani tinglashadi, biroq, undan emotsional ta’sirlanish, unga tegishli badiiy-estetik baho berish talabdagidan past darajada qolib ketadi.

Maxsus musiqa va san’at maktablari, musiqa akademik litseylari, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, oliy musiqa ta’limi dargohlari, malaka oshirish uzluksiz tizim sifatida musiqa sohasida mutaxassislar tayyorlash bilan shugʻullanib kelmoqda. Hozirgi sharoitda mamlakatimizda musiqa industriyasi rivojlangan keng qamrovli soha boʻlib, oʻz ichiga kompozitorlar, ijrochilar, aranjirovkachilar, prodyuserlar va konsert tashkilotlari kabilarni qamrab olgan.

Aynan hozirgi ijtimoiy-ma’naviy sharoitda musiqiy tinglovchilik madaniyati masalasi ijtimoiy-psixologik rakursda oʻrganilmagan boʻlib, mazkur ilmiy-psixologik muammoni hal qilish orqali:

1) “musiqiy tinglovchilik madaniyati” tushunchasiga ijtimoiy-psixologik ta’rif berish;
2) yuksak musiqiy didli tinglovchini tayyorlash;
3) musiqaning badiiy-tarbiyaviy yoʻnaltiruvchi quvvatidan samarali foydalanish va;
4) shu orqali yoshlarni yuksak madaniyatli va ma’rifatli etib tarbiyalash imkoniyatlari yanada kengayadi.

Haqiqatan ham, musiqiy tinglovchilik madaniyati psixologiyasini chuqur oʻrganish tinglovchi tomonidan musiqaning badiiy-ifodaviy mazmunini yanada chuqurroq anglashga, asarlarni tanlab tinglashga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, oʻqituvchi–oʻquvchi orasida kechadigan badiiy-kommunikativ jarayonlar borasida amalga oshirilishi zarur boʻlgan ijtimoiy-psixologik, ilmiy, ilmiy-uslubiy va tashkiliy masalalar tahlil etiladi. Bu esa, pirovard natijada musiqa asarlarida ifodalangan badiiy-estetik mazmunni toʻlaqonli anglashga imkon yaratadi va yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda samarali omil boʻladi.

[495] Nazarova S.I. Formirovaniye tvorcheskoy lichnosti v integrirovannoy xudojestvennoy deyatelnosti uchashixsya. Avtoreferat diss. dokt. ped. nauk. Moskva, 2006. – S.5.
[496] Mullajonov D.M. 1990-yillar oʻzbek musiqiy estradasida ohang muammosi. San’atshunoslik fanlari nomzodi diss-ya. Toshkent, 2004. –B.5.

**В.Г.Ким, к.п.н., И.Савинова 2-курс студентка, ФерГУ**

## АЦЕНТИРОВАННАЯ ДВИГАТЕЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ

Развитию детского спорта в Республике Узбекистан уделяется большое внимание в связи с тем, что будущее нашего государства во многом зависит от подрастающего поколения способных решать задачи по преумножению спортивных дстижений на международной арене. Рост спортивного мастерства возможно на основе рационального построения процесса подготовки и требует комплексного исследования: показателей, характеризующих состояние различных сторон подготовленности в зависимости от возраста , процентного распределения времени, отведенного на техническую, физическую, специально-двигательную, функциональную подготовки закономерно связанных между собой, через объективно протекающие процессы срочного и долговременного этапов адаптации организма, структуры и направленности тренировочных нагрузок, надежной информативной системы контроля и регулярного мониторинга тренировочного процесса.

Современный уровень развития детского спорта подтверждает, что без специальной двигательной подготовки, достичь высоких спортивных результатов в избранном виде спорта невозможно. Для подготовки высококвалифицированного спортсмена необходима целенаправленная научно-обоснованная тренировочная работа.

Необходимо учитывать, что важное значение приобретает акцентированная физическая подготовка юных спортсменов требующая от них необходимых для избранного вида спорта и в частностьи подготовки баскетболистов, должных показателей физических качеств, что является актуальной проблемой и требует дальнейшего изучения и экспериментального обоснования методологии их

специальной двигательной подготовки.

На примере группы начальной пордготовки юных баскетболистов была поставлена цель, экспериментально обосновать акцентированную методику двигательной подготовки с их внедрением в учебно-тренировочный процесс. .

Экспериментальная часть исследования проводилась на базах ДЮСШ г. Ферганы и Маргелана в течении годичного мезоцикла, а собранный экспериментальный материал был подвергнут статистической обработке и анализу полученной цифровой информации.

Анализ научно-методической литературы и нормативных документов направленных на развитие детского спорта выявил, что основными факторами на этапе начальной двигательной подготовки являются :

- Особенности развития физических качеств юных спортсменов.
- Специфические особенности двигательной деятельности .
- Характеристика морфо-функциональных возможностей.

Разработана и апробирована в ДЮСШ методика специальной физической подготовки юных баскетболистов, характеризующаяся экспериментально апробированными средствами и методами, позволяющих достоверно повысить уровень их должной двигательной подготовленности.

Эффективность разработанной и внедренной в учебно-тренировочный процесс юных баскетболистов акцентированной методики, напрвленной на развитие их специальной физической подготовленности оценивалось по результатам тестирования, что выявило достоверные прогрессивные сдвиги в их двигательных возможностей.

**М. Абдупаттоев - филология филология фанлари номзоди, доцент**
**В. Абдураҳмонов - тадқиқотчи**

## МИКРОМАТН КОМПОЗИЦИЯСИ

Ҳар қандай тил ёки нутқ бирлиги турли томондан текширилиб, атрофлича тадқиқ этилгандагина унинг бирлик сифатидаги белгилари янада очилади, асосий хусусиятлари намоён бўлиб боради. Матннинг энг йирик бирлиги ҳисобланган микроматн(ССБ)лар ҳақида юқоридаги фикрларни айтиш мумкин. Микроматн(ССБ) яхлитлигини таъминловчи асосий шартлардан бири, бу - унинг композицион қисмларга эга эканлигидир. Композицион кўриниш дейилганда, энг аввало, Е.А.Реферовская таъкидлаганидек микроматн(ССБ)нинг матн таркибидаги чегараларини кўрсатиб турувчи асосий қисм-элементларнинг тартибли жойлашуви тушунилади[497]. Г.Я.Солганик эса бундай жойлашувни композицион-тематик кўриниш деб атаб, унинг бошланма, фикр ривожи ва тугалланма каби асосий уч қисмдан иборат бўлишини алоҳида таъкидлаб ўтади[498].

Микроматн(ССБ)ларнинг композицон қисмлари ҳақидаги фикрларнинг бошқа тадқиқотчиларнинг асарларида ҳам учратиш мумкин[499]. Тадқиқотчи Н.А.Юшина бундай кўринишни абзацга нисбатан ишлатади[500]. Бизнингча, микроматн(ССБ) абзацга тенг келган ҳоллардагина абзацга нисбатан композицион тузилиш ва унинг қисмлари ҳақида фикр билдириш мумкин, қолган ҳолатларда эса абзацга нисабатан қўллаб бўлмайди.

Демак, микроматн(ССБ) семантик, синтактик, ҳамда стилистик бутунлик сифатида композицон жиҳатдан қуйидаги уч қисмдан ташкил топади:

1. Бошланма – микроматн(ССБ)нинг биринчи гапига тенг келиб, мавзуни белгиловчи ва семантик марказ вазифасини бажарувчи қисм.
2. Фикр ривожи – бир ёки ундан ортиқ гаплар ёрдамида ифодаланиб, фикр-ғояни ривожлантирувчи, шу билан бирга бошланмани изоҳловчи, ойдинлаштирувчи қисм.
3. Тугалланма – микроматн(ССБ)нинг сўнгги гапи. Фикрни хулосаловчи, якунловчи. Ўзидан олдинги гаплар мазмунини конкретлаштирувчи қисм.

микроматн(ССБ)қисмларининг юқоридаги тарзда жойлашуви композицион кўриниши дейилади.

Композицион кўриниш микроматн(ССБ)нинг ҳар қандай типида ҳам мавжуд бўлади ва унинг матн таркибидаги чегараларини белгилаб беради. Микроматн(ССБ) структурал жиҳатдан нечта нисбий мустақил гаплардан иборат бўлишидан қатъий назар, унинг композицион қисмларининг жойлашуви юқоридаги тартибга амал қилган ҳолда намоён бўлади.

1. *Бошланма ва унинг функционал – семантик хусусиятлари.*

Микроматн(ССБ) нечта нисбий мустақил гаплардан иборат бўлишидан қатъий назар, унинг таркибидаги биринчи гап унинг композицион кўринишида ҳам, структурал қурилишида ҳам муҳим функция бажаради. Биринчи гап микроматн(ССБ)нинг синтактик ва мазмуний ядросини ташкил қилади. Коммуникатив жиҳатдан ҳам биринчи гап кучли бўлади. И.Расулов жуда тўғри таъкидлаганидек, «МСБ (ССБ)нинг биринчи компоненти анча мустақиллиги билан бошқалардан фарқ қилади”[501]. Худди шу биринчи гап бошланма вазифасини бажаради. Яъни фикрни бошлаб беради. Микроматн(ССБ)нинг ҳар қандай кўринишида бошланма биринчи гапдан иборат бўлади. Бошланма – биринчи гап, юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, микроматн(ССБ)нинг “энг муҳим қисмидир”[502]. Шундай экан, микроматн(ССБ)ларга баҳо беришда, улар таркибидаги бошланма-гапларга эътибор бериш, унинг ўзига хос хусусиятларини атрофлича тадқиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

---

[497]РеферовскаяЕ.А.Лингвистические исследования структуры текста. Л., «Наука», 1983, стр.69.
[498]Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., 1979. стр. 102.
[499] Абдуллаев Н.М. Теоритические проблемы синтаксиса азербайжанского языка. А ДД. Баку-1984, стр.45. Одинцова С.С. Особенности синтаксического построения связного текста. Л., 1084, стр.18.
[500] Юшина Н.А. Абзац его структурно-семантические типы и функционирование их в произведениях В.И.Ленина. М. 1972, стр.16.
[501] Расулов И.Р. Мураккабсинтактикбутунлик «Ўзбек тили ваадабиёти” журнали. 1983 й. 1-сон. 24-бет.
[502]Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. М., “Высщая школа” 1973, стр.101.

Турли кўринишдаги микроматн(ССБ)лар таркибидаги бошланма – гапларни тадқиқ этар эканмиз, бундай гапларнинг кесимлари орқали реаллашган ҳукм микроматн(ССБ)нинг тузилиши, семантикаси ва услубий функциясига кучли таъсир этишини кўрамиз. Бу ҳолат бошланма – гапнингмикроматн(ССБ)даги роли ва функциясини янада оширади.

Бошланмаларнинг функционал-семантик (услубий-мазмуний) хусусиятлардан келиб чиқиб, уларни қуйидаги тавсиф асосида ўрганишни лозим топдик;

1) ҳаракат узвли (динамик) бошланма

Бу типдаги бошланмаларнинг кесими конкрет физик ҳаракат билдирувчи феъл билан ифодаланади.

Бошланмадан кейин жойлашган гапларнинг кесимлари ҳам шундай (яъни, конкрет физик ҳаракат билдирувчи) феъл билан ифодаланади. Бошланманинг кесими қайси замон формасида ва қайси сўроққа жавоб бўлса, кейинги гапларнинг кесимлари ҳам шу замон шаклида бўлади ва худди шундай сўроқни талаб этади. Бу ҳолат микроматн(ССБ)да маълум оҳангдорликни ҳамда нисбий мустақил гапларнинг ўзаро алоқадорлигини таъминлайди. Бундай бошланмага эга бўлган микроматн(ССБ)лар семантикасида эса қуйидагилар кузатилади; бошланмада ўз аксини топган ҳаракат (динамика) микроматн(ССБ)нинг бутун структурасида гапдан-гапга томон кучайиб, ривожланиб, кескинлашиб, шиддатлилик касб этиб боради;

*Қоронғу тушиши биланоқ, қўрғон ҳимоячиларини чалғитиш учун юнонлар дарвоза томондан ҳужум кўтарилдилар. Тонгача тош отиб шовқин-сурон кўтардилар. Қалъанинг орқа томонидан эса уч юз аскар бир-бирларининг елкаларига миниб, ундан сўнг шоти қўйиб, тик қояга қозиқ қоқа бошладилар... Тонгга яқин бир неча бақувват ва эпчил аскар юқорига чиқиб олишга муваффақ бўлди. Улар пастга арқон ташлаб шерикларини ҳам тортиб чиқара бошладилар.*

(М.Осим)

Юқоридаги микроматн(ССБ)да кўриниб турганидек, бошланма кесимида ифодаланган ҳаракат – “ҳужум бошладилар” микроматн(ССБ)нинг кейинги қисмларида “шовқин-сурон” кўтардилар”, “қозиқ қоқа бошладилар”, “тортиб чиқара бошладилар” тарзида ривожланиб боради. Бундай типдаги бошланмали микроматн(ССБ)ларнинг бадиий асар кульминациясидаги функцияси каттадир. Одатда, муаллифнинг ўз асари кульминациясидан ечимга томон қўйган дастлабки қадами худди шундай микроматн(ССБ)ларга тенг келади:

2) белги узвли бошланмалар

Бундай бошланмалар шахс, предмет, воқеа-ҳодисанинг белги хусусияти ҳақида тасдиқ ёки инкор қилиш йўли билан хабар беради. Бу типдаги бошланма-гапларнинг кесими от-кесим бўлиши билан характерланади, кўп ҳолларда ва, асосан, сифат туркумига хос сўз билан ифодаланади. Бошланма субъектнинг бирор белгиси ҳақида хабар беради. микроматн(ССБ)нинг кейинги қисмлари эса шу белгини тўлдиради ва изоҳлаш вазифасини бажаришга хизмат қилади:

*Раъно қомати келишган, юзи сутдай тиниқ нодирбир ҳайкалтарошнинг ижоди каби гўзал. Кўзларида шўхлик ва ақл мавжи, табиати қувноқ, қуюқ сочлари белига тушган, ўзига ярашган ғурури ҳам бор. Навоийни, Фузулийни чиройли ўқийди, чуқур ҳис қилади, бир аср шоирларидан Муқимий, Фурқат, Завқий каби шоирларнинг ғазаллари билан таниш.*

Кўринадики, белги узвли бошланмага эга бўлган микроматн(ССБ)лар шахс, предмет ёки воқеа-ҳодисанинг ташқи кўриниши, характеристикасини бериш учун қўлланади. Бундай характердаги бошланмали микроматн(ССБ)лар нутқнинг тасвир типи учун хосдир.

3) миқдор узвли бошланмалар

Бошланмаларнинг бундай типида кесим (бошланма кесими) миқдор билдиради. Унда предмет ёки шахснинг ҳам белгиси ҳам шу белгининг миқдори ўз аксини топади. Суперсинтактик бутунликнинг бошланмадан кейинги қисмларида эса миқдорнинг моҳияти, хусусиятлари изоҳлаб, шарҳлаб, аниқлаб берилади:

*Илмли кишиларнинг умри иккита. Бириинсонсифатидакечирган умри. Иккинчисиэсаилм-фанга бағишлаганумридир. Анашу иккинчи умр мангуликка дахлдордир.*

Юқоридаги мисоллардан кўриниб турганидек, бошланма функциясидаги гапнинг кесими англатган миқдор микроматн(ССБ)нинг шаклланишига кучли таъсир ўтказади. Миқдор даражаси қанча катта бўлса, микроматн(ССБ)нинг структураси шунчалик кенгая боради. Қиёслаш учун юқорида келтирилган мисоллар таркибини текширамиз: келтирилган биринчи микроматн(ССБ)

бошланмасида миқдор даражаси «иккита”, яъни биринчи микроматн(ССБ)дагидан ортиқ. Энди улар структурасини текширадиган бўлсак, биринчи микроматн(ССБ) иккита гапдан (1 та содда ва 1 та боғловчисиз қўшма гапдан) ташкил топган, иккинчи микроматн(ССБ)эса тўртта (ҳаммаси содда) гапдан иборат. Бу ҳолатни шу билан изоҳлаш мумкинки, муаллиф ўз нутқининг бошида, яъни бошланмада, келтирилган миқдорни (ўз ҳукмини) иложи борича изоҳлаш, тушунтиришга ҳаракат қилади. Миқдор қанчалик юқори бўлса, (айтайлик, иккита, учта ёки кўп), уларнинг ҳар бирига хос хусусиятларни санаб ўтади. Натижада микроматн(ССБ)структураси кенгайиб, мураккаблаша боради.

4) ҳолат узвли бошланмалар.

Суперсинтактик бутунлик таркибида қўлланувчи бу типдаги бошланмалар ҳам ўзига хос функционал-семантик хусусиятга эга. Бундай кўринишдаги бошланмаларда маълум бир ҳолат ифода этилади. Уларда ҳолат маъносини англатувчи феъл-кесимлар алоҳида рол ўйнайди, бошланма-гап семантикасида муҳим ўрин тутади. Микроматн(ССБ)нинг кейинги қисмларида эса бошланмада ифодаланган ҳолат қўшимча маълумотлар ҳисобига кенгайтирилади, тўлдирилади. Кейинги гаплар ҳам, деярли шундай характерда бўлади:

*Куз ўлим тўшагида ётган беморга ўхшайди. Оёқ остида касалманд хазонлар инграйди. Эрта баҳордан бўтана бўлиб, шоша-пиша қирғоғига сиғмай оққан ариқлар тиниқлашади. Шунча уринишлари зое кетганини тушуниб оламга маъюс боқади... энди сув тубида шодон чайқалган майсалар эмас, хазон кўмилиб ётади. Еру кўкни кафандек оппоқ туман чулғайди. Оқ зулмат орасидан қарғаларнинг хосиятсиз фиғони эшитилади.*

(Ў.Ҳошимов)

5) сўроқ узвли бошланмалар.

Бу типдаги бошланмалар риторик сўроқ гап шаклидан иборат бўлади. Муаллиф ёки субъект бошланма орқали ўзига ёки китобхонга (ўқувчига) риторик сўроқ билан мурожаат қилади. Суперсинтактик бутунликнинг кейинги қисмлари вазифасини бажарувчи гаплар орқали эса унга жавоб олинади:

*Аёлнинг кучи нимага етади? Икки кўзига етади. Маржоной аъзои бадани зирқираб яна бўғилиб-бўғилиб йиғлашга тутинди.*

(О.Ёқубов)

Тадқиқотчи М.Ҳакимов гапнинг сўроқ шаклини матннинг боғлама воситаси сифатида изоҳлаб, унинг матнни номлаш функциясида келишини айтиб ўтади[503]. Тадқиқотчининг фикрларига қўшилган ҳолда, яна шуни алоҳида таъкидлаш керакки, гапнинг сўроқ шакли матнни номлаш функциясини бажариб, унинг мавзусини белгилаб, сарлавҳа тарзида қўлланса, микроматн(ССБ) таркибида бошланма вазифасида келади ва асосий мавзуни белгилайди, чунки (макро) матннинг (умумий, катта) мавзуси сарлавҳада акс эттирилса, микроматн(ССБ)нинг (микро) мавзуси бошланмада ифодаланган бўлади:

*Инсонни севиш нима ўзи? Бу инсонга нима яхши бўлса, шундан қувониш. Унинг фароғати учун нимаики зарур бўлса, ҳаммасини бажо қилиш ва ўзининг бу ҳимматидан лаззат топиш, роҳатланиш демакдир.*

(Чернишевский)

Юқоридагилардан шундай хулоса чиқариш мумкин, микроматн(ССБ)лар таркибидаги бошланмаларнинг юқорида санаб ўтилган типлари уларнинг катта имкониятли, кенг функцияли гаплар эканлигини кўрсатади. Бундай гапларни контекст ичида ўрганиш ўзбек тилшунослигида ривожланиб келаётган мазмуний синтактис муаммоларини ҳал қилишга ёрдам беради ва бу борада янги тадқиқотлар олиб бориш учун имконият яратади.

2. *Фикр ривожининг лингвистик белгилари*

Матн тилшунослиги, жумладан, матннинг энг йирик бирлиги микроматн(ССБ)га бағишланган илмий-тадқиқот ишларида унинг таркибий қисмларидан бири – фикр ривожи ҳақида ҳеч нарса дейилмайди. Мавжуд адабиётларда микроматн(ССБ)нинг асосий композитив компоненти сифатида, асосан, бошланма қисмига урғу берилади.

Ҳақиқатдан ҳам бошланманинг микроматн(ССБ)даги роли бениҳоят катта, у бошқа қисмларга нисбатан ҳоким, қолган қисмлари эса доимо унга нисбатан тобедир. Аммо бу факт қолган

[503]Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. НДА. Т., 1993 й.

компонентлар (фикр ривожи, тугалланма)нинг микроматн(ССБ) таркибидаги функцияси ва ўрнини асло пасайтирмайди.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, фикр ривожи бошланма орқали баён қилинган фикр-ғоя ёки мавзунинг ривожлантирилиши, изоҳланиши, кенгайтирилиши, тўлдирилиши билан характерланади:

*Муродхўжа домла Саидийнинг опаси келгандан бери ташвишда, Саидий уни докторга қаратса, пул кетади. Домла эса, яхшими, ёмонми шу Эҳсонга қаратиб дори-пори қилдиришни, агар бу билан бўлмаса, «докторнинг дориси кор қилмади, демак тузалмас экан”, деб қўя қолишни хоҳлар эди.*

(А.Қаҳҳор)

Келтирилган мисолдан кўриниб турганидек, фикр ривожи бошланмада баён этилган “Муродхўжа домланинг ташвишлари” билан боғлиқ бўлган факт, воқеа-ҳодисаларни кўрсатиш, “ташвиш” сабабларини очиб бериш, уларни ҳар томонлама асослаш учун хизмат қилади.

Фикр ривожини ташкил этган гаплар таркибида олмош туркумига хос сўзлар кўпроқ қўлланади. Контекстуал синонимлар – маъноси бир-бирига яқин турувчи, бир-бирини тўлдирувчи лексемалар ишлатилади:

*Узун оқ кўйлак кийган бир аёл пастак ҳовли олдида оппоқ сочларини юлиб йиғлар эди. Унингноласидан еру осмон титради. Қушлар унга қўшилиб фиғон кўтардилар. Қушлар йиғладилару, аммо гап нимада эканлигини, сочларини юлиб мотам садрига тушаётган бу аёл Буванинг бева қолган момоси эканлигини билмас эдилар.*

(Э.Самандар)

Ёки қуйидаги мисолни олайлик:

*Дадаси қамалган йили қиш қаттиқ келади. Кетма-кет қор ёғиб, совуқ заптига олди. Ҳовлидаги тут шохлари қор залвори остида эгилиб қолди.Ҳамма ёқни булдуруқ босди. Она-бола илмилиқ танчага тиқилиб, кечалари алламаҳалгача ухлаёлмай ётишарди.*

(Ў.Ҳошимов)

Келтирилган гап биринчи микроматн(ССБ) бошланмасидаги «йиғламоқ” лексемаси фикр ривожини ифода этган гаплар таркибида “титрамоқ”, “фиғон кўтармоқ”, “мотам садрига тушмоқ” констектуал синонимлар орқали кенгайтириляпти ва фикрнинг ривожланиши учун хизмат қиляпти. Берилган кейинги микроматн(ССБ)да ҳам шундай ҳолат кузатилади. Бошланма таркибидаги қор сўзига маъноси жиҳатидан яқин турувчи (фикр ривожи таркибидаги) “совуқ”,”булдуруқ”, “қор залвори” каби сўз ва сўз бирикмалари, биринчидан, гаплар орасидаги семантик боғлиқликни таъминлаб турган бўлса, иккинчидан фикрнинг маълум бир тизимда ривожланишига асос бўлади.

Фикр ривожини ташкил қилувчи гаплар кўтарилувчи интонация билан талаффуз қилинади, яъни интонация гапдан-гапга томон юқорилаб боради.

3. *Тугалланма ва унинг асосий белгилари*

Тугалланма мавзунинг якунланиши, фикрнинг умумлаштирилиши, шу умумлаштирилган фикрдан келиб чиқувчи умумий ҳукмнинг айтилиши билан изоҳланади. Тугалланма микроматн(ССБ) таркибидаги сўнгги қисм:

*Баҳор барчага баровар! Шоҳона саройлар олдидаги гуллар нима, гўристонда маъюс дўппайган қабрлар нима танлаб ўтирмайди. Ҳаммасини бир текис майсаларга буркайди. Барчасига баровар меҳр ила чечаклар улашади.*

(Ў.Ҳошимов)

Микроматн(ССБ)ларнинг чегарасини белгилашда, айниқса, тугалланманинг вазифаси жуда муҳим, чунки тугалланма нутқ муаллифининг маълум микромавзу доирасидаги қатъий хулосасига тенг келади. Одатда, хулосаланган, маълум бир ечимни топган мавзуга яна такрор қайтилмайди. Тугалланмадан кейин, албатта, микромавзу ўзгаради. Микромавзунинг ўзгариши эса бир микроматн(ССБ)нинг тугалланиб, иккинчисининг бошланиши демакдир. Баъзан тугалланма таркибида хуллас, хулоса қилиб айтганда, шундай қилиб каби лексик-грамматик воситалар иштирок этиши ҳам мумкин.

*Бойтемирмашина зинасидан туриб мени то йўлгача кузатиб қўйди. У индамайқўлимниқисди-да, машинадансакрабтушибқолди.*

*Тоғтепасига кўтарилаётиб, кабинадан бошимни чиқариб қарадим. Бойтемир ҳамон йўлда турарди. Қўлида шапкасини ғижимлаб, калласини қуйи солганча алланималар ҳақида ўйларди.*

*Бор гап шу, ана шундай қилиб, биз ажрашдик.*

(Ч.Айтматов)

Лекин биз юқорида санаб ўтган лексик-грамматик воситалар ҳар доим ҳам микроматн(ССБ) тугалланмаси таркибида иштирок этмаслиги мумкин. Бундай ҳолларда тугалланма микроматн(ССБ) семантикаси орқали аниқланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, микроматн(ССБ) матннинг энг йирик бирлиги бўлиши билан бирга, алоҳида мустақил синтактик бутунлик сифатида ўзига хос белгиларга эга. микроматн(ССБ)нинг композицион тадқиқи шуни кўрсатадики, унинг бошланма, фикр ривожи, тугалланма каби қисмлардан ташкил топиши ва бу қисмлар микроматн(ССБ)ни ташкил этувчи гапларнинг маълум семантик-грамматик ҳамда услубий қонуниятлар асосида шаклланувчи ва шу тартибда матн таркибида яшовчи мураккаб синтактик бутунлик эканлигини тасдиқлайди.

Демак, микроматн(ССБ)лар синтактик конструкцияларнинг бошқа турлари (сўз бирикмаси, гап ва унинг турлари) каби ўзининг таркибий қисмларига эга бўлиши билан бирга, улардан фарқли ўларок композицион қисмларга ҳам эга. Унинг композицион қисмлари (бошланма, фикр ривожи, тугалланма) биринчидан, микроматн(ССБ)нинг матн таркибидаги чегараларини белгилаб бериши билан аҳамиятли бўлса, иккинчидан, микроматн(ССБ)нинг семантик-синтактик бутунлик сифатида мавжудлигини кўрсатиб турувчи таркибий қисмлар сифатида ҳам аҳамиятлидир.

**Г. Каримова - II –курс магистранти**
**У. Мамажонова - жис. мадан. факул-нинг II –курс талабаси**

## ИНСОН ЖИСМИ МАДАНИЯТИНИНГ МАШГУЛОТЛАРИНИ ЮЗАГА КЕЛИШИ ТАРИХИДАН

Қадимги XV- XVI аср маданияти мазмунига оид махсус адабиётлар тахлили XV асрдан бошлаб дворян ёшлар мактабларида ҳозрги жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларнинг бошланғич шакли ”гимнастика”нинг айрим анжомларидан фойдаланиш машғулотларини ташкилланганлигига оид далилларни гувоҳи бўлдик. XVI асрга келиб жимоний тарбия ва унинг машғулотларига оид асарлар ёзилабошланганлиги ҳақида маълумотлар мавжуд (Б.А.Ашмарин, Б.М.Шиян, М.Е. Мединский,

Н.А. Хан, Ш.Ханкельдиев, А.Абдуллаев ва бошқалар).

Бу даврнинг гуманист ёшлари ҳар томонлама, жумладан, жисмоний жиҳатдан ҳам ривожланган бўлишга уриниш бошладилар. Чунки бу давр жисмоний машқлар билан шуғулланиш инсон организмининг ташқи кўринишини ўзгаришига таъсир қилиши ҳақидаги бошланғич билимларни юзага келабошлаган даври бўлиб жисмоний маданият тарихига кирди. Чунки, шу давр ёшлари ҳар томонлама, жумладан, жисмоний жиҳатдан ҳам ривожланган бўлишга уриниш, жисмоний машқлар билан тизимли шуғулланиш инсон организмининг ташқи кўринишини ўзгаришига таъсир қилиши ҳақидаги бошланғич назарий билимларни юзага келабошлади.

Француз гуманист ёзувчиси Франсуа Робленинг(1494-1553) ”Гаргантюа ва Пантагрюэле” асарида тарбияланувчилар турли жиҳозлар билан, шу жумладан турникда, ёғоч конда машқ қилганликлари, арқонга, нарвонга тирмашиб чиқиш, акробатика машғулотларини бажариш билан машғулотлар ўтказабошлаганликлари ҳақидаги далиллар мавжудлигини аниқладик. Ўрта аср ўзининг ҳарбий амалий жисмоний тайёргарлиги билан тарихда ўз ўрнига эга. Қадимги Рим ва қатор Европа мамлакатлари ёғоч от(конь), нарвонлар (қала деворларини забт этиш)да *тирмашиб чиқиш ва тўсиқлардан ошиш ва бошқа ҳарбий ҳаётий - амалий машқларни* ўзлаштириш учун машғулотлар ташкиллана бошладилар. Лекин, бу машғулотлар ҳали ўзининг чегараланган вақти, давомийлиги, жисмоний юкламасининг меъёри, дам олиш шаклидек назарий тушунчалар ва билимларни назарда тутмас эди. Машғулот самарадорлиги ҳақида ҳали фикрлар юзага келмаган эди.

Аслида жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларининг тарихи гимнастика машқлари билан шуғулланиш машғулотларидан бошланганлигини эътироф этиш лозим. Қолаверса,

шу даврга келиб машғулотларда турли даражадаги жисмоний ривожланганликга, жисмоний тайёргарликга эга бўлганларни битта гурухда шуғулланишлари яхши самара бермаслиги, машғулот учун чегараланган вақт белгилашнинг аҳамиятига эътибор беришдек назарий билимлар бошқачасига жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларининг назарияси юзага келабошлади.

Махсус адабиётлар жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотлари, кейинчалик бу машғулотларнинг асосий шакли деб тан олинган – “дарс” шакли тарихи буюк славян мутафаккири, файласуф, педагог, синф - дарс тизимнинг асосчиси Ян Амос Каменский (1592-1670) нинг фаолияти даврига бориб тақалиши (Абдуллаев А,2018)ни аниқладик.

У ўзининг “Великая дидактика”, “Законы благоустроенной школы” асарларида мактаб таълими машғулотларининг дарс шаклини назарий асослаб, синф - дарс тизимини таълим жараёнига қўллаш тажрибасини умумлаштирди.

Такидлашимиз жойизки ҳозирги кунга келиб жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларининг *дарс шакли* машғулотларнинг бошқа шаклларидан кўйидаги афзаллигига мансуб хусусиятлари билан ажралиб туришинини аниқладик.Улар: 1) болаларнинг ёши ва тайёргарлигини бир-бирига яқинлиги; 2) синф контингентининг доимийлиги; 3) дарс вақтини аниқ регламентланганлиги; 4) дарс жадвалидаги ўрни (ҳафталик машғулотлар оралиғи); 5) машғулотда ўқитувчининг раҳбарлик қилишининг мажбурийлиги; 6) дарс вазифаларини ҳал қилишнинг кетма-кетлиги; 7) жисмоний сифатларни машғулотни қайси қисмида ривожлантириш қонуниятлари; 8) *осондан мураккабга ва бошқа дидактик принциплари,* илк бор машғулотларнинг мазмунидан ўрин эгаллаши, таълим жараёнига қўллаш зарурияти исботланди.

**Г.О. Шахбазова, И.Х. Абдуллаев, Ш.О. Тиллаев –**
**Фарғона давлат университети сиртқи бўлим ўқитувчилари**

## МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ - МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИКНИНГ МУХИМ ОМИЛИ

Инсоният тарихига назар ташласак, ер юзида бирон бир халқ ёки давлат йўққи, у ўз–ўзидан, бошқалар билан алоқада бўлмасдан, ўзгаларнинг моддий ва маънавий қадриятларини ўрганмасдан ва маълум даражада ўзлаштирмасдан, шунингдек, амалда бир-бирини бойитмасдан туриб, ривожланишга, юксакликка эриша олмаганлигининг гувоҳи бўламиз[504]. Мана шу ҳаёт фалсафасини эътиборга олган ҳолда, мустақил Ўзбекистон давлати ўзининг ички ва ташқи сиёсатида миллатлар ва давлатлар ўртасидаги ўзаро муносабатларда тинчлик, тотувлик, ҳамкорликни таъминлаш сиёсатини изчил амалга ошириб келмоқда. Амалга ошириб келинаётган бундай миллий сиёсат, турли миллат ва элат вакилларининг миллий ўзлигини англашининг ривожланишига, уларни янада яқинлашиб миллий қадриятларини бойитиб боришларига асос бўлмоқда.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари бир оила бўлиб, аҳил яшаб, ривожланиб келмоқдалар. Улар ўртасидаги дўстона муносабатларни янада мустаҳкамлашга қаратилган турли илмий-амалий, мафкуравий-сиёсий тадбирлар мунтазам ўтказиб келинмоқда. Масалан, шундай тадбирлардан бири 2013 – йилнинг апрелида “Обод турмуш шаклланишида миллий ва маънавий қадриятларнинг ўрни” мавзусига бағишлаб, Фарғона шаҳрида ўтказилган илмий-амалий семинардир. Семинар сўнгида “Ўзбекистон – умумий уйимиз” ижодий фестивали бўлиб ўтди. Тадбирда мамлакатимизда яшаётган барча миллат ва элат вакилларига моддий ва маънавий қадриятларини ривожлантириш ва ўзаро бойитиб боришлари учун кенг имкониятлар яратилганлиги алоҳида таъкидланди. Бундай тадбирлар, албатта, миллатлараро тотувликнинг, улар ўртасидаги дўстона муносабатларни ривожлантиришнинг, яъни қадриятларни ўзаро айирбошлаш, мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлашнинг, демократик ўзгаришларни амалга оширишнинг, шу билан бирга Ўзбекистонни жаҳон ҳамжамиятига қўшилишининг муҳим омили бўлиб хизмат қилмоқда. “Аниқланишича, сайёрамизда ўзининг бетакрор маданий ва маънавий қадриятларига эга бўлган 1600 дан ортиқ этник гуруҳ яшайди. Дунёнинг ҳақиқий бойлиги,

[504] А. Набижонов, фалсафа фанлари номзоди, доцент, Д.Набижонова, ФарПИ катта ўқитувчиси мақоласидан

қадриятларни ўзаро айирбошлаш, бир-бирини бойитиш имконияти ана шу хилма-хилликдадир”[505], деб таъкидлайди юртбошимиз И.А.Каримов. Шу ўринда қадрият ўз нима деган саволнинг туғилиши табиий. “Қадрият – жамият, инсон ва инсоният учун аҳамиятли бўлган барча нарса, ҳодиса ва воқеалар: эркинлик, эзгулик, тенглик, тинчлик, ҳақиқат, маърифат, маданият, моддий ва маънавий бойликлар, обида-ёдгорликлар, гўзаллик, ахлоқий ҳислат ҳамда фазилатлар, анъана, урф-одат, удум ва бошқалар ҳисобланади. Қадриятлар умумбашарий, умуминсоний, миллий, минтақавий, шахсий бўлиши мумкин”[506]. Шу ўринда, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг ўзаро нисбатини аниқлаб олиш, миллий ўзликни англашнинг негизи эканлигини алоҳида таъкидлаш жоиздир. Бунинг учун, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг мазмунини атрофлича таҳлил қилиб, чуқур англаб олиш мақсадга мувофиқдир, деб ўйлаймиз. “Миллий” қадриятлар деганда қандай қадриятларни тушунамиз? Миллий қадриятлар бу – муайян миллатда мавжуд бўлган унинг манфаати ва ривожига, яъни эҳтиёжини қондиришга хизмат қилувчи, бошқа халқларнинг манфаати ва ривожига зид бўлмаган, улар томонидан ўзлаштириб олиниши мумкин бўлган, тарихан шаклланган ва ривожланиб бориши зарур бўлган моддий ва маънавий қадриятлар йиғиндисидан иборатдир. Турли миллат ва элат вакилларининг кўпчилиги “миллий” деганда, фақат ўз миллатида мавжуд бўлган қадриятларни, “умуминсоний” деганда эса, фақат ташқаридан яъни, бошқа халқлардан ўзлаштириб олинадиган қадриятларни тушунадилар. Бу ўринда шуни қайд қилиш керакки, ҳар бир миллат қадрияти ўз мазмунига кўра ва бошқа миллатлар томонидан ўзлаштириб олиниши мумкинлиги ва керак бўлса зарурлиги учун ҳам умуминсонийдир. Бизнингча, у ёки бу миллатнинг миллий қадриятлари бошқаларникига нисбатан намоён бўлиш шакли, даражаси ва кўзга яққол ташланиши ҳамда бўртиб кўриниши билан фарқланади. Том маънодаги миллий ўз моҳиятига кўра умуминсонийдир. Яъни, умуминсоний қадриятларнинг объекти ҳам, субъекти ҳам миллий қадриятлардир. Ҳар бир миллат ёки элат вакили бир вақтнинг ўзида ҳам умуминсоний, ҳам минтақавий, ҳам миллий, ҳам индивидуал – шахсий қадриятларни ўзида мужассамлаштирган бўлади ва уларни яратувчиси ҳамдир. Бинобарин, бугун ҳам жаҳон аҳлини ҳайратга солаётган Муҳаммад Мусо Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Райхон Беруний, Ибн Сино, Мирзо Улуғбек каби алломаларимизнинг буюк илмий-ижодий кашфиётлари умуминсоний мазмунга эга бўлган маънавий қадриятлардир. Улар яратган, инсон ва инсоният ривожи учун зарур бўлган илмий-ижодий қадриятларни дунё халқлари бир неча асрлар давомида ўрганиб ва амалда фойдаланиб, ўзлаштириб келмоқдалар.

**D.M. Mo‘minov – Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi**
**I.I. Sobirjonov – Farg‘ona davlat universiteti**

## OMMAVIY MADANIYATNING SHAXS IJTIMOIYLASHUVI JARAYONIGA TA’SIRI

Ana’anaviy talqinda madaniyat tushunchasi jamiyat tushunchasi bilan teng kuchli tushuncha sifatida qo‘llanib kelingan. “Insoniyat madaniyati” tabiat kuchlari ustidan hukmronlik qilish, farovonlikka ega bo‘lish yoki o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun odamlar tomonidan o‘zlashtirilgan hamma bilim va usullarni qamrab oladi, va ayni paytda u odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaradigan va noz-ne’matlarni taqsimlaydigan ijtimoiy institutlarni ham o‘z ichiga oladi.

“Ommaviy madaniyat”ni tarqatadigan ommaviy kommunikatsiya vositalarining uchta komponenti ajratiladi: Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnallar, radio, televideniye, internet-bloglar va x.z.) — axborotni ko‘paytiradi, auditoriyaga doimiy bosim o‘tkazadi va odamlarning aloxida guruhlariga yo‘nalgan; Ommaviy ta’sir vositalari (reklama, moda, kino, ommaviy adabiyotlar) — auditoriyaga har doim ham ta’sir o‘tkazmaydi, o‘rtacha iste’molchiga yo‘nalgan; Kommunikatsiyaning texnik vositalari

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Т.: Ўзбекистон, 1997, 69 - бет.
[506] “Фалсафа”. Қомусий луғат, - Т.: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2004, 476-бет

(Internet, telefon) — odamning odam bilan bevosita muloqoti imkoniyatini belgilaydi va shaxsiy xarakterdagi ma’lumotni uzatish uchun xizmat qiladi[507].

Tadqiqotchilar ommaviy madaniyatning uchta darajasini ajratishadi: Kich-madaniyat, ommaviy madaniyatning eng past probasi, dastavval faqat amaliy san’atda keng tarqalib, xozirda san’atning hamma sohalarini, shuningdek kino va televideniyeni ham qamrab oldi. Kich savol qo‘ymaydi, u barcha muammolarga bir xil, zerikarli javob beradi, zerikish va loqaydlikni shakllantiradi. Xozirda o‘ta rivojlangan mamlakatlarda shu madaniyat keng tarqalgan. Mid-madaniyat, ana’anaviy madaniyatning ayrim qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi, ayni paytda ommaviy madaniyatga namuna yaratadi. Art-madaniyat, qisman badiiy mazmun va estetikadan xoli bo‘lmagan, bilimli va talabchan auditoriyaga mo‘ljallangan ommaviy madaniyat. Uning asosiy vazifasi ommaviy madaniyatni an’anaviy madaniyatning normalari va standartlariga mumkin qadar yaqinlashtirishdan iborat.

Iqtisodiyot maxsulotlari singari ommaviy axborot vositalari tomonidan raqobat asosida ishlab chiqariladigan “ommaviy madaniyat” maxsulotlari ham axoliga sotiladi. Demak, “ommaviy madaniyat” ishlab chiqaradigan mahsulot ham iqtisodiyot sohalarida ishlab chiqariladigan tovarlarga o‘xshab sifatli, sifatsiz ko‘rinishda yoki mazmunda bo‘lishi mumkin.

Ko‘rib turganimizdek “Ommaviy madaniyat” atamasi o‘z-o‘zicha absolyut salbiy mazmunga ega emas, yuqorida sanab o‘tilgan omillar va vositalarsiz aslida zamonaviy odam bir soat ham yashay olmaydi. Asosiy gap faqat ana shu vosita va omillar nimani va qanday shaklda, qanday maqsadni ko‘zlab uzatayotganligi, ijtimoiy ong tarkibiga qanday elementlarni nima maqsadda joylashtirayotganligi, ijtimoiy fikrni nima bilan, nima maqsadda manipulyatsiya qilayotganligida. Masalaning ikkinchi, o‘ta muhim jihati esa, “ommaviy madaniyat maxsulotlarini iste’mol qilayotganlar”, ayniqsa yoshlar uni g‘oyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy baholay oladilarmi, ularda ta’lim, tarbiya, mafkuraviy targ‘ibot va tashviqot vositasida bu “maxsulotlarni” g‘oyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy baholash mezonlari qay darajada shakllantirilgan va rivojlantirilganligida.

“Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek: “Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”.

Xozirgi kunda ko‘pchilik, ayniqsa yoshlar kerakli xulq usuli, turmush tarzi, karyera, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xaqidagi tasavvurlarni aynan ommaviy madaniyat orqali qabul qilayapti. Ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, maishiy texnika, kundalik foydalaniladigan buyumlar, ta’lim ham odamga ommaviy madaniyat mexanizmlari orqali uzatilmoqda. Xozir u yoki bu maxsulot ko‘pchilik tomonidan talabga aylangandagina qimmatli va obro‘li hisoblanadi. Aytish mumkinki, ommaviy madaniyat reklama orqali iste’molni rag‘batlantirish usuliga aylanmoqda.

Afsus bilan bo‘lsa ham shuni tan olish kerakki, ommaviy madaniyatdan g‘araz maqsadlarda foydalayotganlarning ta’siri natijalarini jamiyatda ayrim yoshlarning xulqida, o‘zaro munosabatlarida, kiyinish uslublarida kuzatish mumkin. Ayrim qizlarda bu holat turli taqinchoqlar, nakolkalar, o‘ta zamonaviy yoki aksincha, o‘ta ana’anaviy, diniy mansublik belgisi sifatidagi liboslarda, turli millatlarga mansub shaklda va uslubda ro‘mol o‘rashda, odatdan tashqari o‘zaro munosabatlarda namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, ayrim o‘g‘il bolalarda har-xil brasletlar, zanjirlar, xatto sirg‘alar taqish, qizil kamar, qizil oyoq kiyimlari, qizil shimlar kiyish, sochini turli shaklda prichyoska qilish, xatto turli ranglarga bo‘yash, odatdan tashqari uslublarda salomlashish va so‘rashish, antiqa bayramlarni nishonlash, kattalar va bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarida qo‘pollik, zo‘ravonlik, agressiya, muammolarni hal qilishda kuch, ba’zan sovuq qurollar ishlatish shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Bunday vaziyat “ommaviy madaniyat”dan g‘araz maqsadda foydalanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganlarning niyatiga mos ravishdi yoshlar tomonidan mavjud qadriyatlar tizimi, axloq normalari, milliy o‘ziga xoslik, jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatni inkor qilishni anglatadi. Qadriyatlar tizimiga, axloq normalariga, milliy o‘ziga xoslik va burch hamda mas’uliyatga bepisandlik, atrof borliq voqea xodisalariga befarqlik va loqaydlik turli diniy va siyosiy ekstremistik, terroristik, norozilik g‘oyalari tuzog‘iga ilintirishning asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi.

---

[507] Dotsenko E. L. Manipulyatsiya psixologiyasi: Fenomen, mexanizmlar va mudofaa. - M.: CheRo, Moskva davlat universiteti nashriyoti, 1997.

Hozirda biror mamlakat yoki xalqni bo'ysundirish uchun ommaviy axborot vositalarining o'zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo'ravonlik orqali ta'sir qilish usullari o'rnini odamlarni biror bir g'oyaga ishontirish, ongni boshqarish texnologiyalari egallayapti. Ishontirish vositasida xarakat qilayotganlarni biror narsada ayblash ham qiyin, zero, ular targ'ib qilayotgan g'oyalari ortida qanday manfaatlar yashiringanini bilish oson emas[508]. Bunda istilochining kim ekani noma'lum bo'ladi, hatto aholi o'zini bosib olish uchun kim kurash olib borayotganini anglamaydi ham. Bu kurash yashirin ravishda, zimdan amalga oshirilgani bois, unga uyushqoq holda qarshilik ko'rsatib bo'lmaydi, aynan shu omil bunday tajovuzlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Xozirda oila, nikox tushunchalari tobora omonat bo'lib borayotgan sharoitda g'arbona yashash tarzini, bir jinsli nikoxlarni "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kitob, kino, serial va xatto multfilm ko'rinishida yoshlarimiz ongiga singdirishga urinishlar bo'lmokda. Bular oila bilan bog'liq asriy an'analarimizni, qadriyatlarimizni, yoshlarning ma'naviyatini yemirishga yo'naltirilgan taxdidlardir.

Ommaviy madaniyat ta'sirida odamlarda didsizlik va mas'uliyatsizlik shakllanadi. "Ko'ngilochar industriya" maqomini olgan jamiyatda chop etilayotgan hajviy, oldi-qochdi, intim voqeliklar, suratlar, turli qotilliklar, mashhur kishilarning ishqiy mojarolarini aks ettiruvchi "sariq matbuot"ning demokratiya niqobida faoliyat yuritishi ommaviy madaniyatning kengroq ildiz otishini amalda ta'minlayapti[509].

"Soxta-madaniyat" shaxsning o'z-o'zini chegaralab qo'yishi singari fojealarga sabab bo'lmoqda. Televizor, kompyuter yoki radio qarshisida soatlab o'tirib, tong otishi va kun botishini har kuni birdek kuzatuvchi odamlar, "robinzonlashish"larning soni borgan sayin ko'payib borayapti.

Oldindan rejalashtirilib, aniq maqsadni ko'zlab tarqatilayotgan "ommaviy madaniyat" shakllari va elementlari har qanday milliy ma'naviyatning kushandasi hisoblanadi, chunki madaniyatning bu shakli har qanday milliylik va diniylik chegarasini, har qanday o'ziga xoslikni inkor qiladi, bir qolipdagi, ortiqcha zo'riqish talab qilmaydigan tafakkurni, atrof-borliqdagi voqea xodisalarga befarqlik, loqaydlikni targ'ib qiladi, iste'molchilik va boqimondalik psixologiyasini shakllantiradi.

**Sh.Sh. Maxammadjonova – Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLMOSH SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLAR

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon barcha sohalar qatori ta'lim sohasiga ham ko'plab imkoniyatlar eshigi ochildi va ta'lim sohasini, xususan yoshlarga chet tillarini o'rgatish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Bugungi yangi O'zbekistonnni qurishda ham yurtimizda ushbu islohotlarning yanada takomillashgan bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, mukammal darajadagi davomiyligini ko'rishimiz mumkin. Yangi O'zbekistonni qurishda, avvalo, xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishga yana ham chuqurroq e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1875 PQ mamlakatimizda chet tilini o'rganish va o'rgatishga qanchalik yuksak e'tibor berilayotganining aksidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev chet tillarini yanada isloh qilish borasida o'tkazgan video selektrida ham yoshlarimizga chet tillarini mukammal o'rganishlari, maktabgacha ta'lim, xalq ta'lim, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashli bog'cha, maktab, akadem litsey, kollej hamda oliy ta'lim muassasalarda ta'lim va tahsil oluvchi chet tili o'rganuvchi o'quvchi va talabalar kamida ikkita chet tilini bilishi kerakligiga alohida urg'u berdi. Shu bilan birga joylarda chet tilini o'qitishga alohida e'tibor berish zarurligi takidlandi. Ta'lim sifatini yaxshilash va xorijiy tillarni o'qitishni yanada takomillashtirish esa bevosita o'quv jarayonida qo'llanilib keladigan metodlar, o'qituvchining o'qitish mahorati va bilimiga bog'liq. Albatta shuni yorituvchi ko'plab xorijiy tillarni o'qitishga oid metodik

[508] Феофанов О.А. Реклама: новыэ технологии в России. – СПб., 2000.
[509] Шейнов В.П. Манипулирование сознанием / В. П. Шейнов. — Минск: Харвест, 2010.

qo‘llanmalar, mahorat darslarning seminar-treninglar ushbu sohani yanada ravnaq topishiga turtki bo‘lmoqda.

Barno Muxtorova o‘z ishida aytib o‘tganidek, xorijiy tillarni o‘qitishda zarrachadek tuyulgan har bir tushunchaga e’tibor qaratishimiz mana shu ta’lim sohasining rivojida katta yutuqqa erishimizga olib kelishiga turtki bo‘ladi.[510]

Hozirgi kunda amaliyotda axborot texnologiyalari yordamida ko‘plab turli xil zamonaviy metodlardan foydalanib kelinmoqda. Bu esa bugungi zamon talabidir. Zamonaviy ta’lim metodlari zamon talablariga mos ravishda yangi, o‘ziga xos xususiyatlarga, ta’lim-tarbiyaviy imkoniyatlariga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mosdir.

Har bir malakali pedagog, o‘z ishining ustasi o‘qitish jarayonida avvalo o‘quvchining qiziqishlarini xisobga olgan holda, shu bilan birga ta’lim tarbiyani chetlab o‘tmagan holda zamonaviy o‘ziga xos metodikaga ega bo‘lmog‘i lozimdir.

Ushbu maqolamizda biz Olmosh so‘z turkumining o‘qitilishiga, uni talabalarga, maktab o‘quvchilariga yetkazib berishning lingvomadaniy jihatdan turli xil metodlar yordamida o‘qitishni, o‘rganuvchiga yetkizib berishni yangi yondashuvlarini topish haqida atroflicha to‘xtalamiz.

Shu o‘rinda “metod” so‘ziga to‘xtalib o‘tsak. Metod nima degan savolni ko‘ndalang qo‘yadigan bo‘lsak, unga quyidagi ta’riflarni keltirishimiz o‘rinlidir: "Metod" atamasi asosan 3 ma'noni bildiradi. Birinchidan, metodika tarixidagi butun bir yo‘nalish (tarjima metodi, to‘g‘ri metod, qiyosiy metod, aralash metod); Ikkinchidan,yuqoridagi yo‘nalish tarkibiga kiruvchi o‘qitish sistemasi; Uchinchidan, muallim va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘langan faoliyati usuli. (Tanishish, mashq qilish va qo‘llash metodlari). Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, bizningcha metod bu- o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi ko‘prik, o‘rganuvchiga ma’lumotni oson va qiziqarli usulda yetkazib berish san’ati[511]

Bugungi zamonaviy metodika o‘rganuvchiga chet tillarini o‘qitishda darslarni interfaol usullarda, gruhlar ichida kichik guruhchalarga bo‘lgan holda tashkillashni majbur etmoqda. Bu metod esa ko‘zlangan maqsadga erishishga imkon beradi.

“Har bir fanning o‘qitilishi, ijobiy samarasi undan olingan so‘nggi natija bilan baholanadi.”, -deydi o‘z kitobida B. To‘xliyev. “Olmosh” so‘z turkumini o‘rganishda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish imkoniyatlarining biri -so‘zning ma’nodoshlaridan o‘rinli foydalanishdir.[512]

Bilamizki, olmosh so‘z turkumi barcha mustaqil so‘z turkumlari o‘rnida nafaqat so‘z turkumlari balki, butun gap o‘rnida kelib, unga ishora qiladi, u bajargan vazifani bajara oladi. Lekin so‘zlarni o‘rnida ishlatayotganimizda olmoshlarning to‘g‘ri, muqobil, mos keladiganini topib qo‘yish ham bir san’at aslida.

**Muammo / Problem.** Ko‘pincha maktab o‘quvchilarida asosan, yuqori sinflarda (7,8,9 -sinflar) olmosh mavzusida shu muammoga duch kelishimiz mumkin. O‘tkazilgan tajribalar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, maktab o‘quvchilari olmosh mavzusida quyidagi holatlarda chalkashliklar, qiyinchiliklar va tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklarni dars mobaydnida quyidagi metodlarni qo‘llash bilan bartaraf etishimiz mumkin. Bunda olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlar matnda berilgan bo‘ladi. Matnda keltirilgan olmoshlarni table card metodini qo‘llab, berilgan matnda qo‘llangan olmosh turlarini aniqlab, ularni jadvaldagi mos o‘ringa yozishlari talab etiladi.

**Usul/method.** O‘rganuvchilarga bu muammoli holatda ***Matnlar orqali ishlash (Working in the context.)*** Birinchi o‘rinda, muammoni vujudga keltiradigan ob’yekt ustida alohida ishlashdan boshlash ma’qullor.

**Example/Misol #1.**

**Ingliz tilida:** I know the woman ***whose*** dress is bright red.

**O‘zbek tilida:** Yorqin qizil rang ko‘ylakli ayolni taniyman.

Yuqoridagi misolimizda muammo shundan iboratki, gapda ishtirok etgan ***whose*** nisbiy olmoshi umuman tarjima qilinmayapti lekin usiz gap ham hosil qila olmaymiz.

Shunday gaplar berish orqali o‘rganuvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishiga imkoniyat yaratib beramiz.

---

[510] “Pul” konseptual maydoni verbalizatorlaarining qiyosiy tadqiqi. (Hozirgi zamon ingliz va o‘zbek(rus) tillari materialida) dissertatsiya. B.A. Muhtorova Farg‘ona 2020

[511] “Pul” konseptual maydoni verbalizatorlaarining qiyosiy tadqiqi. (Hozirgi zamon ingliz va o‘zbek(rus) tillari materialida) dissertatsiya. B.A. Muhtorova Farg‘ona 2020

[512] “ So‘z turkumlari va nutq o‘stirish metodikasi” To‘xliyev B. Inag‘omova R, Tilalova G. Toshkent 2008.

Bu olmoshlarni umumiy tushuntirishda, ularning turlarini farqlay olishda yordam beradigan metod hisoblanadi.




Relative Clause Speaking Activity (nisbiy gaplarda og‘zaki mashg‘ulotlar)

Nisbiy gaplarda ya’ni who, which, that li gaplarni talablarga tushuntirayotgan paytda darsimizni biroz qiziqarliroq, rang barang va talabani kayfiyatini ko‘tarishni istsak (chunki bu nisbiy olmoshlarni qo‘llash o‘zbek o‘rganuvchilari uchun biroz qiyinroq) u holda “Who or what is it?” ya’ni u kim yoki nima? deb nomlangan mashg‘ulotdan foydalanish o‘rinlidir. Albatta, nisbiy olmoshlar odamlarni yoki narsalarni ingliz tilida tasvirlash uchun muhimdir, shuning uchun ularga diqqatni jalb qilish yaxshi narsa.

Ushbu mashg‘ulot asosan, oliy ta’lim talabalari uchun qo‘llaniladi. Biroq buni maktab o‘quvchilari:9-10-11-sinf lar uchun ham ishlatish mumkin. Mashg‘ulot 10-15minut vaqtni oladi. O‘qituvchi oldindan narsa yoki odamlarning ismlarini yozib, kichik qog‘ozchalar shaklida qirqib oladi va ularni konvertga oldindan joylab qo‘ygan bo‘lishi kerak. Talabalarni 4 kishilik guruhlarga bo‘lib olamiz. Birinchi kishi ixtiyoriy qog‘ozni tanlab, uni sir tutishi kerak. So‘ngra, ular o‘z guruhlarining qolgan qismiga qog‘oz haqida maslahatlar berishadi, afzalroq nisbiy yoki qisqartirilgan nisbiy gaplardan foydalanadilar.

Guruhdagi boshqa odamlar u kimligini taxmin qilishadi va kim uni to‘g‘ri taxmin qilsa, qog‘ozni saqlab qoladi. Ular 1 ball oladi, va topgan talaba kiyingi qog‘ozni tanlaydi. Bu bitta talabaning ma'lum g‘alaba bilan qochib ketishining oldini olishga yordam beradi. Belgilangan vaqt oxirida eng ko‘p ball to‘plagan kishi g‘olib hisoblanadi. Odatda bu juda qattiq poyga, chunki har bir raund g‘olibi maslahat beradigan navbatdagi odam bo‘lishi kerak, shuning uchun ochko ololmaysiz. Agar o‘qituvchi odatda har bir guruhdan g‘olib uchun kichik sovg‘a olib kelsa, bu talablar uchun yana bitta motivatsiya bo‘la oladi.

**Р.Т. Жураева - студентка 3 курса английской филологии УзГУМЯ**
**М.О. Носирова - старший преподаватель кафедры общего языкознания УзГУМЯ**

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Дошкольный возраст – уникальный и решающий период, в котором закладываются основы личности, развивается воля, формируется социальная компетентность. Обучение в игровой форме может и должно быть интересным, занимательным, но не развлекательным.

Для реализации такого подхода необходимо, чтобы обучающие игровые технологии, разрабатываемые для обучения дошкольников, содержали четко сформулированную и поэтапно описанную систему игровых заданий и различных игр[513] [1, с. 68]. Это необходимо для того, чтобы, используя данную систему, педагог мог быть уверен, что в результате он получит гарантированный уровень усвоения дошкольником того или иного предметного содержания. Игровая форма совместной деятельности с детьми создается с помощью игровых приемов и ситуаций, выступающих средством мотивации и стимулирования ребенка к деятельности.

Реализация педагогической игры осуществляется в следующей последовательности – дидактическая цель ставится в виде игровой задачи, учебная деятельность подчинена правилам игры; в качестве ее средства используется учебный материал; успешное выполнение дидактического задания связано с игровым результатом.

[513] Аликберова А.Р., Глушкова С.Ю. Методическое пособие для учителей китайского языка. – Казань, 2017.

Изучение иностранного языка происходит по-разному – при погружении в языковую среду. Психологи отмечают, что игра является оптимальной формой обучения при изучении языка[514] [1, с. 142]. Игра формирует у детей адекватное отношение к явлениям окружающей жизни, является средством активизации познавательных процессов: внимания, мышления, памяти (Р.И. Жуковская, Л.С. Выготский, И.А. Зимняя и др.).

При изучении языка используются игры с правилами, творческие игры, например, инсценировки и др. Каждый урок имеет свой сюжет и все действия на уроке мотивированы. Такой подход направлен на активизацию познавательных процессов при обучении дошкольников китайскому языку.

Достижение личностной активности и поддержание этого состояния предполагает также активизацию резервных возможностей личности ребенка. Среди наиболее значимых средств обеспечения оптимальной деятельности студентов особое внимание уделяется следующим: использование ясности; театрализация: жест, интонация, мимика; распространение учебного материала (актуального, перспективного); специальные приемы обучения (передача реплики собеседнику, подбор фраз, голос, интонационные игры); использование коллективных форм познавательной деятельности; индивидуальный подход в условиях группового взаимодействия; плотность общения (большое количество обучающих мероприятий); атмосфера радости, помогающая снять барьер страха, неловкости, застенчивости[515] [2, с. 79-80].

При организации игры разрабатываются такие правила, которые отвечают воспитательной задаче и в то же время создают у ребенка иллюзию свободы. Обязательно учитывается степень активности и участия каждого ребенка в ходе игры. Проводя игры, роли, которые играют дети, постоянно меняются, в связи с чем возрастает интерес ребенка к игре, желание проявить себя. Естественно, ее дидактическая функция не снимается с игры. В ходе контроля и оценки эффективности учебной деятельности в игровом процессе тщательно используются различные формы поощрения. Нельзя скупиться на похвалу и доброе отношение к детям, но оценка должна быть дифференцированной и не должна превращаться в самоцель. Даже самая маленькая победа обязательно будет замечена и оценена учителем.

1. Игра “我 知道。。。”. Правила игры можно изменить.

В игре всегда соблюдается ритм. Дети постукивают по нему ладонями и произносят текст, стараясь не сбиваться с ритма.

Припев: “我 知道 五个 动物”. Ученик: “猫”. Студент: “狗”.

2. «Светофор». С помощью читалки выбирается ведущий, который называет любой цвет. Мимо него проходят дети, держась за названный цвет, и произносят «我 有 蓝色 的». Те, у кого нет этого цвета, перебегают на другую сторону, говоря «我没有蓝色的». Тот, кого поймал ведущий, занимает его место.

3. «Сломанный телефон». Учитель или руководитель шепчет загаданное слово первому игроку, тот, в свою очередь, передает его следующему и т. д. Последний участник игры называет его вслух, и если оно совпадает с заданным словом, то телефон «стационарный».

При всем многообразии методов преподаватель сам выбирает наиболее приемлемые в конкретной ситуации методы, исходя из личного опыта, подготовленности студентов и самого преподавателя к решению сложной задачи развития языковой компетенции.

---

[514] Масловец О.А. Методика обучения китайскому языку в школе. – М., 2012.
[515] Карапетянц А.М., Тан А. Учебник китайского языка. – М., 2003.

**Н.Мамажонов доцент, К.Мадаминов 4-курс талабаси, ФарДУ**

## ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ФАКУЛЪТЕТИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИНИ АЙРИМ ФУНКЦИОНАЛ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ҳаракат фаоллиги етакчи аҳамиятга эга. Шу сабабли ҳафталик жисмоний юкламаларида кескин фарқ қиладиган жисмоний маданият факультети билан табиатшунослик ва география факультетининг 1-босқич талабаларини жисмоний ривожланиш кўрсаткичлари ўрганилди. Кузатиш ишлари ўқув йилининг иккинчи семестри охирларида (май-июн) ойларида ўтказилди. Жисмоний ривожланишнинг функционал белгилари сифатида ўпканинг тириклик сиғими, қўл диномометрияси ва тинч ҳолатда бир минутда юрак уришлар сони кўрсаткичлари ўрганилди.

Жисмоний маданият факультети талабаларида ўпканинг тириклик сиғимининг ўртача кўрсаткичи 4016,0±94,1мл.ни ташкил қилди. Табиатшунослик ва география факультети талабаларининг ўртача кўрсаткичи 3472,0 ±79,7 мл.ни ташкил қилди. Ўртача кўрсаткичлар орасидаги фарқ 544,0мл.га тенг бўлди. Бу фарқ статистик жиҳатдан муқаррар (P<0,01).

Спортчи талабаларнинг бир минутда юрак урушлар сонининг ўртача кўрсаткичи 68,8±1,6 та чиқди. Табиатшунослик ва география факультети талабаларининг бир минутда юрак уришлар сонининг ўртача кўрсаткичи 81,6±1,7 тага тенг. Ўртача кўрсаткичлар ўзаро таққосланганда жисмоний маданият факультети талабаларининг бир минутдаги юрак уришлар сони назорат гуруҳига нисбатан 12,8 тага камлиги кузатилди. Бу фарқ статистик жиҳатдан миқаррар (P<0,01).

Жисмоний юкламалар таъсирида тинч ҳолатда юрак уришлар сонининг камайиши жисмоний чидамлиликнинг ортиши кўрсаткичи ҳисобланади. Юрак уришлар сонининг камайиши, организмининг қонга бўлган эҳтиёжини юракнинг систолик ҳажмини ортиши ҳисобига қондираётганлигини кўрсатади.

Талабаларнинг динамометрик кўрсаткичлари уларнинг мускул тизимини функционал ҳолатини белгилайди. Уларнинг динамометрик кўрсаткичлари сифатида қўл бармоқларини букувчи ва гавдани тикловчи мускулларни максимал қисқариш кучи ўлчанди. Жисмоний маданият факультети талабаларининг ўнг қўлини букувчи мускулларни максимал қисқариш кучининг ўртача кўрсаткичи 44,2±1,2 кг/м ни ташкил қилди. Табиатшунослик ва география факультети талабаларининг ўнг қўл кучи ўртача 33,9±1,3 кг/м га тенг. Ўртача кўрсаткичлар орасидаги фарқ 10,3 кг/м тенг бўлиб, статистик жиҳатдан муқаррар (P<0,01).

Спортчи талабаларнинг чап қўл бармоқларини букувчи мускулларни максимал қисқариш кучининг ўртача кўрсаткичи 41,6±1,6 кг.га тенг. Табиатшунослик ва география факультети талабаларининг ўртача кўрсаткичи 33,5±1,3 кг/м га тенг. Ўртача кўрсаткичлар ўзаро таққосланганда 8,1 кг/м фарқ кузатилди ва у статистик жиҳатдан муқаррар (P<0,01).

Гавдани тикловчи мускулларнинг максимал қисқариш кучи жисмоний маданият факультети талабаларида ўртача 144,9±8,0 кг/м га тенг. Назорат гуруҳи талабаларининг ўртача кўрсаткичи эса 107,3 кг/м га тенг. Ўртача кўрсаткичлар ўзаро таққосланганда 37,6 кг/м фарқ чиқди ва у статистик жиҳатдан муқаррардир (P<0,01).

Натижаларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, тизимли равишда жисмоний машғулотлар билан ҳафта давомида (14-16 соат) шуғулланиш спортчи талабаларни жисмоний ривожланиш кўрсаткичларини назорат гуруҳи талабаларига нисбатан кескин ортиб кетишини кўрсатмоқда. Табиатшунослик ва география факультети талабаларининг жисмоний тарбия машғулотлари ниҳоятда озлиги уларнинг жисмоний ривожланишига ва саломатлигини мустаҳкамлашга етарли эмаслигини кўрсатади.

**Z.I. Akbarova – Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs magistranti**

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE`LNING VAZIFA SHAKLLARI TALQINI

Bugungi kunga qadar eng katta so`z turkumi sanaluvchi fe`l so`z turkumi va uning vazifa shakllari haqida ko`plab ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqda. Aynan fe`lning vazifa shakllari deb atalishida ham tilshunos olimlar ilgari surgan nazariyada turli qarashlar va farqlar mavjud. Quyida ayrim o‘zbek tilshunos-olimlarining fikrlarini keltiramiz.

Xususan, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” darsligida shunday ta`rif keltiriladi: “Fe'lning asosiy grammatik vazifasi kesim bo‘lib kelishdir. Shu bilan birga, fe'lning ayrim shakllari kelishik, egalik affikslarini ham qabul qilib, gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida keladi. Shunga ko‘ra, bunday shakllar fe'lning funksional shakllari hisoblanadi. Harakat nomlari, sifatdosh va ravishdosh shakllari fe'lning funksional shakllarini tashkil etadi.

Fe'lning funksional shakllarida, bir tomondan, fe'lga xos belgilar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari bo‘yicha bu shakllar boshqa so‘z turkumlariga yaqin turadi. Bu jihatdan harakat nomlari otga, sifatdosh shakllari sifatga, ravishdosh shakllari ravishga yaqin turadi.

Harakat ma'nosining mavjudligi, bo‘lishsiz shaklining -ma/ -mä affiksi bilan hosil bo‘lishi, fe'l darajalari ko‘rsatkichlarining mavjudligi, zamon shakllarini hosil qilishda ishtirok etishi va shu kabilar fe'lning funksional shakllaridagi fe'llik belgilarini tashkil etadi. Kelishik, egalik affikslarini qabul qilishi va gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida ham kela olishi bu shakllarning boshqa so‘z turkumlariga grammatik va funksional yaqinligini ko‘rsatadi.”[516]

Shuningdek, R. Sayfullayeva “Hozirgi o`zbek adabiy tili” darsligida bu shakllarga “o`zgalovchi kategoriya” deb nomlanadi va shunday izoh beriladi:

“Fe'lga xos shunday grammatik shakllar borki, ular fe'lni kesimlikdan boshqa turkumga (-(a)y, -(i)b, -gach, -guncha, gancha, -ganda, -gani, -may/masdan shakllari ravishga, -gan, -ayotgan, -adigan/-ydigan sifatga, -moq, -ish, -uv otga xos vazifalarga moslaydi. Shunga ko‘ra, ular uch guruh ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllariga ajratiladi. Bu shakllar fe'lga nutqda o‘zga turkum xossalarini «yopishtirganligi» uchun bir butun holda o‘zgalovchi kategoriyasi atamasi bilan nomlanadi.

Ma'lumki, o‘zgalovchi, garchi bunga o‘zbek tili qurilishida yetarli asos va ehtiyoj bo‘lishiga qaramay, alohida kategoriya sifatida ajratilmagan. Biroq ularning tarkibiy qismlari, ichki shakllari bo‘lgan ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi ayrim manbalarda kategoriya sifatida qaraladi. Shuning uchun turkiyshunoslikda «harakat nomi kategoriyasi», «sifatdosh kategoriyasi», «ravishdosh kategoriyasi» kabi atamani uchratish mumkin. Haqiqatan ham, o‘zgalovchining turlari bo‘lgan bu «kategoriya»lar ma'lum bir umumiy ma’no (ravishdoshda «fe'lni fe'lga bog‘lash va unga ravishlik xususiyatini berish», sifatdoshda «fe'lni otga bog‘lash va unga sifatlik xususiyatini berish», harakat nomida «fe'lga otlik sintaktik va semantik xususiyatlarini berish») va ularning parchalanishini ko‘ramiz. Chunki an'anada grammatik kategoriya «ikki yoki undan ortiq, o‘zaro zidlanuvchi, bir-birini taqozo va o‘z o‘rnida, inkor qiluvchi, bir grammatik ma'no tagida birlashadigan grammatik shakllar tizimi» sifatida ta'riflab kelindi. Bu ta'rifga muvofiq, boshqa kategoriyalar shakllari kabi harakat nomining kamida uchta (-moq, -ish, -uv), sifatdoshning ba’zan uch, ba’zan besh (-gan, -ayotgan, -adigan, -uvchi, -ar), ravishdoshning oltita (-ib, -a/y, -gach, -guncha, -gani, -gach) shakli ajratiladi. Xo‘sh, bular, haqiqatan ham, tom ma'noda harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllarimi? Buning uchun ular faqat shu turlarga xos UGMni xususiylashtirish, juz’iylashtirish lozim. Masalan, harakat nomi shakllari alohida ko‘rinishlarda uning «ot turkumiga xos bo‘lgan sintaktik va ma'noviy vazifalarni bajarish» UGMsini xususiylashtirganda edi, uni alohida kategoriya sifatida ajratish mumkin bo‘lar edi. Agar ravishdosh, sifatdosh, harakat nomining ma'noviy va vazifaviy jihatlari o‘zlari mansub kategoriyalar (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi)ning umumiy ma'nosi va sintaktik imkoniyatiga mansub xususiylashma bo‘lmasa, shu bilan birgalikda, o‘z mohiyatiga xos xususiyat bilan emas, balki boshqa, kategoriya ma'nolari tajallisi asosida bir-biridan farqlansa, unda ularning alohida kategoriya ekanligi xususida so‘z yuritish maqbul emas. Chunonchi, sifatdosh shakllari bir-biridan zamon kategoriyasi ma’nosi asosida farqlansa, demak, qayd qilingan shakllar uning alohida shakli emas, balki bir sifatdoshning

---

516 Abdurahmonov G`., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: “O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2008, 172-bet.

zamon kategoriyasi ma'nolari asosida farqlanuvchi ko‘rinishi – varianti. Bunday holni ravishdosh shakllarida ham kuzatish mumkin. Chunki ravishdosh shakllarining bir-biridan zamon, tasdiq/inkor, payt, maqsad kabi qator ma'no bilan farqlanishi zamon, tasdiq/inkor, mayl kategoriyalari ma'nosining tajallilanishi evaziga sodir bo‘ladi. Bunday holni boshqa kategoriyalarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, (yozay), (yozgin), (yozsin) kabi so‘zshakllardagi grammatik ko‘rsatkich buyruq-istak maylining turli shakllarimi yoki bir shaklning shaxs-son kategoriyasi ma'nosi bilan farqlanuvchi variantlarimi, degan savolga javob aniq. Demak, ayonki, garchi buyruq-istak mayli shakllari qatorida olti va undan ko‘p shakl, aniqrog‘i, ko‘rinish mavjud bo‘lsa ham, ularning har biri mayl umumiy ma’nosini xususiylashtirishga emas, balki uni shaxs-son kategoriyasi ma'nosi bilan murakkablashtirgan holda voqelantirishga xizmat qilayotganligi uchun, aniqrog‘i, shakllar bu mayl uchun substansial bo‘lmagan ma'no asosida farqlanayotganligi uchun buyruq-istak mayli alohida kategoriya sifatida qaralmaydi.[517]

**И. Дехканов - учитель французского языка ФерГУ**

## РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕТ
## (Французские и русские соответствие)

### Ты/Вы – формы общения

Национальный речевой этикет – очень сложный комплекс форм, разрешающий в определенных ситуациях одни формами и исключающий другие. Установление контакт с собеседником предполагает выбор форм ***ты*** или ***вы***. Разумеется, между русским и французским языками в случае выбора больших различий нет (имеется в виду выбор, продиктованный вохрастом, соыиальным положением, офицальным или неофициальным характером общения). В тоже время нельзя не заметить, что русские даже после непродолжительного знакомства, часто переходят на «ты».

Во французской среде обращение на «ты» менее часто; почти всегда предполагают обращение на «вы». Если в русском языке степень знакомства коммуникантов позволяет сделать их общение более тесным благодаря совместному обращению на «ты», во французском среде обращение на «ты» возможно только среди близких людей, школьников и студентов, рабочих. Однако оно совершенно, например, не свойственно недавним коллегам, которые, разумеется, обращаются друг к другу на «вы» и никогда по имени. С другой строны, со временем став друзьями, коллеги могут перейти на «ты», но в то же время продолжают обращаться друг к другу по фамилии: - Malaère, Dupont, Martinet.

Например, нет соответствия между языками:

- Александр Николаевич!  - Malaère
- Коля !  - Dupont

### Привлечение внимания

Чтобы привлечь чье-либо внимание к себе, в обоих языках достаточно обратиться со словами:

- Простите !  - Pardon !
- Извините !  - Excusez-moi !

По-французски в этой ситуации, обращаясь к незнакомому человеку, также можно сказать :

- Простите !  - Pardon !
- Извините !  - Excusez-moi !
  - Voulez-vous m’excuser ?

К каждому из этих обращений для усиления вежливого оттенка можно добавить соответственно - Monsieur, Madame, Mademoiselle:

- Простите !  - Pardon, Monsieur ! (Madame, Mademoiselle!)

Кроме того, следует учесть, что - Pardon ! более нейтрально, чем два последующих обращения - Excusez-moi ! и - Voulez-vous m’excuser ?, из которых наиболее вежливая форма - Voulez-vous

[517] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent-2014. 199-200- betlar.

m’excuser. При общении во франкоязычной среде с целью привлечения внимания можно услышать просторечные:

- Извиняюсь, дамочка ! - Mande pardon, madame !
- Я очень извиняюсь ! - Faites excuse !

Которые иностранцам употреблять не рекомендуется.

Следующая степень вежливости при акцентировании внимания:

- Извините, что беспо кою (Вас). - Excusez-moi de vous déranger.
- Извините за беспокойство. - Excusez-moi du dérangement.

Вежливой формой вопроса к незнакомому человеку является нейтральное:

- Скажите, пожалуйста… - Pouvez-vous me dire ...

Такая форма вопроса дает также возможность спросить, где находится нужное (вам) место или учреждение, можно ли и как туда проехать (пройти).

- Простите, не могли бы вы сказать, - Pardon, pourriez-vous me dire où
где находиться . . . se trouve . . .
(когда открывается) и т.д. (quand ouvre . . .) si … etc

Добавление общепринятых форм обращений

- Monsieur! Madame! Mademoiselle! подчеркнет более вежливый тон, в котором задан вопрос:
- Простите, Мадам, не могли бы - Pardon, Madame, ne pourriez-vous вы сказать . . . pas me dire . . .

Обращаясь к постороннему и задавая вопросы:

- Простите, вы не знаете…? - Pardon, vous ne savez pas ...(si. où...) ?
- Извините вы не скажете...? - Pouvez-vous me dire …?

а также:

- Извините не могли бы вы - Excusez-moi, ne pourriez-vous me
сказать…? dire…?
- Вы не скажете, где (такая-то) улица …? - Connaissez-vous la rue … ?

спрашивающий не только намерен получить необходимую информацию, но и проявляет ту или иную степень воспитанности: более высокую во фразах

- Pouvez-vous me dire …? и - Excusez-moi, ne pourriez-vous me dire…?, менее высокую – фразой, где отсутствует инверсия глагола в вопросительной форме - Pardon, vous ne savez pas ...(si. où...). Следовательно, иносранец должен обращаться к тем или иным людям избирательно, учитывая разный уровень их образования.

При желании получить более любезный ответ, можно употребить такие формы, как:

- Будьте добры … - Soyez gentil(le), ayez l’obligeance de + *infinitif*
- Будьте любезни … - Ayez l’amabilité de + *infinitif* ...

Несколько более официально выглядит вопрос:

- Не будете ли вы так любезны сказать ? - Vous seriez aimable de me dire?

У каждого народа есть свои порядок речевого этикета которые стали нормой ежедневной жизни.

Литература:

1. В.Г. Гак. Прагматика, узус и грамматика речи. Москва.ИЯ.Ш. 2001.
2. О.А. Агаркова. Прагматические аспекты комплимента как формы речевого этикета. Оренбург. 2013.

**K.T. Israilova - Farg‘ona davlat universiteti matbuot kotibi**

## INTERNET, IJTIMOIY TARMOQLAR TILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jahon tilshunosligida matnlarni sohalar, yo‘nalishlar, tarmoqlar tili bilan bog‘liq holda bir semantik maydon doirasida tadqiq etishga yo‘naltirilgan lisoniy tahlillar keng ommalashmoqda. Zamon shiddat bilan yangilanib borgani sari hayotimizga kirib kelayotgan har bir yangi sohaning o‘z lug‘ati, tili, nutq uslubi, matn tarkibi, umumiy semantikasi ham taraqqiy qilishi tabiiy holdir. Shu boisdan ham umumiy tilshunoslikka medialingvistika, siyosiylingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi yangi yo‘nalishlar kirib kelyapti va tildagi yangi paradigma tarmoqlararo ham tadqiq etilmoqda. Shu nuqtai nazardan turli maqsadlar doirasida qo‘llanilayotgan matnlarning umumiy va alohida o‘ziga xoslik jihatlari, mazmun-mohiyati, ahamiyatini o‘rganish, yangi tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish tilshunoslik uchun nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida jamiyat va til o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi sotsiolingvistika yo‘nalishining bugungi kunda jadal rivojlanayotganligi har bir jamiyat a’zosining til va ijtimoiy sinf tuzilishi, ijtimoiy holati tilda yaqqol aks etishi bilan belgilanadi. Tilshunoslikda jamiyat vakillarining ijtimoiy fikrini u bayon qilayotgan til, matn orqali o‘rganishlar natijasida matnning o‘zaro ta’siri tamoyillari va qo‘llash qoidalari, yozma muloqot nazariyati bilan bog‘liq ilmiy nazariyalar yaratildi, keng jamoatchilik foydalanayotgan matnlarning til xususiyatlarini yaratish amaliyoti shakllandi. Ijtimoiy fikr o‘rganishning keng obyekti sifatida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mezonlari, maqsadlari, farqli va umumiy xususiyatlari vujudga keldi.

Demak, til birliklariga sotsilingvistik aspektda yondashganda ularning mohiyati to‘laroq ochilishi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanilayotgan matnlarning til xususiyatlarini aynan shu tarmoqlar foydalanuvchilari tilini o‘rganish asosida tadqiq etish tilshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyat tilining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tarmoqlarda foydalaniladigan matnlarning istiqboli bilan bog‘liq muammolarni aynan sotsiolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish tilimizning jahon tillari orasidagi munosib o‘rnini belgilashda o‘ziga hos mohiyat kasb etadi. Chunki «Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar» . Shuni alohida qayd etish joizki, har bir xalqning tilidagi joziba, ijtimoiy holat va milliy qiyofa u ifoda etayotgan nutq birliklari, asosan matnlarda aks etadi. Mazkur nutqiy bo‘laklar ijtimoiy tarmoqlar vositasida butun jahonga axborot tashiydi. Shuningdek, ular axborot tashishdan tashqari matn muallifining jamoatchilik fikriga munosabati, u yashayotgan zamon va makonning ma’naviy va ijtimoiy muhiti va xalqning taraqqiyot darajasini belgilab beradi.

Shu ma’noda, ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanilayotgan matnlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki siyosiy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4479-sonli «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi kunda geografik o‘rni, zamon va makonidan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlovchi global informatsiya infratuzilmasini tashkil etuvchi butunjahon kompyuter tizimi bo‘lgan - internet hayotimizning bir qismiga aylagan holda, insonlar orasidagi universal aloqa vositasi bo‘lib qolmoqda. Ushbu vosita o‘z qonunlariga va meyorlariga ega ekanligi, lingvistik qonunlarga amal qiluvchi yirik ochiq olami – katta maydoni mavjudligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Odatda ommalashib borayotgan elektron saytlar, ijtimoiy chatlar, elektron pochtalar orqali olib borilayotgan muloqot tilining lingvistik xususiyatlariga nazar soladigan bo‘lsak, virtual maydonda so‘zlar ko‘pincha til qoidalarga muvofiq tarzda ishlatilmasligini guvohi bo‘lamiz. Bu holat hozirgi kunda asosan jamiyat muloqoti uchun eng ko‘p xizmat qilayotgan ijtimoiy tarmoqlarda ro‘y bermoqda.

Ushbu tarmoqlardagi muloqot tilini "shoshilayotgan" nutq tarzida tavsiflashimiz mumkin. Chunki ularda tinish belgilari, bosh harflar, zarur qisqartmalar, neologizmlar erkin va o‘zgacha tarzda qo‘llaniladi.

Shu bois ta’kidlash mumkinki, hayotimizda internet taraqqiyoti bilan birga muloqot maydonida yozma, og‘zaki, belgi va tasvirlarga ega yangi yo‘nalishdagi aloqa turi vujudga keldi.

Internetning muloqot tili - elektron ommaviy axborot vositalarining tili shu tarzda paydo bo‘ldi va o‘zining yangi shakllariga ega bo‘la boshladi.

**M.O. Karimova– Fargona davlat universiteti dotsenti**
**M.B. Nasirova – Farg‘ona davlat universiteti II – bosqich magistranti**

## O‘QUV JARAYONIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

O‘quv jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish xususiyatlaridan biri kreativlikdir. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir.

Kreativlik, yoki boshqacha qilib aytsak, ijodkorlik deganda insonga, shaxsga xos fazilat yoki qobiliyat tushuniladi. V.V.Morozning fikriga ko‘ra, kreativlik - bu kashfiyotlar va yangiliklarning asosi bo‘lib, u ikkita sifat bilan ajralib turadi: yangilik va foydalilik[518].

Zamonaviy ta’lim tizimi bo‘lajak mutaxassislarni kreativ yondashuvlar asosida ijodiy, kasbiy layoqatini tarbiyalash mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. SHu jihatdan ta’lim sohasida mutaxassislarning tarbiyalash innovatsiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida kognitiv fikrlash qobiliyatini tarbiyalash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning intellektual resurslarini yaratish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda har bir shaxs dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etishi, yer yuzasidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g‘oyasi, maslak-muddaolarini bilish uchun ham tanqidiy fikr yurita olishi davr talabi bo‘lmoqda. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishishi uchun har bir inson tanqidiy fikrlay olishi zarur.

Tadqiqotchilik asosida faoliyat olib borishning ahamiyati jamoa asosida, axborotlarni qabul qilish, ularga o‘z munosabatini bildirish, xatolik va nomuvofiqlarini izlash, o‘z mulohazalarida xatolikka yo‘l qo‘ymaslikka intilish, tushunmovchiliklarini anglash, fikrlash, aniq hulosalar chiqarishga yo‘llashdan iborat. Ta’limning bugungi vazifasi esa talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan ongli tafakkur orqali oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Talabalarning ijodiy faoliyati bu yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turidan biridir. Unga ob’ektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish tushuniladi. Ijodiy faoliyat g‘oya va imkoniyatlarni, yangi bilimlarni ishlab chiqish bilan uyg‘unlashuvi, kontseptsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir.

---

[518] Мороз В. В. Развитие креативности студентов: монография. - Оренбургский гос. ун-т. - Оренбург: ОГУ, 2011. - 183 с

Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro‘y beradigan jarayon ham hisoblanadi. Har bir ta’limot o‘zining nazariy hamda amaliy asoslariga ega bo‘ladi. Ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalar borasidagi ilk g‘oyalar ilgari surilgan davrlardayoq uning nazariy asoslari bilan birga uni amaliyotga tatbiq qilishning umumiy asoslari ham yaratila boshlangan.

Ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalar nazariy va amaliy asoslarini uning maqsadi, ob’ekti, asosiy tushunchalari, mezonlari va shu kabilar tashkil etadi. Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalar umumiy mohiyati xususida so‘z yuritish uchun, avvalo, ushbu tushunchaning tub ma’nosini anglash talab etiladi.

Bugungi kunda tanqidiy rivojlantiruvchi strategiyalar tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud bo‘lib, shu sababli har bir o‘qituvchi o‘rgangan adabiyotlar va amaliy tajribasi asosida o‘zi uchun eng maqbul deb hisoblangan ta’rifni qabul qilishi yoki ulardan kelib chiqqan holda o‘z ta’rifini shakllantirishi mumkin O‘qitish jarayonida ijodiy faolligini rivojlantiruvchi strategiyalardan foydalanishda talabalar tanqidiy fikrlashini o‘rganishda zamonaviy didaktika o‘qish jarayonida ular izlanuvchilik bilan shug‘ullanuvchi ta’lim psixologiyasi yutuqlaridan keng foydalanadi.

O‘quv materiali yosh va mazmunga bog‘liq holda bu faoliyatning o‘ziga xosligi ta’lim jarayonida psixologik qonuniyatlarni o‘rnatadi, ijodiy faollik jarayonida talabalarning individual va tipik xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. O‘zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek, qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak kasb egasining birgalikdagi (guruhiy) faoliyati, hamkorligi, shuningdek, professonal muloqotning shu kasbga doir qabul qilingan usullari hamda o‘z mehnati natijalari uchun ijtimoiy javobgarligi ijtimoiy bilimdonlik sanalib, iqtisodiy ta’lim jarayonida uning shakllantirilishida keys usulining roli o‘zgacha.

Bu usul bo‘lajak kasb egasiga vaziyat, asosiy muammolar va uni yechish yo‘llari haqida guruhiy qarashlarni o‘zlashtirishga, qabul qilayotgan eng maqbul qarorlari yuzasidan javobgarlikni his etishga hamda o‘z aqliy sohasini faollashtirishga yordam beradi. Shuningdek, fanda shaxsiy o‘zligini ifodalash va o‘zini-o‘zi rivojlantirish usullari hamda uning kasbiy “buzilishi (deformatsiyasi)”ga qarshi tura olish vositalarini egallashi shaxsiy bilimdonlik, deb e’tirof etilib, uning shakllanishida o‘quv filmlarining ahamiyati beqiyos.

Bu usul yordamida bo‘lajak kasb egasining o‘zini-o‘zi idrok qilish, o‘zining yaxshi va yomon sifatlarini to‘g‘ri baholash, o‘zining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri amallarini ichki nazorat qila olish xususiyatlari shakllantiriladi. Bunday bilimdonlikka egalik iqtisodchi-pedagogda “kasbiy o‘zini-o‘zi anglash” jarayonini tezlashtirib, “professional mentalitet” mohiyatini ochib beradi.

**M.O. Karimova – Fargona davlat universiteti dotsenti**
**D.U. Yakubova – Farg‘ona davlat universiteti II – bosqich magistranti**

## TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

“Mustaqil ta’lim” tushunchasi pedagogik lug‘atlarda o‘quv yurtidan tashqari, mustaqil o‘rganish tufayli egallanadigan ta’lim turidir, deb ta’riflangan. Ayni vaqtda “mustaqil ta’lim olish”, “o‘zini tarbiyalash”, “mustaqil o‘qish” tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda Talabalarning mustaqil ishlari yoki mashq qilishlari pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan, didaktik qonun-qoidalariga binoan tuzilgan tizim bo‘lib, texnologik jihatdan ma’lum ketma-ketlikda ko‘zlangan bilim va ish-harakat usullarini egallashni nazarda tutadi.

Zamonaviy mutaxassisning o‘z bilimi va hayotiy tajribalarini oshirib borishi unda shaxsiy xislatlarning shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Ana shunday xislatlarni shakllantirishda mustaqil ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad auditoriya mashg‘ulotlarida o‘zlashtirilgan bilim va malakalarni mustahkamlash, yangilarini o‘zlashtirish va ijodiy ishlash malakasini tarkib toptirishdan iboratdir.

Talabalar mustaqil ishlarining asosiy vazifasi mustaqil ravishda ma’lumotlar topish usuli bilan bilim olishni rivojlantirish o‘quv jarayoniga ijodiy yondashishga faol qiziqishni shakllantirishdan iborat. Talabalar mustaqil ravishda kurs ishlari, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik

dissertatsiyalarini tayyorlayotganlarida qo‘yilgan muammolarni chuqur tahlil kilib, o‘zlarining mustaqil asoslangan fikr va xulosalarini chiqarishlari kerak.

Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg‘ulot turi mustaqil ta’lim bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil ta’limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so‘ngi faoliyati faolligini ta’min etishga yo‘naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas’uliyatni his qilishni ta’min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat. Mustaqil ta’lim ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi asosida amalga oshadi.

O‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirish, ta’lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o‘quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs-munozaralarda faol qatnashish, o‘z fikr- mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba - bo‘lajak mutaxassis olida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi [519].

Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini to‘g‘ri shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlovchi shartlardan biridir. Shuning uchun ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish, ta’lim samaradoriligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, lekin xozirgacha to‘liq foydalanilmay kelayotgan imkoniyatlarni aniqlash, o‘qitishning dolzarb vazifalaridan xisoblanadi.

O‘quv faoliyatini tashkil etish, shakllantirish va rivojlantirishning turli jihatlari taniqli pedagog va psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘**z** aksini topgan. Mustaqil ta’lim belgilangan o‘quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor –o‘qituvchining ko‘rsatmasiga muvofiq) bajarish maqsadiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir. Mustaqil ishlar o‘quv-biluv faoliyatining bir turi, o‘quv faoliyatining tashkiliy shakl - usuli, bilim o‘zlashtirish yo‘li, vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o‘quv faoliyatining darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo‘ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakli va bajarish o‘rniga ko‘ra ham tasniflanadi, farqlanadi.

Oliy ta’lim tizimida tahsil oluvchi talabada mustaqil ta’lim olish malaka ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini rejali va sekin-asta murakkablashib, yuqorilab boradigan bosqichlar (darajalar) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlariga zinapoyalar orqali ketma-ket, izchil chiqib borilgani singari sodir bo‘ladi.

Talabaning mustaqil ta’lim olishi bosqichli (darajali) tashkil etilganda, masalan, quyi kurslarda – birinchi bosqichda mustaqil ishlar reproduktiv darajada, ya’ni professor-o‘qituvchining topshirig‘i va ko‘rsatmasiga binoan bajariladi; ikkinchi bosqichda – yuqoriroq – mahsuldor darajada, masalan, tanlangan mavzu bo‘yicha dars ishlanmasi loyihasini tayyorlash kabi mustaqil ishlar shaklida; uchinchi bosqichda – yana yuqoriroq – mahsuldor, evristik darajada, qisman ijodiy izlanishni talab etadigan mustaqil ishlar darajasida; va nihoyat to‘rtinchi – eng yuqori ijodiy xarakterdagi mustaqil ishlar darajasida tashkil etilishi mumkin.

Talabalar mustaqil ta’lim olishlari jarayonida qo‘shimcha adabiyotlarga murojaat qiladi, o‘tilgan mavzularni qayta ko‘rib chiqadi. Ko‘pgina talabalar uyga berilgan ma’ruza matnlari ustida ishlaydilar, ma’ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy-ommabop, davriy nashrlardan foydalanadilar. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda talaba bo‘lajak kasbiy faoliyat muammolarini hal etish usullarini egallaydi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda didaktikada mustaqil ta’lim darajasini oshiruvchi boshqaruv, rag‘batlantirish, tashkil etish va nazorat vositalari sifatida qaraladi.

Mustaqil ta’lim olishning turli shakllari mavjud: Bunda o‘quv metodik adabiyotlarni berilgan metodik ko‘rsatmalar bilan chegaralanib qolmasdan mustaqil ta’limni tashkil qilishning samarali usullarini izlab topish uchun ijodiy yondashmoq kerak.

---

[519]Абдукудусов О. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашга интегратив ёндашув. - Т.: Фан, 2005. Б – 87.

**I.M.Tuxtarova – ФерГУ**

## ИСПОЛЬЗОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НА ЗАНЯТИЯХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Каждый, кто изучает иностранный язык, должен в первую очередь овладеть лексикой данного языка, т.е. словарным запасом, необходимым для общения на иностранном языке. Основное внимание следует уделить тому, чтобы обогатить их речь новыми словами и выражениями, подготовить к коммуникативной деятельности, научить речевым навыкам, добиться правильности, ясности и логичности в речи. Этому способствует чтение художественных текстов. В процессе обучения иностранным языкам чтение выполняет две функции:

1) чтение является целью обучения, т.е. является видом речевой деятельности (средство извлечения информации);

2) чтение — это средство обучения другим видам речевой деятельности. Но чтобы стать средством, чтение должно стать целью, ибо всяким средством необходимо владеть хорошо[520].

Основная цель обучения чтению на занятиях иностранного языка в вузе – формирование у студентов навыков чтения - вслух и про себя, а также пересказа, анализа различных текстов, отрывков из произведений, заучивания стихотворных произведений и т.д.

В учебниках английского языка, используемых в вузах, присутствует разнообразная культурологическая информация. Есть уроки, посвященные современной литературе Великобритании и США. Студентам предлагается список книг, рекомендованных для чтения. Однако, поэзия совсем не представлена, и это отражает снижение интереса к поэзии. Обычно изучаются поэтические произведения прошлых веков. Преподавателям английского языка следует помнить, что поэзия занимает большое место в системе мировоззренческих и эстетических ценностей носителей языка. Знание всевозможных поэтических произведений глубоко входит в сознание языкового сообщества и, следовательно, отражается в языке, его лексическом составе, присутствует в устной и письменной речи носителей языка в самых разных ситуациях общения[521].

Отбор художественных текстов для обучения иностранному языку представляет собой многоступенчатый процесс, и он решающим образом зависит от того, на основании каких критериев оценивают преподаватели. Например, некоторые преподаватели считают литературой только произведения великих авторов прошлого, другие же оценивают произведения в зависимости от идейного содержания. Третьи выбирают из произведения отрывки, соответствующие той или иной изучаемой теме. Важными критериями отбора являются соответствие лексической сложности текста уровню языковой подготовки студентов.

Работу с художественным текстом можно разделить на предтекстовую, притекстовую и послетекстовую. Г***лавная цель предтекстовой работы*** – сделать так, чтобы читателю захотелось прочитать предлагаемый текст. Для того нужно заинтересовать потенциального читателя личностью автора. Не стоит предлагать студентам выполнить языковые задания, так как практически со всеми лексическими трудностями можно справиться в процессе чтения (т.е. на притекстовом этапе).

Целью ***притекстовой работы*** является самостоятельное смысловое восприятие читателем художественного текста. Если при чтении студент сталкивается с какой-либо трудностью (языковой, смысловой, образной), он старается преодолеть ее с помощью языковой догадки. Текст

---

[520] *Платаева Е.В.* Из опыта работы по обучению чтению на уроках английского языка. [Электронный ресурс]. Режим доступа: festival.1september.ru/articles/313980/ (дата обращения: 15.11.2018)

[521] *Степанова С.Ю.* Цель и методика применения стихотворных произведений на занятиях английского языка в вузе.// Педагогика искусства, 2012. № 3. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.arteducation.ru/sites/default/files/journal_pdf/stepanova_21_10_2012.pdf/ (дата обращения: 24.01.2019).

небольшого объёма (например, короткое стихотворение) может быть предъявлен обучаемым прямо в аудитории. Рассказ целесообразно предложить студентам прочитать дома либо без словаря, либо, напротив, попытаться справиться с трудностями традиционным способом (проверить по словарю). Не обязательно сразу читать весь текст целиком, можно предъявлять учащимся текст по фрагментам. В этом случае после чтения фрагмента происходит его обсуждение.

Послетекстовая работа может быть проведена либо аудиторная, либо домашняя. На этом этапе обучаемым предлагаются задания обобщающего характера, чтобы они могли высказать своё понимание прочитанного, собственное мнение о тексте и др. На этом этапе возможно использование учебного и профессионального перевода, любых форм наглядности и других приемов и средств.

В заключение хотелось бы подчеркнуть, что в настоящее время обучение английскому языку является важной частью учебной программы не только в школах, но и в колледжах, лицеях и вузах. Для того, чтобы при изучении английского языка студенты приобрели компетенции, достаточные для свободного общения на иностранном языке в более широких контекстах, необходимо обогатить учебную программу изучением художественных текстов. При этом особое внимание следует уделить отбору этих текстов и отрывков литературных произведений, различным методам и средствам работы с ними.

**Д.Х. Қўлдашева - Фарғона давлат университети таянч докторанти**

## ЛИНГВОПОЭТИКА ВА УНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШИ

Истиқлол йилларида ўзбек тилининг қўлланиш доираси амалда ниҳоятда кенгайгани, уни илмий асосда ривожлантиришга қаратилган тадқиқотлар, тилимизнинг ўзига хос хусусиятларига бағишланган илмий ва оммабоп китоблар, ўқув қўлланмалари, янги-янги луғатлар кўплаб чоп этилаётганлиги жамият тафаккурини ривожлантиришга ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ ўзбек тилшунослиги соҳасида миллий ғоя ва миллий қадриятларни тиклашга жиддий эътибор қаратилди. Айтиш керакки, халқнинг миллий маданияти ва ўзига хослигини ифода этувчи восита бўлмиш ўзбек тилини ривожлантириш, бу тилнинг давлат мақомини изчил ва тўлиқ рўёбга чиқариш алоҳида аҳамиятлидир. Шу асосда олиб қараганда, сўнгги йилларда ўзбек тили масалаларини илмий асосда тадқиқ этишнинг қатор йўналишлари ривожланди. Айниқса, бадиий адабиёт тили ва унинг таҳлили масалаларига бағишланган қатор асарларнинг юзага келганлиги буни яққол таъкидлайди. Бу эса муҳим илмий йўналишлардан бири бўлган лингвопоэтиканинг ривожини белгилайди.

Лингвопоэтиканинг шаклланиши саксонинчи йилларда яратилган нутқ ва уни юзага келтирувчи омилларни тадқиқ этувчи жиддий асарларнинг майдонга келиши билан боғланади. Бу асарларда бадиий тил, бадиий нутқ ва уни ўрганадиган лингвистик поэтика йўналиши ўртасидаги муносабатлар ёритиб берилди, лингвистик поэтиканинг ўрганиш объекти, мундарижаси ойдинлашди. Ўзбек тилшунослигида ҳам муайян бир ижодкорнинг тилдан фойдаланиш маҳорати, ёзувчининг у ёки бу тил сатҳи бирликларини қўллашдаги ўзига хосликларини аниқлашга бағишланган, умуман, лингвопоэтик аспектдаги кўплаб тадқиқотлар мавжуд.[522]

[522]Мирзаев И. Шеърий матнни лингвопоэтик талқин қилиш муаммолари. –Тошкент, 1992; Сабирдинов А. Ойбек шеъриятида сўз ва образ. –Т., 2010; Бойниёзов А. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти. –Т.,1995; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати. –Т., 2000; Хўжамқулов У. Миртемир лирикасида сўз ва образ. –Т., 2004; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90 йиллар бошларида ўзбек шеъриятининг линвопоэтик тадқиқи. –Т., 2004; Имомова Г. Миллийлик ва бадиий нутқ. –Т., 2004; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. –Т., 2004; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. –Т., 2004; Қодиров П. Тил ва эл. –Т., 2005. Йўлдошев Б., Шодиев З. “Уфқ” трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. –Т., 2006; Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. –Т., 2006; Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. –Т., 2006; Йўлдошев Б., Халилов Қ. Шоир Эркин Воҳидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида–Т., 2007; Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари. –Т., 2008; Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили. –Т., 2008; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. –Т., 2009.

Шеър поэтик нутқ талаблари жиҳатдан маълум бир тартибга солинган, ҳаётга муносабатни ҳис-туйғулар воситасида ифодалайдиган, ўқувчига эстетик таъсир этадиган, муайян ритмик қурилишга эга бўлган ижод маҳсулидир. Иқбол Мирзо шеърий асарларида поэтик нутқнинг ёрқин ифодасини кузатиш мумкин. Шунга кўра мазкур тадқиқотнинг асосий масалалари ва фаразлари қуйидагилардан иборат:

1. Антонимия, синонимия ва омонимия ҳодисалари шеърнинг тил имкониятларини кенгайтириш билан бирга бадиий нутқнинг лексик қимматини белгилаб беради. Унинг поэтик нутқдаги ўрни қайтариқлардан сақлаш, зидлаш муносабати орқали шеърнинг таъсир кучини ошириш, унинг бадиий қимматини юксалтиришга хизмат қилишдир.

2. Шеъриятда тарихий сўзлар ва халқ тили элементларини ўз ўрнида қўллаш шоирнинг бадиий маҳорати ва услубий ўзига хослигини ифода этади. Бадиий матнда одатий боғланишларнинг мос қўлланилиши ҳамда ноодатий боғланишларнинг кашф этилиб, бадиий нутққа олиб кирилиши алоҳида ҳиссий-эмоционалликни юзага келтиради ҳамда таъсирчанликни оширади.

3. Муболаға, талмеҳ, тазмин сингари бадиий санъатларнинг замонавий шеъриятда фаол қўлланилиши унинг мазмун ва маъно умрзоқлигини таъминлайди. Сўз такрорига асосланган стилистик фигуралар- анафора, эпифора ва инфораларда таъкидлаш ва бўрттириш кучли ифодаланади ва улардан ўз ўрнида унумли фойдаланиш шоирнинг маҳоратидан дарак беради.

Кейинги йилларда И.К.Мирзаевнинг “Шеърий матнни лингвопоэтик талқин қилиш муаммолари”, А.Сабирдиновнинг “Ойбек шеъриятида сўз ва образ”, А.Бойниёзовнинг “Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти”, М.Йўлдошевнинг “Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати”, Р.Нормуродовнинг “Шукур Холмирзаевнинг бадиий тил маҳорати”, У.Хўжамқуловнинг “Миртемир лирикасида сўз ва образ”, Г.Муҳаммаджонованинг “80-йиллар охири 90-йиллар бошларида ўзбек шеъриятининг линвопоэтик тадқиқи”, Г.Имомованинг “Миллийлик ва бадиий нутқ”, С.Боймирзаеванинг “Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи”, О.Мамазияевнинг “Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация”, П.Қодировнинг “Тил ва эл”, Б.Йўлдошев, З.Шодиевнинг “Уфқ” трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари”, Б.Йўлдошев, Т.Қурбоновнинг “Бадиий асар тили ва услуби масалалари”, Т.Қурбоновнинг “Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари”, Б.Йўлдошев, Қ.Халиловнинг “Шоир Эркин Воҳидовнинг фразеологизм қўллаш маҳорати ҳақида”, А.Ҳайдаровнинг “Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари”, Н.Тўлpraнованинг “Ҳозирги ўзбек шеъриятида бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили”, М.Юлдашевнинг “Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи” сингари илмий тадқиқотлар яратилди.

Жумладан, Л.Абдуллаева ўзининг монографиясида[523] ўзбек бадиий адабиёти тилининг лексик стилистикаси муаммолари ҳақида фикр юритган. Э.Қиличев эса «Бадиий тасвирнинг лексик воситалари» деб номланган китобида бадиий тасвирда иштирок этадиган лексик воситалар, уларнинг ифода имкониятлари билан боғлиқ масалалар устида тўхталган. Б.Умурқуловнинг «Поэтик нутқ лексикаси» номли монографиясида ҳозирги ўзбек шеърияти тилининг лексик манбалари, поэтик лексика, анъанавий поэтизмлар, сўз вариантлари ва уларнинг эстетик қиммати каби масалалар тадқиқ этилган. Бадиий матнни лингвопоэтик тадқиқ қилишнинг назарий масалалари, айниқса, М. Юлдашевнинг монографиясида[524] атрофлича ёритиб берилган. Унда матн таърифи, асосий бирликлари, лингвопоэтиканинг пайдо бўлиши ва тараққиёти, интертекстуаллик муаммоси каби масалалар ўртага ташланади. Шу билан бирга олим бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили тамойилларини ҳам белгилайди.

Таъкидлаш керакки, филологиянинг мазкур йўналиши тадрижий ривожланишда эканлиги ўзбек тилшунослигида бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқига тадқиқига бағишланган илмий ишларнинг ортиб бораётгани бунинг исботидир.

---

[523] Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Тошкент: Фан, 1979.
[524] Юлдашев М.Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: фил.фан.док.дисс.автореф.-Тошкент, 2009.

**М.Юлдашев - Фарғона давлат университети катта ўқитувчи**
**А.Вахобова - Фарғона давлат университети 3-босқич талабаси**

# ИНСОН ИШ ҚОБИЛИЯТИНИ ОШИРИШДА ВА САЛОМАТЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАРНИНГ ЎРНИ

Инсон организмининг ривожланишида ҳаракат, мускул фаолияти, жисмоний меҳнат (иш) муҳим ўрин тутади, чунки унинг ҳаёт кечириши, турмуш тарзи бевосита фаол ҳаракатни тақозо қилади. Бундай боғлиқлик инсон пайдо бўлганидан бери ҳаёт кечиришнинг ажралмас қисми бўлиб, эволюцион йўл билан ривожланган ва мустаҳкамланган. Шу сабабли ҳаракат қилиш фақат яшаш учун керак бўлиб қолмасдан (ҳаёт кечиришда овқат топиб ейиш, ўзини ҳимоя қилиш, ҳар хил тўсиқлардан ўтиш, ноқулай вазиятлардан чиқиб кетиш ва бошқалар), барча ташқи ва ички аъзоларнинг меъёрий ишлаши учун заруратга айланган.

Кам ҳаракатлилик одам организмидаги барча аъзоларнинг меъёрида ишлашини бузилишига олиб келади, чунки инсонлар асосан серҳаракат шароитда ўз функцияларини тўлиқ бажарадилар. Шунинг учун ҳам жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланиш кундалик турмуш тарзининг ажралмас қисмига айланиши тақозо қилинади. Бошқача қилиб айтганда, бундай турмуш тарзи жараёнида одам танасидаги барча органлар ва тизимларнинг ҳаракатга нисбатан бўлган табиий талабини қўшимча равишда юзага келтириладиган серҳаракатчанлик ёки жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари билан шуғулланиш орқали инсон организимининг талаби қондирилади.

Инсон соғлом-нормал ҳаёт кечириши учун соғлом турмуш тарзи қоидаларига амал қилиши катта аҳамиятга эга. Овқатланиш рациони турли-туман бўлишига, яъни витаминларга бой бўлган озиқа ейиши лозим. Инсон кун давомида 3-5 км пиёда оҳиста юриши мақсадга мувофиқдир. Бу ҳақда кўп гапирмасдан таҳлилларга эътибор берайлик, агар 2016 йилдан юртимизда мутлақо соғлом болалар кўрсаткичи 52,7 % ни ташкил этган бўса, 2021 йилда бу рақам 62,6% га етди. Агар дунёнинг ривожланган давлатларида бу кўрсаткич 70-72% ни ташкил этишини инобатга оладиган бўлсак, Ўзбекистонда бу масала бўйича қандай жиддий ўсиш суръатларига эришилаётгани яққол аён бўлади. Шу билан бирга 2021 йилда 2016 йилга нисбатан ўқувчилар ўртасида ўткир респираторли вирусли инфекция билан касалланиш 12,8%, пневмония билан касалланиш 15,5% га, Бронхит билан касалланиш 16,2% га ва сколиоз билан касалланиш 11,6% га камайди. Сўнгги йилларда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланадиган 10-14 ёшдаги болаларнинг бўйи ўртача 2,3 ва қиз болаларнинг бўйи 2 сантиметрга ўсди, вазнни эса тегишли равишда 2,9 ва 2,6 килограммга ошганини ҳам шу борадаги ижобий кўрсаткичлар сифатида қайд этиш жоиз.

Ҳозирги пайтда шу нарса илмий ва амалий равишда асосланганки, артериал қон босимининг юқори бўлиши (Гипертония), миокард инфаркти, асаб тизимининг қатор хасталиклари (нерв, неврастения, депрессия ва бошқалар), ўт ва сийдик йўлларида тош пайдо бўлиши каби касалликлар кўпинча организмнинг ҳаракатга тўймаслигидан келиб чиқади. Юқорида айтиб ўтилган касалликлар билан оғриган беморларнинг аксарият қисми ўтириб бажариладиган иш билан шуғулланувчиларда аниқланган (идора ходимлари, илмий ходимлар, пульт тизимида навбатчилик қилувчилар, раҳбарлар).

Юқорида қайд қилинган касб эгаларининг доимий равишда иш жойда бадантарбия, ишлаб чиқариш гимнастикаси билан ёки махсус спорт тўгаракларида шуғулланишлари эслатиб ўтилган хасталикларни чекланишига, саломатликнинг мустаҳкамланишига олиб келган. Шунинг учун ҳам одам организмига унинг яхши фаол ва соғлом ҳаёт олиб бориши учун овқат, ҳаво ва сув билан бир қаторда етарли даражада жисмоний ҳаракатлар қилиб туриш ҳам зарурдир.

**Ф.Абдурахимова – Фарғона давлат университети таянч докторанти**

## СЎЗ ЯСАЛИШИ ХУСУСИДА АЗИМ ҲОЖИЕВ ФИКРЛАРИ

Ўзбек тилшунослиги тарихида сўз ясалиши турли бўлимларга мансублиги ҳақидаги қарашларнинг мавжуд бўлганлигига қарамасдан, замонавий тилшуносликда сўз ясалиши алохида бўлимда ўрганилаётганлиги ўзбек тилшунослигининг тараққиёт йўли ривожланганлиги ва бу борада салмоқли ишлар амалга оширилганлигини кўрсатади.

Ўзбек тилида сўз ясалши тарихига сўз юритадиган бўлсак, уни икки босқичга ажратишимиз мумкин:

1) сўз ясалиши тилшуносликнинг морфология бўлимида ўрганилиш босқичи;
2) тилшуносликнинг алоҳида бўлими сифатида ажратилиши ва ўрганилиш босқичи;

Бу босқич ўз ўрнида иккита даврни ўз ичига олади яъни тилнинг система сифатида ўрганилишгача бўлган давр ва сўз ясалишини система сифатида ўрганилишга ўтиш даври бу ҳозирги давр ҳисобланади.

Сўз ясалишининг морфология бўлимида ўрганилиш босқичи. Бу босқичда ясама сўз ва сўз шаклининг аффикс, қўшимча билан ҳосил қилинишидир. Ўз навбатда бу жараён сўз ясалиши ва ясама сўз билан боғлиқ. Бизнингча бу даврда сўз ясалиши ва ясама сўз ҳақида етарли тушунча ва билимлар бўлмаган. Қардош тил оилалари андозаси асосида ўзбек тили грамматикаси шакллантирилган ва асосланган.

Сўз ясалишининг тилшуносликнинг алоҳида бўлими сифатида ажратилиши ва ўрганилиш боқсқичи. Бу босқич XX асрнинг иккинчи ярмида ўзбек тили система сифатида ўрганиш бошланган даврдан сўнг алоҳида эътибор касб эта бошлади. Бунинг натижасида, биринчидан, ўзбек тилида сўз ясалиши бўлими алохида сатх сифатида тан олинишни бошлади. Иккинчидан, сўз ясалишига хос асосий тушунчалар ва уларнинг моҳияти белгиланди. Масалан, ясама сўзнинг таркиби, сўз ясалиш асоси, сўз ясовчи, сўз ясалиш маъноси, сўз ясалиш имконияти каби тушунчалар ва ҳар бирининг моҳияти ҳақида фикрлар-мулоҳазалар пайдо бўла бошлади. Учинчидан, сўз ясалиши билан боғлиқ кўпгина янгича қарашлар юзага келди. Масалан, А.Ҳожиев фикрига асосан сўз ясалишининг бир неча усуллари борлиги ўрганиб келинган, аммо у биргина аффиксация усул билан сўз ясалишини исботлашга ҳаракат қилган. Ўзбек тилшунослигида сўз ясалиши бўлими алоҳида ажратилгандан сўнг жуда кўп ютуқлар ва изланишлар натижасида сўз ясалишига алоқадор кўп жабхалар очилган бўлишига қарамасдан, халигача бу бўлимни шакллантирувчи тил бирлиги борлиги исботлангани йўқ ва унинг моҳияти очиб берилгани йўқ.

Ўзбек тилини система сифатида ўрганишга алоҳида эътибор бериш XX асрнинг охирларида бошланди ва бу ўз навбатида ўзининг ижобий натижаларини берди.Умумий тилшуносликда тилни система сифатида ўрганиш анча илгари бошланганлиги туфайли, тил соҳасида ижобий натижалар ўзбек тилшунослигидан анча аввал юзага чиққан. Ўзбек тилини система сифатида ўрганиш бирмунча кейинроқ бошланган бўлиб бунинг натижасида ўзбек тилшунослигида ҳам сезиларли натижаларга эришилди. Аммо айрим соҳаларда камчиликлар ҳам мавжуддир, бунга сўз ясалиш системалари билан ходисалар мисол бўла олади. Профессор Ҳ.Неъматов ва Р.Расуловларнинг “Ўзбек тили систем лексикологияси асослари” иши тилни система сифатида ўрганишнинг дебочаси бўлган. Албатта, бу иш сўз ясалишига бағишланган эмас. Аммо, бу ишда сўз ясалиш ҳодисаси, ясама сўзнинг моҳияти, унинг лисоний бирлик ёки нутқий бирлик экани ёритиб берилган. Ҳ.Неъматов ва Р.Расуловнинг фикрича ҳам А.Ҳожиевнинг тўплаган фактларига асосан ясама сўз нутқий бирлик эмас, лисоний бирлик –лексема эканлигини тасдиқлайди. Лексема ўзи нима? А.Ҳожиевнинг таърифича “Лексема- жамият аъзолари учун тайёр, умумий, мажбурий бўлган, шакл ва мазмуннинг барқарор бирикувидан ташкил топган, воқеликдаги нарса, белги, хусусият ва муносабатларни шакллантирувчи, нутқ ва луғатда грамматика морфемаларни ўзига бириктира оладиган морфема туридир.” Лексеманинг энг асосий ҳусусияти унинг тайёрлигидир, ясама эмаслиги ҳисобланади.

Ясама сўзлар нутқ бирлигими ёки лисоний бирликми? Гарчи, ясама сўзлар жамиятда нутқ жараёнида ишлатилса ҳам бу уни нутқ бирлиги эканлигини тасдиқламайди. Масалан, лексемалар

тайёр ҳолатда бўлиши ва ясама сўзлар эса қисмларга ажралишини олайлик.[525]*Иш, пахта, тер* кабилар лексемадир, чунки улар қисмларга бўлинмайди. Ясама сўзлар таркибий қисмларга бўлинса ҳам уни ҳам лексема эканлигини инкор эта олмаймиз. Чунки улар жамият учун тайёр ва умумий ҳисобланади, нутқда тайёр холда ишлатилади, луғат таркибига киритилган. Масалан, *ишчи, пахтакор, теримчи* ва бошқа ясама сўзлар худди шундай ҳусусиятга эгадир. Бундан келиб чиқиб, ясама сўзлар- ясалган бўлишига қарамасдан лексема сингари тайёр холда бўлади. Уларни нутқий бирлик яъни нутқий жараёнда ясалади дейиш тўғри бўлмайди, чунки ҳар бир ясалган сўзнинг ўзининг маъно ҳусусияти ва ясалиш шакли мавжуд бўлади. Шунинг учун ҳам улар луғат таркибига киритилиб жамиятда фойдаланиш учун тайёр шаклда бўлади.

Шуни ҳам инобатга олиш жоизки, агар лексемалар жамият аъзолари учун тайёр, умумий бўлиши керак бўлса, ясалган янги сўзлар у қандай усулда ясалишидан қатий назар, жамият аъзолари учун тайёр ва умумий ҳолга келиши учун яъни уни иникос (тушуниш) учун маълум вақт керак бўлади. Масалан, калькалаш йўли билан ҳосил қилинган, лекин ўзбек тили сўз ясалиш тизимига кирмайдиган *масофавий таълим* сўзи, инглиз тилидан тўғридан – тўғри таржима орқали кириб келган. Вақт ўтиши билан ўзбек тилида ўз мазмун ва моҳиятига эга бўлган ҳисобланади.

Тарихий романга мос келадиган воқеани олиш ва уни романик тафаккур кенглигидаги йирик бадиий полотно кўринишида бериш учун ёзувчида ҳам катта истеъдод бўлиши лозим. Шу маънода Нурали Қобулнинг "Султоннинг сўнгги куни ёхуд Амир Соҳибқирон ва Тўхтамишхон" романида Султон Хоразмшоҳлар мамлакатининг таназзули, мўғул босқини ҳамда Амир Темурнинг Олтин Ўрда давлатини асраб қолиш учун унга Тўхтамишхонни олиб келиши билан боғлиқ воқеалар ўзаро

[552] Творчество Карла Черни – URL: https://mirznanii.com/a/316327/tvorchestvo-karlacherni
[553] Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 55 (224)

тақосланиб, бадиий ифода этилган[554]. Унда Амир Темур, Нажмиддин Кубро, Султон Жалолиддин, Алоуддин Хоразмшоҳ, Шоҳ Мансур, Тўхтамишхон, Чингизхон, Есугай, Идику каби ўнлаб тарихий шахслар иштирок этади. Лекин ёзувчи уларнинг ҳар бирига тарихий далил ва фактлар доирасида ҳаракат қилишни юклар экан уларга ўзининг бадиий-эстетик ниятини ҳам юклайди. Натижада реал тарих бадиий асарга айланади.

Шу ўринда айтиш керакки, мазкур роман турк элларининг бош миллий қаҳрамони буюк Амир Темур ва темурийлар сулоласига бағишланган кўп жилдлик тарихий эпопеянинг учинчи романи ҳисобланади. Аслида ҳам бир роман нисбий мустақилликка эга бўлиб, ўзига хос композиция, тугал мазмунга эга бўлгани учун уларни алоғида тадқиқ этиш имкони бор. Шунинг учун биз биз мазкур ролманни тадқиқот объекти қилиб олдик. Бунда Амир Темурнинг Буюк Турон тарихи, унда турли йилларда мавжуд бўлган туркий давлатлар, сулолаларнинг яратилиши ва таназзулига оид қарашлари, улардаги ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг бадиий таҳлили берилади. Ўз навбатида бу муаммо мустақил давлат ва жамият қуриб, юксалиш йўлига кирган янги Ўзбекистон учун ҳам долзарб саналади. Демак, тарихний воқеаларни, тарихий шахслар фаолиятини бадиий қайта идрок этиш ижтимоиё-маънавий эҳтиёж дейишга тўла асос бор.

Шунинг учун жаҳон адабиётида ижтимоий тараққиётни янгилаган, жаҳон ва миллий тарихда янги давлат ва жамият қуриб, тарихда буюк ишлар қилган шахслар образига мурожаатлар сўнгги пайтларда ортиб бормоқда. Айниқса, миллий ўзликни англаш, миллий давлат ва жамият қуришга киришган ҳар қандай халқ ўз тарихидаги буюк саркарда, давлат арбоби, ўз миллий қаҳрамонининг ҳаёти ва фаолиятига бадиий-эстетик нуқтаи назардан кўпроқ беради. Бундай жараён бир томондан янги давр ижтимоий-сиёсий, бадиий-эстетик концепцияларини тарихий воқелик, тарихий шахс тимсолида бадиий идрок этишни белгилаб берса, иккинчи жиҳатдан эса инсоният ўтмишдаги воқеаларга қараб келажакни талқин ва тадқиқ этади. Бу эса адабиётшуносликда тарихий асарларни илмий жиҳатдан ўрганиш қанчалик муҳим эканлигин кўрсатади. Шу маънодан келиб чиқиб айтиш керакки, ўзбек адабиёти тарихида алп Эр Тунга, Тўмарис, Широқ, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик, Амир Темур, Навоий, Бобур, Машраб каби тарихий шахслар ҳақида салмоқли асарлар яратилган. Уларда, биринчи галда, халқимизнинг шонли тарихи бадиий ифодаланиши орқали ёш авлодга ва дунёга халқ маънавий қадриятлари юксаклигини кўрсатиш очиб берилса, иккинчи ўринда ёш авлодни ватанпарвар, инсонпарвар этиб тарбиялаш кўрсатилса, учинчи ўринда эса замонавий ижтимоий муаммоларга ечим берилади. Демак, тарий воқелик, ундаги тарихий шахсларнинг фаолиятини ўрганиш ҳар бир киши учун эҳтиёжга айланади. Ана шу эҳтиёж ёзувчи ва ўқувчини реал тарихни бадиий идрок этишга ундайди. Натижада етук тарихий асар юзага келади.

**М. Кахарова – Фарғона давлат университети доценти**
**Д. Камбарова – Фарғона давлат университети докторанти**

## ДАРСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ВА ДАРС ИШЛАНМАСИНИ ЁЗИШДА АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИ ЭЪТИБОРГА ОЛИШ

Маълумки, дарсни режалаштириш ва дарс ишланмасини ёзишда қўлланилган барча методларда ўқитувчи олдига қўйидаги бешта вазифа қўйилар эди:

1. Тил ўрганувчилар нимани ўрганишлари лозим?
2. Тил ўрганувчилар ўқув мақсадларига етишлари учун нимани ўрганишлари лозим?
3. Қандай ижтимоий шакллардан фойдаланилади?( гурух, жуфтлик, якка холда ва пленумда ишлаш тушунилади)
4. Қандай ўқув ёки ахборот воситаларидан фойдаланаман?
5. Мен дарсда ўқитувчи сифатида нима қиламан?

Хорижий тилларни ўқитиш ва ўргатишда коммуникатив методикадан фойдаланар эканмиз, бу соха бўйича изланишлар кун сайин ривожланар экан дарсга тайёргарлик кўриш ва дарс ишланмасини ёзиш хам турли тажриба синовлар орқали ривожланиб бормоқда. Энди дарсни

[554] Қобул, Нурали. Султоннинг сўнгги куни ёхуд Амир Соҳибқирон ва Тўхтамиш. – Тошкент: Камалак, 2014. – 576 б.

режалаштириш ва дарс ишланмасини ёзишда ўқитувчи олдига саккизта вазифа қўйилаётганлигини кузатишимиз мумкин:

1.Дарсда тил ўрганувчилар қандай компетенцияларга эришишлари лозим?

2. Шу дарсга қадар тил ўрганувчилар нимани билардилар-у, дарс сўнгида қандай билимга эришадилар?

3. Тил ўрганувчилар дарс давомида нима қилишлари лозим?

4. Ўқитувчи дарс давомида нима қилиши лозим?

5. Тил ўрганувчилар якка холда, гурухда, ёки жуфтликда ишлайдиларми?

6. Дарсда қандай ўқув материаллари қўлланилади? (Масалан, матн, иш қоғози, аудио матн, топшириқ ва бошқалар)

7. Қандай ахборот воситаларидан фойдаланилади? Масалан, DVD CD дисклари,доска, китоблар, карталар ва бошқалар.

8. Тил ўрганувчиларнинг кутилган компетенцияларга эришганликларини қандай назорат қилинади?[555]

Кўринадики, дарсда тил ўрганувчилар қандай компетенцияларга эришишлари лозим, шу дарсга қадар тил ўрганувчилар нимани билардилар-у, дарс сўнггида қандай билимга эришадилар, тил ўрганувчиларнинг кутилган компетенцияларга эришганликларини қандай назорат қилинади ва

| **вақт** | **Ўқув қисми мақсади** | **Ўрганувчилар фаоллиги** | **Ижтимоий шакллар** | **Ўқув материали** | **Ахборот ва ёрдамчи воситалар** | **Ўқитувчи фаоллиги** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 мин | Қатнашувчилар Донауни қайси мамлакатлардан оқиб ўтишини билиб оладилар | Қатнашувчилар Донау дарёсини қайси мамлакатларда н оқиб ўтишини қидирадилар | Жуфтликда ишлаш | Донау харитаси | Иш қоғози | Ўқитувчи тил ўрганувчиларни қўллаб кувватлайди |
| 10 мин | Қатнашувчилар селектив равишда матндан маълумотлар оладилар, расм ва матн бўлакларини бир–бирига тартибли жойлаштирадилар | Қатнашувчилар қисқа матнларни ўқийдилар, таътилдаги расмларни тартибли жойлаштиради лар ва картадаги бекатларни маркерлайдила р | Якка холда ишлаш | Донау харитаси,studi odA1,150,2 машқ | Дарслик,ви део проектор | Ўқитувчи қўллайди ва тушунилмаган саволларнга жавоб беради |
| 10 мин | Қатнашувчилар матндаги “таътил сўзлари”нинг маъносини билиб оладилар | | Жуфтликда ишлаш | От ва феъллар бир-биридан ажратиб ёзилган карточкалар | Карточкала р | Ўқитувчи карточкаларни тарқатади ва қўллаб туради |

[555] Karin Ende Rudiger Grotjahn Karin Kleppin Imke Mohr.Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung.2013 Goethe – Institut Munchen. S.62

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 мин | Қатнашувчилар “сиз бирон марта ....?” иборасини қўллай оладилар | Қатнашувчилар “сиз Саёхат қилганмисиз?” Саволиг а жавоб берадилар ва перфектдаги шаклларни айтиб берадилар | Пленум | Визуаллаштирилган сўроқ гаплар ёзилган карточкалар | пинванд | Ўқитувчи саволлар қўяди ва пинвадга ёпиштиради |
| 10 мин | Қатнашувчилар матндан перфект шаклларини биладилар ва кучсиз феълларнинг сифатдош ясалишининг турли шаклларини тартибли жойлаштира оладилар | Қатнашувчилар матндан перфект шаклларни қидирадилар ва жадвал тузадилар икки қатнашувчи натижаларни ёзадилар | | studiodA1,150 бетдаги матн ва иш қоғози | Дарслик, видео проектор | Ўқитувчи қўллайди |
| 5 мин | Қатнашувчилар перфект қоидасини биладилар | Қатнашувчилар жавобларни ўқиб берадилар ва тўғри феълларнинг перфектдаги тузилишини шакллантиради лар. | Пленум | | | |
| 10 мин | Қатнашувчилар феълнинг сифатдош 2 шаклидаги феълларни туза оладилар | Қатнашувчилар турли феълларнинг сифатдош 2 ясалиш қоидасини биргаликда топадилар | Пленум | | | |
| 15 мин | Қатнашувчилар перфектни янги ибораларда қўллай оладилар | Қатнашувчилар дарсликдан перфектга оид машқлар қиладилар ва биргаликда мухокама қиладилар | Якка холда ишлаш | studiodA1,151 бет | Дарслик | Ўқитувчи жуфтлик гурухларни ташкил қилади ва ёрдам беради |
| 10мин | Қатнашувчилар феълнинг ноаниқ шаклидан сифатдош 2 шаклини тартибли жойлаштира оладилар | Қатнашувчилар қўшма феълларнинг ноаниқ шакли ва сифатдош 2 сини топадилар | Пленум | Феъллар ёзилган карточкалар | карточкалар | Ўқитувчи жуфтликларни йўналтиради ва қўллайди |

ахборот ва ўқув воситаларининг қандай турларидан фойдаланиш лозимлиги кабилар илгариги дарсга тайёргарлик кўриш ва дарсни режалаштиришда ўқитувчи олдига қўйилаётган вазифалар аниқлаштирилиши билан фарқланади.

Немис методистлари К.Энде, Р. Гроджахн, К. Клеппин ва И. Морлар ўзларининг “Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung” (Меъйёрий хужжатлар ва дарсни режалаштириш) номли ўқув услубий қўлланмаларида дарс ишланмасини ёзишга қўйидаги тавсияни берадилар:

Синф/гурух Гёте Институт 2008, ўсмир ёшлар

Билим даражаси: A1

Умумий ўқув мақсади: ўтмишдаги саёхат хақида хикоя қила олиш[556]

Дарс ишланмасини жадвал орқали шакллантиришда дарснинг мақсадига эришиш учун матн ёки машқ учун қанча вақт берилганлигини, машқ ёки матннинг мақсадини, ўрганувчилар фаоллигини, ижтимоий шаклларни, ўқув воситаларини, ахборот ва ёрдамчи воситаларни ва шунингдек ўқитувчи фаоллигини аник кўришимиз мумкин. Бундай дарс ишланмасини ёзиш аввалги ишланмадан хар бир матн ёки машқнинг мақсади бўлиши, хар бир қисмга қандай ахборот воситалари қўлланилиши лозимлиги, ижтимоий шакллар, тил ўрганувчилар ва ўқитувчи фаоллигини аниқлаштириш кабилар орқали фарқланганлигини кўришимиз мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1.Karin Ende, Rudiger Grotjahn, Karin Kleppin, Imke Mohr. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung”. 2013 Goethe –Institut. Munchen

2. М.Ходжаев, М. Қаххорова, З Пазилова. Чет тил ўқитиш методикаси

3. M.Каххорова Working on text. Academica An International Multidiciplinary Journal 10/12 pp. 489-491

**Ф.И. Отажонова - Фарғона давлат университети талабаси**

## МАКТАБГАЧА ЁШДАГИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИНИ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Хозирги кунда юртимизда олиб борилаётган ислохатлар жараёнида Мактабгача таьлим йуналишида хам кескин бурилиш асосида Мактабгача таьлим вазирлиги ташкил этилиб барча мактабгача таьлим муассасаларида жорий ва тулик таьмирлаш ишлари олиб борилмокда.Бу эса соха мутахасисларига янада маьсулятли ишлашга болаларга тугри ва кизикарли холатда машгулотларни ташкил этилишини талаб этади.Машгулотларни юкори савияда утилиши учун, соха мутахасисларини олий маьлумотли ва вазифасини тугри ташкил этиш оркали эришилади .Демак бундан куриниб турибдики хозирда ОТМ да тахсил олаетган битирувчиларни хар томонлама назарий , амалий жихатдан етук булишларини таьминлаш зарурлигини курсатиб турибди. Болага машгулот утиш жараёнида уларнинг туғилган кунидан уч ёшга тўлгунгача нерв, мушак аппаратини қўзғалувчанлиги ва унинг лабиллиги аҳамиятли даражада ортади, лекин мушакларининг кучи ҳали йўқ ҳисобида.

Мушаклари ва уларни суякларга боғловчилари унчалик яхши ривожланмаганлигига сабабли бўғинларининг ҳаракатчанлиги ўта юқори бўлади. Шунинг учун гўдаклар оёғи бармоқларини бемалол оғзига олиб келаолади, лозим бўлса сўради., оёғи кафтини боши орқасигача ўтказа олиши, “шпагат”га ҳеч қандай тайёргарликсиз ўтирғизиш мумкинлигини мисол қилишимиз мумкин. Қайд қилинганлардан келиб чиқиб, илк болалик даврининг дастлабки ойларида суяк тизими ва мушакларини –боғловчи аппаратини физиологик пишшиқлигини юқори эмаслигини эътиборга олиш ва жисмоний юкламани ўта қатъий меъёрлашга эътибор қаратиш муҳимлигини назарда тутишга тўғри келади.

Бу ёшдагиларнинг нерв жараёни ҳали кучли ва ҳаракатчан эмаслиги табиий, лекин шартли – рефлексли алоқалари ўта пишиқлиги билан ажралиб туради ва уларни қайта шакллантириш эса ўта қийин кечади. Шунинг учун жисмоний машқлар билан шуғулланиш машғулотларида болаларни машқларни тўғри бажаришга ўргатиш лозим, чунки шаклланган малака пухта ва узоқ муддат давомида мустаҳкам сақланади.

Энг содда ҳаракатларни хато ўзлаштириш кейинчалик нисбатан қийинроқ ҳаракатларни ўзлаштиришдан юзага келадиган ҳаракат малакаларини ҳосил бўлишида қийинчиликларни юзага келтириши билан боланинг ҳаракат қобилятига оид иқтидорини тўла очилишига зиён етказиши тадқиқотлар орқали аниқланган.

[556] Karin Ende Rudiger Grotjahn Karin Kleppin Imke Mohr.Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung.2013 Goethe – Institut Munchen. S.141

Боланинг риволанишида унинг жисмоний фаоллиги муҳим аҳамиятга эга. Аниқланишича икки ёшли болаларнинг уйғоқлиги вақтидаги фаол ҳаракатланиши кун давомидаги вақтнинг 70 %, уч уч яшарларники эса  60 % ташкил қилар экан.

Илк болаликнинг 3 ёшдан 6 ёшгача бўлган даврида унинг танасини ўлчами нисбатан бир теккис катталашади. Бўйиннинг йиллик ўсиши 5-6 см, танасининг массаси йилига 2 кг га ортади. Бу даврнинг оҳирига келиб бўйиннинг ўсиши тезлашади: бир йилда бола 8-10 смгача ўсади.

Бундай кескин ўсиш организмда содир бўлаётган эндокрин силжишлар билан боғлиқ (иккинчи кескин ўсиш даври 13-14 ёшли болаларда жинсий балоғит даврида содир бўлади).

**X.A. Yulbarsova – Farg'ona davlat universiteti dotsenti**
**M.K. Karimova – Farg'ona davlat universiteti magistranti**

## TA'LIM MUASSASALARIDAGI ZO'RAVONLIK IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA

Ta'lim jarayoni har qanday davlat uchun ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, barcha bolalarning yashashi, farovonligi, tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, zo'ravonlik va zo'ravonlikdan himoya qilishi bilan kechadi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik hech qacon oqlanmaydi va bunday zo'ravonlik bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatdan ogohlantirish bo'lishi mumki. Biroq, butun dunyo bo'ylab bolalar mahalliy, jamoat va ta'lim muassasalari, boshqa o'quvchilardan va xodimlar tomonidan zo'ravonlikni boshdan kechirishadi. Murakkab va og'riqli jarayon hisoblangan zo'ravonlik, bu muammo yaqin vaqtgacha jahon hamjamiyati tomonidan keng muhokama qilinmagan. BMTning 2006 yilda nashr etilgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik birinchi xalqaro Jahon hisobotida nafaqat bolalarga nisbatan nomunosib munosabatni har tomonlama tahlil qilish tajribasi, balki zo'ravonlikning salbiy oqibatlari to'g'risida bo'ldi [557].

Zo'ravonlik jismoniy va ruhiy bo'lishi mumkin, jumladan quyidagilar zo'ravonlik bilan ifodalanadi: aniq yoki bilvosita jinsiy xarakterdagi harakatlar va aniq yoki aniq bo'lmagan gender yo'nalishi, moddiy manfaatlarga intilish (tovlamachilik va narsalar va pullarni olib qo'yish), lekin bu deyarli har doim barcha ishtirokchilarga psixologik travma va zarar keltiradi. Zo'ravonlik o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga, o'quvchilar tomonidan tengdoshlariga nisbatan kelib chiqishi yoki sodir bo'lishi mumkin. Ko'pincha sinfda yoki o'quv guruhida intizomni saqlash o'quvchilar qadr-qimmatini kamsituvchi jismoniy jazo va psixologik ta'sir choralari orqali amalga oshiriladi. Ko'pgina zo'ravonlik holatlarini aniqlash qiyin. Qoida tariqasida, o'qituvchilar zo'ravonlik tashabbuskorlari hisoblanadi (huquqbuzarlar), kattalar esa ularni tashqaridan nazorat qilish uchun harakat qiladilar. Shuning uchun kattalar ko'pincha jabrlanuvchining (intizomning buzilishiga o'xshaydi) himoya reaktsiyasini sezadilar, hafa bo'lgan bolaning harakatini emas. Bundan tashqari, qurbonlar ko'pincha o'qituvchilar yoki ota-onalarga tajovuz haqida aytmaslikni tanlashadi, chunki uning kuchayishidan qo'rqish yoki boshqalarning ko'z o'ngida "ayyor" va "chaqimchi" bo'lib ko'rinishdan qorqishadi.

Tizimli zo'ravonlik - ta'qib yoki bulling ayniqsa xavflidir. Zo'ravonlik bir kishi tomonidan (o'qituvchi yoki o'qituvchi) yoki guruh tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Internet mavjudligi ortib borishi bilan, zo'ravonlik sodir bo'lisi, virtual maydon - mobil aloqa, elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlar orqali. kamsituvchi fotosuratlar, haqoratli xabarlar va tahdidlar (kiberbulling) ortishi kuzatilmoqda.

BMTning bolalarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha Jahon hisobotida Qayd etilishicha, dunyodagi har o'ninchi o'quvchi maktabda zo'ravonlikka duchor bo'lgan va bu ko'rsatkich har yili o'sadi.

YuNESKOning "Maktablarda zo'ravonlik va bulling" nomli global hisobotiga ko'ra, 246 ga yaqin butun dunyo bo'ylab millionlab bolalar va o'smirlar maktabda zo'ravonlik va bullingga uchraydilar. Zo'ravonlikdan ta'sirlangan o'quvchilar ulushi turlicha mamlakatdan o'quvchilar umumiy sonining 10% dan 65% gacha. yilda 2016 yilda 18 mamlakatdan kelgan 100 ming yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovga

[557] В 2006 г. на 61-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Генеральный секретарь ООН представил Доклад независимого эксперта для проведения исследования ООН по вопросу о насилии в отношении детей (http://www.unicef.org/violencestudy/reports/SG_violencestudy_ru.pdf (дата обращения: 30.09.2017). Этот документ, подготовленный независимым экспертом П.С. Пиньейру, известен как Всемирный доклад ООН 2006 года о насилии в отношении детей

ko‘ra, ularning uchdan ikki qismi maktabda zo‘ravonlik mavjudligini ta’kidlaganlar[558]. 2009-2010 yillardan Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada har to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladigan “Maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvori salomatlikka munosabati” shuni ko‘rsatdiki, so‘ralgan o‘quvchilarning o‘rtacha uchdan bir qismi 11 yoshdan 15 yoshgacha maktabda zo‘ravonlikni boshdan kechirgan - janjallarda qatnashgan, ojizlarni xafa qilish yoki ojiz sifatida qurbon bo‘lganlar[559].

Ta'lim muassasalarida zo‘ravonlik - keng tarqalgan global muammo hamma joyda uchraydi va jiddiy oqibatlarga olib keladi. Zo‘ravonlik tufayli bolalar ta'lim imkoniyati huquqidan to‘liq foydalanishdan mahrum bo‘ladilar. Shuningdek ba'zi madaniy an'analar ta'lim muassasalarida o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga bolalarning xulq-atvori yoki zarar keltiradigan kamsituvchi tajovuzkor jismoniy va psixologik ta'sir ko‘rsatish choralari maqbul sanalib, "standart amaliyot" deb amal qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasasidagi zo‘ravonlik tufayli bolalar ta'lim imkoniyati huquqidan to‘liq foydalanishdan mahrum bo‘ladilar, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarga qaratilgan "standart amaliyot" tufayli ruhan majruh bo‘lib qoladilar va shaxs bo‘lib ahakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. В 2006 г. на 61-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Генеральный секретарь ООН представил Доклад независимого эксперта для проведения исследования ООН по вопросу о насилии в отношении детей (http://www.unicef.org/violencestudy/reports/SG_violencestudy_ru.pdf (дата обращения: 30.09.2017). Этот документ, подготовленный независимым экспертом П.С. Пиньейру, известен как Всемирный доклад ООН 2006 года о насилии в отношении детей

2. Глобальный доклад о положении дел «Насилие и буллинг в школе». ЮНЕСКО, 2016. http://unesdoc.unesco.org/images/0024/002469/246970e.pdf (дата обращения 30.07.2017). (На английском языке.)

3. Исследование «Поведение детей школьного возраста в отношении здоровья»: международный отчет по результатам обследования 2009/2010 гг. Европейское региональное бюро ВОЗ, 2012. http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0010/181972/E96444-Rus-full.pdf?ua=1%20C (дата обращения: 30.09.2017). Далее в тексте данное исследование для краткости обозначается как исследование HBSC-2010

**Х.А.Юлбарсова - Фарғона давлат университети доценти**

## ЎЗБЕКИСТОНДА ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРГА НИСБАТАН ИЖТИМОИЙ СИЁСАТ

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида соғлом турмуш тарзини такомиллаштириш, маънавий баркамол авлодни тарбиялаш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади. Баркамол авлод деганда – аввало ақлан ва жисмонан соғлом, маънавий етук, ахлоқ-одобли, истеъдодли ва қобилиятли ёшлар кўз ўнгимизда гавдаланади. Юртимизда ёшларни мустақил, эркин фикрловчи, соғлом турмуш тарзига хос инсоний фазилатлар эгаси қилиб тарбиялаш борасида юксак муваффақиятларга эришилмоқда. Ижтимоий ҳимоялаш тизимининг устуворлиги имконияти чекланган болаларни ижтимоий фаоллаштириш масаласини ҳал қилишга кенг йўл очади. Шу ўринда имконияти чекланган болалар билан ишлашнинг турли йўллари ва методларини аниқлаш, улардаги узвий боғлиқлик ва ҳамкорликни ташкил қилиш, ижтимоий омиллардан самарали фойдаланиш муҳим ва долзарб масаладир. Айниқса, имконияти чекланган болалар билан ишлашда бадиий ижод воситаларидан кенг фойдаланиш имконияти чекланган болаларни ижтимоий фаоллаштиришнинг устувор йўлларидан биридир.

[558] Глобальный доклад о положении дел «Насилие и буллинг в школе». ЮНЕСКО, 2016. http://unesdoc.unesco.org/images/0024/002469/246970e.pdf (дата обращения 30.07.2017). (На английском языке.)

[559] Исследование «Поведение детей школьного возраста в отношении здоровья»: международный отчет по результатам обследования 2009/2010 гг. Европейское региональное бюро ВОЗ, 2012. http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0010/181972/E96444-Rus-full.pdf?ua=1%20C (дата обращения: 30.09.2017). Далее в тексте данное исследование для краткости обозначается как исследование HBSC-2010

Республикамиздаги таълим муассасаларида таълимни замонавий талаблар асосида ташкил этиш, имконияти чекланган болаларни соғлом болалар қатори жамиятга ижтимоий маданий мослашувида инклюзив таълимни йўлга қўйиш, мутахассислар тайёрлашда таълим муассасалари тизимини янада такомиллаштиришда рақобатбардош ижтимоий иш ходимларини касбий фаолиятида методик тайёргарликни кучайтириш жамият талабларининг асосий йўналишларидан бири бўлиб, бу борада ҳам юқори натижаларга эришилмоқда. Жумладан:

- жамиятда яратилган ижтимоий ҳимоялаш тизими имконияти чекланган болалар учун касб танлаш, индивидуал иқтидори ва қобилиятини, интеллектуал салоҳиятини намойиш қилиш ва ҳаётда фаол позиция танлашида мустаҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади. Бу ижтимоий тизимдан самарали фойдаланишда имконияти чекланган болалар ижтимоий-маданий фаолиятини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади.

- ижтимоий ҳимоялаш имконияти чекланган ҳар бир болани ижод соҳаларининг турли йўналишларида ўзини синаб кўриб, ижодий фаолиятга кириб келиши таъминланмоқда. Шу боис ҳам ижтимоий-маданий фаолликка эришаётган болалар фаолиятини чуқур илмий-амалий ўрганиш, ижтимоий фаоллашиш тенденцияларини аниқлаш, бадиий ижод воситаларидан унумли фойдаланиш шу куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда.

Шу ўринда мамлакатимизда имконияти чекланган болаларга яратилаётган қулай шарт-шароитлар самарадорлигидан фойдаланган ҳолда, имконияти чекланган болалар ижтимоий-маданий фаолиятини ривожлантиришнинг муҳим ўзига хос хусусиятларини аниқлаш, улар билан ишлашда бадиий ижод воситаларидан унумли фойдаланиш, имконияти чекланган болалар билан ишлашда ижтимоий иш ходимларининг ўрни ва ролини илмий-амалий таҳлил қилиш долзарб хисобланади.

Имконияти чекланган болалар билан ишловчи ходимларни тайёрловчи олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони қабул қилинди. Бу эса ўз навбатида имконияти чекланган болалар билан ишловчи ижтимоий иш касбининг янада мураккаблашувига, масъулияти ва вазифаларининг ортишига олиб келади.

2021-йил – “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб номланиши ҳам соҳа мутахассисларига муҳим вазифаларни юклайди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 1-декабрдаги ПФ-5270 сонли “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони, 2018-йил 5-июндаги ПҚ-3775-сонли “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ҳамда 2020-йил 13-октябрдаги ПҚ-4860-сонли “Алоҳида таълим эҳтиёжлари бўлган болаларга таълим-тарбия бериш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорларида Ўзбекистонда имконияти чекланган болаларни ижтимоий химоя қилиш, уларнинг таълим бериш тизимини самарадорлигини ошириш, уларнинг жамиятда ўз ўрнини топишларида кўмаклашиш масаласи кўндаланг қўйилган. Бу борада мамлакатимизда имконияти чекланган болалар ижтимоий-маданий фаолиятини такомиллаштириш, ушбу соҳага халқаро таълим стандартларини жорий этиш, имконияти чекланган болаларни ижтимоий-маданий фаоллаштириш, маънавий-ахлоқий тарбия бериш ҳамда жамиятга ижтимоий мослашувини таъминлашнинг самарали тизимини яратиш бўйича изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Мазкур чора-тадбирлар мамлакатимизда яшаётган имконияти чекланган болаларни ижтимоий-маданий ривожлантиришда, иқтидор ва қобилиятларини намоён қилиш орқали уларнинг жамиятда ўз ўрнини топишларида катта аҳамият касб этади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. Қодирова Ф.У. “Имконияти чекланган болаларни ижтимоий хаётга тайёрлашнинг инновацион технологиялари”// Замонавий таълим журнали, 2018й

**Ш.Джалолов преподаватель, С.Рузиматов студент, ФерГУ**

## МЕТОДОЛОГИЯ ПОСТРОЕНИЯ ДОЛЖНЫХ НОРМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ

Общественно-педагогическое явление — физическое воспитание — как любой педагогический процесс, имеет конечную цель. Цель системы физического воспитания — физически совершенные, всесторонне физически подготовленные к творческому труду и защите Родины. Эта общая, глобальная цель регламентирует процесс и результаты физического воспитания. Реализуется она посредством решения группы задач.

Таким образом, уровень норматива, заложенного в государственные программы по физической культуре для разных типов учебных заведений, в значительной мере регламентирует процесс и определяет цель конечного (или промежуточного) этапа физического воспитания. Уже это предъявляет высокие требования к научному обоснованию нормативов, функционирующих в системе физического воспитания и спорта.

В настоящее время разработка норм оценки физической подготовленности еще не удовлетворяет всем возросшим требованиям, предъявляемым трудовой, оборонной и спортивной практикой к моторике людей разного возраста.

В предлагаемом материале изложена методология и технология построения должных норм для целей физического воспитания; приведен конкретный статистический материал по физической подготовленности; показаны пути дальнейших исследований с целью разработки должных норм физической подготовленности учащейся молодежи с учетом требований со стороны службы в ВС.

Разработка должных норм связана с анализом требований, предъявляемых трудовой, оборонной, спортивной и бытовой деятельностью к физическим возможностям людей. Иными словами, необходимо знать требования конкретной деятельности и уровень физической подготовленности, обеспечивающий их выполнение.

В теории физического воспитания отсутствуют законченные рекомендации по методологии построения должных норм, это, в свою очередь, оказывает отрицательное влияние на уровень научной обоснованности программно-нормативных основ системы физического воспитания. Построение должных норм физической подготовленности для целей физического воспитания предусматривает знание требований, предъявляемых к физической подготовленности службой в Вооруженных Силах и современным промышленным производством.

Вот почему разработке должных норм физической подготовленности предшествуют теоретические исследования, цель которых — сформулировать общие построения нормативных требований системы физического воспитания и подходы к изучению требований, предъявляемых к уровню физической подготовленности людей.

Принцип «должных величин». Реализация этого принципа состоит в разработке такого уровня нормативных требований, который позволяет успешно справляться с задачами, выдвигаемыми жизнью, спортивной и оборонной деятельностью

Принцип «цикличности» норм. Суть этого принципа состоит в потребности иметь нормы, отвечающие жизни. Они должны быть динамичны и отвечать физическим возможностям людей.

Принцип «реального учета уровня физической подготовленности» (доступности). Программирование нормативов без учета реального уровня 'физической подготовленности контингента приводит к нарушению принципа доступности в обучении.

Принцип «единых шкал». При программировании нормативов без достаточного основания и произвольно, применяются различные шкалы и их комбинации, что совершенно недоступно при разработке норм учебных программ.

Принцип «реального учета особенностей физического развития». Двигательные возможности людей в определенной мере зависят от особенностей телосложения: тотальных размеров, пропорции тела и конституциональных особенностей. Представленные в тестах здоровья «Алпомиш» в случае их выполнения в полной мере не обеспечивают готовность человека к трудовой и оборонной деятельности.

Так выглядит методология разработки должных норм физической подготовленности, соотнесенных к конкретным требованиям профессио нальной деятельности. Как известно из спортивной метрологии, должные нормы в физическом воспитании учащихся обусловливаются необходи мостью успешно решать задачи, трудовой и оборонной деятельности.

Построение нормативных требований программ на единой методологической основе позволит: улучшить преемственность в системе физического воспитания учащихся разных категорий учебных заведений; повысить научную обоснованность нормативного содержания программ; четче отразить задачи, стоящие перед каждым звеном системы физического воспитания; приблизить нормативное содержание программ к современным требованиям жизни, спортивной и оборонной деятельности.

Так выглядит методология разработки должных норм физической подготовленности, соотнесенных к конкретным требованиям профессии ональной деятельности. Как известно из спортивной метрологии, должные нормы в физическом воспитании учащихся обусловливаются необхо димостью успешно решать задачи, трудовой и оборонной деятельности.

**Ш.Х.Ханкельдиев, профессор, А.Тобакова 2-курс студентка, ФерГУ**

## МЕТОДОЛОГИЯ ПОСТРОЕНИЯ ДОЛЖНЫХ НОРМ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ

Общественно-педагогическое явление — физическое воспитание — как любой педагогический процесс, имеет конечную цель. Цель системы физического воспитания — физически совершенные, всесторонне физически подготовленные к творческому труду и защите Родины. Эта общая, глобальная цель регламентирует процесс и результаты физического воспитания. Реализуется она посредством решения группы задач.

Таким образом, уровень норматива, заложенного в государственные программы по физической культуре для разных типов учебных заведений, в значительной мере регламентирует процесс и определяет цель конечного (или промежуточного) этапа физического воспитания. Уже это предъявляет высокие требования к научному обоснованию нормативов, функционирующих в системе физического воспитания и спорта.

В настоящее время разработка норм оценки физической подготовленности еще не удовлетворяет всем возросшим требованиям, предъявляемым трудовой, оборонной и спортивной практикой к моторике людей разного возраста.

В предлагаемом материале изложена методология и технология построения должных норм для целей физического воспитания; приведен конкретный статистический материал по физической подготовленности; показаны пути дальнейших исследований с целью разработки должных норм физической подготовленности учащейся молодежи с учетом требований со стороны службы в ВС.

Разработка должных норм связана с анализом требований, предъявляемых трудовой, оборонной, спортивной и бытовой деятельностью к физическим возможностям людей. Иными словами, необходимо знать требования конкретной деятельности и уровень физической подготовленности, обеспечивающий их выполнение.

В теории физического воспитания отсутствуют законченные рекомендации по методологии построения должных норм, это, в свою очередь, оказывает отрицательное влияние на уровень научной обоснованности программно-нормативных основ системы физического воспитания. Построение должных норм физической подготовленности для целей физического воспитания предусматривает знание требований, предъявляемых к физической подготовленности службой в Вооруженных Силах и современным промышленным производством.

Вот почему разработке должных норм физической подготовленности предшествуют теоретические исследования, цель которых — сформулировать общие построения нормативных требований системы физического воспитания и подходы к изучению требований, предъявляемых к уровню физической подготовленности людей.

Принцип «должных величин». Реализация этого принципа состоит в разработке такого уровня нормативных требований, который позволяет успешно справляться с задачами, выдвигаемыми жизнью, спортивной и оборонной деятельностью

Принцип «цикличности» норм. Суть этого принципа состоит в потребности иметь нормы, отвечающие жизни. Они должны быть динамичны и отвечать физическим возможностям людей.

Принцип «реального учета уровня физической подготовленности» (доступности). Программирование нормативов без учета реального уровня 'физической подготовленности контингента приводит к нарушению принципа доступности в обучении.

Принцип «единых шкал». При программировании нормативов без достаточного основания и произвольно, применяются различные шкалы и их комбинации, что совершенно недоступно при разработке норм учебных программ.

Принцип «реального учета особенностей физического развития». Двигательные возможности людей в определенной мере зависят от особенностей телосложения: тотальных размеров, пропорции тела и конституциональных особенностей. Представленные в тестах здоровья «Алпомиш» в случае их выполнения в полной мере не обеспечивают готовность человека к трудовой и оборонной деятельности.

Так выглядит методология разработки должных норм физической подготовленности, соотнесенных к конкретным требованиям профессио нальной деятельности. Как известно из спортивной метрологии, должные нормы в физическом воспитании учащихся обусловливаются необходи мостью успешно решать задачи, трудовой и оборонной деятельности.

Построение нормативных требований программ на единой методологической основе позволит: улучшить преемственность в системе физического воспитания учащихся разных категорий учебных заведений; повысить научную обоснованность нормативного содержания программ; четче отразить задачи, стоящие перед каждым звеном системы физического воспитания; приблизить нормативное содержание программ к современным требованиям жизни, спортивной и оборонной деятельности.

Так выглядит методология разработки должных норм физической подготовленности, соотнесенных к конкретным требованиям профессии ональной деятельности. Как известно из спортивной метрологии, должные нормы в физическом воспитании учащихся обусловливаются необхо димостью успешно решать задачи, трудовой и оборонной деятельности.

**M.V. Sharipova - TDPU magistranti**

## NOVERBAL MULOQOTNING MUSIQA TA'LIMIDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Umumiy musiqa ta'limida jamoaviy va yakka ijro mahoratini shakllantirish uchun o'quvchilar bilan o'rganiladigan repertuar asarlar borasida tushuntirish, asarning muallifi, shakl va janr tuzilishi, musiqiy ifoda xususiyatlari borasida bilimlarni o'quvchilarga sodda, tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazish talab etiladi.

Ushbu jarayonda verbal (og'zaki) nutq bilan birgalikda noverbal nutq (imo-ishoralar) elementlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Chunki, aynan noverbal nutq verbal nutqning tushunarliligini, o'quv materialining o'quvchilarga chuqur yetib borishini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda noverbal nutqning ahamiyati beqiyos, chunki, o'quv materiali mazmunini tushuntirishda noverbal muloqot vositalari ilmiy mazmunning yanada aniqroq, tushunarliroq yetib borishiga, o'quvchilarda mavzu materiali yuzasidan savollar paydo bo'lmasligiga shart-sharoit yaratadi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligi, natijadorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Musiqa ta'limida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida noverbal nutq orqali kommunikativ malakalarni shakllantirish va pirovard natijada noverbal nutq elementlaridan bevosita o'quv mashg'uloti jarayonida foydalanishning ikki muhim jihati mavjud:

1) o'quv materialining yanada tushunarli bo'lishiga erishiladi;

2) musiqa ijrosi jarayonida oʻquvchilar ijrosini korreksiyalab, tuzatib, boshqarib borish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi.

Shu sababli ham pedagogik psixologiyada noverbal nutq mavzusida gap borganda, albatta musiqa amaliyotining markaziy boʻgʻini boʻlgan dirijor faoliyati misol qilib keltiriladi.

Chunki, simfonik (xalq cholgʻulari, estrada-simfonik, kamer va h.k. orkestrlar) orkestr yoki akademik xor kapellasi dirijori faqatgina oʻzining imo-ishoralari, koʻrsatishlari, harakatlari, yuz ifodasi, tana va gavdasi, qoʻllari harakati bilan butun boshli ijrochilar jamoasini boshqaradi va bir ogʻiz ham soʻzni talaffuz qilmasdan yuksak badiiy ijroni taʼminlab, tinglovchi-tomoshabinlarda kuchli hayrat hissini uygʻota oladi.

Musiqa oʻquv mashgʻulotlarida oʻquvchilar bilan xor asarlarini kuylashni oʻrganish darsning muhim bosqichi sanaladi. Ushbu bosqichning samaradorligini taʼminlash, oʻquvchilarning jamoaviy ijroda yuqori natijalarga erishishi uchun ijro jarayonini noverbal hatti-harakatlar orqali boshqarish, aynan ijro jarayonida badiiy ifoda vositalari koʻrsatkichlarini oʻzgartirish (dinamikani kuchaytirish, ijro surʼatini oshirish yoki pasaytirish va h.k.) uchun noverbal nutq elementlari nihoyatda zarur boʻlib, ushbu imkoniyatlardan boxabar boʻlgan boʻlajak musiqa oʻqituvchilari istiqboldagi oʻz pedagogik faoliyatlarida yuqori darajadagi ijrochilik natijalariga va darsning samaradorligiga erishishlari mumkin.

Noverbal muloqot vositasida boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining kommunikativ malakalarini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda namoyon etiladi:

- boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini mimika bilan boyitilgan jestlar etalonlari bilan tanishtirish;
- ushbu etalonlardan foydalanish qoidalarini tushuntirish;
- amaliy ijro faoliyatida oʻquvchilar jamoasini boshqarishda oʻz-oʻzini kuzatish orqali noverbal muloqot koʻnikmalaridan foydalanish jarayonlarini nazorat qilish va korreksiyalash.

Jahon pedagogikasi va pedagogik psixologiyasida noverbal nutq elementlari borasida koʻpgina tasniflar ishlab chiqilgan boʻlib, ular oʻzining xususiyatlari orqali bir-biridan farq qiladi. Jumladan, Dj.Nirenberg va G.Kalero imo-ishora (jest)larning quyidagi tasnifini keltiradi:

1. Ochiqlik va samimiy hamda muloqotga tayyorlikni ifodalovchi imo-ishoralar: “ochiq qoʻllar”, suhbatdosh siz tomonga qarab kaftini yuqoriga qaratib qoʻllarini choʻzadi, koʻrinishi: “tugmalari ochiq kostyum”. Gumonli va yashirin ishoralar: suhbatdosh sizga qaramaydi, koʻzlarini boshqa tomonga buradi, shuningdek, peshonasini, chakkalarini, iyaklarini artadi va yuzini qoʻllari orqali bekitishga harakat qiladi.

2. Himoyaga yoʻnaltirilgan ishora va tana holatlari: qoʻllari koʻkragida kesishgan holat. Qoʻllarning koʻkrakda oddiy kesishganligi holati himoya yoki negativ holatdan koʻra ziddiyatsiz muloqot jarayonidagi oʻziga nisbatan xotirjamlik va ishonchni ifodalaydi[560].

Noverbal muloqot vositalari nutqiy kommunikatsiyaga muhim qoʻshimcha hisoblanadi. Ularning roli nafaqat kommunikatorning nutqi taʼsirini oshiradi, balki ular muloqot ishtirokchilariga bir-birlarining niyatlarini ochib berishga hamda muloqot jarayonini yanada ochiqroq qilishga yordam beradi.

Boʻlajak musiqa oʻqituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biri istiqbolda oʻquvchilarni musiqiy obrazlarni idrok etishga, ularni tushunishga va qulay shaklda gavdalantirishga oʻrgatishdir. Musiqiy obraz, birinchi navbatda hissiy materiyadir, shuning uchun boʻlajak musiqa oʻqituvchisining vazifasi bolalarni mazkur yoʻnalishda parallellar va oʻzaro bogʻlanishlar oʻrnatishga oʻrgatish, yaʼni, oʻquvchilar musiqa materialini oʻrganish orqali hayotni oʻrganishiga erishishdir.

Musiqiy jarayonning ifodalilik jihati – badiiy mazmunning tovush ohanglari obrazlari vositasida ifodalanishi boʻlib, texnik usullar (ijro) orqali nafaqat mazmunni uzatish, nafaqat uning mavjudligini, balki sifatini, mukammalligini ham nazarda tutadi[561].

Aynan shuning uchun ham musiqiy taʼlim jarayonida noverbal muloqot qobiliyati va uning pedagogik amaliyotda samarali qoʻllanishiga oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasida badiiy-pedagogik aloqa oʻrnatishga yordam beradigan oʻqituvchining muhim kasbiy ahamiyatli kompetensiyasi tarzida qaraladi.

---

[560] Nirenberg Dj., Kalero G. Kak chitat cheloveka slovno knigu. Yazik tela. M.: Sada, 1992. Elektron manzil: https://studme.org/160599/ritorika/klassifikatsiya_zhestov_soperu Murojaat qilingan sana: 21.11.2021.

[561] Bormisheva M.D., Miskevich N.A. Dirijerskiy jest kak integrirovannoye virazitelnoye sredstvo muzikalnogo iskusstva. Elektron manzil: https://kemguki.ru/upload/konferencii/vii-mnmkonferentsiya/mitskevich-nina-alekseevna-bormysheva-mariya-borisovna.pdf Murojaat qilingan sana: 17.10.2021.

**Н.Маҳмудова – Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси**

## ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ОРНИТОНИМЛАРНИНГ ҲОСИЛ БЎЛИШ УСУЛЛАРИ

Ҳозирги пайтда мамлакатимизда кечаётган ижтимоий-иқтисодий тараққиёт туфайли ҳар бир соҳага юксак эътибор қаратилмоқда, шу жумладан, тилшунослик соҳаси ҳам бундан мустасно эмас. Бундай янгиланишлар натижасида тилнинг лексик сатҳига кириб келаётган халқаро терминлар ва неологизмлар оқими янада жадаллашмоқда. Бу жараён эса ўз навбатида соҳа мутахассисларининг ўз касбига оид тушунчалар ва терминларнинг аниқ ифодасини билишларини, уларнинг мазмун-моҳияти ҳақида тўлақонли билимга эга бўлишларини тақозо этмоқда.

Шу билан бирга турли тизимли тилларда муайян лексема, фразеологик бирликларнинг шаклланиши, ривожи ва тараққий этиши ҳамда ўзига хос хусусиятларини ўрганиш мақсадида мутахассислар томонидан кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилмоқда. Шунга қарамасдан, орнитонимларнинг тилда фразеологик бирлик, ёки семема шаклини тадқиқи этиш, тилда фойдаланиш аҳамиятини ўрганиш долзарблигини йўқотмаган ва айни пайтда ўз ечимини кутмоқда. Шу маънода ***ornitonim*** тушунчаси атрофида содир бўлаётган турли хил янгиликлар, ишлаб чиқилган илмий-назарий қарашлар ҳамда тадқиқот натижалари нафақат тилшуносларни, балки бошқа соҳа мутахассисларини ҳам бирдек ўзига жалб қилади ва долзарб масалалардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Орнитология аслида зоологиянинг қушларни ва уларга тегишли бўлган барча нарсаларни услубий ўрганиш билан боғлиқ бўлган бўлимидир. Тил таркиби, тилнинг сўз бойлиги жамият ривожланиши билан боғлиқ бўлган ўзгаришларга учрайди. Айнан қушлар номи билан шуғулланувчи фан бўлими орнитология дейилади, яъни, қушларни уларга тегишли бўлган барча нарсаларни услубий ўрганиш билан боғлиқ. Орнитологиянинг бир қанча йўналишлари, турдош фанлардан фарқ қилади, бу қисман қушларнинг юқори кўриниши ва эстетик жозибаси билан боғлиқ. Бошқача қилиб айтганда, орнитология – қушларни илмий ўрганади. Қушларнинг терминологияси бўйича олиб борилган тадқиқотлар назарий ва амалий жиҳатдан қизиқиш уйғотади. Қушларнинг номларини бирлаштирувчи семантик гуруҳ нисбатан очиқ тузилишга эга; атамалар йўқ бўлиб кетиши ёки янгилари билан алмаштирилиши мумкин. Қушлар терминологиясининг мавзуси кўплаб муаллифлар томонидан кўриб чиқилган; уларда турли тилларда ишлатилган қуш номлари таҳлил қилинган. Мавзуга доир семантик, этимологик, лингвистик-географик ва бошқа жиҳатлари бўйича тадқиқотлар мавжуд.

Ўзбек тилида қуш номлари (орнитонимлар) ҳам ўзига хос луғавий тузилишга эга. Ўзбек тилшунослигида орнитонимларнинг тадқиқи масаласи кўп йиллардан буён тилшунослар эътиборини тортиб келмоқда. Кейинги йилларда бундай мавзу бўйича бир қанча монографик изланишлар ҳамда изоҳли луғатлар яратиб келинмоқда. Орнитонимларни ўз ичига олган тургун иборалар ёки фразеологик бирликлар инглиз ва ўзбек тилларида фразеологиянинг фаол қатлами ҳисобланади. Улар кичик дўстларимизнинг ташқи кўриниши, одатлари ҳақидаги кўп асрлик кузатишларни акс эттиради ва инсоннинг ҳайвонот дунёсига муносабатини акс эттиради, бу эса ўз навбатида ҳар бир тилнинг маданий ва ахборот базаси ҳисобланади. Бундай ибораларга хос бўлган образлилик ва антропоцентрик йўналиш, асосан, уларда инсоний фазилатлар – жисмоний, руҳий ва ижтимоий хусусиятлар акс этганлиги билан боғлиқ.

Ўзбек тилидаги қуш номлари (орнитоним)ларнинг маълум қисми туб, содда сўзлар бўлса, асосий қисми соддалашиш ва яхлитланиш (идиоматизация) асосида вужудга келган дейилади. Мисол учун, ўзбек тилида укки, тўрғай, какку, бургут, чумчуқ, шунқор, ўрдак, қирғий сингари юзлаб икки ва ундан ортиқ бўғинли орнитонимлар мавжуд. Ҳозирги тил нуктаи назаридан муайян сўз ясаш қолипининг ҳосиласи бўла олмайдиган бу орнитоним лексемаларнинг барчаси туб сўзлар бўлиб, нутқда тайёр лексемалар сифатида қўлланилади. Аслида эса улар лексема эмас, балки нутқий ҳосила – ясама сўзлар ёки сўз шакллари дейилади. Орнитонимлар шаклланишининг яна бир кенг тарқалган усули яхлитланишдир. Яхлитланиш деб тарихан ясама бўлган лексема маъносининг сўз ясаш қолипи маъносидан узилишига, узоқлашишига айтилади. Масалан, туяқуш, лайлак, оқбағир,

қорабағир, қизилиштон, сассиқпопишак, зарғалдоқ, гўнгқарға сингари орнитонимлар тарихан икки ўзакли ҳосиладан иборат бўлган, улар ҳозирги пайтда яхлитланиб орнитоним – лексемаларга айланган.

Инглиз тилида ҳам қуш номлари – орнитонимлар қўлланилади. Гарчи, уни лингвистик жиҳатдан тадқиқ этилиши ҳозирда долзарб масала деб қаралмасада, икки тил қиёсий таҳлилларида марказий тадқиқот мавзуси сифатида долзарблик касб этади. Қуш номлари ҳақида тил аспектидан аввал қуйидаги таърифга бироз тўхталсак:

*“Birds are an essential part of nature; some birds fly, some don’t, some have long beaks, others not”- Қушлар табиатнинг ажралмас қисмидир; баъзи қушлар учади, баъзилари учмайди, баъзиларининг тумшуғлари узун, бошқалари эса йўқ.Яъни қушлар номларини ўрганишда уларнинг шакли ҳам қайсидир маънода аҳамият касб этади, деган услубга асос ясайди.*

*Canary, Crane (Stork), Crow, Cuckoo, Dove, Duck, Eagle, Flamingo, Hawk, Hen, Kingfisher, Nightingale, Owl, Parrot, Peacock, Pheasant, Pigeon, Raven, Crow, Rooster, Sparrow, Swallow, Swan, Turkey, Weaverbird, Woodpecker, etc.*

*Канарейка, турна (лайлак), қарға, какук, каптар, ўрдак, бургут, фламинго, калхат, товуқ, балиқ балиқлари, булбул, бойқуш, тўтиқуш, товус, қирговул, каптар, қарға, хўроз, чумчуқ, қалдирғоч, оққуш, курка товуқ, тўқувчи қуш, ўрмончи қизилиштон ва бошқалар.*

Шундай қилиб, орнитонимларни билдирувчи фразеологик бирликлар икки тилда ҳам ўхшаш ва фарқли хусусиятларга эга, чунки қушларнинг жисмоний хусусиятлари, хулқ-атвори ва табиатини, озиқланиши билан боғлиқ белгиларни, шунингдек одамларнинг қушлар ва баъзи турларнинг табиатини субъектив тасаввурларини тасвирлайди.

**Ғ. Ғайназаров ўқитувчи, Д. Тоиржонов 4-курс талабаласи ФарДУ**

## ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ МУТАХАССИСЛАРИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ТАРКИБ ТОПТИРИШ

Адабиётларда интеллект тушунчаси турлича тавсифланишига қарамай, у умуман билиш соҳасига тегишли бўлган индивидуал қобилиятларни назарда тутади. Интеллект деганда индивиднинг сезги, идрок, хотира, тасаввур, тафаккур, хаёл, диққат каби бутун билиш(ижодкорлик) қобилиятлари тизими тушунилади. Умумий ақлий қобилиятни ифодаловчи интеллект тушунчаси инсоннинг янги шарт-шароитга мослашуви билан боғлиқ хулқ-атвор фазилатларини умумлаштиришда ҳам қўлланилади. Шундай қилиб, интеллект, бир томондан, билиш ва ҳар қандай фаолиятнинг самарадорлигини таъминловчи, бошқаларга асос бўлгувчи уму-мий қобилият ҳамдир. Иккинчи томондан, индивиднинг сезги, идрок, хотира, тасаввур, тафаккур, хаёлдан иборат билиш қобилияти тизимидир. Оддий қилиб айтганда, у муаммоларни ақл ёрдамида адашмай ва камчиликларга йўл қўймай ҳал этиш қобилиятидир. Ақлий қобилиятнинг умумий ифодаси сифатидаги “интеллект” тушунчаси янги ҳаётий талабларга муваффақият билан мослаша олувчан хулқ-атворнинг яхлит тавсифи тарзида ҳам қўлланилади. Демак, интеллект шахснинг янги билимларни эгаллаши ва улардан ҳаётий фаолият давомида самарали фойдаланишини таъминловчи тафаккур фаолияти ривожланишининг муайян даражаси, тушуниш ва англаш қобилияти-дир. У кишиларнинг билиш ва жамиятдаги хулқ-атвори асосини ташкил қилади.

Ҳозирги замон илмий адабиётларда умум интеллект тушунчаси кенг қўлланилиб, кўпроқ универсал руҳий қобилият маъносида ишлатилиб ке-линади. Бинобарин, интеллектни тушуниш қобилият тушунчаси билан бе-восита боғлангандир. Қобилият индивидуал-руҳий жиҳатдан инсоннинг ўзига хослигини англатади, бошқача айтганда, кенг маънода “инсоннинг индивидуал салоҳияти, имкониятлари”дир.

Инсон интеллектуал қобилиятлари айниқса бошқарув фаолиятида ривожланади ва намоён бўлади. Инсон интеллектуал қобилиятлари профессионал фаолият талаб қилувчи билимлар,лаёқат ва малакаларни эгаллаш орқали мукаммаллашиб боради. Тафаккур воқеликни умумий инъикос этишнинг руҳий жараёни, инсон ижодий фаоллигининг олий шаклидир. Тафаккур туфайли индивид конкрет вазиятда ўзи учун кулай қарорлар қабул қилади. Бунда конкрет индивид тафаккурининг

сифати унинг онгида объектив реаллик акс этиши жараёни бузилишига йўл қўймайди. Инсон томонидан ташқи оламни инъикос ва билиш жараёни унинг ҳиссий ва мантиқий даражаси билан бирга ва ўзаро алоқадорликда амалга оширилади. Инсон воқеликка бўлган муносабатда қиёслаш,таҳлил қилиш, умум-лаштириш ва таснифлаш каби фикрий амаллардан фойдаланади. Шунинг учун фикрий амалларнинг моҳияти қуйидагича юз беради: анализ инъикос объектининг яхлит структурасини фикран элементларга ажратади; синтез элементларни яхлит структурага бирлаштиради; қиёслаш моҳиятли хосса ва ўхшашликларни умумлаштириш йўли билан умумий белгиларни аниқлайди; мавҳумлаштириш воқеанинг ҳақиқатда мустақил мавжуд бўлмаган қандайдир томони ёки жиҳатини аниқлаш; конкретлаштириш умумий узоқлашиш ва хусусий, алоҳида томонларни таъкидлаш; тизимлаштириш ёки таснифлаш предмет ва ҳодисаларни фикран гуруҳ ёки гуруҳчаларга тақсимлашдир. Буларнинг барчаси, табиийки, тафаккурнинг асосий амали бўлган муҳим алоқа ва муносабатларни очишга хизмат қилади.Тафаккур ҳодисасининг ҳар бири билиш ёки бошқариш фаолияти жараёнида юзага келадиган вазифаларни бажаради. Бу вазифалар инсон тафаккур тоифасига боғлиқ ҳолда турли усуллар орқали амалга оширилади.

**Ғ. Қурбонов, Д. Охунова – Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси**

## ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАР БИЛАН МУСТАКИЛ ШУҒУЛЛАНИШ МАШГУЛОТЛАРИНИ АЙРИМ МУАММОЛАРИ

Мамлакатимзда давлат сиёсат даражасига кутарилган соғлом турмуш тарзи жисмоний маданиятининг(СТТ жисмоний маданияти) пойдевори умумий таълим мактабларида қўйилиши ҳозирги кунда сир эмас.Чунки жисмоний машқлар билан тизимли ва мақсадли шуғулланиш машғулотлари, уларнинг мазмунии, тузилиши, воситаларини амалиётга қўллашга оид назарий билимлар, амалий малакалар заҳираси мактаб ёшидан бошлаб бойитилади.

Тадқиқотларимиз давомида ўқувчиларнинг мустақил машғулотлари учун ўзлари тузадиган жисмоний машқлар комплек сларини тузиш ва бажаришда риоя қилиши лозим бўлган қоида ларни назарий жиҳатдан эгаллаганлигини ўрганиш бизни қизиқтирди. 70 дан ортиқ (7 синфлар) экспериментал гуруҳ ўқувчи ларининг биз ўрганган муаммо бўйича анкета саволларига берган жавоблари бизни қониқтирмади.

Махсус адабиётлар тахлили (Л.П.Матве ев,1991; Ф.А.Кери мов,2004; А.Абдуллаев, Ш.Х,Хонкелдиев, 2005; Ю.И.Евсеев,2008; ва бошқа лар) ўқувчиларнинг жисмоний машқлар билан мустақил машғулотларини бошланиши тана скелети мушакларини кўпчи лигини қамраб олмаслиги, айниқса, катта мушакулар гуруҳи билан машқланишни бошламасликни тавсия қилишига қарамай, “катта мушаклар гуруҳигага юклама бериш мумкин” деганлар сони сўровда иштирок этганларнинг 69,3% ни ташкил этди. Лекин, унинг “мотиви”ни билувчилар сони эса 13,1% ни ҳам ташкил этмади. Соғлом турмуш тарзи жисмоний маданиятига оид адабиётлар (А.Абдуллаев,Ш.Хонкелдиев,2005; Ю.И.Евсеев,2008; ва бошқалар) машғулотларнинг бошланишида катта мушаклар гуруҳи(трапе циясимон, дельтасимон, кўкракнинг катта мушаги, қорин пресси ва бошқалар) ишга жалб қилинмаслиги, мабодо, шу гуруҳга кирув чилар жалб қилинса машқларнинг ижросининг интесивлиги юқори бўлмаслиги, қайтаришлар сони тахминан 6-8 марта атрофида, секин бажарилиши, уларнинг қайд қилинган юклама меъёрига жисмоний мослашуви камида 2-3 ой давомида содир бўлиши мумкинлигига далиллар келтирмокда.

Катта мушаклар гуруҳига юклама бериш билан машғу лотларни бошлаш шуғулланувчилар оганизмини тез чарчатиши мустақил шуғулланиш ҳамда ўқув машғултлари орқали исботланган. Респодентлардан фақат 9,2 % юқорида қайд қилин ганлар ҳақида маълумотларга эга(“юклама бериш мумкин, лекин машқлар фақат секин бажарилиши лозим”). Аслида, секин бажариш билан бошланган машқларни суъратини тезлаштириш билан тугаллаш ёки аралаштириб бажариш қоидасига риоя қилиш ижро этилаётган машқни таъсир кучини ошириши кичик мактаб ёшидалигидаёқ ўқувчиларга ўргатилиши лозим (машқнинг таъсир кучини оширишни биласизми саволига “ҳа” деб жавоб берганлар сони 8,5%ни ташкил этди ҳолос).

Адабиёт материаллари ва СТТ жисмоний маданиятининг *мустақил машғулотларини кузатиш ва тўпланган инновацияларни умумлаштириб уларни бажариш учун тузиладиган жисмоний машқлар мажмуйининг қуйидаги қоидаларини эътиборингизга ғавола қилдик:*

1)ҳарқандай машғулт энг аввало қадди –қоматни ростлаш(вжудимиздаги бизга ҳизмат қилувчи аъзоларимизии жой –жойига қўйиш), тана скелети мушаклари, пайларимизни чўзиш типмдаги машқлар ( 1-2 та);

2) қўл, елка камари, бўйин ва шу зонадаги мушаклар учун (1-2 та);

3) гавданинг асосий мускуллари учун(2-3 та) машқлар;

4) оёқ мускуллари учун(2-3 та);

5) умумий тъсир кўрсатувчи –нафас, юрак,қон-томир, ҳазм қилиш ва бошқа органлар учун (сакрашлар, кескин юриш, югиришлар, бурилишлар) барчаси ҳаракатда бажарилади;

6) такрорлашлар сони қамраб олинган мушаклар гуруҳига қараб белгиланади;

7) мушаклар гуруҳи қанчалар куп ҳаракатга жалб қилинган бўлса машқлар шунчалик секин бажарилиши лозим.

Бўлажак соғлом турмуш тарзи жисмоний маданияти соҳибининг мустақил машғулотлариинг самарадорлиги унинг назарий билимлари билан узвий боғлиқ.

**H.H. Tursunov - Farg‘ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi**

## TA’LIMDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARIDAN FOYDALANISH

Ma’lumki, 08.10.2019 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli farmoni qabul qilindi[562]. Ushbu farmonga muvofiq. Respublikamizdagi barcha Oliy ta’lim muassalarida kredit-modul tizimini joriy qilish ko‘rsatib o‘tilgan. Konsepsiyada xalqaro tajribalarlan kelib chiqib oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy qilish, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma bosqich o‘tish o‘tish ta’kidlanib, Oliy ta’lim muassasalariga ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Mazkur Farmon Respublikamizda ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, talabalarni mustaqil ishlashga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadi-ki, talaba muayyan fanni o‘zlashtirishda uning mustaqil fikri, dunyoqarashi, o‘quv mashg‘ulotida bevosita ishtiroki hamda amaliy ko‘rgazma vositalaridan foydalanish katta samara beradi. Xitoy faylasufi Konfutsiy *“...aytsang unutaman, ko‘rsatsang eslab qolaman, o‘zim bajarib anglab yetaman”* – degan hikmatalari ham bejiz aytilmagan.

Oliy ta’limda o‘qitishning yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish talabalar tomonidan mazkur fanni o‘zlashtirishida muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy ta’lim tizimidan farqli ravishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’limdagi boshqa innovatsiyalar bilan kirishib rivojlanib ketishi ilg‘or davlatlar tajribasida allaqachon o‘z isbotini topgan. Oliy ta’lim muassasalarida buyurtmachi talabi asosida malakali kadrlar tayyorlashda, o‘z – o‘zidan ta’limni takomillashtirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Ana shu maqsadda ta’limda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish birinchi o‘rinda pedagogni muntazam o‘z ustida ishlashga, ko‘nikma va malakasini hamda ixtisosligi bo‘yicha qiziqishlarini mustahkamlashga majbur qiladi. Ikkinchidan esa talaba an’anaviy, zerikarli uzoqdan – uzoq o‘qiladigan ma’ruzadan xalos bo‘lib, bevosita mashg‘ulot jarayonida ishtirok etadi.Ta’limni mazmunan o‘quv predmetlik faoliyatidan voz kechib bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan ta’lim talabalarni mustaqil ravishda intellektual qobiliyatlarini namoyish qilishga olib keladi.

Ta’limning interfaol metodlaridan foydalanish talabalarni o‘qitishning eng muhim samarali yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur ta’lim texnologiyasi bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi bilan birga bir necha

[562] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019. 06/19/5847/3887/-сон

talabalarni ishtirokini ta'minlaydi. Ishtirokchilar nafaqat o'qituvchi bilan balki o'zaro muloqotda bo'ladilar. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi eng faol talabalarga tashabbusni berib, ushbu jarayonni boshqarib turadi. O'qituvchi nazorat qilish davomida oldindan tayyorlangan savollar, muhokama uchun muammolarni o'rtaga tashlaydi, shu bilan birga vaqtni ham nazorat qiladi.

**Talaba**

**O'qituvchi**

**Talaba**

**Talaba**

Ta'limda interfaol metodning bazaviy asosini mavzuga oid bahsli (diskussiya) munozara va muhokama tashkil etadi. Diskussiya lotin tilidagi **"diskussio"** co'zidan olingan bo'lib, ***"muhokama yoki tadqiqot"*** degan ma'no beradi. Ayni vaqtda interfaol o'qitish texnologiyasi muayyan mavzu bo'yicha muammolarni, har tomonlama turli pozitsiyalardan turib muhokama qilishga asoslangan pedagogik ta'lim usulidir. Muhokama ikki elementdan iborat bo'lib, uning birinchi davrida o'zaro fikr almashishlar bo'lib o'tadi. Ikkinchi davrida esa tomonlar o'z fikrlarini himoya qilish uchun tortishuvlar bo'ladi. Har ikkala holatda ham qatnashuvchilar o'z fikr munosabatlarini bildiradilar. Ushbu jarayonda o'tilayotgan mavzu yuzasidan turli fikrlar, mushohadalar yuzaga keladiki, buning natijasida asosiy omil – darsning mazmun mohiyati ochib beriladi.

Har bir munozara uch bosqichni tashkil etadi: **moslashish- kirishish** (*mavzuga nisbatan ma'lumotlar olish*), **baholash** (*olingan ma'lumotlarni turli nuqtai nazardan baholash ya'ni taqqoslash*), **konsolidatsiya**[563] (*yagona yoki bir nechta mulohalarni umulashtirish, birlashtirish, mustahkamlash*). Interfaol metodlarda o'qitishning yana bir varianti **"Dumaloq stol"** deb ataladi. Bu metod quyidagicha tashkil etilish va o'tkazilishi mumkin:

1. O'qituvchi qisqa kirish so'zi biln boshlab beradi
2. Ishtirokchilarning mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumotlari olinadi
3. Auditoriyadan tushgan savollarga javob beriladi
4. Bahs va munozara jarayoni bo'lib o'tadi
5. Muhokama yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini izohlanadi.

Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtirib yakuniy xulosalar beriladi.

Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligida bilimli, muayyan ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan yetuk kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan darslar samarali natija berib, ta'lim oluvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.[564] Shuning uchun ta'lim muassasalarda malakali kasb egalarini tayyorlashda interaktiv metodlarning o'rni va roli benihoya kattadir. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli interfaol metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, eng asosiysi, o'qishga, fanga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

## Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 09.10.2019. 06/19/5847//3887/ - son.

2.Колдабеева В.А. В практике преподования русского языка иностранным студентам. Научный журнал №1. 2015. (часть 6) С.1014-1018 htts: //pedsovet.su>metodika>

3. Nasriddinova.N.S. Oliy ta'lim muassasalariada interfaol metodlardan foydalanish. Barkaamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Respublika ilmiy amaliy anjuman iateriallari.Andijon.2015.B.398-401

[563] htts: //pedsovet.su>metodika> 1996

[564] Насриддинова Н. Олий таълим муассасаларида интерфаол методларидан фойдаланиш. «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори» Республика илм.амал. анж. Тўплами. Андижон 2015.Б.398-401

**Х.Х. Турсунов - ассистент Ферганский политехнический институт**
**Ж. Жураев - студент Ферганский политехнический институт**

## ПРИМЕНЕНИЕ СРЕДСТВ ВИЗУАЛЬНОЙ РАЗРАБОТКИ ПРОГРАММ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ПРОГРАММИРОВАНИЮ НА ПРИМЕРЕ SCRATCH

**Аннотация**. Методы преподавания детского программирования имеет ряд существенных отличий от методики преподавания программирования для взрослых, описываемая в статье методика представляет игровую форму обучения, основанную на среде программирования Scratch, легкой и интуитивно понятной среды программирования, разработанной специально для детей.

**Ключевые слова:** Методика, программирование, визуальная разработка, Scratch, образование, игра, анимация, персонаж, сцена.

Среда разработки Scratch – являет собой систему разработки визуальных программ, разработанную сравнительно недавно, предоставляющую возможности разрабатывать игровые программки, анимацию, анимированных персонажей и различные интересные вещи для обучающихся детей в возрасте от 8 до 16 лет. [1 стр. 19] В Scratch программа «складывается» из командных блоков разного цвета, также, как например из элементов различного цвета в конструкторах типа Лего создаются разнообразные конструкции. Разработка программки в Scratch производится посредством установки друг под другом визуальных программных блоков. При этом эти блоки могут быть собраны лишь в верном синтаксическом порядке, что практически исключает возможность ошибиться. Данные имеющие различные типы имеют отличающиеся по строению блоки конструкций, определяя подходят ли друг к другу искомые элементы. Доступна возможность модификации программы в том числе и тогда, когда она работает, что дает возможность экспериментировать с различными идеями во время решения задания. В итоге выполнения простейших команд создается комплексная модель, в которой соединены друг с другом множества элементов, по своим свойствам и характеристикам отличающиеся друг от друга. По окончании сбора проекта в Scratch, результаты работы ребенок может опубликовать на сайте http://scratch.mit.edu/. [2 стр. 198]

Главным достоинством рассматриваемой программной среды считается то, что она является бесплатно предоставляемой программой, таково что, каждое образовательная система может загрузить программку из сети интернет и начать к изучению и работу в данной студии программирования. Для Scratch установка на компьютер не обязательна.

Программа Scratch разработана так, что дает возможность применять в преподавании новые методы и техники обучения, под названием проблемный и проектный метод. После обучения базовым конструкциям языка и изучении возможностей программы дается задача по разработке и проектированию необходимой программы. Они могут включать разнообразные сценарии, темы которых преподаватель дает при учёте возрастных критериев обучающихся, к примеру, «Моя друзья», «Моё хобби», «Новые истории»; анимационные ролики для рекламы; истории в стихах и сказках, преподаваемым в учебных заведениях, да и отличившимся и талантливым обучающимся и т.п.

Представленная технология преподавания дает стимул обучающихся к изучению возможностей программного языка, изучению предмета «Информационные и коммуникационные технологии и компьютерные сети, программирование», детерминируя их практическую и технологическую значимость. Анализ разработок Scratch демонстрирует, что данное программное обеспечение изучается очень легко и быстро, является интуитивно понятным для ребенка. Однако, не смотря на указанную простоту, Scratch позволяет ученику работать с различными мультимедийными системами, что стимулирует интерес обучающихся, и помогает мотивировать ребенка к изучению программирования в общем и языка Scratch, в частности.

Главной преимуществом языка Scratch, считается реализация ребенком своих творческих идей от этапа начальной задумки до готового продукта и программы. В Scratch разработаны следующие основополагающие средства:

– базовые процедурное программирование: последовательность, разветвление, циклы, создание переменных, форматы данных (целые и дробные числа, строковый тип данных, логический тип, список и массив), псевдослучайные последовательности чисел;

– элементы объектно-ориентированной разработки: объектный тип данных (класс и объект), обмен сообщениями, а также взаимодействие между персонажами;

– интерактивность: разработка элементов взаимных действий элементов между собой, с учеником и разработчиком, помимо этого и события вне компьютера, действия сенсоров;

– выполнение параллельных действий: выполнение функций параллельных вычислений, при необходимости координирования и синхронности действий;

- Разработка примитивных графических интерфейсов.




Рисунок 1.

Скрипт работы с персонажем котика

Основным начальным этапом разработки программы в среде Scratch является создание малого проекта, например, работа с персонажем котика как показано на рисунке 1.

Scratch дает лучшие, по нашему мнению, механизмы изучения компьютерного программирования и возможности разработки дизайна внешнего вида программы с тем, чтобы сделать разработку программ наиболее привлекательной и простой в реализации для маленьких детей, подрастающего поколения и просто тех, кто изучает программирование и хочет повысить свою квалификацию. [3 стр. 211]

Что общего между конструктором Лего и Scratch?

Преподаватель совместно с обучающимися шаг за шагом строит сцену, «блок за блоком», что представляется в конечном итоге в виде программного сценария. По окончании создания скрипта, преподавателю необходимо разъяснить учащимся, что происходит на сцене во время запуска программы на выполнение. Впоследствии надо заметить, что скрипт на выполнение запускается несколькими способами такими как: нажатие клавиш клавиатуры, манипуляция мышкой и т.д.

При данном подходе и методике следует особо подчеркнуть, что ученик должен сконцентроваться на следующих, основополагающих понятиях, таких как понятие сценария и программы. Наиболее соответствующее описание понятия сценария, его подробной и пошаговой версией, написанной также на человеческом языке, является алгоритм.

## Библиографический список

1. Белова Г.В. Программирование в среде ЛОГО. Первые шаги. - М.: Солон, 2007

2. Бин Нгуен. Объектно-ориентированное программирование на IBM Smalltalk. - М.: Диалог-МГУ, 1996.

3. Буч Г. Объектно-ориентированный анализ и проектирование с примерами приложений - М.: Вильямс, 2008.

**Sh.N. Kaxarova – Farg'ona davlat universiteti ingliz tili o'qituvchisi**

## SHAXSLARARO MULOQOT XULQINING MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARI ASARLARIDAGI TASNIFI

Insonlar nutqi ularning shu nutq hosil bo'lgunga qadar egallagan bilim va ko'nikmalarining qay darajada ekanligini ko'rsatib turuvchi omil hisoblanadi. Shu sababli ham biz kishilar bilan o'zaro muloqotga kirishganimizda insonlar nutqidagi turlichalikni osonlik bilan sezamiz. Ularning shu kunga qadar egallagan bilimlari, kasb-u korlari , dunyoqarash, xarakter va hattoki suhbatdoshimizing oilasidagi muhit qanday ekanligini ham aynan muloqot jarayonida ular tomonidan so'zlangan nutq ko'rsatib beradi.

Muloqot jarayoni yuzaki qaraganda shunchaki ikki kishining o'zaro suhbatidek ko'rinishi mumkin. Aslida esa muloqot shunday murakkab jarayonki, uni to'liq tushunib, tahlil qilish uchun bir soha jihatdan yondashishning o'zi kamlik qiladi. Muloqotni turli sohalar turlicha o'rganadi, tabiiyki muloqotga berilgan tasniflar ham turlicha. Masalan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidgi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida, M.G.Davletshin mualifligida chop etilgan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida: " Muloqot - bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi effektiv baholovchi harakterdan va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir" – deb ta'kidlanadi.[565]

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda o'zbek tilshunosligida ushbu mavzu ustida tadqiqot olib borgan tilshunos olim S.M.Mo'minov muloqotga quyidagicha ta'rif beradi: " Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta'sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi".[566]

Yuqoridagi fikrlardan umumlashtiradigan bo'lsak muloqot murakkab jarayon bo'lib, u insonlar psixologiyasi bilan bevosita bog'langan holda ongimzda mavjud bilim va ko'nikmalarni suhbatdoshlarimizga etkazib berish bilan birga ularga biz haqimizda birlamchi ma'lumot beruvchi aloqa-aralashuv vositasidir. Ushbu mavzuni bir soha doirasida o'rganish muloqotning tahlil talab etuvchi aspektlarini to'la yoritilimay qolishiga sabab bo'ladi. Shunday ekan ishimizni dastlab "muloqot" atamasini yoritishdan boshlasak. Muloqot arabcha so'zdan olingan bo'lib, "uchrashish" ,"ko'rishish" ,"qabul qilish" ma'nolarini anglatadi.[567] Ushbu ma'nolar faqat muloqot terminining dastlabki funksiyalarini tushunishga ko'maklashadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqot juda keng ma'nolarni qamrab oluvchi termin bo'lib u polifunksionallik xususiyatiga ega.

L. A. Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi:
— aloqa o'rnatish vazifasi — suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;
— informatsion vazifa — suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni almashish;
— faoliyatga undash — suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish (rag'batlantirish);
— koordinatsion vazifa — suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish;
— tushunishni ta'minlash vazifasi — suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
— amotiv vazifa — suhbatdoshda muayyan hissiyotlami uyg'otish hamda ularni o'zgartirish;
— munosabat o'rnatish vazifasi — munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rinni, mavqeni aniqlash;
— ta'sir ko'rsatish vazifasi — suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish.

Demak, polifunksionallik xususiyatiga ega bo'lgan muloqotning yuqorida keltirilgan vazifalarini to'la tushunib, nutqiy etiket me'yorlariga amal qilgan adresat muloqotdan ko'zlangan maqsadga qiyinchiliksiz erishadi.

Muloqot jarayoni yildan yilga yangilanib, yosharib bormoqda, ya'ni nutqda yangi atamalar, yangidan yangi iboralar, so'zlashuvda o'zgacha uslublar paydo bo'lib kelmoqda. Tarixdan bizga ma'lumki

---

[565] Xaydarov F. ,Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010. – 63 b.
[566] Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fan. d-ri ... dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – 47 b.
[567] O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 2-tom. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 636b.

insonlarda fikrlash va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muloqot kishilik jamiyatining daslabki davrlardanoq birgalashib mehnat qilish jarayonida zaruriyat natijasida vujudga kelgan. Ibtidoiy davrda vujudga kelgan muloqot bugungi kun muloqotidan keskin farq qilgani tabiiy. Ibtidoiy jamoa vakillari tovushlar, ta’na harakatlari va ayrim belgilardan muloqot vositasi sifatida faydalanganlar. Muloqot vositalarining turlichaligiga qaramasdan muloqotning vazifasi va maqsadi bugungi kun bilan aynan o‘xshashdir. Bu davr kishilarining tili rivojlanishdan to‘xtamadi, balki kundan kun sayqallanib bordi. Odamlar atrof muhit bilan, unda yuz berayotgan tabiiy va notabiiy hodisalar bilan yaqindan tanisha boshladilar. Shunday qilib, tovushlar, ta’na harakatlari va belgilar o‘rnini endi narsalarga qo‘yilgan nomlar egallay boshladi, muloqotning yangi formasi vujudga keldi. Nutqda so‘z zaxirasi ko‘paygan sari endi ulardan eng maqbulini tanlab, undan o‘rinli foydalanish muammosi paydo bo‘ldi.

Keyinchalik bu jarayon san’at darajasiga ko‘tarilib, notiqlik san’ati boshqa kasblardan alohida yo‘nalishga aylandi. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Natijada notiqlik san’ating yetuk namoyondalari Sitseron, Aristotel, Demosfen, Kvintilian kabi buyuk notiqlar etishib chiqdi. Ular o‘z asarlarida so‘z qudrati va so‘zlardan tog‘ri foydalanish haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirdilar. Fikrimizning dalili sifatida Aristotelning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tamiz: “Aqlli odam o‘ylagan hamma narsasini aytmaydi, lekin har doim aytganlarini o‘ylaydi”. Ushbu fikrdan ko‘rinib turibdiki “aqlli odam” maqomiga loyiq bo‘lish uchun nafaqat bilim va donolik, balki so‘zlagan so‘ziga e’tiborli bo‘lish, uni tahlil etish va kerakli xulosa qilish ham zarur. Buyuk notiqlarning yaratgan asarlari asosida asta-sekin Yevropa ta’limida boshqa fanlar qotoriga nutq madaniyati fani qo‘shildi, uning yangidan yangi nazariyalari yaratildi, turli fan qamrovi jihatidan o‘rganila boshlandi.

Sharqda, hususan, buyuk mutafakkirlar zamini Movounnahrda ham qadimdan insonlarning xulq-atvori, bilim darajasi bilan bir qatorda muloqot jarayonida o‘zini qanday tutish, unumli va mazmundor nutq so‘zlay olish qobiliyatlariga katta e’tibor qaratganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Zamaxshariy, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi olimlar asarlaridan biz mutafakkirlarning bu sohada qanchalar yetuk bo‘lganliklarini va o‘z tajribalariga asoslanib yozgan asarlarida ham so‘z san’atiga alohida e’tibor berganliklarini bilishimiz mumkin.

Masalan,

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi malik,
Ortiq so‘z qiladi bu boshin egik,
Tilingni avayla omondur boshing.
So‘zingni avayla uzayar yoshing.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingan ushbu parchada kishining jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradigan, boshini omon tutadigan narsa bu so‘z ekanligi haqida ta’kidlanadi.

Yoki Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarida ham so‘z qimmati, inson so‘zlagan nutqi o‘ziga mos va xos bo‘lishi kerakligi haqida quydagicha fikrlar keltiriladi:

So‘zing kiyimingdek bekamu ko‘st qil,
Yoki kiyimingni so‘zinga rost qil.

Bundan tashqari aynan shu asarda keltirilgan quyidagi parchadan ham ko‘rinadiki, so‘z ma’nosi va undan o‘rinli foydalanishga Abdurahmon Jomiy yashab ijod etgan XV asrda ham katta e’tibor qaratilgan:

Bir shoir o‘qidi bemaza g‘azal
Dedikim, alifsiz yozdim, bu a’lo.
Dedimki,eng yuksak san’at bo‘lurdi
She’rning so‘zlari ham bo‘lmasa aslo.

Butun hayoti va ijodini o‘zbek tili taraqqiyotiga bag‘ishlagan Alisher Navoiy o‘z asarlarida nutq madaniyati haqida ham qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan. Xususan, “Mahbub ul-qulub” asarining 24-faslni “Nasihat ahli va voizlar zikrida” deb nomlab, unda voizlik san’ati, va’z haqida o‘z fikrlarini bayon etib, voizga quyidagicha ta’rif beradi: “Voizkim, bo‘lg‘ay olim va mutaqqiy - aning nas’hatidin chiqqan shaqiy (baxtsiz)”. Alisher Navoiy ijodida muloqot xulqiga oid misralarning takrorlanmas namunalaridan ko‘plab keltirish mumkin:

Bermas tatvil chun suxandon so‘zga,
Qil muxtasar ulcha bo‘lgay imkon so‘zga,
Ko‘p ayb topar kimsa farovon so‘zga,

Chun chekti uzoqqa, yetti nuqson so'zga.[568]

Yuqoridagi misralardan yaxshi so'z muxtasar bo'lmog'i zarurligi, so'z qancha uzun bo'lsa, asosiy mazmunga putur etishi va tinglovchilar nutqdagi kamchiliklarni oson payqashlari mumkin ekanliklari ma'lum bo'ladi.

Keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati haqida fikrlar va ulardan go'zal namunalar berib o'tilgan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, barcha davrlar o'z talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda nutq madaniyatining mukammal ko'rinishini badiiy chizmalar bilan chizishga harakat qilganlar. Aynan shu an'ana bugungi kunda ham davom ettirilib nutqning sofligi, badiiyligi, tog'riligi, ta'sirchanligini oshirish masalalari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad nutqiy savodxonlikni oshirishdir.

**N.M. O'rinova - Farg'ona davlat universiteti dotsenti**
**D.A. Yo'ldosheva - Farg'ona davlat universiteti tayanch doktaranti**

## BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALALARIDAN BIRI SIFATIDA

Talabaning kreativligini rivojlantirish o'quv jarayonini ijodiy faoliyat modeli sifatida yaratish zarurligini nazarda tutadi. Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotida talabaning kreativligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari kasbiy ta'limni mazmunli muammoli vaziyat kontekstida tadqiqot faoliyati sifatida tashkil etish, yechimlarni tanlash, usullarni aks ettirish va shaxsiy ma'no, o'zini ijodiy shaxs sifatida bilish, shaxsiy kasbiy tayyorgarlik dasturlarini yaratish, o'quv jarayonini tashkil etishning moslashuvchan modellariga o'tish zarurligini belgilaydi.

Ta'lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. M: xorijiy mamlakatlarda Begetto, Kaufman, Kirshner, Sveller, Klark kabi tadqiqotchi-pedagoglar buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: Ko'p hollarda, o'qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat va e'tibor qaratmaydilar .

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin guruhda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak pedagoglarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Kreativ xarakterga ega muhitdagina bo'lajak pedagoglar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlashni boshlashadi[569].

Talabalarda fikrlash ko'nikmasi bo'yicha yo'riqlarni aniq va tushunarli yetkazib berish uchun o'qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko'nikmalarni samarali shakllantirish yo'llari bilan bo'lajak pedagoglarni tanishtirish orqali o'quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo'naltirishi lozim.

Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak:

kreativlikning rivojlanish davri–ma'lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi;

kreativlikning rivojlanish bosqichi–muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi[570].

Shunga ko'ra, ma'lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

---

[568] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-jild. -Toshkent: Fan, 1999. – 202 b.

[569] Muslimov N.A., Inoyatev U.I., Usmonboyeva M., Inog'omova D. "Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob" / Metodik qo`llanma –T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012.

[570] Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.

Kreativ tafakkurga ega bo‘lajak pedagoglar boshqa bo‘lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g‘oyalarni bildiradi; o‘zlarini ifoda etishning o‘ziga xos uslubini tanlaydi; ba’zan mavzuga aloqasi yo‘q yoki g‘ayrioddiy savollar beradi; yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g‘oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko‘radi; muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

Bo‘lajak pedagoglarda kreativlik rag‘batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o‘qituvchi va bo‘lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o‘rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo‘rqish, haddan tashqari baholarga e’tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo‘rqish hissi mavjud bo‘lsa, bo‘lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, bo‘lajak pedagoglarning o‘qishdagi muvafaqqiyat va o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshirish faqatgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo‘llash orqali va sog‘lom muhitdagina erishish mumkin.

**N.J. Muminova - Farg’ona davlat universiteti, magistranti**

## KVEST TEXNOLOGIYASI - BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI MUSTAQIL FAOLIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYA SIFATIDA

Hozirgi vaqtda yangi bilimlarning paydo bo'lish jarayoni tezlashmoqda. Ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirish, raqamli texnologiyalarga o'tish zarurati mavjud. Ushbu muammolarni hal qilishda axborot kompetensiyasi asosiy rol o'ynaydi. Zamonaviy bolalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli qurilmalar bilan to'yingan muhitda tug'iladi, rivojlanadi va o'qiydi. Aynan shuning uchun ham ta'limning birinchi bosqichidayoq yangi imkoniyatlar - Internetning axborot salohiyatidan to'liq foydalanish zarur.

Maktabning ilk kunlaridanoq biz bolalarni turli xil ma'lumotlar manbalari bilan ishlashga o'rgatamiz, chunki bizning zamonamizda matn, grafik, tovush, multimediya, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash zarur mediya savodxonlikni talab qiladi.

O'qituvchilar ko'pincha ta'lim faoliyatini zamonaviy voqelikka mos kelishi uchun qanday tashkil qilish kerak degan muammoga duch kelishadi. Ana shunday pedagogik texnologiyalardan biri sifatida "kvest" ta’lim texnologiyasi ko’rsatish mumkin.

Kvestda ishtirok etish uning ishtirokchilari o'rtasida muloqotga bo'lgan ehtiyojni rag'batlantiradigan universal o'quv faoliyatini shakllantirishga yordam beradi. Kvestlardan foydalanish o'qituvchiga o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning an'anaviy shakllaridan voz kechish va ta'lim maydonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Birinchi marta "kvest" tushunchasi o'tgan asrda kompyuter o'yinlarida paydo bo'lgan. O. V. Pankova, M. N. Kicherova, G. Z. Efimovalarning yozishlaricha, bu tushuncha onlayn va oflayn kompyuter o'yinlarining har xil turlarini nazarda tutadi. Bunda taqdim etilgan interaktiv hikoyada qahramon yoki qahramonlar bilan o'yinchi o'yinning istalgan vaqtida maqsadga erishish uchun, keyingi bosqichga o'tish uchun biror narsani izlash, qandaydir jumboqni hal qilish yoki muayyan vaziyatda yagona to'g'ri yechimni topish kerak.[571]

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida B. Dodjem va T.Marchem (AQSh, San-Diego universiteti) ta'lim maqsadlarida veb-kvestlar kontseptsiyasini ishlab chiqdilar. Universitet professori B. Dodjem 1995 yilda "WebQuest" (veb-kvest) atamasini kiritdi. B.Dodjem o'quv jarayonida ma'lum bir qidiruv tizimidan foydalanishni taklif qildi, bunda oraliq bosqichlarni o'tish bilan vazifaning echimini topish kerak edi, ularning har biri qandaydir harakatlarni bajarish yoki keyingi bosqichga kirish uchun kalit topishni talab qiladi. T. March, L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi asarlariga asoslanib, veb-kvestni kognitiv psixologiya aspektida ko'rib chiqdi va veb-kvestni Internetdagi muhim manbalarga havolalardan foydalanadigan ta'lim tuzilmasi va tartibida aniq vazifa sifatida belgiladi. O‘quvchilarda ma’lumotlarni

[571] Быховский, Я. С. Образовательные веб-квесты [Электронный ресурс]. – Режим доступа URL: http//www.ito.edu.ru/ 1999/III/1/30015.html.

izlash va o‘zgartirish jarayonida yakka tartibda ham, guruhda ham ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida o‘quvchilarni har qanday muammoni noaniq yechim bilan o‘rganishga undadi[572].
Olimlar tadqiqotlarida Web Quest texnologiyasi quyidagicha talqin qilingan:

- Internet tarmog'ida u yoki bu o'quv topshiriqlarini bajaruvchi o;quvchilar ishlaydigan sayt (Y. S. Byxovskiy, G. S. Isakova, E. M. Shulgina, G. L. Shamatonova);
- Internetda kerakli ma'lumotlarni izlash bilan ta'lim muammosini hal qilishga qaratilgan maxsus veb-sayt, bu albatta yakuniy mahsulotni tayyorlash va ta'minlash uchun texnik yordamni, shuningdek muammoli xarakterdagi didaktik vazifalarni o'z ichiga olishi kerak (E.A. Igumnova, I.V Radetskaya);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bu didaktik tuzilma bo'lib, uning doirasida maxsus kompyuter dasturlari qo'llaniladi, qidiruv natijalarini bajarish va taqdim etish paytida Internetning axborot imkoniyatlari, aloqa ishtirokchilari o'rtasida fikr almashish (A. A. Vlasova, Yu. N. Zarubina, A. A. Karavka, G. L. Shamatonova);
- o'qituvchi tomonidan yaratilgan interfaol ta'lim muhiti (T. A. Kuznetsova);
- o'yin faoliyatining intellektual turi (G. Z. Efimova, M. N. Kicherova);
- Internetning axborot resurslaridan foydalaniladigan rolli o'yin elementlari bilan muammoli vazifa (A. V. Yakovenko).

Bizni muammoga E. A. Igumnova, I. V. Radetskaya, M. V. Ilyushinaning nuqtai nazari qiziqtiradi, ular I. P. Ivanov tomonidan ishlab chiqilgan stantsiya o'yinlari ko'pincha "jonli" kvestlar deb ataladi, ammo stantsiyalar bo'yicha o'yin kvestdan farq qiladi, bu erda vazifalar umumiy maqsad bilan birlashtirilgan va o'zaro bog'langan, oldingi vazifani bajarmasdan keyingi vazifani bajarish mumkin emas. Kvest o’quvchiga hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni taqdim etadi.

Kvest texnologiyasi ham guruhli (3-5 kishi), ham individual ish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin va maktab o'quvchilari o'rtasida raqobat va etakchilikni rivojlantiradi.[573]

Kvestning aniq belgilangan didaktik vazifa, o‘yin rejasi, yetakchi (murabbiy), aniq qoidalari borligiga e’tibor qaratsak, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Demak, kvest texnologiyasi birinchi navbatda bolani ta'lim muhitiga singdiradi, Internetda yoki boshqa manbalarda, masalan, darsliklar, didaktik materiallar, plakatlar, taqdimotlar kabi manbalardan faol qidiruv bilan o'yinga o'xshash jarayonni yaratish orqali bolani qiziqtirishga imkon beradi.

**K.I. Marayimova - Farg`ona davlat universiteti tayanch doktoranti**

## MUZEY TA’LIM FAOLIYATIDA FAOL VA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH

Zamonaviy ta'lim makonida insonning iste'dodi va qobiliyatini aniqlashga, uning ijodiy salohiyatini ochib berishga imkon beradigan o'quv muhiti muhim rol o'ynaydi. Bunday muhitning samaradorligi ko'pincha uning ishtirokchilarining didaktik vazifalarni hal qilishga hissa qo'shadigan faolligi bilan belgilanadi. Bunda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida turli darajadagi o‘zaro munosabatlarning mavjudligini ta’minlovchi muzey makonida interfaol muloqot muhiti alohida o‘rin tutadi. Muzey muhitida interfaol usullardan foydalanish o'qituvchining talabalar bilan yuqori sifatli qo'shma ishini tashkil etishga, o'quv maqsadlariga erishishga, universal didaktik usullardan yanada moslashuvchan foydalanishga yordam beradi va bo'lajak o'qituvchilarni o'qitish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shunga muvofiq interaktivlik muzeyda pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy tamoyili sifatida qaraladi.

Uzluksiz ta’limda amalga oshirilayotgan ta’lim shakllari o‘quvchilarning o‘quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning uchta asosiy shakliga to‘g‘ri keladi:

1. Sinfda ishlash, faqatgina kontaktli ta’limni amalga oshirish sifatidagina emas, balki Internet darslarida guruh va individual mashg‘ulotlar, elektron ta’lim.

---

[572] Купцова, О. В. Использование КВЕСТ - технологии в начальной школе [Электронный ресурс] Режим доступа - https://docviewer.yandex.ru

[573] Каравка, А. А. Урок-квест как педагогическая информационная технология и дидактическая игра, направленная на овладение определенными компетенциями [Электронный ресурс] / А. А. Каравка // Интернет-журнал «Мир науки» – Выпуск 3 (июль-сентябрь)–2015.Режим доступа URL: http://mirnauki.com/PDF/45PDMN315.pdf

2. Sinfdan tashqari ishlar, nafaqat ko'rgazmalar, muzey ekspozitsiyalaridagi mashg'ulotlar, shu jumladan pedagogik sahna ko'rinishining bir shakli sifatida muzeyga ekskursiya, balki ko'rgazmalarda, muzey majmualarida va turistik sayohatlarda kommunikativ faoliyat. Elektron ta'lim, o'zaro aloqaning masofaviy shakllaridan keng foydalanish.

3. Mustaqil ish, nafaqat ijodiy faoliyatni loyihalash va amalga oshirish, masalan, virtual muzey muhitini modellashtirishda, balki madaniy-ma'rifiy makonni, madaniy qadriyatlarning turli manbalarini, muzeylarni, shu jumladan virtual muzeylarni rivojlantirishda individual tajriba.

O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning turli shakllari, ham sinfdan, ham darsdan tashqari, masofaviy ta'lim, masofaviy elektron ta'limni joriy etish zamonaviy ta'limning o'zgaruvchanligini, uning keng imkoniyatlarini belgilaydi. Muzey pedagogikasida interfaol usullarning maqsadi shaxsni muzeyning ko'p qirrali faoliyatiga kiritish orqali uning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir. Zamonaviy muzeyni rivojlantirish va tinglovchilarni kengaytirish uchun rag'batlantirish interaktiv usullar deb ataladi. Interaktiv usullar (ingliz tilidan. interaction-o'zaro hamkorlik) - ta'lim faoliyati sub'ektlarining doimiy o'zaro hamkorligi, muayyan muammoni hal qilish yo'llari haqida erkin fikr almashish. Interaktiv usullarning mohiyati o'quvchilarning bilim va intilishlarini rivojlantirish, bilim olishga mustaqil qiziqish uyg'otish, o'z faoliyat usullarini shakllantirishdan iborat.

Muzeyga nisbatan turli manbalar ushbu tushunchani turlicha izohlashadi. Muzey atamalari lug'atida "interaktiv – texnologiya" tushunchasiga muzey tashrif buyuruvchisining muzey maydonini yaxshiroq o'rganish uchun shaxsiy tajriba orttirish maqsadida kommunikatsiya jarayonda faol ishtirok etishi - deb ta'rif beriladi. B. A. Stolyarov muzey sharoitida interaktivlikni "tashrif buyuruvchi va muzey o'qituvchisining muzey muhiti bilan samarali muloqotga qo'shilish imkoniyatini beruvchi usul" deb ta'riflaydi. Unda ekspozitsiyadan tashqari vizual va og'zaki idrok kanallarini faollashtirishga imkon beruvchi, har xil muzey ashyolari yoki ularning modellari bilan to'ldirilgan maxsus zonalar yaratilishi mumkin.[574]

Muzeyning madaniy-ma'rifiy faoliyatining an'anaviy shakllari orasida tomoshabinlarni faol faoliyatga jalb etishga qaratilgan klub, to'garak, studiya kabilar mavjud. Garchi ular turli darajadagi intensivlikda namoyon bo'lsa ham tomoshabinlarning faolligini oshirish ularning umumiy belgisidir.

Bunday faol shakllar ta'lim texnologiyalarinini hamkorlikda qo'llash imkoniyatini yaratadi. Faol usullar o'quvchilarning muzey auditoriyasida o'quv jarayoniga yuqori darajada kirishishlari bilan tavsiflanadi. Vazifalarni hal qilishda ularning bilim va ijodiy faoliyati faollashadi. Muzey mavzusi bilan bog'liq tanlovlar, olimpiadalar va viktorinalar "bilimdonlar"ni birlashtirib, insonlarni muzey ishiga jalb qilish orqali tomoshabinlarning faolligini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu musobaqalar tashrif buyuruvchilarni muzey kolleksiyalariga maksimal darajada yaqinlashtiradigan tarzda tashkil etiladi: odatda, topshiriqlar nafaqat faktlarni, balki ekspozitsiyalarni, shuningdek namoyish etilgan eksponatlarni bilishni o'z ichiga oladi.

**Master-klass** o'zaro hamkorlik shakllaridan biri bo'lib, kasbiy tajribani olish va almashish, tashrif buyuruvchilarga ustozning o'zi va uning professional tajribasi bilan tasdiqlangan ma'lumotlar va ayniqsa, amaliy ishlanmalarni metodik ravishda etkazish bilan bog'liq turli vazifalarni hal etishga qaratilgan.

**Muzey bayrami** - muzey tomoshabinlari bilan ishlashning murakkab shakli, jumladan, ekskursiya elementlari, mavzuli kechalar, teatr tomoshalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. 1980-yillarga kelib. muzey faoliyati sohasiga muzey bayrami deb ataladigan kunni kiritishni o'z ichiga oladi - muzey tomoshabinlari bilan ishlashning kompleks shakli, jumladan ekskursiya, teatrlashtirilgan tomosha va boshqalar. Bunday tadbir, odatda, muzey ekspozitsiyalari va kolleksiyalaridan foydalangan holda senariy asosida amalga oshiriladi.

**O'yin usuli** muzeydagi ta'limiy faoliyatni faollashtiruvchi, muzey merosini idrok etish samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol texnologiyadir. Muzey o'yinining o'ziga xos xususiyati shundaki, u ishtirokchilarning rol o'ynash xatti-harakatiga asoslangan bo'lib, o'tmishga sho'ng'ish, tarixiy haqiqatlar bilan bevosita aloqada bo'lish tajribasini topish imkonini beradi.

**Muzey musobaqasi** muzey ashyolari va muzey maydonlaridan foydalangan holda sintetik kommunikatsiya ta'limini anglatadi, uning asosini raqobat komponenti tashkil etadi. Shunday qilib, muzey pedagogikasida interfaol usullar ijtimoiy faol kishini o'qitish yo'lidagi birinchi qadam bo'lib,

[574] Столяров, Б. А. Музейная педагогика. История, теория, практика: учеб. пособие / Б. А. Столяров. – Москва: Высшая школа, 2004. – 216 с.

mutaxassisning keng ko'lamli imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Individual yondashuv talabaga u qiziqayotgan sohada rivojlanish imkon beradi.

**U.A. Azimov - Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri**

## TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA YOSHLARNING DEMOKRATIK ISLOHOTLARGA AKSIOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANITIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI

